

IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYA



O'QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 20 **24** yil "**25**" **iyun** dagi "**218**"-sonli buyrug'iga asosan

Sh.Z. Jumaxanov, A. Saliyev, A.M. Toshpo'latov

(muallifning familiyasi, ismi-sharifi)

Geografiya, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha)

(ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi))

ning

talabalari (o'quvchilari) uchun tavsiya etilgan

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya nomli darsligi

(o'quv adabiyotining nomi va turi: darslik, o'quv qo'llanma)

ga

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi.



Vazir

K.Sharipov

(imzo)

Ro'yxatga olish raqami

218-182



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

Soliyev Abdusami Soliyevich

**Jumaxanov Shavkatjon Zairjanovich
Toshpo‘latov Abduqodir Maxammadjon o‘g‘li**

IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYA

Darslik

“MASHRAB” nashriyoti
Namangan
2024

UO‘K: 821.512.133-9

KBK: 84 (o‘zb)7

S-27, J-28, T-29

Soliyev A.S., **Jumaxanov Sh.Z.**, **Toshpo‘latov A.M.** Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya [Darslik]. – Namangan: “MASHRAB” nashriyoti, 2024. – 408 b.

Ushbu darslikda Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning zamonaviy mazmun-mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari, ichki tuzilishi va iqtisodiyot tarmoqlarini o‘rganishdagi ahamiyati yoritib berilgan. Darslik O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlarining 60530200 – Geografiya yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan. Shuningdek, mutaxassis geograf-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrantlar va sohaga oid tadqiqotlar bilan shug‘ullanuvchi ilmiy izlanuvchilar foydalanishi mumkin.

Ma’sul muharrir: Tojiyeva Z.N.

O‘zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasida professori, g.f.d. (DSc)

Taqrizchilar: Ibragimov L.Z.

Samarqand davlat universiteti Ijtimoiy va iqtisodiy geografiya kafedrasida professori, g.f.d. (DSc)

Baratov A.S.

Namangan davlat universiteti Geografiya kafedrasida dotsenti, g.f.n.

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan

ISBN: 978-9910-662-31-7

© **Soliyev A.S.**, Jumaxanov Sh.Z., Toshpo‘latov A.M.

© «MASHRAB» nashriyoti, Namangan, 2024

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim-tarbiya jarayonini sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarishni talab etmoqda. Bunda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Aholi turmush darajasini yuksaltirish, iqtisodiyotni rivojlantirish va xalqaro miqyosidagi mavqeyini yanada mustahkamlash har bir jamiyatning eng ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Bu borada, yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash dolzarb ahamiyatga ega. Chunonchi, hududlarning tabiiy va ijtimoiy xususiyatlari asosida ularning ixtisoslashuvini aniqlash, iqtisodiy sig'imi va funksiyasini baholash, kishilar hayotidagi ijtimoiy tafovutlarni hisobga olgan holda, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish mamlakat taraqqiyotining poydevoridir.

Shu jihatdan, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayon ma'lum omillar orqali vujudga keladi hamda o'ziga xos qonuniyatlar, tamoyil va mezonlar asosida rivojlanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani ayni ushbu masalalar bilan shug'ullanadi. Zero, bu fanning yana bir betakror xususiyati shundaki, u mutaxassisni ayni vaqtda ham geograf, ham iqtisodchi bo'lishini talab qiladi; har bir narsani hudud orqali, hudud nuqtai nazaridan o'rganadi, baholaydi va bashorat (prognoz) qiladi.

Jahon bo'yicha mazkur fan miqyosida amalga oshirilgan ishlar talaygina. Jumladan, amerikalik olim Pol Krugman xalqaro savdo aloqalari va yangi iqtisodiy geografiya bo'yicha olib borgan izlanishlari uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. Kelib chiqishi xitoylik bo'lgan Yi-Fu Tuan hududlarning o'ziga xosligini ochib berishga asoslangan topofiliya ta'limoti uchun, britaniyalik geograf Devid Xarvi geourbanistika sohasidagi erishgan yutuqlari evaziga Nobel mukofotiga tenglashtirilgan Votren-Lud mukofotiga sazovor bo'lishgan.

O'zbekiston Respublikasining siyosiy mustaqillikka erishuvi va mamlakat iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi natijasida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, mehnat resurslarini samarali boshqarish, iqtisodiyotini diversifikatsiya va modernizatsiya qilish zarurati yuzaga keldi. Bu esa ushbu fanning nazariy va amaliy jihatlariga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Xususan, Iqtisodiy va ijtimoiy

geografiya faniga oid yangicha ilmiy manbalarni yaratishga ehtiyoj tug'ildi va 1996-yilda «Iqtisodiy geografiya asoslari» nomli ilk o'quv qo'llanma¹ nashr etildi. 2005-yilda risola qayta tahrirlanib, «Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari» nomi bilan darslik² sifatida chop ettirildi. Ayniqsa, professor A.S.Soliyev tomonidan 2013-yili yozilgan “Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot” nomli monografiya fan doirasida klassik manba sifatida foydalana boshlandi.

Keyingi yillarda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalardagi islohotlar natijasida xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda zamonaviy mazmundagi manba yaratish zarurati vujudga keldi. Natijada, 2019-yili mualliflar jamoasi tomonidan «Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya» nomli darslik³ yaratiladi. Ushbu darslik o'z ichiga olgan mavzular dolzarb masalalarga bag'ishlangan bo'lishiga qaramay, undagi mazmun-mohiyatning asosiy qismi sotsial masalalarga qaratilgandi. Hozirgi aholi soni o'sib borayotgan bir davrda tabiiy boyliklar hajmining kamayib borayotganligi cheklangan resurslardan oqilona va majmualiy foydalanishni taqozo etmoqda. Qolaversa, iqtisodiyotning barcha sohalaridagi tarmoq va hududiy o'zgarishlar fanning iqtisodiy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatib berdi.

Ushbu darslikda, aynan, yuqorida ko'zda tutilgan masalalar inobatga olingan. Chunonchi, mazmunan bir-biriga yaqin mavzular o'zaro biriktirilgan, boshqa fanlar dasturida o'rganiladiganlari o'rniga mazkur fanga oid bilimlar uzviyligi va bir butunligini ta'minlaydigan yangilari kiritilgan. Darslikni yozishda professorlar A.S.Soliyev⁴, O.Abdullayev⁵ tomonidan nashr ettirilgan, shuningdek, AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya va Rossiya kabi ilg'or mamlakatlarda chop etilgan adabiyotlardan foydalanilgan.

¹ Солиев А.С., Махамдалиев Р.Й. Иқтисодий география асослари [Ўқув қўлланма]. – Тошкент: “Университет”, 1996. – 4,4 б.т.

² Солиев А.С., Махамдалиев Р.Й. Иқтисодий ва ижтимоий география асослари [Дарслик]. – Тошкент: “Университет”, 2005. – 7,75 б.т.

³ [Soliyev A.S.], Komilova N.Q., Yanchuk S.L., Jumaxanov Sh.Z., Rajabov F.T. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya [Darslik]. – Toshkent: “Noshir”, 2019. – 508 b.

⁴ Солиев А.С. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёти [Монография]. – Тошкент: “Камалак”, 2013. – 184 б.

⁵ Абдуллаев О. Иқтисодий география [Ўқув қўлланма]. – Наманган: “Наманган”, 2006. – 520 б.

1-BOB. IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYAGA KIRISH

Mavzu annotatsiyasi. *Ushbu mavzuda Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining tadqiqot obyekti va predmeti tahlil etilgan, ular o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar yoritib berilgan. Shuningdek, fanning tadqiqot obyekti va predmeti bo'yicha geograf olimlarning turlicha qarashlari qiyosiy tahlil qilingan. Iqtisodiy geografik tamoyillar asosida fanning zamonaviy ta'rifi keltirib o'tilgan.*

Tayanch so'z va iboralar: *tadqiqot obyekti, tadqiqot predmeti, fanning tamoyillari, hududiylik, majmualilik, tarixiylik, ekologik, demotsentrizm.*

Reja:

- 1.1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining obyekti va predmeti.
- 1.2. Fanning asosiy tamoyillari.
- 1.3. Raqamlashgan davrda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya.



1.1-§. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining obyekti va predmeti

Jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar faqat vaqt (davr) davomida kechmaydi, ular ayni paytda muayyan joyda — makonda ham sodir bo'ladi. Ijtimoiy rivojlanishning ana shu hududiy jihatlari geografiya fanining tadqiqod doirasiga kiradi. Biroq jamiyat rivoji bilan uni o'rganuvchi fanlarning tadqiqod obyekti ham murakkablashib va takomillashib boradi. Bu tabiiy va o'z-o'zicha qonuniy holdir.

Ma'lumki, har qanday fan tadqiqot *obyekti* va o'zining predmetiga ega bo'lishi kerak. Bu yerda obyekt serqirra borliq, hodisa va voqealar bo'lib, u birgina fan uchun emas, balki ko'p fanlar birikmasiga xizmat qiladi. Foto- yoki kinoapparat, videokamera obyektiv barcha borliqni qamrab oladi va unda bizni qiziqtirmaydigan narsalar ham o'z aksini topishi mumkin. Vaholanki, har bir fan hodisa yoki voqealarni o'zining xususiyati va mohiyatiga ko'ra faqat bir tomonini o'rganadi. Ana shu «bir tomoni», jihati har qaysi fanning *predmeti* hisoblanadi va u aniq narsa yoki hodisaning o'rganishini bildiradi.

Demak, obyekt *keng qamrovli tushuncha*, predmet esa nisbatan *tor va aniq ma'noda bo'lib, u shu obyektning qaysi qismini o'rganishni*

anglatadi. Bu borada qator misollar keltirish mumkin. Masalan, aholi, ayni paytda iqtisodchilar, demograflar, etnograflar, sotsiologlar, geograflar, tibbiyotchilar, huquqshunoslar va boshqa fan vakillarini qiziqtiradi. Ammo har qaysi fan «o‘z burchagidan» uni tadqiq va tahlil qiladi. Jumladan, iqtisodchilar uchun aholi bu asosiy ishlab chiqarish kuch, mehnat qiluvchi subyekt sifatida ko‘riladi; etnograflarni aholining qiziqtiruvchi tomoni uning milliy urf-odati, kiyinishi, an‘analaridir, demograf esa, aholining takror barpo etilishi, uning tabiiy va migratsion harakati (tug‘ilish, o‘lim, ko‘chib yurish), nikoh, ajralish va boshqa tomonlarini ilmiy asosda tahlil qiladi va h.k.

Jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish va joylanishidagi jarayonlar iqtisodiy geografiya obyektining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Shunga mos ravishda, bu fanning tadqiqod predmeti va vazifalari ham takomillashib boradi. Ayni paytda, bunday evolyutsion jarayonlar fan nomini zamon talabiga muvofiqlashuviga olib keladi. Binobarin, an‘anaviy iqtisodiy geografiya asta-sekin iqtisodiy va sotsial geografiyaga, u esa, o‘z navbatida, yanada murakkabroq va mujassamroq shaklga – ijtimoiy geografiyaga aylanmoqdaki, bu ushbu fanni jahon miqyosidagi andozalariga moslashtiradi.

Umuman olganda, «iqtisodiy geografiya» tushunchasini dastlab atoqli rus olimi M.V.Lomonosov XVIII asrning 60-yillarida ishlatgan. Lekin fan sifatida, keyinchalik, boshqalar tomonidan yaratilgan⁶. Iqtisodiy geografiya fani ta‘rifini birinchilar qatorida nemis olimi Alfred Veber 1909-yilda bergan. Uning fikricha, bu fan hududlarning iqtisodiy xususiyatlari, funksiyasini o‘rganadi.

Geografiya tabiiy fanlar turkumiga oid fan hisoblanadi. Uning tarmoqlaridan biri – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi esa iqtisodiyot, sotsiologiya, tarix, siyosatshunoslik fanlari kabi ijtimoiy fandirga ancha yaqin turadi. Shuningdek, geografiyaning alohida yo‘nalishlari orasida texnikaviy (masalan, kartografiya) fanlar ham mavjud. Shu bois, geografiya tabiiy fanlar turkumidan o‘rin egallasa-da, uning tarkibida ijtimoiy va texnikaviy yo‘nalishdagi fanlarni ham uchratish mumkin.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot obyekti va predmeti haqida turli xil fikrlar mavjud. Ilmiy adabiyotlarda geografiyaning ijtimoiy tarmog‘i obyektini quyidagicha aniqlashtirish holatlari uchraydi:

⁶ Xorijda «Iqtisodiy geografiya» tushunchasini Y.G.Saushkin fikricha, birinchi bor 1882-yilda F.Ratselning shogirdi nemis V.Gots qo‘llagan.

- ✓ inson hayoti va faoliyatiga tegishli hududiy mutanosiblik (bu yerda tabiiy hududiy mutanosiblik ham mavjudligini unutmaslik kerak);
- ✓ ishlab chiqarish jarayoniga aloqadir hududiy majmualar;
- ✓ hududiy ijtimoiy (iqtisodiy, sotsial, siyosiy va boshqa) tizimlar;
- ✓ atrof-muhitning inson tomonidan o'zgartirilgan qismi yoki antroposfera;
- ✓ iqtisodiy rayon va boshqalar.

Shunday ekan, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya geografiya fanlar tizimining inson xo'jalik faoliyati bilan uzviy bog'liq zamonaviy shakli, degan xulosaga kelish mumkin. A.Y.Skopinning fikriga ko'ra, iqtisodiy geografiyaning obyekti *antroposfera* (ekosfera) bo'lib, bu yerda xo'jalik faoliyati rivojlanadi; tadqiqot predmeti esa tizimli yondashuvlar asosida *geoiqtisodiy muammolar yechimini izlash va antroposferaning transformatsiyasini o'rganishdir*.

1960 – 1970-yillarda geografiya hududiy tizimlar haqidagi fan, degan qarashlar yuzaga keldi. Lyudvig fon Bertalanfi fikriga ko'ra, tizim – bu doimo o'zaro munosabatda bo'lib turadigan elementlar majmuasidan iborat. Y.G.Saushkin iqtisodiy geografiya – hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning shakllanishi, faoliyati va rivojlanish jarayonlari hamda ushbu tizimlarni boshqarish haqidagi fandır, deb ta'kidlagan.

Professor A.S.Solievning fikriga ko'ra, *mustaqil fan sifatida Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ishlab chiqarish kuchlarini turli mamlakat yoki rayonlarda rivojlanish va joylanish xususiyatlarini hamda inson hayot faoliyati va yashash tarzini hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar majmualar yoki doirasida o'rganadi*.

Umumiy qilib aytganda, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning **obyekti** *hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar* bo'lsa, **predmeti** esa *ishlab chiqarish kuchlarining turli darajadagi tarmoq va tarmoqlararo shakllanishi, rivojlanishi va boshqarilishini hududiy tashkil etish* hisoblanadi.

1.2-§. Fanning asosiy tamoyillari

Albatta, har qanday fanning predmeti, ta'rifi uning asosiy tamoyillarini o'zida aks ettirishi shart. Chunki, o'zining metodologiyasi va metodi, tadqiqod predmeti va prinsiplariga ega bo'lmagan fan mustaqil fan hisoblana olmaydi. Xo'sh, geografiya va shu jumladan, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning bosh tamoyillari nimalardan iborat?

Fikrimizcha, bu yerda turli darajadagi asoslar mavjud, ularning ayrimlari faqat shu fanga tegishli bo'lsa, qolganlari umumilmiy, falsafiy ahamiyatga ega.

Shubhasiz, geografiya fanining eng birinchi tamoyili uning **hududiyligidir**. Zero, geografiyani hududiy munosabatlarsiz, makon tushunchasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ammo, shu bilan birga, hududga o'ziga xos borliq sifatida turlicha yondashiladi. Masalan, muhandislik (*yersoqlik*) hamda rayon planirovkasida ko'proq hududni tashkil etishga e'tibor beriladi. Bunda yer maydonining o'zi ma'lum maqsadlar uchun tayyorlanadi. Jumladan, uni barcha infrastruktura shaxobchalari bilan jihozlangan holda sanoatchilar uchun ijaraga berish yoki sotish mumkin.

Ijtimoiy geografiyada an'anaviy tarzda «hududiy tashkil etish» iborasi qo'llanilib, u odatda mazmun va shakllari bo'yicha ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga yaqinroq turadi. Shu bilan birga, oddiy joylashtirishdan farq qilib, ishlab chiqarishni, aholi yoki xo'jalik tarmoqlarini hududiy tashkil etish ayni paytda uni muayyan maqsadga yo'naltirilishi va eng muhimi – boshqarilishini ham o'z ichiga oladi-ki, bu ushbu tushunchaning ilmiyroq va amaliyroqligidan darak beradi. Bu yerda tizim (*sistema*) qoidasiga muvofiq ma'lum bir voqelikni tashkil etish avalambor uni boshqarish niyatida amalga oshiriladi.

Ma'lumki, geograflar nigohida hudud qiyofasi o'zining barcha mavjudoti bilan gavidalanadi va bir qarashda u to'la qamrab olinadi. Biroq, ko'rib turilgan hududda undagi bor elementlar (*yo'l, daraxt, o'y, kishilar, transport va hokazo*) yakka-yakka yoki aksariyat holda muayyan hududiy birlikda bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda ijtimoiy geografiyaning tadqiqot obyektiga kiruvchi barcha predmetlar turli hududiy majmua shaklini tashkil etadi. Chunonchi, qishloq xo'jaligi tarmoqlari - ekinzorlar va chorvachilik yaylovlari, rekreatsiya manzilgohlari, o'rmonzorlar va boshqalar areal (*maydon*) ko'rinishiga ega. Sanoat markazlari va aholi punktlar nuqta yoki tugun, transport yo'llari, gidrografik shaxobchalar esa tasmasimon (*chiziqsimon*) shaklida ko'zga tashlanadi va huddi shu tarzda xaritada tasvirlanadi. Bu o'rinda bir so'z bilan aytish mumkinki, ijtimoiy geografiya ana shu maydon, chiziq va nuqtalarning joylashuvi, ularning o'zaro va tashqi muhit bilan hududiy munosabatlarini o'rganadi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarishni tashkil etishning hududiy shakli sifatida hududiy ishlab chiqarish majmualari (*komplekslari, sanoat tugunlari va rayonlarni*), aholining bunday tashkil etish

shakllariga esa turli tip yoki yiriklikdagi qishloq va katta-kichik shaharlar, shahar aglomeratsiyalari, konurbatsiya va megalopolislarni ko'rsatish o'rinli. Transportda transport tugunlari, aholiga xizmat ko'rsatish geografiyasida-maishiy kombinatlar yoki fan geografiyasidagi hududiy ilmiy tadqiqot majmualari ham ushbu sohalarning hududiy tashkil etish shakllariga kiradi. Hudud miqyosida har xil kattalik va yo'nalishdagi muhit vujudga keladi. Jumladan, ancha keng bo'lgan iqtisodiy va mulkchilikning turli shakllari mavjud bo'lgan raqobat muhiti, sotsial-iqtisodiy va nisbatan torroq doiradagi sotsial muhitni ajratish mumkin. Muhitlarning ushbu ko'rinishlari bilan shunga mos ravishda ijtimoiy geografiyaning asosiy qismlari: iqtisodiy, sotsial-iqtisodiy hamda sotsial geografiya shug'ullanadi (Soliyev A., 1995-y.).

Geografiya fanining ikkinchi bir muhim tamoyili **kompleksdir**. Biroq, bu yerda kompleks ishlab chiqarishning ijtimoiy yoki hududiy tashkil etish shaklini emas, balki masalaga, fan obyektiga va predmetiga yondashuv ma'nosini anglatadi. Ayni paytda komplekslik geografiya fani uchun alohida usul (*metod*) ham emas, aksincha, u fanning prinsiplaridan biri bo'lib, uning o'ziga xos va tub mohiyatini ifodalaydi.

Shu bilan birga, ba'zan «kompleks geografik (yoki iqtisodiy geografik) tadqiqot» iborasi ishlatiladi-ki, nazarimizda, bu ham ortiqcha yoki xatolikdir. Chunki, geografik tadqiqot hamma vaqt kompleks bo'ladi, busiz u o'z mohiyatidan ajralib qoladi. Ekologik yondashuv asosida ham komplekslik yotadi va bu uni geografik dunyoqarashga juda yoqinlashtiradi. Ayrim hollarda «majmualiy geografik tadqiqot» ham deyishadi. Bu ham uncha to'g'ri bo'lmasa kerak.

Komplekslik o'rganilayotgan obyektga atroflicha yondashuv, uni aloqadorlikda ko'rishni taqozo etadi. Shu ma'noda u tizimli (sistemali) qarashga ham yoqinlashadi. Ammo bu tamoyildan to'g'ri va oqilona foydalana olish lozim. Aks holda tadqiqot natijasi «har sohadan bir shingil», sayoz, yuzaki va quruq bo'lib, ba'zan o'zi nimani o'rganilishi kerakligi ham sezilmay qolinadi. Binobarin, ushbu tamoyil mohiyatini misli daraxt shaklida tasavvur qilmoq zarur: daraxt tanasi o'rganilayotgan asosiy hodisa bo'lsa, uning shox va shoxchalari shu muammo bilan bevosita aloqador masalalar majmuasidir. Bunda daraxt tanasi o'ta yo'g'onlashib, shox-shabbasiz va, aksincha, shoxlar kattalashib, uning tanasi ko'rinmay qolmasligi kerak. Birinchi holda komplekslikning o'zi bo'lmaydi, ikkinchisida esa haddan tashqari masaladan chetga chiqib ketish ayondir. Masalan, bog'dorchilik

geografiyasida temiryo‘l transporti yoki aholining tug‘ilishini chuqur o‘rganish aslo talab qilinmaydi.

Huddi shunday **hududiylik** tamoyilining ham nozik jihatlari mavjud. Bu yerda biz tadqiqot obyekti-hududni juda kattalashib ketmasligini nazarda tutmoqdamiz. Chunki, bunday holda ham tadqiqot natijasi yuzaki, umurtqasiz bo‘lib qoladi.

Biz shu paytgacha katta hududni «kichraytirib» o‘rgandik. Endi esa buning aksi, kichik joyni kattalashtirib, yirik masshtabli tadqiqotlarni o‘tkazish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Darvoqe, rivojlangan xorijiy mamlakatlar (*AQSh, Yaponiya, Germaniya va boshqalar*) tajribasi aynan shundan dalolat beradi. Bu mamlakatlarda, bizdan farqli o‘laroq, asosan mikroiqtisodiy, mikrogeografik yondashuv ustuvor turadi. Ehtimol, shuning uchun bo‘lsa kerak-tadqiqotlar aniq, puxta va amaliy jihatdan yuqori bo‘ladi. To‘g‘ri, tadqiqot obyekti sifatida kattaroq hududni ham olish mumkin. Lekin bunday holda hududning barcha qismini emas, aksincha, muhim muammolarini uning ayrim va turli nuqtalari misolida chuqurroq tahlil qilish va shu negizda o‘rganilayotgan obyekt va unga o‘xshash joylarga xos bo‘lgan umumiy qonuniyatlarni asoslab berish talabga muvofiqdir (*rus tilida bunday yondashuvni метод ключей ёки метод глубокого бурения deb ham aytishadi*).

Shunday qilib, hududiylik va komplekslik geografiya fani uchun o‘ta zarur. Biroq ular o‘z me‘yorida bo‘lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, ushbu yondashuvlar hamma vaqt aniqlik bilan birga olib borilishi to‘g‘riroq bo‘ladi. Professor E.B.Alayev aniqlikni (konkretlikni) geografiyaning alohida tamoyili sifatida ko‘rsatadi. Biz esa uni yuqoridagi ikki asosiy tamoyilning umumiy maxraji, mezon yoki «ikki plyus bir» shaklida ko‘rishni istar edik. Sababi, muammo qancha keng va chuqur, ma‘lum bir maqsad doirasida atroflicha, har taraflama va ayni paytda aniq tahlil etilsa, uning xulosalari hamma vaqt yuqori bo‘ladi.

Komplekslilik sistema g‘oyasiga o‘xshash. Ammo o‘xshashlik aynan bir xillik emas. Komplekslikda asosiy urg‘u muammoni atroflicha o‘rganish tilab etilsa, sistemali yondashuvda u ichki va tashqi jihatdan, o‘zaro aloqadorlikda pog‘onasimon shaklda tahlil etiladi. Komplekslikda obyekt «eniga», sistemada «bo‘yiga» ko‘riladiki, birinchisida asosiy mezon kenglik bo‘lsa, ikkinchisida chuqurlikdir. Albatta, geografiya fani uchun sistemadan ko‘ra kompleks yaqinroq va an‘anaviyroqdir. Chunki, geografiyaning o‘zi kompleks va komplekslar

haqidagi fandır. Binobarin, kompleksga kompleks yondoshuv shart va zarur. Ammo, yuqorida ta'kidlaganimizdek, komplekslikning chegarasi bo'lishi talab etiladi. Gap shundaki, geografiya hududlar, chegaralar to'g'risidagi fan bo'lsada, ba'zan uning o'zini had-hududi, chegarasi yo'q; ayrim hollarda ular razmersiz fanga aylanib qoladi-ki, bu albatta ijobiy emas. Shu bois, geografiyaning asosiy kasbiy kasalliklaridan biri bo'lmish aniqsizlikka qarshi kurashish kerak. Binobarin, sistemada amaliylik yanada yuqoriroq, zero, har qanday sistema boshqaruv bilan bog'liq, boshqaruv esa ko'rilayotgan obyektning tashkil qilinishini, tik (*vertikal*) va gorizontal, ichki va tashqi aloqalarni nazarda tutadi.

Komplekslikda eng muhimi masalani (*muammoni*) to'g'ri va aniq chegaralash va tadqiqot doirasini belgilash bo'lsa, sistemada birlamchi elementni aniqlashdir. Chunki, kompleks g'oyasida tarkib uncha ahamiyatli emas, sistema esa hamma vaqt o'zining ichki tuzilishiga, tarkibiga, turli bosqichdagi «sistemalarga» bo'linadi va faqat birlamchi element bunday xususiyatga ega bo'lmaydi. Shunday qilib, iqtisodiy va sotsial geografiyada, hududiylik, kompleks va tizim (*sistema*) prinsip yoki umummetodologik asoslarga to'g'ri rioya qilish ham muhim nazariy-amaliy muammolar sirasiga kiradi.

Geografiyaning ikki asosiy tamoyili-hududiylik va majmualilikdan so'ng *tarixiylik* turadi. Bu prinsip makon va zamon, zaminu zamon birligidan kelib chiqadi. Zero, har qanday hodisa ma'lum bir vaqtda va muayyan bir joyda sodir bo'ladi. Shuning uchun geografiyaga tarix kerak. Sababi, hozirgi mavjud voqelik o'z-o'zicha, birdaniga vujudga kelmagan. Binobarin, bu voqelik qachon va qanday sharoitda paydo bo'lgan va u qanday rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan-bularning hammasini hozirgi borliqdan kelib chiqqan holda aniqlab olmasdan turib asosiy masalani hal etib bo'lmaydi. Faqat o'tmishni tahlil etish orqali hozirgini baholab bo'ladi, bu esa o'z navbatida kelajakni, istiqbolni ilmiy bashorat etishga yo'l ochadi.

Tarixiylik tamoyilining muhimligini N.N.Baranskiy ham ta'kidlagan. Bu olim: «*Mamlakat va rayonlar iqtisodiy ta'rifini shunday beringki, u oyog'i bilan yerga–geologiya, geomorfologiya va tuproq-shunoslikka, tanasi bilan tarix orqali o'tishi, boshi bilan esa siyosat va mafkuraga tayanishi, taqalishi kerak*», deb uqtirgan edi. Ko'rinib turibdiki, tarixiylik iqtisodiy geografik ta'rif va tavsifning asosiy qismini tashkil etadi. Aytish lozimki, geografiyaga qanchalik tarix kerak bo'lsa, tarix uchun ham geografiya shunchalik zarur. Biroq geografiya tarixga, tarix esa geografiga aylanmasin. Shu bois geografiyada tarixiy

yondashuv o'tmishning barcha mayda-chuydasini emas, balki hozirgi holatning yuzaga kelishida aynan qaysi tarixiy voqea va bosqichlar sabab bo'lganini aniqlashi yetarlidir. Masalan, agar respublikamiz poytaxti Toshkent shahrini iqtisodiy geografik ta'riflamochi bo'lsak, uning ilk bor vujudga kelganidan keyin, so'nggi muhim tarixiy voqealar inobatga olinsa kifoya. Ular: o'tgan asrning ikkinchi yarmida (1865-y.) Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi va Toshkentning Turkiston general gubernatorligining poytaxti vazifasini bajarishi, 1917-yil «Sotsialistik inqilob» yili, 1924-yil O'rta Osiyo respublikalarining tashkil etilishi, 1930-yil O'zbekiston Respublikasi poytaxtining Samarqanddan Toshkentga ko'chirilishi, ikkinchi jahon urushi yillari, 1966-yil Toshkentda yer qimirlashi va nihoyat, 1991-yil O'zbekistonning mustaqillikka erishgan yili. Ana shu burilish yoki tarixiy voqealar bugungi Toshkentga, uning hududi, xo'jaligi va aholisi, shahar qurilishiga ozmi-ko'pmi o'z ta'sirini o'tkazgan, iz qoldirgan. qolgan oraliq voqealar esa bizga ayni paytda uncha zarur emas. Binobarin, ularni tarix fani uchun qoldirish kerak.

Geografiyada tarixiylik tamoyili tarixiy geografiyaning o'rnini olmasligi lozim. Bu yerda tarixiy yondashuv o'rganilayotgan hodisaning o'tmishiga qisqacha safar qilinishini anglatadi, tarixiy geografiya esa o'tmishning alohida pog'onalarida tabiat va, xususan, xo'jalik tarmoqlari, aholi va boshqalar qay darajada rivojlangan va qanday joylashgan kabi masalalarni tahlil etadi yoki ko'z o'ngimizda gavalantiradi. Shu bilan birga, tarixiylik geografiyaning tarixi ham emas. Chunki geografiyaning tarixi deganda so'z ko'proq geografik kashfiyotlar to'g'risida boradi. Shunday qilib, tarixiylik tamoyili, tarixiy geografiya va geografiya tarixidan farq qiladi, u bu yerda qo'yilgan maqsadga to'laroq qanday erishish asoslaridan birini ifodalaydi, o'tmishga bugungi kun nuqtai nazaridan emas, balki unga o'sha davr va muhitdan kelib chiqib baho berish, mavjud voqelikka tarixiy qarashni talab etadi.

Aslini olganda, tarixsiz geografiya (*geografiyasiz tarix*) bo'lmaydi. Demak, ular bir-birlarini to'ldiradi. Ammo ularni alohida-alohida qarash ham noto'g'ridir. Chunonchi, nemis olimi A. Gettner geografiyada tarixiylikni inkor etgan, u xronologiyani rad etib, xorologiyani tan olgan. Bu jihatdan u nemis olimi, faylasuf I. Kant g'oyalariga asoslangan. Albatta, bunday bir tomonlamalik nojoizdir. Hatto an'ana bo'lib qolgan «ishlab chiqarish kuchlarning rivojlanishi va joylanishi» iborasi ham bu ikkilikning chambarchas bog'liqligini bildiradi. Bu yerda agar

rivojlanish tarix bo'lsa, joylanish geografiya demakdir. Har qanday rivojlanish ma'lum bir hudud doirasida amalga oshadi, joylashuv esa rivojlanishning hududdagi aksidan boshqa narsa emas.

Geografiya fanining tamoyillaridan yana biri **ekologik yondashuvdir**. Ekologiya o'zining tub mohiyatiga ko'ra organizmlarning ichki, o'zaro va tashqi muhit bilan aloqadorligini anglatadi. U bu jihatdan geografik dunyoqarashning mazmuniga ham ancha mos keladi. Sababi geografiyada barcha voqea va hodisalar o'zaro hamda tashqi muhit bilan hududiy munosabatda ko'riladi. Shu bois, ekologiya ma'lum ma'noda geografiyaga juda yaqindir. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zi olimlar bu ikki tushunchani ma'nodosh sifatida ishlatganlar. Masalan, chikagolik X.Berrouz «Inson ekologiyasi yohud geografiya» nomli maqolasini (1923-y.) yozgan edi.

Darhaqiqat, geografiyadagi komplekslik tamoyili ekologik dunyoqarashga o'xshab ketadi. Ammo geografik dunyoqarash ekologik yondoshuvga ko'ra keksaroq va mazmunan boyroqdir. Sababi, atrof-muhit masalalari, uning musaffoligi va aholi salomatligiga ta'siri geografiyada hali ekologiya vujudga kelmagan vaqtda ham mavjud edi.

Ma'lumki, geografiyaning bosh falsafiy masalasi tabiat va inson (jamiyat) munasabatlaridir. Tabiatning jamiyat rivojlanishiga ta'siri klassik bo'lsa, jamiyat, ishlab chiqarishning tabiatga, atrof-muhitga ta'siri hozirgi zamon ekologiyasidir. Demak, har ikkisida ham o'zaro uyg'unlikda qarash, mushohada yuritish talab etiladi. Biroq, ekologik prinsip ayni paytda faqat aloqadorlikni emas, balki pastdan yuqoriga tomon, zanjirsimon bog'liqlikni, asosan inson atrofidagi munosabatlarni nazarda tutadi. Chunonchi, iqtisodiy va sotsial geografiyada ishlab chiqarishni va rivojlantirish, xomashyoni qazib olish, uni qayta ishlash, tayyor mahsulot yaratishga qadar bo'lgan jarayonga ekologiya hamroh bo'ladi; u ayniqsa ushbu jarayonning bosh va so'nggi va (oxirgi) nuqtalari, ya'ni tabiatdan xomashyoni olish va tayyor mahsulotni yaratishda ko'proq e'tiborga molikdir.

Aynan shu mazmunda qaraganda, ekologik tamoyilga N.N.Kolosovskiyning **energiya ishlab chiqarish sikllari** va I.V.Komarning resurs sikllari to'g'risidagi g'oyalari juda qo'l keladi. Chunki, bu g'oyalar zaminida ishlab chiqarish jarayonining avvalgi va oxirgi nuqtasigacha «boshdan oyoq» ekologik yondashuv yotadi.

Ekologik tamoyil, ayniqsa, ishlab chiqarishni ijtimoiy va hududiy tashkil etish shakllari, xususan, mujassamlashuv bilan uyg'unlashib ketadi. Masalan, qancha ishlab chiqarish mujassamlashuvi yuqori bo'lsa

(*korxonalar yirik yoki korxonalar majmui bir joyda ko'p bo'lsa*), ekologik vaziyat, odatda, buning aksi bo'ladi. Demak, bu yerda «rivojlangan» tushunchasi ko'p hollarda ekologik nosog'lom ma'nosi bilan yonma-yon turadi. Bir necha misollar keltiraylik: Boshqirdiston poytaxti Ufa shahrining o'zida 3 ta yirik neftni qayta ishlash zavodlari mavjud; Ukrainaning Mariupol (*sobiq Jdanov*) shahrida yoki Rossiyaning Novokuznetsk shahrida ham uchtdan metallurgiya korxonalarini ishlab turibdi. Bu jihatdan aytish mumkinki, ushbu shaharlar rivojlangan yirik sanoat markazlari hisoblanadi. Lekin, ayni paytda bu shaharlarning bir necha minglab aholisi ekologik nochor ahvolda bo'lishi ham ayondir.

Xuddi shunday, o'zimizning Chirchiq shaharini olaylik. U o'lkamizdagi dastlabki «sotsialistik shahar», chinakam sanoat markaziga aylangan edi. O'ttizinchi yillardan boshlab bu yerda turli yirik sanoat korxonalarini birin-ketin qurilgan edi. Ayniqsa, bu yerda kimyo zavodlari ko'proq joy oldi. Ustiga-ustak Chirchiqdan, sobiq Ittifoqda «eng yirik» kaprolaktam korxonasi ham joy oldi. Shunday qilib, bu shahar respublikaning yirik industrial markaziga, rivojlangan rayoniga aylantirildi. Ammo, shu bilan birga, bu yerda yashaydigan 150 minglik aholi uchun ekologik muhit ham buzildi.

Afsuski, yuzaga kelgan nochor ekologik vaziyati faqatgina Chirchiqningina emas, balki u bilan deyarli tutashib ketgan qariyb 2,5 millionli azim shahar – Toshkent ahvoliga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar biz Chirchiq sanoat markazining geografik joylashganligini, poytaxt Toshkent va uning aglomeratsiyasiga suvning ham, havoning ham Chirchiq tomonidan (*tog' mintaqasidan*) kelishini e'tiborga olsak, u holda geografik ko'rlikning, hududiy savodsizlik yoki madaniyatsizlikning guvohi bo'lamiz. Demak, ekologik tamoyil ham geografiya uchun o'ta muhimdir. Biroq u aslo ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga qarshi turmaydi. Aksincha, bu yerda joylashtirish masalalarini ko'proq barcha omil va sharoitlarni atroflicha inobatga olgan holda «yetti o'lchab bir kes» manosida, geografik ekspertiza asosida amalga oshirish hamda zamonaviy, chiqindisiz, ekologiya nuqtai nazaridan maqbul va toza texnologiyani joriy qilishni hisobga olib hal etish lozim. Shubhasiz, mustaqil mamlakat, uning mustahkam milliy iqtisodiyoti uchun barcha sanoat tarmoqlari, shu jumladan, kimyo, metallurgiya va boshqa korxonalar ham zarur. Ammo ular mumkin qadar to'g'ri va hozirgi zamon texnologiyasi bilan joylashtirilishi lozim.

Shu bilan birga ekologik masalalar faqat sanoat geografiyasidagina emas, balki ular qishloq xo'jalik, aholi va shaharlar, transport,

rekreatsiya, tibbiyot geografiyasi kabi yo‘nalishlarni o‘rganishda ham asosiy o‘rinda turishi kerak. Boshqacha qilib aqtganda, geografik dunyoqarash ekologik fikrlashi bilan singdirilmog‘i shart. Binobarin, hududiylik, komplekslik va ekologik tamoyillar aslo bir-biriga zid bo‘lmay, aksincha, yonma-yon turishlari talab etiladi (*ruslar bu o‘rinda «не вместо, а вместе» deyishadi.*)

Ijtimoiy geografiyaning yana bir prinsipi **demotsentrizm** yoki **antropotsentrizmdir**. Chunki, barcha hududiy iqtisodiy munosabatlar asosida eng avvalo inson-moddiy va ma‘naviy boyliklarni yaratuvchisi va ayni paytda ularning iste‘molchisi joy oladi. qolaversa, tarix, jamiyat tarixi ham insonsiz bo‘lmaydi. Bundan tashqari, dastavval sof tabiiy ma‘noga ega bo‘lgan ekologiya tushunchasi ham industiriyalashtirish va urbanizatsiya tufayli sotsial yoki inson ekologiyasiga aylanmoqda.

N.N.Baranskiy insonsiz geografiyaga bor vujudi bilan qarshi va «Insonni unutibsiz!» deb xitob qilar edi. Chindan ham ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining markazida inson turadi. Biroq, inson avvalgidek, faqat ishlab chiqarish kuchi, uning sub‘ekti, ishchi kuchi bo‘lmay, balki u o‘z nomi bilan Buyuk Insondir. Shuning uchun inson tabiati, biogeografiyasi, yashash tarzi, urf-odati kabi sof ijtimoiy masalalarning hududiy jihatlari ham o‘rganilishi lozim.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda, ilmiy-texnika tarqqiyoti va boshqalarda inson omili, uning talab va ehtiyoji, dunyoqarashi muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan demotsentrik tamoyil ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishda e‘tiborga olinishi bilan bir qatorda insonning o‘zi ham o‘rganilishi ahamiyatdan xoli emas.

Chunonchi, uning o‘qishi, dam olishi, davolanishiga o‘xshash bevosita ishlab chiqarish jarayonidan tashqarida yotgan va kishi yashashi bilan bog‘liq barcha masalalar sotsiologiya, etnografiya, psixologiya fanlari qirrasida tadqiq etilishi kerak.

Shunday qilib, hududiylik, komplekslik, tarixiylik, ekologiya hamda demotsentrik yondashuvlar ijtimoiy geografiyaning mustaqilligi va mustahkamligini, barqaror va qat‘iyligini ta‘minlaydi. Shu bilan birga bu asosiy prinsiplar alohida-alohida emas, balki birgalikda kuchli, ta‘sirchan bo‘ladi. Ular ushbu fanni ijtimoiylashtirish, siyosiylashtirish, iqtisodiyashtirish va mahaliylashtirish kabi yo‘nalishlar yordamida amaliyotga tatbiq etilsa, u yanada samaraliroq natija beradi.

Barcha fanlarda bo‘lganidek, geografiya, shu jumladan, ijtimoiy geografiyada differentsiatsiya (turlanish) jarayoni ketmoqda. Shu bois, mamlakatimizda jahonning ilg‘or davlatlaridagi boy tajribalar, yangi

ilmiy yo‘nalishlar ham joriy etilsa, bo‘lajak yosh mutaxassislar zamon talabi darajasida tayyorlangan bo‘ladi.

1.3-§. Raqamlashgan davrda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot deyarli barcha mamlakatlarning milliy iqtisodiyoti amaliyotiga kirib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi globallashuv jarayonida iqtisodiyotni yanada tezlashuviga olib kelmoqda. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, bundan buyog‘iga raqamli iqtisodiyotsiz mamlakat taraqqiyotini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Xususan, IT orqali Yer sharida sodir bo‘layotgan tabiiy jarayonlarning hozirgi va kelajakdagi holatini prognoz qilish, ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etish, sotsial jarayonlar va ekologik muammolar korrelyatsiyasining tahlili asosida optimal yechimlar ishlab chiqish imkoniyati yanada kengaydi. Qolaversa, elektron kartalar yaratish orqali ta’lim, tibbiyot, harbiy soha, kadastr va boshqa jabhalarda yuqori samaradorlikka erishilmoqda.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish davrigacha professor A.P.Gorkin talqiniga ko‘ra, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish shakllari, jarayonlari va qonuniyatlari haqidagi geografiyaning bir tarmog‘i bo‘lib kelgan. Keyingi yillarda, raqamli iqtisodiyotning paydo bo‘lishi va rivojlanishi vaziyatni sezilarli darajada o‘zgartirmoqda.

Ishlab chiqarish faoliyati tobora ko‘proq postindustrial xususiyat kasb etib, hududiy tadqiqotlar va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni baholash virtuallashtirib bormoqda. Qolaversa, ishlab chiqarish jarayoni avtomatlashtirilayotgan bo‘lsa, xizmat ko‘rsatish sohalari raqamli texnologiyalar asosida masofaviy ishlash rejimiga tobora jadal o‘tmoqda. Shunday bo‘lsa-da, iqtisodiyotni raqamlashtirish ishlab chiqarish faoliyatini hududiyashtirish jarayoni bilan aloqador bo‘lgan iqtisodiy geografiyaning tadqiqot predmetini keskin o‘zgartirib yubormaydi.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining obykti va predmeti nima?*
- 2. Iqtisodiy geografiya atamasini birinchi bo‘lib kim qo‘llagan?*
- 3. Professor A.S.Soliev fanga qanday ta’rif bergan hamda ushbu ta’rif boshqa olimlarning fikrlaridan nimasi bilan ajralib turadi?*

2-BOB. IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYANING FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O‘RNI

Mavzu annotatsiyasi. *Ushbu mavzuda geografik fanlar tizimi tahlil etilgan hamda mazkur sistema umumgeografik, tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy hamda «oraliq» geografik fanlarga ajratilgan. Chunonchi, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni va boshqa fanlar bilan aloqalari, fanning ichki tuzilishi atroflicha yoritib berilgan.*

Tayanch so‘z va iboralar: *fanlar tizimi, mehnat predmeti, mehnat vositasi, ishlab chiqaruvchi kuchlar, joylashtirish, hududiy tashkil etish.*

Reja:

- 2.1. Fanning asosiy maqsadi va vazifalari.
- 2.2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni.
- 2.3. Fanning zamonaviy muammolari.

2.1-§. Fanning asosiy maqsadi va vazifalari

Iqtisodiy geografiyaning obykti avvallari ma’lum bir mamlakat yoki rayonning xo‘jaligi va aholisi, ishlab chikarish kuchlarining joylanishidan iborat bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik u xo‘jalik va aholining hududiy tarkibi yoki tizimi, hududiy ijtimoiy – iqtisodiy majmualar (komplekslar) shaklini oldi. Shunga muvofiq, ushbu fanning vazifasi ham o‘zgarib bordi: ilgari asosiy e’tibor qayerda nima borligini o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, hozirgi kunda esa nima uchun u yoki bu voqelik aynan shu joyda vujudga kelganligini ilmiy asosda izohlab va baholab berilishi talab etiladi. Bunday qonuniyatlarni chuqur anglash fanning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki, u endi turli yiriklikdagi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning tahlilidan ularning tashxisiga, undan esa prognoz va boshqarish darajasiga ko‘tarilmoqda.

Shu jihatdan, zamonaviy davrda fanning **maqsadi** *ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi, inson hayot faoliyatining turli rayonlardagi o‘ziga xos va betakror xususiyati, transformatsiyasini ochib berishdan* iboratdir. Zero, hamma joyda bor narsa geografiyada mutlaqo bo‘lmasligi kerak. Agar hamma joy bir rangda tekis, bir xil darajada bo‘lganda edi, geografiyaning ham, qolaversa jamiyat rivojlanishining

ham o'zi bo'lmas edi. Shunga muvofiq holda, fanda yuqoridagi maqsadga erishish uchun bir necha **vazifalar** belgilangan:

- ❖ ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish qonuniyatlari hamda omillarini o'rganish;
- ❖ tabiiy sharoit va resurslarning mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyatini yoritib berish;
- ❖ hududiy tafovutlarning geografik xususiyatlari va imkoniyatlarni baholash;
- ❖ aholi va mehnat resurslarini iqtisodiy geografik jihatdan tadqiq etish;
- ❖ iqtisodiy geografiyaning tarkibi va hududiy rivojlanish xususiyatlarini, xalqaro iqtisodiy-ijtimoiy tizimlar faoliyatini o'rganish;
- ❖ siyosiy va madaniy geografik tadqiqotlar, ularning rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish;
- ❖ insoniyat oldida turgan ekologik muammolarning iqtisodiy sabablariga e'tibor qaratgan holda, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ko'rinib turganidek, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy vazifalari, davr talabga mos holda, iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi va jahon geosiyosiy tizimidagi o'zgarishlardan kelib chiqadi. Demak, aholi va uning faoliyati, ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etish va rivojlantirish qonuniyatlari, hududiy tafovutlar natijasida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlil etish, baholash va prognoz qilish mazkur fanning asosiy mohiyatini tashkil etadi.

2.2-§. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi

XX asrning 50-yillarining o'rtalaridan boshlangan fan-texnika inqilobi (FTI) tabiat va jamiyat (T↔J) o'rtasidagi munosabatlarni yanada kengaytirdi va chuqurlashtirib yubordi, ishlab chiqarish tizimlari va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda muhim sifat o'zgarishlari uchun yo'l ochdi. Tabiiy resurslarni o'zlashtirish kuchaydi, mutlaqo yangi resurslar ishlab chiqarishga tortildi. Yangi o'zlashtirilishi murakkab va qiyin (agroiqlimiy jihatidan murakkab) bo'lgan hududlarni jadal o'zlashtirish, bilan bir qatorda, qadimdan o'zlashtirilgan hududlarda cho'llanish jarayonlari ham kuchaydi. FTIning gurkirab rivojlanishi, aholi soni ko'payishining tezlashuvi oqibatida insoniyatning tabiatga,

atrof-muhitga ta'siri kuchaydi va industrial yo'nalishdagi antropogen (ikkilamchi tabiat) landshaftlar yuzaga keldi. Antropogen landshaftlarning tobora hukmron mavqeni egallab borishi tabiiy muhitning tabiiyligini yoki birlamchi tabiatning asta-sekin yo'qolib borishga va bunday tabiat-jamiyat o'rtasidagi qayta aloqalar esa murakkab ekologik inqirozlarning yuzaga kelishiga va umumbashariy muammoga aylanishiga olib keldi. Iqtisodiy geografiya tadqiqotlarida ekologik jarayonlarni o'rganilishi kengaydi.

Iqtisodiy geografiya fani ijtimoiy-gumanitar fanlar (iqtisodiy fanlar) tizimiga kirib tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jarayonlarni tarmoq va hududiy jihatdan o'rganadi. Iqtisodiy geografiya fanining vazifasi tabiat rivojlanishining obyektiv qonuniyatlari (T_0Q) va jamiyat rivojlanishining obyektiv qonuniyatlarini (J_0Q) bir-biri bilan bog'liq holda, ya'ni ($T_0Q \leftrightarrow J_0Q$) tabiat-aholi-sotsial tizimlar ($T \leftrightarrow A \leftrightarrow ST$) o'rtasida barqaror doimiy (qayta) aloqalarning shakllanishini, bu aloqalar rivojlanish bosqichlarining amal qilishi, davom etishi va boshqarilishi jarayonlarini tadqiq qilishdan iborat.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani bir qator fanlar bilan o'zaro aloqada bo'lib, uning tadqiqotlari va xulosalaridan keng foydalanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani bilan aloqador fanlar tizimini to'rt guruhga bo'lish maqsadga muvofiq:

1) tabiiy fanlar – tabiiy fanlar tizimi: *umumiy tabiiy geografiya, geologiya, biologiya, ekologiya, tibbiyot va h.k.;*

2) gumanitar fanlar – ijtimoiy fanlar tizimi: *falsafa, tarix, demografiya, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, ijtimoiy ekologiya va h.k.;*

3) iqtisodiy fanlar – ishlab chiqarish jarayoniga aloqador fanlar tizimi: *statistika, iqtisodiyot nazariyasi, shaharsozlik, mintaqaviy iqtisodiyot, makroiqtisodiyot, tabiatdan foydalanish iqtisodi va h.k.;*

4) texnika fanlari – amaliyotga yo'naltirilgan fanlar: *axborot texnologiyalari, kartografiya, muhandislik geologiyasi va h.k.*

Ko'rinib turibdiki, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani ko'plab fanlar bilan uzviy aloqada bo'lsa-da, bu fanlar bilan qo'shib ketmaydi va mustaqil fan bo'lib, jamiyatni hududiy tashkil etish va boshqarishni majmualari o'rganishi bilan ajralib turadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga oid jarayonlar nihoyatda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va muammolarni o'z ichiga oladi: tabiiy muhit va tabiiy resurslar majmuasi; aholining demografik xususiyatlari va joylashish tizimlari, ya'ni kichik qishloqdan (ovul) to

urbanizatsiyaning eng rivojlangan shakllariga (megalopolis) qadar; mehnat resurslari, bandlik va ishsizlik, migratsiya jarayonlari; moddiy ishlab chiqarishning yetakchi sohasi – sanoat va uning tarmoqlari; qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish majmuasi; transport tizimi va uning mamlakat, mintaqaviy, xalqaro mehnat taqsimotidagi, integratsion aloqalarning rivojlanishidagi roli; infratuzilmalar majmuasi; xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro iqtisodiy integratsiya hamda jahon xo‘jaligi hududiy (mahalliy, mintaqaviy, xalqaro) tashkil qilish va takomillashtirish; mintaqaviy va umumbashariy muammolardan iborat.

Ko‘rinib turibdiki, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani nafaqat *ishlab chiqarish kuchlarining tarmoq va hududiy joylashtirish jarayonini o‘rganibgina qolmay, balki jamiyatni hududiy tashkil etishni takomillashtirish va boshqarish to‘g‘risidagi fan* sifatida ham muhim o‘rin tutmoqda. Ayni vaqtda, bugungi kunda $T \leftrightarrow A \leftrightarrow FTI$ kabilarni tadqiq qilishning mutlaqo sifat jihatidan yangi bosqichi davom etmoqda. Natijada, fanning o‘ziga xos xususiyatlari unga oid tadqiqotlarni «ijtimoiylashtirish», «iqtisodiy lashtirish», «siyosatlashtirish», «ekologiyalashtirish» bilan ajralib turmoqda.

Demak, geografiya yuqoridagi fanlar bilan aloqa bo‘lib, ularning imkoniyatlaridan ham foydalanadi. Boshqacha qilib aytganda, geografiya uchun turli fanlar qirrasida yangi-yangi yo‘nalishlar va yutuqlarga erishish imkoniyati mavjud. Chunki geografiya fani barcha fanlar tizimida qulay «geografik o‘ringa» ega, u markazda (maxrajda) va shuning uchun qolgan fanlarning ko‘pchiligi istasa-istamasa geografiyaga to‘qnashadi.

2.3-§. Fanning zamonaviy muammolari

Iqtisodiy geografiya ham boshqa fanlar qatori yangicha sharoitda rivojlanib bormoqda. Nazariy va amaliy yo‘nalishda mazkur fan mintaqaviy siyosat olib borish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish hamda bozor munosabatlariga o‘tish davrida milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari (sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari), infrastruktura tizimini takomillashtirish, ijtimoiy ekologiyani barqarorlashtirish kabi muhim masalalarni ilmiy tadqiq qilishda katta ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning rivojlanishida ma‘lum kamchilik va yetishmovchiliklar mavjud. Ular quyidagilar:

1. O'tmishda mazkur fanning nazariy masalalariga ko'prok e'tibor berildi, uning amaliy (konstruktiv) tomonlari esa zaifroq bo'lib qolgan. Buning ustiga, hozirgi kunda jahon fanida allaqachon erishilgan yutuqlardan bexabar (balkim boxabar) holda iqtisodiy geografiyaning ayrim nazariy-uslubiy masalalari go'yoki «birinchi marta» ko'rilayotgan, ixtiro qilinyotganga o'xshaydiki, bu aslida oldinga emas, balki orqaga chekinishdir. Natijada yoshlar uzoq xorij mamlakatlari u yoqda tursin, hatto sobiq Ittifoqda qilingan ilmiy ishlarni tanqidiy o'rganishdan ham chetda qolmoqdalar.

Ilmiy-tadqiqotning ijtimoiy faoliyatning murakkab shakli sifatida eng muhim xususiyati shundaki, u milliylik tamoyiliga ega emas, fan ma'muriy chegara bilan ham hisoblashmaydi. Shuning uchun ham barcha millat va elat vakillari yaratgan buyuk va nodir kashfiyotlar tarix bo'sag'alari uzra, turli ijtimoiy tuzumlardan o'tib hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Demak, bu sohada ham «yangisini qurmay turib, eskisini buzmaslik kerak».

2. Albatta, har qanday amaliyot kuchli nazariya, umumilmiy qonuniyatlarsiz bo'lmaydi. Chunki, fan va uning negizi hisoblanmish ilmiy tadqiqot jarayoni qonuniyatlarni, ular esa o'z navbatida, muayyan makon va zamonda barqaror takrorlanib turuvchi sabab-oqibat birligani chuqur tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarishni talab qiladi. Aynan shu bois ilmiy izlanishlar va xususan dissertatsiya ishlari g'oyaviy jihatdan mustahkam bo'lmog'i, tadqiqot yo'nalishi bo'yicha mavjud nazariy-uslubiy masalalarni to'la o'zlashtirib, ularni ishning maqsad va vazifasiga mos ravishda hamda hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqqan holda takomillashtirishi, rivojlantirishi shart. Zero, dissertatsiya – bu, eng avvalo, ilmiy ishdir va u albatta ilmiy yangilik yaratishi kerak. Aks holda bunday tadqiqotlar ilmiy saviyasi past oddiy kitob yoki risola, ba'zan esa statistik to'plam darajasida bo'lib qolaveradi.

3. Iqtisodiy geografiya va umuman geografik bilimning boshqa bir kamchiligi cheksiz fakt va raqamlarni yodlash, betakrorlik (fenomenallik va unikallik) xususiyatlar, nomenklatur geografiyaning ustivorligidir. Shuningdek, yer yuzi va uning rayonlarini «eng-eng» (baland, katta, past, chuqur, uzun, keng, rivojlangan, qoloq va h.k.) jihatlari muhim bo'lib, ayni paytda ilmiy qonuniyatlar, turli hodisalar o'rtasidagi aloqadorliklar deyarli o'rganilmagan. Buning natijasida, haqiqiy geografik fikrlash, hudud borlig'ini to'la anglab olish va uning tarkibiy

tuzilishi, rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil, tashhis va bashorat qilish orqada qolmoqda.

4. Yuqoridagi kamchilik bilan bog‘liq holda geografiyaga ko‘proq mustaqil va muhim, mukammal va mustahkam fan sifatida emas, balki unga oddiy o‘quv predmeti maqomida qarash odat tusiga kirib qolgan. Bu hol ayniqsa maktab geografiyasiga taalluqlidir. Ajablanarlisi va ayanchlisi yana shuki, hanuzgacha geografiyaga oid maxsus ilmiy tekshirish instituti yoki fanlar akademiyasi tizimida hatto birorta muxbir a‘zo yo‘q. Geografiya fanining sohaga aloqador ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlaridan (test sinovlaridan) olib tashlash ham unga bo‘lgan «ikkinchi darajali» munosabatning dalilidir.

5. Real hududiy borliq murakkab, uni bilish esa vaqt va makon jihatidan cheklangandir. Qolaversa, bu obyekt turg‘un vaziyatda emas u doimiy harakatda, dinamik o‘zgarishda. Geografiya ana shu o‘ziga xos jarayonni anglab olishi kerak. Zero, uning obyektini qamrovida qator tabiiy va ijtimoiy fanlar obyektini (biologiya, iqtisod, demografiya va b.) o‘z o‘rnini topgan. Binobarin, geografiya ayni paytda «qo‘shni» fanlarning hududiy jihatlarini ham o‘rganishi lozim.

Ammo, geografiyaning huddi ana shu ijobiy fazilati va ma‘suliyati uning an‘anaviy kamchiligini yuzaga kelishiga asosiy sababchidir. Chunki, keng obyekt keng qamrovli ko‘riladi, biroq bunday tadqiqot chuqur tahlilli bo‘lmasligiga ham muqarrar. Shuning uchun geografiyaga ko‘proq yuzaki tasvirlovchi, ta‘riflovchi, faqat «suratga tushiruvchi» fan sifatida nohaq qarash rasm bo‘lib qolgan,

6. Ilmiy izlanishlar geografiyada asosan o‘rta va kichik masshtablarda olib borilmoqda. Fan nomzodligi yoki doktorligi uchun dissertatsiyalar mavzusi ham xuddi shunday - keng va katta hududlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Vaholanki, rivojlangan mamlakatlarda maqroiqtisodiy emas, balki ko‘proq miqroiqtisodiy masalalar tadqiq etilgan. Tabiiyki, bunday tadqiqotlarning aniqligi va amaliyligi ancha yuqoridir. Bir vaqtlar N.N.Baranskiy «kontinentlar bo‘yicha fikrlash kerak» deb uqtirgan edi. Endi esa, global va regional fikrlab, lokal (mahalliy) masshtabda amal qilish maqsadga muvofiqdir.

To‘g‘ri yirik masshtabli tadqiqotlarning ham o‘ziga xos kamchiliklari mavjud – ular hamma vaqt ham ilmiy qonuniyatlarni aniqlashga yordam bermaydi. Binobarin, bunday yo‘nalishdagi izlanishlar geografik taqkoslash metodidan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Ayni chog‘da kichik masshtabli tadqiqotlarda obyekt

tanlama holda uning ayrim va turli joylari chuqur burg‘alanishi «parmalanii» yordamida tahlil va tashxis etilishi zarur.

7. Ba’zi hollarda ilmiy ishlar, chunonchi dissertatsiyalar biror hudud «misolida» bajariladi. Bunday mavzudagi ishlar tadqiqotchiga katta majburiyat yuklaydi. Chunki, ularning ilmiy natija va xulosalari, nazariy-uslubiy ko‘rsatma va tavsiyalar shunga o‘xshash ko‘p hududlarga ham taalluqli bo‘lishini talab etiladi.

Dissertatsiya mavzulari nihoyatda puxta, lo‘nda bo‘lishi, ishning mazmun-mohiyatiga mos kelishi kerak. Ayni paytda ularning nomlarida «tadqiqot», «Geografik tadqiqot», «kompleks tadqiqot», «sotsial-iqtisodiy», «muammo» kabi iboralar ortiqcha. Zero, har qanday dissertatsiya qaysi bir ilmiy-amaliy muammoni hal etishga qaratilgan tadqiqotdir. Fanimizning mohiyatan ijtimoiy-iqtisodiyliги, unga komplekslik tamoyilining xosligi ham bunday so‘zlarning mavzuda qo‘llanishini o‘rinsiz qilib qo‘yadi. Shuningdek, ilmiy ishlarning maqsad-vazifalari, himoya predmeti va ilmiy yangiliklari muayyan aloqadorlik bo‘lishi shart.

8. Ijtimoiy (inson) geografiyasida eng avvalo uning iqtisodiy yoki ishlab chiqarish qismi faolroq rivojlangan. Sobiq sovet geografiyasining kuch-qudrati ham ana shunda. Ammo shu bilan birga, yuqori darajada taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda bo‘lganidek, mamlakatimizda tor ma’nodagi sotsial geografiya aytarlicha tarqalmagan va u endigina o‘ziga tor yo‘l ochmoqda. Shu bois rivojlangan mamlakatlarda bu asosan gumanitar yoki inson geografiyasi shaklida mashhur bo‘lsa, bizda u ko‘proq iqtisodiy, xolos.

Iqtisodiy va sotsial geografiyada hududiylik tamoyili turlicha ma’no va mazmunga ega: birinchisida hudud – bu resurs, ishlab chiqarishni joylashtirish bo‘lsa, ikkinchisida u yashash muhitidir. Xuddi shuning uchun sotsial geografiyada xaritalashtirish usulini qo‘llash biroz cheklangan. Sababi bunday tadqiqotlarda odatda katta masshtabda, ya’ni kichik hududda – mahalla, mavze va dahalarda ham olib boriladi.

9. Iqtisodiy geografiyaning o‘zida ham sof va aniq iqtisodiy bilimlarga, statistikaga e’tibor biroz bo‘shashgan. Bu hozirgi bozor munosabatlariga o‘tish davrida iqtisodiy geografiyaning unga tayyor emasligidan darak beradi. Aslida esa iqtisodiy geograf ayni paytda ham iqtisodchi, ham geograf, ya’ni hudud iqtisodchisi bo‘lmog‘i darkor. Bu uning eng muhim jozibali va betakror xususiyati, asosiy mazmun, mohiyat va maqsadidir. Achinarlisi shuki, hatto tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti, iqtisodiy rayonlashtirish kabi xususiy (o‘zining «noni»

bo‘lgan) masalalar bilan iqtisodiy geograflar emas, ko‘proq iqtisodchilar shug‘ullanmoqdalar.

10. Ilgarigi o‘ta markazlashgan jamiyatni rivojlantirish va boshqarish siyosati davrida regionlarga, mamlakat ichkarisiga bo‘lgan e‘tibor zaiflashgan edi. Buning oqibatida regional yoki mintaqaviy siyosat ilmiy va amaliy jihatdan amalga oshirilmadi. Qizig‘i shundaki, sobiq Ittifoqning turli respublikalarida yashovchilar o‘z yurtlariga ko‘ra o‘zgalarni yaxshiroq bilar edilar. Bundan O‘zbekiston ham istisno emas, albatta. Shuning uchun hozirgi mustaqillik sharoitida geografik tahlil tuman va hatto yirik qishloqlar darajasiga «tushishi» kerak. Ana shundagina o‘z yurtimizning bepoyonligi, uning salohiyati va rang-barangligini chuqur his qila olamiz. Binobarin, Vatanimiz dunyo (global) nuqtai nazaridagina emas, balki jahonning O‘zbekiston nuqtai nazaridan o‘rganilishi ham biz uchun foydadan holi emas.

11. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya har holda geografik fanlar tizimiga kiradi. Ammo yuzaga kelgan vaziyatda u xatto tabiiy geografiyadan ham uzoqlashib qolgan. Buning oqibati bo‘lsa kerak, iqtisodiy geografiyada ekologik tadqiqotlar, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, rekreatsiya, tibbiyot, meliorativ geografiya kabi iqtisodiy va tabiiy geografiya qirrasidagi fan va ilmiy yo‘nalishlar nisbatan sust rivojlangan. Vaholanki, bu ikki fan oralig‘ida juda ko‘p samarali va zamonaviy tadqiqotlarni olib borish mumkin. Bundan tashqari, umumiy geografik mazmunga ega bo‘lgan qonuniyat va kategoriyalar: zonallik, komplekslik, regionallik, geotizim, rayonlashtirish va boshqalar tabiiy va «notabiiy», ya’ni ijtimoiy geografiyani nazariy-uslubiy jihatdan birbiriga mustahkam bog‘laydi,

12. Geografiya o‘zining tub mohiyat-mazmuniga ko‘ra, tom ma’nodagi hududiy tengsizlik, turli-tumanlikdir. Bu geografik jarayon va umuman iqtisodiy geografik taraqqiyotning dialektik asosi, bosh omili hisoblanadi. Zero, hamma joy aynan bir xil bo‘lsa taraqqiyot ham, geografiya fanining o‘zi ham bo‘lmaydi. Biroq, xanuzgacha ba’zan tenglashtirib bo‘lmaydigan narsalarni tenglashtirishga, qorong‘i uyda yo‘q qora mushukni behuda qidirishga harakat qilamiz. Haqiqatda esa bunday urinishlar amalda natijasizdir. Chunki, hududiy tengsizlikni mutlaqo bartaraf etib bo‘lmaydi. Qolaversa, bozor munosabatlari erkinlik, sog‘lom hududiy raqobat va tengsizlik demaqsir.

13. Ba’zan iqtisodiy geografik tadqiqotlarda, jumladan shaharlar va urbanizatsiya jarayonini o‘rganishda biz hanuzgacha «yevropacha» qarash va qolipdan uzoqqa keta olmayapmiz. Ma’lumki, O‘rta va

Markaziy Osiyo madaniyati, shaharlar rivojlanishi o'ziga xos sharqona xususiyatga ega. Bas shunday ekan, kelajakda O'zbekistonda urbanizatsiya ko'rsatkichini, ya'ni shahar aholisi ulushini rivojlangan g'arb mamlakatlaridek 80-90 foiz darajasida bashorat qilish haqiqatdan juda yiroqdir. Ushbu olamshumul jarayonning geografik jihati va xususiyati ham shunda. Ammo bundan O'zbekistonda urbanizatsiya jarayoni mavjud emas, degan xulosaga kelish noto'g'ridir. Aksincha, u mamlakatimizda ham mavjud. Biroq, uning tarixiy, iqtisodiy, geografik va boshqa xususiyatlari o'zgacha, va ayniqsa, Yevropa mamlakatlaridan tubdan farqlanadi. Aynan ana shu regional xususiyatlar, urbanizatsiya jarayonining yurtimizdagi tarixi, ta'rifi va taqdirini, atroflicha yoritish ijtimoiy geografiyaning muhim vazifasidir.

14. Shu bilan birga, iqtisodiy geografiyada ba'zi tushunchalarga odatdagidek faqat salbiy nuqtai nazardan qarash ham adolatdan emas. Biz bu o'rinda avvalambor geosiyosat, geografik determinizm kabi g'oyalarni nazarda tutmoqdamiz. Binobarin, geosiyosatni faqat fashistik, Gitler ruhida, o'zgarlar hududiga tahdid ma'nosida bir tomonlama talqin qilish xato. Sababi – har qanday mamlakatning iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy siyosati kabi uning geografik siyosati ham bo'lishi muqarrar. Alohida davlatlarga nisbatan qaralganda geosiyosat ularning tashqi, xalqaro siyosati, jahon siyosiy xaritasi va hamjamiyatidagi munosabatlarning majmuidir. Mamlakatning ichki tuzilishiga nisbatan esa regional yoki mintaqaviy siyosat iboralarini qo'llash ma'qul.

Biroq, geografik determinizmga ham hech qanday ayb yo'q. Zero, deterministik qarashsiz hodisa va voqealar orasidagi aloqadorlik, ilmiy dunyoqarashning o'zi bo'lmaydi. Shu bilan birga, faqatgina geografik determinizmga emas, balki biologik, tarixiy, iqtisodiy va boshqa «determinizm»lar ham mavjud. Asosiy muammo - bunday omil ta'sirini o'z me'yorida aniqlash va baholashdir. Shu ma'noda uni haddan tashqari bo'rttirish yoki, aksincha, tamomila inkor etish nojoizdir.

15. Geografiyaning, jumladan ijtimoiy geografiyaning yana bir rivojlanish omili uning ichki salohiyatidan, boshqa fanlar bilan uyg'unlashish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishdir. Ushbu fan hali ko'p yangiliklar yaratishga qodir: u demografiya, sosiologiya, psixologiya, tibbiyot, tarix, etnografiya, huquqshunoslik, siyosatshunoslik va boshqa fanlar bilan hamkorlikda yoki ular qirrasida zamonaviy tadqiqotlar olib borish imkoniyatiga ega. Ammo har qanday

sharoitda ham bunday tadqiqotlar «narigi sohilga» o'tib ketmasligi va hududiylik, regionallik xususiyatlariga asoslanishi zarur.

16. Ayrim hollarda geografik tadqiqotlarning kamchiligi uning o'rganish chegaralanmaganligi, komplekslik tamoyilidan to'g'ri foydalana olmaslikdadir. Aksariyat sharoitda eng pastki qatlam aniq belgilanmaydi, yuqori pog'onalar esa had va hududsiz bo'lib qoladi. Har qanday tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, uning doirasi to'g'ri ajratilishi shart. Masalan, sanoat geografiyasida eng birlamchi bo'g'in yoki elementar obyekt sanoat korxonasi bo'lsa, aholi geografiyasida u aholi manzilgohi hisoblanadi. Ularni yana parchalash esa tizim-tarkib qoidasidan, qo'yilgan maqsaddan chetga olib chiqadi. Xuddi shunday o'rganishning yuqori hududiy bosqichi, tahlil etiladigan masalalar tarkibining to'g'ri belgilanishi geografiyadagi komplekslik tamoyiliga («daraxt va uning shohlari») ga mos kelishi zarur.

Shunday qilib, ijtimoiy geografiyaning hozirgi O'zbekistondagi holatiga yuqorida keltirilgan ayrim kamchiliklar yoki nuqsonlar ozmi-ko'pmi tegishli. Ularni bartaraf etish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish bizning mamlakatimizda ham mazkur fanning jahon darajasi va andozasida rivojlantirishga yordam beradi.

Buning uchun ijtimoiy geografiyani chindan va dildan sevgan kishi, fidoiysi uning asosiy poydevor va ustunlari bo'lmish iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy mehnat taqsimoti, hududiy ishlab chiqarish (va noishlab chiqarish) majmua va tizimlari, iqtisodiy geografik o'ringa o'xshash ilmiy g'oya va tushunchalarni chuqur anglashi, kartografiya, geografik taqqoslash, tarixiy, hududiy tizim-tarkib usullaridan uddaburonlik bilan foydalanishi shart. Bularsiz geografiya «umurtqasiz», tanasiz fan bo'lib qolaveradi.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining maqsad va vazifasi nima?*
- 2. Fan boshqa qaysi sohalar bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlangan?*
- 3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya hamda geografiyaning boshqa qaysi yo'nalishlari qirrasida yangi "oraliq" fanlar vujudga kelmoqda?*
- 4. Fanga oid ilmiy tadqiqot ishlarida qanday hal qilinishi lozim bo'lgan kamchililar mavjud?*
- 5. Fanning oldida yana qanday istiqbolli vazifalar turibdi?*

3-BOB. IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYA FANINING RIVOJLANISH TARIXI

Mavzu annotatsiyasi. *Ushbu mavzuda Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fan sifatida shakllanishi, tarixiy rivojlanishi va hozirgi ilmiy aspektlari tahlil qilingan. Fanning uch tarkibiy qismi va predmetiga uch xil yondashuv keltirib o'tilgan. Qolaversa, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning xronologik yo'nalishlari hamda tarkib topgan geografiya jamiyatlari faoliyati yoritib berilgan.*

Tayanch so'z va iboralar: *tabiiy geografiya, davlatshunoslik, kameral statistika, siyosiy arifmetika, shtandort, rayonlashtirish, antropogeografiya, geosiyosat, tizim-tarkib, kompleks yondashuv.*

Reja:

- 3.1. Fanning shakllanish tarixi.
- 3.2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani shakllanishining uch asosiy manbai va predmetiga uch xil yondashuv.
- 3.3. Yangi iqtisodiy-ijtimoiy geografik fanlar va geografiya jamiyatlari.



3.1-§. Fanning shakllanish tarixi va o'ziga xos xususiyatlari

Odatda, u yoki bu fanning vujudga kelishi uchun ijtimoiy talab, ehtiyoj yoki «buyurtma» bo'lishi kerak. Bundan oldin esa shu fanga tegishli zarur ma'lumotlar, obyektiv borliqdan olingan, to'plangan dastlabki bilimlar va taxminlar shakllanadi. So'ngra turli voqeliklar orasidagi sabab-oqibat munosabatlari hamda ma'lum sharoitda takrorlanib turadigan qonuniyat, aloqadorliklarni asoslash imkoniyati tug'iladi. Demak, obyektiv borliqni kuzatish, mushohada qilish, tez-tez uchraydigan voqealarni tahlil qilish negizida *muayyan fanga doir bilimlar majmuasi vujudga keladi, ular asta-sekin ilmga va fanga aylanadi.*

Har qanday fan bunday huqiqiy maqomga ega bo'lishi, shakllanishi uchun o'zining obyekti, predmeti, metodi va metodologiyasi (usuli va uslubiyoti), asosiy tushuncha, kategoriya va qonuniyatlari, maktab, markaz va yo'nalishlariga salmoqli ilmiy asarlar, tadqiqotlarga ega bo'lishi va uning boshqa fan vakillari tomonidan tan olinishi talab

etiladi. Shuningdek, mazkur fanning o'quv predmeti sifatida o'qitilishi, maxsus fakultet, kafedra yoki laboratoriyalarning tashkil etilishi ham katta ahamiyatga ega.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani ham yuqoridagi shart-sharoitlar, obyektiv zaruriyatlar asosida vujudga kelgan va rivojlanib borgan. Dastlab «iqtisodiy geografiya» iborasini buyuk rus qomusiy olimi M.V.Lomonosov ishlatgan. Biroq u davrda iqtisodiy geografiya fani shakllanmagan, faqat shunday atama yoki tushuncha paydo bo'lgan, xolos.

Mazkur fanning aniq bir tug'ilgan yili, joyi (manzili) ma'lum emas. Har holda tadqiqotlar ko'rsatishicha, u dastlab XIX asrning birinchi yarmida, asosan Germaniyada ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish masalalarini o'rganish bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan bo'lsa, ajab emas.

Iqtisodiy geografiya fanining shakllanish jarayoni uning asosiy tushunchalarini paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan sodir bo'lgan. Eng avvalo, bu fanning «poydevorini» *hududiy mehnat taqsimoti* hamda *iqtisodiy rayonlashtirish* ta'limotlari tashkil qiladi. Binobarin, iqtisodiy geografiyaning tarixini, aynan, ana shu ikki nazariy tushunchalar belgilaydi. Jumladan, Y.G.Saushkinning ta'kidlashicha, iqtisodiy geografiya faning tarixi – bu iqtisodiy rayonlashtirishdir. Agar ana shundan kelib chiqadigan bo'lsak, iqtisodiy geografiya fanining yaratilishida rus olimi K.I.Arsenyevning xizmatlari ham buyuk bo'lgan⁷.

Iqtisodiy geografik mazmunga ega bo'lgan ma'lumotlar Sharqda ham qadimdan mavjud bo'lgan. Bunday (aholi va uning xo'jaligi, xalqlarning urf-odatlarini, milliy va diniy tafovutlar, hududlar bo'yicha rivojlanishning farqlari kabi) ma'lumotlar Beruniy, Ulug'bek, Bobur, Behbudiy asarlarida ham uchraydi, ammo bu va boshqa olimlarning geografik meroslari yaxshi o'rganilmagan. Shu bilan birga, ko'pgina iqtisodiy geografik ma'lumotlar xitoy va arab sayyohlarining asarlarida ham topiladi. Ular asosan savdo, hunarmandchilik, bozor va shaharlarga katta e'tibor berishgan. Aytish lozimki, aynan ana shu shahar va bozor tafsiloti o'ziga xos geoinikatorlar sifatida hududlarning tarixiy geografik holatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududiy mehnat taqsimoti keng ko'lamda XIX asrda, ayniqsa, kapitalizm davrining boshlanishi bilan bog'liq yirik sanoat ishlab chiqarishi hamda xalqaro savdo-sotiq va transport tizimi asosida

⁷ olim 1818- hamda 1848-yillarda Rossiyani iqtisodiy rayonlarga ajratgan

rivojlanib boradi. Bu esa iqtisodiy makonning ichki turlanishiga va, ayni vaqtda, iqtisodiy geografik bilimlarga bo‘lgan ehtiyojlarga olib keladi.

Ma’lumki, Buyuk geografik kashfiyotlardan so‘ng Yer sharida ochilmagan joy qolmadi; endi geotizim o‘zining berk xususiyatini oldi. Bu esa shakllanib bo‘lgan jahonning geoiqtisodiy va geosiyosiy makonni mamlakat va mintaqalar doirasida chuqur o‘rganishni dolzarb qilib qo‘ydi; ekstensiv oddiy kuzatish va tavsiflashdan intensiv ilmiy tadqiqotlarga, hududiy tahlil, tashxis va prognoz qilishga o‘tili.

1749-yilda nemis olimi G.Anxenval statistika to‘g‘risida o‘z kitobini nashr ettiradi va ushbu fanga asos soladi. Uning statistikasi mamlakat hayotiga oid barcha miqdoriy ko‘rsatkichlarga (soliq, davlat chegarasi, maydoni, aholisi, armiyasi, qazilma boyliklari va h.k.) bag‘ishlanganligi sababli *u tasviriy davlatshunoslik (statistika: «state» – shtat, ya’ni davlat), kameral statistika mazmuniga ega edi.* Germaniya statistikasida fakt va raqamlar juda ko‘p bo‘lib, u, eng avvalo, mamlakat hayotini miqdor jihatidan tasvirlab berardi, xolos. Shu sababdan, uning tahliliy, ilmiy ahamiyatiga ko‘ra axboriy tomonlari ko‘proq bo‘lgan.

Bundan avvalroq (XVII asr oxirlarida) ingliz iqtisodchisi U.Pettining ham statistika to‘g‘risidagi asari chop ettirilgan edi. Uning bu kitobida mamlakat siyosiy-iqtisodiy hayoti, dengiz kemachiligi va savdo-sotiq bilan bog‘liq ma’lumotlar, ularning tahlili hamda ayrim qonuniyatlarga e’tibor berilgandi. Demak, Petti statistikasining, aniqrog‘i, matematik statistikasining fanga yaqinligi ancha yuqori bo‘lgan bo‘lib, uni «siyosiy arifmetika» deb ham yuritishgan. Professor A.A.Soliyevning fikriga ko‘ra, nemis statistikasi keyinchalik iqtisodiy geografiyaga, ingliz statistikasi esa avvalgi siyosiy iqtisod – hozirgi iqtisodiyot nazariyasi fanlariga asos bo‘lib xizmat qilgan. Aynan, nemis statistikasi ta’sirida boshqa qit’alarda ham statistika va iqtisodiy geografiya fanlari shakllangan.

Geografiya va, shu jumladan, iqtisodiy geografiyaning vujudga kelishida geografik determinizm yo‘nalishi hamda nemis olimi F.Rattselning «Antropogeografiya» va «Siyosiy geografiya» kitoblari ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, bu borada Germaniyada olib borilgan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bilan bog‘liq klassik nazariy tadqiqotlarning o‘rni beqiyos. Jumladan, I.Tyunen qishloq xo‘jaligini shahar atrofida halqasimon joylashtirish; A.Veber sanoat korxonalarini turli omillardan kelib chiqqan holda hududiy tashkil qilinishni o‘rgangan. Keyinchalik, ularning vatandoshlari V.Kristaller va A.Lyoshlar aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarini joylashtirish va,

umuman, xo‘jalik tarmoqlarini hududiy tashkil etishni tadqiq qilishgan; A.Lyosh iqtisodiy landshaft yoki hozirgi zamon tili bilan aytganda, iqtisodiy rayonlar, bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalikni joylashtirish masalalarini chuqur va atroflicha tahlil etgan.

Shunday qilib, iqtisodiy geografiyaning fan maqomida shakllanishida nemis statistikasi va «shtandort» (joylashtirish) ta’limotining ahamiyati katta bo‘lgan. Qolaversa, dunyoda ilk bor geografiya fakulteti va kafedralari ham aynan Germaniya oliy o‘quv yurtlarida tashkil etilgan. Umuman olganda esa nemis shtandort maktabi va statistikasi ko‘proq tarmoqlar iqtisodiyotiga mansub izlanishlar olib borgan. I.Tyunen – qishloq xo‘jaligi, A.Veber – sanoat, V.Kristaller – aholiga xizmat ko‘rsatish, A.Lyosh esa barcha xo‘jalik tarmoqlarini geografik joylashtirish masalalari bilan shug‘ullanishgan. Qisqacha qilib aytganda, Germaniyada iqtisodiy geografiyaning tarmoq – statistika yo‘nalishi shakllangan bo‘lib, keyinchalik bu yo‘nalishdan ilhomlangan Rossiya va uning ta’sirida Sharqqa ham kirib borgan.

Demak, nemis maktabi ko‘proq iqtisodiy yo‘nalishda bo‘lgan, rayonlar yo‘nalishi esa Fransiya va Rossiyada vujudga kelgan (A.Boli, K.I.Arsenyev, D.I.Mendeleyev va b.). Binobarin aytish mumkinki, hozirgi zamon mazmunidagi iqtisodiy geografiyaning ilk asoslari mazkur mamlakatlarda yaratilgan. Biz tarixiy nuqtai nazardan bu fanning vujudga kelishini qisqacha formula ko‘rinishida «Iqtisodiy geografiya = Germaniya + Fransiya + Rossiya» baholash mumkin.

Ta’kidlash lozimki, Germaniyada shakllangan tarmoq – statistika ilmiy yo‘nalishi Rossiyaga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan⁸. Chunonchi, V.N.Tatishev (XVIII asr) kabi rus olimlarining tadqiqotlari asosan nemis statistikasi va geografiyasi ruhida olib borilgan. 1820-yillarda Peterburg universitetida dastlabki tashkil etilgan kafedralarning nomi ham «Geografiya va statistika» deb atalgan. Bevosita iqtisodiy geografiya fani uchun esa K.I.Arsenyevning Rossiyani iqtisodiy rayonlashtirish to‘g‘risidagi ishlari katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Xulosa qilish mumkinki, bu davrda iqtisodiy geografiya fanining vujudga kelishiga zamin yaratilgan. Ammo aynan hozirgi ko‘rinishda fanning rasmiy paydo bo‘lishi keyinroq sodir bo‘lgan. Chunonchi, «Iqtisodiy geografiya» nomli ilmiy jurnal AQShda, shu nomdagi kafedra

⁸ U davrda AQSh va boshqa rivojlangan davlatlarda mazkur fan unchalik taraqqiy etmagan edi. Hududning kattaligi, resurslarni o‘zlashtirish zaruratining mavjudligi va xo‘jalik tizimlarini G‘arb va Sharq bo‘yicha uyg‘unlashtirishning talab etilishi Rossiyada mazkur fanning rivojlanishiga turtki bo‘lgan

Germaniya va Rossiyada XX asrning birinchi choragida tashkil qilingan. Jumladan, Germaniyada dastlabki geografiya kafedresi Berlin universitetida 1820-yilda Karl Ritter tomonidan tashkil etilgan. U umrining oxirigacha, ya'ni 1859-yilgacha ushbu kafedraga mudirlik qilgan.

Iqtisodiy geografiya boshqa hududlarga qaraganda keyingi vaqtlarda Rossiyada e'tibor markaziga aylana boshlanadi. Yevropada statistika bilan uyg'unlashgan ushbu fanni hududiy lashtirish katta samara berishi tobora ayon bo'la boshlaydi. Albatta, fanni cheksiz raqamlar bilan to'ldirish va geografiyani faqat tarmoqlar tahlili bilan tushuntirish maqsadga muvofiq emas. Asosiy ma'lumotlari iqtisodchi bo'lgan S.V.Bernshteyn-Kogan va N.N.Baranskiylar iqtisodiy geografiyaning hududiy jihatlariga ko'proq e'tibor berishning tarafdorlari bo'lgan. Natijada, ular iqtisodiy geografiyaning rayonlar yo'nalishiga ko'proq urg'u qaratishgan. Demak, iqtisodiy geografiya yanada geografiylashtirilgan, rayonlar ta'rifi va tavsifiga katta urg'u berilgan. Ehtimol, bu holat iqtisodiy geografiyani iqtisodiyot tizimidan geografiya fanlar blokiga kiritilishiga sabab bo'lgan.

Iqtisodiy geografiya II Jahon urushi va undan keyingi yillardagi xo'jalikni qayta tiklash ishlarida katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etdi. Shu nuqtai nazardan, Moskvada tashkil etilgan КЕПС⁹ (Комиссия по изучению естественных производительных сил) va uning asosida СОПС¹⁰ (Совет по изучению производительных сил) ning vujudga kelishi nihoyatda muhim bo'lgan. Ushbu ilmiy-tadqiqot tashkilotlari mamlakatning turli hududlarida tabiiy resurslardan foydalanish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha konsepsiya va sxemalarni yaratganki, mohiyatan bu ishlar iqtisodiy geografiya fani doirasida olib borilgan.

AQShda xo'jalik tizimlarini xalqaro miqyosda tashkil etish va tashqi iqtisodiy aloqalarni yuritish, Yaponiyada okean resurslarini o'zlashtirish, Xitoyda demografik bosimni barqarorlashtirish bo'yicha tadqiqotlarda iqtisodiy geografik bilimlarning o'рни va ahamiyati beqiyos ahamiyat kasb etdi.

Sobiq Ittifoq davrida iqtisodiy geografiya fanining rivojlanishida Moskva, Peterburg, Kiyev, Qozon, Perm, Irkutsk, Voronej, Boku, Tbilisi, Toshkent, Olma-Ota va boshqa shaharlardagi universitetlarning

⁹ Tabiiy ishlab chiqaruvchi kuchlarni o'rganish Komissiyasi

¹⁰ Ishlab chiqaruvchi kuchlarni o'rganish bo'yicha Kengash

roli muhim bo'lgan. Ayniqsa, bu xususda N.N.Baranskiy, N.N.Kolosovskiy, Y.G.Saushkin, B.N.Semevskiy, O.A.Konstantinov, V.V.Pokshishevskiy, I.A.Vitver, I.M.Mayergoyz, M.K.Bandman, B.S.Xorev, S.B.Lavrov, G.M.Lappo, Y.N.Persik, A.T.Xrushev kabilar juda samarali xizmat qilishgan. Ular iqtisodiy geografiyaning tahliliy materiallaridan xo'jalikni hududiy joylashtirish, aholi va demografiya masalalari, geourbanistik tadqiqotlar olib borish, sanoatni hududiy tashkil etish, xalqaro aloqalarni olib borish kabi yo'nalishlarda foydalanishgan.

Shu bilan birga, iqtisodiy geografiya fani oldida turgan vazifalar hali yana ko'p. Ular, eng avvalo, mazkur fanning yangi sharoitda nazariy masalalarini o'rganish, uning obro' va nufuzini ko'tarish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hududiy tomonlarini chuqur tadqiq qilish va bu borada ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish, salohiyatli kadrlar yetishtirish hamda ularga zamonaviy o'quv qo'llanma va darsliklarni tayyorlashdan iboratdir.

3.2-§. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani shakllanishining uch asosiy manbai va predmetiga uch xil yondashuv

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya atamasi dastlab XVIII asrda qo'llanila boshlagan bo'lsa-da, uning fundamental asoslari insoniyat paydo bo'lganidan buyon mavjud bo'lgan. Jumladan, antik davrlardagi faylasuflarning qo'lyozmalarida ham aholining turmush-tarzi, madaniyati va urf-odatlari, boshqa hududlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari, davlat boshqaruv shakllari va xavfsizlik masalalari kabilar o'z aksini topgan. O'rta asrlarda esa Sharq qomusiy allomalarining asarlarida xo'jalik tuzilmasi va aholi joylashuvining o'ziga xos qonuniyatlari, etnoslar tarixi va urf-odatlarining kundalik yashash faoliyatiga ta'siri tahlil qilingan. Dengiz yo'llari orqali yangi quruqliklar kashf etila boshlagach, madaniy va iqtisodiy aloqalar rivojlangan, migratsiya jarayonlari tobora faollashib, o'zlashtirilgan hududlardagi resurslardan foydalanish imkoniyati kengaygan. Bu esa sanoatlashuvning paydo bo'lishiga zamin yaratgan. XVIII asrda sanoat inqilobining ro'y berishi natijasida sanoat va transportni hududiy joylashtirishning ilmiy asoslarini yaratishga zarurat tug'ilgan. Aholi sonining ortishi natijasida esa xizmat ko'rsatish sohalarini tashkil etishga ehtiyoj orta borgan. Xalqaro mehnat taqsimotining vujudga kelishi bilan davlatlar o'rtasidagi munosabatlar kuchaygan, global aloqalar

jadallashgan. Keyinchalik, resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va antropogen bosim natijasida vujudga kelgan ekologik muammolarni bartaraf etish, oziq-ovqat xavfsizligi, geosiyosiy vaziyatlarning keskinlashuvi kabi jarayonlarga e'tibor kuchaydi.

Shunday qilib, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya birdaniga vujudga kelmagan. Uning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining hududiy tomonlariga bog'liq bo'lgan o'zgarishlar bilan belgilanadi. Mavjud ilmiy manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy geografiyaning shakllanishida, uning tarixiy zaminida 3 ta yo'nalish asosiy sabab bo'lgan. Bu ham bo'lsa, eng avvalo, kameral statistika, shtandort nazariyasi va tabiiy geografiyadir.

Ushbu yo'nalishlar ko'proq G'arbiy Yevropa va Rossiyada paydo bo'ldi. Masalan, Rossiyada kameral statistika yoki «siyosiy arifmetika», davlatshunoslik, davlatning boyligi – yeri, mablag'i va aholisini hisob-kitob qilish, uni boshqarish, soliq va askar to'plash kabi masalalar bilan shug'ullangan holda V.N.Tatishev, ota-o'g'il P.P. va V.P.Semenov-Tyanshanskiylar faoliyati bilan bog'liq bo'ldi.

O'sha paytlarda statistika o'z qamroviga etnografiya va harbiy geografiya masalalari hamda savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanuvchi tijorat geografiyasiga doir muammolarni ham olgan. V.N.Tatishev (1686-1750) geografiya fanini «sifat» jihatidan uchga bo'lgan: matematik geografiya (ya'ni hozirgi geodeziya va kartografiya), tabiiy va siyosiy geografiya.

Iqtisodiy geografiya masalalari siyosiy geografiya doirasiga kiritilgan edi. Ayni paytda, Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida, keyinchalik mustamlaka yoki qaram (koloniya) mamlakatlarining paydo bo'lishi, dengiz-suv naqliyotining rivojlanishi va boshqa omillar davlatlararo savdo-sotiq ishlarini olib borishga, tijorat geografiyasining vujudga kelishiga sababchi bo'ldi. Shubhasizki, bu yo'nalish dastavval eng ko'p mustamlaka mamlakatlariga, qulay transport-geografik mavqega va yuksak dengiz kemachiligiga ega bo'lgan Angliyada rivojlana boshladi.

Siyosiy va harbiy geografiya Rossiyada XIX asr o'rtasida keng tarqala boshladi. Shuni aytish kerakki, «siyosiy geografiya» hamda «harbiy geografiya» tushunchalarini ham birinchi marta M.V.Lomonosov (1711-1765) qo'llagan. Bu yo'nalishlar o'z obyekti va mohiyatiga ko'ra bir-birlariga juda yaqin, turdosh bo'lib, ular aloqadorlikda rivojlanib kelgan. Rossiyadagi Ulug' Vatan (1812) va Qrim urushlari, boshqa siyosiy voqealar, Yevropa mamlakatlaridagi

inqilobiy o'zgarishlar, yangi davlatlarning shakllanishi va yangi ishlab chiqarish munosabatlarining vujudga kelishi siyosiy va harbiy geografiyaning paydo bo'lishiga zamin yasadi. XIX asrning birinchi yarmida rus harbiysi professor P.A.Yazikov ikki qismdan iborat «Harbiy geografiyaning nazariy tajribasi» mavzuida asar yaratgan bo'lsa, shu asrning o'rtalariga kelib Harbiy Akademiya bosh shtabi qoshida professor D.A.Milyutin (1816-1912) harbiy geografiya kafedrasini tashkil etadi¹¹. Harbiy geografiya faqat urish-yurishlar bilan aloqador masalalar emas, balki mamlakatning iqtisodiy, demografik qudrati, qazilma boyliklari, ulardan foydalanish kabi masalalar bilan ham shug'ullangan. Shu bilan birga, harbiylar juda ko'p geografik ekspeditsiyalarni tashkil etib, ularning o'zlari bu tadbirlarda yetakchilik qilishgan. Jumladan, Rus geografiya jamiyatining ta'sis etilishi va uning faoliyatida admiral V.P.Litke, kartografiya va geografiyani rivojlantirishda general-leytenant A.A.Tillo, geodeziyada general-leytenant V.V.Vitkovskiylarning xizmati samarali bo'lgan. Qozoq geografi va etnografi Ch.Ch.Valixonov, Markaziy Osiyoni o'rgangan V.M.Prjevalskiy ham harbiy zobit bo'lgan.

Iqtisodiy geografiyani yoki unga asos bo'lgan fan yo'nalishlarining shakllanishida boshqa olimlarning xizmati ham sezilarli bo'lgan. Chunonchi, nemis olimi geograf va sotsiolog Fridrix fon Rattsel o'zining Antropogeografiyasini yaratgan¹², siyosiy geografiya va geosiyosatga mansub ishlar olib borgan bo'lsa, undan keyinroq fransuz Pol Vidal de la Blash «Inson geografiyasi»ning asoschisi bo'lgan. Uning bu ilmiy maktabini Rattsel antropogeografiyasidan farqi shundan iboratki, u siyosiy masalalarni chiqarib tashlagan holda ko'proq inson va uning faoliyatini atrof-muhitga moslashuvi, muvofiqlashuviga (posibilizmga) e'tibor bergan va tabiiy geografik omillar, eng avvalo, iqlim sharoitlarining jamiyat rivojlanishidagi rolini biroz «yumshatgan».

Keyinchalik, Rattsel g'oyalari asosida geografik determenizmning siyosiy g'oyalar bilan boyitilishi, singdirilishi natijasida o'ta reaksiyon geografik siyosat (geosiyosat) vujudga kelgan. Bunda shved R.Chellenning ham xizmatlari katta bo'lgan. Ammo, bu ma'nodagi an'anaviy geografik siyosatni regional yoki hududiy siyosat, hozirgi geografik siyosat bilan tenglashtirish noto'g'ri.

¹¹ Ю. Г. Саушкин «История и методология географической науки» – М.: МГУ, 1972.

¹² Antropogeografiya ko'proq hozirgi aholi geografiyasiga yaqinroq bo'lib, u inson faoliyatini barcha geografik hodisalar doirasida tahlil etgan, jamiyat taraqqiyotida tabiiy omillarga yetakchi o'rin berilgan

Shuningdek, iqtisodiy geografiyaga tegishli ilmiy muammolar boshqa davlat olimlari va turli milliy maktablar tomonidan ham o‘z yechimini topgan. Bu borada shved, ingliz, amerika va boshqa olimlar ishlarini ko‘rsatish o‘rinli. Masalan, ingliz G.G.Chizxolmning o‘tgan asr oxirlarida yozgan tijorat geografiyasi, undan keyinroq yashagan niderland X.Bos, shveytsariyalik G.Byoshning jahon xo‘jalik geografiyasi, amerikalik olimlar U.Ayzard hamda V.Leontyevning (kelib chiqishi Rossiyadan) hududiy iqtisodiyot, fransuz F.Perruning ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda qutblar va hududiy tengsizlik nazariyasi, P.Xaggetning iqtisodiy geografiyada (human geography) hududiy tahlil, amerikalik Ch.Garris va fransuzlar J.Bojye Garnye hamda Shabolar, shved G.Aleksandersonning shaharlar geografiyasi, AQSh olimi (avval Buyuk Britaniyada ishlagan) D.Xarveyning geografiya fanining umumnazariy masalalari, uning vatandoshi G.Uaytning tabiiy resurslar va tabiiy ofatlarga bag‘ishlangan asarlari shular jumlasidandir.

Yuqorida iqtisodiy geografiya fanining tarixiy kelib chiqishi, uning ilmiy asoslari, manbalariga qisqacha to‘xtab o‘tildi. Ammo bu o‘rinda, afsuski, Sharq qomusiy allomalarning ishlari keltirib o‘tilmadi. Chunonchi, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ham bu boradagi ilmiy meroslari va, xususan, savdo geografiyasi, dehqonchilikni joylashtirish va rivolantirish, sug‘orish inshootlarini qurish, Buyuk ipak yo‘li va shaharlar geografiyasiga oid juda ko‘p ilmiy meroslari mavjud, ammo ular yetarlicha o‘rganilmagan.

Shuningdek, markazlashgan davlat asoschisi Amur Temur yurishlarida ham harbiy geografiya va statistikaning o‘rni beqiyos bo‘lgan, sarkardaning harbiy yurishlarda qulay geografik nuqtani aniqlay bilishi, etnoslarning xususiyatlarini inobatga olib siyosat olib borganligi tag zahirida fan mazkur fanning nazariy masalalari yotadi. Alouddin Ali Qushchi, Zahiriddin Muhammad Bobur, Nosir Xisrav, Abu Rayhon Beruniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Furqat kabi donishmandlarning ham bu boradagi xizmatlari bo‘lsa kerak.

Umuman olganda, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani tabiiy jarayonlardan mutloq ayro holda shakllangan deyish xato bo‘ladi. Butun o‘tmish davomida iqtisodiy geografiya tabiiy geografiya bilan birgalikda rivojlanib kelgan. Albatta, bunda tabiiy geografik masalalar tabiat falsafasi, metafizika doirasida avvalroq o‘rganilib borilgan. Keyinchalik jamoa, jamiyat taraqqiyoti bilan uning moddiy asosi xo‘jalik – iqtisodiyot ham rivojlanib borgan va shu maqsadda tabiiy geografik

komponentlarga, xususan iqlim (ob-havo), tuproq, o'simlik va issiqlik – haroratga katta e'tibor qaratilgan.

Hatto geosiyosatning asoschisi Fridrix Rattsel (1844-1904) va buyuk fransuz olimi Vidal de-la-Blash (1845-1918) ham dastlabki ilmiy tadqiqotlarini tuproqdan boshlagan. Tuproq esa qadimdan dehqonchilik, qishloq xo'jaligining – boylikning asosi sifatida qaralib kelingan. Hozirgi kunda bu murakkab, barcha tabiiy hodisalarning hosilasi tuproqning boshqa xususiyatlari ham borki, ular to'liq o'rganilmagan, uning sirlari atroflicha aniqlanmagan. Aynan tuproqni o'rganish tufayli V.V.Dokuchayev (1846-1903) tabiiy geografiya fani, landshaftshunoslik, kompleks geografik tadqiqotlarning asoschilaridan biri sifatida tan olingan va e'tirof etilgan.

Fanning frontal va fundamental rivojlanish jarayonida, turli xil yondashuvlar uning predmetiga aniqlik kiritib boraveradi. Bu xususda 3 ta asosiy yondashuv, ya'ni metodologik tamoyilni ajratish mumkin: hududiylik (rayonlashtirish), kompleks va sistemali yondashuv. Ularning har biri iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining ta'rifiga, mazmun–mohiyati, maqsadida o'z ifadasini topadi:

1) *rayonlashtirish* – umumgeografiyaning bosh, birlamchi tushunchasi asosida iqtisodiy geografiya faniga quyidagicha ta'rif beriladi: iqtisodiy va ijtimoiy geografiya turli mamlakat va mintaqalarda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari hamda aholi (uning yashash sharoitini hisobga olgan holda) joylashuv xususiyatlari va *ijtimoiy-iqtisodiy rayonlar* shakllanish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan;

2) *kompleks yoki majmualiy yondashuv* bo'yicha: iqtisodiy va ijtimoiy geografiya turli mamlakat va mintaqalarda xo'jalik tarmoqlari hamda aholini o'zaro aloqadorlikda joylashuv xususiyatlari va *hududiy-ijtimoiy majmualarning* shakllanish qonuniyatlarini o'rganadi;

3) *tizim-tarkib* nuqtai nazaridan: iqtisodiy va ijtimoiy geografiya turli mamlakat va rayonlarda xo'jalik tarmoqlari va aholining hududiy tashkil etilish xususiyatlari va shu asosda *hududiy-ijtimoiy tizimlarning* shakllanish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan hisoblanadi.

Yuqorida 3 xil metodologik yondashuv nuqtai nazaridan fanning 3 xil ta'rifi berildi. Bu ta'riflar shaklan farqlanadi, mazmun va mohiyati bo'yicha bir–biriga ancha yaqin.

Demak, yirik olimlarning ilmiy izlanishlari va ilmiy markazlarning shakllana borishi bilan fan ham rivojlanib, takomillashib boravergan. Bu borada, ilmiy yadrolar – geojamiyatlarni alohida keltirish o'rinlidir.

3.3-§. Yangi iqtisodiy-ijtimoiy geografik fanlar va geografiya jamiyatlari

Iqtisodiy geografiyaning shakllanishi va rivojlanishida Geografiya jamiyatlarining tashkil etilishi ham ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan. Albatta, dunyoning barcha mamlakatlaridagi geografik jamiyatlarni tashkil etilgan yili bilan sanab o'tish deyarli imkonsiz, chunki ularning soni juda ko'p va turli mamlakatlarda ularni har xil nom bilan ataladi, turli maqom va darajalarga ega (3.1-jadval).

Har qanday geografik jamiyatning vazifalari nafaqat o'z mamlakatining, balki butun dunyoning tarixiy-geografik merosini o'rganish bo'lgan, hozir ham shunday va kelgusida ham shunday bo'lib qoladi.

Jahonda ilk geografik jamiyatlar XIX asrda paydo bo'la boshlaganida iqtisodiy geografiya hali alohida fan sifatida shakllanmagan edi. Biroq, dastlabki geografiya jamiyatlari keyinchalik iqtisodiy geografiyaning poydevoriga tamal toshini qo'ygan.

O'sha davrda geografiya jamiyatlari tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy geografiya bilan bog'liq asosiy faoliyat va tadqiqot yo'nalishlari – ekspeditsiyalar orqali tadqiq etilgan hududlar va foydali qazilma konlarini kartalashtirish; tashqi savdo aloqalari bo'yicha tahlil va prognozlar ishlab chiqish; tabiiy boyliklarning iqtisodiy qiymati va resurslar bilan ta'minlanganlik darajasini baholash orqali ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish loyihalarini yaratish; aholining hududiy joylashuvi, migratsiya va urbanizatsiya jarayonlarini o'rganish; tabiiy sharoitga bog'liq holatda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini joylashtirish bilan shug'ullanishgan.

Keyinchalik, xalqaro munosabatlarning faollashuvi, turizm va tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi, jahon siyosiy maydonidagi geosiyosiy o'zgarishlar, resurslarning cheklanganlik muammosi va ekologik inqiroz ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning mavqeyini oshiradi.

Chunonchi, geografik ekspeditsiyalarning aksariyati tashkil etilishiga (dala-tadqiqot) ko'ra tabiiy geografik xarakterga ega bo'lsa, maqsadiga ko'ra (yangi yerlarni o'zlashtirish, foydali qazilma konlarini aniqlash, resurslarni xo'jalik maqsadlarida baholash) iqtisodiy geografik ahamiyat kasb etgan. Bunga misol tariqasida, Chor Rossiyasi tomonidan Markaziy Osiyoga uyushtirilgan geografik ekspeditsiyalarni keltirish mumkin.

Jahondagi ayrim mashhur geografiya jamiyatlari

| № | Jamiyatlarning nomlanishi | Tashkil topgan yili | Jamiyat shtab-kvartirasi joylashgan shahar |
|----------|---|----------------------------|---|
| 1 | Fransiya geografiya jamiyati | 1821 | Parij |
| 2 | Germaniya geografiya jamiyati | 1828 | Berlin |
| 3 | Qirollik geografiya jamiyati | 1830 | London |
| 4 | Meksika geografiya va statistika ittifoqi | 1833 | Mexiko |
| 5 | Rossiya geografiya jamiyati | 1845 | Sankt-Peterburg |
| 6 | Amerika geografiya jamiyati | 1851 | Manxettin |
| 7 | Italiya geografiya jamiyati | 1867 | Rim |
| 8 | Gollandiya Qirollik geografiya jamiyati | 1873 | Utreht |
| 9 | Lissabon geografiya jamiyati | 1875 | Lissabon |
| 10 | Misr geografiya jamiyati | 1875 | Qohira |
| 11 | Belgiya Qirollik geografiya jamiyati | 1876 | Bryussel |
| 12 | Tokio geografiya jamiyati | 1879 | Tokio |
| 13 | Avstraliya geografiya jamiyati | 1883 | Sidney |
| 14 | Lima geografiya jamiyati | 1888 | Lima |
| 15 | Finlyandiya geografiya jamiyati | 1888 | Helsinki |
| 16 | Norvegiya geografiya jamiyati | 1889 | Oslo |
| 17 | Turkiston geografiya jamiyati | 1897 | Toshkent |
| 18 | Janubiy Afrika geografiya jamiyati | 1917 | Stellenbos |
| 19 | Sloveniya geografiya assotsiatsiyasi | 1922 | Lyubliyan |
| 20 | Argentina geografik tadqiqotlar jamiyati | 1922 | Buenos-Ayres |
| 21 | Kanada Qirollik geografiya jamiyati | 1929 | Ottava |
| 22 | Armaniston geografiya jamiyati | 1935 | Yerevan |
| 23 | Hindiston Milliy geografiya jamiyati | 1946 | Banoras |
| 24 | Gonkong geografiya assotsiatsiyasi | 1969 | Gonkong |
| 25 | Saudiya geografiya jamiyati | 1971 | Ar-Riyod |

Izoh: Jadval mualliflar tomonidan shakllantirilgan

Jumladan, XIX asrning oxirlariga kelib Turkistonda faoliyat yuritgan geograflar orasida Imperatorlik Rus Geografiya jamiyati (IRGJ)ning hududiy bo'limini barpo etish to'g'risidagi fikr paydo bo'ladi. Natijada, 1897-yilda IRGJ Turkiston bo'limi tashkil etiladi. IRGJ Turkiston bo'limining tashkiliy qurultoyi 1897-yil 12-martda Toshkentda bo'lib o'tadi. Ushbu qurultoyda «IRGJ Turkiston bo'limi to'g'risidagi Nizom» qabul qilinadi. IRGJ Turkiston bo'limi faoliyatining birinchi yilida uning jami 72 ta a'zo mavjud bo'lgan.

Milliy-hududiy chegaralanishdan so'ng, 1925-yilda Turkiston bo'limi «Davlat Geografiya jamiyatining O'rta Osiyo bo'limi» deb qayta nomlanadi. Uning negizida 1930-yilda Davlat Geografiya jamiyatining O'zbekiston filiali tashkil etiladi. O'n yildan so'ng, Davlat Geografiya jamiyatining «SSSR Geografiya jamiyati» deb qayta nomlanishi munosabati bilan Respublika geograflari ilmiy jamiyati «SSSR Geografiya jamiyatining O'zbekiston filiali» deb qayta nomlandi.

1964-yilda SSSR Geografiya jamiyatining O'zbekiston filiali O'zbekiston SSR Geografiya jamiyatiga aylantiriladi. Mustaqillikdan so'ng, geograflarning milliy uyushmasi «O'zbekiston Geografiya jamiyati» degan nom bilan atala boshlanadi. 2001-yildan buyon O'zbekiston Geografiya jamiyati O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan nodavlat-notijorat tashkilotdir. O'z davrida, jamiyatga iqtisodiy geograflardan professorlar Z.M.Akramov (1996-2003) va A.S.Soliyev (2003-2016) rahbarlik qilishgan.

120 yildan ortiq vaqt mobaynida O'zbekiston Geografiya jamiyati O'zbekistonning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tarixiy voqealar bilan bog'liq ko'plab o'zgarishlarga duch keladi. Biroq, O'zbekiston Geografiya jamiyati barcha zamonlarda geografik tadqiqotlarni tashkillashtirish va muvofiqlashtirish, geograflarning ilmiy asarlarini nashr etish va geografik bilimlarni targ'ib qilishda muhim rol o'ynagan. Shu o'rinda, O'zbekiston Geografiya jamiyatining tarixi mamlakatda geografiya fanining rivojlanish tarixini aks ettirishi, uning yetakchi vakillari doimo jamiyat faollari orasida bo'lganligini ta'kidlash lozim.

Shuningdek, iqtisodiy geografiya fanining tarixiy rivojlanishi, eng avvalo, shu fan nomi bilan yuritiladigan kafedralarning ochilishida ham o'z aksini topadi. Jumladan, bunday kafedra Rossiyada, ya'ni Peterburg politexnika institutida prof. V.E.Den tomonidan 1902-yilda ochilgan.

Keyinchalik, u Rossiya iqtisodiy geografiyasining birinchi professori sifatida shunday nomdagi kafedrani Sankt-Peterburg universitetida ham tashkil qiladi. Rus iqtisodiy geografiya nazariyasining asoschisi N.N.Baranskiy iqtisodiy geografiya kafedrasini 1921-yilda Moskva shahridagi Kommunistlar universitetida (1921-1938-yy.) tashkil etadi. Bu o‘rinda eslatib o‘tish lozimki, O‘rta Osiyoda bunday kafedra ilk bor Toshkent davlat universitetida (hozirgi O‘zMU) 1940-yilda tashkil etilgan.

Demak, tabiiy geografiya fanini ham iqtisodiy geografiya fani shakllanishida asosiy manba sifatida hisobga olish zarur. Chunki, dastlabki iqtisodiy geografik mazmunga ega bo‘lgan yo‘nalishlar – qishloq xo‘jaligi, o‘rmonchilik, baliqchilik, tog‘-kon sanoati kabilar aynan tabiiy sharoit va tabiiy resurslar bilan bog‘liq bo‘lgan.

Avval ta’kidlaganganidek, iqtisodiy geografiya fani shakllanishidagi 3 ta asosiy manbaning ikkitasi – kameral statistika va shtandort nazariyasi hisoblanadi. Bu borada qisman bo‘lsada ingliz tijorat geografiyasi hamda siyosiy (uning bir bo‘limi harbiy) geografiyaning ham o‘rni yo‘q emas. Geografiyaning bosh tushunchasi – rayon, rayonlashtirishda esa fransuz va rus olimlarining xizmatlari katta. Shunday bo‘lsa-da, ikki nemis yo‘nalishi (kameral statistika + shtandort) g‘oyalarining natijasini «iqtisodiy geografiya» deb ta’riflashmagan. Aksincha, bu masalalar ko‘proq hududiy iqtisod yoki geoiqtisod doirasida, iqtisodiyot fanining bir qismi sifatida qaralgan.

Biroq, mazmunan ularning ishlari hozirgi iqtisodiy geografiyaga to‘g‘ri keladi. Shuni inobatga olib, hozirgi kunda ham fanning ta’rifida «ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi» iborasini qoldirish mumkin, zero har qanday joylashtirish muayyan bir hududda amalga oshiriladi. Biroq fanning bugungi predmeti uchun bu kifoya qilmaydi; u endi iqtisodiygina emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy geografiya maqomini olmoqda. Shu sababdan, bunday ta’rif fanning nomi bilan mazmuni, surati bilan siyratini, shakl va mohiyatini muvofiqlashtirmaydi.

To‘g‘ri, «ishlab chiqarish kuchlari» eng avvalo uning subyekti, egasi bo‘lgan aholini ham o‘z ichiga oladi. Lekin bu yerda aholi asosan ishchi kuchi mazmunida, ya’ni iqtisodiy kategoriya shaklida nazarda tutiladi. Inson, uning ijtimoiy hayoti, sotsial munosabatlari esa bu ibora qamrovidan chetda qoladi. Busiz fan ilgariydek iqtisodiy, ishlab chiqarish geografiyasi bo‘lib qolaveradi.

Endilikda, mazkur fanni iqtisodiy + ijtimoiy geografiya sifatida talqin etish o‘rinli bo‘ladi. Ya’ni iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

mustaqil fan sifatida turli mamlakat va rayonlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish va joylanish xususiyatlari hamda inson hayot faoliyati va yashash tarzining hududiy jihatlarini o'rganadi.


Aholi va uning xo'jalik faoliyatini geografiya o'z predmeti nuqtai nazariyadan tadqiq etishi tabiiy holdir. Zero, aholining joylashuvi va yashash faoliyatining barchasi ma'lum hududda kechadi. Professor V.V.Pokshishevskiy aytganidek, *qayerda hudud to'g'risida so'z borar ekan, u yerda albatta geografiya bor, uning egasi, shubhasiz, geografiyadir.* Professor A.S.Soliyev tomonidan iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining tarmoq tarkibi avval uch qismga, keyinchalik esa to'rt qismga ajratiladi (3.1-rasm). Ular tarkibiga kiruvchi har bir fan yo'nalishi turli mezonlar asosida bir guruhga kiritilgan.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani o'rganish obyekti, o'ziga xos metod va yondashuvlari, maqsad va vazifalari nuqtai nazaridan turli tarmoqlarga bo'linadi. Jumladan, tadqiqot predmetining obyektga qay tarzda yondashuviga bog'liq tarzda geoiqtisodiy, geosiyosiy, sotsial mezonlar ajratiladi. Mazkur mezonlar asosida fan quyidagi tarmoqlarga ajratiladi:

1) *iqtisodiy geografiya* – iqtisodiyotning resurslar taqsimoti, ishlab chiqarish jarayonlari va ularni joylashtirish masalalari, infratuzilma va iqtisodiy aloqalar bilan bog'liq jihatlarini o'rganadi. Uning tarkibiga tabiiy resurslar geografiyasi, qishloq xo'jaligi geografiyasi, sanoat geografiyasi, transport geografiyasi, qurilish geografiyasi, tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi kabi yo'nalishlar kiritiladi;

2) *ijtimoiy-iqtisodiy geografiya* – aholi va uning hududiy tarkibi; aholi punktlarining iqtisodiy ahamiyati, genezisi, funksiyasi va tasnifi; aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy va tarmoq tarkibi; aholining ish bilan bandligi va ishsizlik darajasining iqtisodiy geografik oqibatlarini bilan shug'ullanadi. O'z navbatida, ushbu tarmoq aholi geografiyasi, shaharlar geografiyasi, qishloq joylar geografiyasi, servis geografiyasi, mehnat resurslari geografiyasi kabi yo'nalishlarga bo'linadi;

3) *sotsial geografiya* – aholining ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, uning milliy-madaniy, ma'naviy-estetik, ruhiy va intellektual xususiyatlarini tahlil qiluvchi ilmiy yo'nalishlar majmui hisoblanadi. Mazkur tarmoq hozirda tobora rivojlanib borayotgan din geografiyasi, rekreatsiya va turizm geografiyasi, tibbiyot geografiyasi, jinoyatchilik geografiyasi, etnogeografiya, fan va ilmiy tadqiqotlar geografiyasi kabi zamonaviy yo'nalishlardan tashkil topgan;



3.1-rasm. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining ichki tuzilishi

4) *siyosiy geografiya* – ma’lum hududning ma’muriy va siyosiy boshqaruv tizimi, sarhadlarning holati va xususiyatlari, tashqi (geosiyosiy) va ichki (mintaqaviy) siyosat, nizolarning hududiy xususiyatlari va geosiyosiy oqibatlari bilan shug‘ullanadi. Ushbu obyektiv voqealikni esa geosiyosat, elektoral geografiya, limologiya, geokonfliktologiya, harbiy geografiya, anklavlar geografiyasi kabi yo‘nalishlar o‘z nuqtai nazaridan tahlil qiladi.

Bundan tashqari, qator yangi fanlar borki, ular geografiyaning «geografik o‘rnidan», ya’ni qirraviy holati, sintez qilish qobiliyatidan kelib chiqadi; bir necha fanlar uyg‘unligi natijasida shakllangan va predmetida inson faoliyati bilan bevosita bog‘liq mazmuni aks ettiruvchi geoeкологиya, nozogeografiya, geopsixologiya kabi zamonaviy yo‘nalishlar tarkib topib boradi. Kelajakda tabiat va jamiyat munosabatlarining yangi bosqichga ko‘tarilishi yangicha tarmoqlarning vujudga kelishiga zamin yaratadi. Shunday bo‘lsa-da, mazkur fan tarmoqlari, o‘z navbatida, turli hududiy ko‘lamda (jahon, mamlakat, viloyat va h.k.) o‘rganilishi mumkinligini, ammo fanni undagi ilmiy yo‘nalishlar bilan chalkashtirish, yangi fanlar «ixtiro» qilish maqsadida uni haddan tashqari parchalab yuborish ham yaxshi emas. Bu tizim-tarkib g‘oyasiga mantiqan ziddir.

Chunonchi, aholi geografiyasini mayda bo‘limlarga bo‘lib, ayollar yoki erkaklar geografiyasi; sanoatda – kiyim kechaklar yoki non geografiyasiga o‘xshash «fanlarni» yaratish kulgili. Tizim ko‘rilayogan maqsad va vazifasiga ko‘ra, o‘zining mustaqilligi, yaxlitligini ma’lum darajagacha saqlab qoladi. Shu bois, tizimni cheksiz maydalash uni bosh maqsadidan chetlashtiradi va bu tizim o‘zgacha ma’no va mohiyatga ega bo‘lib qoladi. Masalan, sanoat geografiyasida birlamchi bo‘lib sanoat korxonasi, aholi punktlari geografiyasida bu maqomda alohida qishloq yoki shaharlarni olish mumkin. Shu nuqtai nazardan, ularni yanada ko‘p qismlarga bo‘lish maqsadga muvofiq emas.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya yagona, mukammal tizim ekan, fanning aynan shu ko‘rinishda rivojlanishi uning ichki va tashqi aloqalarini kuchaytirishni talab etadi. Albatta, tizim nuqtai nazaridan uning ichki aloqalari muhimroq, ustuvorroq. Zero, ular fanning yaxlitligi, mustaqilligi, barqarorligini ta’minlaydi.

Umuman olganda, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining bu tarmoqlari o‘ziga xos vazifalari, tadqiqot usullari va obyektlariga ega. Lekin ular bir-biri bilan ham bog‘liq bo‘lib, qiziqishlari va tadqiqot sohalari bo‘yicha kesishishi mumkin. Har bir sektor iqtisodiyot, jamiyat

va siyosatning makon va zamondagi jihatlarini tushunishga hissa qo'shadi, bu esa insonning atrof-muhit va jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. *Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining shakllanishi va rivojlanishi qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?*

2. *Fan shakllanishining uch asosiy manbaini tahlil qiling.*

3. *Fanning predmetini yoritib berishda qanday yondashuvlardan foydalaniladi?*

4. *Geografiya jamiyatlarining vujudga kelish omillari va hududiy tarkibi qanday o'ziga xosliklarga ega?*

5. *Qaysi ilg'or xorijiy mamlakatlarda Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani, uning tarmoqlari o'qitiladi?*

6. *Jahondagi qaysi mamlakatlarda geografiya jamiyatlari mavjud?*

7. *Quyidagi qaysi geografiya jamiyatidagi tadqiqotlarda Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning o'rni va ahamiyati yuqori?*

– *Fransiya geografiya jamiyati;*

– *Germaniya geografiya jamiyati;*

– *Qirollik geografiya jamiyati;*

– *Rossiya geografiya jamiyati;*

– *Amerika geografiya jamiyati;*

– *Janubiy Afrika geografiya jamiyati;*

– *Sloveniya geografiya assotsiatsiyasi;*

– *Argentina geografik tadqiqotlar jamiyati;*

– *Kanada Qirollik geografiya jamiyati;*

– *Armaniston geografiya jamiyati;*

– *Hindiston Milliy geografiya jamiyati;*

– *Gonkong geografiya assotsiatsiyasi.*

8. *Turkiston geografiya jamiyati va uning keyingi holati haqida batafsil ma'lumot bering.*

9. *Keyingi paytda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya tarkibida qanday yangi zamonaviy yo'nalishlar ajratilmoqda?*

10. *Sizningcha, hozirgi kunda Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning yana qanday yangi yo'nalishlarini ajratish mumkin?*

4-BOB. FANNING TADQIQOT USULLARI

Mavzu annotatsiyasi. *Ushbu mavzuda, avvalo, ilmiy tadqiqot usullari haqida tushuncha berilgan. Jumladan, umumgeografik metodlar (kartografik, geografik taqqoslash, rayonlashtirish, kuzatuv, ekspeditsiya, modellashtirish, tarixiy tahlil), Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga xizmat qiluvchi metodlar (statistik tahlil, energiya ishlab chiqarish sikllari, mahalliyashtirish) hamda boshqa metodlar (klassifikatsiya va tipologiya, tizim-tarkib, maqsadga dasturli yondashuv, maqsadga muammoli yondashuv, anketa-so‘rovnoma, ekspert baholash, ekstropolyatsiya, yosh siljitish metodi, intervyu, SWOT-tahlil) tahlil qilingan.*

Tayanch so‘z va iboralar: *rayonlashtirish, geografik taqqoslash, kartografik metod, ekspeditsiya, modellashtirish, davrlashtirish, statistik tahlil, klassifikatsiya va tipologiya, tizim-tarkib, muammoli va dasturli yondashuv, anketa-so‘rovnoma, Delfi metodi, ekstropolyatsiya, yosh siljitish metodi, intervyu, SWOT-tahlil.*

Reja:

- 4.1. Hudud – geografik tadqiqot obyekti sifatida.
- 4.2. Umumgeografik metodlar.
- 4.3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga xizmat qiluvchi metodlar.
- 4.4. Fanlararo integrativ metodlar.



4.1-§. Hudud – geografik tadqiqot obyekti sifatida

Har bir fan o‘zining asosiy tamoyillari, tushuncha va uslubiyotiga ega. Avvalgi mavzularda ko‘rilgan iqtisodiy geografiya fanining tushuncha va qonuniyatlari uning maqsad va vazifalarini yoritishga xizmat qiladi. Ma’lumki, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, qolaversa, butun geografiya fanining birlamchi tushunchasi rayondir. U turli darajada va yo‘nalishdagi iqtisodiy va ijtimoiy rayonlardan yoki majmualardan iborat. Biroq, iqtisodiy rayon va unga mos keladigan hududiy ishlab chiqarish majmualari, kichik miqyosga ega bo‘lgan sotsial rayonlardan ancha kengroq bo‘ladi. Chunki, iqtisodiy aloqalar kishilarning muntazam ijtimoiy munosabatlariga nisbatan kattaroq hududda amalga oshadi. Bu o‘rinda sotsial rayon yoki muhit, hududiy

majmua sifatida mahalla, turli xil kishilariing jamoasi, muayyan kasb yoki yoshga mansub aholining hududiy birligi (sosium) va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda XX asrning 50-yillaridan iqtisodiyotda mikro va makrotahlil bilan bir qatorda alohida ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-tarixiy tizim sifatida mamlakat hududlarini (mintaqalarini) o'rganish boshlandi. Natijada, iqtisodiy fanlar tizimida mustaqil «Mintaqaviy iqtisodiyot va boshqaruv» fani shakllandi va bugungi kunda ham izchil rivojlanib bormoqda.

Har bir fanda shu fanning tub mohiyatini ochib beruvchi tushuncha bo'ladi. Jumladan, biologiyada – hujayra, matematikada – son, fizikada – materiya va energiya, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida esa bunday tushuncha hudud va mintaqadir.

Hudud – yer sharining ma'lum bir qismi bo'lib, o'zining geografik holati va boshqa tabiiy belgilariga ko'ra ajralib turadi. Hudud (territoriya) tushunchasini akvatoriya (yer sharining suv bilan qoplangan bir qismi), aerotoriya (yer shari atmosferasining bir qismi) kabi tushunchalar to'ldiradi. Ayni vaqtda hudud, akvatoriya va aerotoriya tushunchalari birgalikda geotoriya tushunchasini hosil qiladi. Hudud tushunchasining g'oyat murakkab va kattaligi uni mintaqalarga bo'lib o'rganishni taqozo qiladi.

Mintaqa tushunchasi ilmiy adabiyotlarda ko'pincha «region» ko'rinishida uchraydi. Chunonchi, region baynalmilal so'z bo'lib, lotincha «o'lka» ma'nosini anglatadi. Mamlakatimizda nashr etilgan ilmiy tadqiqot ishlarida umumiste'moldagi region atamasi «mintaqa» termini ko'rinishida qo'llaniladi. Mintaqa bu umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan yer maydoni bo'lib, 100 dan ortiq ma'noga ega. Mintaqa hududning bir qismi sifatida o'zining xususiyatlariga ko'ra tabiiy, iqtisodiy va siyosiy kabi guruhlariga bo'linadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy geografik jihatdan mintaqa – tabiiy-ekologik, tarixiy, sotsial-iqtisodiy, moddiy-texnik, siyosiy-harbiy jihatdan bir-biriga yaqin, yagona boshqaruv va logistika tizimiga ega hududlar majmuasi hisoblanadi.

Dunyo xo'jaligining tarixiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida o'zining umumiy ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-madaniy salohiyatiga ega mamlakatlar rivojlanishiga jiddiy ta'sir etuvchi, xalqaro siyosat, harbiy-siyosiy mojarolar, yoqilg'i-energetika, oziq-ovqat, demografik, ekologik va boshqa umumbashariy muammolar yechimlarini ishlab chiqishga intiluvchi iqtisodiy-siyosiy birlashmalar va ittifoqlar mavjudligiga

asoslanadi. Jumladan, milliy tizimlarni umumlashtirgan (moliya-kredit, yagona pul va boshq.) Yevropa Ittifoqi, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, Shimoliy Amerika erkin savdo assotsiatsiyasi va boshqalar.

Hozirgi davrda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining asosiy obyekti, hududiy ishlab chiqarish va ijtimoiy tizimlar bo'lib, ularning hududiy joylashishi, shakllanishi, rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari fanning predmetini tashkil etadi.

Geografiya fanlar tizimi tadqiqot jarayonida ko'plab metodlardan foydalaniladi. Ularni, shartli ravishda, uchta katta guruhga bo'lish mumkin:

1) *umumgeografik metodlar* – kartografik, geografik taqqoslash, rayonlashtirish, kuzatuv, ekspeditsiya, modellashtirish, tarixiy tahlil;

2) *iqtisodiy geografiyaga xizmat qiluvchi metodlar* – statistik tahlil, energiya ishlab chiqarish sikllari, mahalliyashtirish;

3) *fanlararo integrativ metodlar* – klassifikatsiya va tipologiya, tizim-tarkib, maqsadga dasturli yondashuv, maqsadga muammoli yondashuv, anketa-so'rovnoma, ekspert baholash, ekstropolyatsiya, yosh siljitish metodi, intervyu, SWOT-tahlil va h.k.

4.2-§. Umumgeografik metodlar

Geografiya fanining muqaddimasi ham, xotimasi ham xarita bilan chambarchas bog'liqligini inobatga olgan holda, tadqiqot usullarini *kartografik* metoddan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu yerda o'rganilayotgan hodisa yoki voqelik xaritalar asosida tahlil etiladi va tadqiqotning o'zi ham ko'rilayotgan muammolarga taalluqli xaritalar yaratadi. Ilmiy ishning xaritadan boshlanib, xarita bilan tugashi ana shundan iboratdir.

To'g'ri, barchaning ham yuqori darajadagi xarita chizaolmasligi tabiiy. Ammo har qanday geograf kartografik bilim va savodxonlikka ega bo'lishi, kartografiya asoslarini egallashi va turli xaritalarni o'qiy olishi shart. Geograf o'zining maqsad za vazifasidan kelib chiqqan holda xaritalar mazmuni, ularga tegishli statistik ishlanmalarni tayyorlab bermog'i lozim, kartograf esa o'zining bu sohadagi mahoratini ishga solib, yaxshi xaritalarni tuzib beradi. Bu o'rinda kartografiya yoki aniqrog'i – kartlashtirish geografiya uchun metod bo'lsa, geografiya kartografiya uchun nazariy asos – metodologiya bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy geografik kartografiya mustaqil va muhim kartografiya fanining alohida-alohida qismlari yoki

yoʻnalishlaridir. Agar ularning birinchisini iqtisodiy va sotsial geografiyaga, ikkinchisini esa tabiiy geografiyaga kiritilsa, u holda notoʻgʻri boʻladi va kartografiya fanining salohiyati kamaytiriladi, kamsitiladi. Yaxshisi, ularni ijtimoiy va tabiiy geografiyaga qoʻyilgan oʻziga xos «koʻprik» deb tasavvur qilish maʼqulroq.

Xaritalar koʻproq yirik miqyosli (masshtabli) va tematik, maʼlum sohaga yoʻnaltirilgan boʻladi. Bunday xaritalar ayniqsa ilmiy tadqiqot ishlari uchun asqotadi. Umumiy axboriy mazmunga ega boʻlgan xaritalar esa, eng avvalo, oʻquv jarayonida ishlatiladi. Demak, xaritalarga vosita va natija sifatida, oʻquv va tadqiqot qoʻllanmasi shaklida qaramoq talab etiladi. Birinchisi tayyor xaritalar boʻlsa, ikkinchisi esa muallifning oʻzi tomonidan tayyorlanmogʻi talab etiladi.

Barcha voqeliklar generallashtirilishi yoki umumlashtirilish orqali xaritalar tushiriladi. Bu esa geografiya fanining oʻziga xos mezonini ham hisoblanadi. Chunki, hudud obyekt sifatida koʻrilmasa va uni xarita yoki xarita-sxemalarda aks ettirish imkoni boʻlmasa, u holda bunday tadqiqotning oʻzi ham geografiyaga tegishli emas. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, ijtimoiy geografiya doirasida xaritalar asosan iqtisodiy yoki sotsial-iqtisodiy mazmunga ega. Masalan, sanoat, qishloq xoʻjalik tarmoqlari, transport, aholi, uning milliy va hududiy tarkibi, shaharlar va qishloqlar toʻri va tizimi kabi xaritalar koʻp tuzilgan. Ammo sotsial geografiyaga mansub yirik miqyosli va tematik xaritalar ancha oz. Bu yerda ham xaritalar soni, turi va mazmuni ijtimoiy geografiya fanining tarkibiy 3 qismlariga tegishli real holatni aks etib turibdi.

Shunday qilib, xaritalar tadqiqot usullari qatorida birinchi oʻrinda turadi. Bu esa geografiya fanining bosh tamoyili hududiylikka mos keladi, ayni paytda **geografik taqqoslash** (qiyoslash) usuli ham katta ahamiyatga ega. Qaysi bir holatda uni geografiya fanining dastlabki, birinchi metodi sifatida ham koʻrish mumkin. Sababi, kishilar karta tuzish va undan foydalanishdan oldin ham bir joyni ikkinchi joyga taqqoslashgan.

Umuman, ikki xil taqqoslash mumkin: tarixiy va geografik; birinchisida oʻtmishning turli davrlari «tik» qiyoslangan, ikkinchisida hududning turli qismlari taqqoslanadi va bu hamma vaqt gorizontallik yoʻnalishda boʻladi. Eng muhimi – taqqoslash tarixda ham, geografiyada ham asosiy rolni bajaradi, chunki uning yordamida oʻtmishning (tarixning) va hozirgi kunning (geografiyaning), zamon va makonning, zamin va zamonning betakror, oʻziga xos *xususiyati* ochib beriladi. Xususiyatsiz esa ushbu fanlarning oʻzi boʻlmaydi. Geografiyada bir joy

ikkinchi joydan farq qilmasa, ular orasida hududiy tafovutlar ko‘rinmasa, har bir joyning o‘ziga xos xususiyati («basharasi») aniqlanmasa, u holda bu yerda geografiyaga ham o‘rin yo‘q. Balkim shu ma’noda, ya’ni joyning tasviri, tashqi ko‘rinishini ifodalashda fransuzlar peyzaj, nemislar esa landshaft atamalarini qo‘llagan bo‘lsalar ajab emas. V.P.Semyonov – Tyanshanskiy shunga yaqin «joyning obrazi» (shakli, tasviri) tushunchasini ishlatgan.

Geografik taqqoslash hamma vaqt hududiy va ikki ko‘rinishda bo‘ladi: o‘xshash va noo‘xshash taqqoslashlar. Odatda, birinchisi an’anaviyroq, ya’ni bu yerda umumiy holatlari, ko‘lami, vazifa va mohiyati monand bo‘lgan obyektlar solishtiriladi. Ikkinchi holda esa taqqoslanuvchi obyektlar o‘zlarining katta-kichikligi, vazifasi, mohiyati va boshqa jihatlariga ko‘ra bir- birining teskarisi (kontrasti) bo‘ladi. Shuningdek, bir-biriga mutlaqo muqobil bo‘lgan obyektlar, masalan tog‘ bilan shahar, botqoqlik bilan sanoat tugunini iqtisodiy geografik qiyoslab bo‘lmaydi. Bundan tashqari tabiiy, siyosiy, iqtisodiy geografik obyektlar ham o‘zaro solishtirilishi noto‘g‘ri. Aytaylik, Afrika va AQSh, Farg‘ona iqtisodiy rayoni va Afg‘oniston, Qizilqum cho‘li va Angren-Olmaliq sanoat rayoni kabi «juftliklar» aslo taqqoslashga to‘g‘ri kelmaydi.

Albatta, taqqoslanuvchi hodisa va voqeliklar turlicha yoki noo‘xshash bo‘lishi mumkin. Biroq, ilmiy nuqtai nazardan ularning umumiy holatlari bir-biriga yaqin bo‘lgani maqsadga muvofiq. Chunonchi, ikkita yirik shahar, ikkita qishloq, ikkita viloyat va hokazolarni taqqoslash o‘rinli. Lekin Toshkent bilan Denov yoki Chustni, O‘zbekiston bilan AQShni solishtirish geografik jihatdan uncha maqbul emas. Masalan, Toshkent bilan Boku solishtirilsa bo‘ladi, chunki bu shaharlar ma’lum o‘xshashliklarga ega: ikkalasi ham «millioner» shahar, sobiq Sovet respublikalari - hozirgi mustaqil, suveren davlatlar poytaxti. Taqqoslash, bu shaharlarning umumiy jihatlarini aytilganidan so‘ng, ularning geografik o‘rni, vazifasi (funktsiyasi), xo‘jaligining tarkibi va ixtisoslashuvi, ichki tuzilishi, muammolari yuzasidai olib boriladi. Bu yerda qiyoslash qancha «ichkariga» kirib borilsa, taqqoslanuvchi obyektlar - Toshkent va Boku shuncha bir- biridan «qochadi», uzoqlashadi, ya’ni farqlanadi, ular o‘rtasidagi oraliq masofa – tafovut shuncha kengayadi va har biriga xos va mos bo‘lgan individual (xususiy) jihatlarini ko‘proq va aniqroq namoyon bo‘lib boraveradi.

Taqqoslash ko‘rilayotgan obyektlarning iqtisodiy geografik o‘rnidan boshlanishi bejiz emas. Xuddi ana shu joylanish o‘rni tahlilga kalit sifatida xizmat qiladi va u orqali nima uchun bu shaharlar aynan shu joyda vujudga kelgan, yiriklashgan va nima sababdan ular xo‘jalikning shu sohasiga ixtisoslashgan kabi geografiya uchun muhim va o‘ta zarur bo‘lgan savollarga javob topib berishga imkon yaratadi. Bizning misolimizda Bakuning Kaspiy dengizi bo‘yida joylashganligi, Toshkentning Tangri tog‘ (Tyan-Shan) etaklarida, Chirchiq vohasida o‘rnashganligi ularning qolgan barcha xususiyatlarini oydinlashtiradi. Agar Boku shahriga tarixiy geografik asos sifatida Kaspiy dengizi xizmat qilsa, Toshkent uchun esa Chirchiq daryosi uning o‘tmishi-yu hozirgi kunida katta ahamiyatga ega.

Geografik taqqoslashning yana bir muhim sharti obyektlarning bosqichma-bosqich kiyosiy tavsifi ayni paytda bir yo‘la («sinxron») olib borilishidan iboratdir. Agar bizning misolimizda avval Boku, so‘ng Toshkent shaharlarining iqtisodiy geografik ta‘rifi mavjud tartibga muvofiq ko‘rib chiqilsa, u holda haqiqiy taqqoslash bo‘lmaydi. Bu yerda biz ikki shaharning alohida-alohida ta‘rifining guvohi bo‘lamiz, xolos. Binobarin, taqqoslanuvchi obyektlar birdaniga yo‘l-yo‘lakay ko‘rib borilishi kerak. Shundagina ularning har biriga xos belgilarini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Demak, hudud eng avvalo xarita yordamida, uning boshka hududdan farqlanuvchi tomonlari esa asosan taqqoslash usuli orqali aniqlanadi. Ammo, taqqoslash ham xaritasiz amalga oshirilmaydi, chunki ko‘rilayotgan obyektlar faqat xaritada o‘z in‘ikosini topadi. Shu bilan birga, ta‘kidlash lozimki, ilmiy tadqiqot hamma vaqt o‘xshashlikdan noo‘xshashlikni (individuallikni, xususiylikni), o‘xshamaslikdan o‘xshashlikni, umumiylikdan aniqlikni talab qiladi.

Xarita va taqqoslash uslublaridan keyin o‘z ahamiyatiga ko‘ra **rayonlashtirish** turadi. Geografik rayon ham ma‘lum ma‘noda umumlashtirish, hududiy guruhlashni bildiradi. Rayon hududning muayyan bir kesimi bo‘lib, u o‘zining umumiy, o‘xshash belgilari bilan qo‘shni yoki tutash joylardan ajralib turadi. Xuddi shu ma‘noda geografik rayon ma‘muriy-boshqaruv rayonlaridan (nohiya, tuman va h. k.) tubdan farq qiladi va ularni aslo chalkashtirib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham iqtisodiy geografik rayonlashtirishni «iqtisodiy nohiyalashtirish» yoki «tumanlashtirish» shaklida o‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘girish kulgili ko‘rinadi. Shu bilan birga, «umuman», barcha sohalarga tegishli bo‘lgan rayon yo‘q, aksincha, ma‘lum

maqsadga qaratilgan aniq rayon mavjud. Chunonchi, sanoat yoki sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, aholi joylashuvi, dam olish (rekreatsiya) kabi rayonlar real voqealikda bor, ammo ularning hammasi uchun yagona rayon yo'q.

«Rayon» tushunchasiga tegishli yana bir chalkashlik masala bu uning yuqoridagilaridan keyingi uchinchi xususiyatidir. Gap shundaki, rayon ko'p bosqichli pog'onasimon bo'ladi. Binobarin, hamma vaqt qaysi darajadagi va qaysi yo'nalishdagi rayon aniq aytilishi zarur. Chunki, Farg'ona vodiysi ham rayon, uning ichidagi viloyatlar, Sirdaryoning o'ng va so'l sohillari, tog', tog'oldi, tekislik qismlari, quyi ma'muriy birliklar, ularning ichki hududiy tarkibi va hokazolar ham rayondir. Biroq ular turli darajadagi va yo'nalishdagi geografik rayonlar hisoblanadi. *Geografiya fanning betakror va jozibali xususiyati ham shundaki, u har xil miqyosda fikr yuritish imkoniyatiga zga. Bu fan vakillari katta ichida kichikni, kichik orqali kattani tasavvur qila oladilar.* Rayon sirdan o'z atrofidan ajralib tursada, u ichki jihatdan mutloq bir xillikni anglatmaydi va tafovutlarga boy bo'ladi. Bunday chigal va mushqul masalalarni o'rganishda tizim - tarkib usuli ancha qo'l keladi. Shu bois, geografiyada rayonlar hududiy tarkib, tizim-tarkib va tizim tushunchalariga yaqin turadi. Zero, har qanday tarkib undan kattaroq hududiy tizimning bir qismi va, ayni paytda, shu hududiy tarkibning ham ichki tuzilmasi, rayon va «rayonchalari», qismchalari bor.

Rayon – rayonlashtirishning natijasi, rayonlashtirish esa ilmiy tadqiqot jarayoni, bilish vositasi, usulidir. Demak, rayonlashtirish geografik o'rganishningina emas, balki ko'proq ilmiy tadqiqot metodidir. Bu yerda o'rganilayotgan mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda hudud bir- biriga o'xshash bo'laklarga (rayonlarga) ajratiladi va ularga iqtisodiy geografik tavsif beriladi. Bu geografiyaning analitik xususiyati yoki salohiyatidir. Uning sintez qudrati esa olingan bilimlarni umumlashtirish asosida tegishli qonuniyatlarni, boshqa, turdosh (qo'shni) fanlar yutuqlaridan foydalangan holda aniqlashda o'z aksini topadi. Rayonlashtirishning prinsip va omillari ham har xil bo'ladi. Masalan, iqtisodiy rayonlashtirishda, eng avvalo, iqtisodiy ixtisoslashuv (sanoatda-sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligida ayrim tarmoqlarga ixtisoslashuv), sotsial-iqtisodiy rayonlashtirishda, jumladan, aholi. geografiyasida aholi zichligi, alohida joylarning demografik sig'imi, aholi punktlarining hududiy birligi rayon sifatida ajratiladi. Sotsial geografiyada esa bunday rayonlar hududiy ko'lami bo'yicha yanada

kichikroq va ixchamroq bo'ladi. Sotsial rayonlar sifatida alohida mahalla, mikrorayon, mavze va dahalarni ko'rsatish mumkin.

Rayon yoki rayonlashtirishning navbatdagi to'rtinchi xususiyati ularning hududiy shakllarida o'z ifodasini topadi. Bu yo'sinda hududiy rayonlashtirish yoki uni turli xil yiriklikdagi qismlarga ajratish bilan hudud doirasidagi real rayonlarni aniqlash bir xil mazmunga ega emas. Birinchisida mamlakat yoki viloyat hududi to'la-tekis bo'laklarga (rayonlarga) ajratiladi. Chunonchi, alohida iqtisodiy rayon sifatida Quyi Amudaryo - Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi rayoni mavjud. Shu bilan birga, bu o'lkadagi hududning (unga chekinayotgan va qurib borayotgan Orol dengizi akvatoriyasi ham kiradi) barcha qismi ham iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, bu yerdagi hozircha xo'jalik tuzilmasiga ega bo'lmagan joylar ham rayon doirasiga «yoppasiga» kiritilaveradi.

Ikkinchi turdagi rayonlar butun mamlakat hududini qoplab olmaydi. Ularga sanoat rayonlari – sanoat tugun va majmualari, aholi rayonlari – shahar aglomeratsiyalari kabi yaqqol shakldagi hududiy birliklarni misol tariqasida keltirish mumkin. Xuddi shunday, transport rayonlari ham «azonal» xususiyatga ega bo'ladi va butun muhitni qamrab olmaydi.

Ajratilgan u yoki bu tipdagi rayonlar shu sohaga tegishli hududiy majmularga ko'pincha mos keladi. Bu ma'noda Mirzacho'l yoki Angren-Olmaliq iqtisodiy rayonlari xuddi shu nomli hududiy ishlab chiqarish majmualari shaklida aytilsa bo'ladi, ammo hududiy majmualar uchun kompleks hosil qiluvchi, rayonlar uchun esa rayon shakllantiruvchi markaz, omil yoki tarmoklar mavjud. Ana shu tarmoqlar joylashgan yoxud ularning ta'sir doirasidagi maydon, makon (A.Lyosh bo'yicha – iqtisodiy landshaft) alohida rayon yoki majmua sifatida namoyon bo'ladi. Ayni vaqtda, geografiyadagi rayonlashtirishni qishloq xo'jaligi, mevachilik yoki urug'chilikdagi rayonlashtirish bilan ham chalkashtirish nodurust. B u yerda dehqonchilik va mevachilikdagi urug' hamda meva navlarini tabiiy iqlim sharoiti mos keladigan joylarda ekish yoki o'stirish nazarda tutiladi.

Shunday qilib, geografiyada va, shu jumladan, ijtimoiy geografiyada rayonlashtirish usuli ham yetakchi ahamiyatga ega. Zero, rayonsiz geografiyani tasavvur qilib bo'lmaydi, geografiya fanining tarixi, sirasini aytganda, rayonlar tarixi demakdir. Rayonlashtirish tahlil etilayotgan hududni chuqur o'rganish, uning ichki xususiyatlarini aniqlash asl ma'noda geografik bilimning shakllanishida bosh mezondir.

Shu bilan birga, uning konstruktiv (amaliy) ahamiyati ham yo‘q emas; rayonlashtirish mamlakatning ilmiy asoslangan mintakaviy siyosatini olib borish va uni boshqarish uchun zarur vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Kuzatuv metodi ham geografiya uchun an’anaviy ahamiyatga ega. Chunki geografiyani asosan bevosita ko‘rish, kuzatish, jonli mushohada yuritish, tasavvur qilish orqali o‘rganilsa, tarixni ko‘pincha eshitish bilan o‘zlashtiriladi. Shuning uchun geografiya fakultetining o‘quv jarayonida dala amaliy mashg‘ulotlariga katta o‘rin ajratiladi. Bu borada, ayniqsa, regional va xalqaro sayohatlar samarali natija beradi.

Turli xil kuzatish va ekspeditsiyalar vositasi bilan obyekt – qishloq xo‘jaligi, shahar, sanoat korxonasi va qishloq joylar yaqindan o‘rganiladi. Masalan, biror shaharga safar etilsa, uni atroflicha, har tomondan, turli chekkalariga chiqib ko‘rish, tanishish kerak. Agar sayohat qiluvchi shahar markazidagi mehmonxonada uzoq muddatda to‘xtab qolsa ham uni geografik jihatdan o‘rgandi, deb bo‘lmaydi. Buning uchun shahar to‘g‘risida, uning hududi, ichki tafovutlari, tashqi qiyofasi bo‘yicha to‘la tasavvur hosil qilish talab etiladi.

Aslini olganda geograf yo‘lda ham, uyda ham, ishda ham geograf bo‘lmog‘i kerak. U har qanday sharoitda va har qanday miqyosda hududiy birikmalar, turli xil obyektlar – yo‘llar, qishloq xo‘jalik ekinlari, aholi manzilgohlarining o‘zaro joylashuv xususiyatini bevosita kuzatishi lozim. Ba‘zan geograf ajoyib hududiy nomuvofiqliklar guvohi bo‘lishi mumkin. Ularga dam olish muzofotlari va ekologik jihatdan nomaqbul bo‘lgan metallurgiya yoki kimyo korxonasining bir joyda borligini, maktab qarshisida chorva fermasi yoki asab kasalliklarini davolovchi shifoxona mavjudligi va shunga o‘xshash antiqa geografik ajoyibotlarni misol tariqasida keltirsa bo‘ladi. Bunday geografik holatlar va hududiy nomuvofiqliklar esa faqat jonli kuzatuv yordamida aniqlanadi. Ammo buning uchun oddiy ko‘rishning o‘zi kifoya qilmaydi, aksincha, ko‘rish faol mushohada va tahlil bilan uyg‘unlashgan holda olib borilishi kerak.

Shu jihatdan qaraganda, Samarqandga borganda, albatta Ulug‘bekni ko‘rish kerak, lekin «Samarqandda o‘t yog‘sa Farg‘onada tutuni» kabi savodsiz iboralar ham geografiyani bilmaslik natijasidir.

Ekspeditsiya usuli o‘rganilayotgan obyektga dalil ma‘lumotlarni to‘plash va ularni tartibga solish bo‘lib, ular asosida geografik nazariyalar rivojlanadi. Shuning uchun mazkur usul antik davrdan to hozirgi davrgacha geografik ma‘lumotlar olish, tabiat va jamiyatni o‘rganishning asosiy usuli bo‘lib kelmoqda.

Modellashtirish geografik fanlar tizimida ko'p qo'llaniladigan uslub bo'lib, uning mazmun-mohiyatini anglash uchun, avvalo, modelning o'zi haqida tushunchaga ega bo'lish talab etiladi. Zero, model (lotincha, modulus – «o'lchov») bu biror obyekt yoki obyektlar tizimining obrazli namunasidir. Masalan, Yerning modeli – globus.

Modellashtirish metod sifatida voqealikka bilvosita o'rganishga asoslangan bo'lib, modellarni shakllantirish, o'rganish va qo'llash jarayonini o'z ichiga oladi. Bundan kelib chiqadiki, modellashtirish – voqea va hodisalarni ularning modellari yordamida tadqiq qilishni nazarda tutadi.

Modellashtirishda hodisa yoki voqelik umumlashtirilib, ma'lum bir ko'rinishda aks ettiriladi. Geografik modellarda voqelik aynan o'zining qiyofasini kichraytirilgan holda, ba'zan uni shartli belgilari orqali ifoda etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, turli masshtab va mazmundagi kartalar geografik modellarning eng mukammal shaklidir. Shuningdek, matematik formulalar, grafik va jadvallarda ham fikr, hodisa yoki jarayon «miniatyura» ko'rinishida o'z aksini topadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada qo'llaniladigan grafiklarning turi ham har xil. Chunonchi, ular tik to'g'ri burchak (yoki ochiq shakldagi grafik), ustunsimon, voronkasimon, piramidasimon, konus, xalqa, aylana, uchburchak, to'rtburchak (kvadrat), kubik kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Tadqiqotchining vazifasi ana shu har xil bo'lgan grafiklardan to'g'ri va o'rinli foydalanishdan iboratdir. Odatda, faqat bir ko'rinishdagi chizmalar bilan ishni to'ldirish muallifning bu xususdagi bilimsizligini anglatadi. Muammoning mohiyat-maqсадiga qarab turli xil grafiklarni tanlab olish va ularni o'qib bo'ladigan darajada ixcham, chiroyli chizish lozim (bu o'rinda geometriyadan olingan bilimlar ham kerak bo'ladi). Masalan, agar u yoki bu jarayon, aytaylik, aholi soni, uning migratsiyasi, tabiiy harakati tug'ilish va o'lim hodisalari, xalq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishning vaqt davomida o'zgarib borishini ochiq grafik usuli yoki ustunsimon ko'rinishda tasvirlash ma'qulroq. Bunday dinamik grafiklarda mutloq va nisbiy sonlardan foydalaniladi.

Agar biror hodisa yoki voqelikning tarkibiy xususiyatlarini ko'rsatish talab etilsa, u holda aylana va kvadrat shakllarni qo'llash maqsadga muvofiq (masalan, yer fondining tuzilishi, aholining milliy tarkibi va h. k.). Bu yerda aylana sektorlarga, kvadrat yuz katakchadan iborat bo'lgan to'g'ri to'rtburchaklarga ajratiladi, aylanada bir foiz 3,6

gradusga teng qilib olinadi va ular har bir sohaga mos ravishda turli rangda bo‘yaladi.

Piramidasimon grafiklar (modellar) ko‘proq demografiya va aholi geografiyasnda aholining yosh tarkibini tasvirlashda ishlatilsada, ularni boshqa paytlarda ham qo‘llash mumkin. Buning uchun ko‘rilayotgan hodisa tabaqalanish, iyerarxialik (bosqichli) xususiyatga ega bo‘lsa kifoya. Chunonchi, shahar yoki qishloqlar sonini ularning katta-kichikligiga qarab pog‘onasimon shaklda aks ettirilsa, u holda tadqiq etilayotgan hududda qaysi guruhdagi aholi punktlari ko‘p yoki kam rivojlanganligi, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Tarixiy tahlil tadqiqot mavzusining kelib chiqishi va evolyutsiyasiga qaratilgan bo‘lib, vaqt va bosqichlar xronologiyasiga asoslanadi. Bu usul yordamida voqea va hodisalarning makonda sodir bo‘lishi va zamonda evolutsiyasi tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

4.3-§. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga xizmat qiluvchi metodlar

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani ko‘plab tadqiqot usullaridan foydalansa-da, ularning aksariyati umumgeografik va integrativ metodlar hisoblanadi. Aynan, mazkur fan shakllanishi bilan tarkib topgan tadqiqot usullari esa *statistik tahlil*, *energiya ishlab chiqarish sikllari*, *mahallilashtirish* metodlaridan iborat.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya uchun, eng avvalo, **statistik tahlil** metodi muhimdir. Chunki bu fan o‘z mohiyatiga ko‘ra hamma vaqt statistik raqamlar bilan ish tutadi. Qolaversa, iqtisodiy geografiyaning fan sifatida shakllanishida kameral statistikaning o‘rni beqiyos bo‘lgan. Statistik tahlil usuli ko‘p uchrashib turadigan ko‘rsatkichlar: o‘sish, ko‘payish, foiz, promille, indeks, koeffisiyent, guruhlash va boshqalar to‘g‘risida malaka hosil qilishga yordam beradi. Shuningdek, bu usul turli xil jadvallar, grafik yoki chizmalar, aholi zichligi, demografik sig‘im, o‘rtacha masofa kabi ko‘rsatkichlarni aniqlashda qo‘l keladi. Bu borada statistika matematika fani bilan birgalikda qo‘llaniladi, binobarin, ushbu usulni ba‘zan statistika-matematika metodi ham deyishadi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, talabalar va hatto ayrim hollarda aspirantlar ham jadval tuzish qoidalarini yaxshi bilishmaydi, o‘sish bilan ko‘payishning, «o‘rtacha» bilan «moda»ning farqiga borishmaydi. Masalan, aytaylik, aholi soni yoki sanoat mahsuloti so‘nggi o‘n yil

davomida 156 foizga o'zgardi. Savol tug'iladi: statistika tili bilan bu raqam qanday ifodalanadi o'sishmi yoki ko'payishmi? Ushbu savol javobini kitobxonlarga qoldiramiz.

Yana ikki turdosh nisbiy ko'rsatkich bor – *foiz* va *promille*. Qaysi hollarda foiz (prosent) va qanday paytda promille qo'llaniladi? Bu masalani ham bilish va ularni o'z o'rnida qo'llash kerak. Ma'lumki, protsent (sentner – yuz) yuzlikning ma'lum bir qismini, promille esa mingdan bir bo'lagini anglatadi. Ikkala statistik ko'rsatkich, odatda, ko'plik bilan ish tutganda qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta, ulardan protsent (foiz) ko'proq ishlatiladi, promille esa kamroq uchraydi. U, asosan, dengiz va okeanlar suvining sho'rliigi, aholining tabiiy harakati – tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payishni aniqlashda qo'llaniladi. Promilleni ushbu holatlarda ishlatish, eng avvalo, qulay va yaxlitroq, yirikroq raqam hosil qilishni ko'zda tutadi. Faraz qilaylik, bir mamlakat yoki shaharda yillik o'lim koeffitsiyenti 6,5 promilleni tashkil etadi. Agar bu raqamni prosentga aylantirsak, 0,65 ga teng bo'ladi. Birinchi holda, u har ming kishidan 6,5 kishini (statistikada shunga o'xshash «yarim va choraklar» ham mavjud), ikkinchisida esa har yuz aholidan 0,65 kishining vafot etishini bildiradi. Ko'rinib turibdiki, birinchi ko'rsatkich ikkinchisiga nisbatan ishlatishga qulayroq; aynan shu maqsadda ba'zi hodisalar, masalan, oliy ma'lumotli mutaxassislar yoki vrachlar, shaharlar va qishloq aholi manzilgohlarining zichligi 10 ming va 100 ming birliklarga nisbatan ham olinadi.

Statistik usul tadqiqot doirasidagi barcha ma'lumotlarni turli manbalardan to'plash, ularni umumlashtirish, qayta ishlash va tahlil etish kabi murakkab va mas'uliyatli jarayonlarni o'z qamroviga oladi. Ayniqsa, bu yerda ixcham va boy mazmunli, o'qib bo'ladigan darajadagi statistik jadvallarni tuzish katta ahamiyatga ega. Jadvallarni tuzish, ularni o'qish va tahlil etish yuksak san'at va mahoratni talab etadi. Eng avvalo, jadval tuzish o'ziga xos mezonlarga asoslanish kerak. Chunonchi, uning nomi mazmuniga muvofiq kelishi, juda murakkab va qo'pol bo'lmasligi lozim. Jadval oldindan ko'zlangan dalil yoki isbot talab qiladigan ma'lum maqsadni nazarda tutib yaratiladi. Shuning uchun uni to'g'ri kelgan, «pala-partish», tartibsiz raqamlar bilan to'ldirish, o'ta murakkablashtirish yaxshi emas. Bunday holda, xuddi xarita axborotini (yukini) haddan tashqari og'irlashtirgandek, jadvallarni o'qib, ularda kutilgan xulosalarni chikarib bo'lmaydi.

Statistik jadvallar oddiy va murakkab, turli shakl va mazmunda, sonli va so'zli bo'ladi. Ammo qisqa axborot uchun ham atigi bir yoki

ikki qatordan iborat jadval tuzib, uni mazmunidan ko‘ra qo‘polroq nom bilan atash maqsadga muvofiq emas. Yaxshisi bunday sharoitda fikrni matn tarzida bayon qilgan ma‘qul. Jadval tuzishdan asosiy maqsad – ma‘lum bir qonuniyat yoki xulosani isbotlash hamda buning uchun to‘plagan ko‘p sonli raqamlarni tartibga tushirish, ularni ixcham holda tasvirlash v.a fikr-mulohazalarni dalillar bilan asoslashdan iborat. Ana shundagina so‘zsiz va jonsiz raqamlar tilga kiradi, ular qat‘iylik va haqqoniylik xususiyatini oladi (bunday fiqr va raqamlar «o‘jar», qaysar bo‘ladi va ularni inkor etib ham yoki istagan tomonga o‘zgartirib ham bo‘lmaydi).

Iqtisodiy va sosial geografiyada statistik jadvallar mazmuniga ko‘ra ko‘pincha tarkib va tadrijiy o‘zgarishlar, dinamik qatorlarni ifodalovchi bo‘ladi. O‘z navbatida, tarkib mazmuniga ega bo‘lgan jadvallar, tizim qoidasiga muvofiq, tarmoq va hududiy tarkib to‘g‘risida, ma‘lumot beruvchi jadvallarga bo‘linadi. Masalan, sanoat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari, transport turlari, maishiy xizmat ko‘rsatish sohalari, jinoyat yoki kasallik turlari, aholining milliy yoki yoshi bo‘yicha taqsimlanishi, yer fondi va undan foydalanish kabi ma‘lumotlardan tashkil topgan jadvallar shular jumlasidandir.

Ikkinchi turdagi jadvallar esa u yoki bu voqelikning hududlar bo‘yicha bo‘linishini ifodalaydi. Chunonchi, xalq xo‘jalik mahsuloti yoki aholi sonining mamlakat iqtisodiy rayonlari, viloyat va ma‘muriy tumanlar bo‘yicha taqsimlanishi, jahon xalqlarining turli qit‘a yoki mintaqalar doirasida joylayishiga o‘xshash ma‘lumotlar ana shunday jadvallarda beriladi. Bu o‘rinda shuni aytish joizki, tarmoq va hududiy tarkibni aks ettiruvchi jadvallarda, ayni paytda yonma-yon kelayotgan ustunlarda yoki kasrning surat-maxraji shaklida mutloq va nisbiy raqamlar keltirilsa, ular yanada boy mazmunli va tahlilga qulay bo‘ladi. Chunki tarkib hamma vaqt u yoki bu hodisaning o‘rni, ulushini anglatmog‘i lozim. Murakkab jadvallarda esa bunday maqsadga darhol erishib bo‘lmaydi va buning uchun nisbiy raqamlar iihoyatda qo‘l keladi. Shu bilan birga tarkib jadvallarini tahlil etishda ularning ichki qismidagi raqamlar yakuniy yig‘indi (summa) ko‘rsatkichlariga barobar bo‘lishi shart. Agar ular nisbiy sonlarda berilgan bo‘lsa, satrlar yoki ustun ko‘rsatkichdagi yig‘indi 100,0 foizni tashkil etmog‘i lozim.

Ba‘zan kurs yoki diplom ishlarda, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarda bir necha jadvallar qator, uzluksiz, birin-ketin keltiriladiki, bu ham o‘z navbatida nomaqbuldir. Zero, har qanday ilmiy ish oddiy statistik to‘plamdan farq qilgan holda, eng avvalo, fikrning

mantiqli bayon etilishi, to'g'ri, ravon, to'la va mukammal bo'lgan matnda izohlanishi va tavsiflanishi bilan baholanadi. Shu bilan birga, qator varaqlarni band etuvchi katta jadvallar ham ishning ichki kismida keltirilishi shart emas (ularni ilova shaklida joylashtirish yaxshiroq). Bu o'rinda jadvallarning ishlanganlik darajasiga ko'ra bir necha turga bo'lish mumkin. Bevosita statistik tashkilotlardan ko'chirib olingan jadvallar qayta ishlanishi, umumlashtirilishi va ixchamlashtirilishi kerak. Qayta ishlangan jadvallar qo'yilgan maqsadga qay darajada xizmat qilishiga qarab matn orasida yoki ilovada joylashtiriladi.

Tadqiqot guruhleri turlicha ajratiladi. Bunday holda chekka (maksimum va minimum, eng past va eng yuqori) darajadagi raqamlarni aniqlash va ular orasidagi farq umumiy intervalni topish va bu oraliq sonni istagan miqdordagi guruhlar soniga bo'lish kerak. Odatda, voqea va hodisalar 3 guruhga bo'linadi: kichik, o'rta va katta; past, o'rta va yuqori. Agar shundan kelib chiqsak, umumiy oraliq raqami 3 ga bo'linadi.

Agar guruhlar sonini ko'paytirish talab etilsa, umumiy oraliq raqam shu miqdorga bo'linadi, Unday holda ajratilgan guruhlar, odatda, sifat darajasi emas, balki oddiy raqam miqdor ko'rsatkichli guruhlar mazmuniga ega bo'ladi. Guruhlar ochiq va yopiq shaklda tuziladi. Agar birinchi guruh «gacha» oxirgi guruh «va undan ortiq» deb yozilsa ochiq, agar guruhlarning boshi va oxiri raqamlar bilan belgilansa yopiq hisoblanadi.

Statistika usulida «o'rtacha» so'zi yoki darajasi ko'p qo'llaniladi: aholining o'rtacha zichligi, oiladagi farzandlarning o'rtacha soni, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha milliy daromad, yerlarning o'rtacha sho'rlanganlik darajasi, bir yil yoki bir oyda o'rtacha ishlab chiqariladigan yengil avtomobillar soni, qo'ylarning o'rtacha tirik vazni va h.k. Xullas, «o'rtacha» iborasi hamma vaqt va hamma joyda ishlatiladi va u vaziyat yoki hodisaning statistik, turg'un holatini ifodalaydi, tavsiflaydi va baholaydi. Ammo geografiyada faqat o'rtacha ko'rsatkich bilan kifoyalanish noto'g'ri, chunki u hududiy tafovutlarni o'zida aks ettarmaydi, aksincha, ularni niqoblaydi, tekislaydi. Shuning uchun har qanday o'rtacha raqam, aslini olganda, bu geografiya emas. Masalan, O'zbekistan Respublikasida aholining o'rtacha zichligi har 1 kv. km. maydonga 82 kishiga teng; bu albatta, miqdoriy jihatdan to'g'ri xulosa beruvchi yaxshi axboriy raqamdir. Biroq u hech kim yashamaydigan Orol dengizi akvatoriyasi, aholisi o'ta siyrak tog'li rayonlar, Ustyurt platosi, Qizilqum cho'liga va, ayni paytda, aholi juda

tig'iz o'rnashgan voha va vodiylarga. shahar va kishloq joylarga ham tegishli bo'lib qoladi. Vaholanki, mazkur ko'rsatkich Navoiy viloyatida atigi 9 va Qoraqalpog'iston Respublikasida 12 kishiga, Andijon viloyatida esa 780 kishidan ko'pga barobar. Ba'zi yirik shahar atrofidagi tumanlar, Zarafshon va Farg'ona vodiysi katta shaharlariga tutash rayonlarda bu raqam yanada katta va u 800-900 kishini tashkil qiladi. Ko'rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan o'rtacha raqam (82) hudud bo'yicha naqadar keng farqlanadi, qanchalik uning chekka «qanotlari» bir-biridan uzoq. Demak, o'rtacha ko'rsatkich bu ma'noda geografiyaga zid va unga xizmat qilmaydi.

O'rtacha ko'rsatkich bilan birga statistik qatorda ko'p uchraydigan («moda») raqamlari ham mavjud. Ular garchi o'rtacha ko'rsatkichga yaqin tursa va ularning shakllanishiga katta ta'sir qilsada, biroq uning aniq o'zi emas. «Moda» ko'rsatkichlarini, ya'ni tez-tez takrorlanib turadigan raqamlarni belgilash ko'proq statistik qator nihoyatda differentsiyalashgan, tabaqalangan, chekka raqamlar nisbatan kam uchraydigan va bir-biridan uzoq joylashgan holatlarda qo'llaniladi.

Xuddi kartografiyada bo'lganidek, statistika usulida ham generalizatsiya, umumlashtirish talab etiladi yoki raqamlar yaxlitlanadi. Odatda, yarimdan (0,5 dan) ortgan raqam navbatdagi songa, undan pasti esa oldingi son foydasiga hal etiladi. Masalan, 6,6 ni 7 soniga; 6,4 ni 6 soniga yaxlitlasa bo'ladi. Bu yerda o'nlik darajasida umumlashtirildi. Xalqaro statistik ma'lumotlarda ko'pincha raqamlar yuzlik darajasida keltiriladi: 6,67; 6,44; 6,81 va h.k. Ularni o'nlik holatiga keltirish qo'yidagicha bo'ladi: 6,7; 6,4; 6,8.

Shunday qilib, yuqorida biz statistik usul ta'rif-tavsifiga nisbatan ko'proq, ustuvorroq ahamiyat berdik. Bu bejiz emas, albatta, chunki, birinchidan, nktisodiy va ijtimoiy geografiya uchun statistik usul o'ta muhim (statistik raqamlar ushbu fanning «non va suvidir»); ikkinchidan esa tayyorlanayotgan mutaxassislarning bu boradagi bilim va malakalari sayoz, yetarli emas. Binobarin, statistik bilimlarni chuqurlashtirishga jiddiy e'tibor berish shu kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada demografiya, iqtisod, tibbiyot va boshqa sohalarga doir statistik ma'lumotaar qo'llaniladi. Ulardan to'g'ri va samarali foydalanish uchun esa statistik jihatdan savodxon bo'lmog'imiz, bu fanga oid nazariy va ilmiy adabiyotlarni chuqur bilishi zamon talabidir. Statistik usulda nafaqat jadval, balki turli shakl va mazmundagi diagramma va grafiklar chiziladi. Ularning turlari ham hozirgi kunda ko'p, buning uchun komyuter imkoniyatlari katta.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada yaratilgan asosiy ilmiy g'oya va tushunchalar ham ayni paytda tadqiqot metodlari shaklida ishlatiladi. Bu xususan rayoilashtirish, turli xil sikl nazariyalari (energiya ishlab chiqarish sikllari, resurs sikllar, geografik sikl yoki konveyerlar), iqtisodiy geografik o'rin va boshqalar e'tiborda tutilmoqda.

Rayonlashtirish haqida yuqorida qisman aytilgan edi, Shuni yana bir karra ta'kidlash joizki, rayon-geografiyaning bosh, birlamchi tushunchasi – obyektiv va hududiy birlik, voqelik, uni ilmiy jihatdan ajratish va asoslash jarayoni esa tadqiqot yoki o'rganish usuli, yo'llari (taktikasi) hisoblanadi. Demak, rayoilashtirish ham guruhlashtirishning bir ko'rinishidir, ammo bu guruh yaxlitlik va, albatta, hududiy umumiylikka ega bo'lishi shart.

Geografiyada rayonlashtirishning yuqoridan pastga va, aksincha, pastdan yuqoriga tomon amalga oshirish yoki klassifikatsiyalash mumkin. Masalan, O'zbekistan Respublikasi iqtisodiy jihatdan rayonlashtirilsa, bir butun, geografik yaxlit milliy iqtisod makonidan boshlab, uni yirik iqtisodiy mintaqalar (zonalar), ulardan asosiy iqtisodiy rayonlar, viloyatlar, viloyatlar tarkibidagi rayonlar va boshqa bundan ham kichik hududiy birliklar ajratiladi. Eng birlamchi, bu yerda xo'jalik korxonasidir; u rayonlar to'ri – tizimining dastlabki elementi, bosqichi bo'lib, shu maqsad doirasida boshqa bo'linmaydi, parchalanmaydi.

Pastdan yuqori tomon borilsa, u holda ana shu xo'jalik korxonasidan boshlab, undan hududiy birlik sifatida murakkablashib, kengayib borayotgan bosqichlar belgilanadi, Savol tug'ilishi mumkin: qaysi yondashuv ma'qulroq? O'ylaymizki, har ikkisi ham yomon emas, biroq ularni uyg'unlashtirilgan holda qo'llash yanada yaxshiroq. Masalan, yuqoridan iastga qarab ajratilgan rayonlar (bu yo'nalish ko'proq qo'llaniladi) to'ri-tizimi teskari tartibda, ya'ni pastdan yuqori tomon sinab ko'rilsa, baholansa, albatta, bunday taksonomik birliklarning haqqoniyliigi, obyektiv mavjudligi, binobarin, ularning ilmiy asoslanganligi hech shubha qoldirmaydi, Xuddi shu yo'sinda pastdan yuqoriga tomon ajratilgan rayonlar aks yo'nalishda tekshirilib ko'rilishi maqsadga muvofiqdir.

Energiya ishlab chiqarish sikllari metodi taniqli rus olimi N.N.Kolosovskiy tomonidan 1947-yilda ishlab chiqilgan. Uning nazariya sifatidagi asl mohiyati ishlab chiqarishni texnologik jarayon bilan birgalikda ko'rishdadir. Shu bois, ushbu g'oyaning iqtisodiy geografiyaga to'g'ridan-to'g'ri aloqasi yo'q; chunki u hududiy borliq emas, balki texnologik jarayon birligidir va uni geografik xaritada, xuddi

iqtisodiy rayon yoki hududiy ishlab chiqarish majmuasidek ko'rsatib bo'lmaydi. Biroq, energiya ishlab chiqarish sikllarini mazmunini chuqur anglash iqtisodiy rayonlar, hududiy ishlab chiqarish majmualari tarkibini bilish va uni prognoz qilishda samarali vosita (metod) sanaladi. Energiya ishlab chiqarish sikllari bu ma'lum bir xomashyo va energiya negizida shakllangan va asosiy ishlab chiqarish jarayoni atrofida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining texnologik jihatdan turg'un aloqadorlikda bo'lgan mushtarakligidir. Bu g'oyani anglash uchun, texnologiya, ishlab chiqarishning kooperatsiyalash va kombinatlash kabi xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Mazkur g'oya (usul)ning yana bir muhim ahamiyati shundaki, u ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligiga, chiqindisizligiga tayanadi. Bu esa atrof-muhitning tozaligini saqlash, ekologik muammolarning oldini olish va xomashyo resurslaridan to'g'ri, samarali foydalanishga olib keladi. N.N.Kolosovskiy energiya ishlab chiqarish siklini rayonlar xo'jaligini tahlil va tashhis etishda muhim va qulay metod sifatida tavsiya qilgan edi. Darhaqiqat, ushbu metod hudud xo'jalik tuzilmasining («zanjirining») naqadar to'liqligi, mukammalligini ko'rsatadi. Xuddi shu mazmunda I.V.Komarning resurs sikllari ham ma'lum ahamiyatga ega. Ushbu g'oya qazib olingan mineral yoki boshqa xomashyoni to'la va uzluksiz ishlov berish zanjiri va jarayonining yana tabiatga qay holda qaytarilishini anglatadi.

Mahalliyashtirish metodi korxonalar uchun joy tanlashni belgilovchi (xomashyo, iste'mol, mehnat resurslari, transport kabi) omillarni tahlil qilish, mavjud sharoitga moslashtirishga yo'naltirishgan tahliliy uslubdir.

4.4-§. Fanlararo integrativ metodlar

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada qo'llaniladigan ko'plab tadqiqot usullari barcha fanlar uchun ham umumiylik kasb etadi. Jumladan, ***klassifikatsiya*** va ***tipologiya*** usullari shular jumlasidandir. Ular guruhlashtirishning rayonlashtirishga o'xshash alohida shakllaridir. Shu bilan birga, klass (bosqich) va tiplar bir- biridan sezilarli darajada farq kiladi. Masalan, klassifikatsiyada (bu tushuncha dastavval biologiya fanida shved olimi K.Linney tomonidan qo'llanilgan, keyinchalik u boshqa fanlarda, jumladan, geologiya va geografiyada ham ishlatilib kelingan), eng avvalo, tadqiq etilayotgan hodisa yoki voqelikning miqdor ko'rsatkichlari e'tiborga olinadi. Klassifikatsiya obyektlarning

pogʻonasimonligi va iyerarxialigini koʻrsatib beradi. Obyektlarning alohida tiplariga ajratilishi esa asosan ularning moxiyati, bajaradigzn vazifasi (funktsiyasi), ixtisoslashuvi va yoʻnalishini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, tip – bu obyektning tashqi koʻrinishi, «basharasi» va uning ijtimoiy hamda hududiy mehnat taqsimoti natijasida shakllangan yoʻnalishini aks ettiradi.

Qolaversa, shahar va qishloqlar ham aholi punktlarining, aholini hududiy tashkil etishning asosiy shakli yoki tiplaridir. Rayonlashtirishda sanoat, qishloq xoʻjalik, rekreatsiya, togʻ-kon sanoati kabi rayonlar tipi mavjud. Shunday qilib aytish mumkinki, obyektlarning daraja boʻyicha tabaqalanishi vertikal, ularning tiplari gorizontal xususiyatga ega, yaʼni bu yerda klassifikatsiya maʼlum bir tizimdagi obyektlarning pastdan yuqoriga yoki, aksincha, qator tartibda joylanishini anglatadi, tipologiya esa turli yiriklikdagi obyektlarning umumiy oʻxshashligiga qarab ajratilgan guruhlarni bildiradi.

Oʻrganilayotgan hodisa miqdor jihatdan koʻp boʻlsa (aytaylik, shahar yoki qishloqlar, sanoat tarmoklari yoki korxonalar), ularni dastavval ayrim guruhlariga boʻlish talab etiladi. Chunonchi, bunday obyektlarni katta-kichikligi va tashqi shakli, vazifasiga koʻra ajratish lozim boʻladi. Ana shu holda tahlil etiladi va soʻngra umumiy xulosalar chiqariladi. Bunday yondashuv esa mantiqan gnesologik qonuniyatlarga mos keladi.

Murakkab obyektlarni – tarmoq yoki hududiy birliklarni tahlil va tashxis etishda, ularni bashorat qilishda *tizim-tarkib usuli* samarali natija beradi. Bu usul barcha fan va dunyoqarashga tegishli boʻlib, u umumiylik bilan hususiylik, birlik bilan koʻplik oʻrtasidagi munosabatni ifodalaydi. Eng muhimi shundaki, tadqiq etilayotgan obyekt tizim va, ayni paytda, boshqa bir tizimning tarkibiy qismi shaklida namoyon boʻladi. Bu esa uning «ochiq» yoki «yopiq» ekanligidan kelib chiqadi. Masalan, yengil sanoat geografiyasi oʻrganilganda uni tizim sifatida ham, tarkib shaklida ham tahlil etsa boʻladi. Agar ushbu sanoat tarmogʻiga «yopiq» tizim koʻrinishida yondoshsak (aslida, bu yerda uni aynan shunday qarash talab etiladi), u alohida tizim darajasiga ega boʻladi. Ammo mazkur sanoat tarmogʻini faqat shu darajada oʻrganish qoniqarli natija bermaydi. Binobarin, uni alohida qismlardan (toʻqimachilik, poyafzal, trikotaj va h.k.) tashkil topganini va ularning, oʻz navbatida, turli korxonalardan – fabrikalardan iborat ekanligini inobatga olish va tahlil etish lozim. Shu bilan birga, yengil sanoatni «ochiq» tizim koʻrinishida ham tasavvur qilmoq kerak. Bu holda yengil

sanoat mamlakat sanoatining, qolaversa, milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi ekanligini guvohi bo‘lamiz.

Ma’lumki, har qanday tizim-tarkib, eng avvalo, ikki holda, ya’ni tarmoq va hududiy ko‘rinishda bo‘ladi. Hududiy tizim-tarkibga misol: maqsad Farg‘ona iqtisodiy rayonini o‘rganish. Demak, u yopiq tizim, uing birinchi darajadagi tarkibiy qismlari Andijon, Farg‘ona, Namangan viloyatlari; ikkinchi darajadagilari esa viloyat ichidagi ma’muriy qishloq tumanlari va shaharlar; uchinchi darajadagi qismlari – tuman ichidagi xo‘jaliklar va h.k. Biroq bu yo‘sinda tadqiqot obyektining faqat ichki tuzilishiga «kirib» boriladi. Vaholanki, u «Xitoy devori» bilan chegaralanmagan va binobarin, o‘zidan kattaroq bo‘lgan hududiy iqtisodiy birlikning tarkibiy qismidir. Shu bois, yuqoriga nisbatan qarashni ham unutmash kerak. Tadqiqot obyektiga yuqoridan qaralsa, u boshqa bir tizimning tarkibiy qismi, «pastdan» esa u yaxlit tizimdir. Ammo har qanday tadqiqot obyektiga unga, eng avvalo, alohida tizim sifatida yondashuvni taqozo etadi, uning boshqa bir tizimning qismi ekanligi esa qo‘yilgan maqsad nuqtai nazardan ikkinchi darajali masala hisoblanadi.

Tizimlar, tarkibiy qism yoki komponentlar (quyi darajadagi tizimchalar, podsistemalar)dan, ular o‘z navbatida elementlardan tashkil topadi. Elementlar birlamchi bo‘lib, ular tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda boshqa bo‘linmaydi, parchalanmaydi. Agar ular yanada qismchalarga taqsimlansa u holda boshqa mazmundagi tizimga o‘tib ketiladi. Yuqoridagi misolimizning har ikkisida ham element sifatida sanoat yoki xo‘jalik korxonalari xizmat qiladi. Albatta, ular ham ichki, tarkibiy tuzilishga ega (sex, brigada va h.k.). Ammo bunday tarzda iqtisodiy geografik tizim ishlab chikarishning tashkiliy – boshqaruv tizimiga aylanib qoladi. Shunday qilib, tizim-tarkib usuli o‘ta murakkab, lekin shunga muvofiq undan foydalanish juda samaralidir. Binobarin, tizim (sistema) konsepsiyasini qat’iylik va sobitqadamlik bilan o‘rganish hamda uni ko‘rqmay amaliyotda qo‘llash kerak. Zero, har qanday yaxshi, sermahsul yo‘l hech vaqt oddiy va oson bo‘lmaydi.

Tizim-tarkib tahlili xo‘jalik va uning tarmoqlarini hududiy tashkil etilishi bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois, u mamlakatning mintaqaviy siyosatini ishlab chikarishda ham zarur. Ammo tizim tushunchasi shunchaki oddiy so‘z emas, uni hamma vaqt va istagan joyda ishlatish to‘g‘ri bo‘lavermaydi, chunki uning yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘ziga xos mezon va me’yorlari bor.

Rayon hududiy guruhlashtirishning tipik va murakkab shakli deb tavsiflandi. U hududiy tarkib va tizim shaklida geografiya fanining asl mohiyatini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, har qanday guruh tizim bo'lavermaydi, bu o'rinda guruh, agar uni aholi misolida qaraydigan bo'lsak, u kishilarning hududiy birligi yoki solumini, turli yosh, jins, millat, kasb va e'tiqodga ega bo'lgan aholining bir joyda to'planganligi, mujassamlanganligini ifodalaydi. Kishilarning hududiy birligi «jamo» deb ataladi. Biroq jamoa jamiyat emas; jamiyat murakkab, uyushtirilgan tizim shaklida bo'lib, u o'zining bazis va ustqurmasiga, boshqaruv tashkilotlariga ega. Jamoa esa kishilarning ba'zan tasodifan, faqat ma'lum maqsad bo'yicha bir joyda yig'ilganligidir. Masalan, bekatda yoki bozorda, maschitda to'planganlarni ham jamoa deb atash mumkin. Ular, ya'ni bir-birlariga notanish shaxslar, transport vositasini kutish, sotish yoki xarid qilish, namoz o'qish maqsadida to'planishgan, xolos.

Tizim-tarkib usuliga *maqsadga dasturli yondashuv* mohiyatan yaqin turadi. Ilmiy tadqiqotlarda qo'yilgan bosh maqsad va uni turli daraja hamda murakkablikdagi vazifalarining tarkib - tizimi ushbu usulga asoslanadi. Bunda eng past, quyi bosqichda o'rin olgan vazifani hal etish uchun katta mablag', kuch va vaqt sarflanmaydi, ammo uni yechmasdan turib navbatdaxisiga o'tib bo'lmaydi («kichik kalit katta eshikni ochadi»). Shu bois, vazifalar majmuini birin-ketin, ularning ustuvorligiga qarab paydar-pay hal etish talab etiladi, birinchisining yechimi ikkinchisiga, ikkinchisining uchinchi darajadagi vazifani bajarishga yo'l beradi.

Vazifalar va ular mazmunining muhimligi, dolzarbligi turli darajada bo'lgan muammolarni aks ettiradi va ularning ustuvorligi har xil bo'ladi. Binobarin, mazkur usulni ayrim hollarda *maqsadga muammoli yondashuv*, deb yuritiladi. Bu yerda bosh maqsad – strategiya, faoliyat natijasi, vazifalar esa taktika, pirovard maqsadga erishish vositasi, jarayonidir. Shu bilan birga bosh maqsad ham turli pog'onadagi maqsad va maqsadchalarga bo'linadi va ularni shu tartibda daraxt shakliga, uning bo'yi, tanasi va shohlariga o'xshatish mumkin.

Amaliyotda ilmiy asoslangan dasturlarni tuzish, ayniqsa, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, dolzarb muammoli masalalarni yechish uchun juda muhimdir. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o'tkazish va moslashtirish, yoqilg'i-energetika, yo'l va don mustaqilligiga erishish, qishloq infratuzilma shakllantirish va bu joylarga sanoatni olib kirish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, Orol muammosi kabi juda

ko'p va mushkul masalalarni hal qilishda oldindan ishlab chiqilgan dasturlar lozim bo'ladi.

Xuddi shunday, ilmiy tadqiqotlarni bajarish – kurs va bitiruv malakaviy ishlarni, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarini yozish maqsadga dasturli yondashuv yordamida amalga oshiriladi. Buning uchun ishning maqsadi va vazifasi, mundarija – rejasi tuzilib, uning barcha bndlari ko'zda tutilayotgan mohiyati dastur shaklida keltirilishi kerak. Puxta tayyorlangan dastur ilmiy ishning o'z vaqtida va qiyomida bajarilishining garovidir. Qolaversa, inson ham o'zining kundalik faoliyatini muayyan maqsad doirasida tashkil etadi va uni ma'lum tartibda olib boradi. Binobarin, maqsad-dastur metodi nafaqat ilmda, balki oddiy hayotda ham qo'llaniladi.

Fanimizda, hususan, aholining yashash sharoiti va turmush tarzi, unga turli xil xizmat ko'rsatishning real holati, sosial va ekologik muammolarni tadqiq etish hamda haqqoniy baholashda *anketa-so'rovnoma usulining* ahamiyati beqiyosdir. Buning uchun avval ishning maqsad va vazifalari aniq belgilanadi va so'ngra puxta o'ylangan savol varaqasi yoki savolnoma tuziladi. Savollar turkumi o'ta qisqa yoki juda murakkab ham emasligi, ularga javob beruvchilar (respondentlar) uchun tushunarli bo'lmog'i kerak. Ayni paytda, respondentlarning berilgan savollarga munosabati mumkin qadar lo'nda va aniq bo'lishi anketalarni qayta ishlashda muhimdir. Ayrim savollarga javob berishda o'ziga mos kelgan so'zlarning tagiga chizish qo'layroqdir.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada, jumladan, aholining demogeografik jihatdan tadqiq etishda tug'ilish, migratsiya kabi masalalar o'rganilishi talab etiladi. Bunda statistik ma'lumotlarga ko'ra jonli so'rov, bevosita kishilarning o'zlari bilan bo'lgan muloqot nihoyatda samarali va to'g'ri natijalar beradi. Chunonchi, oilani «rejalashtirish» yoki oilada nechta farzand bo'lishini, aholining migratsiya (ko'chib ketish, ko'chib kelish)ga layoqati, moyilligini aniqlashda anketa usuli tadbiq etiladi. Shuningdek, aholiga tibbiy, madaniy-maishiy savdo va boshqa turdagi xizmat ko'rsatish darajasini o'rganish va baholashda sosial-demografik tadqiqotlar so'rov vositasi bilan olib boriladi. Hozirgi paytda yuzaga kelgan ekologik vaziyatni tahlil va tashhis qilish ham ko'proq ushbu usul orqali bajariladi.

Tabiiyki, qo'yilgan muammoni o'rganishda barchani (agar tadqiq etilayotgan obyekt ko'pchilikni tashkil qilsa) so'rash va javob varaqasini to'ldirish imkoniyati yo'q. Binobarin, aholining ma'lum qismi: ikkidan

biri, uchdan biri, to‘rt dan biri, beshdan biri, o‘ndan biri va nihoyat yigirmatadan biri so‘ralishi kifoya. Bunda anketa – so‘rov usuli yuqoridagilarga mos ravishda 50, 33, 25, 20, 10 va 5 foizlik saralash darajalarida o‘tkaziladi. Ammo, so‘ralganlarning miqdor ulushi, ularning javoblari tadqiq etilayotgan hodisaning umumiy va «o‘rtacha» holatini to‘g‘ri baholashga muvofiq bo‘lishi shart. Buni fanda so‘rovning taalluqlilik darajasi (reprezentativligi) deb ataladi. Mazkur ko‘rsatkichning me‘yorida bo‘lishi uchun so‘rovga har xil manzillarda yashovchi, turli yosh, millat, kasb egalari jalb etilmog‘i maqsadga muvofikdir (ularning familiyasi, ismi-sharifi bu o‘rinda aslo shart emas).

Anketa usulining yuqoridagi «jonli» shaklidan tashqari uning boshqa ko‘rinishlari ham mavjud. Masalan, biror bir korxonaga yoki oliy o‘quv yurtining sosial-demografik xususiyatlarini aniqlash, mehnat resurslari tarkibini tahlil etishda kadrlar bo‘limidagi kartotekalar (ma‘lumotnomalar) o‘rganiladi, Bu yerda ham kartotekalar tanlov usulida va «nomsiz» tahlil etiladi. Kartoteka anketalarni o‘rganish va tahlil etish natijasida ishchi yoki talabalarning yoshi, millati, qayerda turishi, tug‘ilgan joyi, ma‘lumoti, qayerdan kelganligiga o‘xshash savollarga javob olinadi. To‘plangan ma‘lumotlar alohida jadval va diagrammalarda aks ettirilsa, tadqiqotning daliliyligi yanada oshadi.

Ekspert baholash usuli ishlab chiqarish kuchlarining tarmoqlar va hududlar bo‘yicha istiqbolda rivojlanishini yuqori malakali ekspertlar yordamida baholashdir. Ekspert baholash usuli, ayniqsa, insonning xo‘jalik faoliyati tufayli atrof-muhitda yuz berayotgan o‘zgarishlarni baholashda keng qo‘llanilmoqda.

Aytaylik, shahar yoki tumanlarning istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash uchun ularning xomashyo va mehnat resurslari, transport va ijtimoiy infratuzilma, iqtisodiy geografik o‘rni, ekologik holati va boshqa shart-sharoitlari tadqiqotchi tomonidan baholanadi. Bunday baholash besh yoki o‘n ballik tizimda bajariladi va olingan natija boshqa joyda saqlanadi. Ma‘lum vaqt o‘tgandan so‘ng, ya‘ni qo‘yilgan baholar muallifning xotirasidan chiqqandan keyin yuqoridagi shart va sharoitlar, omillar qaytadan (oldingisiga aloqador bo‘lmagan holda) baholanadi. Shundan keyin turli vaqtlarda amalga oshirilgan bir masalaning ikki vaqtdagi baholanish natijalari taqqoslab ko‘riladi, solishtiriladi. Agar qaysi shahar yoki tumanga u yoki bu omilga berilgan baho bir-biriga aynan mos kelsa, u xolda vaziyat qat‘iy va to‘g‘ri baholangan bo‘ladi.

Aslida, ekspert baholash usuli amaliyotda fan va texnika rivojlanishi, olamshumul va umumbashariy, muhim va dolzarb muammolarni o'rganishda keng qo'llaniladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotning bozor munosabatlariga qachon to'la o'tishi, Orol dengizi sathini saqlab qolish mumkin yoki mumkin emasligi, urbanizatsiya jarayonining istiqboldagi darajasi, ekologik muammolarni hal etish imkoniyat va yo'llarini aniqlashda ekspert baholash usulidan foydalanish qo'l keladi. Buning uchun ko'rilayotgan masalaga daxldor, mutasaddi kishilar - olim va mutaxassislar jalb etiladi (ular bir-birini tanishlari shart emas) va tarqatilgan anketaga javob olinadi. Javob natijalari umumlashtiriladi va «o'rtacha» vaziyat aniqlanadi. Shunga qarab masalani yanada chuqurroq, ravshanroq o'rganish va yakuniy xulosalar chiqarish uchun ekspertlarga yangidan, aniqlik darajasi yanada yuqoriroq bo'lgan navbatdagi anketa (savolnoma) tarqatiladi. Xuddi shu tarzda ekspert so'rovlari yakuniy xulosa chiqarilganga qadar bir necha bosqichda o'tkaziladi.

Hodisa va voqealarni prognoz etishda nisbatan oson va oddiyroq bo'lgan *ekstrapolyatsiya* usuli ishlatiladi. Bu usulda kelajak, istiqbol («перспектива») o'tmish (retrospektiva) va hozirgi vaziyatdan kelib chiqadi. Shu mazmunda, uni genetik, tarixiy usul deb ham yuritiladi. Ekstrapolyatsiya metodida kelajakda ham yaqin o'tmishdagi holat, jarayon saqlanib qolinishi faraz qilinadi. Bunda kelajak, ya'ni bashorat (prognoz) muddatining o'tmish davriga imkoni boricha mos kelishi maqsadga muvofiqdir. O'tmish va istiqbolning davriy ko'rsatkichlari esa tadqiq etilayotgan hodisaning mohiyatidan, uning qayta tiklanish siklidan kelib chiqadi. Chunonchi, demografik prognozlar ekstrapolyatsiya usulida 10–15 yil muddatga mo'ljallab bajarilsa, ularning realligi, haqiqiyliги ancha yuqori bo'ladi.

Demak, buning uchun o'tmishdagi jarayon ham huddi shuncha (10–15 yil) muddatni qamrab olmog'i lozim; o'tmishni ko'p olib nisbatan qisqa davrga prognozlash mumkin, lekin aksincha emas – qisqa o'tmishga asoslanib uzoq, muddatni bashorat qilish notug'ri va haqiqatdan yiroq bo'ladi. Chunki, bunday sharoitda baholangan hozirgi vaziyat turg'un, barqaror bo'lmasligi, «конъюнктура» hoida bo'lishi tabiiydir.

Aholining kelajakdagi sonini aniqlashda *yosh siljitish* usulidan foydalaniladi. Ushbu metod butun prognoz davri uchun ishlab chiqilgan bo'lib, demografik prognozning ikkinchi nomi hisoblanadi. Yosh siljitish usuli yordamida aholi prognozini ishlab chiqishning yakuniy

bosqichida, agar prognoz yilida migratsiya saldosini ijobiy bo'lsa, u prognoz yilidagi umumiy aholi soniga qo'shiladi, agar saldo salbiy bo'lsa, u prognoz yilining umumiy aholi sonidan ayriladi.

Intervyu metodi odamlar tilidan yozma yoki og'zaki tarzda olingan fikrlar ma'lumotlarning manbai bo'lib xizmat qiladi. Intervyu – bu bevosita, erkin fikr almashinuvi sharoitida o'zaro fikr almashinuviga qaratilgan muloqotdir. Chunki suhbatdan farqli o'laroq, intervyu aniq muammo doirasida, qat'iy bir yo'nalishda olib boriladi. Intervyu oluvchi suhbatdoshga nisbatan neytral mavqiyda bo'lib, uning fikrlashiga xalaqit bermasligi, ayniqsa, unga tayziq o'tkazmasligi lozim. Intervyu jarayonining samarali kechishi uchun suhbatdoshda o'ziga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirib, birinchi so'zlarni aniq, ravon, ifodali bayon qilish muhimdir.

SWOT-tahlil usuli orqali hududning kuchli (strong), zaif (weak), imkoniyat (opportunity) va tahdid (threat) tomonlari belgilanadi. Natijada, o'rganilayotgan obyektning raqobatbardoshligiga erishish yo'llari aniqlanadi. Eng muhimi, bunda zaif jihatlar va imkoniyatlarga ham e'tibor qaratiladi, mavjud muammolar hisobga olinadi va shu asosda istiqbolda rivojlanish yo'llari belgilanadi.

Ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishni takomillashtirish va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda iqtisodiy holatni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bunda asosiy e'tibor mahalliy sharoit, mehnat resurslari, ishlab chiqarish aloqalari, hamda istiqbolda rivojlanish masalalariga qaratiladi. Shu jihatdan, yuqoridagi metodlar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Hudud geografik tadqiqot obyekti sifatida qanday ahamiyat kasb etadi?*
- 2. Geografiya fanlari tizimida qaysi umumgeografik metodlardan foydalaniladi?*
- 3. Qaysi metodlar faqatgina iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani doirasida qo'llaniladi?*
- 4. Fanlararo integrativ metodlarga qaysi usullar kiradi?*
- 5. Fanning tadqiqot usullarini qaysi mezonlar asosida foydalanish nuqtai nazaridan yo'nalishlar bo'yicha ajratiladi?*

5-BOB. ISHLAB CHIQUARUVCHI KUCHLARNI JOYLASHTIRISHNING KLASSIK NAZARIYALARI

Mavzu annotatsiyasi. *Mazkur mavzuda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha barcha davrlar uchun fundamental asos bo'la oladigan nazariyalar keltirilgan. Jumladan, A.Smit, D.Rikardonning Qiyosiy imtiyoz va solishtirma afzallik nazariyalari; E.Xeksher, B.Olin teoremasi; I.Mechnikovning Buyuk tarixiy daryolar va sivilizatsiyalar nazariyasi; I.Tyunenning Qishloq xo'jaligini halqasimon joylashtirish nazariyasi; K.Ivanovning Geografik konveyr konsepsiyasi; V.Luanxardning Ishlab chiqarishni samarali joylashtirish konsepsiyasi; A.Veberning Shtandort nazariyasi; V.Kristallerning Markaziy o'rinlar nazariyasi; A.Lyoshning Iqtisodiy landshaft nazariyasi; F.Perruning O'sish qutblari va rivojlanish markazlari konsepsiyasi; I.Komarning Resurs sikllari nazariyasi hamda N.Kondratyevning Uzun to'lqinlar nazariyasi tahlil etilgan.*

Tayanch so'z va iboralar: *merkantilizm, fritredizm, sanoat inqilobi, konsepsiya, nazariya, sivilizatsiya, resurs sikli, konveyr.*

Reja:

- 5.1. Klassik nazariyalar vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari.
- 5.2. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning ilk ta'limotlari: merkantilizmdan fritredizmga.
- 5.3. Qishloq xo'jaligini hududiy tashkil etishning klassik nazariyalari.
- 5.4. Sanoatni hududiy tashkil etishning klassik nazariyalari.
- 5.5. Servis sohalarini hududiy tashkil etishning klassik nazariyalari.



5.1-§. Klassik nazariyalar vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning ilmiy asoslari Yevropada yaratilgan klassik nazariyalar bilan bevosita bog'liq. Klassik nazariyalar – sanoat inqilobi va undan keyingi davrda tarkib topgan ishlab chiqarishni sanoatlashtirish, urbanizatsiya, servis va boshqa iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlarining mohiyatini ochib berish natijasida vujudga kelgan ilmiy g'oya va qarashlardir.

Uzoq vaqt davomida xalq va mamlakat moddiy farovonligining negizi hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi bilan bog'liq deb baholangan. Biroq XV asrga kelib, vaziyat keskin o'zgarib boshlaydi. Bunga Yevropada tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi va savdo-sotiqda qimmatbaho metallardan (oltin, kumush) pul sifatida foydalanishning jadallashuvi kuchli ta'sir ko'rsatadi. Natijada, mamlakat xazinasini oltin, kumush va boshqa qimmatbaho toshlar bilan to'ldirish, savdo aloqalarini kengaytirishni yoqlovchi *merkantilizm* ta'limoti vujudga keladi.

Merkantilizm (italyancha, «mercante» – savdogar) bu hukmron hokimiyat va savdo mafkurasini asoslashga qaratilgan g'oya bo'lib, iqtisodiyotga davlatning faol aralashuvini o'zida aks ettirgan.

Mazkur davrda oltin va kumushning muomalada jadal foydalanishi uning zaxirasiga keskin ta'sir etadi, uning «o'rnini to'ldirish» uchun maxsus harakatlar boshlanib ketadi. Pul aylanmasining tezlashuvi, quruqlik orqali Sharq mamlakatlari bilan o'zaro aloqalarning qiyinlashuvi va dengiz savdosi uchun imkoniyatning mavjudligi yangi yerlarni o'zlashtirish, oltin-u javohirlarga boy afsonaviy Hindistonni izlab topishga turtki bo'ladi. Oqibatda, suvda kemalar orqali xavfli yo'lga o'tlanish taraddudi boshlanadi, xaritalar tuziladi, kompas takomillashtiriladi; dengizchi va savdogarlarning dunyo bo'ylab sayohatga o'tlanishi Buyuk geografik kashfiyotlar qilishga zamin yaratadi. Yangi o'lkalar kashf etiladi, Yevropa uchun butkul notanish xomashyo, ziravor, madaniy o'simlik va hayvon turlarining qit'aga kirib kelishi boshlanadi. Bularning barchasi Buyuk geografik kashfiyotlarni amalga oshirgan Portugaliya, Ispaniya, Gollandiya, Fransiya va Angliya kabi mamlakatlarni markazlashgan davlatdan qudratli imperiyalarga aylantiradi. Xomashyo zaxirasining keskin ortishi, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatining vujudga kelishi agrar jamiyatdan, industrial jamiyatga o'tishga sharoit yaratadi.

Ishlab chiqarishni joylashtirishga oid ilk klassik (namunali, barcha davrlar uchun ahamiyatli) nazariyalar ham XVIII asrda, aynan, Yevropada ishlab chiqiladi. Xususan, ushbu davr Angliya uchun «sanoat inqilobi» davri bo'lib, manufaktura (qo'l bilan ishlab chiqarish) bosqichidan fabrika–zavod ishlab chiqarish bosqichiga o'tishi bilan tavsiflanadi. Bu orqali, industrilashtirish, sanoatni moddiy ishlab chiqarishning bosh sohasiga aylanish jarayoni boshlanadi. Bug'mashinasining (1784) ixtiro qilinishi esa sanoat va transportda (parovoz, paroxod) inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Mazkur jarayonlar

ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, mehnat resurslarini boshqarish, iqtisodiyotni jadallashtirish va xizmat ko'rsatishni rivojlantirish borasidagi ilmiy asoslarni talab eta boshlaydi. Natijada, ko'plab olimlar tomonidan tarmoqlar bo'yicha nazariy-metodologik konsepsiyalar ishlab chiqa boshlanadi.

5.2-§. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning ilk ta'limotlari: merkantilizmdan fritredizmga

Yevropada iqtisodiy va madaniy rivojlanishning boshlanishi natijasida faqatgina ichki bozor manfaatlarini yoqlovchi, savdo-sotiqqa davlatning faol aralashuvini ifoda etuvchi merkantilizm ta'limoti o'z o'rnini erkin savdo faoliyatiga asoslangan fritredizmga bo'shatib beradi.


Adam Smit. «Mutloq ustunlik» nazariyasi

Adam Smit – ingliz manufaktura davrining iqtisodchisi. 1723-yilda Shotlandiyaning Kerkoldi shahrida tavallud topgan.

A.Smit Glazgo va Oksford universitetlarida ta'lim olgan. U yerda falsafa, adabiyot, tarix fanlari bilan birga fizika va matematikani ham o'zlashtiradi. Smitda iqtisodiy ta'limotlarga bo'lgan qiziqish Glazgodagi o'ziga xos siyosiy iqtisod anjumanlaridagi ishtiroki, iqtisodchi David Yum bilan doimiy aloqada bo'lishi orqali ortib borgan.

Ish faoliyati sabab, 1764-yilda Yevropa bo'ylab sayohatga chiqadi. 1766-yilda yurtiga qaytgach, olgan tajribalari asosida yozgan besh jilddan iborat o'zining bosh asari «Xalqlar boyligi sabablari va ularning tabiati to'g'risida tadqiqotlar» kitobida mutloq ustunlik nazariyasini taklif etadi va xalqaro erkin savdoni rivojlanishidan manfaatdor mamlakatlar undan mustaqil ravishda eksportyor yoki importiyorligidan qat'iy nazar, albatta, yutishini ko'rsatadi; almashinish har bir mamlakat uchun foydali ekanligini, har bir mamlakat unda mutloq ustunlik topishini isbotlaydi. Zero, xalqaro savdoda mutloq ustunlik bu – mamlakatda ishlab chiqarishda boshqa mamlakatda mumkin bo'lmagan kam mehnat sarflab tovar ishlab chiqarishdir.

Uning tahlili klassik nazariyaning tayanch nuqtasi sifatida erkin savdo siyosatining barcha turlariga asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq, agarda mamlakat chetdan ma'lum miqdorda, arzon narx evaziga istalgan



5.1-rasm. A.Smit
(1723-1790)

barcha narsasini topsa, bunday importiyor mamlakatning «jilovi» sarhadlardan tashqaridagi kuchlar ixtiyorida qoladi. Uning o'zida eksport qilish uchun nima bor? Hamisha qo'shnilar bilan ijobiy aloqalar davom etishiga asos bormi?, hech narsa buni kafolatlay olmaydi. Ana shunda, bunday davlatning o'zi sotib oladigan narsalariga umid bog'lashdan boshqa iloji qolmaydi. Turgan gapki, bunda mutloq ustunlik nazariyasi boshi berk ko'chaga kirib qoladi. Mana shu tahlillar, o'zidan keyingi ko'plab olimlar tadqiqotining fundamenti bo'lib xizmat qilgan. Qolaversa, Smit ta'limotining katta qismi mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvga yo'naltiriladi, bu orqali mamlakat ishlab chiqarish ko'rsatkichlarida samaradorlikka erishish asoslanadi.

Uning iqtisodiy qarashlari asosida shunday g'oya yotadiki, merkantilizmdan farqli o'laroq, jamiyat boyligi mehnat, ya'ni ishlab chiqarish tufayli shakllanadi. Olim kapitalistik ishlab chiqarishning manufaktura bosqichini tahlil qilish asosida iqtisodiy o'sishning muhim omili mehnat taqsimotidir, degan xulosaga keladi va buni o'z tadqiqotlarining boshlang'ich nuqtasi deb qabul qiladi. Bunda u mehnat taqsimoti orqali faoliyat samaradorligi oshishini igna to'g'nog'ich manufakturasi misolida yoritib beradi. Chunonchi, ishchilarning ma'lum funksiya asosida mehnatni o'zaro taqsimlab olishi yuqori samadorlikka egaligi asoslangan. Jumladan, o'n kishi ishlaydigan ustaxonada igna to'g'nog'ichni boshidan oxirigacha o'zi yasaydigan har bir ishchi kuniga o'rtacha 20 ta mahsulot yasashi mumkin. Funksiyalar o'zaro taqsimlangan, ya'ni biri sim tortadigan, ikkinchisi to'g'iraydigan, uchinchisi kesadigan va boshqasi shakl beradigan ustaxonada esa kuniga 4800 ta mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati tug'ilgan, ya'ni mehnat unumdorligi 240 barobar oshgan.

Mehnat taqsimoti ta'limotining bunday ahamiyati o'z davrida juda katta shuhrat qozonadi hamda asosiy uch jihati bilan ajralib turadi:

– ishchilarning bir xil vazifa bajarishi ortidan ularning malakasi ortib, chaqqonligining oshishi. Bunda, ishchilarning tajribasi ko'payib, mahsulot sifat jihatdan takomillasha boradi;

– bir turdagi ishdan boshqasiga o'tish uchun ketadigan vaqtni tejash imkoniyatining paydo bo'lishi, ya'ni dastgohdan dastgohga borish vaqti va yangi turdagi ishga psixologik moslashish uchun ketadigan muddat iqtisod qilinadi;

– faqat ma'lum ishni bajarish mashinalar ixtiro qilishga imkoniyat beradi: takrorlanadigan jarayonlar mashinalarni qo'llashga qulaylik yaratadi.

A.Smit asarlari o'z davridayoq katta qiziqishlarga sabab bo'ladi. Tarixiy manbalarga qaraganda, bo'lajak ingliz klassik nazariya namoyondasi Devid Rikardo 1799-yilda kurortda A.Smitning «Xalqlar boyligi...» asarini ko'rib qoladi va unda bu fanga ishtiyoq paydo bo'ladi. Keyinchalik, D.Rikardo Smit g'oyalaridan ilhomlanib, mehnat taqsimoti faqat tarmoqlararo emas, balki mamlakatlar o'rtasida ham katta naf keltirishini isbotlab beradi hamda hududiy mehnat taqsimoti ta'limotining shakllanishiga beqiyos hissa qo'shadi.

David Rikardo. «Qiyosiy imtiyoz» nazariyasi

David Rikardo – ingliz sanoat inqilobi davrining iqtisodchisi. 1772-yilda Angliyaning London shahrida dallol yahudiy oilasida tavallud topgan. O'n to'rt yoshgacha Gollandiyada o'qiydi, qo'shimcha tarzda, ikki yil davomida Amsterdam savdo maktabida ta'lim oladi.



5.2-rasm. D.Rikardo
(1772-1823)

Rikardo olgan tajribalari asosida siyosiy iqtisod bilan shug'ullanadi; mustaqil ravishda fizika, kimyo, biologiya, matematikani o'rganadi. 1819–1823-yillarda Angliya parlamentining a'zosi sifatida o'z mansabidan shaxsiy ilg'or iqtisodiy g'oyalarini tarqatish maqsadida foydalanadi, erkin savdoni talab etadi, proteksionizm va pul muomalasi sohasidagi davlat siyosatini tanqid qiladi.

Mamlakat boyligini ta'minlash uchun erkin raqobat va iqtisodiy liberalizmning boshqa prinsiplarini qo'llash darkorligini doimo ta'kidlaydi. D.Rikardo 1819-yilda iqtisodchi do'sti J.Mill tashabbusi bilan yozgan «Siyosiy iqtisodning boshlanishi va soliqqa tortish» kitobida mamlakatlar qiyosiy ustunligining klassik nazariyasini olg'a suradi.

U birinchilardan bo'lib, ayrim tovarlarni ishlab chiqarishdangina emas, balki mamlakatlar o'rtasida ham xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvning foydaliligini isbotlab beradi. Bunda qiyosiy imtiyoz tamoyili mavjudligini ko'rsatadi. Bu tamoyil universalroq bo'lib, unga ko'ra ayrim mamlakatlar ma'lum tovarlarni ishlab chiqarishda ba'zi qulayliklarga ega bo'ladi va kam xarajat sarf qiladi. Bunda tabiiy va iqlimiy omillar ham katta rol o'ynaydi. Ma'lum tovarlarni ishlab chiqarish tannarxi boshqa mamlakatdan qulay bo'lishi lozim. Mamlakatlarda tabiiy, texnologik va madaniy farqlar tufayli ishlab

chiqarish xarajatlari ham turlicha bo`ladi. Uning ta`kidlashicha, ixtisoslashuv hatto sust rivojlanayotgan davlat uchun ham foydali bo`lishi mumkin.

Rikardo yoqlab chiqqan erkin savdo siyosati – *fritredizm* ta`limoti mamlakatlar rivojlanishini ta`minlovchi xalqaro mehnat taqsimoti va iqtisodiy aloqalarning cheklovlarsiz amalga oshirilishini bildiradi. Bu ta`limotda bir necha mulohaza talab etiladigan savollar oldinga tashlanadi: xalqaro savdoni belgilovchi omillar nimadan iborat? Nima uchun ma`lum bir tovarlar eksport qilinadi-yu, boshqalari import qilinadi? Tashqi savdo ishlab chiqarish va iqtisodiy taraqqiyot uchun nimalar beradi? Bu savollarga u almashinuvning samarasi va qiyosiy afzallik asosida javob beradi. Chunonchi, Shotlandiyada uzum vinosi tayyorlash mumkin, ammo mehnat sarflari juda yuqori bo`ladi. Bu yerda suli yetishtirish qulay, uni esa Portugaliya vinosiga almashgan ma`qul. Chunki vinoni tayyorlashga G`arbiy Pireneyda kam xarajat sarflanadi, tannarxi past bo`ladi. Agar Shotlandiyada ham suli, ham vino oz chiqimlar bilan ishlab chiqarilsa-da, bu yerda suli bo`yicha vinoga qaraganda ustunlik ko`proqligini asoslashga harakat qiladi. Chunki xarajat nisbati va almashuv proporsiyalari hisobga olinganda, bu davlat uchun faqat suli yetishtirish nisbatan qulay bo`la oladi. Portugaliya uchun esa vinoni eksportga chiqarish foydalidir. Bu mohiyatan Rikardoning qiyosiy imtiyoz, taqqoslama ustunlik nazariyasidir.

Xuddi shunga o`xshash qiyoslashni Angliya va Fransiya misolida mato to`qish, AQSh va Braziliya misolida don va kofe ishlab chiqarish afzalligida ko`rib chiqadi. Bu misollardan shu narsa ko`rinadiki, nisbiy ustunlik mavjud bo`lsa, ixtisoslashuv va ayirboshlash ikkala mamlakat uchun ham foydalidir. Bundan mamlakatlar o`rtasida xalqaro mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi zarurligi kelib chiqadi. U xalqaro ixtisoslashuv mezonlarini ajrata turib, ikki davlat o`rtasida qaysi doirada almashinish maqbulligini ko`rsatadi. Har bir mamlakat o`z manfaatidan kelib chiqib ishlab chiqarishda ustunlik beradigan yoki nisbatan kam foyda beradigan sohaga ixtisoslashishi mumkin. D.Rikardo xalqaro ayirboshlash barcha mamlakatlar uchun zarur va manfaatli ekanligini asoslab beradi. U shunday falsafiy arealni belgilaydiki, uning ichida almashinish hamma uchun foydalidir.

Rikardoning qiyosiy imtiyoz nazariyasi asosida hozirgi zamon xalqaro savdo oqimining tuzilishi va yo`nalishlari haqidagi ta`limotga shved iqtisodchi olimlari Eli Xeksher va Bertil Olin asos soladilar. Ularning taqqoslama ustunlik haqida tushuntirishicha, u yoki bu

mamlakatda ma'lum mahsulotlarga egalik munosabati ishlab chiqarishni ta'minlanish omillari darajasiga bog'liq bo'ladi hamda zamonaviy xalqaro aloqalarning tashkil etilishida katta ahamiyat kasb etadi.

Xeksher – Olin teoremasi

Eli Xeksher – shved iqtisodchisi, 1879-yilda Stokgolm shahrida tavallud topgan. 1897-yilda Shvetsiyaning Uppsala universitetiga



a) Eli Xeksher
(1879-1952)



b) Bertil Olin
(1899-1979)

5.3-rasm. Ustoz-shogird iqtisodchilar

o'qishga kiradi. 1904-yilda falsafa doktori, uch yildan so'ng fan doktori ilmiy darajasini oladi. U faoliyati davomida mamlakat poytaxtidagi Oliy savdo maktabida siyosiy iqtisod va iqtisodiyot tarixi professori, Iqtisodiyot tarixi instituti direktori bo'lib ishlagan.

Bertil Olin – shved iqtisodchisi, Nobel mukofoti laureati. 1899-yilda Shvetsiyaning Klippan shahrida tavallud topgan. 1917-yilda Lund universitetida matematika va statistika bo'yicha bakalavr, 1919-yilda Stokgolm Iqtisodiyot maktabida iqtisod magistri, 1923-yilda Garvard universitetida iqtisod bo'yicha magistrlik darajasini oladi. Bir yildan so'ng, Stokgolm universitetida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Faoliyati davomida Stokgolm Iqtisodiyot maktabida professor, Shvetsiya koalitsion hukumatida savdo vaziri bo'lgan. 1977-yilda Jeyms Mid bilan birga «Xalqaro savdo va xalqaro kapital harakati nazariyasiga qo'shgan hissasi uchun» Alfred Nobel mukofoti laureati bo'lgan.

Keyingi davrda vujudga kelgan iqtisodiy ta'limotlarda E.Xeksher va B.Olin «Ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimoti» modeli tipik namuna hisoblanadi. Ular birgalikda ishlab chiqarish omillari – mehnat, yer, kapital, shuningdek u yoki bu tovarlarga ichki turli talablar bahoni tenglashtirishi teoremasini olg'a surdilar. Ayrim mamlakatlarda mehnat asosiy omil (boshqasidan son jihatdan ko'p) bo'lsa, uning narxi kapital va yerga nisbatan past baholanadi; kapital mo'l bo'lgan mamlakatda u boshqa ikki ishlab chiqarish omiliga nisbatan arzon bo'ladi.

Har bir mamlakat o'zining ustunligini taqsimlashga qilishga intiladi, jahon bozoriga ishlab chiqarish omili nisbatan arzon bo'lgan yo'l bilan tayyorlangan tovarlar ko'proq chiqariladi. Bunday ishlab

chiqarish ixtisoslashuvi shunga olib keladiki, barcha davlatlar o'ziga qulay va foydali bo'lgan xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirib, qulay sharoit bo'lmagan boshqalaridan voz kechadi. Bu nazariya ishlab chiqarishning xarajatlarini mutlaqlashtiradi va xalqaro ixtisoslashuvning yagona mezoniga asoslanadi. Shu sababli, jahon savdosi uyg'un (garmonik) jarayon deb qaraladi. Bunda jahondagi real shart-sharoitlar to'la hisobga olinmaydi. Masalan, o'z davrida mustamlakachi mamlakat (metropoliya) bilan koloniyalar o'rtasidagi munosabatlarni hech ham uyg'un deb bo'lmaydi. Iqtisodi yuksak davlat bilan qoloq mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarda ham garmoniya bo'lishi amri mahol. Lekin kelajakda ideal shakl sifatida bu hodisa ro'y berishi mumkin.

Xeksher–Olin teoremasining mohiyati shundan iboratki, mamlakatlar o'zlarining omillar ta'minlanganligi asosida qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Xususan, ma'lum bir ishlab chiqarish omili (mehnat yoki kapital kabi) ko'p bo'lgan mamlakatlar ushbu omilni ko'p talab qiladigan tovarlar ishlab chiqarishga asosiy e'tiborini qaratadi. Ushbu nazariya xalqaro savdo shakllarini va nima uchun mamlakatlar bir-biri bilan savdo qilishini tushuntirishga yordam beradi.

1948-yilda «Xeksher – Olin teoremasi» isboti esa amerikalik iqtisodchi olimlar – P.Samuelson va V.Stolper tomonidan takomillashtiriladi. Ya'ni ishlab chiqarish omillarining o'xshashligi, texnikalarning bir xilligi, xalqaro tovar ayirboshlashda tovarlarning to'liq safarbarligi va raqobat mamlakatlar o'rtasida narx omillarini tenglashtirishi qo'shimcha qilingan.

Lev Ilyich Mechnikov. «Buyuk tarixiy daryolar va sivilizatsiyalar» nazariyasi

Lev Mechnikov – rus geografi, anarxist inqilobchi va publitsist. 1838-yil Sankt-Peterburgda tavallud topgan. Ilmiy asarlarini fransuz tilida, publitsistik ishlarini esa italyan va rus tillarida chop ettirgan.

L.I.Mechnikov 1850–1852-yillarda Sankt-Peterburg huquq bilim yurtida tahsil oladi. Son bo'g'imining yallig'lanishi oqibatida o'qishni tark etib, uy ta'limini oladi. 1856–1858-yillarda u Sankt–Peterburg universitetining Sharq tillari fakultetida tahsil oladi, Badiiy



5.4-rasm. L.Mechnikov
(1838-1888)

akademiyadagi darslarga qatnashadi. Keyinchalik, orttirgan tajribalari asosida Yaqin Sharqdagi diplomatik vakolatxonada tarjimon bo‘lib ishlaydi; Konstantinopol, Atos va Quddusga tashrif buyuradi. Keyin Yaqin Sharqdagi Rossiya Yuk tashish va savdo Jamiyatida xizmat qilib, Dunay, Qora va Egey dengizlari bo‘ylab bir necha marta sayohat qiladi, 1860-yili Venetsiyaga jo‘naydi. Yevropaning ko‘zga ko‘ringan Fransiya, Italiya, Shveytsariya, Ispaniyada anarxizm tarafdorlari bilan muntazam aloqa qilib turgan. Asarlarida jamiyatlar rivojlanishini sivilizatsion yondashuvga alohida e‘tibor qaratadi.

Mechnikov faoliyatida eng katta tahlillar madaniyatlarning iqtisodiy geografik natijalariga qaratilgan. Zero, sivilizatsiya (lotincha, «civilis» – davlatga oid) yoki tamaddun – jamiyatning rivojlanganlik darajasini ko‘rsatuvchi tushuncha bo‘lib, madaniyat, fan, texnika, din va hokazoni o‘z ichiga oladi

Sivilizatsiyalar makon va zamonga bog‘liq bo‘ladi hamda geografik o‘rinning tarixiyligi, o‘zgaruvchanligi, uning harbiy, siyosiy va geostrategik ahamiyatini ifodalaydi. Darhaqiqat, geografik o‘rin ilmiy geografik determinizmning asosiy omillaridan biri sifatida jamiyatning tarixiy rivojlanishi, uning markaz va qutblari, yo‘nalishlari shakllanishida katta xizmat qilgan (5.5-rasm). Uning mazmun-mohiyatini L.I.Mechnikov chuqur va har tomonlama ochib bergan.



5.5-rasm. Mechnikov sivilizatsion zanjiri

Sayohatlari natijasida to‘plangan boy tajriba asosida yozilgan «Buyuk tarixiy daryolar va jahon sivilizatsiyasi» asarida jamiyat rivojlanishida uchta asosiy bosqichni ko‘rsatadi. Birinchisi, *daryo sivilizatsiyasi* bo‘lib, unda sug‘orma dehqonchilik uchun qulay bo‘lgan daryolar ta’sirida fan va madaniyat, iqtisodiyot markazlari vujudga kelgan. Aynan, ana shunday sug‘orma dehqonchilik madaniyati Nil

deltasi – hozirgi Misr; Frot va Dajla oralig‘i – Mesopotamiya; Hind va Gang daryolari oralig‘i hamda Xuanxe daryosining quyi burilish qismi o‘sha davrning rivojlangan markazlari bo‘lgan. Ularga o‘zimizning Movarounnahr (Amudaryo – Jayhunning arablar uchun «narigi» tomoni) va Xorazmni ham qo‘shishimiz mumkin. Sababi, bu mintaqalarda ham sug‘orma dehqonchilik yaxshi rivojlangan, u bilan bog‘liq fan va madaniyat o‘choqlari shakllangan.

Ikkinchi bosqich – *O‘rta dengiz madaniyati* bo‘lib, u asosan, savdo-sotiq, Buyuk ipak yo‘li bilan bog‘liq tarzda rivojlangan. Shu davrda mazkur yo‘l bo‘yida joylashgan hududlar, jumladan, O‘rta Osiyo shaharlarining iqtisodiy geografik o‘rni nihoyatda qulay bo‘lgan va ular gurkirab taraqqiy etgan, hozirgi Italiya hududida qator savdo markazlari (Genuya, Venetsiya, Florensiya va b.) yaxshi rivojlanib borgan.

Uchinchi, ya‘ni Mechnikov bo‘yicha hozirgi bosqich *okean sivilizatsiyasi* deyiladi. Bu davrga kelib jahon taraqqiyoti o‘choq va markazlarida o‘zgarishlar yuz beradi. Endigi sharoitda materik ichkarisidagi yoki sug‘orma dehqonchilikka qulay bo‘lgan daryo havzalarida joylashgan mamlakat va shaharlar emas, balki Dunyo okeani bo‘yida joylashgan davlatlar qulay imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi O‘zbekiston Respublikasi bu borada jahonning ikki marta berk ikki davlatidan biri sanaladi (ikkinchisi Lixtenshteyn): u Dunyo okeaniga chiqish uchun kamida ikkita mamlakat hududini kesib o‘tuvchi mamlakat hisoblanadi. Bu esa O‘zbekiston iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rnining eng muhim xususiyatlaridan biridir. Sivilizatsiya butun bir xalq yoki millat, tarixiy davr va mamlakat tomonidan yaratiladi. Ularning mohiyatini o‘rganish esa iqtisodiy geografik o‘rin mohiyatini yaxshiroq anglashga yordam beradi.

5.3-§. Qishloq xo‘jaligini hududiy tashkil etishning klassik nazariyalari

Iqtisodiyot tarmoqlari ichida eng qadimiysi, birlamchi sektori qishloq xo‘jaligi hisoblanadi. Uning evolyutsion rivojlanishi hududiy tashkil qilish shakllarining murakkablashib borishi va takomillashuvi bilan birga sodir bo‘lgan. Qishloq xo‘jaligi har bir hududning tabiiy, tarixiy-madaniy va iqtisodiy xususiyatlari asosida tarkib topgan. Ushbu tarmoqni ishlab chiqarish nuqtai nazaridan joylashtirishga oid bir necha ilmiy klassik ta‘limotlar mavjud. Ushbu nazariyalar transport, bozorga kirish, resurslarning mavjudligi va iqtisodiy munosabatlar kabi omillarni

hisobga olgan holda, mintaqalar ichida qishloq xo'jaligi faoliyatini hududiy tashkil etish bo'yicha turli g'oyalarni o'zida aks ettiradi.

Har bir nazariya faqat ma'lum omilni inobatga olgan, o'z davri uchun ideal bo'lgan bo'lsa-da, ular birgalikda qishloq xo'jaligi rayonlashtirilishini har tomonlama tahlil qilishga yordam beradi.

Iogann Tyunen. «Tyunen halqalari» nazariyasi

Iogann Genrix fon Tyunen – nemis iqtisodchisi, ekonometriya fanining asoschisi. 1783-yilda Quyi Saksoniyaning Yever shahri yaqinidagi Kanarienzauzenda tug'ilgan.

U Yever shahrida o'sib, aralash maktabda o'qiydi. 1802–1803-yillarda qishloq xo'jaligi ta'limining ishqibozi Lukas Andreas Staudinger bilan agronomiyani o'rganishni boshlaydi hamda, qo'shimcha tarzda, Gross Flotbek tashkil qilgan bo'lajak agronomlar uchun maktab-internatni tamomlaydi. Shuningdek, Iogann ikki semestr davomida Gottingen universitetida tahsil oladi.



5.6-rasm. I.Tyunen
(1783-1850)

Olgan tajribalari asosida xo'jalik tarmoqlarini joylashtirish bo'yicha harakat boshlab yuboradi hamda Pomeraniya (hozirgi Meklenburg) federal yeridagi Teterov shahri yaqinidan 465 akr (188 ga) yer sotib oladi.

Iogann o'zining xo'jalik faoliyati tahlili natijalarini umumlashtirib, 1826-yilda «Alohida davlat» nomli kitob chop ettiradi. Asardagi g'oyalar Tyunenga katta shuhrat keltiradi va buning natijasida 1830-yilda Rostok universitetining faxriy doktori ilmiy unvoniga sazovor bo'ladi.

I.Tyunen o'zini A.Smitning izdoshi deb hisoblaydi va uning daromad nazariyasini rivojlantirishga harakat qiladi. D.Rikardo asarlaridan bexabar tarzda, mustaqil ravishda differensial renta muammosiga oid izlanishlarni amalga oshiradi hamda birinchi marta iqtisodiy miqdorlarning chegaraviy (marjinal) tahlilidan foydalanadi. Qolaversa, Shimoliy Germaniyada yer egasi sifatida qishloq xo'jaligi bilan bevosita shug'ullandi va o'zining iqtisodiy modelini ishlab chiqadi.

Tyunen g'oyasining asosiy mohiyati yagona shahar, ya'ni iste'mol markazi atrofida qishloq xo'jalik mahsulotlarini ma'lum tartibda yetishtirishni halqasimon hududiy tashkil qilishdan iborat. U bu

ta'limotni amalga tatbiq qilish uchun xo'jalik bilan shahar yoki bozor (uning misolida bu shahar – Meklenburgdagi Rostok) o'rtasidagi masofa, qishloq xo'jalik mahsulotining narxi, qiymati va yer rentasiga asoslanadi. Yer rentasi esa unga qo'yilgan mablag' bilan olingan daromad nisbati bilan belgilanadi. Shuningdek, shahar atrofi qishloq xo'jaligini hududiy tashkil qilishda transport omilini chuqur o'rgangan. U mahsulotning iste'molchilarga, ya'ni shahar aholisiga tez, arzon va sifatli yetkazishda transport omiliga e'tibor qaratgan.

Yuqoridagi shartlar yordamida I.Tyunen shahar atrofida qishloq xo'jaligi tarmoqlarining joylashuv tizimini yoki hududiy majmuasini yaratadi. Bu tizim ilmiy adabiyotlarda «Tyunen halqalari» nomi bilan mashhur. Chunki, turli mahsulotlarni yetishtirishga ixtisoslashgan har xil tarmoqlar iste'mol markazi atrofida halqasimon joylashadi.

«Tyunen halqalari» quyidalarni o'z ichiga oladi:

- I – bog'dorchilik, sabzavotchilik va qisman sut chorvachiligi;
- II – o'rmon xo'jaligi (o'sha davrda o'tin uchun);
- III – kartoshka, arpa yetishtirish va urug'chilik;
- IV – yuqori unumdor g'allachilik va sut-go'sht chorvachiligi;
- V – g'allachilik;
- VI – yaylov chorvachiligi.

Tyunen birinchi bo'lib yerdan foydalanish masalalarini ko'tarib chiqdi va ilmiy adabiyotga «iqtisodiy makon» tushunchasini kiritdi. U o'zining abstrakt modelida mahsulotning iste'molchi – bozorga arzon va sifati buzilmagan holda yetkazib berishga katta e'tibor beradi. Olimning olib borgan izlanishlari natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

– shahar atrofida tez pishar qishloq xo'jalik mahsulotlari, shuningdek yuk tashish uchun yuqori tannarxga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish;

– shahar markazidan masofa ortib borishini e'tiborga olib, transport xarajatlari past bo'lgan mahsulotlarni yetishtirish va yerdan samarali foydalanish;

– ishlab chiqarish xarajatlari va hosildorligi bir xil bo'lgan, tuproq unumdorligini pasaytiradigan qishloq xo'jali tarmoqlarini shahardan uzoqroqqa joylashtirish;

– o'lchov birligi uchun qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlarini talab qiladigan o'ta qimmat mahsulotlarni shahardan uzoqroqda joylashtirishni taklif qildi hamda shahar atrofida bir yoki bir nechta

mahsulot asosiy qiymatga ega bo'lsa, bu holatda konsentrik halqalar g'oyasini ishlab chiqdi.

Shunday qilib, I.Tyunenni qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirishning dastlabki ilmiy poydevorini yaratuvchisi sifatida qishloq xo'jaligi geografiyasining asoschisi deb e'tirof etish mumkin.

Ivanov Kuzma Ivanovich. «Geografik konveyr» nazariyasi

Kuzma Ivanov – rus iqtisodiy geografi, «Shon-sharaf belgisi» ordeni va D.N.Anuchin nomidagi mukofot sovrindori. K.Ivanov 1916-yilda Kalinin (Tver) oblastida tavallud topgan.



5.7-rasm. K.Ivanov
(1916-1972)

U o'rta ta'limni tamomlagach, Moskva davlat universitetining geografiya fakultetiga o'qishga kiradi. Ikkinchi Jahon urushi boshlangach, Urushda qatnashadi. Undan qaytgach, 1948-yilda geografiya bo'yicha nomzodlik, 1967-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Faoliyati davomida Moskva davlat universiteti SSSR iqtisodiy geografiyasi kafedrasida

katta ilmiy xodimi, Geografiya fakultetining o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari, kadrlar bo'yicha prorektor, xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor bo'lib ishlagan.

Olim ilmiy izlanishlarining asosini qishloq xo'jaligi geografiyasi tashkil etgan. Afrika qit'asi mamlakatlari, Avstraliya va Yangi Zelandiya kabi 26 ta davlatga uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalarda ishtirok etgan. Olingan tajribalar asosida qishloq xo'jaligi sohasida ta'limot yaratadi.

Agrogeografiya sohasida rus olimi K.I.Ivanovning geografik konveyr nazariyasini keltirib o'tish o'rinli bo'ladi. Bunda qishloq xo'jalik mahsuloti (ayniqsa, sabzavot, karam, pomidor, bodring, ko'katlar)ning yil bo'yi mamlakat turli rayonlarida navbatma-navbat yetishtirilishi va shu asosda aholi ehtiyojini muntazam, doimo qondirilib borilishi ham nazarda tutiladi. Masalan, ayrim tez pishar mahsulotlar eng avval mamlakatning issiq rayonlarida, so'ngra uning boshqa qismlarida konveyr (zanjir) shaklida yetishtirib beriladi.

Uning geografik konveyr g'oyasi mamlakat yoki rayonlar xo'jaligini davriy, mavsumiy tashkil etilganligi va qishloq xo'jaligini agroiqlimiy sharoit bilan bog'liq ekanligini o'rganish, tadqiq etishda qo'l keladi. Uning asl mohiyati esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini

yetishtirish, qayta ishlash va uni iste'molchilarga yetkazishning hududiy jihatlarini «zanjirsimon» tashkil etilganligini bildiradi. Bu esa aholi va iqtisodiyot uchun xo'jalikni hududiy to'g'ri tashkil etishda katta ahamiyat kasb etadi.

Boshqa nazariyalar. Qishloq xo'jaligini joylashtirishning klassik nazariyasi I.Tyunen bilan bog'liq. Shuningdek, yana bir necha olimlar tomonidan qishloq xo'jaligining shakllanish tarixi, tashkil etilish xususiyatlari va aholining landshaftga bog'liq holda hududiy joylashuv omillari tahlil qilingan. Jumladan:

– [Hilly Flanks nazariyasi](#): amerikalik olim Robert Braidvud tomonidan 1948-yilda ishlab chiqilgan bu nazariya Yaqin Sharqning unumdor yarim oy mintaqasiga (hozirgi – Iroq, Suriya, Turkiya va Levant) qaratilgan. Bu qishloq xo'jaligi xonakilashtirilgan o'simliklar va hayvonlarning yovvoyi ajdodlari ko'p bo'lgan hududning tepalik yonbag'irlarida boshlanganligini ko'rsatadi. Populyatsiyaning ko'payishi bilan odamlar bu turlarni xonakilashtirgan va o'troq dehqonchilik turmush tarziga o'tilgan. Bu g'oya, o'z navbatida, Gordon Chayldning «voha nazariyasi» bilan qarama-qarshiligi bilan alohida ajralib turadi.

– [Voha nazariyasi](#): avstraliyalik olim Gordon Chayld tomonidan taklif qilingan ushbu nazariya shuni ko'rsatadiki, golotsen davridagi iqlimiy o'zgarishlar (taxminan 10 000 yil oldin) odamlarni qurg'oqchil hududlardan voha va suv manbalari atrofida qishloq xo'jaligini rivojlantirishga majbur qiladi. Aholi sonining ko'payishi bilan odamlar barqaror oziq-ovqat ta'minotini ta'minlash uchun madaniy o'simliklarni yetishtirish va hayvonlarni xonakilashtirishni boshlashadi. Demak, bunda qishloq xo'jaligini yuritish vohalar bilan bevosita bog'lanadi.

Mazkur ta'limotlar dunyoning turli mintaqalarida qishloq xo'jaligi va o'troq jamoalarning paydo bo'lishiga olib kelgan murakkab jarayonlarga turlicha qarashlarni taqdim etadi. Ular ma'lum hudud uchun to'g'ri kelsa, boshqasi uchun nomuvofiq tavsiflanadi. Shunday bo'lsa-da, chorvachilik va dehqonchilikning hududiy qonuniyatlarini tahlil qilishda boshlang'ich g'oyalar manbayi bo'lib xizmat qiladi.

5.4-§. Sanoatni hududiy tashkil etishning klassik nazariyalari

Hozirgi zamonaviy jahon xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishi ishlab chiqarish tarmoqlari o'zgarishi bilan bog'liq. Ma'lumki, jahon iqtisodiyoti uchun XVIII asrgacha bo'lgan davrda qishloq xo'jaligi

yetakchi tarmoq hisoblangan. Shu bilan birga, kishilar uchun zarur bo'lgan turli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi hunarmandchilik ham rivojlangan edi.

Yevropada boshlangan sanoat inqilobi sanoatlashuv davrining boshlanishi uchun zamin yaratgan. 1784-yilda muhandis J.Uatt tomonidan bug' mashinasining ixtiro qilinishi turli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yirik sanoat korxonalarini, ya'ni zavod va fabrikalarning ishga tushirilishiga sharoit yaratadi. Vaqt o'tishi bilan sanoatlashuv jarayoni dunyoning barcha hududlariga yoyila boshlaydi.

Sanoat ishlab chiqarishining hududiy va davriy tashkil etish xususiyatlari, mujassamlashuv darajasining yuqoriligi, innovatsiyalarga ko'proq moyilligi, ayniqsa, mavsumiy bo'lmaganligi ko'p jihatdan uning iqtisodiy samaradorligini tavsiflaydi. Bu yerda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlovchi sanoat korxonalarini (paxta tozalash, konserva va vino zavodlari) qisman agrosohaga xos xususiyatlar ta'sirida bo'ladi; yil davomida birday ishlamasligi tufayli ularda mehnat unumdorligi ham pastroq bo'ladi. Ammo sanoat korxonalarini ilmiy asosda joylashtirish g'oyalari dastlab, aynan, mana shunday toifadagi tarmoqlarni hududiy tashkil qilish bilan bog'liq.

Binobarin, hududiy tashkil etishda ilmiy asosga ega bo'lmagan ishlab chiqarish korxonasining mehnat unumdorligi nisbatan past bo'ladi. Shu jihatdan, sanoat misolida ishlab chiqarishni joylashtirishning bir necha klassik ta'limotlari borki, ular oradan vaqt o'tishiga qaramay o'z ahamiyatini yo'qotganicha yo'q.

Vilgelm Launxardt. «Launxardt uchburchagi» nazariyasi

Vilgelm Fridrix Launxardt – nemis iqtisodchisi, sanoat korxonasini joylashtirishda xomashyo va mahsulotni realizatsiya qilish omillariga e'tibor qaratib, transport xarajatlarini qisqartirish orqali samaradorlikka erishish modelini ishlab chiqqan olim. U 1832-yilda Germaniyaning Gannover hududida tavallud topgan.

Shtutgardagi maktabda matematika va muhandislikni chuqur o'rganadi. 1848-yilda Gannover oliy texnik maktabiga (hozirgi Gannover universiteti) o'qishga kiradi va 1859-yilda qurilish muhandisligi bo'yicha imtihonlarni muvaffaqiyatli yakunlaydi.




5.8-rasm. V.Launxardt
(1832-1918)

Yetarlicha bilim va ko'nikma egallagan Launxardt faoliyati davomida Hannover qirolligi davlat qurilish boshqarmasi, yo'l inspeksiyasi, Hannover oliy texnik maktabi, Berlin Qurilish akademiyasida ishlagan. Asosiy ixtisosligi injeneriya bo'lgan Launxardt 1867-yilda yo'l muhandisi lavozimiga ko'tariladi, ikki yildan so'ng esa Niderlandiya-Germaniyani bog'lovchi Venlo-Gamburg temiryo'l qurilishida qatnashadi, Hannover oliy texnik maktabida avtomobil va temiryo'l ko'priklarini qurishdan dars berish orqali amaliy tajribalarini talabalarga o'rgatadi. Zalvarli faoliyati sabab 1871-yilda oliygoh professori unvonini oladi, bir yildan so'ng Gyote shahrida uning loyihasi asosida ko'priq quriladi.

1885-yilda uning «Iqtisodiyotning matematik tamoyillari» kitobi nashr etiladi. Mazkur nemis olimining asosiy kashfiyoti – bu alohida sanoat korxonasini metallurgiya zavodi misolida iste'mol va xomashyo manbalariga nisbatan maqbul joylashtirish nuqtasini topish usulidir. Bunda ishlab chiqarish xarajatlari o'rganilayotgan hududning barcha nuqtalari uchun teng ravishda qabul qilinadi. Korxonani maqbul joylashish nuqtasi tashilayotgan yukning og'irlik nisbati va masofasiga bog'liq bo'ladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun V.Launxardt maxsus model yaratadi. Sanoat korxonasini optimal joylashtirish g'oyasini olim metallurgiya zavodi misolida ko'rib chiqadi. Bunda quriladigan korxonani hududiy joylashtirishda jarayon uchun eng muhim uch asosiy omil – ruda, yoqilg'i, iste'mol bozorining o'rni e'tiborga olinadi. Transport xarajatlari va vaqtdan yutish maqsadida korxonani ularning vektorlari kesishgan nuqtada barpo etishni taklif qiladi.

Jumladan, ayrim hollarda metallurgiya zavodlari xomashyo va yoqilg'i rayonlari o'rtasida joylashsa, mazkur sanoat tarmog'i uchun bu ikki omilning ahamiyati bir xil bo'ladi. Qolaversa, iste'mol omilining yaqin yoki uzoqligiga qarab markazdan biroz «siljish» mumkin. Bunga misol sifatida Rossiya Federatsiyasidagi



5.9-rasm. V.Launxardt modeli


Cherepoves metallurgiya kombinatini keltirish o'rinli bo'ladi. U Pechora kokslanuvchi ko'mir havzasi bilan Kola yarimoroli temir rudasi konlarining deyarli o'rtasida qurilgan. Lekin ushbu korxonani aniq ikki oraliq masofada emas, u biroz g'arbga «tortilgan». Buning sababi

Sankt–Peterburg va Moskva shaharlaridagi yirik mashinasozlik korxonalarining po‘lat va prokatga bo‘lgan ehtiyojidir. Hozirda ham jahon mamlakatlarining ko‘pchiligida metallurgiya kombinatlarini joylashtirishda mazkur model fundamental asos hisoblanadi.

Alfred Veber. «Shtandort» nazariyasi

Alfred Veber – nemis iqtisodiy geografi, sanoat korxonasini optimal (eng qulay) nuqtada joylashtirishga oid shtandort nazariyasi asoschisi. Olim 1868-yilda Germaniya Tyuringiya federal yerining Erfurt shahrida tavallud topgan.

U iqtisodchi, geograf, sotsiolog va madaniyatshunos olim bo‘lib, zamonaviy iqtisodiy geografiyaning rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatgan. Bolaligi Berlin chekkasidagi Charlottenburgda o‘tadi. 1888-yilda Bonnda san'at tarixi va arxeologiya, 1899-yilda Tyubingenda huquqshunoslik va 1890–1892-yillarda Berlinda huquq va milliy iqtisodiyot



5.10-rasm. A.Veber
(1868-1958)

bo‘yicha tahsil oladi. 1895-yilda xalq xo‘jaligidagi tarixiy maktab vakili Gustav Schmoller rahbarligida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. 1907-yildan boshlab Geydelberg universitetida professor lavozimida faoliyat yurita boshlaydi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lgan Alfred Veber 1909-yilda «Sanoat shtandorti to‘g‘risida» nomli asar chop ettiradi. Mazkur kitob 1926-yil «Sanoatni joylashtirish nazariyasi» nomi bilan rus tiliga tarjima qilinadi. Uning ta’limotining asosi bo‘lgan shtandort – korxonaning qulay o‘rnashgan joyi yoki korxonaning standart joylashgan nuqtasi ma’nosini anglatadi. Joylashtirish omili u yoki bu korxonani qurishda ko‘zda tutilgan iqtisodiy samaradorlik, foyda nuqtai nazaridan baholanadi.

O‘zidan avval ishlab chiqarishni joylashtirish bilan shug‘ullangan I.Tyunendan farqli o‘laroq, Veber transport omili bilangina cheklanmaydi. Ta’kidlash kerakki, agar I.Tyunen faqat yagona iste’mol markazi – shaharni asos qilib olgan bo‘lsa, A.Veber alohida sanoat korxonasi misolida (pivo zavodi) o‘zining ilmiy tasavvurlarini yaratgan. Bu jihatdan Veberning tadqiqoti alohida sanoat korxonasini joylashtirishda xomashyo va mahsulotni realizatsiya qilish omillariga e’tibor qaratgan V.Launxardt ta’limotiga o‘xshab ketadi. Biroq Launxardt transport xarajatlarini qisqartirishni muhim shart qilib olgan

edi. Veber esa faqat transport chiqimlarinigina emas, balki umumiy sarfxarajatlarni kamaytirish hisobidan iqtisodiy samaradorlikka erishishni nazarda tutadi. Demak, uning ilmiy g'oyalari ishlab chiqarishning hududiy mujassamlashuvi, uning notekis joylashuvi, qutbiylashuviga qaratilgan edi.

A.Veber sanoat korxonasi joylashuvining optimal (eng qulay) nuqtasini uning iqtisodiy foydasidan kelib chiqqan holda belgilaydi. Buning uchun u xomashyo va yoqilg'i, ishchi kuchi va transport omillariga urg'u beradi. Keyinchalik, xomashyo va yoqilg'i xarajatlari ham transport omiliga kiritiladi va qolgan barcha shart-sharoitlarni alohida aglomeratsiya omilida umumlashtiradi.

Yuqoridagi omillarning har birini hisobga olish va ularni muvofiqlashtirish natijasida sanoat shtandorti vujudga keladi. Bu korxonaning joylashuvi ishchi kuchi, transport va aglomeratsiya omillari bilan belgilanadi. Olim kiritgan yana bir atama «aglomeratsiya samaradorligi» – bu asl mohiyatiga ko'ra mujassamlashuv (konsentratsiya) bo'lib, unga hozirgi kunda korxonalarining yiriklashuvi asosida emas, balki korxonalarining kooperatsiya va ixtisoslashuv natijasida erishiladi.

Shunday qilib, bu olim fanga sanoat korxonasini joylashtirishining ko'p omilli tahliliga asos soladi va buning uchun u matematik usuldan keng foydalanadi. Shuningdek, iqtisodiy geografiya fanining dastlabki ta'rifini beradi hamda «joylashtirish omili» va «aglomeratsiya samaradorligi» tushunchalarini fanga kiritadi.

A.Veberning sanoat shtandorti o'z asosiy mohiyatini yo'qotmagan bo'lsa-da, keyingi yillarda sanoat joylashuvining shakllari yanada murakkablashib, takomillashib bordi. Jumladan, bu borada ekologik omilning ta'siri kuchaydi, ishchi kuchining miqdor jihatlari emas, uning sifat ko'rsatkichlari muhimroq bo'lib qoldi; sanoat ishlab chiqarish mehnattalab ko'rinishdan ko'proq «fantalab», «mablag'talab» xususiyat kasb eta boshladi. Shuningdek, transport infratuzilmasidagi yangiliklar, konveyr usulining o'rniga ayni bir mahsulotning turli xillarini ishlab chiqarish (postfordizm), miqdor iqtisodiyotidan sifat yoki turli xillik iqtisodiyotiga o'tish, fan-texnika taraqqiyoti kabilar sanoatni hududiy tashkil qilishga jiddiy ta'sir etdi.

Oradan biroz vaqt o'tib xo'jalik tarmoqlarini joylashtirishga oid mukammalroq nazariya, aynan, A.Veberning shogirdi A.Lyosh tomonidan ishlab chiqiladi.

Avgust Lyosh. «Iqtisodiy landshaft» nazariyasi

Avgust Lyosh – nemis iqtisodchisi va geografi, iqtisodiy makonni hududiy tashkil etish nazariyasi muallifi. 1906-yilda Janubiy Germaniya Shvabiya hududining Eringen shahrida tavallud topgan.

Lyoshlar oilasi 1908-yildan Xaydenxaymga ko‘chib o‘tadi. U yerda 1925-yilda o‘rta maktabni tugatib, 1927–1930-yillarda Tyubingen universiteti va Frayburg universitetida tahsil oladi. 1930–1931-yillarda esa Bonn universitetida o‘qiydi. 1931-yilda Frayburg universitetida iqtisod bo‘yicha diplom oladi va bir yildan so‘ng Bonn universitetida doktorlik darajasiga ega bo‘ladi.



5.11-rasm. A.Lyosh
(1868-1958)

A.Lyosh iqtisodiy demografiyani o‘rganib, aholining tabiiy o‘sishi va uning mehnat ta‘minoti va mintaqaviy iqtisodiy o‘sishga ta‘sirini ko‘rib chiqadi. Tez orada ishlab chiqarishni joylashtirish nazariyasini o‘rganishga kirishadi. Uning ishlari qisqa muddat ichida yosh olimga mashhurlik keltiradi va Rokfeller stipendiyasini yutib oladi. Mazkur grant asosida 1934- va 1936-yillarda AQShga ikki marta tashrif buyuradi hamda u yerdagi o‘sha paytda mavjud bo‘lgan ishlab chiqarishni joylashtirish nazariyalarini o‘rganadi, o‘z tadqiqotlari uchun material to‘playdi. Germaniyaga qaytgach, 1939–1945-yillarda Kil Jahon iqtisodiyoti institutida katta ilmiy xodim bo‘lib ishlaydi. 1940-yili ko‘p yillar davomida ilmiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘otgan «Xo‘jalikni geografik joylashtirish» kitobini nashr ettiradi. Bu kitob 1959-yilda rus tiliga tarjima qilinadi.

Ushbu yosh va iste‘dodli nemis olimi o‘zidan oldingi vatandoshlarining ilmiy ishlanmalarini umumlashtirib, barcha xo‘jalik tarmoqlarini kompleks joylashtirish to‘g‘risida ish olib boradi. U qishloq xo‘jaligini areal, maydon sifatida; sanoatni esa nuqtasimon hududiy tashkil etish xususiyatlarini asoslab beradi. U birinchi bo‘lib «bozor muhiti yoki makoni», «iqtisodiy landshaft» (hozirgi – iqtisodiy rayon) tushunchalarini fanga olib kiradi. Ayniqsa, uning «iqtisodiy landshaft» nazariyasi katta ahamiyatga ega bo‘lib, keyingi davrlarda takomillashtirilgan iqtisodiy rayonlashtirishning poydevorini tashkil qiladi.

Agar o‘zidan avval yashagan olimlar – I.Tyunen yadrosi shahar bo‘lgan qishloq xo‘jaligini; V.Launxardt va A.Veber alohida sanoat korxonasini o‘rganishgan bo‘lsa, A.Lyosh ishlari barcha xo‘jalik

sohalarini qamrab oladi. O‘z mohiyatiga ko‘ra mikroiqtisodiy jarayon hisoblangan bozor munosabatlarining ta’sir doirasi haqiqiy rayon hosil qiluvchi omil ekanligini ta’kidlaydi, ishlarida matematik usullardan keng foydalanadi.

Ta’kidlash joizki, Lyoshdan oldingi olimlarning g‘oyalari o‘z davri talabiga mos kelardi. Sababi u davrda hududning iqtisodiy sig‘imi, zichligi uncha yuqori emas, deyarli bir tekis edi. Keyinchalik, avvalgi sodda ko‘rinishdagi iqtisodiy vaziyat xilma-xillikka, hududiy mujassamlashuvning kuchayishiga o‘zgaradi. Buning natijasida yuzaga kelgan nobarqarorlikni tizimlashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar talab etilardi. Xuddi shunday regulyar tizimga moslashgan ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilish g‘oyalarini A.Lyosh yaratgan bo‘lsa, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarini uning vatandoshi V.Kristaller ishlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Igor Valeryanovich Komar. «Resurs sikllari» nazariyasi

Igor Komar – rus iqtisodiy geografi, Rossiya geografiya jamiyati ta’sis etgan P.S.Tyanshanskiy nomidagi oltin medal sovrindori. I.Komar 1907-yil Moskva shahrida tavallud topgan.



5.12-rasm. I.Komar
(1907-1985)

I.V.Komar yoshlikdan tabiat va jamiyat uyg‘unligiga katta qiziqish bilan qaraydi. Shu sababdan, Moskva rejalashtirish institutini tamomlab, 1931–1943-yillarda Uralning energetika va sanoatni hududiy tashkil etish bo‘yicha xo‘jalik–rejalashtirish organlarida ishlaydi. Keyingi ikki yilda Yuqori Kama viloyatida amalga oshirilgan kompleks ekspeditsiyani boshqaradi.

1945-yildan SSSR Fanlar akademiyasi Geografiya institutida katta ilmiy xodim sifatida faoliyat olib boradi, 1960-yilda geografiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi, bir yildan so‘ng professor ilmiy unvoniga ega bo‘ladi. Yuqorida nomi tilga olingan oltin medalga 1978-yilda sazovor bo‘ladi.

Uralning iqtisodiy geografiyasi, uning tabiiy resurslarini kompleks o‘zlashtirish, shuningdek, iqtisodiy geografiyaning umumiy nazariy va mintaqaviy masalalari, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammolari bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib boradi. Natijada, o‘zining olgan tajribalari asosida jamiyat va tabiat o‘rtasidagi

metabolizmni optimallashtirish va prognozlashni tahlil qilish uchun resurslarning sikliga oid ta'limot yaratadi.

Jamiyat va tabiat o'rtasidagi metabolizm (modda va energiya almashinuvi) aniq belgilangan polisiklik jarayondir. Shu jihatdan, resurs aylanishi – bu ma'lum bir moddaning (yoki moddalar guruhining) inson tomonidan foydalanishdagi barcha bosqichlar – identifikatsiya qilish, foydalanishga tayyorlash, tabiiy muhitdan ajratib olish, qayta ishlash, iste'mol qilish va yana tabiatga qaytarish jarayonida sodir bo'ladigan o'zgarishlar va fazoviy harakatning Yer sharidagi umumiy yig'indisidir.

Bu jarayonda umumiy oqimni alohida resurs davrlariga bo'lish mumkin. Zero, resurs davrlari ulardagi asosiy moddaning turi yoki ularning birikmalariga qarab farqlanadi. Aylanma harakatda Komar foydalangan sikl so'zi yopiq jarayonni anglatadi. Ma'lumki, tabiatda barcha moddalar yopiq biokimyoviy aylanishlarda harakatlanadi. «Materiyaning antropogen aylanishi» deb ham ataladigan resurs aylanishi aslida yopiq emas, har bir bosqichda modda va energiyaning sezilarli yo'qotishlari sodir bo'ladi. Uning konsepsiyasi mamlakat iqtisodiy rivojlanishi resurslarning mavjudligi va ulardan samarali foydalanishga bog'liq degan g'oyaga asoslangan. Nazariyaning mohiyati shundan iboratki, mamlakat taraqqiyoti resurslar aylanishi bilan bog'liq bo'lgan sikllar orqali sodir bo'ladi, ya'ni resurslar bir holatdan ikkinchisiga o'tishi orqali iste'mol jarayonida aylanma harakat qiladi.

I. Komar resurslar aylanishining quyidagi ko'rinishlarini ajratadi:

1) *energiya resurslar sikli* – kimyoviy reaksiyalar va texnologik jarayonlar natijasida yoqilg'i va gidroresurslarning energiyaga aylanishi;

2) *rudali mineral resurslar sikli* – metallurgiya korxonalarida rudalarning kokslanish orqali qayta ishlanishi ortidan yarim tayyor metallga aylanishi;

3) *noruda mineral resurslar sikli* – metall xususiyatiga ega bo'lmagan tog'-kon kimyoviy moddalari, mineral qurilish materiallari va qimmatbaho foydali qazilmalarning iste'mol mahsulotlariga aylanishi;

4) *o'rmon resurslari sikli* – texnologik va kimyoviy ishlov berish orqali o'rmon resurslarining yog'och, selluloza mahsulotlariga aylanishi;

5) *agrolesurslar sikli* – agroiklimiy, yer va suv resurslarining ziroatchilik va chorvachilik bilan uyg'unligi asosida qishloq xo'jalik mahsulotlariga aylanishi;

6) *flora va fauna resurslari sikli* – yovvoyi o‘simlik va hayvonlarning insonlar ehtiyoji uchun oziq-ovqat va dori-darmon mahsulotlariga aylanishidir.

Shunday qilib, I.V.Komarning resurs aylanishlari nazariyasi mamlakatning resurs bazasidagi o‘zgarishlarni va ushbu resurslarni samarali boshqarishni hisobga olgan holda iqtisodiyotning rivojlanishini tahlil qilish va prognoz imkonini beradi.

5.5-§. Servis sohalarini hududiy tashkil etishning klassik nazariyalari

Aholiga xizmat ko‘rsatish murakkab jarayon bo‘lib, ularning rivojlanishi geografik sharoit, aholi soni va uning ehtiyojlari, infratuzilma va boshqa iqtisodiy omillar asosida belgilanadi. Aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarining mavjudligi va sifatini ta‘minlash, resurslardan foydalanishni optimallashtirish va xizmat ko‘rsatish tizimi samaradorligini oshirish esa ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi. Quyida xizmat ko‘rsatish sohalarini joylashtirishga oid ayrim klassik nazariyalar tahlili keltirilgan.

Valter Kristaller. «Markaziy o‘rinlar» nazariyasi

Valter Kristaller – nemis geografi, Germaniya amaliy geografiya assotsiatsiyasining asoschilaridan biri, aholi joylashuvi va aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarining hududiy tashkil etish muammolari bilan shug‘ullangan olim. 1893-yil Janubiy Germaniyaning Baden-Vyurtemberg federal yeridagi Bernek shahrida tavallud topgan.

V.Kristaller 1913–14-yillarda Geydelberg universitetida falsafa va siyosiy iqtisoddan tahsil oladi. 1914-yilda armiyaga chaqirilib, I Jahon urushiga safarbar etiladi. Urushda yaralangach, ortga qaytariladi. Demobilizatsiyadan so‘ng Berlindagi qurilish kooperativida, 1925–1928-yillarda qurilish korxonasida ishlaydi. 1929-yilda Nyurnbergdagi Erlangen universitetiga o‘qishga kiradi. 1932-yilda «Janubiy Germaniya markaziy o‘rinlari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi.



5.13-rasm. V.Kristaller
(1893-1969)

Adolf Gitler hokimiyat tepasiga kelgach, 1933-yilda Fransiya ko'chib ketadi. Biroq 1934-yilda Germaniya ilmiy-tadqiqot jamiyatining Germaniya atlasini yaratish grantini qo'lga kiritib, mamlakatga qaytib keladi va 1937-yildan Frayburg universitetida dotsent lavozimida ishlay boshlaydi. 1940–1945-yillarda siyosiy partiya a'zosi sifatida Polsha hududining bir qismini ma'muriy prinsip asosida nemis fermerlarini hududiy joylashtirish g'oyasini ilgari suradi.

II Jahon urushidan so'ng, 1950–1969-yillarda Vaterlou universitetida turizm geografiyasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib boradi; 50 dan ortiq maqola, to'rta monografiya, oltita qo'llanma, bitta darslik va ikkita atlas chop ettiradi.

Nemis geografi Valter Kristallerning dissertatsiya tadqiqotining asosiy mazmuni «Nega shaharlar muntazam ravishda yo'llar bo'ylab joylashgan? Nega kichik shaharlar ortidan katta shaharlar qandaydir ketma-ketlikda tarkib topadi?» kabi savollarga javoban ilmiy tahlillardan iborat.


Chunonchi, Kristaller o'z ishida shaharlar aholisi soni bo'yicha iyerarxik tartibda joylashtirilganligini ta'kidlaydi. Yirik shaharlar atrofida o'rta shaharlar; o'rta shaharlar atrofida kichik shaharlar; kichik shaharlar atrofida esa yirik qishloqlar olti burchaksimon – asalari uyasi shakli kabi joylashishini nazariy jihatdan asoslab beradi. Turli yiriklikdagi aholi punkti (markaz) o'ziga tegishli hududga o'z ta'sirini ko'rsatadi, uni tovar va xizmat sohalari bilan ta'minlaydi. Markazlar darajasining yuqorilab borishi bilan undan «pastdagi» markazlarga xos sohalari bu markaz uchun ichki, ya'ni mahalliy ahamiyatga ega bo'ladi. Haqiqiy markaz esa nafaqat o'z aholisini, balki atrofni ham mahsulot va xizmat sohalari bilan ta'minlash qobiliyatiga ega bo'ladi.

Olim o'z g'oyasini amalda isbotlash maqsadida Janubiy Germaniyadagi Myunxen shahri atrofidagi shaharlarning joylashuvini keltiradi. O'sha paytda Myunxenda 700 mingga yaqin aholi istiqomat qilgan bo'lib, uning tevaragida aholisi deyarli 400 ming kishi atrofidagi – Syurix, Shtutgart, Nyurnberg, Praga, Vena va Venetsiya shaharlari joylashgandi. Ularni mantiqan chiziq orqali tutashtirilganda, olti burchakli asalari uyasi kabi shakl vujudga keladi. Ularning har biri atrofida joylashgan aholi punktlari bilan ham huddi shunday holat takrorlangan.

Kristallerning qayd etishicha, yirik shaharlar o'zining «massasi» tufayli eng rivojlangan sanoat ishlab chiqarishi va xizmatlarga egalik qiladi; kichikroq shaharlarda esa faqat yirik shahardan jo'natilsa tannarxi

qimmatga tushadigan mahsulotlar ishlab chiqariladi. Ma'lum bo'lishicha, har qanday shaharning markaziy bozoriga ba'zi tovarlarni shaharning o'zi, boshqalariga esa atrofdagi yo'ldosh aholi punktlari yetkazib beradi. Shunday qilib, shaharlar butun makonni qoplaydigan olti burchakli «markaziy o'rinlar» to'rini tashkil qiladi.

Bundan tashqari, Kristaller har bir olti burchakli shaharlarning uchta turli prinsipini ajratadi (5.14-rasm):



5.14-rasm. Markaziy o'rin modellarining uch prinsipi

a) *bozor prinsipi*: markaziy qismdagi bosh shaharlar iqtisodiy samaradorlik va bozor talabi tamoyillari asosida atrofdagi hududlarni tovar va xizmatlar bilan ta'minlash uchun mavjud bo'lishi va faoliyat yuritishi haqidagi tamoyildir. Bunda markaziy o'rinlar iyerarxik tarzda ular taklif etayotgan tovar va xizmatlar assortimenti, ular xizmat ko'rsatadigan aholi soniga qarab tashkil etilgan yirik tugun ko'rinishida bo'ladi. Kristaller nazariyasidagi bozor tamoyili shuni ko'rsatadiki, markaziy joylar qulay bo'lishi va iste'molchilar uchun transport minimal xarajatlarini inobatga olingan holatda joylashtirilishi lozim. Iyerarxiyaning yuqori darajadagi markaziy joylari ko'proq ixtisoslashgan, yuqori tartibli tovarlar va xizmatlarni taklif qiladi; quyi pog'onadagi aholi punktlari esa ko'proq birlamchi, mahalliy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan xizmatlarga egalik qiladi, xolos.

b) *transport prinsipi*: quyi pog'onadagi aholi punktlaridan yuqori pog'onadagi yadrogacha bo'lgan masofada transport xarajatlarini minimallashtirish, qulaylikni optimallashtirish va tejamkor harakatni ta'minlashga qaratilgan tamoyildir. Bunda markaziy joylar transport tarmoqlarining asosiy tugun nuqtalarida (asosiy yo'llar, temir yo'llar yoki suv yo'llarining kesishgan joylarida) joylashgan bo'ladi. Ushbu strategik joylashtirish markaziy joylarga tovarlar va xizmatlarni atrofdagi hududlarga tarqatish uchun yadro sifatida xizmat qilish

imkonini beradi. Bu markaziy joylar va uning atrofidagi hududlar o'rtasida o'zaro iqtisodiy aloqalarni, savdo, tovar va xizmatlar oqimini osonlashtirishda transport tarmoqlarining rolini ko'rsatib beradi. Umuman olganda, mazkur prinsip iyerarxik pog'onada markaziy joylarning joylashuvi va funksiyasini aniqlashda transportning mavjudligi va aloqalarning ahamiyatini yoritib beradi.

c) *ma'muriy prinsip*: yuqori tartibli markaziy joylar (masalan, shaharlar) o'zlarining ichki hududlaridagi quyi tartibdagi markaziy joylarga (masalan, shaharcha va qishloqlar) ma'muriy va davlat xizmatlari ko'rsatishini namoyon qiluvchi tamoyildir. Ushbu prinsip shuni ko'rsatadiki, markaziy joylar atrofida nafaqat tovar va xizmatlar bilan ta'minlaydi, balki mintaqada iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va muvofiqlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ma'muriy prinsip Kristaller nazariyasida markaziy joylarning iyerarxik taqsimotini va ular o'rtasidagi munosabatlarni tushuntirishga yordam beradi.


Kristallarning g'oyalari Buyuk Britaniya va AQShda iqtisodiy geografiyaning rivojlanishiga, xususan, Uolter Ayzard va fazoviy tahlil maktabining boshqa vakillari ishlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, o'z davrida Germaniyada «Markaziy o'rinlar» nazariyasiga muvofiq quyi ma'muriy-hududiy bo'linish islohoti o'tkazilgan.

Fransua Perru. «O'sish qutblari va rivojlanish markazlari» nazariyasi

Fransua Perru – fransuz olimi, iqtisodiyoti sust hududlarni rivojlantirish bo'yicha o'ziga xos nazariya asoschisi. U 1903-yilda Fransiyaning Sen-Romen-an-Gal shahrida katolik savdogar oilasida tavallud topgan.

O'rta ma'lumotni Lionda olgach, 1924-yilda filologiya fanlari bo'yicha nomzodlik, 1928-yilda iqtisod bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. 1928–1937-yillarda Lion universitetida, 1937–1955-yillarda Parij universitetining siyosiy iqtisod kafedrasida professor lavozimida ishlaydi, Rokfeller grantini qo'lga kiritadi.

Faoliyati davomida yana ko'plab oliygohlarda ishlaydi, 1970-yilda moliyaviy va iqtisodiy terminologiya bo'yicha komissiya a'zosi Jan Furastye bilan birgalikda «marketing» atamasini fanga olib kiradi.



5.15-rasm. F.Perru
(1903-1987)

Iqtisodiyot nuqtai nazaridan uncha o'zlashtirilmagan, iqtisodiyoti sust hududlarni rivojlantirish to'g'risidagi o'sish qutblari va rivojlanish markazlari nazariyasi katta ahamiyatga ega. Uning asoschisi fransuz olimi Fransua Perru hisoblanadi. F.Perru nemis olimi V.Kristallerning «markaziy o'rinlar» g'oyasini ma'lum darajada takomillashtiradi. Biroq uning ishlaridan farqli o'laroq, yadro hosil qilishda omillarni emas, tarmoqlarni rivojlantirishga e'tibor qaratadi.

Shundan kelib chiqqan holda, o'sish qutbini hosil qiluvchi sanoat tarmog'ini ayrim ko'rsatkichlar – iqtisodiyotga ta'sir darajasi, ishlab chiqarish dinamikasi, zamonaviy talab va taklif qonuniyatiga muvofiqligi nuqtai nazaridan tabaqalashtiradi, ularni uch guruhga ajratadi:

1) *eski sanoat tarmoqlari* – tobora mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi qisqarib borayotgan hamda rivojlanishi asta-sekinlik bilan sustlashayotgan tarmoqlar. F.Perru fikriga ko'ra, to'qimachilik va ko'mir qazib chiqarish tarmoqlari rivojlangan davlatlarda tobora o'z ahamiyatini yo'qotib boradi hamda «o'sish qutbi» sifatida hududiy tashkil etish samara bermaydi;

2) *avtonom sanoat tarmoqlari* – boshqa sanoat tarmoqlari bilan chuqur kooperatsion aloqalari bo'lmaganligi sababli o'zi mustaqil rivojlanib boruvchi hamda qayta ishlashni talab qilmaydigan – oziq-ovqat, kiyim-kechak, mebel, maishiy texnika va boshqa shunga o'xshash iste'mol tovarlari yaratuvchi tarmoqlar. Ularni hududiy jihatdan tashkil qilish ixtisoslashuvni yuzaga keltiradi hamda o'z mahsulotlariga barqaror talab tufayli muvaffaqiyatli rivojlanib boradi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mazkur guruhga mansub tarmoqlar to'r hosil qilmasa-da, boshqa sohalar rivojlanishi uchun sharoit yaratadi;

3) *lokomativ sanoat tarmoqlari* – nafaqat tez o'sib boradigan, balki sanoat markazlarining paydo bo'lishi va rivojlanishining zanjirli reaksiyasini keltirib chiqaradigan tarmoqlar. Bu kabi kooperatsion to'r hosil qiluvchi tarmoqlarga mashinasozlik, kimyo, yoqilg'i-energetika kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Ularning mavjudligi mamlakat umumiy rivojlanishida yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi sanoat tarmoqlari Perru ta'limotining e'tibor markazida turadi. Olim sanoatni hududiy tashkil etish imkoniyatlarining turlichaligi asosida, eng avvalo, hududiy-iqtisodiy munosabatlarda tengsizlik, nobarqarorlik real jarayon deb hisoblaydi va mutloq jihatdan tenglikni amalga oshirish mumkin emasligini asoslab beradi. Odatda, bu g'oya iqtisodiy landshaft to'liq shakllanmagan, rivojlanayotgan mamlakatlarda

yaxshi samara beradi. Olim tadqiqotlariga binoan, turli shart-sharoitlar hisobga olingan, qulay iqtisodiy geografik o'ringa ega bo'lgan nuqtada yirik sanoat korxonasi joylashtirilsa, rivojlanish markazi vujudga keladi.

O'sish qutblari deganda, u ixcham joylashtirilgan hamda jadal rivojlanayotgan sanoat tarmoqlari; iqtisodiyotning hududiy tuzilishiga, uning dinamikasiga ta'sir ko'rsatadigan «rivojlanish impulsi» to'plangan alohida korxonalarni tushunadi.

O'sish qutbi yetakchi sanoat atrofida to'plangan innovatsiyalar konsentratsiyasi natijasida yuzaga keladi. O'sish qutblari esa mamlakatning iqtisodiyoti sust hududlarini jonlantirish va rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Perru ta'limoti mintaqaviy siyosat va mintaqaviy iqtisodiyot nuqtai nazaridan klassik ahamiyatga ega bo'lsa-da, ba'zi kamchiliklardan holi emas. Jumladan:

– *birinchidan*, o'sish qutbi sifatida faqatgina sanoat va uning hududiy shakllari olinganligi. Chunonchi, u ta'lim, turizm va boshqa nomoddiy sohalarni e'tibordan chetda qoldiradi. Vaholanki, sanoatdan boshqa tarmoqlar ham ma'lum hududning rivojlanish o'chog'i bo'la olishi mumkin;

– *ikkinchidan*, o'sish qutbi va uning ta'sir radiusidagi hududlar alohida elementlar sifatida emas, yaxlit kompleks sifatida keltirilganligi. Aslida, ta'sir doirasidagi areal boshqa tarmoqlar ta'sirida ham rivojlanishi, iqtisodiy jihatdan diversifikatsiya bo'lishi mumkin. Ya'ni atrofdagi hududlarning iqtisodiy landshafti har doim ham qutb bilan mutloq bog'liq bo'lmaydi;

– *uchinchidan*, o'sish qutblari va rivojlanish markazlarining shakllanishida omillarning inobatga olinmaganligi. Jumladan, o'sish qutbi aynan biror sanoat tarmog'ining o'zi bilangina rivojlanib qolmay, uning kompleks taraqqiy etishiga bozor sharoitlari, investitsiya, mehnat resurslari, kapital va boshqa iqtisodiy omillar kabi turli faktorlar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ularni inobatga olmaslik esa yetarli natijaga erishmaslikka olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, Perruning ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda qutblar va hududiy tengsizlik nazariyasi ayrim kamchiliklardan holi bo'lmasa-da, mintaqalar yoki tarmoqlarni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'sish va farovonlikni rag'batlantirish uchun mavjud resurslar va imkoniyatlardan samarali foydalanishga yordam beradi.

Jahon xo'jaligining shakllanishi

Nikolay Dmitriyevich Kondratyev. «Uzun to'lqinlar» nazariyasi

Nikolay Kondratyev – rus iqtisodchisi, 1892-yilda Rossiyaning Kostroma (Ivanovo) oblastida dehqon oilasida tug'ilgan.

Dastlabki ta'limni cherkov o'qituvchilari seminariyasida olgach, 1908-yilda Sankt-Peterburgga ko'chib ketadi.

U yerda Sankt-Peterburg universitetining huquqshunoslik fakultetiga o'qishga kiradi va ustozlarining taklifiga binoan, shu yerda ishlash uchun qoladi. 1920–1928-yillarda Moliya Xalq Komissarligi huzuridagi Bozor tadqiqotlari institutida faoliyat olib boradi va direktorlik ham qiladi. Bu orada uning rahbarligida



5.16-rasm. N.Kondratyev
(1892-1938)

1923–1928-yillarga mo'ljallangan qishloq va o'rmon xo'jaligini rivojlantirishning uzoq muddatli rejasi ishlab

chiqiladi, uning boshqa dasturlardan ustunligi rejali va bozor iqtisodiyoti tamoyillari uyg'unlashgan edi. Shuningdek, 1924-yilda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil qilishni o'rganish uchun AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniyaga ilmiy safarlar uyushtiradi.

Ilmiy izlanishlari va olgan tajribalari asosida dunyo xo'jaligining uzoq muddatli rivojlanish shkalasidagi o'rnini aniqlashda katta bosqichlar – «uzun to'lqinlar» nazariyasini ishlab chiqadi. Keyinchalik, bu nazariya yanada rivojlantiriladi va hozirda dunyo xo'jaligi tadqiqotlarida keng qo'llanilmoqda.

N.D.Kondratyev nazariyasi va boshqa qator tadqiqotlar asosida dunyo xo'jaligi rivojlanishida 3 ta katta – agrar, industrial, postindustrial rivojlanish bosqichlari ajratiladi. Agar ularni davrlarga bo'lsak, agrar bosqich hech qanday davrga bo'linmaydi (unda qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik asosiy o'rin tutgan). Industrial bosqich esa birinchi va ikkinchi sanoat inqilobi kichik bosqichlariga ajratilib, ularning har biri yana ikkitadan davrga ajratiladi. Rivojlanishning keyinchi – postindustrial bosqichi ham davrlarga bo'linmagan.

To'rtta «uzun to'lqin»ga teng keluvchi birinchi va ikkinchi sanoat inqiloblari davrida quyidagilar yetakchi mavqega ega bo'lgan: Birinchi davrda – tikuvchilik va hunarmandchilik; ikkinchi davrda – ko'mir ishlab chiqarish, qora metallarni eritish, tikuvchilik; uchinchi davrda – metallurgiya, kimyo va og'ir mashinasozlik; to'rtinchi davrda –

avtomobilsozlik, elektronika, organik kimyo, mashinasozlikning turli tarmoqlari.

Ushbu to'rt davr sanoatlashuv (industrial) bosqichiga to'g'ri keladi. Beshinchi davr esa taraqqiy etgan davlatlarda nomoddiy sohaning rivojlanishi bilan bog'liq tarzda yuzaga kelgan bo'lib, fan-texnika inqilobini anglatadi. Mantiqan, ushbu bosqich hozirgi IT, elektronika, aerokosmonavtika, biotexnologiya va gen injineriyasi, turizm kabi tarmoqlar yetakchi mavqega ega bo'lishini anglatadi.

N.D.Kondratyev o'zi ajratgan davrlarning boshlanish va tugallanish vaqtlarini, aynan, belgilab qo'ymaydi. Ushbu masalada ilmiy-texnik progressning tezlashuvidan kelib chiquvchi noan'anaviy yondashuv muhim ahamiyatga egadir. Mazkur yondashuvga asosan, G'arbiy Yevropaning rivojlangan davlatlarida olim ajratgan davrlarni quyidagicha xronologik tartibda joylashtirish mumkin: I davr 1770–1830-yillar; II davr 1830–1880-yillar; III davr 1880–1930 yillar; IV davr 1930–1970-yillar; V davr 1970-yildan hozirgi paytgacha.

N.D.Kondratyev fikricha, «uzun to'lqinlar» endogen xarakterga ega, ya'ni u bozor iqtisodiyoti xo'jaligiga xos bo'lib, ushbu xo'jalikning o'z-o'zini tartibga solishi uchun sharoit yaratadi. Rivojlanishdagi ko'tarilish va pasayish davrlari tabiiy holdir, ularni oldindan bashorat qilish mumkin hamda ularga moslashish va ushbu bosqichlarni tashqi ta'sir, ya'ni davlat tomonidan boshqarish yo'li bilan tartibga solish mumkin.

N.D.Kondratyev fikricha, taxminan 40–50 yil davom etadigan «uzun to'lqinlar»ning moddiy sabablari «kapital asosiy ne'matlari»ning o'zgarib turishi bilan bog'liqdir. Ushbu o'zgarishlardan uzoq muddatli iqtisodiy mutanosiblikni buzuvchi hamda nisbatan osoyishta evolyutsion va ekstensiv rivojlanish bosqichlarini, revolyutsion va intensiv rivojlanish bosqichlari bilan almashtiruvchi ilmiy-texnika taraqqiyoti (progressi) alohida rol o'ynaydi. Uning qarashlari bizga hozirgi jahon xo'jaligining shakllanish davrlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Xulosa sifatida shuni keltirish mumkinki, ishlab chiqarishni joylashtirishning klassik nazariyalari ilmiy va amaliy ahamiyatga egaligi bois, hozirda ham sohaga doir tadqiqotlarda fundamental asos vazifasini bajarmoqda.

Ushbu konsepsiya va nazariyalarning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ular ishlab chiqarishni joylashtirish asoslari va qonuniyatlarini anglashga yordam beradi. Mazkur ta'limotlarni o'rganish iqtisodiy tashkilotlar, iste'mol bozori va resurslar o'rtasidagi munosabatlarni

yaxshiroq tushunish, shuningdek, iqtisodiy makondagi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni prognoz qilishga imkon beradi.

Amaliy ahamiyati boshqaruv organlari va tadbirkorlik subyektlarida ishlab chiqarishni joylashtirish bo'yicha asoslangan qarorlar qabul qilishda ko'zga yaqqon tashlanadi. Jumladan, bunday nazariyalarni o'rganish resurslardan foydalanishni optimallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga imkoniyat yaratadi.

Zamonaviy ilm-fan ishlab chiqarishni joylashtirishning klassik nazariyalaridan murakkabroq modellar va tahlil usullarini ishlab chiqish uchun asos sifatida foydalanadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiya, globallashtirish va boshqa omillarning ishlab chiqarishni joylashtirish va iqtisodiy faoliyatga ta'sirini tushunishga yordam beradi.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning klassik nazariyalarining vujudga kelishiga qanday tarixiy shart-sharoitlar ta'sir ko'rsatgan?*
- 2. Merkantelizm va fritredizm tushunchalariga ta'rif bering.*
- 3. A.Smidt, D.Rikardo, E.Xeksher va B.Olin nazariyalarining o'xshash va farqli jihatlarini izohlang.*
- 4. Buyuk tarixiy daryolar va sivilizatsiyalar nazariyasining mazmun-mohiyati nimalardan iborat?*
- 5. Qishloq xo'jaligini hududiy tashkil etishning qanday klassik ta'limotlari yaratilgan?*
- 6. Qishloq xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishiga oid "Hilly Flanks" va "Voha" nazariyalaridan qaysi biri bizning mintaqamiz uchun ko'proq mos keladi?*
- 7. Sanoatni hududiy tashkil etishga oid qaysi nazariya eng yuqori samaradorlikka ega?*
- 8. "Launxardt uchburchagi" va "Shtandort" nazariyalarining o'xshash va farqli jihatlarini klaster ko'rinishida izohlang.*
- 9. Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini tashkil etishga doir ta'limotlar o'zidan avvalgi nazariyalardan qaysi jihatlariga ko'ra ajralib turadi?*
- 10. Hozirgi kunda ham jahonning qaysi ilg'or mamlakatlarida V.Kristallerning "Markaziy o'rinlar" nazariyasidan foydalangan holda xizmat ko'rsatish tarmoqlari joylashtiriladi?*

6-BOB. IQTISODIY GEOGRAFIYANING ASOSIY USTUN TUSHUNCHALARI

Mavzu annotatsiyasi. Ushbu mavzuda Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani asosiy tushunchalarining mohiyati ochib berilgan. Jumladan, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada «iqtisodiy geografik o‘rin» – kalit, «hududiy mehnat taqsimoti» – fundamental, «hududiy ishlab chiqarish majmualari» – konstruktiv, «rayonlashtirish» – birlamchi tushuncha ekanligi tahlil etilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: iqtisodiy geografik o‘rin, hududiy mehnat taqsimoti, hududiy ishlab chiqarish majmualari, rayonlashtirish.

Reja:

- 6.1. Iqtisodiy geografik o‘rin.
- 6.2. Hududiy mehnat taqsimoti.
- 6.3. Hududiy ishlab chiqarish majmualari.
- 6.4. Iqtisodiy rayonlashtirish.



Har bir fanning mustaqilligi va mustahkamligi uning nazariy asoslari va tayanch nuqta yoki ustunlariga bog‘liq. Ular fanning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalarini, nazariy va amaliy tomonlarini o‘zida aks ettiradi. Iqtisodiy (ijtimoiy) geografiya fanida bunday ustunlar asosan to‘rtta. Ular: hududiy mehnat taqsimoti, rayonlashtirish, hududiy ishlab chiqarish majmualari va iqtisodiy geografik o‘rin hisoblanadi. Bu kategoriyalar bir-biri bilan bog‘liq va ularning har biri ma‘lum vazifani bajaradi. Masalan, *hududiy mehnat taqsimoti fanning fundamental tushunchasi*, *rayon yoki rayonlashtirish – birlamchi*, *hududiy majmualar – konstruktiv va iqtisodiy geografik o‘rin mazkur fanning o‘ziga xos kalit tushunchasidir*. Quyida bu tushunchalarning har biriga qisqacha to‘xtalib o‘tiladi.

6.1-§. Iqtisodiy geografik o‘rin

Iqtisodiy geografik o‘rin iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, uni yaxshi tahlil qila olish (mag‘zini chaqish) o‘rganilayotgan obyektning nima uchun shu yerda joylashganligi, hozirgi holatga qanday erishganligi hamda uning kelajagi to‘g‘risida

mukammal va to'liq ma'lumot beradi. Bu tushunchada, avvalo, obyekt qayerda joylashganligi (o'rni), uning boshqa qo'shni obyektlar bilan qanday munosabatda ekanligi muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, geografik o'rin bir necha xil bo'ladi. Masalan, shahar yoki rayonning koordinatalari (kenglik va uzoqlik)ni aniqlash – bu ularning matematik geografik o'rnidir. «Sverdlovsk shahri Uralda, Gazli Qizilqumda joylashgan» – degan iboralar sof holda tabiiy geografik o'rinlar hisoblanadi. Ushbu misolimizdan Sverdlovsk qadimgi Ural tog' sistemasida joylashganligi yoki qudratli metallurgiya va mashinasozlikka ega bo'lgan iqtisodiy rayonda joylashganligi, Gazli esa Qizilqum cho'lida o'rnashganligi va Buxoro viloyatining «resurs» shaharchalaridan biri ekanligi ma'lum bo'ladi.

Matematik geografik o'rin, tabiiy geografik o'rin, iqtisodiy geografik o'rin tushunchalari ayni bir mazmunga ega emas. Shu bilan birga o'rganilayotgan rayon yoki mamlakatning boshqa mamlakatlarga nisbatan tutgan o'rnini aniqlash bu uning siyosiy geografik o'rni to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishdir. Shahar yoki rayonlarning harbiy-geografik o'rni to'g'risida ham so'z yuritish mumkin. Shuningdek, ekologik geografik o'rin ham bor; u ma'lum hududning ekologik jihatdan xavfli bo'lgan joylarga nisbatan joylashganligini bildiradi. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati va qisman Buxoroning ekologik geografik o'rni yaxshi emas. Ular global tus olgan Orol ekologik o'chog'iga yaqin turishadi.

Iqtisodiy geografik o'rin tushunchasini mukammal ravishda N.N.Baranskiy ishlab chiqdi va fanga kiritdi. Keyinchalik bu nazariya I.M.Mayergoyz, V.V.Pokshishevskiy, O.A.Konstantinov, R.M.Kabo, Y.G.Saushkin, G.M.Lappo, T.I.Raimov va boshqa olimlar tomonidan har tomonlama rivojlantirildi.

Iqtisodiy geografik o'rin deganda o'rganilayotgan obyektning (qaysi bir hududni – shahar, rayon yoki mamlakatning) o'z atrofida, undan tashqarida joylashgan geografik obyektlarga nisbatan tutgan o'rni va bu obyektlarni uning rivojlanishiga iqtisodiy jihatdan ta'sir ko'rsatishini tushunish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan quyidagi asosiy fikrlar kelib chiqadi:

1. Iqtisodiy geografik o'rin tushunchasida so'z eng avvalo uning tashqi hududiy munosabatlari haqida boradi. Obyektning o'zi, uning ichki tuzilishi esa ayni paytda ahamiyatga ega emas. Masalan, O'zbekistonning iqtisodiy geografik o'rni to'g'risida so'z yuritilganda, uning yaqin va uzoqda joylashgan geografik obyektlarga nisbatan

o'rganiladi, respublikaning o'zining ichki hududiy tuzilmasi (qaerda yirik shaharlar, magistral yo'llar yoki vohalar joylashganligi) bizni ayni paytda qiziqitirmaydi.

2. Iqtisodiy geografik o'rin tushunchasida tashqarida yotgan geografik elementlarning faqat iqtisodiy ta'siriga e'tibor qaratiladi. Ammo bu tashqaridagi obyektlar dastlabki ko'rinishda tabiiy geografik bo'lsada, ular iqtisodiy geografik ahamiyatga ega. Demak, iqtisodiy geografik o'rinda tabiiy geografik elementlarga iqtisodiy jihatdan baho berilar ekan. Shu bilan birga, bunday baho berish faqat geografik o'rinning ijobiy tomonini qidirish emas, balki uning salbiy tomonlarini ham ochib berishi lozim.

3. Iqtisodiy geografik o'rin tushunchasida tashqi iqtisodiy aloqalarning o'ziga emas, balki shu aloqalarni rivojlantirish uchun kerak bo'lgan imkoniyatlariga e'tibor qaratiladi. Ma'lumki, bu imkoniyatlar to'la amalga oshirilgan yoki hali ulardan foydalanilmagan bo'lish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, aloqalarning o'zi emas, shu aloqa uchun imkoniyat qidiriladi, joyning salohiyati, funksiyasi aniqlanadi.

4. Iqtisodiy geografik o'rin tarixiy tushunchadir. Bir vaqtlar noqulay bo'lgan o'rin keyinchalik qulay va, aksincha, qulay bo'lgan o'rin noqulay bo'lib qolishi mumkin. Masalan, Angren yoki Bekobod shaharlarining iqtisodiy geografik o'rni so'nggi yillarda ancha o'zgardi.

5. Iqtisodiy geografik o'rin shu obyekt atrofida yangi sanoat korxonalarini barpo qilish, magistral yo'llarni o'tkazish, yirik foydali qazilma konlarini topish, rekreatsiya zonalarini yaratish tufayli yaxshilanib boradi. Ayniqsa, bunday qonuniyat yirik shaharlarda yaqqol namoyon bo'ladi, chunki ular doimo o'z iqtisodiy geografik o'rnini yaxshilashga intiladi.

6. Iqtisodiy geografik o'rin bir necha bo'laklardan (qismlardan) iborat. Jumladan, shahar yoki rayonning agrogeografik, demografik, harbiy-geografik, ekologik, gidrogeografik o'rinlari to'g'risida so'z yuritsa bo'ladi. Agrogeografik o'rin deganda, obyektning yirik qishloq xo'jalik rayonlariga nisbatan tutgan o'rni, transport geografik o'rnida asosiy magistral infratuzilma elementlari, demografik o'rin deganda esa aholining zich joylashgan rayonlarga nisbatan tutgan o'rni haqida ma'lumot olinadi va h.k. Albatta, bu tushunchalar orasida transport geografik o'rin ko'proq ahamiyatga ega, chunki joyning asosiy imkoniyatlari (funksiyasi) aynan shu transport-iqtisodiy aloqalar orqali amalga oshiriladi.

7. Iqtisodiy geografik o‘rin bir necha bosqichli bo‘ladi. O‘rganilayotgan obyektning mikro, mezo va makro geografik o‘rni bor. Shu bilan birga, bu yerda turli bosqichdagi o‘rinlarni bir-biri bilan bog‘liqligini ta’kidlash lozim. Shubhasizki, shaharning aynan shu joyda vujudga kelishiga uning eng avvalo mikrogeografik o‘rni sabab bo‘ladi. Agar bu o‘rin qulay bo‘lsa, shahar bu joyning real imkoniyatidan foydalanib, asta-sekin yiriklashadi va mezogeografik o‘rnidan foydalanishga o‘tadi. Demak, kichik shaharlar o‘zlari joylashgan joy va uning yaqin atrofi bazasida rivojlansa, yirik shaharlar uzoq masofadagi aloqalar makrogeografik o‘rnidan foydalanib ham rivojlanib boradi.

Qaysi o‘rin noqulay bo‘lsa, shahar o‘z rivojlanishida to‘xtab qoladi. Masalan, mikrogeografik o‘rin noqulay bo‘lsa, shahar umuman uzoq yashay olmaydi. Bunga shu joyning salbiy tomonlari ta’sir ko‘rsatadi (botqoqlik, yer osti suvlari, yer qimirlashlar, sel hodisalari, o‘pirilish va h.k). Agar mezogeografik o‘rin noqulay bo‘lsa, shahar qadimiyligiga qaramasdan, u uncha yirik markazga aylana olmaydi. Bu borada, ayniqsa, Chust, Denov, Shahrisabz, Xiva shaharlarini misol qilish mumkin. Makrogeografik o‘rinning qulay bo‘lishi shaharning keng miqyosda rivojlanishiga olib keladi.

Ammo yuqorida aytilgan fikrlarga boshqacha yondashish ham mumkin; bu jihatdan shaharlarning katta-kichikligiga qarab ularni turli darajadagi o‘rinlarining hududiy ko‘lami ham har xil bo‘ladi. Tabiiyki, Toshkentning makrogeografik o‘rni bilan Parkentning makrogeografik o‘rnini miqyosi bir xil emas. Agar Toshkent uchun uning butun Yevroosiy materigida joylashganligi muhim bo‘lsa, Parkentning makrogeografik o‘rni Toshkent viloyati doirasi bilan chegaralanishi o‘z-o‘zidan ravshandir.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, iqtisodiy geografik o‘rinning barqarorligi to‘g‘risida ham so‘z yuritish lozim. Bunga bir qancha misolar keltirish o‘rinli. Masalan, Xo‘jand (So‘g‘d viloyati, Tojikiston Respublikasi) shahrini olaylik. Bu shahar 2500-yil muqaddam Iskandar Zulqaynar (Aleksandr Makedonskiy) tomonidan qurilgan 18 ta Aleksandriyalardan biri bo‘lgan. Qadim zamonda uning nomi Aleksandr Es-Xate (ya’ni Iskandarning eng sharqdagi shahri) deb atalgan. Shahar juda qulay iqtisodiy geografik mavqega ega ekanligi tufayli (Farg‘ona vodiysiga kirish va chiqish joyida joylashgan) u tarix davomida rivojlanib bordi. Ammo o‘z taraqqiyotida shahar bir necha marta tushkunlikka uchradi, sababi har qanday dushman go‘zal Farg‘onani bosib olish uchun, eng avvalo, Xo‘jandni egallashi kerak edi-da. Shu

sababli eronliklar, arablar, mo'g'il-tatarlarning hujumi natijasida shahar vayron qilingan edi. Ammo u bunga qaramasdan, «o'jarlik» qilgandek har gal xarobalar, vayronalar ichidan yana aynan shu nuqtada qad ko'tarardi. Bu esa Xo'jand joylashgan geografik o'rinning barqarorligidan, qat'iyigidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, iqtisodiy geografik-o'rni juda qulay bo'lmagan shaharlar davr o'zgarishi bilan xaroba joylaridan qaytadan ko'tarila olmagan (Marv, Eski Panjakent, Axsikent, Tuproqqal'a va h.k.) yoki bir necha bor o'z o'rnini o'zgartirgan shaharlar (Orenburg, Qozon, Qarshi va boshqalar) ham mavjud.

Iqtisodiy geografik o'rinning o'zgarishi bilan shaharlar va rayonlar rivojlanishida burilishlar sodir bo'ladi. Masalan, O'rta Osiyodagi qadimiy shaharlar savdo va hunarmandchilik asosida shakllangan va rivojlangan edi. Ular Buyuk ipak yo'lida joylashgan va savdo-sotiqning markazi hamda sug'oriladigan dehqonchilik bilan bog'liq holda rivojlanib borgan. Ammo keyinchalik Xitoy va Hindistonga dengiz yo'li ochilishi munosabati bilan bu shaharlarning rivojlanishi biroz susaydi, chunki xalqaro savdo yo'li endi ularni chetlab o'tdi.

Angliyaning Buyuk Britaniyaga aylanishidagi sabablardan biri uning nihoyatda qulay transport-geografik o'ringa ega ekanligidir. U dengiz transporti rivojlanishi davomida o'zining geografik mavqeidan, ya'ni Atlantika va Shimoliy Muz okeani o'rtasida joylashganligidan to'la foydalandi. Ayni bir paytda, Germaniyaning rivojlanishi biroz kechroq boshlandi. Buning sabablaridan biri, mamlakatning Atlantikadan ichkaridaligida, uzoqligida edi. Harbiy-geografik o'rin, ayniqsa, shaharlar uchun xarakterlidir. Qadim zamonlarda shaharlarning asosiy vazifalaridan biri - mamlakatni qo'riqlash, hujumdan saqlash edi, shu sababli ular tepaliklarda, deryoning baland kirg'og'ida qal'alar qurilardi; bosib olingan yoki qo'shib olingan joylar yangi shaharlar bilan mustahkamlantirilardi (Vladikavkaz, Vladivostok va h.k).

Shunday qilib, iqtisodiy geografik o'rin tushunchasini yaxshi bilish shahar yoki rayonlar xo'jaligini, uning tarkibi va yo'nalishini o'rganishda katta yordam beradi. Bu xususda iqtisodiy geografik o'rin kategoriyasi iqtisodiy rayonlashtirishdagidek o'ziga xos metod, tadqiqot usuli, bilim *kaliti* hisoblanadi. Chunki, uning yordamida nafaqat nima, qaerda, balki nima uchun shu yerda va qanday degan savollarga javob olinadi.

Umuman geografik o'rin kundalik hayotimizda doimo qo'llaniladigan tushunchadir. U qaysi bir boradigan yoki o'rganadigan

obyektning qanday va qaerda joylashganligi, mo'ljal bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, bu tushuncha barcha uchun hamma vaqt va har doim kerak. Geograflarning o'zida esa u hududiy fikrlash, kartani yaxshi bilish, hududiy munosabatlarni chuqur anglashni talab qiladi.

Yuqorida geografik o'rinning tarixiyli, o'zgaruvchanligi, uning harbiy, siyosiy va geostrategik ahamiyati to'g'risida gapirilgan edi. Darhaqiqat, geografik o'rin ilmiy geografik determinizmning asosiy omillaridan biri sifatida jamiyatning tarixiy rivojlanishi, uning markaz va qutblari, yo'l-yo'laklari shakllanishida katta xizmat qilgan. L.I.Mechnikov «*Buyuk tarixiy daryolar va jahon sivilizatsiyasi*» asarida jamiyat rivojlanishida uchta asosiy bosqichni ko'rsatadi. Birinchisi, *daryo sivilizatsiyasi* bo'lib, unda sug'orma dehqonchilik uchun qulay bo'lgan daryolar ta'sirida fan va madaniyat, iqtisodiyot markazlari vujudga kelgan. Sababi, bunday mintaqalarda sug'orma dehqonchilik yaxshi rivojlangan, u bilan bog'liq fan va madaniyat o'choqlari ham shakllangan.

Ikkinchi bosqich – *O'rta dengiz madaniyati* bo'lib, u asosan savdo-sotiq, Buyuk ipak yo'li bilan bog'liq tarzda rivojlangan. Shu davrda mazkur yo'l bo'yida joylashgan hududlar, jumladan, O'rta Osiyo shaharlarining iqtisodiy geografik o'rni nihoyatda qulay bo'lgan va ular gurkirab taraqqiy etgan, hozirgi Italiya hududida qator savdo markazlari (Genuya, Venetsiya, Florensiya va b.) yaxshi rivojlanib borgan.

Uchinchi, ya'ni Mechnikov bo'yicha hozirgi bosqich *Okean sivilizatsiyasi* deyiladi. Bu davrga kelib jahon taraqqiyoti o'choq va markazlarida o'zgarishlar yuz beradi. Endigi sharoitda materik ichkarisidagi yoki sug'orma dehqonchilikka qulay bo'lgan daryo havzalarida joylashgan mamlakat va shaharlar emas, balki Dunyo okeani bo'yida o'rnashgan davlatlar qulay imkoniyatlarga ega bo'lishdi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi O'zbekiston Respublikasi bu borada jahonning 2 davlatidan biri sanaladi: u Dunyo okeaniga chiqish uchun kamida 2 ta mamlakat hududini kesib o'tuvchi mamlakat hisoblanadi. Bu esa O'zbekiston iqtisodiy va siyosiy geografik o'rnining eng muhim xususiyatlaridan biridir¹³.

Bugungi mustaqil O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo geosiyosiy mintaqasining qoq o'rtasida, markazida, Dunyo okeanidan uzoqda joylashgan. Markazda – demak, uning qo'shnilari ko'p

¹³ Qaysi bir ma'noda, respublikamizning Dunyo okeanidan uzoqda, Yevroosiyo materigining ichkarisida joylashganligi ham ijobiy hisoblanadi, sababi – bizga uragan, tayfun, sunami kabi tabiiy ofatlar xavf tug'dirmaydi

(Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Afg‘oniston); demak, uning tranzit, transchegaraviy ahamiyati yuqori; demak, bu hududda mamlakatlarning iqtisodiy integratsiya jarayoni rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar mavjud. Shu o‘rinda, «markaz» va «o‘rta» so‘zlarining ma‘nosiga to‘xtab o‘taylik. Odatda, markaz deganda ham nimadir o‘rtada joylashganligi nazarda tutiladi, hudud aylana yoki doira shaklida tasavvur qilinadi. «O‘rtada» deganda esa chiziqli fikrlash ham mumkin, masalan, Sirdaryo viloyati Toshkent va Jizzax viloyatlari o‘rtasida joylashgan.

Har qanday geografik o‘rinning o‘z mohiyati bor; joyning markazda, o‘rtada, chetda yoki chekkada o‘rnashganligi iqtisodiy geografik nuqtai nazardan har xil mazmunga ega. Bu yerda markaz yoki o‘rtada joylashgan hududlar ko‘proq qulayliklarga ega. Biroq, chetda, chekkada joylashgan hududlar o‘zining mamlakatiga, ichkarisiga, markaziy rayonlariga nisbatan noqulay o‘rnashgan bo‘lsada, ular boshqa hududlar bilan iqtisodiy aloqalarni olib borish, erkin iqtisodiy zonalarni vujudga keltirishda qator ijobiy (qo‘shnichilik) imkoniyatlarga ega. Bu xususan Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonini (Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati) olaylik. Uning o‘ziga xos iqtisodiy geografik o‘rnini, mamlakatimiz chekkasida joylashganligini hisobga olib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin. Jumladan, bunday geografik o‘rin mintaqaning:

- 1) kompleks rivojlanishini;
- 2) raqobatbardosh tarmoqlarga ixtisoslashuvini (chunki, hudud uzoqda joylashgan, transport harajatlari katta);
- 3) eksport salohiyatini oshirishni, xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Geografik o‘rinda «qo‘shnichilikning» ta‘siri katta, uning ahamiyatini oila hayotida ham muhimligi barchaga ma‘lum. Shu jihatdan qaraganda, qo‘shni davlat rivojlangan bo‘lsa ham, rivojlanmagan bo‘lsa ham hudud uchun ijobiy ahamiyat kasb etadi. Birinchisida, undan foydalaniladi, ikkinchisida unga yordam berib rivojlanadi. Umuman olganda esa jahon siyosiy xaritasida o‘ta rivojlangan mamlakat bilan o‘ta qoloq davlatning yonma-yon, qo‘shni joylashganligini topish qiyin.

Shu bilan birga, mamlakatning ichkarisida yonma-yon joylashgan ma‘muriy birliklarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi ham o‘xshashroq bo‘ladi. Masalan, Qashqadaryoning Dehqonobod va Surxondaryoning Boysun, Samarqand viloyatining Nurobod va

Qashqadaryoning Chiroqchi, Toshkent viloyatining Chinoz va Sirdaryo viloyatining Sirdaryo, Namangan viloyatining Norin va Andijon viloyatining Baliqchi, Jizzax viloyatining Baxmal yoki G'allaorol va Samarqandning Bulung'ur qishloq tumanlari o'rtasida, iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasida jiddiy farq ko'zga tashlanmaydi. Chunki, ularning umumgeografik asosi, tabiiy geografik o'rni, iqtisodiy landshafti deyarli bir xil.

Qo'shniçilik munosabatlarida oraliq joylar ham katta imkoniyatlarga ega; ular muhim bog'lovchi, «kontakt» vazifasini bajarib, har ikki tomon qulayliklaridan samarali foydalaniladi. Bunday *geografik vaziyat* xususan shaharlar rivojlanishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, yangi, navqiron Navoiy shahrining qadimgi Samarqand va Buxoro shaharlari o'rtasida joylashganligi uning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi. Navoiy respublikamiz yirik shaharlari orasida bunday maqomga juda qisqa muddatda, tez erishdi (albatta, bunga Qizilqum tabiiy resurslarining ta'sirini ham unutmaslik kerak). Bunday «*oraliq shahar*» qonuniyatini juda ko'p uchratish mumkin. Chunonchi, Jizzax Toshkent va Samarqand o'rtasida, G'ijduvon Navoiy va Buxoro o'rtasida, Guliston Toshkent va Jizzax o'rtasida va h.k. Yana shunisi e'tiborliki, qadimda yirik markazlar taxminan bir xil masofada barpo etilgan. Bunga Volga daryosi bo'yida joylashgan Qozon, Saratov (Sariqtov), Samara, Volgograd, Astraxan shaharlari misol bo'la oladi. O'rta Osiyoda ham Buxoro – Samarqand, Samarqand – Toshkent, Samarqand – Xo'jand, Toshkent – Qo'qon, Xo'jand – O'zgan, Xo'jand – O'sh o'rtasidagi masofa ham bir xil.

Avval ta'kidlanganidek, iqtisodiy geografik o'rin ayniqsa shaharlar rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Shaharlar, o'z navbatida, o'zlarining iqtisodiy geografik o'rnini yaxshilashga xarakat qiladi. Biroq, bunday imkoniyatlar tabiiy holda barcha shaharlarda bir xilda emas. Masalan, Termiz yoki Guliston – Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarining ma'muriy markazlari turdosh funksiyali shaharlar orasida nisbatan sustroq rivojlangan. Termizning siyosiy geografik o'rnini noqulay bo'lsa, Gulistonning shahri azim – Toshkentga yaqinligi uning katta markaz maqomida rivojlanishiga to'sqinlik qiladi (poytaxtning rayon hosil qiluvchi va rayonga xizmat qiluvchi salohiyati, ta'sir doirasi Gulistonga qaraganda ancha yuksak).

Farg'ona vodiysi shaharlari orasida Namangan eng katta, u respublikamizda Toshkentdan keyingi ikkinchi shahar sanaladi. Bunga qisman Namanganning geografik o'rnini ham ta'sir ko'rsatgan; u vodi

miqyosida Sirdaryoning o'ng tomonida joylashgan yagona shahardir, Qo'qon, Farg'ona, Marg'ilon esa uning so'l tomonida o'rnashgan (shu ma'noda, shaharlar rivojlanishida ham, ularning hududiy ta'sirida ham ma'lum raqobat muhiti borligini e'tirof etish mumkin).

Buyuk Sohibqiron Amir Temur qudratli davlatning poytaxti sifatida o'zining vatani Shahrisabzni emas, ona tomonidan yaqin bo'lgan Buxoroni emas, Samarqandni tanlagan. Bunda, albatta, «geografik did» ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Samarqand shahrining iqtisodiy geografik o'rining yuqoridagi shaharlarga nisbatan afzalliklari taniqli faylasuf olim I.Mo'minov asarlarida ham yoritilgan.

Geografik o'rin geostrategik mazmun ham kasb etadi. Napoleon Rossiyaga hujum qilganda «Kiyevni olsam Rossiyani oyog'idan tortaman, Peterburgni qo'lga kiritsam tomog'idan bo'g'izlayman, Moskvani egallasam yuragini ezaman», deb aytgan ekan. Xuddi shunday Ikkinchi jahon urushida nemis fashizmi jon-jahdi bilan Stalingradni (hozirgi Volgograd) olishga harakat qilgan. Sababi, bu shahar muhim strategik o'rinda joylashgan, u buyuk Rus daryosi – Volganing «tirsagida» va magistral yo'llar kesishgan nuqtasida o'rnashgan. Agar Stalingrad qamal qilinsa, zabt etilsa, u holda Qozog'iston va O'rta Osiyodan front uchun keladigan oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqalar, Bokudan tank va aviatsiya, harbiy avtomobillar uchun o'ta zarur bo'lgan yonilg'i yo'nalishi to'silar edi. Shu ma'noda aytish mumkinki, o'ta, nihoyatda qulay bo'lgan iqtisodiy geografik o'rin, ayni paytda, ancha xavfli ham bo'lar ekan. Bu ham bo'lsa iqtisodiy geografik o'rinning tarixiy tushuncha ekanligidan yana bir bor dalolat beradi.

Shunday qilib, geografik o'rin ham iqtisodiy geografiya fanining asosiy ustunlari, kategoriyalaridan biridir. Ushbu tushunchani yaxshi anglagan, o'rgangan mutaxassis barcha hodisa va voqealarning «qayerda, qanday va nima uchun shunday?» degan savollariga javob topa oladi. Binobarin, uning ilmiy-amaliy ahamiyati ham katta.

6.2-§. Hududiy mehnat taqsimoti

Hududiy mehnat taqsimoti iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omilidir. U ijtimoiy mehnat taqsimotining muhim bir qismi yoki tomoni sifatida jamiyat, ijtimoiysiyosiy rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatadi. Maxsus ilmiy adabiyotlarda hududiy mehnat taqsimoti tushunchasiga o'xshash yana boshqa iboralar ham mavjud: geografik mehnat taqsimoti, regional mehnat taqsimoti, akvatorial mehnat taqsimoti va h.k. Ularning orasida

jiddiy farq yo‘q, binobarin, mazkur tushunchalarni ma’nodosh sifatida qabul qilish mumkin. Ularning ko‘pchiligi bevosita yer, hudud, maydon, ya’ni «geo»ga taalluqli bo‘lib, faqat akvatorial mehnat taqsimoti dunyo okeani qismlarining xo‘jalik ahamiyatini aks ettiradi.

Dastlab, hududiy (xalqaro) mehnat taqsimoti ta’limotini ingliz klassik iqtisodchilari A.Smit va D.Rikardolar yaratgan. Ular *merkantilizmga* qarshi ochiq, erkin savdo, ya’ni *fritredizm* g‘oyasini oldinga surishgan. Bu g‘oyaning asosiy mohiyati har bir mamlakat yoki mintaqa o‘zida nisbatan qulay va arzon mahsulotlarni chetga chiqarib, bu yerda ishlab chiqarish xarajatlari ko‘p va qimmat mahsulotlarni sotib olishdan, import qilishdan iboratdir. Bunday fikrlash asosida *mutlaq va nisbiy (qiyosiy) qulaylik yoki afzallik* yotadi. Xuddi shunga o‘xshash g‘oya ishlab chiqarish omillari nuqtai nazaridan shved iqtisodchilari E.Xeksher va B.Olinlar tomonidan ham yaratilgan. Buning ma’nosi – har bir mamlakat o‘zida arzon omil mahsulotini chiqarib, qimmat omil mahsulotini chetdan keltirish demakdir.

Ko‘rinib turibdiki, hududiy mehnat taqsimoti har bir joyning o‘zida qulay va arzon bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini anglatadi. Ixtisoslashuv esa yaratilgan mahsulotning miqdor va sifat jihatidan yaxshi, uni mahalliy bozorlarni qondirgan holda boshqa mintaqaviy, xalqaro va jahon bozoriga chiqarish imkoniyatini nazarda tutadi yoki raqobatbardoshligini bildiradi. Aynan shu ma’noda, hududiy mehnat taqsimoti tashqi savdo yuritishning asosi bo‘lib xizmat qiladi, savdo esa, iqtisodchilar fikricha, har qanday boylikning yaratuvchisidir. Yuqorida keltirilgan ilmiy g‘oyalar bo‘yicha bunday hududiy mehnat taqsimoti, mintaqalararo va xalqaro savdoda har ikki tomon ham yutadi¹⁴.

Hududiy mehnat taqsimoti mamlakat va rayonlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichi, belgisi bo‘lib xizmat qiladi. U qay darajada keng tashkil qilingan, diversifikatsiyalashtirilgan (ya’ni turlangan) bo‘lsa, mamlakat ham shuncha rivojlangan bo‘ladi. Ayni vaqtda, hududiy mehnat taqsimotining rivojlanmaganligi mamlakatda intensiv emas, ekstensiv iqtisodiyot yo‘nalishi mavjudligi, uning ichki salohiyatidan to‘la foydalanmaslik va hudud iqtisodiy zichligining (sig‘imining) pastligini aks ettiradi. Hududiy mehnat taqsimoti rivojlanmagan sharoitda mamlakatning iqtisodiy makoni to‘laligicha

¹⁴ Aynan, shu masalalarni nazariy ishlab chiqish asosida amerikalik iqtisodchi (geograf) Pol Krugman 2009-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan. Shuni hisobga olgan holda, Jahon bankinging mazkur yildagi ma’ruzasi «Iqtisodiy geografiyaga yangicha nazar» deb atalgan

shakllanmaydi, uning geosiyosiy va iqtisodiy xavfsizligi ta'minlanmaydi, iqtisodiy landshafti zaif va qutbiylashmagan bo'ladi.

Avvallari, hududiy mehnat taqsimotining shakllanishida asosan ichki omillarga, «Butun Ittifoq yoki umumittifoq» imtiyozlarga urg'u berilardi. Hozir esa bu jarayonni, eng avvalo, bozor qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil qilish talab etiladi. Demak, hududda faqat nima yetishtirish qulayligi emas, balki yaratilgan mahsulotning bozor talabiga mosligi, sifati, xaridorgirligi, raqobatbardoshligi muhimdir.

Albatta, «bozorbop» mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ichki imkoniyatlar, shartsharoitlar, qulay investitsiya muhiti ham mavjud bo'lishi kerak. Aks holda hududmamlakat yoki mintaqaning iqtisodiy faolligi yuzaga kelmaydi. Bu xususda, avvalambor, tabiiy sharoit va tabiiy boyliklarning ahamiyati katta. Biroq, ta'kidlash joizki, *tabiiy boyliklarning miqdori emas, ularning turlitumanligi hududiy mehnat taqsimotini keng rivojlantirishga imkon beradi.* Binobarin, tabiiy boyliklarning hududiy birikmalari, majmualari mamlakatda xo'jalikni har tomonlama tashkil qilishga sababchi bo'ladi.

Hududiy mehnat taqsimoti rivojlanishining yana boshqa bir omili *transportdir.* Transport iqtisodiy muhitning «qon tomiri», harakatlantiruvchi kuchi, tashqi miqyosda esa mahsulot ayirboshlash, savdosotiq yurgizishning asosiy shartidir. Shuningdek, hududiy mehnat taqsimotida ishchi kuchi, mamlakatning geosiyosiy va geoiqtisodiy o'rni, ekologik holati, siyosiy barqarorligi, investitsiya va infratuzilma, fantexnika taraqqiyoti kabi omillar ham ahamiyatlidir.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, hududiy mehnat taqsimotini amalga oshirishda uchun ham tashqi, ham ichki sharoitlar muhim rol o'ynaydi va faqat bu ikki tomonning o'zaro muvofiqlashgan holatidagina u yaxshi iqtisodiy samara beradi. Shu bilan birga, hududiy mehnat taqsimoti mahalliy-ichki ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilish, mamlakatning jahon hamjamiyati, xalqaro mehnat taqsimotida faol qatnashish maqsadlari ham birbiri bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi kerak.

Yuzaki qaraganda, hududiy mehnat taqsimoti o'z mohiyatiga ko'ra mamlakat yoki jahon xo'jaligini hududiy bo'laklarga ajratadi, regionlashtiradi, chunki hududlar rivojlanishi, ixtisoslashuvi individuallasadi, «qo'shnisida» yoki ko'pgina boshqa joylarda rivojlanmagan sohalarga ustuvor ahamiyat beriladi. Ammo bunday tor darajada qarash masalaning faqat bir tomonini ifodalaydi, xolos. Sababi, hududiy mehnat taqsimoti mamlakat va rayonlar xo'jaligini ajratish

asosida ularning o‘zaro iqtisodiy aloqalariga, integratsiya jarayonlariga erishiladi. Bu har qanday taraqqiyotning qonuniyatidir, qolaversa, hudud xo‘jaliklari tarqoq, qovushmagan (amorf) mamlakatda milliy iqtisodiyot bir butun, yagona tizim shaklida bo‘lmaydi. Xalqaro miqyosda esa jahon xo‘jaligi ham vujudga kelmaydi.

Hududiy mehnat taqsimotining turli darajalari, bosqichlari mavjud. Ularni ikki yirik guruhga ajratish mumkin: *jahon miqyosidagi hamda davlatlarning ichki mehnat taqsimoti*. O‘z navbatida, ular ham bir necha bosqichlarga bo‘linadi. Masalan, birinchi guruhda (1) *jahon mamlakatlari va xalqaro, ya’ni alohida mamlakatlararo mehnat taqsimoti ajratiladi*. Barcha mamlakatlar orasidagi iqtisodiy munosabatlar jahon xo‘jalik tizimi va bozorini vujudga keltiradi, alohida mamlakatlarning iqtisodiy integratsiya jarayonlari esa yirik mintaqalar iqtisodiy hamkorligi va bozorlarni shakllantiradi.

Chunonchi, 1957-yilda tashkil qilingan Umumiy bozor – hozirgi kunda o‘zining tarkibini muntazam ko‘paytirib borayotgan, 27 ta mamlakatni birlashtiruvchi Yevropa Ittifoqi (YI) bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Shuningdek, dastavval 1967-yilda asos solingan Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarining hududiy uyushmasi (ASEAN) yoki 1989-yilda ta’sis etilgan OsiyoTinch okean iqtisodiy hamkorligi, Shimoliy Amerika erkin savdo uyushmasi (NAFTA) ham shular jumlasidandir. Xuddi shunday, hududiy iqtisodiy ittifoq kelajakda Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) doirasida ham shakllanishi mumkin.

Davlat ichidagi (2) mehnat taqsimoti quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

2.1. Yirik iqtisodiy rayonlararo mehnat taqsimoti.

2.2. Viloyat va boshqa turdagi ma’muriy-hududiy birliklar o‘rtasidagi mehnat taqsimoti.

2.3. Viloyat ichidagi mehnat taqsimoti.

2.4. Mahalliy mehnat taqsimoti.

Bu darajadagi hududiy mehnat taqsimotining tarkibiy tuzilishi mamlakatlar maydonining kattakichikligi, ijtimoiysiyosiy vaziyatga ham bog‘liq. Jumladan, sobiq Ittifoq va jahon sotsialistik tizimining barham topishi hududiy mehnat taqsimotining barcha bosqichlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi, sotsialistik mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar, Umumittifoq mehnat taqsimoti yo‘qoldi.

Siyosiy tizimning tubdan o‘zgarishi, iqtisodiyotni tashkil etish va boshqarishda markazlashgan ma’muriybuyruqbozlik, sotsialistik

rejalashtirish tizimidan ochiq va erkin bozor munosabatlariga o'tish o'ziga xos, muvaqqat muammolarni yuzaga keltirdi. Masalan, sobiq ittifoqdosh respublikalar o'rtasidagi (gorizontal) iqtisodiy aloqalarning buzilishi oqibatida barcha respublikalar-yangi mustaqil davlatlar ayrim qiyinchiliklarga duch keldi. Ayniqsa, bu muammo yuqori darajada rivojlangan, sanoatlashgan respublikalarda keskin tus oldi, chunki mazkur hududlardagi sanoat, asosan og'ir sanoat tarmoqlari ko'p jihatdan tashqi omillarga, mamlakatlararo iqtisodiy integratsiyaga bog'liq bo'lgan. Qisman, bunday qiyinchiliklarni O'zbekistondagi yirik sanoat markazlarida ham ko'rish mumkin. Ma'lumki, hozircha Toshkentdagi yirik mashinasozlik korxonalari, Chirchiq, Angren sanoatining rivojlanish holati uncha yaxshi emas.

Ayni vaqtda, milliy va mintaqaviy iqtisodiyot ko'proq agrosanoat majmuasi bilan bog'liq bo'lgan hududlarda «Umumittifoq» mehnat taqsimotining yo'qolishi katta muammolarga olib kelmadi. Sababi – bu joylarning xo'jaligi asosan ichki omillarga, mahalliy tabiiy sharoit, ishchi kuchi, oddiy texnologiyalarga asoslangandi.

Siyosiy mustaqillikka erishgan mamlakatlarda iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish ularning ichidagi mehnat taqsimotini zaruriyat qilib qo'ydi. Chunki, ilgari tizimda respublikalar iqtisodiy makoni ichki jihatdan turlanmagan, asosan muayyan mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yoki xomashyo bazasiga yo'naltirilgan bo'lgan. Natijada, siyosiy mustaqillikni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash muammosi eng dolzarb bo'lib qoldi. Iqtisodiy mustaqillik esa makroiqtisodiy sohada yoqilg'i-energetika, oziq-ovqat (don), yo'l-transport tizimini jadal rivojlantirish, mamlakat ichki salohiyatidan to'laroq foydalanish, mintaqalarning bozor munosabatlariga tezroq moslashuvi, ularning iqtisodiy faolligini oshirishni taqozo etdi.

Hududiy mehnat taqsimoti qaysi bir ma'noda o'ziga xos *iqtisodiy geografik jarayon* sanaladi; uning natijasida yangi yerlar o'zlashtiriladi, yangi xo'jalik tarmoqlari shakllanadi, iqtisodiyotning tarmoqlar va hududiy tarkibida o'zgarishlar yuz beradi, shahar va iqtisodiy rayonlar, o'sish qutb va markazlari vujudga keladi. Aynan shuning uchun ham *hududiy mehnat taqsimoti iqtisodiy geografiya fanining fundamental tushunchasi hisoblanadi*. Chunki, bu fanning qolgan barcha tushunchalari bevosita yoki bilvosita hududiy mehnat taqsimotidan kelib chiqadi.

Bamisoli katta oilada ota-ona, turli yosh va jinsdagi bolalar kundalik yumushda har birlari o'zlariga biriktirilgan yumushlarni

bajarganlaridek, mamlakat ichidagi mehnat taqsimoti ham uning iqtisodiy jihatdan butligi va birligi, mustahkamligi va mustaqilligini bildiradi. Shu bois, hududiy mehnat taqsimoti mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligini ko'rsatuvchi muhim geoinikator vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, hududiy mehnat taqsimotining quyidagi jihat yoki xususiyatlarini ko'rsatish mumkin:

- hududiy mehnat taqsimoti iqtisodiy geografiya fanining asosiy tushunchasi;
- uning shakllanishi va rivojlanishi mamlakat yoki rayonlar yetukligini belgilovchi ko'rsatkich;
- hududiy mehnat taqsimoti rivojlanishida tabiiy sharoitning turli tumanligi, tabiiy resurslarning hududiy birikmalari katta ahamiyatga ega;
- hududiy mehnat taqsimoti muayyan hududga muayyan mahsulotlar ishlab chiqarishni anglatadi;
- hududiy mehnat taqsimotida ixtisoslashuv asosiy omil hisoblanadi va u, albatta, ichki va tashqi bozorda tovar almashinuvini nazarda tutadi;
- hududiy mehnat taqsimoti rivojlanishida transportning o'rni katta va bu bevosita tashqi iqtisodiy aloqalarni ham vujudga keltiradi;
- hududiy mehnat taqsimoti bilan milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvi bog'liq;
- hududiy mehnat taqsimoti iqtisodiy rayonlar shakllanishining moddiy negizi sanaladi va h.k.

6.3-§. Hududiy ishlab chiqarish majmualari

Hududiy ishlab chiqarish majmualari (HICHM) iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning jahon ahamiyatiga ega bo'lgan nufuzli nazariy yutuqlardan biridir. Uni yaratishda eng avvalo N.N.Kolosovkiyning xizmatini ko'rsatish joiz. XX asrning yigirmanchi yillarida ГОЭЛРО¹⁵, ya'ni Rossiyani elektrlashtirish davlat rejasi doirasida I.G.Aleksandrov ish olib borishda va, ayniqsa, DneproGES loyihasini ishlab chiqish jarayonida rayon kombinatlari haqidagi o'zining nazariyasini yaratdi. O'ttizinchi yillarda esa bu muhim masalani u aniqlashtirdi, chuqur o'rganib rayon ishlab chiqarish kombinatlarini barpo etish lozimligini

¹⁵ ГОЭЛРО – Государственный план электрификации России: “Rossiyani elektrlashtirish Davlat rejasi”

ta'kidladi. N.N.Kolosovskiy I.G.Aleksandrovning rayon ishlab chiqarish kombinatlari to'g'risidagi ta'limotidan Ural, Sibir va Qozog'iston kabi yirik rayonlar misolida amaliy foydalandi, uni boyitdi va shu asosda o'zining rayon komplekslari (kombinatlari, majmualari) to'g'risidagi ilmiy g'oyasini shakllantirdi. Bu, albatta, ilgarigiga qaraganda yangi bir qadam olg'a fikr edi.

N.N.Kolosovskiy 1947-yilda hududiy ishlab chiqarish (aniqrog'i, ishlab chiqarishning hududiy birikmalari, komplekslari) mavzuida maqola chop ettirdi. Uning fikricha, bu nazariyaning asosiy mohiyatini ma'lum bir hududda yoki iqtisodiy rayonda alohida tanlab olingan ishlab chiqarish korxonalarini va aholi punktlarini bir-biri bilan bog'liq holda rivojlanishi va joylanishi tashkil etadi. U ishlab chiqarishning hududiy majmuasini iqtisodiy geografiya fanining tarkibiy qismi ekanligini qayta-qayta ta'kidladi va, ayni paytda, ma'lum hududda joylashgan ishlab chiqarish korxonalar yig'indisi hamma vaqt ham kompleks (majmua) bo'la olmaydi, deb uqtirgan edi. Bunday oddiy hududiy joylashish gruppirovkani tashkil etadi, xolos. Demak, biz qo'shimcha qilar ekanmiz, har qanday hududiy majmua bu guruh, ammo har qanday guruh majmua bo'lavermaydi.

Keyinchalik, HIChM nazariyasini rivojlantirishga N.N.Baranskiy, N.T.Agafonov, A.G.Aganbegyan, M.K.Bandman, N.N.Nekrasov, Y.G.Saushkin, T.M.Kalashnikova, M.D.Sharigin, M.N.Stepanov, A.I.Chistobayev, A.T.Xrushyev, M.M.Palamarchuk, A.G.Batigin, K.N.Bedrinsev, S.K.Ziyodullayev, Z.M.Akramov, A.S.Soliyev, O.Abdullayev, M.A.Abduraxmanov kabi bir qator olimlar o'z hissalarini qo'shdilar.

Tajribalar hamda daliliy materiallar shuni tasdiqlaydiki, hududiy (yoki geografik) mehnat taqsimoti fundamental tushuncha bo'lib, u iqtisodiy rayonlashtirish va hududiy ishlab chiqarish majmualarining vujudga kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, hududiy mehnat taqsimoti birlamchi, qolgan ikki tushuncha esa uning natijasi, hosilasidir.

N.N.Kolosovskiy ishlab chiqarishning hududiy majmualari (yoki hududiy ishlab chiqarish majmualari, bizningcha, bular bir xil ma'noga ega) iborasi iqtisodiy rayonlar to'g'risidagi tushuncha o'rnini egallamasligi kerak; bu iqtisodiy rayonlarning «yadrosi»ni tashkil etadi, xolos, deb uqtirgan edi. Darhaqiqat, hududiy ishlab chiqarish majmualari mazmun va sifat jihatdan, ishlab chiqarish korxonalarini

ma'lum bir nuqtadagi yoki joydagi turg'un birikmasi sifatida iqtisodiy rayonlardan farq qiladi.

So'nggi yillarda bunday qarash biroz o'zgardi: umuman olganda, har qanday bosqichdagi iqtisodiy rayonlar ham hududiy ishlab chiqarish majmualari shaklida ko'rilsa bo'ladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi, Farg'ona vodiysi, Namangan viloyati hududiy ishlab chiqarish majmualari va h.k.

Savol tug'ilishi mumkin: haqiqatda yoki real voqelikda hududiy ishlab chiqarish majmuasi qaerda vujudga keladi va har qanday joyning ishlab chiqarish korxonalari birlashmasini majmua deb atash mumkinmi? Bu yerda, bizning fikrimizcha, masalaga har tomonlama yondoshish kerak va hududiy ishlab chiqarish majmualarining turli xil bo'lishini unutmash lozim. Aks holda, chalkashliklar vujudga kelishi muqarrar.

Albatta, iqtisodiy rayon xo'jaligi o'zining mazmun-mohiyati va maqsadiga ko'ra har tomonlama (kompleks) rivojlanishi lozim. Ana shu nuqtai nazardan iqtisodiy rayonlar xo'jaligini real yoki potentsial hududiy ishlab chiqarish majmuasi sifatida ko'rish mumkin. Bu yerda biz tushunmovchilikka imkoniyat qoldirmaslik maqsadida bunday hududiy ishlab chiqarish majmualarini «*ma'muriy rayonlar darajasidagi majmualar*» deb yuritishni maqbul bo'ladi. N.N.Kolosovskiy aytgan ma'noda, ya'ni ma'lum bir joyda ishlab chiqarish korxonalarining o'zaro bog'liq holda joylanishi va rivojlanishi asosida vujudga kelgan majmualar esa tom ma'noda yoki «*an'anaviy hududiy ishlab chiqarish majmualari*», deb atalishi to'g'riroq. N.N.Kolosovskiy shogirdlaridan biri M.K.Bandman bunday hududiy ishlab chiqarish majmualarni mamlakat ahamiyatiga molik, muhim bir muammoni hal etishga, bir maqsadga qaratilgan *dasturli* yoki *muammoli majmualar*, deb yozadi. Ular, odatda, real voqelikda vujudga keladi va ma'muriy chegaralarga ko'pincha mos kelmaydi. Sababi-mazkur hududiy majmualar asosida qandaydir tabiiy geografik obyektlar, masalan, daryo havzalari, qazilma boyliklar, tog', cho'l va boshqalar yotadi.

Ammo hududiy ishlab chiqarish majmualari qaysi ma'noda tushunilmasin, ular iqtisodiy geografiyani o'rganishda eng muhim va samarali nazariyadir. Bu rayon xo'jaligini muayyan tizim darajasida qarash va uni tarkibiy tuzilishi bo'yicha tahlil qilish, ishlab chiqarish korxonalari orasidagi aloqadorlikni nazarda tutadi.

Haqiqiy hududiy ishlab chiqarish majmualari, asosan, yangi o'zlashtirilayotgan rayonlarda, ulkan tabiiy boylik va, ayniqsa, yoqilg'i-

energetika zaxiralari negizida vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. Tabiiyki, tarixiy rivojlanish davomida avval o'zlashtirilgan yerlarda vujudga kelgan xo'jalikning hududiy tarkibini majmuaga aylantirishga qaraganda, yangi, «sof» yoki «bo'sh» joyda bu maqsadga erishish osonroqdir. Majmua yaratuvchi tarmoq sifatida esa ko'proq yoqilg'i-energetika sanoati asos bo'lib xizmat qilishi ham, shubhasiz, bir holdir. Masalan, Rossiya Federatsiyasidagi Bratsk hududiy ishlab chiqarish majmuasini olaylik (uning dastlabki loyihasini N.N.Kolosovskiy rahbarligidagi olimlar guruhi yaratgan). Bu yerda yirik 4 mln kW dan ortiq quvvatga ega bo'lgan gidroelektr stansiyasi qurildi va bo'lajak suv ombori maydonini o'rmondan tozalash maqsadida yog'och-sellyuloza sanoati vujudga keldi. Arzon elektroenergiyaning mavjudligi energiyani ko'p istemol qiluvchi tarmoqlarni o'ziga «tortdi» va, natijada, bu yerda uchinchi yirik korxonalar-aluminiy zavodi barpo etildi. Rangli metallurgiya va o'rmon sanoati yana «zanjirsimon» tarzda boshqa korxonalar qurilishini (jumladan, mashinasozlik, kimyo) taqozo etdi.

Bunday majmualar O'rta Osiyo mamlakatlarida qulay tabiiy sharoitda, aholi va mehnat resurslari bilan yaxshi ta'minlangan mintaqada va faqatgina energetika emas, balki agroiqlimiy resurslar asosida ham vujudga keladi. Demak, respublikamiz hududiy ishlab chiqarish majmualari sug'oriladigan dehqonchilik, agrosanoat tarmoqlari va mehnatni ko'p talab qiluvchi korxonalarini o'z ichiga olar ekan. Bunga Mirzacho'l yoki Qarshi cho'li asosida shakllanayotgan hududiy ishlab chiqarish majmualarida misol bo'la oladi.

Keng ma'noda hududiy ishlab chiqarish majmualari ham turli bosqichda bo'ladi. Oddiy sanoat yoki agrosanoat tugunidan tortib mamlakat miqyosida vujudga kelayotgan yagona xalq xo'jalik majmuasini ajratish mumkin. Bu ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishda nihoyatda ilg'or va iqtisodiy jihatdan samarador bo'lib, mintaqada yoki alohida viloyatlarning mamlakatimiz mehnat taqsimotida tutgan o'rnini, belgilab beradi.

Hududiy ishlab chiqarish majmualarini iqtisodiy jihatdan samarador ekanligi, eng avvalo, umumiy infratuzilma (*yo'l, suv, yer osti inshootlari, elektr energiya shahobchalari va h.k.*) mavjudligidan kelib chiqadi. Masalan, paxta ekiladigan rayonlarda, odatda, paxta tozalash zavodi, uning yonida yog' zavodi, ularning chiqindilari asosida esa chorvachilik fermasini tashkil etsa bo'ladi. Bu yerda majmua hosil qiluvchi tarmoq-paxtachilik hisoblanadi va u boshqa tarmoq yoki korxonalar joylanishiga sabab bo'ladi. Tabiiyki, bunday korxonalar

alohida-alohida, tarqoq joylashsa, ularning har biri uchun yuqoridagi infratuzilma shahobchalari kerak. Bu esa iqtisodiy jihatdan nomaqbuldir. Agar ularning barchasi bir joyda hududiy tashkil etilsa, katta tejamkorlikka va, binobarin, samaradorlikka (aglomeratsion samaradorlikka, A.Y.Probst bo'yicha) erishiladi. Shu bois aytish mumkinki, *iqtisodiy geografiya fanini «iqtisodiy» qiluvchi asos ham aynan hududiy ishlab chiqarish majmualaridir. Zero, ular ikki kara ikki to'rt emas, besh bo'lishini ta'minlaydi.*

Bu nazariyaning ahamiyati, ayniqsa, mamlakat xalq xo'jaligini boshqarishdagi hududiy tamoyildan to'g'ri foydalanishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Darhaqiqat, mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini hozirgi qayta qurish davrida hududiy dasturlarni keng joriy qilish nihoyatda muhimdir. Hududiy dasturlash tarmoqlar asosida boshqarishga qaraganda mahalliy tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hamda shu joyning atroflicha rivojlantirish imkoniyatlarini har tomonlama hisobga oladi. Bu haqda va, xususan, tarmoqlar bo'yicha boshqarishdagi ayrim kamchiliklarni Chirchiq shahri xo'jaligi misolida ko'rsa bo'ladi. Ma'lumki, bu shaharda o'tmishda mahalliy sharoit, iqtisodiy va tabiiy-geografik o'rin hisobga olinmaganligi sababli yangi sanoat korxonalarini joylashtirish salbiy ekologik oqibatlariga olib keldi.

Hududiy ishlab chiqarish majmualari mavzusini yoritishda mahalliy misollarga murojaat qilish foydalidir. Masalan, Mirzacho'l yoki Qarshi dashtini o'zlashtirish asosida vujudga kelayotgan majmualar to'g'risida fikr yuritish foydadan xoli emas. Ushbu hududiy majmualar o'zlarining ixtisoslashuviga ko'ra agrosanoat majmuasi ekanligini anglash zarur. Shuningdek, keyingi yillarda agrosanoat majmualarini ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishdagi yangi bosqich sifatida shakllanishining katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini ham ko'rsatish kerak. Avvalambor, bu samaradorlik xomashyo va yarim mahsulotni bir joydan ikkinchi joyga olib borish uchun sarf etiladigan transport xarajatlarning qisqarishi, ishlab chiqarish chiqindilari asosida boshqa tarmoqlarning (jumladan, chorvachilikning) rivojlanishi va, eng muhimi, qishloq bilan shaharlar o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirishda o'z aksini topadi.

Ilmiy va amaliy jihatdan respublikamizda hududiy ishlab chiqarish majmualarini yaratishdagi erishilgan yutuqlar to'g'risida ham aytib o'tish o'rinli. Jumladan, O'zbekiston Fanlar akademiyasiga qarashli sobiq Ishlab chiqarish kuchlarini o'rganish kengashida (Совет по изучению производительных сил – СОПС) o'tgan asrning 50-yillarida

olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida rayonlarning kompleks muammolari tushunchasi yoki ilmiy yo'nalishi yaratilgan edi. Bu o'zining geografik o'rni va ma'muriy tarkibiga ko'ra o'ziga xos bo'lgan Farg'ona vodiysi uchun, ayniqsa, ahamiyatli edi.

Hududiy ishlab chiqarish majmualari ham tizim-tarkib g'oyasiga ko'ra ko'p bosqichli, pog'onasimon bo'ladi. Bunda birlamchi element sifatida oddiy korxonalar xizmat qiladi. Sanoat asosida vujudga kelgan hududiy majmualarning negizini, birlamchi elementini sanoat korxonasi tashkil qiladi va u zavod yoki fabrika ko'rinishida bo'ladi.

Tahlillar ko'rsatishicha, N.N.Kolosovskiyning hududiy ishlab chiqarish majmualari g'oyasini qaysi bir jihatdan A.Veberning ishlab chiqarish aglomeratsiyasi ta'limotiga yaqinlik yoki o'xshashlik alomatlari bor. Ammo uning boshqa bir ilmiy g'oyasi – *Energiya ishlab chiqarish sikllari* ta'limotiga hech qanday e'tiroz bo'lmasligi kerak. Chunki u bu g'oyani bevosita amaliyotdan kelib chiqqan holda (N.N.Kolosovskiy o'zining asl kasbi bo'yicha muhandis-iqtisodchi bo'lgan) yaratgan.

Energiya ishlab chiqarish sikllari ma'lum xomashyo va energiya (bu yerda energiya keng ma'noga ega) bazasida ishlab chiqarishning texnologik jihatdan uzluksiz, hatto uning chiqindilari asosida tashkil etilishini nazarda tutadi. Bunda, Y.G.Saushkin iborasi bo'yicha, daraxtning tanasi-asosiy ishlab chiqarish tarmog'i (qora yoki rangdor metallurgiya, kimyo sanoati, dehqonchilik va h.k.), uning shoxlari esa ana shu asosiy ishlab chiqarish jarayoni bilan texnologik jihatdan bog'liq bo'lgan qo'shimcha tarmoq yoki tarmoqchalarning ayrim korxonalaridir.

N.N.Kolosovskiy o'z davrida qora metallarning pirometallurgik sikli, rangdor metallar, mashinasozlik, neft-gaz-kimyo, agroindustrial, o'rmon-yog'och-sellyuloza kabi 8 ta asosiy energiya ishlab chiqarish sikllarini ajratgan. Hozirgi kunda ularning soni 20 ga yaqinni tashkil qiladi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, *energiya ishlab chiqarish sikllari aslo hududiy birlik emas, aksincha ular ishlab chiqarishning texnologik uyushmasidir*. Shu bois, bunday sikllar nisbatan kattaroq hudud miqyosida vujudga keladi. Ko'rinib turibdiki, HICHM va energiya ishlab chiqarish sikllari bir-biridan tubdan farq qiladi; ikkinchisi birinchisining o'zagi bo'lishi mumkin, ammo uning o'zginasi emas. HICHM larning kartada ko'rsatish yoki aks ettirsa bo'ladi, energiya ishlab chiqarish sikllari esa to'liq holda bunday imkoniyatlarga ega emas.

Yana shuni e'tirof etish lozimki, umuman ilmiy nuqtai nazardan to'g'ri bo'lgan hududiy ishlab chiqarish majmualari g'oyasi sobiq Ittifoq sharoitida ko'zda tutilgan natijalarni to'laligicha bermadi. Sababi, bunday majmualar nihoyatda katta hududlarda «rejalashtirildi», ma'muriy chegaralar e'tiborga olinmadi, ijtimoiy va ekologik omillar nazardan chetda qoldirildi, eng muhimi – ularning yagona «egasi», ya'ni boshqaruv organlari bo'lmadi. Vaholanki, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda hududiy majmualar aynan nisbatan kichik miqyosda yaratildi va ularning faoliyati davlatning mintaqaviy hamda munitsipial siyosatida boshqarilib, tartibga solinib boriladi.

Shunday qilib, HIChMlarning ilmiy nazariy asoslari taniqli olim Nikolay Nikolayevich Kolosovskiy tomonidan yaratildi. U ushbu masalani iqtisodiy rayonlashtirish muammolari bilan bog'liq ravishda o'rgandi. Umuman olganda, N.N.Kolosovskiyning bunday dunyoqarashiga uning transport (temiryo'l transporti) muhandisi ekanligi va geografiya uchun an'anaviy ahamiyatga ega bo'lgan kompleks yondashuvining uyg'unligi asos bo'ldi; «hudud + kompleks» ishlab chiqarishning hududiy birikmalari yoki majmualarini (komplekslarini) tashkil etadi.

Chindan ham kompleks-majmuaning¹⁶ ilmiy-amaliy ahamiyati katta. Chunonchi, u:

- √ tabiiy sharoit va tabiiy resurslardan atroflicha foydalanish;
- √ ishlab chiqarishni mumkin qadar chiqindisiz yo'lga qo'yish;
- √ ishlab chiqarishni tizim-tarkib asosida hududiy tashkil qilish;
- √ iqtisodiy geografiya va uning asosiy tushunchasi bo'lgan iqtisodiy rayonlarni o'rganish;
- √ iqtisodiy rayonlar xo'jaligi tarkibini qayta qurish va boshqalarda ahamiyatlidir.

Aytish mumkinki, agar N.N.Kolosovskiy transport muhandisi, ya'ni o'ziga xos injenerlik fikrlash qobiliyatiga ega bo'lmaganda, ehtimol, bunday ilmiy cho'qqilarga, olamshumul yutuqlarga erisha olmasdi. Chunki, transport hamma vaqt masofa va uni kesib (kezib) o'tish, tashish, olib o'tish kabi ma'nolarni bildiradi; masofani mumkin qadar qisqartirish, yaqinroq yo'l qidirish esa har qanday muvaffaqiyatning garovi, *iqtisodiy geografik samaradorlikning* asosi hisoblanadi. Shu o'rinda tayyor mahsulot tannarxi, qiymatida transport

¹⁶ «Kompleks» – baynalmilal tushuncha bo'lib, u birikma, birlashma, majmua, u yoki bu hodisalarning o'zaro aloqadorlikda, ta'sirda mavjudligini anglatadi

xarajatlari hatto 50-60 foizgacha yetishini unutmazlik kerak. Qolaversa, ishlab chiqarish korxonalarining qulay yoki noqulay joylashuvi, mahsulotning qiymat yoki arzon bo'lishi ko'p jihatdan aynan transport omiliga bog'liq.

Demak, ishlab chiqarish tarmoqlarini ma'lum iqtisodiy makonda o'zaro aloqadorlikda joylashtirish, transport omilini e'tiborga olish, barcha yordamchi tarmoqlarni (hozirgi zamon tilida – infratuzilma shahobchalarini) umumiy tarzda tashkil etish katta iqtisodiy samaradorlikga olib keladi. Bunday samaradorlikga energiya, xomashyo, ishchi kuchi va boshqa omillardan to'g'ri foydalanish, «masshtab samaradorligi» (mujassamlashuv) negizidagina emas, balki «xilma-xillik» samaradorligi asosida ham erishiladi.

Dastlabki iqtisodiy rayonlar joylarda yirik elektr stansiyalar qurish va ularning ta'sir doirasini aniqlash nuqtai nazaridan energetika, *energiya ishlab chiqarish rayonlari* deb atalgan. Keyinchalik bu rayonlarda xo'jalik tizimining bir tomonlamaligiga yo'l qo'ymaslik, mahalliy sharoit va imkoniyatlardan to'laroq foydalanish, aholi ehtiyojlarini qondirish, transport harajatlarini qisqartirish va ortiqcha, iqtisodiy jihatdan nomaqbul, uzoq masofadagi transport qatnovlarini kamaytirish kabi omillarni e'tiborga olib, iqtisodiy rayonlar xo'jaligini *kompleks* ravishda tashkil etishga ustuvor ahamiyat berildi. Asosiy iqtisodiy rayonlarning xo'jaligini kompleks, majmualiy bo'lishi (rayonlar miqyosidagi HICHMlar) yoki ularning iqtisodiyotini kompleks tamoyili negizida yaratish muhim hisoblanadi.

N.N.Kolosovskiy «ishlab chiqarish kombinati», «rayonlar ishlab chiqarish kombinati» tushunchalarini ishlatdi. Bunda «kombinat» so'zining ko'proq korxonalar doirasiga tegishligi va turli xil terminologik chalkashliklarga o'rin qoldirmaslik uchun «kompleks» so'zi ma'qulroq. U o'z davrida ishlab chiqarishning hududiy birikmasi (kompleksi) to'g'risida yozgan edi, keyinchalik esa bu tushuncha, muallifning vafotidan so'ng hududiy ishlab chiqarish majmualari deb atala boshladi.

HICHM – muayyan geografik nuqta yoki alohida rayonda, uning tabiiy va iqtisodiy sharoitlari, transport va iqtisodiy geografik o'rniga muvofiq korxonalarni to'g'ri tanlab olish va joylashtirish hisobidan iqtisodiy samaradorlikga erishadigan ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish shaklidir.

HICHMlar g'oyasi, birinchidan, iqtisodiy rayonlar xo'jaligini kompleks rivojlantirish va, ikkinchidan, N.N.Kolosovskiyning Ural-Kuznetsk kombinati (UKK) va Baykalbo'yi («Angarqurilish»)

komplekslari loyihalarini yaratish va ularni amalga tadbiq etish jarayonida yuzaga keldi. Ushbu tushuncha ilk bor Irkutsk-Cheremxovo majmuasiga nisbatan ishlatildi. Albatta, bunda muallifning muxandislarga xos fikrlashi, transport-temiryo‘l qurilishi mutaxassisi bo‘lishi ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning, Rossiya (sobiq Ittifoq) iqtisodiy geografiya fanining HICHMlar va iqtisodiy rayonlar to‘g‘risidagi yutug‘ini, hatto, rivojlangan mamlakatlar – AQSh va Germaniya ham tan olgan; bevosita muallifning o‘zi 1948-yilda Fransiyada ushbu muammolar va ularning amaliy yechimi haqida ilmiy ma’ruzalar qilgan.

HICHMlar iqtisodiy rayonlarning shakllanishi jarayonida muhim taktik va strategik vosita hisoblanadi. O‘z navbatida, bunday majmualarning o‘ziga xos, individual xususiyatlarini aniqlashda, ularni alohida tiplarga ajratishda N.N.Kolosovskiy «energiya ishlab chiqarish sikllari» («energiya ishlab chiqarish rayonlari»ga mos holda) usulini yaratdi va undan unumli foydalandi. Bu yerda, N.N.Kolosovskiy bo‘yicha, «energiya» – quvvat, kuch, harakat, faoliyat ko‘rsatish ma’nolarini anglatadi.

Ta’kidlash joizki, N.N.Kolosovskiy HICHM va energiya ishlab chiqarish sikllarini ko‘proq sanoatni tashkil etishga nisbatan ishlatgan. Shuningdek, u iqtisodiy rayonlar va bu ikki tushunchani o‘zaro aloqadorlikda qo‘llagan: iqtisodiy rayonlar asosini HICHM lar, ularning asosini esa energiya ishlab chiqarish sikllari tashkil qiladi. Ushbu tushunchalarning barchasini ayni vaqtda ham usul (metod), ham vosita sifatida qarash mumkin.

Shunday qilib, iqtisodiy geografiya fanining uchta asosiy tushunchasi: iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy ishlab chiqarish majmualari va energiya ishlab chiqarish sikllari mashhur olim, geografiya fanlari doktori, professor Nikolay Nikolayevich Kolosovskiyga taalluqli. Shu bilan birga, u transport geografiyasi bo‘yicha ham katta tadqiqotlar olib borgan. N.N.Kolosovskiy qator shogirdlar tayyorlagan. Ular jumlasiga I.M.Maergoyz, S.N.Ledovskix, V.F.Pavlenko, I.I.Belousov, T.M.Kalashnikova, M.K.Bandman, A.T.Xrushyev, N.N.Kazanskiy va boshqalar kiradi. Hatto, sobiq Ittifoqda ilk bor mintaqaviy iqtisodiyot to‘g‘risida monografiya yozgan N.N.Nekrasov ham N.N.Kolosovskiy ilmiy rahbarligida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

So‘nggi yillarda yangi, *klaster* g‘oyasi ham vujudga keldi. Uning yaratuvchisi amerikalik olim M.Porter (2002) hisoblanadi. Mohiyatan,

ushbu g'oya ham HIChM, energiya ishlab chiqarish g'oyalariga o'xshab ketadi. Faqat HIChMda hududiy birlik, EISda – texnologik jarayon asosiy sanaladi. Klaster esa muayyan bir hududda barcha korxonalar va tashkilotlarning ma'lum sohada katta yutuqlarga erishish, uning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida mujassamlashuvi, uyushmasi, birgalikda harakat qilish demakdir. Klasterga kirgan soha yoki korxonalar (u ishlab chiqarish, ijtimoiy bo'lishi mumkin) o'zining o'рни va ahamiyatini saqlab qolishi uchun kurashishi kerak. Aks holda u klasterdan chiqib ketishga majbur. Aynan shu mazmunda klasterlar sobiq Ittifoq davrida ishlab chiqilgan *maqsadga dasturli yondashuv* («программно – целевой подход») – ga ham yaqin turadi.

Klasterlar majmualar singari tarmoqlar va hudud darajasida shakllantiriladi. Masalan, respublikamizda «Paxta», «Turizm», «Milliy transport tizimi» kabi klasterlarni, hududiy jihatdan esa erkin iqtisodiy zonalar (Navoiy EIZ, Angren MIZ), alohida o'sish qutb va markazlari ham klaster shaklida rivojlanib borishi ko'zda tutilmoqda.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, klaster va hududiy majmualar nafaqat ishlab chiqarishda, balki ijtimoiy sohalarda, noishlab chiqarish, aholiga xizmat ko'rsatish, servis sohalarda ham real mavjud. Fanimizning iqtisodiylikidan iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga aylanishi bunday hududiy majmualar borligini ham hisobga olishni talab qiladi. Chindan ham har xil hududiy majmualarni kundalik hayotimizda ko'rishimiz mumkin. Toshkent shahridagi Talabalar shaharchasi, Akademiklar shaharchasi, Tibbiyotchilar shaharchasi kabilar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Avtomobillarga servis xizmatini ko'rsatish, savdo shahobchalari, dorixona + poliklinika + kasalxona, universitet + yotoqxonalar + kutubxonalar + sport zali va boshqalar ham o'ziga xos hududiy majmualardir.

Binobarin, geografiya fani uchun o'ta muhim bo'lgan kompleks yondashuv turli xil va yo'nalishdagi hududiy majmualarni tahlil, tadqiq va tashxis qilish bilan boshqa fanlardan ajralib turadi.

6.4-§. Iqtisodiy rayonlashtirish

Hududiy mehnat taqsimoti va uning doimiy «yo'ldoshi» bo'lgan ixtisoslashuv natijasida iqtisodiy rayonlar shakllanadi. Ular esa mamlakat iqtisodiyotining hududiy tarkibini tashkil qiladi. Ammo hududiy tarkib faqat iqtisodiy rayonlar to'ridan iborat emas, u ma'muriy birliklar, tabiiy geografik va gidrografik omillar asosida ham belgilanishi mumkin.

Iqtisodiy rayonlar mintaqaviy iqtisodiyot va mintaqaviy siyosatning obyekti hisoblanadi. Agar ilgari iqtisodiy rayonlashtirish xalq xo‘jaligini planlashtirish maqsadida ajratilgan bo‘lsa, hozirgi sharoitda ular ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishning asosiy shakli, davlat mintaqaviy siyosatining obyekti, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni tartibga solib borish va boshqarish uchun zarur. Qolaversa, iqtisodiy rayonlarsiz mamlakat xo‘jaligi ichki tuzilishi, hududiy tarkib va tizimini geografiyasini o‘rganish ham qiyin. Aynan ana shu maqsadlarda iqtisodiy rayonlashtirishning amaliy ahamiyati yanada oshib bormoqda. Masalan, Rossiya Federatsiyasida 12 ta yirik iqtisodiy rayonlar negizida 7 ta federal okruglar ajratilgan. O‘zbekistonda ham iqtisodiy rayonlashtirish mamlakatni ijtimoiysiyosiy tashkil etish va boshqarish uchun kerak.

Iqtisodiy rayonlashtirish mamlakat hududining katta-kichikligiga unchalik bog‘liq emas, eng muhimi iqtisodiy makon ichki jihatdan turlangan, hududiy mehnat taqsimoti rivojlangan bo‘lishi talab etiladi. Ichki tafovutlar qanchalik katta bo‘lsa, iqtisodiy rayonlar to‘ri va tizimi ham shuncha rivojlangan bo‘ladi. Chunonchi, maydoni juda katta bo‘lgan, alohida qit‘ada joylashgan Avstraliya mamlakatida asosan 4 ta iqtisodiy rayon ajratiladi, xolos, vaholanki, unga qaraganda ancha kichik bo‘lgan Yevropa davlatlarida bir qator rayonlar shakllangan.

Iqtisodiy rayonlarning turlari va shakllari ko‘p; ular butun mamlakat hududini o‘z ichiga olishi (unda maydon, iqtisodiy ahamiyatidan qat‘iy nazar, turli qismlarga bo‘linadi) yoki uning alohida joylarida, ya’ni diskret holda ajratiladi. Bundan tashqari, iqtisodiy rayonlar umumiy (integral) va tarmoq rayonlarga bo‘linadi. Shuningdek, mamlakat hududi ijtimoiy-iqtisodiy va sotsial rayonlarga ham ajratilishi mumkin. Ammo, bu rayonlarning hududiy ko‘lami bir-biridan farq qiladi; odatda, iqtisodiy rayonlarga ko‘ra ijtimoiy-iqtisodiy rayonlar kichikroq, ulardan esa sotsial rayonlar yanada kichikroq bo‘ladi. Bunday farqlar har xil turdagi rayonlardagi rayon hosil qiluvchi omillarga bog‘liq.

Ba‘zan iqtisodiy rayonlar *iqtisodiy geografik rayonlar* deb ham yuritiladi. Bu yerda jiddiy farq ko‘rinmaydi, zero har qanday rayon o‘z mohiyat va mazmuniga ko‘ra geografiyadir. Shu bois, «geografiya» atamasini ishlatish zaruriyati yo‘q; «hududiy joylashtirish» tushunchasi qanchalik joylashtirish uchun shart bo‘lmasa, iqtisodiy rayonlashtirishda ham «geografiya» so‘zi shunchalik ortiqchadir.

Iqtisodiy rayonlar turli omillarga qarab ajratiladi. Ular quyidagilar:

 hududiy mehnat taqsimoti va hududiy ixtisoslashuv;

- ✚ bozorga mo'ljallangan tovar mahsulot ishlab chiqarish, bozor makonining shakllanganligi;
- ✚ tabiiy sharoit va qazilma boyliklar, ularning hududiy birikmalari;
- ✚ aholi va mehnat resurslari;
- ✚ rayon hosil qiluvchi va uni tashkil etuvchi markazning yoki markazlarning mavjudligi;
- ✚ iqtisodiy geografik o'rin;
- ✚ transport to'rtining rivojlanganligi;
- ✚ mintaqaviy infratuzilma va investitsiya muhitining shakllanganligi.

Barcha rayon hosil qiluvchi omil va tamoyillar ikki katta guruhni tashkil qiladi: iqtisodiy (bozor iqtisodiyoti, mujassamlashuv, ixtisoslashuv, kompleks rivojlanish, transport) va hududiy yoki geografik (tabiiy sharoit va tabiiy boyliklar, infratuzilma va aholi joylashuv tizimi, geografik o'rin). Bu ikki asosiy qism birligi, ya'ni «iqtisod + hudud» iqtisodiy rayon atamasini shakllantiradi. Shuningdek, fantexnika taraqqiyoti, ekologiya kabilar ham rayon chegaralarini aniqlashda ma'lum ahamiyatga ega.

Yuqoridagi omil va shartlarga ko'ra mamlakatning iqtisodiy makoni bir necha rayonlarga bo'linadi. Hozirgi sharoitda ayniqsa bozor ta'sir doirasi katta ahamiyatga ega. Nemis olimi A.Lyosh ham iqtisodiy landshaftlarni (ya'ni rayonlarni) bozor makoniga qarab ajratgan edi. Shu nuqtai nazardan qaraganda rayon hosil bo'lishi uchun 2 ta muhim shart bor: rayon hosil qiluvchi markaz va rayon hosil qiluvchi ixtisoslashgan iqtisodiyot tarmog'i. O'zimizda mahalliy xalq o'zi shu qishloq rayonida yashab turib, tuman markaziga borishni rayonga borib kelish mazmunida talqin qiladilar. Demak, rayon deganda nimanidir hudud yaqinida, atrofidagi degan ma'no kelib chiqadi. Ayni chog'da ba'zi olimlar iqtisodiy rayonlarning obyektiv borligiga shubha bildiradilar (masalan, amerikalik R. Xartshorn) va ular faqat rasmiy chegaralarni tan oladilar. Bu xususda aytish joizki, umuman yoki barcha sohalarni qamrab oladigan «hammabop» rayonlar yo'q, balki aniq sohalarning real hududiy tarkib va tizimlari, rayonlari mavjud.

Hududiy mehnat taqsimotiga o'xshash iqtisodiy rayonlar ham pog'onasimon bo'ladi. Chunonchi, mamlakat ichida bir necha iqtisodiy rayonlarni birlashtiruvchi yirik iqtisodiy mintaqqa, asosiy iqtisodiy rayonlar, ma'muriy-iqtisodiy rayonlar, viloyat ichidagi rayonlar va, nihoyat, mahalliy ma'muriy – iqtisodiy rayonlar (bizning respublikamizda – qishloq tumanlari) bor. Ularning har biriga turli darajadagi bozorlar mos keladi.

Har bir iqtisodiy rayonning o'ziga xos rayon hosil qiluvchi omil va ishlab chiqarish tarmog'i mavjud. Ba'zi rayonlar shakllanishida qazilma boyliklar, boshqasida – transport geografik o'rin, uchinchisida–malakali ishchi kuchi, to'rtinchisida yirik shaharlar va, ayniqsa, poytaxt shahar omili muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Hatto joyning geologik tuzilishi bilan iqtisodiy rayonlashtirish o'rtasida ham aloqadorlik mavjud. Bu haqda dastlab taniqli rus olimi Y.G.Saushkin fikr bildirgan edi.

Odatda, kombinatlashuvga va hamkorlikka moyil tarmoqlarning rayon hosil qilish salohiyati kuchli bo'ladi. Masalan, neft va neftni qayta ishlash sanoati, qora va rangli metallurgiya, to'qimachilik, mashinasozlik va boshqa tarmoqlarda bu holat kuzatiladi. Shuningdek, bunday rolni transport, rekreatsiya, xalqaro turizm ham bajarishi mumkin.

Iqtisodiy rayon o'ziga xos hududiy majmua va hududiy tizimni tashkil etadi. Albatta, bu yerda rayon, kompleks va tizim (sistema) tushunchalari aynan bir mazmunga ega emas, ammo ularning birbirlariga yaqinligini ham inkor etish noo'rindir. Har qanday iqtisodiy rayon kompleks, hududiy majmua prinsipiga asoslanadi. Bu komplekslik, eng avvalo, turli daraja va ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarning mavjudligi, ularning o'zaro muvofiqlashgan holda mutanosib rivojlanishida o'z ifodasini topadi.

Chunonchi, har bir rayonda ixtisoslashgan, ya'ni bozor ahamiyatiga ega bo'lgan tarmoq va tarmoqlar, ularni to'ldiruvchi yordamchi, ikkinchi darajali tarmoqlar va mahalliy ehtiyojlarga qaratilgan mahalliy bozorni to'yintiruvchi tarmoqlar bo'ladi. Shu 3 bo'g'inning qaysi biri shakllanmagan bo'lsa, u holda to'la qonli iqtisodiy rayon to'g'risida so'z yuritish qiyin. Har bir yirik iqtisodiy rayon bazaviy tarmoqlarga ega bo'lishlari kerak. Ularga, masalan, elektroenergetika, qurilish industriyasi kabilar kiradi. Ayni vaqtda, bu tarmoqlar yuqoridagi 3 guruhdan iborat bo'g'inlarning biriga ham kirishi mumkin.

Demak, ana shu mazmunda iqtisodiy rayonni hududiy ishlab chiqarish majmuasi shaklida talqin qilsa bo'ladi. Ammo real hududiy ishlab chiqarish majmualari bilan rayon ishlab chiqarish majmualari bir xil emas; birinchisi, haqiqiy borliq bo'lsa, ikkinchisi ko'p jihatdan ma'muriy-boshqaruv ma'nosidagi majmuadir. Jumladan, Angren-Olmaliq yoki Qarshi hududiy ishlab chiqarish majmualari bilan Toshkent viloyati yoki Qashqadaryo hududiy majmualari birbiridan farq qiladi. Bundan tashqari, iqtisodiy rayonda bir emas, bir necha hududiy ishlab chiqarish majmualari bo'lishi va, ayni vaqtda, majmua hosil qiluvchi tarmoqlar ham mavjud bo'ladi. Hududiy ishlab chiqarish

majmualari iqtisodiy rayonlarning o'zagini, asosini tashkil qiladi, ammo rayonning o'zi emas. Yana shuni ta'kidlash joizki, har qanday rayon ilmiy o'rganishning yoki bilim egallashning o'ziga xos usulidir; u klassifikatsiya va tipologiya singari umumiy guruhlash turlariga kiradi. Binobarin, *rayon hududiy guruhlash demakdir, biroq har qanday guruh kompleks yoki sistema bo'la olmaydi*. Kompleks esa birlik, uyg'unlikni, texnologik aloqalarni anglatadi. Agar aniqroq qaraladigan bo'lsa, tizim (sistema) tushunchasi yanada murakkabroq bo'lib, uning o'ziga xos talab va shartlari bor. Jumladan, tizim tarkibdan yoki «tizimcha»dan tashkil topishi, pog'onasimon – iyerarxiyali bo'lishi, mustaqil faoliyat ko'rsatish, turg'unlik, boshqaruv kabi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Tabiiyki, bunday darajada yondoshilsa, har qanday rayon va hatto majmua ham haqiqiy tizim bo'la olmaydi. Tizim uchun ichki va tashqi, vertikal va gorizontal aloqalar xos, uning muhim jihati hududiy tashkil etishdir, bu esa, o'z navbatida, boshqaruvga asos bo'ladi.

Biroq, shunga qaramasdan, iqtisodiy rayon hududiy majmua va hududiy tizimlardan unchalik uzoq emas. Chunki, iqtisodiy rayon mamlakat hududining ma'lum bir xo'jalik tarmog'iga (yoki tarmoqlariga) ixtisoslashgan va bu jihatdan qo'shni, tutash hududlardan farq qiluvchi, umumiy iqtisodiy landshaft shakliga ega bo'lgan qismidir. U yaxlit iqtisodiy makon sifatida hududiy tizim ma'nosini anglatadi.

Shunday qilib, rayonlashtirish ilmiy tadqiqot jarayoni, usul, rayon esa uning natijasi, ob'ektiv borliqdir. N.N.Baranskiy, V.M.Chetirkin kabi buyuk olimlar rayonlashtirishni umumgeografik metod sifatida e'tirof etganlar, uning ko'p sonli va turli hodisalarni bir tartibda keltirishda, real geografik voqelikni aks ettirishda eng muhim vosita ekanligini e'tirof etganlar¹⁷.

Iqtisodiy rayon hududiy mujassamlashuv va hududiy ixtisoslashuvning o'zaro uyg'unlashgan, ishlab chiqarishni joylashtirish va hududiy tashkil qilish, ushbu jarayon iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi muhim omil yoki shakldir. Zero, har qanday iqtisodiy rayon yoki mintaqa biror bir xo'jalik tarmog'ini boshqa joylarga qaraganda bu yerda ko'proq to'planganligi, mujassamlashganligi, rivojlanligi demakdir.

Iqtisodiy rayonlashtirishning eng qadimiy yo'nalishi qishloq xo'jaligini joylashtirish bilan bog'liq. Sababi, qishloq xo'jaligining hududiy tashkil etish xususiyatlari, ya'ni uning arealsimonligi

¹⁷ Ammo ta'kidlash zarurki, tabiiy geografiyada rayon okrug va provinsiyadan keyingi o'rinda turadigan taksonomik birlik bo'lsa, iqtisodiy geografiyada okruglar tumanlararo, viloyat ichidagi iqtisodiy rayon miqyosida ajratiladi

makroiqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ko'ra yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bois, mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiy geografiya va iqtisodiyot tarixi ko'p jihatdan qishloq xo'jaligini rayonlashtirish va joylashtirish tarixi bilan belgilanadi. Bejiz emaski, O'zbekistonda ham bu boradagi ilmiy ishlar aynan ana shu tarmoqni joylashtirish va rayonlashtirish bilan boshlangan (V.M.Chetirkin, K.N.Bedrinsev, N.G.Sapenko, Z.M.Akramov, K.I.Lapkin, Q.N.Abirqulov, R.A.Hodirov va boshqalar).

Iqtisodiy rayonning hududiy tizimga yaqinligini yana bir tomoni shundaki, u ayni vaqtning o'zida ham monogen, ham gomogen xususiyatga ega. Agar tizim tarkib uslubiyoti nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, iqtisodiy rayon tashqi jihatdan, ya'ni «yopiq» tizim shaklida asosan bir xillik landshaftdir, ichki jihatdan yoki «ochiq» tizim shaklida esa u turlituman, ichki tafovutlarga boy hududiy birlikni anglatadi.

Mohiyatan, iqtisodiy rayon mamlakat ma'muriy-hududiy tarkibini tashkil etish va boshqarishda katta amaliy ahamiyatga ega. Ammo, bu yerda ma'muriy-hududiy masalalarning ayrim hollarda subyektivligi, yuqoridan tashkil qilinishi va iqtisodiy rayonlashtirishning «ichkaridan», obyektiv holda shakllanishi o'rtasida nomuvofiqliklar kelib chiqadi. Boz ustiga, ma'muriy birliklar chegarasi va soni tez-tez o'zgarib turadi, iqtisodiy rayon esa ancha turg'unlikka ega. E'tirof etish joizki, bizning mamlakatimizda iqtisodiy rayonlar to'ri va tizimi (hozircha) rasman tan olinmagan, ular bo'yicha hisob-kitoblar, statistik ma'lumotlar ham to'planmaydi. Biroq, iqtisodiy rayonlar shakllanishi bevosita hududiy mehnat taqsimotining natijasidir, hududiy mehnat taqsimoti esa har qanday mamlakatlarda amal qiladi va ularsiz rivojlanishning o'zini ham tasavvur qilib bo'lmaydi. Qachonki, iqtisodiy rayonlar nazariyasi hukumat darajasida amalga ko'chsagina, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar optimal darajada tashkil etiladi, hududiy rivojlanish yanada tezlashadi.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Hududiy mehnat taqsimoti nima uchun iqtisodiy geografiyaning fundamental tushunchasi deb ataladi?*
- 2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning kalit tushunchasi qaysi va u qanday mazmun-mohiyatga ega?*
- 3. Hududiy ishlab chiqarish majmualari qay tarzda shakllanadi?*

7-BOB. ISHLAB CHIQRISHNING IJTIMOIIY VA HUDUDIIY TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Mavzu annotatsiyasi. *Mazkur mavzuda ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish qonuniyatlari va prinsiplari tahlil qilingan. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning ijtimoiy (mujassamlashuv, ixtisoslashuv, kooperatsiya, kombinatsiya) va hududiy (sanoat korxonasi, sanoat punkti, sanoat markazi, sanoat aglomeratsiyasi, sanoat rayoni, sanoat parki) tashkil etish shakllarining mazmun-mohiyati yoritib berilgan.*

Tayanch soʻz va iboralar: *mujassamlashuv, ixtisoslashuv, kooperatsiya, kombinatsiya, sanoat korxonasi, sanoat punkti, sanoat markazi, sanoat aglomeratsiyasi, sanoat rayoni, sanoat parki.*

Reja:

- 7.1. Iqtisodiy tamoyillar: qonun va qonuniyatlar haqida tushuncha.
- 7.2. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari.
- 7.3. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish shakllari.



7.1-§. Iqtisodiy tamoyillar: qonun va qonuniyatlar haqida tushuncha

Bozor iqtisodiyotiga oʻtish va bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini oqilona rivojlantirish va joylashtirish muhim ilmiy xulosalarga tayangan holda, davlatning amalga oshirayotgan iqtisodiy siyosatining asosini tashkil qiladi. Chunki, mavjud sharoitdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni chuqur ilmiy tahlil qilish negizida, uning obyektiv qonuniyatlarini oʻrganish va aniq xulosalar chiqarish mumkin. Ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil qilishni takomillashtirish negizida samarali, barqaror rivojlanib boruvchi ishlab chiqarish tizimini yuzaga keltirish tom maʼnoda tabiat va jamiyat qonun va qonuniyatlarining anglashni, ularni chuqur tahlil asosida ilmiy ishlanmalar ishlab chiqish hamda amaliyotga qoʻllashni taqozo qiladi.

Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishning asosiy tamoyillari:

✓ ishlab chiqarish tizimlarini xomashyo manbaalari, yoqilgʻi va energo resurslar, isteʼmol mintaqalariga yaqin joylashtirish;

✓ g'oyat yuqori samarali bo'lgan tabiiy resurslarni o'zlashtirish va majmualiy foydalanish tizimini barpo qilish;

✓ mamlakat va mintaqalarda ekologik holatni sog'lomlashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishning samarali mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish, tabiatdan foydalanishning boshqaruv tizimini takomillashtirish;

✓ xalqaro kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish va qulay geostrategik mavqeidan samarali foydalanish asosida xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokini chuqurlashtirib, kengaytirib borish yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni rivojlantirish;

✓ yirik shaharlarning haddan tashqari rivojlanishini tartibga solish, kichik va o'rta shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtirish, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tabaqalanish jarayonini boshqarish, iqtisodiyot tarmoqlari dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etishdan iborat.

Qonun – tabiat va jamiyatdagi voqea va hodisalarning (o'zaro aloqadorligini) barqaror takrorlanib turuvchi sabab-oqibat bog'lanishlarini ifodalasa, qonuniyat voqea va hodisalarning ketma-ketligining barqarorligini va qonunlar majmuasining o'zaro uyg'unligini ifodalaydi. Ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish asosida yuqori foyda beruvchi samarali ishlab chiqarish tizimini rivojlantirish to'g'risidagi g'oyalar o'zining uzoq tarixiga ega.

Tabiiyki, har qanday ilmiy tadqiqot ma'lum bir *qonun* yoki *qonuniyatlarni* aniqlashi va asoslab berishi shart. Biroq, geografiyada qonuniyatlar (shuningdek, dissertatsiyalarda ilmiy yangiliklar), muayyan obyektiv geografik sharoit yoki borliqda takrorlanib turadigan sabab oqibat mushtarakligi aslo ma'muriy birlikka emas, hududlarga tegishlidir. Ma'muriy tuzilmalarda esa (mamlakat, viloyat, shahar, qishloq tumani) umumiy qonuniyatlarning o'ziga xos ko'rinishi, jihati, aniqrog'i xususiyatini aniqlash mumkin. Binobarin, geografiya fanida qonuniyatlar bilan bir qatorda *hududiy xususiyatlar* ham katta ahamiyatga ega. Bu xususiyatlar, betakrorlik va tipik hodisalarni o'rganish, o'z navbatida, geografik taqqoslash usulidan foydalanishini nazarda tutadi. Unutmaslik kerakki, har qanday joy o'ziga xos xosiyat va xususiyatga ega, geografning maqsadi esa aynan shu joyning xususiyatini (sifatini), nimaga qodirligi, vazifasi, sig'imi hamda funksiyasini asoslab berishi, bu imkoniyatlardan qay darajada va qanday foydalanish yo'llarini belgilab berishdan iboratdir. Shu jihatdan, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning ustun tushunchalari, tamoyillaridan

tashqari fanning mohiyatini o'zida aks ettiruvchi bir necha tushuncha va qonuniyatlar bo'lib, ularning aksariyati professor A.S.Soliyev tomonidan kiritilgan yoxud aniqlashtirilgan. Jumladan:

Iqtisodiy geografik jarayon amalda hududiy mehnat taqsimotining rivojlanib borishini anglatadi. Yangi yerlarning, qazilma boyliklar yoki boshqa tabiiy resurslarning o'zlashtirilishi, milliy va mintaqaviy iqtisodiyot hududiy tarkibining o'zgarishi va takomillashuvi, diversifikatsiyasi, ularning natijasida yangi magistral yo'l va shaharlarning (markazlarning) vujudga kelishi, umuman olganda, hududlar «geometrik geografiyasi», iqtisodiy landshafti yoki kartasining shakllanishi va rivojlanishi ushbu jarayon mohiyatini aks ettiradi. Demak, iqtisodiy geografik jarayon ham ichki (intensiv), ham tashqi (ekstensiv) xususiyatiga ega.

Iqtisodiy geografik vaziyat hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlar to'ri va tarkibi, mamlakat va boshqa joylarning iqtisodiy sig'imi, ularning ichki tafovutlari, rayon yoki hududiy majmua hosil qiluvchi asosiy markazlarining mavjudligi va o'zaro hududiy munosabati orqali belgilanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy geografik vaziyati, eng avvalo, uning ishlab chiqarish, demografik va infratuzilma salohiyatining ko'proq voha va vodiylarida hududiy mujassamlashuvi bilan tavsiflanadi. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti yoki sanoat ishlab chiqarishining asosan Toshkent shahri, Toshkent va Navoiy viloyatlarida yuqori darajada rivojlantirilganligi, respublika mintaqalarida iqtisodiy «zichlik» va xo'jalik ixtisoslashuvining turli tumanligi ham ushbu vaziyatni ifodalab beradi. Ayniqsa, shaharlar va yo'llar, hududning tayanch nuqta va chiziqlari, o'sish qutb va markazlari bu vaziyatni yaqqol namoyon qiladi.

Joyning tog'lilik koeffitsiyenti. Ushbu ko'rsatkich, oddiy holda, tog' egallagan hududning mintaqa yoki mamlakatning umumiy maydoniga nisbati orqali aniqlanadi. O'zbekistonda u taxminan 0,21 (21%); Surxondaryo viloyatida 0,70 (70%) atrofida (agar bu ko'rsatkich 1,00 (100%) ga teng bo'lsa ko'rilayotgan hudud to'liq tog'lik hisoblanadi. Respublikamizning ko'pgina qishloq tumanlarida ozmi-ko'pmi tog' hududlari bor, biroq ularni barchasini «tog'li» rayonlar deb atab bo'lmaydi. Agar ko'rilayotgan ko'rsatkich respublika o'rtacha darajasidan yoki, aniqrog'i 50 foizdan yuqori bo'lsa, bunday hududlarni shunday ta'riflash mumkin. O'zbekistonda tog'li qishloq tumanlarining soni 30 taga yaqin va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tekislikda joylashgan hududlar bilan aloqadorlikda amalga oshadi.

Geografiylik yoki hududiylik koeffitsiyenti joyning (mamlakat, mintaq va h.k.) ichki tafovutlari, uning rang - barangligini ko'rsatadi. Odatda, u eng yuqori va eng past ko'rsatkichlar nisbati orqali belgilanadi va «karra» yoki «marta» so'zlari bilan baholanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi aholisining zichligi Andijon viloyatida 1 km² maydonda 780 kishi, Navoiy viloyatida esa 9 kishi (2024-yil): «hududiylik» yoki geografiylik koeffitsiyenti 86,6 barobarga teng. Bu respublika tabiiy va iqtisodiy geografik jihatdan juda katta ichki hududiy tafovutlarga ega ekanligidan dalolat beradi. Keltirilgan misolda Andijon viloyati aholisining zichligi Navoiy viloyatiga nisbatan 86,6 marta yuqori (O'zbekistonda o'rtacha 1 km² maydonga 82 kishi to'g'ri keladi).

Bunday ko'rsatkichni turli sohalarda va turli hududiy darajada qo'llash mumkin: aholi tabiiy harakati, sug'oriladigan yer (maydon) ulushi, mintaq yoki qishloq tumanlari eksport salohiyati, transport to'rlarining zichligi, aholining kasallanish ko'rsatkichlari va h.k. «Geografiylik koeffitsiyent» qancha kichik bo'lsa, ichki hududiy tafovutlar oz bo'ladi va, aksincha. Mazkur ko'rsatkichni tahlil qilishda qo'shnichilik holati katta mazmun kasb etadi. Chunki, tabiatda ham, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ham ikki qo'shni joy bir-biridan keskin farq qilmaydi. Shu bois, geografiyadagi chegaralar ko'p hollarda mutloq aniqlikka ega emas va inkorni inkor qonuniga binoan, har birida ikki tutash hududning unsurlari, alomatlari uchrab turadi. Chegaralar qaysi bir joyning – landshaftning, tabiiy-xo'jalik rayonning oxiri bo'lsa, qo'shni hududning avvali, boshi hisoblanadi.

Geojuftlar yoki hududlar dialektikasi. O'zbekistonda geojuftlar (geoparalar) tushunchasiga professor L.A.Alibekov katta ahamiyat bergan. Umuman olganda esa, bunday geojuftlar real voqelikda juda ko'p va ularsiz butun borliq, taraqqiyot ham mumkin emas. Geojuftlar hududiy tafovut yoki birikmalar, majmualarining o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, ular biri-birini to'ldiradi, bir-birini taqozo qiladi. Fikrimizcha, suv bilan quruqlik, cho'l va voha, shahar va qishloqning o'zaro joylashuvi, «hamkorligi» va hududiy munosabatlari ham geojuftlar sifatida talqin qilinishi mumkin. Keng ma'noda geojuftlar butun borliqning negizini, jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil qiladi.

Oraliq shaharlar qonuni. Odatda, yirik shahar o'zining bevosita yonida yana boshqa aynan shunday kattalikdagi shaharning vujudga kelishiga «yo'l qo'ymaydi», to'sqinlik qiladi. Demak, shaharlarning o'z ta'sir zonasi, raqobat muhiti bo'ladi. Ko'pincha ikki yirik shahar ta'sir zonasi susaygan, zaiflashgan yoki tugagan nuqtada yangi shahar vujudga

keladi va u raqobatsiz tez rivojlanadi. Masalan, mamlakatimizning qadimiy shaharlari – Samarqand va Buxoro o‘rtasida Navoiy shakllanib, qisqa muddatda yirik shaharlar qatoridan joy oldi. Bunday darajaga esa qadimiy G‘ijduvon yoki Kattaqo‘rg‘on erisha olmadi.

Ekologik geografik o‘rin ma’lum bir hududning (viloyat, tuman, shahar va b.) o‘zidan tashqarida joylashgan ekologik mazmunga ega bo‘lgan hududlarga nisbatan o‘rnashganligini anglatadi. Masalan, Xorazm viloyatining ekologik yoki geoekologik o‘rni uning Amudaryo, Tuyamuyin suv ombori, Orol dengizi va Qizilqum cho‘llariga, Surxondaryo viloyatining Uzun, Sariosiyo tumanlarining ekologik holati esa Tojikiston Respublikasining Regar (Tursunzoda) alyuminiy zavodiga yaqinligi bilan tavsiflanadi.

Nozogeografik vaziyat aholi kasallanish ko‘rsatkichlaridagi hududiy tafovutlar, turli hududlarning alohida kasalliklarga «ixtisoslashuvi», ularning hududiy tarkibi, nozogeografik o‘choq va markazlar, areal, rayonlarning hududiy munosabati demakdir. Bunday o‘choq va areallar respublikamizning turli hududlarida mavjud. Chunonchi, Orolbo‘yi mintaqasi o‘ziga xos nozogeografik rayon; Surxondaryo viloyatining sharqiy qismi va Angren–Olmaliq hududi areal; Qo‘qon yoki Qoravulbozor turli xil kasalliklarning o‘chog‘i, markazi sanaladi.

Geokriminogen vaziyat jinoyatchilikning hududiy tarkibi va darajasi, har xil hududlarning u yoki bu turdagi jinoyat ko‘rsatkichlari, xavfli kriminogen uchog‘ yoki markazlarning (bozor, mozor, vokzal va h.k.) o‘zaro hududiy joylashuvi demakdir. Shuningdek, jinoyatchilik geografiyasida qishloq va shahar joylar, sanoat markazlari, transport tugunlari, chegarada joylashgan aholi punktlari, transchegaraviy hududlar va yo‘llar o‘ziga xos huquqbuzarlik bilan ajralib turadi. Shu bois, ushbu ilmiy yo‘nalishning geografik jihatlari ham katta.

7.2-§. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari

Iqtisodiyot rivojlanishi uning ijtimoiy va hududiy tashkil etilishi bilan bog‘liq. Ishlab chiqarishning bunday shakllari esa muayyan bir jarayonning ikki tomoni bo‘lib, u mohiyatan ijtimoiy va hududiy (geografik) mehnat taqsimoti xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shu sababdan, ularni birbiriga mutlaqo teskari qo‘yib bo‘lmaydi, chunki katta yoki kichik, u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish, albatta, ularni ma’lum hududda joylashtirish orqali amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning *mujassamlashuv, ixtisoslashuv, hamkorlik (kooperatsiya) va kombinatlashuv* kabi ko‘rinishlari mavjud. Bular ham o‘zaro aloqadorlikda rivojlanib boradi va ko‘pincha birgalikda sodir bo‘ladi. Ularning astasekin takomillashib borishi, birbirlari bilan uyg‘unlashuvi fantexnika taraqqiyoti, jamiyat rivojlanishi bilan hamkorlikda yuz beradi. Mujassamlashuv va ixtisoslashuv ishlab chiqarishni ijtimoiy (hududiy) tashkil qilishning nisbatan oddiyroq shakllari hisoblanadi. Biroq, ayni ana shu shakllarning o‘zgarib borishi qolgan shakllar, ishlab chiqarish jarayoniga katta ta’sir etadi.

Mujassamlashuv – ishlab chiqarishning ma’lum obyekt (korxonalar, shahar, hudud)da to‘planish jarayonini ifodalaydi. Tabiiyki, jamiyat rivojlanishi bilan mujassamlashuv darajasi ham oshib boradi. Shu nuqtai nazardan, o‘ziga xos mujassamlashuv qonuniyati mavjud; bir vaqtlar mahsulotlar uncha katta bo‘lmagan korxonalarda ishlab chiqilgan bo‘lsa, keyinchalik ular astasekin yiriklashib borgan (sanoat korxonalarida 100 ming kishidan ziyod ishchi xizmat qilgan, juda katta ko‘lamda mahsulot ishlab chiqarilgan). Masalan, Rossiya Federatsiyasidagi «AvtoZil» korxonasi, Magnitogorsk metallurgiya kombinati, SayanShushen yoki Krasnoyarsk GES, o‘zimizning O‘zbekistondagi Olmaliq tog‘kon metallurgiya kombinati, Toshkent, Farg‘ona to‘qimachilik kombinatlari shular jumlasidandir. Xuddi shunday, sobiq Ittifoq davrida qishloq xo‘jaligida ham juda katta kolxoz va sovxozlar, chorvachilik fermalari, noishlab chiqarish sohalarida yirik kinoteatrlar, o‘rta va oliy maktablar, savdo do‘konlari, stadionlar tashkil qilingan edi.

Ishlab chiqarishning mujassamlashuvi katta iqtisodiy samaradorlikka (*mujassamlashuv, aglomeratsiya samaradorligi*) olib kelsada, bu jarayon cheksiz emas va uni har qanday sharoitda ham ijobiy baholab bo‘lmaydi. Demak, mujassamlashuv qonuniyatining ham o‘zining chegarasi, me‘yori mavjud. Ammo, bu bilan mujassamlashuv o‘z mohiyatini yo‘qotmaydi, balki u o‘z shaklini o‘zgartiradi, xolos.

Mujassamlashuv sanoat misolida juda aniq ko‘rinadi, chunki ushbu makroiqtisodiyot tarmog‘ining hududiy tashkil etish aniq, nuqtasimon bo‘ladi. Bu borada ishlab chiqarish fondlari, yalpi mahsulot yoki ishchi va xizmatchilarning turli yiriklikdagi korxonalarda yig‘ilishi, to‘planishini sof holdagi ishlab chiqarish yoki *korxonalar mujassamlashuvi*, ularning shaharlar va rayonlarda joylashuvini esa *urbanistik* va *hududiy mujassamlashuv* sifatida ko‘rsatish o‘rinli. Mujassamlashuvning bu shakllari biribiriga o‘tib turadi va turli rayon

yoki mamlakatlarda har xil birikmada bo‘ladi. Chunonchi, shaharning markazlashuv darajasi ma’lum bir bosqichga yetgandan keyin o‘ziga xos vaziyat vujudga keladi, ya’ni endi mazkur shaharda qo‘shimcha korxonalarni qurish imkoniyati qolmaydi. Ekologik, uyjoy, transport muammolari keskinlashadi, qurish uchun yer maydoni ham yetishmaydi va, ayni paytda, yangi korxonalar bu markazdan olisda joylashuvni ham «istamaydi». Shunday qilib, yirik shaharda ham emas, undan uzoqda ham emas; shaharning ichki imkoniyati yo‘q, korxonalar esa undan yiroqlasha olmaydi. Natijada, yangi korxonalar yoki ilmiy tekshirish muassasalari, oliy o‘quv yurtlari yirik shaharning ta’sir doirasida o‘rnashadi – shahar aglomeratsiyasi yoki sanoat tuguni vujudga keladi.

Yuqorida keltirilgan mulohazalarga misol qilib Toshkent atrofida joylashgan go’sht kombinati (O‘rtaovul shaharchasi), Toshkent IES, Toshkent agrar universiteti (Yalang‘och manzilgohi), Yadro fizikasi instituti (Ulug‘bek shaharchasi), Alkogolsiz ichimliklar kombinati (Qibray) va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Toshkent aholisi ehtiyoji va xo‘jaligi, respublika uchun zarur bo‘lgan bu korxonalarni poytaxtda qurishning iloji yo‘q. Lekin ular iste’molchi, sanoat, ilmfan markaziga yaqin bo‘lmog‘i, zamonaviy infratuzilma tizimiga ega bo‘lishi lozim. Bundan yana bir xulosa, ya’ni ishlab chiqarish mujassamlashuvi bilan shahar rivojlanishi o‘rtasidagi munosabat (qonuniyat) kelib chiqadi. Dastlab shaharning vujudga kelishi va ulg‘ayishida ishlab chiqarishning mujassamlashuv yetakchi rol o‘ynaydi, keyinchalik esa shaharning o‘zi ishlab chiqarishning omiliga aylanadi.

Endi turli shakldagi mujassamlashuvga misol keltiraylik. Masalan, O‘zbekiston sanoat mahsulotining yarmidan ko‘pini har birida 2000 dan ortiq ishchi ishlaydigan korxonalar ishlab chiqaradi, deb faraz qilaylik. Bu ishlab chiqarish yoki korxonalar darajasidagi mujassamlashuvdir. Toshkent shahrida mavjud korxonalar O‘zbekiston Respublikasi sanoat mahsulotining taxminan 12-15 foizini beradi – bu *urbanistik mujassamlashuv* bo‘ladi. Agar Farg‘ona vodiysini respublikamizning asosiy pilla yoki meva maskani, neft mahsulotlari yoki o‘simlik yog‘i chiqaruvchi rayoni sifatida ko‘rsak, u holda sof ko‘rinishdagi *hududiy mujassamlashuvni* nazarda tutgan bo‘lamiz.

Mujassamlashuvning yuqori yoki pastligi ayni paytda ma’lum bir sohaning rivojlanganlik darajasini belgilaydi. Bu yerda «umumiy maxraj» bo‘lib shahar, viloyat yoki boshqa bir joyda yashovchi aholining ulushi, hissasi xizmat qiladi. Aytaylik, Farg‘ona vodiysida O‘zbekiston Respublikasi aholisining 28 foizi joylashgan. Agar u yoki

bu ishlab chiqarish ko'rsatkichi shu raqamdan qancha yuqori bo'lsa, u holda mazkur ishlab chiqarish tarmog'i vodiya rivojlangan, iqtisodiy mujassamlashgan bo'ladi.

Korxonalar, urbanistik va hududiy mujassamlashuv turli rayon yoki mamlakatlarda har xil birikma hosil qiladi. Nisbatan past darajadagi urbanistik mujassamlashuvda korxonalar yoki ishlab chiqarish mujassamlashuvi yuqori bo'lishi ham mumkin. Bunga kichikroq shaharda, masalan, Xivada katta gilam kombinatining joylashuvi misol bo'la oladi. Xuddi shunday, past darajadagi urbanistik mujassamlashuv yuqori ko'rsatkichdagi hududiy mujassamlashuvga ham olib keladi. Bu holda mazkur hududda juda ko'p kichik sanoat punkti yoki markazlari mavjud bo'ladi. Aynan shunday vaziyatni 80yillarda respublikaning ko'pgina viloyatlaridagi (Andijon, Buxoro, Farg'ona, Qashqadaryo, Namangan, Xorazm va b.) to'qimachilik korxonalarining tarqoq, filiallar asosida joylashganligida uchratamiz. Shu bilan birga, past darajadagi hududiy mujassamlashuv yuqori urbanistik ko'rsatkich bilan ham uyg'unlashgan holda keladi. Chunonchi, bir vaqtlar Fransiya deganda, avvalo uning poytaxti Parij, Vengriya ramzida esa Budapesht tushunilar edi. Hozir ham Xitoy Xalq Respublikasida Shanxayning, Turkiya iqtisodiyotida esa Istanbulning o'рни nihoyatda katta va h.k; bunday mujassamlashuv ishlab chiqarishning markazlashuviga ham olib keladi.

Shunday qilib, yuqori darajadagi mujassamlashuv, ayniqsa, o'ta yirik korxonalarni barpo etish hamma vaqt ham ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan samarali emas. Bunday hollarda tayyor mahsulotni transportda tashish xarajatlari ko'payadi, ishchi kuchi yetishmaydi va eng muhim-ekologik muvozanat buziladi. Xo'sh, qaysi darajadagi mujassamlashuv ma'qul, degan savol tug'iladi. Axir, ayni bir hajmdagi mahsulotni turli xil birlikdagi korxonalar, shahar yoki rayonlarda ishlab chiqarish mumkin-ku! Bu yerda ham bir tomonlamalik, qat'iylik noo'rindir. Binobarin, turli xil yiriklikdagi korxonalar, ularning texnologik va boshqa xususiyatlariga ko'ra kattakichik shaharlar bo'lgani maqsadga muvofiq. Demak, mujassamlashuv obyektiv qonuniyat, biroq u barcha mamlakatlarga xos va iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lsada, uning ma'lum chegarasi, ko'lami bo'lishi shart.

Mamlakatning birgina, aksariyat hollarda poytaxt shahar asosida rivojlanishini Lotin Amerikasi davlatlarining yaqin o'tmishdagi taraqqiyoti yoki hozirgi Afrika mamlakatlari misolida ko'rishimiz mumkin. Ushbu mamlakatlar o'z ijtimoiy-iqtisodiy borlig'ini ularning eng yirik markazi bo'lgan poytaxt (port) shahrida mujassamlashtiradi.

Bunday hollarda ishlab chiqarishning bir tomonlama yoki nomutanosib hududiy tarkibi o'ta markazlashgan mujassamlashuvni bildiradi. Respublikada ham faqat Toshkent yoki Toshkent viloyatini rivojlantirib, qolgan mintaqalarni o'z holicha qoldiraverish yaramaydi, albatta. Shu bois Qoraqalpog'iston Respublikasi, Namangan, Xorazm, Surxondaryo, Jizzax kabi viloyatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish mustaqil davlatning ilmiy asoslangan mintaqaviy siyosatida o'z aksini topmog'i lozim.

Markazlashuv mujassamlashuvning bir ko'rinishidir. Bu yerda ishlab chiqarish korxonalari yoki boshqa tashkilotlar va sohalarning atigi birgina shaharda joylashuvi tushuniladi. Ayni paytda ,mamlakat yoki xo'jalik boshqaruvining bunday tizimi yakka hokimlikmonopoliyaga olib kelishi turgan gap, bu esa bozorerkin iqtisodiyot sharoitida raqobat muhitini shallantirish nuqtai nazaridan maqsadga nomuvofiqdir. Ta'kidlash joizki, o'tish davri iqtisodiyotida barcha sohalarning kichik bo'lgani ma'qulroq. Chunki, ular harakatchan, mabodo kasod bo'lganda, inqirozga uchraganda, tez va oson qayta ixtisoslashtiriladi; bunday ixcham korxonalarni boshqarish ham qiyin emas. Ammo, kichik korxonalar asosan mahalliy bozorni to'yintiradi va shu jihatdan ularning raqobatbardoshligi, eksport salohiyati o'ta past. Qolaversa, xo'jalikning, jumladan, sanoatning barcha tarmoqlarida ham (masalan, avtomobilsozlik, neftni qayta ishlash, kimyo va b.) mayda hajmdagi korxonalarni qurib bo'lmaydi. O'z navbatida, to'g'ri tashkil etilgan yirik korxonalar mintaqa va milliy iqtisodiyotning tayanchi, mamlakat qudratini, uning jahon bozorida qatnashuvini ta'minlaydi.

Hududiy mujassamlashuv qishloq xo'jaligi va, ayniqsa, transportda uncha sezilarli emas, chunki ularning joylashuvi «nuqtasimon» bo'lmay, balki areal (maydon) va lentasimon shaklga ega. Bunday mujassamlashuv aholi joylashuvida, aholi manzilgohlarning katta-kichikligida, sog'liqni saqlash, ta'lim tizimi, savdo, sport, madaniyat va boshqa ijtimoiy sohalar korxonalarini tashkil qilishda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Biroq, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mazkur tarmoqlarda ham hozirgi davrda faqat yirik korxonalarni qurish ijobiy natijalar bermasligi mumkin.

Tarixan qaraganda, ixtisoslashuv mujassamlashuvdan oldin paydo bo'lgan. Zero, dastlabki ijtimoiy mehnat taqsimoti oila a'zolarini-ayol va erkaklarni turmushning turli sohaloriga ixtisoslashuvida o'z aksini topgan (ayollar uy yumushlari bilan, erkaklar ovchilik bilan

shug‘ullanardilar). Ma’lumki, bu davrda kishilar tabiatda mavjud bo‘lgan oziqovqat bilan kun kechirishgan.

Ixtisoslashuv – ishlab chiqarishning asosan bir xil mahsulot tayyorlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy shakli bo‘lib, mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlarning tarkib topishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Uning uch bosqichi va uch turi mavjud.

Ixtisoslashuvning uch bosqichi – *korxon*a, *shahar* va *rayon* miqyosidagi ixtisoslashuvdir. Boshqacha qilib aytganda, ularning har biriga ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida ma’lum bir mahsulotning ishlab chiqarilishi biriktiriladi. O‘z navbatida, ixtisoslashuv shu korxon

(u fermer xo‘jaligi bo‘lishi ham mumkin), shahar yoki rayonlarning «qiyofasini», ularning mehnat taqsimotida tutgan o‘rnini belgilab beradi. Ixtisoslashuvning uch turi – bu *qism* (detal), *texnologik yoki yarim mahsulot* (polufabrikat) va *predmet* (tayyor mahsulot ishlab chiqarish) ixtisoslashuvidan iborat. Uning bunday ko‘rinishlari birbiri bilan uzviy bog‘liq va ular turli hududiy bosqichda o‘zgacha xususiyatga ega.

Ixtisoslashuv oqibatida xo‘jalikning har xil tarmoqlari vujudga keladi, iqtisodiy rayonlar, shaharlarning funksional tiplari shakllanadi. Shu bilan birga, u tashqi transport iqtisodiy aloqalarini taqozo etadi, chunki ishlab chiqarilgan va mahalliy iste’moldan ortib qolgan mahsulot chetga chiqariladi va mazkur rayonda yetishmaydigan mahsulot esa boshqa joylardan keltiriladi.

Ixtisoslashuvni aniqlash uchun bir necha shart va sharoitlar zurrur. Muhimi – mahsulot faqat shu joy talabini qondiribgina qolmay, balki ortiqchasi boshqa rayonlarga – bozorga chiqarilishi yoki tovar xususiyatiga ega bo‘lishi kerak. Masalan, respublikamiz pilla, tog‘kon, tabiiy gaz sanoati, avtomobilsozlik va boshqa sohalarga ixtisoslashgan. Ammo uni ip yoki ipak gazlamasi, neft sanoatiga ixtisoslashgan deyish biroz mushkulroq, sababi bu mahsulotlar O‘zbekistonda hozircha yetarlicha ishlab chiqarilmaydi va ular mahalliy talabni to‘la qondirganicha yo‘q.

Ixtisoslashuv, albatta, faqat moddiy ishlab chiqarishga tegishli emas. U barcha ijtimoiy jabhalarga ham molik xususiyatdir. Qolaversa, ayrim oliygohlar *o‘qituvchi*, boshqalari *agronom*, *muhandis*, *shifokor* kabi mutaxassislarni tayyorlaydi. Sababi, u oliygohlar aynan ana shunday xodimlarni tayyorlashga ixtisoslashgan. Ixtisoslashuvning ham mujassamlashuv kabi o‘zining chegarasi bo‘lishi lozim; o‘ta tor ixtisoslashuv bir tomonlamalikka (*ijtimoiy hayotda tor fikrlashga*), yo‘l xarajatlarining ko‘payishiga olib keladi. Ulkan korxonlarni qurish

qanday zararli bo'lsa, haddan tashqari tor ixtisoslashuv, yakkahokimlik ham shuncha xatarlidir. Iqtisodiyotda faqat (yoki asosan) bir sohaga ixtisoslashuv – bu hududning muvaqqat qudrati, baxti va ayni vaqtda uning badbaxtligi, fojiasi bo'lishi mumkin (*ijtimoiy hayotda ham xuddi shunday*).

Afsuski, yaqin o'tmishda mamlakatimiz qudrati, uning rivojlanganlik darajasi «yirik», «eng katta», «yagona» kabi tushunchalar bilan ifodalanar, «birinchi» bo'lishi esa ko'p hollarda qolgan barcha sohalarda qoloqlikni anglatar edi. Ammo bu mulohazalardan noto'g'ri xulosa chiqarish ham kerak emas, chunki ixtisoslashuvsiz shahar, tuman, viloyat, iqtisodiy rayonlarning, qolaversa, jamiyat va kishilarning o'zini ham rivojlanganligini tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun ixtisoslashgan tarmoqlar bilan birgalikda boshqa yordamchi yoki ikkilamchi sohalarda ham hech bo'lmaganda mahalliy ehtiyoj doirasida tashkil etilgan bo'lishi lozim. Bu yerda professor A.S.Soliyev ta'бири bilan aytganda, ixtisoslashgan tarmoqni daraxtning tanasiga, daryoga; qo'shimcha tarmoqlarni esa daraxtning shox va shoxchalariga; daryolarning irmoqlariga o'xshatish o'rinli. O'zo'zidan ma'lumki, tanasiz shox ham bo'lmaydi, shoxsiz daraxt esa bu oddiy butadir; irmoqsiz daryo ham barkamol daryo tizimini shakllantirmaydi.

Demak, ixtisoslashuv kompleks, har tomonlama rivojlanish bilan uyg'unlashuvi kerak. Zero, ixtisoslashuvda yo'l qo'yilgan xatolar oqibatini hozirgi kunda sezib turibmiz. Bu kamchiliklar, ayniqsa, sobiq ittifoqdosh respublikalarning o'zaro iqtisodiy aloqalarini buzilishida o'z aksini topmoqda. Shu sababli, e'tibor ko'proq har bir mamlakatning mumkin qadar atroflicha rivojlanishiga qaratilmoqda. Albatta, bunday taraqqiyot O'zbekistonni jahon hamjamiyatidagi boshqa mamlakatlardan farq qildiruvchi, uning o'rnini belgilab beruvchi ixtisoslashgan tarmoqlarni takomillashtirish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Mintaqa va mamlakatlarning u yoki bu mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi, eng avvalo, ulardagi mutloq va nisbiy afzalliklarga bog'liq (A.Smit, D.Rikardo); bu yerda yaratilgan mahsulot uni boshqa joyda yetishtirishdan ko'ra arzonroq, kam xarajatliroq bo'lishi kerak. Odatda, har bir mamlakat yoki uning alohida qismlari o'zidagi qulay va arzon omillardan foydalanib, qiyin va qimmat omil mahsulotlarini chetdan olib keladi. Bunday qonuniyatni dastlab shved iqtisodchilari XX asrning 30yillarida E.Xeksher va B.Olinlar asoslab berishgan.

Ixtisoslashuvning ham tub mohiyati, maqsadi iqtisodiy samaradorlikni oshirishdir. Tabiiyki, bir kishining har xil mahsulot

yaratish yoki har xil kasb bilan shug'ullanishidan ko'ra muayyan ishni ko'proq bajarishi foydali. Qolaversa, mehnatning bir turini uning ikkinchi turi bilan almashuvi davomida vaqt ham ketadi, ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati yaxshi bo'lmaydi. Ammo, bu yerda sof ijtimoiy ixtisoslashuv kishining fikr doirasini toraytiradi, uni oddiy robotga aylantirib qo'yadi. Ko'rinib turibdiki, ijtimoiy hayotda ham, ishlab chiqarishda ham tor ixtisoslashuv yaxshi natijalar bermaydi.

Hozirgi rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, o'zimizda ham bozor munosabatlariga mos ravishda iste'mol, talab individuallashtirib, xususiylik bormoqda. Avvallari bir mamlakat yoki rayon mahsulotning bir turiga ixtisoslashgan va u bilan mintaqaviy va jahon bozorida qatnashgan bo'lsa, endigi sharoitda o'sha mahsulotning o'zi turli shaklga, ko'rinishga ega. Masalan, yengil mashinalar, oziqovqat mahsulotlari va boshqalar faqat bir turda bo'lishi ularning raqobatbardoshligi va xaridorligini ta'minlamaydi. Binobarin, endigi sharoitda konveyr usuli, miqdor ko'rsatkichlari muhim emas; aksincha «*postfordizm*», masshtab (miqdor) samaradorligining o'rniga turfa xillik, sifat samaradorligi oldinga surilmoqda. Bir kishiga yoqqan narsa boshqalarga yoqmasligi, bugungi kunda yaxshi bo'lgan mahsulotlar ertaga ma'naviy eskirishi kabi holatlar ixtisoslashuvning tez-tez o'zgarib turishiga olib keladi.

Hozirgi fantexnika taraqqiyotidan foydalanish asosida yangi-yangi mahsulot turlari paydo bo'lmoqda yoki ular zamonaviy texnologiyalar yordamida arzon va oson yo'llar bilan ishlab chiqilmoqda. Bunday innovatsiyalarning «hayot sikli» vujudga kelishi, rivojlanishi, astasekin barcha mamlakatlarda tarqalishi va, nihoyat, ularning o'rniga boshqalarning kelishi va «so'nishi» bilan belgilanadi. Shunga o'xshash yangiliklarning tarqalishi yoki diffuziya qonuni, tadbirkorlik iqtisodiyot nazariyasida Yozef Shumpeter (XX asr birinchi yarmida) va Torsten Xegerstrand (1953) tomonlaridan asoslangan.

Demak, ixtisoslashuv ham mujassamlashuv kabi rivojlanganlikning muhim ko'rsatkichidir. Aynan, ular iqtisodiy geografiya fanining tub mohiyatini belgilab beradi. Barcha kishilarda og'iz, quloq, qo'l bo'lganidek, hamma mamlakatlarda ham oziq-ovqat, yengil sanoat, elektr-energetika, qurilish korxonalarini bor. Biroq ularning shunchaki mavjudligi joylarning iqtisodiy geografiasini ifodalamaydi; bunday joylarning ta'rifi oddiy tasviriy geografiya bo'ladi, xolos. Haqiqiy iqtisodiy geografiya uchun esa nima borligigina emas, balki uni qay darajada rivojlanganligi, ya'ni ixtisoslashuv va mujassamlashuv darajasining yuqoriligi, ularning

boshqa joylardan farqi xosdir. Ammo, har ikki shaklning ham chegarasi bo‘lishi kerak. Xuddi shu nuqtai nazardan kooperatsiya yoki hamkorlik yanada samaraliroq hisoblanadi. Bu o‘rinda aytish mumkinki, kooperatsiya ixtisoslashuv bilan yaqindan bog‘liq va usiz vujudga kelmaydi. Chunki, har qanday kooperatsiya turli kasb, hunar, mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashganlarning hamkorligidan boshqa narsa emas.

Kooperatsiya pirovard natijada muayyan bir mahsulot yaratish uchun turli korxonalarining hamkorligidir¹⁸. Bu korxonalar faqat bir yoki ikki tarmoqqa tegishli bo‘lmasligi mumkin. Shu bilan birga, kooperatsiyada hududiy birlik, barcha ixtisoslashgan korxonalarining bir joyda o‘rinlashuvi uncha sezilmaydi va, aksincha, ularning tarqoq holda joylashuvi kuzatiladi.

Kooperatsiyada qatnashuvchi korxonalar soni ishlab chiqariladigan mahsulotning murakkabligiga bog‘liq. Chunonchi, mashinasozlikda, aniqrog‘i yengil va yuk mashinalarini ishlab chiqarish uchun juda ko‘p ehtiyot qismlar, detallar kerak. Shu bois, bunday mashinalarning yaratilishida yuzlab ixtisoslashgan korxonalarining ulushi bor. Masalan, Moskvada yengil avtomobil zavodi, Shtutgardagi Mercedes-Benz konserni, Asakadagi avtomobilsozlik zavodi va shunga o‘xshash gigantlar yuzlab korxonalar bilan hamkorlik qiladi. Modomiki asosiy, yakunlovchi yoki yig‘uvchi bosh korxonalar ko‘p joydan asbobuskunalar, detallar va jihozlar olar ekan, u transport geografik jihatdan, innovatsiya, investitsiya va infratuzilma muhiti qulay joyda qurilishi zarur. Soddaroq qilib aytganda, kooperatsiya birgalikda har xil ishni yagona natija asosida (maqsadida) bajarish demakdir. Uning eng qadimiy shakli manufaktura bo‘lib, u dastavval Angliyada to‘qimachilik sanoatida vujudga kelgan. O‘zimizda «hashar» yo‘li bilan kanal yoki uy-joylarni qurish ham qaysi bir ma’noda kooperatsiyani anglatadi.

Kombinatsiya yoki kombinatlash kooperatsiyaga o‘xshab korxonalar birlashmasidan iborat. Ammo bu yerda tarqoq holda joylashgan birlik emas, balki ularning *hududiy umumiyli*gi, *texnologik* va *tashkiliy birligi* tushuniladi. Shu sababli, kombinatsiyada, kooperatsiyadan farqli o‘laroq, hududiylik xususiyati ko‘proq namoyon bo‘ladi. Binobarin, unda mujassamlashuv yaqqol ko‘zga tashlanadi, sababi ko‘p hollarda kombinatlashuv muayyan xomashyoni birgalikda, atroflicha qayta ishlash bilan bog‘liq.

¹⁸ Qaysi bir maqsadga erishish uchun turli tashkilot va korxonalarining hududiy jihatdan mujassamlashuvi va hamkorligi klasterni anglatadi.

Bu ikki, yuzaki qaraganda bir-biriga o'xshash tushuncha o'rtasida boshqa farqlar ham bor. Xullas, bu shaklni qayerda «kombinat» so'zini uchratsak, uni o'sha sohada ko'ramiz, hatto aholiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarda ham (maishiy xizmat kombinatlari).

Sanoatda kombinatlar bir necha texnologik jihatdan bog'liq bo'lgan zavod yoki sexlardan tashkil topgan bo'ladi. Chunonchi, qora metallurgiya kombinatlari, aniqrog'i to'liq siklli kombinatlar cho'yan, po'lat va prokat ishlab chiqaruvchi zavodlar birlashmasidir. Agar ularning bittasi bo'lmasa, u holda kombinat to'liq siklga ega bo'lmaydi (Bekobodagi O'zbekiston metallurgiya kombinati xuddi shunday korxonalarandir). To'qimachilik kombinatlari yigiruv, bo'yash, tayyorlash sexlaridan iborat; xomashyo bitta paxta tolasi yoki pilla mahsuloti. Go'sht kombinatida ham yagona xomashyo asosida bir necha mahsulot: go'sht, konserva, kolbasa kabi boshqa mahsulotlar olinadi. Uning chiqindisidan, masalan, suyak va qondan qishloq xo'jaligi va tibbiyot sohasida foydalanish mumkin, terisi esa oshlagandan so'ng charmpoyafzal sanoatida ishlatiladi. O'rmon, sementshifer, kimyo kombinatlarining tuzilishi ham xuddi shunday. Qolaversa, markazlashgan issiqlik elektr stansiyalari ham kombinat xususiyatiga ega, chunki ular ayni paytda elektr energiyasi va par (bug') beradi.

Shunday qilib, kombinatsiya sanoat tarmoqlarining ko'pchiligiga xosdir. Faqat mashinasozikda «kombinat» so'zini uchratmaymiz, ammo mohiyatan bu yerda ham u mavjud, zotan metallardan asosiy mahsulot bilan bir qatorda xalq iste'mol mollari ham ishlab chiqariladi.

Umuman olganda, ishlab chiqarishning barcha ijtimoiy shakllari o'zaro bog'liq. Jumladan, ixtisoslashgan korxonalar yoki kooperatsiya va kombinatsiya doirasidagi ishlab chiqarish bo'g'inlari ham u yoki bu ko'rinishda mujassamlashuvni anglatadi. Biroq, bu yerda ularning bir joyda to'planganligi, yig'ilganlik darajasi boshqa joylarga nisbatan yuqori bo'lishi lozim, aks holda asl mujassamlashuv bo'lmaydi.

Ixtisoslashuv ishlab chiqarish jarayonini ajratadi, yakkalaydi, kooperatsiya uni umumiyashtiradi, kombinatlashuv esa birlashtiradi. Ularning barchasi u yoki bu darajadagi korxonada tashkil etiladi, mujassamlanadi; masalan, har qanday kombinat yuqori darajadagi mujassamlashuv, yirik korxonada demakdir.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy shakllari bozor iqtisodiyoti sharoitida o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Eng muhimi shundaki, korxonalarining kattakichikligi, ularning ixtisoslashuvi va o'zaro uyg'unlashuvi endi ko'p jihatdan davlatga, yagona markaz va

rejalashtirishga bog'liq emas. Korxonalar, ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar birbirlari bilan to'g'ridanto'g'ri aloqa, sheriklik qiladilar, davlatning vazifasi esa bu jarayonni turli mexanizmlar orqali tartibga solish va boshqarib borishdan iborat bo'ladi.

7.3-§. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish shakllari

Ma'lumki, iqtisodiy geografiya uchun ishlab chiqarishni tashkil etishning har ikkala tomoni yoki shakli muhimdir. Chunki, *ijtimoiy tashkil etish* va *hududiy tashkil etish* shakllarining negizida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tejamkorlik va, binobarin, iqtisodiy maqsadlar yotadi. Agar ijtimoiy tashkil etish shakllari, ishlab chiqarish korxonalarining ularda band bo'lgan ishchilar soniga ko'ra kattakichikligi, xodimlarning nima ishlab chiqarishiga ixtisoslashuvi va hamkorligida o'z ifodasini topsa, hududiy shakllar iqtisodiy makon yoki landshaftda ishlab chiqarish tarmoqlarining qanday shaklda joylashuvi, mujassamlashuvi, korxonalarining o'zaro hududiy munosabatini anglatadi. Aynan shu nuqtai nazardan ijtimoiy mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil qilish tarmoqlar, kishilarning kasbiy va hunar tarkibi, ixtisosini keltirib chiqaradi. Hududiy mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilish shakllari esa iqtisodiy rayonlar to'ri va tizimi, ular o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlari, hududiy iqtisodiy-ijtimoiy tarkib va tizimni shakllantiradi.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiyotda sanoatni hududiy tashkil qilish shakllari yanada aniqroq ko'riladi. Sanoatni rayonlashtirish yoki hududiy tashkil qilishning birlamchi elementi *sanoat korxonasi* hisoblanadi. Aynan shu darajada ishlab chiqarishning ijtimoiy va hududiy tashkil etish shakli, ya'ni mujassamlashuv birgalikda namoyon bo'ladi. Quyidan ikkinchi bosqich *sanoat punkti* bo'lib, u hech bo'lmaganda bir sanoat korxonasiga ega bo'lishi kerak. Agar sanoat ishlab chiqarishning hududiy (urbanistik) mujassamlashuv darajasi yuqori bo'lsa, bir emas, bir necha sanoat korxonalarini ma'lum nuqtada joylashtirilsa, u holda sanoat punkti *sanoat markaziga* aylanadi. Mabodo bu markaz faqat birgina shahardan, aksariyat hollarda poytaxt yoki port shaharlardan tashkil topsa, unday shaharda milliy yoki mintaqaviy iqtisodiyotning hududiy tarkibi va tuzilmasi ham bir tomonlama monotsentrik bo'ladi.

Sanoat punkti va markazlariga oid ham ilmiy ishlanmalar mavjud. Masalan, fransuz iqtisodchisi Fransua Perruning g'oyasi aynan o'sish

nuqta, markaz va qutblariga bag'ishlangan. Odatda, bu g'oya iqtisodiy makon uncha shakllanmagan, katta ishlab chiqarish imkoniyatlariga ega bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda yaxshi samara beradi. Bunday hududga turli omillar va shartsharoitlar hisobga olingan, qulay iqtisodiy geografik o'ringa, investitsiya va infratuzilma muhitiga ega bo'lgan nuqtada aholi punktida yirik sanoat korxonasi joylashtiriladi va shu asosda o'sish markazi vujudga keladi.

Albatta, bunday markazlar mamlakatda ko'p bo'lmaydi va ko'p bo'lishi ham mumkin emas. Chunki, asosiy kuch va mablag' faqat alohida, katta iqtisodiy samara beradigan joylarga qaratiladi. Ushbu markazlarda joylashtirilgan yirik sanoat korxonalarini astasekin turdosh yoki texnologik jihatdan bog'liq sanoat tarmoqlari bilan boyib borishi natijasida o'sish qutblari shakllanadi va ular iqtisodiy makonda porloq yulduzdek atrof muhitga o'z ta'sirini ko'rsatadi «nurini sochadi». Ko'rinib turibdiki, Perruning fikrlari ham iqtisodiyotning hudud bo'yicha notekis rivojlanishi, mujassamlashuvini nazarda tutadi.

Respublikamizning mustaqillik yillarida barpo etilgan sanoat markazlari (Asaka, Qorovulbozor, Qo'ng'iroq va boshq.) o'ziga xos o'sish qutblariga aylandi. Bunday qutblar, erkin iqtisodiy zonalar mamlakat miqyosida yirik va o'rta shaharlar asosida ham shakllanib boradi (Navoiy, Angren, Zarafshon, Muborak, Jizzax, Qarshi va h.k.). Rivojlangan mamlakatlardagi fantexnika yutuqlariga asoslangan sanoatni hududiy tashkil etish shakllaridan texnopolis, fan shaharlari (наукograd) kabilar ham milliy va mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda ahamiyatlidir. Ular ko'pincha universitet va ilmiy-tekshirish institutlari, fan infratuzilmasi muhayyo bo'lgan joylarda barpo etiladi.

Yirik sanoat markazlari yoki ularning atrofida ixtisoslashgan sanoat punktlarining joylashuvi *sanoat tuguni* (sanoat aglomeratsiyasi)ni shakllantiradi. Bunday sanoat tugunlari oddiy va murakkab ko'rinishda bo'ladi: turli, birbiri bilan ishlab chiqarish va texnologik jihatdan bog'liq bo'lmagan sanoat korxonalarini faqat hududiy umumiylikka ega bo'lsa, u holda bu tugun sanoat korxonalarining oddiy guruhi xisoblanadi. Agar mazkur sanoat korxonalarini orasida texnologik aloqadorlik ham mavjud bo'lsa, bunday hududiy ishlab chiqarish birligi rivojlangan majmua shaklini oladi. Har ikki holatda va, ayniqsa, sanoat majmuasida hududiy mujassamlashuv, aglomeratsion samaradorlik yuqori, chunki bunday sharoitda yagona infratuzilma tizimi katta tejankorlikka, kapital mablag' sarfini kamaytirishga olib keladi.

Xuddi shu maqsadda rivojlanayotgan mamlakatlarda *sanoat parklari* tashkil qilinadi. Buning uchun maxsus tanlab olingan joy infratuzilma tizimi bilan jihozlanadi, yo‘l, yer osti va yer usti qurilmalari, elektr energiya va suv manbalari bilan ta’minlanadi. Bunday har tomonlama tayyorlangan joylar chet el sarmoyadorlarini kirib kelishi, qulay investitsiya muhitini yaratish omillaridan eng muhimlaridir. Shuningdek, mamlakatlar milliy iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida erkin iqtisodiy mintaqalarning har xil shakllari tashkil qilinadi. Ular jumlasiga erkin sanoat hamda sanoatsavdo, eksportimport, maxsus iqtisodiy mintaqalar ham kiradi. Ushbu mintaqalar uchun ko‘proq iqtisodiy geografik va transportga qulay bo‘lgan joylar–port yoki chegaraga yaqin o‘rnashgan shaharlar tanlab olinadi.

Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning barcha shakllari – sanoat korxonasi, sanoat punkti, sanoat markazi, sanoat tuguni va sanoat parki to‘plangan hudud *sanoat rayoni* deb ataladi. U, odatda, ikki va undan ortiq sanoat tugunlari oralig‘ida yuqoridagi hududiy shakllarning uyg‘unlashuvidan vujudga keladi.

Umuman olganda, mustaqillikni mustahkamlash va bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tish sharoitida ishlab chiqarishni tashkil etishning barcha shakllaridan to‘g‘ri va oqilona foydalanish zarur. Masalan, har kanday mustaqil davlatning iqtisodiy qudratini faqat kichik yoki tor darajada ixtisoslashgan korxonalar bo‘yicha parchalab yuborish maqsadga muvofiq emas. Shu bois, mamlakat uchun katta, o‘rta va kichik, turli darajada ixtisoslashgan korxonalarining turg‘un uyushmasi, majmuasi kerak.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning qanday qonun va qonuniyatlari mavjud, ular qaysi tamoyillarga bo‘ysunadi?*
- 2. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllariga nimalar kiradi?*
- 3. Ijtimoiy tashkil etish shakllaridan qaysilari ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi?*
- 4. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish shakllariga nimalar kiradi?*
- 5. Sanoat aglomeratsiyasi va sanoat parklarining qanday hududiy o‘ziga xosliklari mavjud?*

8-BOB. ISHLAB CHIQRISH KUCHLARINI JOYLASHTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Mavzu annotatsiyasi. *Ushbu mavzuda ishlab chiqarishni joylashtirish ma'lum qonuniyat, prinsip va omillar asosida amalga oshirilishiga e'tibor qaratilgan. Jumladan, mazkur omillar tabiiy (tabiiy sharoit va agroiqlimiy resurslar, yer resurslari, suv boyliklari), iqtisodiy (iqtisodiy geogarik o'rin, xomashyo, yoqilg'i, elektr quvvati, transport, ilmiy texnik taraqqiyot, uchta «i» omili), ijtimoiy (mehnat resurslari, iste'mol, bozor iqtisodiyoti) va ekologik omillar sifatida guruhlashtirilgan.*

Tayanch so'z va iboralar: *tabiiy sharoit, agroiqlimiy resurslar, yer-suv boyliklari, xomashyo va yoqilg'i omili, elektr quvvati, transport omili, ilmiy texnik taraqqiyot va infrastruktura, aholi va mehnat resurslari, iste'mol omili, bozor iqtisodiyoti, ekologik omil.*

Reja:

- 8.1. Tabiiy geografik omillar.
- 8.2. Iqtisodiy geografik omillar.
- 8.3. Ijtimoiy geografik omillar.
- 8.4. Ekologik omilning o'rni va ahamiyati.



8.1-§. Tabiiy geografik omillar

Ishlab chiqarish tarmoqlari o'zo'zidan, tasodifan hududiy tarqalmaydi, balki tegishli shartsharoitlar va omillarni hisobga olgan holda joylashtiriladi yoki, aniqrog'i hududiy tashkil etiladi. Bu omillarni yaxshi bilish ishlab chiqarishning hududiy tarkibi va tizimining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishga asos bo'ladi.

Ishlab chiqarishni joylashtirish ma'lum qonuniyat, prinsip va omillar asosida amalga oshiriladi. Qonuniyatlar, eng avvalo, omillarning o'zaro aloqadorligi, ishlab chiqarish korxonasi va tarmoqlarining hududiy va texnologik majmua shaklida tashkil etilishi, bu tarmoqlar rivojlanishidagi mutanosibliklardan kelib chiqadi. Masalan, hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini o'zining qonuniyatlari mavjud. Ishlab chiqarishga nisbatan iste'mol, taklifga ko'ra talabning ustunligi, erkin raqobat, ochiq iqtisodiyot yurgizish, uni liberallashtirish, mulkchilik shakllarini o'zgartirish shular

jumlasidandir. Bular, albatta, ishlab chiqarishni joylashtirishga, iqtisodiy makonning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, bu davrda vaqt va mablag'dan unumli foydalanish, mamlakat iqtisodiy xavfsizligi, milliy iqtisodiyot mustaqilligi va mustahkamligini ta'minlovchi sohalarni jadalroq rivojlantirish, tabiiy va mehnat resurslarini ishga solish, mintaqalararo iqtisodiy integratsiya jarayonlarini kuchaytirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada ishlab chiqarishni xomashyo bazasiga, elektr manbai va iste'mol rayonlariga yaqinlashtirish prinsipi ham o'z kuchini saqlab qoladi. Biroq, unutmaslik lozimki, barcha ishlab chiqarish tarmoqlarini bir vaqtning o'zida ham xomashyo, ham ishchi kuchi, ham iste'mol rayoniga yaqinlashtirish qiyin (yo unisi yoki bunisiga yaqinlashtirish mumkin, ammo hammasiga emas!). Binobarin, bu tamoyilni har xil tarmoqqa nisbatan aniq qo'llash talab qilinadi.

O'tish davrida hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirish prinsipi ham avvalgidek, «sotsialistik ruhda» talqin qilinmaydi. Qolaversa, bu davrda mintaqalararo tafovut saqlanib va hatto biroz kuchayib borishi mumkin (ayniqsa sanoat ishlab chiqarishida). Shu bois, davlatning mintaqaviy siyosati bu farqlarni iloji boricha qisqartirishga yo'naltiriladi. Bunday hududiy nomutanosibliklarning o'ziga xos rivojlanish omili sifatida ma'lum darajada saqlanib qolinishining sababi shundaki, bir vaqtning o'zida barcha tarmoqlarni bir darajada rivojlantirish aslo mumkin emas. Xuddi tarmoqlar tarkibida bo'lganidek, ishlab chiqarishning hududiy tuzilmasida ham rivojlanish navbatmanavbat, ustuvorlik prinsipi, raqobat asosida olib boriladi.

Tabiiyki, iqtisodiyot tarmoqlari hamda mintaqalarning rivojlanishi turli xil omil va sharoitlarga ham bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda xomashyo, yoqilg'i, elektr quvvati, suv va iqlim sharoitlari, mehnat resurslari, iste'mol va transport, iqtisodiy geografik o'rin kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ekologiya, ilmiytexnika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyoti omillarining bu boradagi roli ham oshib bormoqda.

Ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar juda ko'p. Modomiki bu omillar ko'p ekan, demak:

- ❖ ularning ta'sir darajasi har xil bo'ladi;
- ❖ bu omillarni guruhlash, ustuvorligini aniqlash talab etiladi;
- ❖ omillar va ishlab chiqarishni joylashtirishni o'rganishda kompleks (ya'ni har tomonlama) yondashuv zarur.

U yoki bu omilning ta'sir darajasi uning mahsulot chiqarishdagi «solishtirma og'irligi» bilan o'lchanadi yoki uning mahsulot birligi bilan nisbati hisobga olinadi. Albatta, jamiyat taraqqiyoti, fantexnika rivoji va boshqa sabablar tufayli omillarni ta'sirchanligi o'zgarib boradi. Agar ilgari tabiiy sharoit, xomashyo, ishchi kuchi kabilarning ahamiyati katta bo'lgan bo'lsa, hozir ilmiy texnika taraqqiyoti, ekologiya, bozor, iste'molning kuchayishi va turlanishi muhimroq bo'lib qolmoqda, ishlab chiqarish ko'proq mablag'talab va ilmtalab bo'lib bormoqda.

Ishlab chiqarishni rivojlantirish va hududiy tashkil etishda omillarning ta'sirchanligi, ya'ni uning ko'p sarflanishi astasekin kamaytirilib, serharajat iqtisodiyotni oldini olishga e'tibor kuchayib boradi. Masalan, mahsulot birligiga nisbatan sarflanadigan xomashyo, yoqilg'i, elektr quvvati, ishchi kuchi va boshqalar muntazam ravishda tejaladi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligining oshib borishiga olib keladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, «ko'p sarflanadi» degan so'z o'z-o'zidan isrofgarchilikni va, binobarin, atrofmuhit ekologiyasiga ham salbiy ta'sirni anglatadi. Jumladan, xomashyo ko'p sarflanadigan yoki «suv talab» korxonalarida shunga mos ravishda xomashyoni to'la ishlatilmasligi, uning chiqindiga ketishi, suvning ifloslanishi kabi holatlar yuz beradi. Demak, bu borada tejamkorlik ham iqtisodiy, ham ekologik ahamiyatga ega bo'ladi.

Tabiiy sharoit va agroiqlimiy resurslar. Ishlab chiqarish kuchlarining tabiiy omillari tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning iqtisodiyotning tarmoq hamda rayonlarning rivojlanishiga ta'siridan iborat. Bunda yer resurslari, foydali qazilmalarning joylashishi, miqdori, sifati, foydalanish darajasi, iqlim va suv resurslari, o'rmon resurslari muhim o'rin tutadi.

Xo'jalikning barcha tarmoqlari, shuningdek, aholining joylashuvida tabiiy sharoitning roli katta. Bu borada ayniqsa yer, suv, harorat, tuproq kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarmoqlarining joylashishida tabiiy sharoit – havo harorati, vegetatsiya davri, yog'inlar miqdori va uning davri, yer osti suvlarining ko'tarilish darajasi, shamollar, yer usti tuzilishi (relyef), yaylovlar va ularning mahsuldorlik darajasi, yer fondi va uning tarkibi, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar, tuproq tarkibi va tabiiy unumdorlik darajasi kabi omillar majmuasining o'rni kattadir.

Issiq iqlim sharoitida sanoat korxonalarini ochiq usulda qurish, suv va boshqa alkogolsiz ichimliklar, ip gazlama ishlab chiqarishga o'xshash

tarmoqlarni ko'proq rivojlantirish talab etiladi. Obhavo va iqlim transportning ko'pgina turlarini rivojlantirish va joylashtirishga ham ta'sir qiladi. Ayni vaqtda, tabiiy geografik sharoitlar rekreatsiya va turizm sohalarini tashkil etishda ham katta ahamiyatga ega. Umuman olganda, tabiiy sharoit hududning mahalliy «imidjini» shakllantirib beradi.

O'zbekiston Respublikasining yer fondi ancha katta (448,9 ming km²). Uning iqlim sharoitlari ham qulay, ba'zi qishloq xo'jalik mahsulotlarini bir yilda 2-3 marta hosilini olish mumkin. Biroq, qishloq xo'jaligida mavjud yerlardan unumli foydalanish uchun irrigatsiya va melioratsiya, agroinfratuzilma tizimini rivojlantirish, ekologik muammolarni hal qilib berish talab etiladi.

Yer resurslari. Yerning ishlab chiqarishni joylashtirishdagi o'rni uning maydoni, kattakichikligi, geomorfologik xususiyatlari orqali tavsiflanadi (yerni baholash bilan yer kadastrini shug'ullanadi). Yer jamiyat rivojlanishining eng qadimiy, eng birlamchi omilidir.

Yer resurslari sivilizatsiyalarning shakllanishida asosiy rol o'ynagani hech kimga sir emas. Jumladan, yunon olimi Ksenofont (mil. avv. 430-355) «Yer insonni sog'lom, to'q va adolatli qiladi», deb yozgan edi. Ingliz iqtisodiyoti va statistikasining asoschilaridan biri U.Petti (1623-1687) fikricha, mehnat boylikning otasi, yer esa uning onasidir. Qolaversa, fransuz olimi Sh.Monteskye (1689-1755.) tuproqning xususiyatlari haqida: «Issiq mamlakatlarda unumdor tuproq omili odamlarni qo'rqqoq, dangasa va hayolparast bo'lishlariga sabab bo'lgan. Chunki ushbu unumdor zaminda omon qolish uchun hayotni xavf ostiga qo'yishning hojati yo'q. Odamlar faqat jazodan qo'rqqani uchun ishlaydi. Unumsiz tuproq, aksincha, erkinlikni qo'llab-quvvatlaydi. Yomon tuproq sharoitlari odamlarni jasur, urushga tayyor, o'z erkinliklarini himoya qilishga moyil qiladi. Chunki tuproq bermagan imkoniyatlarni o'zlari izlab topishga harakat qilishadi», deb ta'kidlagan edi. Yuqoridagi unumdor tuproq omili kishilarni qishloq xo'jaligi bilan band qilishi Qadimgi Hind, Xitoy va Mesopotamiya sivilizatsiyalari misolida yaqqol namoyon bo'lsa, Spartada madaniy hayotdan ko'ra jangovor muhitning ustun ko'rilishi unumsiz yer bilan bog'liq bo'lgan.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, agar yer ko'pgina xo'jalik tarmoqlari sanoat, transport va boshqalar uchun oddiy sharoit sifatida xizmat qilsa, u (tuproq) qishloq xo'jaligida bebaho boylik, muhim resurs hisoblanadi. Ayni vaqtda, sanoat korxonalarining (yirik metallurgiya, kimyo yoki mashinasozlik zavodlari) katta maydonlarni egallashini ham

unutmaslik kerak. Bunday maydonlar aeroportlar, botanika yoki hayvonot bog'i, qo'riqxonalar uchun ham talab etiladi. Bu esa har qanday xo'jalik tizimini to'g'ri tashkil etishda yer resurslaridan oqilona foydalanishni taqazo etadi.

Suv resurslari. Suv resurslarining ham ahamiyati ko'p funksiyali. Sanoatda suv, xususan, gidro va issiqlik elektrstansiyalari, qora va rangli metallurgiya, sellyulozaqog'oz, gidroliz, sintetik tola ishlab chiqarish, to'qimachilikda ko'p sarflanadi (ayrim ma'lumotlarga ko'ra, sanoat butun xalq xo'jaligida sarflanadigan suvning 40 foizini iste'mol qiladi). Masalan, 1 tonna sintetik tola ishlab chiqarish uchun 2000 m³, 1 tonna ip-gazlamasiga 1260 m³, 1200 ming kW quvvatga ega bo'lgan issiqlik elektr stansiyasi uchun esa 1200 mln m³ suv sarflanadi. Demak, bu va shunga o'xshash sanoat korxonalarining suv sig'imi juda yuqori. Mazkur omilning qishloq xo'jaligi va, ayniqsa, sug'orma dehqonchilikdagi o'rnini yanada yuqori. Zero, dastlabki madaniylashgan, rivojlangan joylar aynan Yer yuzining sug'orma dehqonchilik rayonlarida, vohalarda vujudga kelgan (Nil deltasi, Mesopotamiya, Hind-Gang pasttekisligi, Xuanxe daryosining o'rta qismi, Movarounnahr va boshq.). Chunonchi, suvlik yaqinida tarkib topgan sivilizatsiyalarning o'rnini qurg'oqchil hududlarda tarkib topgan madaniyatlardan doimo yuqori bo'lgan.

Shuningdek, suv resurslarining xususiyati kishilarning xulq-atvori, turmush-tarzi va xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy tashkil etilishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, tib ilmining sultoni Ibn Sino: «Pastlikda joylashgan hududlar aholisi doimiy issiqlik va dimlikda yashaydi, bunday o'lkalarda sho'rxok va botqoqliklarning ko'pligi sababli suvlar tarkibi ham salbiy xususiyatlarga ega va hududlar aholisining ruhiyatida jizzakilik, jahldorlik birmuncha yuqoridir», deb ta'kidlab o'tgan. Bu esa shunday xususiyatli mintaqalarda ixtisoslashgan tibbiyot muassasalari va psixologik maslahat markazlarining joylashuviga asos bo'ladi.

Aslida, hech qaysi omil mustaqil ravishda ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish va xo'jalik sohalarining ixtisoslashuvida mutloq ustunlikka ega bo'lolmaydi. Chunonchi, suv mo'l bo'lgan hududlarda, odatda, sholi, sabzavot kabilar ekiladi; paxta ham ancha suvtalabdir. Qizig'i shundaki, yer maydoni bor joyda, suv yetishmaydi va, aksincha, suv ko'p tog'li hududlarda sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish mushkul. To'g'ri, har ikkalasi muhayyo bo'lgan joylar ham yo'q emas. Ammo bunday joylarda havo harorati yetishmasligi mumkin. Binobarin,

qishloq xo‘jaligi va, ayniqsa, uning serdaromad tarmog‘i – dehqonchilik uchun uch asosiy omil: yer, suv va harorat zarur. Albatta, bu mazmunda yer faqat oddiy ekin maydoni mazmunidagina emas, balki uning tuproq qatlami bilan ahamiyatlidir. Shu bois, agroiqlimiy resurslarni harorat, suv va tuproq birligida ko‘rish yanada to‘g‘riroq bo‘ladi. Shunday qilib, boshqa omillar qatori tabiiy omillar bir-biriga mutloq aloqadorlikka ega.

8.2-§. Iqtisodiy geografik omillar

Ishlab chiqarish kuchlarining joylashishida iqtisodiy geografik o‘rin, xomashyo, yoqilg‘i, elektr quvvati, transport, ilmiy-texnik taraqqiyot, infrastruktura kabi iqtisodiy omillarning o‘rni beqiyosdir.

Iqtisodiy geografik o‘rin omili hudud rivojlanishining bosh omili hisoblanadi. Chunki tabiiy resurslar salohiyatining yuqoriligi, transport magistrallariga yaqinligi, yirik savdo-sanoat majmualari va iqtisodiy rivojlangan mintaqalarga chegaradoshligi har qanday mamlakat taraqqiyotining asosi bo‘la oladi. Shunday ekan, iqtisodiy geografik o‘rin tushunchasini yaxshi bilish shahar yoki rayonlar xo‘jaligini, uning tarkibi va yo‘nalishini o‘rganishda katta yordam beradi.

Xomashyo omili. Tabiiyki, mahsulot xomashyosiz yaratilmaydi. Ammo ayrim mahsulotlarni olish uchun xomashyo boshqalariga qaraganda ko‘proq sarflanadi. Shuning uchun bunday mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tarmoqlar va korxonalar mumkin qadar xomashyo rayonlariga yaqin joylashtiriladi.

Sanoatning barcha tarmoqlari, masalan, tog‘kon, o‘rmon, baliqchilik o‘zo‘zidan ma’lumki, xomashyo bo‘lmagan rayonlarda rivojlanmaydi. Bunday sanoat tarmoqlarining joylashuvi bevosita foydali qazilmalar yoki tabiiy boyliklar geografiyasi bilan bog‘liq. Boshqa sanoat tarmoqlarining hududiy tashkil etilishi esa biroz murakkabroq. Masalan, 1 tonna paxta tolasi olish uchun taxminan 3 tonna xom paxta, 1 tonna paxta yog‘i uchun 5 tonna chigit, 1 tonna pista yog‘iga 3 tonna kungaboqar, 1 tonna shakarga 7 tonna qand lavlagisi ishlatiladi. Ushbu raqamlarni nisbiy ko‘rinishda berish ham foydadan xoli emas. Chunonchi, paxta tolasini oq paxtadan chiqishi 32-33 foiz, paxta yog‘ining chigitdan olinishi 20-22 foiz, shakarni qand lavlagidan olish 14-15 foiz va shunga o‘xshash. Demak, bu korxonalar xomashyo rayonida yoxud unga yaqin joylashtiriladi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning xomashyo talabligi yoki uning sig‘imi bilan ekologik muammolar ham bog‘liq. Qizig‘i shundaki,

biz, odatda, yuqoridagi misollarda asosiy e'tiborni olingan mahsulotga – yog'ga, shakarga qaratamiz, biroq xomashyoning qolgan ko'pgina qismi (bizning misolimizda qand lavlagisining 6/7, paxta yog'ining 2/3 qismi) ko'p hollarda e'tiborimizdan chetda qoladi. Vaholanki, ular ishlab chiqarish chiqindisi sifatida atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Binobarin, xomashyo massasining tayyor mahsulotga aylanish hajmi ishlab chiqarish korxonalarini qayerda – xomashyo bazasiga yoki iste'molchiga yaqin joylashtirilishini belgilab beradi. Misol uchun, g'isht yoki silikat bloklari ishlab chiqarishda xomashyo chiqindisiz birlamchi mahsulotga aylanadi. Tabiiyki, ularni bevosita iste'mol rayonlarida joylashtirgan ma'qul. Shuning uchun ham respublikamizda g'isht zavodlari soni juda ko'p, ular uchun xomashyo ham keng tarqalgan.

Mineral o'g'itlar ichida kaliy o'g'itini ishlab chiqarish geografiyasi batamom xomashyo omili bilan belgilanadi, chunki uni olish uchun ko'p miqdorda kaliy tuzi sarflanadi. Ayni paytda, azot (selitra) o'g'itini ishlab chiqaruvchi korxonalar ancha «erkin» joylashadi. Bunday korxonalar qora metallurgiya markazlariga, suv manbalariga yaqin, neft va gaz sanoati rivojlangan rayonlarda qurilishi ham mumkin. Fosfor o'g'iti ishlab chiqaruvchi korxonalar xomashyo va iste'mol rayonlarida joylashtiriladi, xomashyo sifatida apatit, fosforitlar xizmat qiladi. Bu o'g'itni ishlab chiqarishda oltingugurt kislotasi ham talab etiladi. Shu bois ular rangli metallurgiya markazlarida ham tashkil qilinadi. O'zbekistonda azot o'g'iti yoki selitra Chirchiq, Navoiy, Farg'onada, superfosfat Qo'qon va Samarqandda, ammosfos yoki azot va fosfor o'g'itlarining birikmasi Olmaliqda ishlab chiqariladi.

Mamlakatimizda 2010-yilda mahalliy xomashyo (Tyubegatan, aniqrog'i – Teppaqo'ton tuz konlari) asosida Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida yiliga 200 ming tonna mahsulot ishlab chiqaradigan yirik kaliy zavodi ishga tushirildi. Shu bilan birga, mustaqillik yillarida Navoiy viloyatida topilgan va ishga tushirilgan yirik fosforit koni ham respublikamizda kimyo sanoati rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etdi. Natijada, mamlakatimiz superfosfat sanoati uchun Qozog'istondan (Qoratorov, Jonatas) keltiriladigan xomashyo emas, balki o'zimizning mahalliy fosforit zahiralaridan foydalanish imkoniyati vujudga keldi.

Xomashyoga ko'proq yo'naltirilgan sanoat tarmoqlarining joylashuvini o'rganish eng avvalo mamlakat tabiiy sharoiti va boyliklarini bilishni talab etadi. Turli xil qazilma boyliklarning ma'lum

hududdagi birligi bu yerda ishlab chiqarishni kompleks tashkil qilishga, hududiy majmualarni shakllantirishga, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yoqilg‘i omili issiqlik elektr stansiyalari uchun hamda qora metallurgiya sanoatining dastlabkicho‘yan eritish bosqichini joylashtirishda asosiy rol o‘ynaydi. Ammo uning ta’siri hamma vaqt ham yetakchi kuchga ega emas; issiqlik elektr stansiyalari yoki metallurgiya zavodlari ayrim hollarda iste’mol rayonlarida ham joylashtirilishi mumkin. Bu masala ayniqsa neft va uning mahsuloti – mazut, tabiiy gaz asosida ishlovchi issiqlik stansiyalarini qurishga tegishlidir.

Biroq, qora metallurgiya zavodlarini joylashtirish qonuniyatlari bir xil bo‘lmaydi. Ma’lumki, qazib olinadigan temir rudasining, o‘rtacha hisoblaganda taxminan 48-50 foizi foydalidir, ya’ni ulardan deyarli shuncha cho‘yan olish mumkin (1 tonna cho‘yan ishlab chiqishda taxminan 2 tonnaga yaqin temir rudasi va 1,2 tonna kokslanuvchi ko‘mir sarflanadi). Lekin bu «o‘rtacha» raqam hamma joyda ham bir xil emas: ayrim konlarda temirning qazib olinadigan rudadagi ulushi atigi 17-20 foizni tashkil etadi, xolos. Bunday konlarga Uraldagi Qo‘shqanorni yoki Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Tebinbuloqni misol qilib ko‘rsatish mumkin. O‘zo‘zidan ko‘rinib turibdiki, bu yerda qazib olinadigan rudani bevosita domna pechlarida eritib bo‘lmaydi, chunki kerakli mineraldan ko‘ra keraksiz jinslar ko‘proq. Shuning uchun bu ruda albatta dastlab boyitilishi va uning tarkibidagi foydali mineralning hissasi oshirilishi lozim.

Boyitilgandan so‘ng ruda tarkibidagi (rangli metallar uchun boyitish jarayoni ayniqsa muhim, sababi ularning tog‘kon jinslaridagi ulushi juda past) metall miqdori bir necha barobar ko‘payadi. Ammo bundan keyin ham uning hissasi yetarlicha bo‘lmaydi. Shuning uchun metallurgiya korxonalari ko‘proq xomashyo rayoniga yaqinroq joylashtiriladi.

Yer yuzida «boy» konlar ham yo‘q emas, jumladan, Kursk magnit anomaliyasiga kiruvchi Belgorod yaqinidagi konlarda temirning rudadagi ulushi 60-65 foizgacha yetadi. Binobarin, bundan qazib olinadigan xomashyoni bevosita boyitmasdan domna pechlarida eritsa bo‘ladi. Modomiki shunday ekan, ularni tashib borish uchun transport xarajatlari va, pirovard natijada, eritilgan cho‘yanning tannarxi uncha yuqori bo‘lmaydi. Bu esa korxonalarni yoqilg‘i rayonida yoki unga yaqin joylarda qurishni taqozo etadi.

Qozog‘iston Respublikasidagi Qarag‘anda to‘liq tsikli metallurgiya kombinati bevosita ko‘mir havzasi rayonida joylashtirilgan. Novokuznetsk, Lipetsk, Tula (Rossiya), Krivoy Rog (Ukraina) kombinatlari esa xomashyo, ya‘ni temir rudasi konlariga yaqin qurilgan. Ayrim hollarda metallurgiya zavodlari xomashyo va yoqilg‘i rayonlari o‘rtasida joylashgan. Zero, mazkur sanoat tarmog‘i uchun bu ikki omilning ahamiyati bir xil. Bunga misol sifatida Cherepoves metallurgiya kombinatini (Rossiya Federatsiyasi) keltirish o‘rinli. U Pechora kokslanuvchi ko‘mir havzasi bilan Kola yarim oroli temir rudasi konlarining deyarli o‘rtasida qurilgan. Lekin ushbu korxonona aniq ikki oraliq masofada emas, u biroz g‘arbga «tortilgan». Buning sababi, SanktPeterburg va Moskva shaharlarining yirik mashinasozlik korxonalarini po‘lat va prokatga bo‘lgan ehtiyojidir.

Shuningdek, ko‘mir va temir rudasini birbiri bilan hududiy almashuv tamoyili asosida har ikkala rayonda shakllangan qora metallurgiya markazlari ham mavjud. Bu borada 30-yillarda amalga oshirilgan Ural-Kuznetsk kombinatini (UKK) eslash kifoya. Mazkur mintaqaviy dastur hududiy ishlab chiqarish majmuining dastlabki ko‘rinishi bo‘lib, uni hayotga tatbiq etishda ham xomashyo rayonida– Janubiy Ural temir rudasi konlari asosida, ham yoqilg‘i rayonida – Kuznetsk toshko‘mir havzasida (Kuzbasda), ya‘ni Novokuznetskda bunday ulkan korxonalar qurilgan edi.

Donetsk-Dneprbo‘yi rayoni Ukrainaning asosiy yoqilg‘i va qora metallurgiya bazasi hisoblanadi. U ilgari dunyoga dong‘i ketgan Uralni orqada qoldirib, XIX asrning so‘nggi choragida gurkirab rivojlangan, o‘sha paytdagi Janubiy sanoat rayoni deb atalmish o‘lka sifatida mashhur bo‘lgan. Hozirgi davrda bu yerda qora metallurgiyaning ikkita ixtisoslashgan rayoni shakllangan, ular birbirlari bilan xomashyo va yoqilg‘i almashuvi negizida, mayatniksimon ko‘rinishda amal qiladilar. Bu ham bo‘lsa Donbass va Dneprbo‘yidagi bir guruh korxonalar uyushmasidir. Donbassda kokslanuvchi ko‘mir, Dneprbo‘yida temir rudasi (Krivoy Rog havzasi) bor. Mazkur mintaqada uchinchi, lekin oldingilarga qaraganda kichikroq metallurgiya rayoni, aniqrog‘i markazi ham shakllangan. U Mariupoldagi korxonalar birikmasi bo‘lib, Donbass ko‘miri va Qrimdagi Qamishburun temir rudasi bazasida ishlaydi¹⁹.

¹⁹ Shu o‘rinda eslatib o‘tish lozimki, Respublikamizda kokslanuvchi ko‘mir hamda temir rudasi zahiralarning ozligi to‘liq sikli qora metallurgiya sanoatini tashkil etish imkoniyatlarini cheklaydi

Elektr quvvati omili. Hozirgi zamon ishlab chiqarishini elektr quvvatisiz tasavvur qilish qiyin. Ushbu sohaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u yaratgan mahsulotni, ya'ni elektr quvvatini jamg'arib, omborxonalariga yig'ib bo'lmaydi, undan ayni paytning o'zida, sinxron ravishda foydalanish kerak. Bundan tashqari, elektr quvvati yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari orqali uzoq masofalarga ham uzatilishi mumkin. Odatda, elektr quvvati omilini ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishida, eng avvalo, uning arzon xillariga urg'u beriladi. Arzon elektr quvvati suv stansiyalaridan olinadi, chunki suv suvligicha SESdan keyin ham qolaveradi, issiqlik elektr stansiyalarida esa ko'mir, mazut yoki tabiiy gaz tamomila sarflanadi.

Elektr energetika omiliga quyidagi misollarni keltirish mumkin. 1 tonna qalayi yoki titan ishlab chiqarish uchun (titan po'latdan bir necha marta yengil va, ayni chog'da, undan ancha chidamliroq) 40-50 ming kW•h, xuddi shu miqdordagi alyuminiy va natriyga 16-19 ming kW•h, misni rafinatsiyalash (tozalash), elektr pechlarida po'lat eritishda ularning har bir tonnasiga 8-10 ming kW•h atrofida elektr quvvati sarflanadi. Shuningdek, temir qotishmalari (ferrosplav), magniy, qo'rg'oshin, sintetik tola va kauchuk kabilarning ham elektr energiyasiga talabi katta. Tabiiyki, bunday korxonalar arzon elektr energiyasi manbalariga yaqin joyda qurilishi kerak.

Juda qiziqarli hol: Rossiyaning bir qator shaharlarida GES va alyuminiy zavodlari «qo'sh kulcha»dek aynan bir joyda, bir markazda uchraydi. Masalan, Bratsk GES va Bratsk alyuminiy zavodi, Krasnoyarskdagi GES va alyuminiy zavod, Volgograd GES va alyuminiy korxonasi va h.k. Bunday juftliklar yoki elementar hududiy ishlab chiqarish majmualari Ukraina, Armaniston, Fransiya va boshqa joylarda ham mavjud. Tojikiston Respublikasidagi Tursunzoda (Regar) shahridagi alyuminiy zavod ham Norak GESiga yaqin joyda qurilgan. Olmaliqda yirik rangli metallurgiya va kimyo korxonalari shu yerdagi IEM hamda Yangi Angren IESidan, Chirchiq sanoat majmuasi Chirchiq kaskad GES quvvatlaridan foydalanadi. Farg'onadagi kimyo, neftni qayta ishlash va boshqa sanoat korxonalari bu shahardagi yirik IEMdan elektr energiyasini oladi.

Demak, elektr quvvati omil sifatida bir qator sanoat tarmoqlarini o'z atrofida «yig'ar» ekan. Shu sababli, u katta yirik rayon va hududiy majmua hosil qilish qudratiga ega. Bizning sharoitimizda elektr quvvati yangi yerlarni o'zlashtirish uchun ham kerak. Jumladan, Qarshi dashtining asosiy qismi Tallimarjondagi bir qator nasos stansiyalari

vositasi bilan sug'oriladi. Hozirgi kunda elektr quvvati mahalliy tabiiy gaz asosida ishlaydigan Tollimarjon IESda olinadi.

Respublikamizda bulardan tashqari Sirdaryo, Yangi Angren, Toshkent, Navoiy, Tallimarjon, Taxiatosh IESlari; Andijon, Chorvoq, Xo'jakent, G'azalkent, Tuyamo'yin va boshqa GESlar mavjud. Ular yiliga 60 mlrd kW•h dan ko'proq elektr energiyasini ishlab chiqaradi. Bu esa rangli metallurgiya, kimyo kabi «energiyatalab» tarmoqlarni rivojlantirishga imkon beradi.

Transport omili juda muhim, chunki u ishlab chiqarishning bevosita davom ettiruvchi tarmog'i hisoblanadi. Transport infratuzilmasi bo'lmasa xomashyo ham keltirilmaydi, mahsulot ham iste'molchilarga yetkazilmaydi, hududiy mehnat taqsimoti rivojlanmaydi. Shuning uchun transportning ahamiyati barcha boshqa omillar ta'siri bilan qo'shib, uyg'unlashib ketadi va uni «sof» holda ajratib olish qiyin. Shu bilan birga transport masalasi iqtisodiy geografik o'rin omili bilan ham chambarchas bog'liq. Zero, bu o'rin obyektning, eng avvalo, tashqi iqtisodiy munosabatlarini anglatadi.

Ishlab chiqarishni joylashtirishning «qulayligi» ko'p jihatdan uning arzonligi, arzonligi esa asosan transport xarajatlarining kamaytirilishi demakdir. Shuning uchun ham ishlab chiqarishni joylashtirishdagi klassik g'oyalar: I.Tyunenning «Tyunen xalqalari», A.Veberning «Sanoat shtandorti», V.Kristallerning «Markaziy o'rinlar», A.Lyoshning «Iqtisodiy landshaft», N.N.Kolosovskiyning HICHM, F.Perruning «O'sish qutblari va markazlari» g'oyalarini transport omilisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Transport iqtisodiyot tizimining qon tomiri, harakatlantiruvchi kuchidir. U pirovard natijada, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning samaradorligini ta'minlaydi.

Ayni vaqtda, transport tarmog'ining o'zini ham joylashtirish qonuniyatlari va omillari mavjud. Ular tabiiy geografik, iqtisodiy va siyosiy mazmunga ega bo'ladi. Tog'-kon sanoati rivojlangan hududlarda ko'proq temiryo'l transporti, agrosanoat rayonlarda avtomobil transporti rivojlangan bo'ladi. Avtomobil transporti, shuningdek, tog'li mamlakatlarda ham katta ahamiyatga ega (Qirg'iziston, Tojikiston, Armaniston va boshqalar).

Transport uzoqni yaqinlashtiradi, vaqtni tejaydi va shu asosda iqtisodiy, aniqrog'i – iqtisodiy geografik samaradorlikka erishiladi. Aytish joizki, transport (uning ikki jihati bor: birinchisi, yo'l, ya'ni infratuzilma, ikkinchisi – muhim makroiqtisodiyot tarmog'i) iqtisodiy geografik makon shakllanishining negizi hisoblanadi; qolaversa,

transportsiz iqtisodiy geografiya fanining o‘zi ham bo‘lmaydi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda transport xavfsizligiga ham ustuvor ahamiyat berildi. Qisqa vaqt davomida «Uchquduq – Miskin – Nukus», «Toshg‘uzor – Boysun – Qumqo‘rg‘on» temiryo‘llari qurildi va bu borada ham mustaqillikka erishildi, yagona milliy temiryo‘l tizimi shakllantirildi. «Angren – Pop» avtomobil yo‘li kengaytirildi, «Buxoro – Nukus» yo‘li qayta ta‘mirlanmoqda. Bu va shunga o‘xshash ishlar maxsus Davlat dasturi miqyosida amalga oshirilmoqda. Yangi qurilayotgan yo‘llar ularning ta‘sir doirasidagi tabiiy va mehnat resurslaridan foydalanishga qulay imkoniyatlar yaratdi. Xususan, yo‘l bo‘yi infratuzilma va «yo‘l yoqasi iqtisodiyoti», qishloq va shaharlar rivojlanib bormoqda. Qisqasi, respublikamizda «yo‘li yaxshi mamlakat boy bo‘ladi» degan prinsipga – tamoyilga amal qilinadi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot omili ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda juda yuqori ahamiyatga ega. Ushbu omilning ta‘siri bir qator tarmoqlarni hududiy tashkil etilishida aniq va ravshan ko‘rinadi. Masalan, «ilmtalab» mashinasozlik zavodlari yuksak darajada fan-texnika salohiyatiga ega bo‘lgan yirik shaharlarda joylashtiriladi. Bejiz emaski, hozirgi kunda respublikamizda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga ustuvor darajada qaralmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston milliy iqtisodiyotini diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar ham bevosita innovatsiya, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy qilish bilan bog‘liq. Shu asosda iqtisodiyotning zamon talabida rivojlanishi, uning samaradorligi, rentabilligi, ishlab chiqarilgan mahsulotning raqobatbardoshligi, sifati va xaridorgirligi oshib bormoqda. Qurilish materiallari, oziq-ovqat mahsulotlarining turlari kundan-kunga ko‘payishi ham ko‘p jihatdan ko‘rilayotgan omil ta‘sirida yuzaga kelmoqda.

Uchta «I» omili. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida 3 ta «i» ning, ya‘ni investitsiya, innovatsiya va infrastruktura omillarining o‘mi beqiyosdir:

Investitsiya (lot., investio: «o‘rash») — xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini modernizatsiya qilish va yangilash uchun chet el sarmoyasini kiritish shakli hisoblanadi. Chunonchi, har qanday rivojlanish, ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirish, qurish, qurilish esa unga kerak bo‘lgan tegishli mablag‘siz amalga oshirilmaydi. Shu nuqtai nazardan, investitsiya omilining ahamiyati juda kattadir. Binobarin, qulay investitsiya muhitini shakllantirish, jumladan, xorijiy investitsiyani keng jalb qilgan holda

qo'shma korxonalarni ko'paytirish va shu orqali respublika hamda mintaqalar eksport salohiyatini oshirish jiddiy mazmun kasb etadi. Shu bilan birga, qulay investitsiya makonini yaratish va mintaqalarning investitsion jozibadorligiga erishish katta mazmun kasb etadi. Infratuzilma va boshqa sharoitlarning mavjudligi, huquqiy va tashkiliy masalalarning hal etilganligi, kafolatlanganligi xorijiy sarmoyadorlarning kirib kelishiga qulaylik yaratadi. Ko'pincha investorlar huquqiy jihatdan kafolatlangan, ijtimoiysiyosiy barqarorlik, arzon ishchi kuchi bo'lgan hududlarni qidiradilar. Qurilgan qo'shma korxonalar esa mintaqa va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga, uning tarmoqlar va hududiy tarkibiga sezilarli o'zgarishlar kiritadi.

Innovatsiya (ing., «innovationas»: yangilik) — ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishi hisoblanadi. U orqali mamlakatning barcha sohalarida o'zgarishlar, yangilanish va xalqaro andozalariga moslashish ko'rsatkichlari yangilanib boradi.

Infrastruktura (lot., «infra»: fundament va «structura»: tuzilma) — bu tizimning ishlashi uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi va faoliyat jarayonini ta'minlovchi o'zaro bog'langan xizmat ko'rsatish tuzilmalari yoki obyektlari majmuasidir. Hozirgi kunda infrastruktura yoki infratuzilma tizimining mavjudligi ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishda katta rol o'ynaydi. Yo'l, yer osti va yer usti qurilmalari, elektr uzatuvchi shaxobchalar, turarjoy, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari muhayyo bo'lgan joylar yangi ishlab chiqarishni, qo'shma korxonalarni o'ziga jalb qiladi. Respublikamizda mustaqillik yillarida barpo etilgan yirik avtomobil zavodining aynan Andijon viloyatining Asaka shahrida joylashganligi, eng avvalo, tayyor infratuzilmaning muhayyoligi bilan bog'liq bo'lgan. Bunday joylar yoki qurilishi sovet davrida tugallanmay, chala qolgan obyektlar ham qo'shma korxonalarni tashkil qilishga qulaylik yaratadi. Infratuzilma tizimida xususan transportning o'rnini yuqori. Shuningdek, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari ham ishlab chiqarishni joylashtirishda muhimdir. O'tish davrida, ayniqsa, bozor infratuzilmasining ahamiyati katta. Bozor iqtisodiyotining o'zi esa ishlab chiqarishni joylashtirishda hal qiluvchi omildir. Sababi, bozortalab sohalargina rivojlanadi; bozori chaqqon mahsulotlarni ishlab chiqargan tadbirkorlar yengadi.

Aynan, ularning hududiy birligi, ular uchun qulay muhitning yaratilishi yangi iqtisodiy geografiyani shakllantiradi. Bu esa fanga, uning mazmun-mohiyatiga, konstruktiv jihatiga yangicha qarashni talab qiladi.

8.3-§. Ijtimoiy geografik omillar

Bevosita aholi va uning ishtiroki bilan bog‘liq bo‘lgan omillar ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, ularning eng asosiylari mehnat resurslari, iste‘mol va bozor iqtisodiyoti omillari hisoblanadi.

Mehnat resurslari omili ijtimoiy-iqtisodiy omillar ichida eng muhimi hisoblanadi. Albatta, har qanday ishlab chiqarish jarayoni ishchi kuchisiz sodir bo‘lmaydi. Ammo bu o‘rinda ikki holni qayd etish lozim: birinchidan, shunday korxonalar borki, ularda mehnat sig‘imining yuqoriligi bois, son jihatidan ko‘p ishchi kerak (tikuv fabrikasi, konserva zavodi, paxta yetishtirish va uni qayta ishlash).

Ayni bir paytda, boshqa korxonalarga mehnat resurslarining miqdori ko‘p bo‘lishi shart emas, aksincha, «oz bo‘lsa ham, soz bo‘lsin» ma‘nosida ularga malakali, ya‘ni sifatli ishchi kuchi talab qilinadi. Mazkur korxonalar va tarmoqlar atom energetikasi, elektronika va elektrotexnika, robotsozlik, aniq mashinasozlik va shunga o‘xshash, odatda, malakali ishchi kuchi mavjud bo‘lgan markazlarda joylashtiriladi. Bunday ilmtalab korxonalarni tashkil etishda ba‘zi rivojlangan mamlakatlarda maxsus texnopolis va fan shaharlari yaratilgan. AQShda – Silikon vodiysi, Rossiyada – Kremniy vodiysi, Germaniya – Rur mintaqasi, Hindistonda – Bangalor shahri, Buyuk Britaniyadagi Oksford shahri va boshqalar shunday toifaga kiradi.

O‘zbekistonda aholining tabiiy ko‘payishini nisbatan yuqoriligi mehnat zaxiralarini ko‘plab shakllanishiga olib keladi. Shu sababli, respublikada mehnatga layoqatli aholi soni miqdoran juda ko‘p. Ularning soni, ayniqsa, qishloq joylarida va sust rivojlangan kichik shaharlarda yuqori. Binobarin, bunday joylarda ish o‘rinlarini kengaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi sanoat va boshqa korxonalar, madaniy-maishiy muassasalarni qurish, mehnat bozorini shakllantirish dolzarb masaladir.

Iste‘mol omili. Aholi, albatta, faqat ishchi kuchi emas, u balki ko‘proq darajada iste‘molchi hamdir. Bu omilning roli esa hozirgi kunda xalqning yashash sharoiti va darajasini yaxshilash doirasida keskin oshib bormoqda. Aholining kundalik hayoti uchun zarur bo‘lgan oziqovqat, kiyimkechak va uning boshqa ehtiyojlarini qondiruvchi mahsulotlarni yetarli darajada ishlab chiqarish talab etiladi. Shu bois, iste‘mol omili

oziqovqat korxonalarini o'ziga «tortadi», ya'ni bunday zavod yoki fabrikalar, aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlari qishloq va shaharlarda joylashtiriladi. Xususan, bu masalaga respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish (lokalizatsiya) dasturida katta e'tibor qaratilgan.

Shu o'rinda, iste'molning egiluvchanligi, tez-tez o'zgarib turishini ham e'tiborga olmoq zarur. Sababi, birinchidan, hammaga ham bir xil iste'mol mahsuloti yoqmaydi, ikkinchidan, ular tez orada jismonan emas, ma'naviy jihatdan eskiradi. Masalan, bir vaqtlar tish yuvadigan pasta, kir yuvish kukuni, alkogol va alkogolsiz ichimliklar, oddiy ruchka kabilarning atigi bir yoki ikki xili mavjud bo'lgan, xolos. Hozirda esa ularning turi behisob. Shu bois, iste'mol omili ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishda muhim omilga aylanmoqda. Bunda aholining demografik xususiyatlari, yosh-jins, milliy tarkibi, zichligi, milliy urf-odat va an'analari (mentaliteti) ham nazardan chetda qolmasligi kerak.

Iste'mol omili faqat xalq ehtiyoji bilan belgilanmaydi. Ishlab chiqarishning o'zini talabi, boshqa xil mahsulotlarning keng miqdorda sarflanishi, ularning transportda keltirishning noqulayligi ham bunday korxonalarining iste'mol rayonlarida qurilishini taqozo etadi. Chunonchi, qishloq xo'jaligi mashinasozligi o'sha mintaqaning ishlab chiqarish ixtisoslashuviga muvofiq shu yerning o'zida rivojlantirilishi zarur.

Umuman, qaysi rayon nimaga ixtisoslashsa, shu tarmoq uchun qishloq xo'jaligi mashinasozligi yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lishi qonuniy bir holdir. O'zbekistonda paxta teruvchi, Belorussiyada kartoshka, Ukrainada qand lavlagi, Shimoliy Kavkazda va Volgabo'yida g'alla yig'uvchi, Qirg'izistonda pichan taxlovchi, Gruziyada choy teruvchi mashinalarning ishlab chiqarilishi fikrimizni asoslab beradi. Xuddi shunday, rayonlarning ma'lum bir sanoat tarmoqlariga ixtisoslashuvi mazkur sohalarga tegishli mashina, asbobuskuna, jihozlar ishlab chiqarilishini talab etadi: Uralda metallurgiya sanoati uchun, Bokuda neft, Donbassda ko'mir, Petrozavodskda o'rmon, O'zbekistonda to'qimachilik mashinasozligi va h.k.

Ayrim boshqa sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini ham aholi yashab turgan joylarda o'rinlashtirish maqsadga muvofiq. Masalan, ko'p iste'mol qilinadigan, qishloq xo'jalik mahsulotlari-sut, piyoz, karam va boshqalar shahar atrofi xo'jaligi doirasida yetishtiriladi. Boshqa misol: neftni keltirib, undan benzin, kerosin, mazut va shunga o'xshash turli mahsulotlarni olish, kimyo sanoatini rivojlantirish ma'qulmi yoki

mahsulotlarning har birini alohidaalohida keltirishmi? Tabiiyki, bu yerda birinchi variant ma'qulroq²⁰.

Xuddi shunga o'xshash: boshqa joylardan g'alla keltirib, undan har xil mahsulotlar: un, suxari, pecheniye, makaron, omuxta-yem kabilarni ishlab chiqarish qulay va arzonroq.

Go'sht sanoatini joylashtirish ham o'ziga xos xususiyatga ega. Bu sanoat bevosita chorvachilik rayonlarida rivojlantirilsa, unda iste'molchiga faqat muzlagan go'sht keltiriladi. Bunday go'shtdan esa kolbasa, konserva, qiyma go'sht yoki boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarib bo'lmaydi. Aksincha, agar go'sht sanoati iste'mol rayonlarida o'rnashtirilsachi? Unda molni keltirishi kerak, ammo bu davrda biroz bo'lsada u o'z tirik vaznini yo'qotadi.

Bundan tashqari, go'sht mahsulotini ishlab chiqarish molning juni va terisi, qoni va suyagidan shu joyning o'zida foydalanish imkonini bersada, mazkur zavodlarni shahar ichida o'rnashtirish ekologik nuqtai nazardan maqbul emas. Yaqin o'tmishda yirik go'sht kombinati Toshkentning Beshyog'och dahasida, Bo'zsuv arig'i bo'yida qurilgan edi. Bu korxonada o'z navbatida ko'pchilik, poyafzal sanoatining aynan shu rayonda shakllanganligiga sabab bo'lgan. Keyinchalik kombinatning shahar ichida joylashtirilishi ko'p jihatdan noto'g'riligi sezilib qolindi. Natijada, u Zangiota tumanidagi O'rtaovul shaharchasiga chiqarildi. Demak, bu korxonada ko'pincha chorvachilik rayonida ham, yirik shaharda ham emas, ekologik bexatar, iste'molchiga nisbatan yaqin joyga quriladi.

Bozor iqtisodiyoti omili. Yuqoridagilardan tashqari ushbu omilni ham aslo unutmaslik kerak. Sodda qilib aytganda, bozor iqtisodiyoti – bu ishlab chiqarish erkinligi, raqobat va ochiq iqtisodiyot yurgizishdir. Bunday sharoitda ko'p bosqichli iqtisodiyot, mulkchilikning turli shakllari va raqobat, qulay investitsiya makonini vujudga keltirish, monopoliyaga qarshi kurash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bozor iqtisodiyoti omilini ishlab chiqarish tarmoqlarini hududiy tashkil etishga nisbatan tahlil etar ekanmiz, unda bu boradagi ilgarigi an'anaviy fikr yuritishlar tamomila o'zgarib ketishi kerak. Chunki, hozirgi sharoitda aksariyat narsani, shu jumladan, nimaga ixtisoslashuvni va qayerda joylashtirishni pirovard natijada bozor, raqobat, talab belgilaydi, davlat esa o'zining mintaqaviy siyosati orqali bu jarayonni boshqarib, tartibga solib turadi.

²⁰ bunga Farg'ona shahridagi neftni qayta ishlash zavodi yaqqol misol bo'la oladi

Natijada, ishlab chiqarishda son emas, sifat yetakchi ahamiyat kasb eta boradi hamda yaratilayotgan mahsulotlar tobora eksportbop tus ola boshlaydi. Bu jarayon ixtisoslashuv hududiy ko‘lamining kengayishi va tashqi iqtisodiy aloqalar tizimining takomillashuviga olib keladi.

Bozor (talab va taklif), erkin raqobat u yoki bu mahsulot ishlab chiqaradigan makonni, bozor muhitini belgilaydi. Talabning nafaqat miqdor jihatdan o‘sib borishini, balki uning xususiylashuvini, sifatini e‘tiborga olish, ixcham, harakatchan, boshqarishi oson bo‘lgan kichik korxonalarni joylashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hozirgi kun uchun ayniqsa xosdir. Bu davrda vaqt va makondan unumli foydalanish o‘ta zarur. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni joylashtirish o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu borada tadbirkor albatta foydani, qo‘shimcha daromadni ko‘zlaydi, davlat esa ish o‘rinlarini ko‘paytirish; mehnat resurslarini band qilish; ijtimoiy, ekologik muammolarni hal etish; hududlar rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirishga intiladi. Demak, bunday vaziyatda har ikki yo‘nalishni muvofiqlashtirgan holda masalani yechish talab etiladi.

8.4-§. Ekologik omilning o‘rni va ahamiyati

Yuqorida ko‘rilgan omillarning ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishga ta’siri ularning barchasi bozor iqtisodiyoti munosabatlari va ekologik omil bilan muvofiqlashtirilishi kerak. Zotan, vujudga kelgan vaziyat buni qat’iylik bilan talab etadi. Ekologik jihatdan eng avvalo kimyo, sellyulozaqog‘oz, go’sht, vino, konserva, charm zavodlari, issiqlik elektrostansiyalari «nomaqbul» hisoblanadi. Shu sababdan, ular aholi joylashgan markazlardan uzoqroqda bo‘lgani yaxshiroq.

Ushbu omilning ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishiga ta’sirini kimyo sanoati misolida ko‘rish ayniqsa namunaviydir, chunki bu sanoat korxonalarining joylashtirilishi juda erkin xususiyatga ega. Sababi, ular o‘simlik, hayvonot, mineral xomashyosi, suv, havo asosida, hatto boshqa sanoat chiqindilari (qora va rangli metallurgiya) negizida ham rivojlanishi mumkin. Binobarin, kimyo sanoati korxonalarini istagan joyda qurish imkoniyati bor. Ammo, bu masalaning bitta nozik tomoni – ekologik omildir va u bilan ayniqsa hozirgi kunda hisoblashmasdan iloj yo‘q.

Ekologik omilni to‘g‘ri inobatga olmaslik oqibatida respublikamizning turli hududlarida noxush vaziyat vujudga kelgan. Bunday holat, bir tomondan, qishloq xo‘jaligi, xususan (tuproq) va

suvdan noto‘g‘ri foydalanish natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning sababchisi sanoat korxonalarini joylashtirish hisoblanadi. Shuningdek, bu borada avtomobil transporti (ayniqsa yirik shaharlar, Toshkent megapolisida) ham jiddiy rol o‘ynaydi.

Global, olamshumul mazmun kasb etgan Orol muammosi eng avvalo suv zahiralardan noto‘g‘ri foydalanish, qishloq xo‘jaligida paxta yakka hokimligini avj oldirish bilan bog‘liq. Shu bilan birga, tuproqning sho‘rlanishi (bu ko‘proq yangi o‘zlashtirilgan hududlarga xos), nozogeografik vaziyatning keskinlashuvi ham yer-suv resurslaridan omilkorona foydalanishni taqozo etadi. Aynan, yer va suv resurslari, asosiy gidrografik elementlar – daryolarning ko‘proq qo‘shni respublikalarda to‘yinishi, transchegaraviyligi bu muammoning nihoyatda keskinligidan dalolat beradi. Sanoat korxonalarini joylashtirish asosida esa Angren – Olmaliq rayoni, Chirchiq havzasida, Navoiy shahri atrofida, Farg‘ona vodiysining ayrim markazlarida, Surxondaryoning Tojikiston Respublikasiga tutash hududlarida noxush ekologik vaziyat yuzaga kelgan.

Shu sababdan, ishlab chiqarish va aholi joylashuvini tashkillashtirishda «yetti o‘lchab bir kes» yo‘sinda ekologik omillarga qat’iy amal qilish zarur.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga ta’sir etuvchi tabiiy omillar nima sababdan iqtisodiy geografik tahlillarda qo‘llaniladi?*
- 2. Ishlab chiqarish jarayonida qaysi iqtisodiy omillar katta rol o‘ynaydi?*
- 3. Qaysi omillarni inobatga olmaslik, ishlab chiqarish jarayoniga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi?*
- 4. Qaysi omillar ham tabiiy, ham iqtisodiy ahamiyat kasb eta oladi?*
- 5. Sanoat yoki boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarini hududiy tashkil etishda ekologik omilning roli hozirgi davrda qay darajada ahamiyat kasb etmoqda?*

9-BOB. TABIIY RESURLAR GEOGRAFIYASI

Mavzu annotatsiyasi. *Ushbu mavzuda tabiiy sharoit va resurslarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati ijtimoiy-iqtisodiy geografik jihatdan tahlil etilgan. Jumladan, tabiiy resurslarning tasnifi (genetik, ekologik, potensial va foydalanish nuqtai nazaridan) keltirilgan. Resurslarni iqtisodiy geografik baholash asosida resurs bilan ta‘minlanganlik (necha yillarga yetishi, aholi jon boshiga to‘g‘ri kelish) darajasi, yer resurslarini sifat jihatidan qiyosiy baholash masalasi, tuproq bonitirovkasining ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishdagi ahamiyati yoritib berilgan.*

Tayanch so‘z va iboralar: *tabiiy sharoit, tabiiy resurs, yer resurslari, suv resurslari, agroiklimiy resurslar, biologik resurslar, mineral boyliklar, rekreatsiya va bolneologik resurslar.*

Reja:

- 9.1. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning iqtisodiyotdagi ahamiyati.
- 9.2. Tabiiy resurslarning asosiy turlari va klassifikatsiyasi.
- 9.3. Tabiiy resurslarni iqtisodiy baholash.



9.1-§. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning iqtisodiyotdagi ahamiyati

Har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko‘p jihatdan uning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslariga bog‘liq. Ular birgalikda hududning resurs (lotincha, «manba») salohiyatini belgilab beradi, bu salohiyat esa foydalanadigan tabiiy boyliklar bilan bir qatorda ulardan foydalanish mumkin bo‘lgan imkoniyatlar, zaxiralardan tashkil topadi. Binobarin, odatda, tabiiy resurs salohiyati baholanayotganda nafaqat real borliq, balki imkoniyat ham nazarda tutiladi va bu imkoniyatlardan foydalanish mamlakat iqtisodiy rivojlanish istiqbollari asosida yotadi.

Tabiiy sharoit – ishlab chiqaruvchi kuchlarning ma‘lum bir rivojlanish darajasida jamiyat hayoti va faoliyati uchun muhim bo‘lgan, ammo moddiy ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan (m., relyef, iqlim, geografik o‘rin) tabiat jismlari va kuchlari hisoblanadi.

Tabiiy sharoit tarkibidagi komponentlar ehtiyojda foydalanish nuqtai nazaridan tabiiy resurs vazifasini bajarishi mumkin.

Tabiiy resurs – jamiyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida xo'jalikda foydalaniladigan hamda insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan, uni o'rab turgan tabiiy muhitning barcha tabiat komponentlari, energiya manbalari. Tabiiy resurslar insonlarning yashash vositasi bo'lib, inson ularni tabiatdan oladi va ularsiz ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshira olmaydi. Chunonchi, tabiiy resurslar kishilik jamiyati uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak, yoqilg'i va energetika xomashyolari hisoblanadi.

Ushbu mavzuning negizini tashkil qiladigan o'zak tushunchalar – tabiiy sharoit va tabiiy resurslarni, umumiy va xususiy jihatlarini tushunib olish zarur. Eng avvalo ta'kidlash lozimki, har ikkitasida ham «tabiiy» so'zi bor. Demak, ularning vujudga kelishi va rivojlanish qonuniyatlari asosan tabiiy, ya'ni inson faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lmagan jarayonlar bilan bog'liq bo'ladi. Ammo jamiyat va fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishning rivojlanishi va aholi sonining o'sib borishi bilan tabiiy sharoit va tabiiy resurslarga antropogen va texnogen omillar ta'siri kuchayib, natijada, bizni o'rab turgan atrof-muhitning «tabiiyligi» borgan sari sun'iy lashib bormoqda. Aynan, ana shu tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning hududiy jihatlarini o'rganish geografiya fanining bosh falsafiy masalasi hisoblanadi.

Albatta, har qanday ikkilik uchlikni keltirib chiqarayotganidek, tabiat va jamiyatning o'zaro munosabatlari inson, aholi orqali shakllanadi. Shu bois, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida ko'proq uchlik, ya'ni «tabiat – aholi – xo'jalik» tizimi turadi. Mazkur uchlik yoki «geotriion»larning u yoki bu hududdagi holati, darajasi uning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik vaziyatini belgilaydi.

Tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning umumiy jihatlari bilan bir qatorda ularning o'zaro farqlari ham mavjud. Umuman olganda, tabiiy sharoit ko'proq muhit ma'nosida tushuniladi, u ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydi, undan moddiy ne'matlar yaratilmaydi; tabiiy sharoit aholi yashashi va ishlab chiqarishni joylashtirish uchun sifat ko'rsatkichlar kasb etadi, ya'ni u qulay yoki noqulay bo'lishi mumkin. Masalan, joyning iqlimi, yer usti tuzilishi kabilar uning tabiiy sharoitini ifodalaydi.

Tabiiy resurslar esa ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadi va ular miqdor ko'rsatkichlariga ega bo'ladi. Tabiiy resurslar

tugaydigan va tugamaydigan qismlarga, tugaydiganlari esa, o‘z navbatida, tiklanadigan va tiklanmaydiganlarga bo‘linadi. Chunonchi, o‘rmon, suv, tuproq va boshqalar nisbatan uzoq muddatda qayta tiklanishi mumkin. Tabiiy resurslarning bunday xususiyatlari ulardan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

Biroq unutmash lozimki, tabiiy geografik komponentlarning tabiiy sharoit yoki resurs ekanligi ulardan qaysi maqsadda foydalanishga bog‘liq. Shu sababdan, ma‘lum bir sohada tabiiy sharoit hisoblangan komponent boshqa sohada resurs bo‘lishi mumkin (9.1-jadval). Iqlim yoki relyef sanoat geografiyasi nuqtai nazardan umumiy tarzda tabiiy sharoit sanalsa, qishloq xo‘jaligi uchun (harorat, namlik, tuproq) muhim agroiqlimiy resurslar hisoblanadi. Huddi shunday quyosh nuri, o‘rmon, dengiz – rekratsiyada yetakchi tabiiy resurslardir.

9.1-jadval

Tabiiy sharoit va tabiiy resurslarga iqtisodiy geografik baho berish shkalasi

| Tabiiy geografik komponentlar | Ijtimoiy-iqtisodiy sohalar | | | | |
|--------------------------------------|-----------------------------------|--------|-----------|------------------|-----------------------|
| | qishloq xo‘jaligi | sanoat | transport | aholi joylashuvi | rekreatsiya va turizm |
| Relyef | 4 | 3 | 5 | 3 | 4 |
| Foydali qazilmalar | 1 | 5 | 3 | 3 | 1 |
| Iqlim | 5 | 3 | 4 | 4 | 5 |
| Suv | 5 | 4 | 4 | 5 | 5 |
| Tuproq | 5 | 1 | 4 | 4 | 2 |
| O‘simlik | 4 | 3 | 1 | 2 | 4 |
| Hayvonot dunyosi | 3 | 2 | 1 | 1 | 3 |

Izoh: Jadvalda ta’sir darajasi quyidagi ko‘rsatkichlarni ifodalaydi:

1 – kuchsiz, 2 – sezilarli, 3 – o‘rtacha kuchli, 4 – kuchli, 5 – juda kuchli

Ko‘rinib turibdiki, tabiiy sharoit va tabiiy resurslarga o‘rtasida katta farq yo‘q, ular o‘zaro uyg‘unlikka ega. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ba’zi xorijiy mamlakatlarda bu tushunchalar farq qilmaydi va ular umumiy tarzda «tabiiy sharoit», deb qabul qilingan.

9.2-§. Tabiiy resurslarning asosiy turlari va klassifikatsiyasi

Hududlar iqtisodiy rivojlanishida tabiiy resurslarning ham ahamiyati beqiyos. Sanoatlashish jarayonining dastlabki bosqichlarida asosiy xo‘jalik tarmog‘i bo‘lmish sanoatning joylashishi tabiiy resurslar, dastavval, foydali qazilmalar geografiyasi bilan belgilangan. Jumladan, og‘ir sanoat tarmoqlari toshko‘mir va temir rudasi mavjud konlar hamda havzalarga joylashtirilgan. FTI davrida esa bu jarayon birmuncha o‘zgargan bo‘lsa-da, tabiiy resurslarning ahamiyati va iqtisodiyotdagi roli pasaygani yo‘q. Mamlakat qancha resurslarga boy bo‘lsa, uning salohiyati va iqtisodiyotining rivojlanishi shuncha yuqori bo‘ladi. Bu borada, tabiiy resurslarni iqtisodiyotga yo‘naltirish va ular orqali xo‘jalikni to‘g‘ri tashkil etish uchun tabiiy resurslar tasnifi va xususiyatlarini puxta bilish talab etiladi.

Tabiiy resurslar o‘zining asosiy xususiyatlari va o‘xshash jihatlari asosida tasniflanadi (9.2-jadval). Jumladan, tabiiy resurslarni tasniflashda quyidagi omillar e‘tiborga olinadi:

I mezon: tabiiy jihatdan hosil bo‘lishiga ko‘ra – resurslarning genezisi va tashkil etuvchi moddalarning fizik xususiyatlari e‘tiborga olinadi. Bunda beshta katta guruh ajratiladi – mineral, yer, suv, biologik va iqlimiy resurslar. Ularning har biri yana turlarga bo‘linadi, tur ichida resurslar tarkibi keltiriladi. Masalan, mineral resurslar guruhi yoqilg‘i, rudali va noruda resurs turlariga bo‘linadi. Yoqilg‘i foydali qazilmalarning o‘zi yana neft, tabiiy gaz, ko‘mir, torf, yonuvchi slanets kabi tarkibiy tuzilmalarga tarmoqlanadi va hokazo.

II mezon: resurs zaxirasining tugashi va qayta tiklanishiga ko‘ra – ekologik tasnifda resurslarning muttasil ishlatilishi ortidan uning tugashi yoki tugamasligi hisobga olinadi. Tugaydigan resurslar ma‘lum muddat davomida butkul tugashi mumkin, ammo qaytadan hosil bo‘lish imkoniyatining bor yoki yo‘qligiga ko‘ra tiklanadigan va tiklanmaydigan resurslar turi ajratiladi. Agar uzoq muddat davomida foydalanilganda ham resurs zaxirasi tugamasa, tugamaydigan resurs deb ataladi. Xususan, Quyosh energiyasi, shamol energiyasi, Yerning ichki – geotermal energiyasi, havo va Dunyo okeani suvi amalda tugamaydigan turga mansub.

III mezon: iqtisodiyotning turli sohalarida foydalanishiga ko‘ra – iqtisodiy tasnifda qanday sohada ishlatilishi ko‘zda tutiladi. Chunonchi, ko‘z bilan ko‘rib, qo‘l bilan ushlab imkoniyati mavjud resurslar moddiy sohalarda, xususan, sanoat, qishloq xo‘jaligi, binokorlikda foydalaniladi.

Asosan, tabiat kuchlaridan iborat resurslar esa xizmat ko'rsatish va nomoddiy tarmoqlarda katta ahamiyatga ega. Shu xususida, Quyosh radiatsiyasi, yoqimli ob-havo kabilar rekreatsiya va bolneologik resurs ekanligini ta'kidlash mumkin.

IV mezon: foydalanish maqsadiga ko'ra – iqtisodiy tasnifning ushbu tarkibiy qismida tabiiy resurslar foydalanish turlarining o'zaro aloqadorligiga qarab bir maqsadli va ko'p maqsadli bo'lishi mumkin. Ayrim resurslar tor ishlatilish doirasiga ega bo'lib, bir maqsadli bo'ladi. Masalan, temir rudasi metall, ko'mir yoqilg'i, qimmatbaho toshlar esa asosan bezak maqsadlarida foydalaniladi. Suv, havo, yer va o'rmon resurslarining foydalanish sohasi keng bo'lib, ko'p maqsadli boyliklar sirasiga kiradi.

V mezon: foydalanish imoniyatiga ko'ra – iqtisodiy tasnifning bu mezoniga asosan tabiiy boyliklar hozirda foydalanilayotgan – real va kelajakda foydalanishi mumkin bo'lgan – potensial guruhlarga bo'linadi. Moddiy va nomoddiy sohalarda hozirda ishlatilayotgan barcha resurslar birinchi guruhga mansub. Hali aniqlanmagan, mavjud bo'lsa ham qazib olish imkoniyati o'ta cheklangan, foydalilik koeffitsiyenti pastligi bois qazib chiqarilmayotgan va o'zlashtirilsa hozirgi imkoniyatlardan kelib chiqib ekotizimga jiddiy xavf tug'diradigan resurslar istiqbolli – potensial boyliklar deyiladi.

VI mezon: bozor talablariga ko'ra – iqtisodiy tasnifning navbatdagi kriteriyasi ichki bozorni qondirishga yo'naltirilgan, valyuta tushumining asosini tashkil qilganligi bois eksportga yo'naltirilgan, mamlakat xavfsizligi va iqtisodiy qudratini belgilaydigan – strategik ahamiyat nuqtai nazaridan ajratiladi.

VI mezon: almashlab foydalanish xususiyatiga ko'ra – iqtisodiy tasnifning ushbu kriteriyasi biri boshqasining o'rnida ishlatilishi mumkin bo'lgan tabiiy boyliklar mavjud yoki yo'qligi asosida ajratilgan. Agarda biror resurs o'rnini boshqasi bosa olmasa va uni sun'iy yo'l bilan hosil qilish imkoniyati cheklangan bo'lsa, bunday boyliklar muqobili yo'q boyliklar hisoblanadi. Jumladan, suv va havo, biologik va iqlimiy resurslar ushbu guruhga mansub.

Ayrim tabiiy resurslar o'rnida fan-texnika yutuqlari va IT texnologiyalari asosida hosil qilingan boyliklar muqobili bor resurslar guruhini tashkil etadi.

Tabiiy resurslarni tasniflash va uni manzilli tadqiq etish o'rganishni tizimlashtiradi, xulosalarning aniq bo'lishiga sabab bo'ladi.

Tabiiy resurslar tasnifi

| Mezonlar | Guruhlar | Resurs turlari | Resurs tarkibi |
|--|--------------|----------------|---|
| Genetik (tabiiy) klassifikatsiya | | | |
| Tabiiy jihatdan hosil bōlishiga kōra | mineral | yoqilg‘i | neft, tabiiy gaz, ko‘mir, torf, yonuvchi slanes, uran |
| | | rudali | temir, mis, oltin, kumush |
| | | norudam | tuzlar, fosforit, qurilish materiallari, qimmatbaho toshlar |
| | yer | tuproq | kashtan, qora, bo‘z, ferralit, qumli, sur-qo‘ng‘ir |
| | suv | chuchuk | daryo, ko‘l, muzlik, yer osti suvlari |
| | | sho‘r | dengiz va okean, ko‘l va yer osti suvlari |
| | biologik | o‘simlik | daraxt, buta, o‘t-o‘simlik |
| | | hayvon | xonaki hayvonlar, yovvoyi hayvonlar |
| | | iqlimiy | agroiqlimiy |
| Ekologik klassifikatsiya | | | |
| Resurs zaxirasining tugashi va qayta tiklanishiga kōra | tugaydigan | tiklanadigan | chuchuk suv, tuproq, biologik resurslar |
| | | tiklanmaydigan | mineral resurslar |
| | tugamaydigan | iqlimiy | Quyosh energiyasi, havo, shamol |
| | | suv | Dunyo okeani suvi |
| | | geotermal | Yerning ichki energiyasi |

| Iqtisodiy klassifikatsiya | | | |
|--|------------------------|-----------------------|---|
| Iqtisodiyotning turli sohalarida foydalanishiga kōra | moddiy soha | sanoat | mineral va biologik resurslar |
| | | qishloq xo‘jaligi | agroiqlimiy, yer va suv resurslari |
| | | binokorlik | qurilish materiallari |
| | xizmat ko‘rsatish | rekreatsiya | iqlimiy, suv, biologik resurslar |
| Foydalanish maqsadiga kōra | bir maqsadli | energetik | yoqilg‘i, iqlimiy va kosmik resurslar |
| | | o‘rmon resurslari | yog‘och, selluloza |
| | | mineral xomashyo | metallar, qimmatbaho toshlar, qurilish materiallari |
| | ko‘p maqsadli | suv | suv resurslari |
| | | havo | toza havo |
| | | yer | tuproq va geologik qatlam |
| | | o‘rmon resurslari | xomashyo va rekreatsiya |
| Foydalanish imkoniyatiga kōra | real | moddiy | sanoat, qishloq xo‘jaligi va binokorlikda foydalaniladigan resurslar |
| | | nomoddiy | iqlimiy va kosmik resurslar |
| | potensial | aniqlanmagan | hali kashf etilmagan va o‘rganilmagan resurslar |
| | | texnologik cheklangan | foydalanish imkoniyati cheklangan resurslar |
| | | past rentabelli | qazib olish mahsulot ishlab chiqarish tannarxidan qimmatga tushadigan resurslar |
| | | ekologik nobarqaror | foydalanilsa, ekotizimni izdan chiqaradigan resurslar |
| | Bozor mezonlariga kōra | strategik | mineral xomashyolar |
| radiaktiv elementlar | | | uran |
| tabiat yodgorlilari | | | qo‘riqxonalaridagi noyob resurslar |

| | | | |
|--|------------------------|-------------------------------|---|
| | eksportga yoʻnalgan | mineral | yoqilgʻi, rudali va noruda boyliklar, qimmatbaho toshlar |
| | | energetik | elektrenergiya |
| | | biologik va oʻrmon resurslari | yuqori sifatli yogʻoch, dorivor oʻsimliklar |
| | ichki bozor resurslari | suv | ichimlik suvi |
| | | mineral | yoqilgʻi, rudali va noruda boyliklar, qurilish materiallari |
| | | energetik | elektrenergiya |
| Almaslab foydalanish xususiyatiga kōra | muqobili yoʻq | yer | tuproq |
| | | suv | chuchuk suv |
| | | biologik | oʻsimlik va hayvonlar |
| | | iqlimiy | havo |
| | muqobili bor | mineral | yoqilgʻi, ayrim qurilish materiallari |
| | | energetik | anʼanaviy va noanʼanaviy energiya resurslari |

Izoh: Jadval mualliflar tomonidan shakllantirilgan

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, tabiiy resurslarni klassifikatsiyalashdan foydalanish ularning turli guruhlari, genetik tavsifi, xoʻjalikda foydalanish imkoniyatlari, oʻrganilganlik darajasi va ulardan oqilona foydalanish hamda saqlash yoʻllarini topish imkonini beradi. Masalan, ishlab chiqarish jarayoniga tiklanmaydigan resurslarni jalb etishda ulardan oqilona foydalanish, toʻliq va majmualiy qayta ishlashga eʼtiborni qaratish kerak boʻladi. Tiklanadigan resurslardan foydalanishda esa ifloslanishning turli yoʻllarini oldini olishga va har tomonlama qayta tiklashga eʼtiborni kuchaytirish zarur.

9.3-§. Tabiiy resurslarni iqtisodiy baholash

Tabiiy resurslardan foydalanishni toʻgʻri tashkil etish uchun uni baholash, monitoring qilib borish zarur hisoblanadi. Iqtisodiy baholash atamasi falsafiy kategoriya boʻlgan «qiymat» tushunchasi bilan bir mazmunga ega. Qiymat obyekt ahamiyatining qay darajada ekanligini aks ettiradi va bu inson ehtiyojlarini qondirishi bilan belgilanadi. Tabiiy

resurslarni baholash umumfalsafiy yondashuvlardan kelib chiqib, resurslarga xos xususiyatlarni insonlar ilgari surgan qiymat mezonlari bilan taqqoslashni nazarda tutadi.

Tabiat va uning resurslarini, rekreatsiya manbai bo'lgan tabiat ko'rkamligini barcha xususiyatlarini e'tiborga olgan holda aniq iqtisodiy baholash juda murakkab. Zero, tabiiy resurslarni baholash mezonlari hozirgacha to'liq ishlab chiqilmagan. Lekin, umuman olganda, boyliklarni baholashda talay tajriba mavjud, ular asosida juda aniq bo'lmasa-da, taxminiy qiymatlarni ishlab chiqish mumkin.

Tabiiy sharoit va resurslarni iqtisodiy jihatdan baholashni aniqlash uchun mavjud yondoshuvlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: bozor bahosi, renta (resurs moliyaviy qiymati), tabaqalashgan renta, sarflash, muqobil qiymat, umumiy iqtisodiy baholash.

Tabiiy resurslarni iqtisodiy baholashning variantligini turli ko'rsatkichlarda ifodalanish mumkin:

- **natural** ko'rsatkichlar – litr, kilogramm, tonna, barel, karat, troy unsiya, metr kub, kilovatt-soat va boshqalar;

- **balli** ko'rsatkichlar – resurslarning nisbiy o'lchami, ularning taqqoslama xo'jalik ahamiyatini baholash. Masalan, tuproq bonitetini ballarda ifodalash va boshqalar;

- **qiymat** ko'rsatkichlari – resurslarning bozordagi narxini aniqlashda tabiiy resurslardan foydalanganligi uchun to'lovlarni belgilash, iqtisodiy zararni aniqlash va boshqa hollarda qo'llaniladi.

Tor ma'noda, tabiiy resurslarni iqtisodiy baholash ulardan foydalanish orqali olinadigan daromat qaratilgan baholashni bildiradi. Iqtisodiy baholash tarmoq va hudud yo'nalishlarga bo'linadi.

Baholash obyekti sifatida ayrim resurs turlarining manbalari (foydali qazilma konlari, o'rmonlar, suv havzalari, yer uchastkalari va boshqalar) qabul qilinishi mumkin va bunda baholash tarmoq xarakteriga ega bo'ladi. Tarmoqlar bo'yicha baholash bilan bir qatorda mintaqaviy baholash, ya'ni u yoki bu hududlardagi barcha resurslar majmuasini – tabiiy resurslarning hududiy birikmasini baholash katta ahamiyatga ega.

Tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish uchun ularni analiz, sintez, prognoz qilib borish talab etiladi. Xususan, tabiiy resurslarning miqdori va xususiyatlariga bog'liq holda, ularga tegishli hisoblashlarni amalga oshirish juda muhim va ahamiyatli hisoblanadi.

Tabiiy resurs bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash. Yer shari juda ko'p va xilma-xil tabiiy resurslarga ega. Ular yer yuzasi

bo‘ylab ancha notekis joylashgan. Shu sababli, alohida hududlar, mamlakatlar, materiklar tabiiy resurslar bilan turlicha ta‘minlangan, ularning turlari va miqdoriy ko‘rsatkichlari ham har xil. Bu holat, o‘z navbatida, *resurslar bilan ta‘minlanganlik* tushunchasini keltirib chiqaradi.

Tabiiy resurslar bilan ta‘minlanganlik deganda, tabiiy resurslarning umumiy ko‘lami ko‘rsatkichlari bilan ulardan foydalanish miqdori o‘rtasidagi nisbat tushuniladi. U tabiiy resursning necha yillargacha yetishi yoki resurs zaxirasining aholi jon boshiga qanchadan to‘g‘ri kelishi ko‘rsatkichlari bilan ifodalanadi. Bunda chiqqan ko‘rsatkichning katta-kichikligiga qarab ta‘minlanganlik aniqlanadi hamda quyidagicha hisoblanadi:

1) *resursning qancha muddatga yetishini aniqlash:*

$$R_{en} = \frac{1 \cdot \sum R}{R_d}$$

Bu yerda, R_{en} = resursning qancha muddatga yetishi;

1 = qazib chiqarish hajmi inobatga olinadigan vaqt hisobi (yil);

$\sum R$ = jami aniqlangan resurs zaxirasi;

R_d = yillik qazib chiqariladigan resurs hajmi.

Resurs qancha uzoq muddatga yetsa, ta‘minlanish shuncha yuqori bo‘ladi.

2) *aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi resurs miqdorini aniqlash:*

$$S^R = \frac{\sum R}{S}$$

Bu yerda, S^R = aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi tabiiy resurs miqdori;

$\sum R$ = jami aniqlangan resurs zaxirasi;

S = joriy davrdagi aholi soni.

Tabiiy resurslar bilan ta‘minlanganlikning ushbu ifodasida har bir aholiga jon boshiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha resurs miqdori aniqlanib, uning ko‘p yoki ozligiga ko‘ra ko‘rsatkich baholanadi.

Tabiiy resurslar bilan ta‘minlanganlik darajasini aniqlashning yuqoridagi mezoniga asosan, jahon mamlakatlari barcha resurslar bilan ta‘minlangan (AQSh, Rossiya, Xitoy va boshq.), ayrim resurslar bilan ta‘minlangan (Finlyandiya, Saudiya Arabistoni, Zambiya va boshq.) va hech qaysi resurslar bilan ta‘minlanmagan (Vatikan, Sent–Lyusiya, Andorra va boshq.) davlatlarga bo‘linadi.

Yer resurslarini sifat jihatidan qiyosiy baholash. Yer resurslari – bu ma’lum bir davlat, viloyat, joy, mintaqa yoki materiklar hududidagi tabiiy-tarixiy xususiyatlari bilan ajralib turadigan, aniq bir xo‘jalik maqsadlarida muntazam foydalanib kelinayotgan yoki shu maqsadlarda foydalanish uchun yaroqli yerlar hisoblanadi. Yer yuzining bir xilda emasligi ma’lum. Uning xususiyatlaridan esa tuproq unumdorligi, hosildorligi kelib chiqadi. Tuproqlarning o‘simliklarni hosil beradigan darajada suv va moddiy ozuqalar bilan ta’minlay olish xususiyatiga esa hosildorlik deyiladi. Tuproqning hosildorligi uning fizik, kimyoviy va biologik xossalariga bog‘liq bo‘ladi va u tuproq bonitirovkasini keltirib chiqaradi.

Yer resurslarini sifat jihatdan qiyosiy baholash tuproq bonitirovkasi deb ataladi. Tuproq bonitirovkasi tuproq hosildorligiga qarab belgilanadi va, odatda, 100 balli shkala asosida amalga oshiriladi. Xususan, O‘zbekistonda bonitirovka asosini paxta hosili tashkil qiladi. Paxtadan gektariga 40 sentner hosil beradigan yerlar 100 balli bonitetga teng deb olinadi. Jumladan, eroziyaga uchramagan tipik va bo‘z tuproqlar «yuqori» bonitetga (80-100 ball), deltalardagi sho‘rlangan, sug‘oriladigan o‘tloq tuproqlar «o‘rtacha» bonitetga (40-60 ball), kuchli sho‘rlangan, toshloq, taqirli va gilli tuproqlar «past» bonitetga (10-39 ball) ega va h.z.

Ko‘pchilik chet mamlakatlarda bonitirovka asosini donli ekinlar yalpi hosili tashkil etadi. Masalan, Misr, Fransiya, Germaniya, Italiya kabi davlatlarda bu ko‘rsatkich 50 s/ga va undan ortiq.

Yuqoridagi paxta yalpi hosiliga qarab tuproq bonitetini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$G^{\varphi} = \frac{x \cdot \sum C_r}{100}$$

Bunda, G^{φ} = o‘rtacha har gektar maydonga to‘g‘ri keluvchi hosil;

$\sum C_r$ = bonitet asosini tashkil etuvchi maksimal qiymat (40 s/ga);

x = berilgan bonitet bali;

100 = tuproq bonitirovkasining maksimal ko‘rsatkichi (100 ball).

Agarda hisoblash jarayonida har gektarga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha hosil ma’lum-u, bonitet bali noma’lum bo‘lsa, yuqorida berilgan formuladagi ifodalar o‘rnini almashtirib, hisoblashni amalga oshiriladi.

Inson tafakkuri o‘sishi bilan bog‘liq holda tabiat resurslari turlari ham kengayib bormoqda, bunda eng zamonaviy texnik vositalardan foydalaniladi. Ilmiy-texnik taraqqiyotni rivojlanib borishi bilan

tugaydigan tabiat resurslari o‘rnini bosuvchi yangi sun’iy materiallar ishlab chiqarilmoqda, Dunyo okeani boyliklari o‘zlashtirilmoqda. Ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanishi yo‘lida tabiat resurslaridan samarali foydalanish va tabiatda ekologik muvozanatni ta‘minlab turuvchi yangi sifatli texnologiyalarni yaratish talab etilmoqda. Xomashyo va energiya manbalaridan rejali tarzda foydalanish uni uzoq muddatga yetishini ta‘minlaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. *Tabiiy sharoit va resurslarning qanday o‘xshash hamda farqli jihatlari mavjud?*
2. *Tabiiy resurslar bilan ta‘minlanganlik darajasi deb nima nazarda tutiladi hamda uning qanday ahamiyati bor?*
4. *Tabiiy resurslar bilan ta‘minlanganlik hisoblash amallaridan foydalangan holda, quyidagi jadvalni to‘ldiring.*

| № | Davlatlar | Tabiiy resurslar | | | Qancha yilga yetishi |
|---|--------------------|------------------|------------------------------|------------------------------|----------------------|
| | | nomi | zaxirasi | yillik qazib chiqarish hajmi | |
| 1 | AQSh | oltin | 8 133,5 t | ? | 34 |
| 2 | Germaniya | ko‘mir | 40 mlrd t | 169 mln t | ? |
| 3 | Rossiya | ? | 32,6 trln m ³ | 641 mlrd m ³ | 50 |
| 4 | Saudiya Arabistoni | neft | 268,4 mlrd brl ²¹ | 3,65 mlrd brl | ? |
| 5 | O‘zbekiston | neft | 629 mln brl | ? | 33 |

5. *O‘zbekistonda aniqlangan tabiiy gaz zaxirasi 2 trln m³ ni tashkil qiladi. Agar hozirgidek, yiliga 60 mlrd m³ dan qazib olinsa, tabiiy gaz qancha yilga yetishi mumkin hamda tabiiy resurs bilan ta‘minlanganlik qanday bo‘ladi?*

6. *Tabiiy boyliklarni guruhlashtirishda qanday mezonlar inobatga olinadi?*

7. *Ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishishda qaysi tabiiy resurslarning o‘rni va ahamiyati katta bo‘ladi?*

²¹ brl – barrel, neft o‘lchov birligi. 1 barrel deyarli 159 kg og‘irlikka teng

10-BOB. AHOLI – IQTISODIY VA IJTIMOYIY GEOGRAFIYANING OBYEKTI SIFATIDA

Mavzu annotatsiyasi. *Ushbu mavzuda aholini iqtisodiy va ijtimoiy geografik jihatdan tadqiq etish masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, aholi soni va tarkibi, tadrijiy o'zgarishi, joylashuviga ta'sir etuvchi geografik omillar, aholi punktlarining hududiy tizimlari va rivojlanish qonuniyatlari ochib berilgan.*

Tayanch so'z va iboralar: *aholi geografiyasi, geodemografiya, demogeografiya, aholining diniy tarkibi, yosh-jins tarkibi, milliy-etnik tarkibi, aholining progressiv-statsionar-regressiv tarkibi, demografik ko'rsatkichlar, demografik portlash, depopulyatsiya, demografik siyosat.*

Reja:

- 10.1. Aholining iqtisodiy va ijtimoiy geografik fanlar tizimida o'rganilishi.
- 10.2. Aholi tarkibi va demografik ko'rsatkichlar.
- 10.3. Demografik siyosat va uning mintaqaviy ko'rinishlari.
- 10.4. Mehnat resurslari – ishlab chiqarish kuchlarini tashkil etish asosi sifatida.



10.1-§. Aholining iqtisodiy-ijtimoiy geografik fanlar tizimida o'rganilishi

Aholi va uning xo'jalik faoliyati hamma davrlarda e'tibor markazida bo'lgan. Zero, amerikalik mashhur olim U.Ayzardning fikricha, u yoki bu hududning xo'jaligi murakkab jumboq bo'lib, uni yechishni aynan aholi bo'g'inidan boshlamoq kerak. Darhaqiqat, aholi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tushunchadir, u bilan ishlab chiqarish «boshdan oyoq», chambarcham bog'liq. Chunki mehnat resurslarisiz ishlab chiqarish bo'lmaydi, ishlab chiqarish esa aholi uchun kerak; moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchisi ham, ularning iste'molchisi ham aynan aholining o'zidir.

Aholi (arabcha, «ahl» – jamoa) – Yer yuzida yoki uning muayyan hududida (qit'a, mamlakat, ma'muriy birlikda) istiqomat qiluvchi insonlar majmui hisoblanadi. Aholini iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida o'rganishda uning uch asosiy xususiyati e'tiborga olinishi zarur:

- ✓ iqtisodiy funksiyasi bo'yicha: aholi – ishlab chiqaruvchi kuch;
- ✓ sotsial jihatidan: aholi – asosiy iste'molchi;
- ✓ demografik xususiyatiga ko'ra: aholi – o'z-o'zini takror barpo qiluvchi ijtimoiy qatlam.

Albatta, ushbu fan nuqtai nazaridan eng avvalo aholining iqtisodiy (I) va sotsial (II) xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ular aholini ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya ekanligini o'zida uyg'unlashtiradi. Qolaversa, an'anaviy iqtisodiy geografiya fanining evolyutsion tarzda «iqtisodiy va ijtimoiy geografiya» maqomini rasmiy olishi ham, aynan, inson omili, aholi va uning ijtimoiy rivojlanishining hududiy jihatlarini tadqiq qilish natijasidan kelib chiqqan. Aholining uchinchi xususiyati, ya'ni uning takror barpo bo'lishi esa bevosita demografiya fanining tadqiqot obyekti bo'lib, ushbu jarayonning hududiy tafovutlarini o'rganish demogeografiya, geodemografiya yo'nalishiga mos tushadi.

Tadqiqot jarayonida aholi bir necha fanlar uchun tadqiqot obyekti bo'la oladi. Jumladan, aholi, ayni paytda iqtisodchilar, demograflar, etnograflar, sotsiologlar, geograflar, tibbiyotchilar, huquqshunoslar va boshqa fan vakillarini qiziqtiradi. Ammo har qaysi fan «o'z burchagidan» uni tadqiq va tahlil qiladi. Chunonchi, iqtisodchilar uchun aholi – bu asosiy ishlab chiqarish kuch, mehnat qiluvchi subyekt sifatida ko'riladi; etnograflarni aholining qiziqtiruvchi tomoni uning milliy urf-odati, kiyinishi, an'analaridir; demograf esa aholining takror barpo etilishi, uning tabiiy va migratsion harakati (tug'ilish, o'lim, ko'chib yurish), nikoh, ajralish va boshqa tomonlarini ilmiy asosda tahlil qiladi.

Aholi kishilar uyushmasi bo'lganligi sababli, uni umumiy obyekt sifatida olinsa ham, chuqur tahlillar amalga oshirish uchun predmet nuqtai nazaridan aholining ma'lum jihatlarini o'rganish maqsadga muvofiq. Jumladan, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada aholining soni va tarkibi, hududiy joylashuvi va unga ta'sir etuvchi omillar, demografik ko'rsatkichlarning hududiy xususiyatlari va uning mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatiga ta'siri, migratsiya va urbanizatsiya jarayonlari, turmush-tarzi va mehnat bozorining geografik xususiyatlari tadqiq etiladi.

Aholi soni ko'payishi va uning omillarini o'rganishda sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish ham muhim ahamiyatga molikdir. Unda har bir hudud, millat va ijtimoiy guruhlarda mavjud demografik muammolarni aniqlash maqsadida mutaxassislar tomonidan maxsus so'rovnomalar tuzilib, aholiga tarqatiladi yoki ushbu guruhlarda mutaxassislar ishtirokida suhbatlar olib boriladi. Aholi soni, o'sishi va tarkibini

o‘rganib borish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini to‘g‘ri baholash hamda prognozlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

10.2-§. Aholi tarkibi va demografik ko‘rsatkichlar

Aholi tarkibi deganda, aholining ma‘lum ijtimoiy-iqtisodiy va demografik belgilari asosida taqsimlanishi tushuniladi. Aholi tarkibi, asosan, quyida mezon (kriteriya)gi belgilar orqali aniqlanadi:

- 1) biologik kriteriya – jins, yosh, irq, etnik guruhi;
- 2) ijtimoiy kriteriya – nikoh statusi, sovodxonlik darajasi, lingvistik mansubligi, fuqarolik (identifikatsiya) holati;
- 3) iqtisodiy kriteriya – kasbi, bandlik darajasi, daromad manbai va iqtisodiy ta‘minlanganligi;
- 4) migratsion kriteriya – tug‘ilgan joyi, mazkur aholi maskanida necha yildan beri yashab kelishi, legal yoki nolegal migrantlik holati;
- 5) demografik kriteriya – tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish, nikohga kirish yoshi, homiladorliklar soni, farzandlar soni;
6. Oilaviy tarkib kriteriyasi – oila turlari, oilaning hajmi, oila yoki uy xo‘jaligi.

Aholi tarkibini tahlil qilganda, eng asosiy e‘tibor aholining yosh, jins, irqiy, etnik, diniy, lingvistik mansublikka yo‘naltiriladi. Mazkur kategoriyalar aholi tarkibini aniqlashning katta guruhini tashkil etadi.

10.1-jadval

Aholi tarkibining ayrim yirik kategoriyalari

| Kategoriyalar | Tavsifi | Qo‘shimcha ma‘lumot |
|----------------|---|--|
| Yosh tarkibi | <i>aholining yosh guruhlari va yosh kontingentlari bo‘yicha taqsimoti</i> | Aholi yosh tarkibi bo‘yicha bolalar (0-14 yosh), o‘smirlar (15-24 yosh), o‘rta yoshlilar (25-30 yosh), yetuklik davridagilar (31-59), qariyalar (60-69 yosh), keksalar (70-89), uzoq umr ko‘ruvchilar (90 dan katta yosh) |
| Jinsiy tarkibi | <i>aholining erkak va ayollarga taqsimlanishi</i> | Odatda, aholi jinsiy tarkibida erkaklar har 100 ta yoki har 1000 ta ayolga nisbatan (va aksincha holatdagi) soni hisoblanadi hamda foizda ifodalanadi. Har ikki jins vakillarining jami aholiga nisbatan ulushi ham aniqlanadi |

| | | |
|--------------------|---|---|
| Irqiyl tarkibi | <p><i>avloddan avlodga o'tuvchi o'xshash tashqi belgilar (terisining rangi va gavda tuzilishi) asosida aholining genetik, jismoniy va antropologik mansubligi</i></p> | <p>Irqlar mohiyati va paydo bo'lish sabablari jihatidan biologik kategoriya bo'lib, inson organizmining tashqi muhitga moslashishi natijasida shakllangan. Jahon aholisining katta qismi (70%) asosiy (yevropeoid, mongoloid, negroid, avstraloid), qolgan qismi esa oraliq va aralash irqlarga mansub. Biroq, tashqi belgilar kishilarning intellektual qobiliyatlari va insoniy sifatlariga ta'sir ko'rsatmaydi</p> |
| Etnik tarkibi | <p><i>muayyan hududda yashovchi millatlar va etnik guruhlarining xilma-xilligi</i></p> | <p>Etnik tarkib odamlarning millatiga ko'ra taqsimlanishi va ularning umumiy aholi tarkibidagi ulushi bilan belgilanadi. Jahon davlatlari aholisining milliy tarkibi xususiyatlariga ko'ra bir millatli, ikki millatli, bir millat boshqalariga nisbatan katta salmoqqa ega, kelib chiqishi bir-biriga yaqin millatlardan iborat va ko'p millatli davlatlar guruhlariga ajratiladi</p> |
| Diniyl tarkibi | <p><i>aholining konfessiyaviyl mansubligi bo'yicha taqsimlashi</i></p> | <p>Aholining boshqa tuzilmalaridan farqli o'laroq, u barcha aholini emas, balki ularning faqat e'tiqodlilarini qamrab oladi. Chuni aholi tarkibida hech qaysi dinga e'tiqod qilmaydigan (ateist) kishilar ham mavjud. Ko'pgina mamlakatlarda diniyl mansublik fuqarolarning shaxsiyl erkinligi hisoblanadi. Shu bois, din bo'yicha aholining rasmiyl hisobi yuritilmaydi</p> |
| Lingvistik tarkibi | <p><i>ma'lum hududdagi aholining muloqot tilidagi lingvistik xususiyatlar</i></p> | <p>Jahonda mavjud bo'lgan tillar kelib chiqishining umumiyliyl, leksik va grammatik tizimlarining o'xshashligini hisobga olib 20 dan ortiq til oilalariga birlashtiriladi. Ular orasida hind-yevropa til oilasi</p> |

| | | |
|--|--|--|
| | (leksik va grammatik) xususiyatlar bo'yicha mansubligi | (45%) so'zlashuvchilar soniga ko'ra yetakchilik qiladi. Shuningdek, jahonda koreys, yapon, bask, ayn, burish singari hech qaysi til oilasiga kiritilmaydigan tillar ham mavjud |
|--|--|--|

Umuman olganda, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada aholi tarkibini o'rganish dunyoning turli mintaqalarida sodir bo'layotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hodisalarning keng doirasini yaxshiroq anglashga yordam beradi, uning sabab-oqibatlarini baholash imkoniyatini oshiradi.

Asosiy demografik kategoriya va ko'rsatkichlar

Aholi tabiiy harakatining qayd etilishi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishga asoslanadi. Aholining tabiiy harakati, uning takror barpo bo'lishi bevosita (tug'ilish, o'lim) va bilvosita (nikoh, ajralish) ta'sir etuvchi demografik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Tabiiy harakat haqidagi axborot asosida mamlakat aholisining soni, tabiiy harakatining nisbiy ko'rsatkichlari hisoblanib, ular asosida aholi soni va tarkibining istiqboldagi prognozi amalga oshiriladi.

Aholi kategoriyalari deganda, ma'lum aholi maskanida yashovchi va shu maskan bilan bog'liq aholi guruhining umumiy xususiyatlari tushuniladi (10.2-jadval). Bunda aholi ro'yxatidan kelib chiqib, aholi kategoriyalari quyidagicha ifodalanadi:

- ❖ doimiy aholi – ma'lum hududda aholi ro'yxatida turuvchi, uzoq muddat davomida istiqomat qilib kelayotgan aholi;
- ❖ vaqtincha aholi – muqim yashash holatida bo'lmagan va yuridik hujjatlarda turuvchi aholi;
- ❖ mavjud aholi – ma'lum hududda ayni paytda yashayotgan umumiy aholi soni.

Aholini tadqiq etishda tug'ilish, o'lim, tabiiy va mexanik ko'payish, nikoh va ajralish ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida ularning ayrimlari ko'rib chiqiladi:

Tug'ilish koeffitsiyenti har 1000 aholiga nisbatan tug'ilgan bolalar sonini ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$❖ T_k = \frac{T}{S} \cdot 1000$$

Bu yerda, T_k = tug'ilish koeffitsiyenti;

T = tug'ilganlar soni;

S = umumiy aholi soni.

Tug‘ilish koeffitsiyenti, odatda, promilleda hisoblanadi. Bu koeffitsiyentdan tug‘ilish darajasini ifodalashda ko‘proq foydalaniladi. Uning yordamida ma‘lum avlodlardagi tug‘ilishda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar umumiy tarzda o‘rganilishi mumkin.

10.2-jadval

Aholi kategoriyalari

| | | |
|-----------------------------|------------------------------------|---|
| Doimiy aholi soni | $P_S = S + (T - O') + (M_i - M_e)$ | P_S = doimiy aholi soni; S = oxirgi ro‘yxatga olish ma‘lumoti (OROM) bo‘yicha soni; T = OROM muddatidan beri tug‘ilganlar soni; O' = OROMdan beri o‘lganlar soni; M_i = OROMdan beri ko‘chib kelganlar soni; M_e = OROMdan beri ko‘chib ketganlar soni |
| Vaqtincha aholi soni | $T_S = M_S - P_S$ | T_S = vaqtincha aholi soni; M_S = mavjud aholi soni; P_S = doimiy aholi soni |
| Mavjud aholi soni | $M_S = P_S + T_S$ | M_S = mavjud aholi soni; P_S = doimiy aholi soni; T_S = vaqtincha aholi soni |

O‘lim koeffitsiyenti – o‘rganilayotgan ma‘lum hududdagi umumiy aholiga nisbatan o‘lganlar soni bilan aniqlanadi va bunda har 1000 kishiga nisbatan o‘lganlar soni bilan ifodalanib, quyidagichicha aniqlanadi:

$$\tilde{O}_k = \frac{\tilde{O}}{S} \cdot 1000$$

Bu yerda, \tilde{O}_k – o‘lim koeffitsiyenti (‰);

\tilde{O} – o‘rganilayotgan davrdagi o‘lganlar soni;

S – o‘rganilayotgan davrdagi aholining o‘rtacha soni.

O‘lim koeffitsiyentiga ham aholining yosh va jinsiy tarkibi bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Aholi tarkibida qariyalar salmog‘ining ko‘pligi o‘lim koeffitsiyentini ko‘tarilishiga olib kelishi mumkin.

Tabiiy ko'payish tug'ilganlar sonining o'lganlar sonidan ortiqligi bo'lib, tabiiy, ijtimoiy va albatta biologik jarayon sifatida quyidagicha hisoblanadi:

$$K_{\uparrow} = T_k - \tilde{O}_k$$

Bu yerda, K_{\uparrow} = tabiiy ko'payish;

T_k = tug'ilish koeffitsiyenti;

\tilde{O}_k = o'lim koeffitsiyenti.

Aholining tabiiy ko'payishi, ko'p hududlarda ijobiy jarayon bo'lib, tabiiy takror barpo bo'lishning tadrijiy vertikal o'zgarishi sifatida kelajak avlod naslini davomchisi, ishlab chiqaruvchi kuch, o'ziga xos mehnat resursi, jamiyatning rivojlanishiga xissa qo'shadigan ijtimoiy birlik bo'lsa, ikkinchi tarafdin, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ortiqcha «yeb qo'yuvchi og'iz»lar hisobladi. Tabiiy ko'payish aholisi depopulyatsiya bosqichidagi mamlakatlarda rag'batlantirilsa, aholisi ancha ko'p davlatlarda tug'ilishni cheklashga doir demografik siyosat qo'llaniladi.

Mexanik ko'payish – aholining migratsiya hisobiga ko'payishi bo'lib, uning qiymati quyidagicha hisoblanadi:

$$M_{\uparrow} = M_i - M_e$$

Bu yerda, M_{\uparrow} = aholining mexanik ko'payish ko'rsatkichi;

M_i = immigrant(ko'chib kelgan odam)lar soni;

M_e = emmigrant(ko'chib ketgan odam)lar soni.

Odatda, mexanik ko'payish rivojlangan mamlakatlarda musbat, rivojlanayotgan davlatlarda esa manfiy saldogaga ega bo'ladi.

Aholi umumiy ko'payishi tabiiy va migratsion ko'payish hisobiga aholi sonining o'zgarishini ifodalaydi. Aholi tabiiy harakatlari, ya'ni tug'ilish va o'lim jarayonlari natijasida aholining demografik holati o'zgarib turadi: yo ko'payadi, yo kamayadi, ba'zi hollarda esa turg'un holat kuzatiladi. Tabiiy ko'payishdan tashqari, mexanik ko'payish ham aholi soniga, tabiiyki, ta'sir qiladi. Demak, ma'lum hudud va ma'lum bir muddat davomida aholi sonining dinamikasi har ikkisini ham inobatga olgan holda, quyidagicha ko'rinishlarga ega:

$$S_{\uparrow} = K_{\uparrow} + M_{\uparrow}$$

Bu yerda, S_{\uparrow} = aholi sonining umumiy o'sish ko'rsatkichi;

K_{\uparrow} = tabiiy ko'payish;

M_{\uparrow} = mexanik ko'payish.

Aholi sonining o'zgarishiga tabiiy va mexanik ko'payishning qay darajada ta'sir etishiga qarab, istiqbolli demografik rejalar tuziladi hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar shunga mos ravishda tashkil etiladi.

O'rtacha aholi soni (S_y) ma'lum yillar oralig'ida hisoblanganda faqat ikki muddat oralig'i bo'lishi shart emas, ya'ni buni hisoblashda nechta yil hisobi olingan bo'lsa, ularning qiymatlari o'zaro qo'shib, necha yil hisobi bo'lsa, shuncha songa bo'linadi. Bunda ayrim yillari aholi ko'payib ketgan, ayrim yillari kamaygan o'rtacha qiymat esa ularning muvofiqlashtirilgan ko'rinishi hisoblanadi. Lekin hisoblashga oson bo'lishi hamda tushuntirishning qulayligidan kelib chiqqan holda, ikki muddat oralig'ini olish maqsadga muvofiq bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$S_y = \frac{S_0 + S_1}{2}$$

Bu yerda, S_y = o'rtacha aholi soni;

S_0 = o'tgan davrdagi aholi soni;

S_1 = joriy davrdagi aholi soni.

Agar bir yilning o'zidagi o'rtacha aholi sonini hisoblash talab qilinsa, ushbu yil boshidagi (asosan, 1-yanvar hisobi bo'yicha) va oxiridagi (asosan, 31-dekabr hisobi bo'yicha) qiymatlari yoki keyingi yilning boshidan foydalaniladi.

10.3-§. Demografik siyosat va uning mintaqaviy ko'rinishlari

Aholi sonini tartibga solish hamda barqarorligini ta'minlash uchun demografik siyosat olib boriladi. Demografik siyosat – bu aholi soni, tarkibi, joylashuvi va sifati dinamikasi tendensiyalarini saqlab qolish yoki o'zgartirish maqsadida aholining ko'payishi va migratsiya jarayonlarini tartibga solish sohasidagi davlat organlari va nodavlat tashkilotlarining maqsadli faoliyati hisoblanadi.

Aytish joizki, demografik siyosatni o'tkazish uchun iqtisodiy, ma'muriy-huquqiy va ijtimoiy-psixologik uslublardan foydalaniladi.

Iqtisodiy uslub, asosan, tug'ilish darajasi aholi ko'payishini ta'minlay olinmagan hollarda qo'llaniladi. Bu uslubda davlat tomonidan homilador ayollarga farzand ko'rgandan keyin va farzandi 2-3 yoshga to'lgunga qadar maxsus nafaqalar ajratiladi hamda turli imtiyozlar beriladi.

Ma'muriy-huquqiy uslubda aholining takror barpo bo'lishiga qonun hujjatlari orqali ta'sir ko'rsatiladi. Masalan, bu uslub abortlarni qonun yo'li bilan ta'qiqlash, nikohga kirish yoshini ko'tarish, aholining migratsion harakatini cheklash yoki rivojlantirish, er-xotin ajrashganda ona va bola huquqlarini himoya qilish, homilador ayolni ishga qabul qilishda yoki bo'shatishda ularning huquqlarini himoyasi va boshqa tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Demografik siyosat o'tkazishning ijtimoiy-psixologik uslubi aholini «demografik tarbiyalash» deb ham ataladi. Aholini demografik tarbiyalash orqali yosh avlodning oilaga, oilada kutilayotgan farzandlar soniga bo'lgan munosabatini davlat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, aholi salomatligiga mos ravishda shakllantiriladi. Bunda oila asosiy tarbiya o'chog'i hisoblanadi. Shuning uchun ham ota-onalarning «demografik savodxonligi»ga katta e'tibor beriladi. Demografik tarbiyaning yana bir muhim o'chog'i ommaviy axborot vositalari orqali aholining demografik mayliga ta'sir o'tkazish hisoblanadi.

Demografik siyosatning istalgan strategiyasi doirasida davlat o'zining ijtimoiy jarayonlarini boshqarish huquqini amalga oshiradi. Shu bilan bir vaqtda, davlat tomonidan olib borilayotgan demografik siyosatning maqsad va vazifalari oqimida borayotgan aholi qismining xarajatlarini qo'llash ham davlat zimmasida boiadi. Bunday siyosat turli ijtimoiy-demografik guruhlar, hududiy va etnik jamoalarning hayotiy qiziqishlari va qadriyatlariga mos ravishda maksimal differentsiallashtirilgan bo'lishi lozim. Shundagina demografik dasturning u yoki bu jihatiga qiziquvchilarning soni kamayib, dasturlarni amalga oshirish xarajatlarining samaradorligi oshishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda, siyosatchilar tug'ilish darajasining kamayishi bilan bog'liq bo'lgan demografik rivojlanishning salbiy tendentsiyalariga qaramay, demografik siyosatni olib borishda to'g'ri chiziqli qarorlarni qabul qilish, ya'ni konkret tor doiradagi demografik maqsadlarni ilgari surishni xohlaydi. Bunda ijtimoiy rivojlanishning global dasturlarida demografik yoki an'anaviy integratsiya siyosatiga ahamiyat beriladi.

Demografik dasturlarga nisbatan bunday ehtiyotkorona munosabatlarni shakllantiruvchi asosiy sabablar quyidagilardan iborat: ong va xulqning individuallasuvi davlatning bu yo'nalishdagi har qanday harakatlarini ommalashmaydi; demografik investitsiyalar tez va muhim ijobiy natijalarga erishish imkonini bermasligi sababli davlat arboblarning siyosiy imidjini oshirmaydi; demografik dasturlar

harajatlarni talab etadi. Masalan, bir marta erishilgan tug'ilish va o'lim darajasini bir maromda ushlab turish uchun ketadigan xarajatlar vaqt o'tishi bilan rasmiy ravishda oshirilib borishi lozim. Buning hisobiga demografik dasturlar, umuman jamiyatga foyda keltirmaydigandek bo'lib ko'rinadi. Bundan tashqari, aholi taklif qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga tezda moslashib, keyinchalik ularga e'tibor qilmay qo'yadi. Shunday qilib, demografik siyosat aholi siyosatining uzviy qismi hisoblanib, u orqali kutilgan, istalgan aholining takror barpo bo'lish turiga erishish mumkin.

Aholi siyosatining asosini demografik siyosat tashkil etadi. O'zbekistonda hozirgi vaqtda olib borilayotgan aholi siyosatining asosiy maqsadi har tomonlama sog'lom avlodga erishish, xalq xo'jaligining har bir sohasi uchun malakali mutaxassislar tayyorlash, aholi salomatli va oila ravnaqini ta'minlashdan iborat.

Aholini o'sishi xaqida turli nazariyalar mavjud jumladan aholi soni xaqida «optimum» nazariyasi, bunda aholi sonining o'sishi, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanish darajasi bilan tenglashtirish goyalari oldinga suriladi, ayniqsa, aholini o'sish xaqida, ingliz iqtisodchisi Tomas Rober Maltus nazariyasi muhim rol o'ynaydi.

XVII asr oxirlari XIX asr boshlarida Angliya sanoatida mashinasozlik yuz bera boshladi qator zavod va fabrikalar qaloq manufakturadan mashina texnologiyasiga o'tdi, natijada zavod va fabrikalarda ishchi o'rinlarini qisqartirish holati yuz beradi. Bu esa ishsizlar guruhining paydo bo'lishiga olib keladi. Ishsizlar turli ishtashlashlar, fabrika-zavod egalariga va davlatga karshi namoyishlar tashkil etadi. Ana shu vaqtda mashhur ingliz iqtisodchisi T.Maltus «Aholishunoslik qonuni haqida tajriba» degan asarini chop etirdi.

T.Maltus bu asarida Angliya sanoat ishlab chiqarishda paydo bo'lgan ishsizlar armiyasini aholi sonining tez o'sishi bilan bog'laydi. Aholi sonining tez o'sishini oldini olish uchun turmush kurish yoshini kechiktirish va turli urushlarni bo'lib turishi mukararligini takidlaydi. Aholi soning o'sishi geometrik progressiya asosida va aholiga iste'mol mollari ishlab chiqarish esa matematik progresiya asosida rivojlanishni ta'kidlaydi. Agar aholi sonining o'sishni oldi olinmasa, ishsizlar armiyasi paydo bo'lishi bilan birga, atrof muhitni ifloslanishni ta'kidlaydi.

T.Maltusni bu g'oyasini ikki tomonlama tahlil etmoq lozim, ya'ni har bir mamlakatda jamiyat taraqqiyotini oqilona rivojlanishi uchun aholi sonining o'sishi bilan ishlab chiqarishni rivojlantirishni

muvofiglashtirish maqsadga muvofiqdir. Aks holda, aholi ortiqchaligi holati yuzaga keladi, shuning uchun ham hozirgi sharoitda bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan qator mamlakatlarda aholini tez sur'atlar bilan o'sishini oldini olish choralari qo'llanilmoqda. Bunga Hindiston, Pokiston, Bangladesh va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari misoldir.

Demografik siyosat yuritishda yuqoridagi tug'ilishni «cheklovchi» turidan farqli ravishda, «rag'batlantiruvchi» turi ham mavjud. Tug'ilishni rag'batlantirishga qaratilgan demografik siyosatni amalga oshirish dunyoning turli mintaqalarida, ayniqsa, tug'ilish darajasi past yoki demografik qarish xavfi mavjud bo'lgan joylarda dolzarb ahamiyatga ega. Jumladan:

– *tug'ilish darajasi past bo'lgan* G'arbiy Yevropa, Boltiqbo'yi davlatlari, Rossiya, Kanada, Janubiy Koreya va boshqalar kabi mamlakatlarda tug'ilish darajasi sustligining salbiy oqibatlariga, masalan, ishchi kuchining qisqarishiga qarshi kurashish uchun demografik siyosat amalga oshirilmoqda;

– *demografik qish bosqichidagi* keksa aholi ulushi yoshlar ulushidan sezilarli darajada oshib ketayotgan mamlakatlar va mintaqalarda, masalan, Yevropaning ayrim hududlari, Yaponiya, shuningdek, Xitoyda²² demografik tarkibni optimallashtirish va aholi qarishining salbiy iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarining oldini olishga yo'naltirilmoqda.

Bu hududlardagi demografik siyosatlar tug'ilishni rag'batlantirish uchun oilalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, nafaqalar, xizmatlar uchun imtiyozlar, bolalar bog'chalari va maktablardagi imkoniyatlar, shuningdek, ish va oila hayotini muvozanatlashtirish choralarni o'z ichiga oladi. Ushbu chora-tadbirlar aholining barqaror o'sishi va turli mintaqalarda demografik muvozanatni ta'minlashga yordam beradi.

Shunday qilib, demografik siyosat mahsulotlarni ishlab chiqarish va taqsimlash, suv ta'minoti, energiyani ishlab chiqarish va iste'mol qilish, atrof-muhitni ifloslantirish, sog'liqni saqlash tizimi, ijtimoiy sug'urta va boshqa sohalarida hisobga olinadi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirishning asosini tashkil qiladi.

²² Xitoyda cheklovchi demografik siyosat amalga oshirilishi natijasida aholining yosh tarkibi keskin o'zgarib, qariyalar ulushi tobora ortib borishi kuzatilmoqda. Ushbu jarayon ta'sirida Xitoy hukumati mamlakatda uzoq yillar davomida amalga oshirilgan «bir oilaga bir bola» tamoyiliga asoslangan davlat siyosatini yumshatib, oilalarga 2016-yil 2 nafar, 2021-yil esa 3 nafar farzand ko'rishga ruxsat berdi

10.4-§. Mehnat resurslari – ishlab chiqarish kuchlarini tashkil etish asosi sifatida

Aholi ishlab chiqaruvchi kuch sifatida mehnat resursi hisoblanadi. Mehnat resurslari deb, o‘zining aqliy va jismoniy mehnati bilan ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etadigan mehnatga qobiliyatli kishilar to‘plamiga aytiladi. Bu ta’rifdan shu narsa kelib chiqadiki, mehnat resurslari o‘ziga iqtisodiyotda mehnat bilan band bo‘lgan kishilarni ham, mehnat bilan band bo‘lmasa ham mehnat qilishlari mumkin bo‘lgan kishilarni xam qamrab oladi. Boshqacha aytganda, mehnat resurslari haqiqiy (real) va potensial xodimlardir.

Ma’naviy rivojlanish darajasi deganda umumta’lim va kasbiy bilimlar hamda ko‘nikmalar, shaxsiy hususiyatlar tushuniladi. Bu xususiyatlar insonning tanlagan faoliyat sohasida muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur shart hisoblanadi.

Insonning har ikkala sifati bo‘lgan jismoniy va ma’naviy rivoji tasvirlarining ahamiyati iqtisodiyotning rivojlanib borishiga qarab doimiy holda o‘zgarib boradi. Bu hol, o‘z navbatda, mehnat sohasidagi mavjud jahon tamoyilini to‘liq aks ettiradi, iqtisodiyotda va umuman, jamiyatda tez va chuqur o‘zgarishlar bo‘lib turgan davrlarda kishilarning jismoniy va ma’naviy fazilatlarini roli ayniqsa ortadi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish esa aksincha, insonning tashabbuskor va faol bo‘lishini nazarda tutadi. Uning qanday yashashi o‘zining yangi iqtisodiy tizimga singib u bilan hamoxong bo‘lib ketish mahoratiga bog‘liq. Insonning jismoniy imkoniyatlari va ma’lumotlilik darajasi, ma’naviyati qanchalik yuqori bo‘lsa, bu narsa shunchalik muvaffaqiyatliroq kechadi.

Zarur jismoniy va ma’naviy imkoniyatlar insonning yoshiga bog‘liq. Ular inson hayotining ilk va yetuk davrlarida shakllanadi va rivojlanib boradi, qarilik chog‘ida esa, tabiiy ravishda birmuncha kamayib boradi.

Yosh chegarasi erkaklar 59 yoshga, ayollar 54 yoshga etgandan so‘ng nafaqa olish huquqi bilan belgilanadi. Biroq bu qoidadan istisno ham bor. Organizmga yuksak ruhiy fiziologik bosimlar bilan bog‘liq kasb faoliyatining ayrim turlari uchun nafaqa chizig‘i sezilarli ravishda 5-8 yilga pastroq, ba’zan undan ham ko‘proq. Bu erda imtiyozli shartlarda qarilik nafaqasi tizimi amal qiladi. Ayollar uchun nafaqa yoshi odatdagi xalqaro tajriba darajasida bo‘lsada, hamma joyda

erkaklarning o'rtacha umir ko'rishi ayollarga nisbatan sezilarli ravishda kamroqdir.

Bu narsa ko'p hollarda noqulay og'ir mehnat sharoitlari bilan bog'liqdir. Shuningdek, bu narsa zarur bo'ladigan «mehnat shaklsi»ni saqlash imkoni yillar o'tishi bilan yo'qolib boradigan kasblar bilan shug'ullanish uchun (masalan balet) ham taalluqlidir.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, real hayotda ko'pgina «imtiyozli pensionerlar» avvalgi kasblarida yoki boshqa ishlarda o'z ishlarini davom ettirmoqdalar, shuning uchun ham ular mehnat resurslari tarkibida qoladilar. Ishlamayotgan pensionerlar esa mehnat resurslarining tarkibidan chiqariladi.

Mehnatga layoqatli yoshdagi kishilarning ma'lum qismini sira ishlamagan yoki sog'lig'i yomon bo'lganligi uchun ishlashdan to'xtagan kishilar tashkil etadi. Bu o'rinda gap I va II guruh nogironlari haqida bormoqda, davlat ularni nafaqa bilan ta'minlab turadi. Bu kishilar mehnat resurslari tarkibiga kiritilmaydi. Biroq I va II guruh nogironlarining ayrimlari (agar ishlab chiqarishda qulay sharoitlar yaratilsa) ishlashlari mumkin. Shuning uchun ham mehnatga layoqatli yoshdagi ishlashi mumkin bo'lgan, davlat tomonidan nafaqa yoshi belgilangan yoshgacha bo'lgan fuqoralar mehnat resurslariga kiradi (I va II guruh nogironlaridan ishlamaydiganlari bundan mustasnodir). Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi orasida ishlamaydigan nogironlarning soni nisbatan kamroq va nisbatan barqarordir.

«Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnat qilishga qobiliyatli aholi» tushunchasini ta'riflab olgandan keyin mehnat resurslariga kiradigan fuqorolarning boshqa kategoriyalariga - ishlaydigan o'smirlar va ishlaydigan pensionerlarga o'tish mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda allaqachon «iqtisodiy jihatdan faol aholi» tushunchasi qaror topgan. Halqaro standartlarga muvofiq ularga mehnat bilan band aholi va ish qidirayotgan ishsizlar kiradi. Shuningdek, «fuqorolik jihatidan iqtisodiy faol aholi» tushunchasi ham tarqalgan bo'lib, ynga harbiy xizmatchilar kiritilmaydi.

Shunday qilib, «mehnat resurslari» o'zining mazmuniga ko'ra, «iqtisodiy faol aholi» tushunchasidan kengroqdir. Iqtisodiy faol aholidan tashqari mehnat resurslari yana mehnatga layoqatli yoshdagi o'quvchilarni ham, shuningdek, ana shu yoshdagi uy bekalari va mamlakatning qolgan barcha aholisini, ya'ni ishsiz bo'lmasa ham, qandaydir sabablarga ko'ra, mamlakat xo'jaligida ish bilan band bo'lmagan aholini ham o'z ichiga oladi.

Mavjud adabiyotlarda «ish kuchi» tushunchasi ko‘p ishlatilsada, uning chegarasi aniq belgilanmagan. Ba‘zan ish kuchi deganda ham haqiqiy xodimlar, ham potentsial xodimlar, ya’ni amalda o‘sha «mehnat resurslari»ning o‘zi tushuniladi. Ko‘pincha bu tushuncha tor ma’noda ~ xodimlarning umumiy sonini anglatadi. Bunga sabab shu bo‘lganki, ko‘pgina mualliflar mehnat bozorida vaziyatga baho berar ekanlar, «ish kuchiga bo‘lgan talab», «ish kuchini taklif qilish» degan tushunchalardan ham foydalanadilar.

Mehnat resurslaridan foydalanish ikkita asosiy talabga mehnatning yuqori samaradorligi va mehnatga layoqatli aholining to‘liq bandligiga erishishni ko‘zda tutadi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanishning asosiy mezonlari – ijtimoiy mehnat unumdorligi va uning o‘shish sur‘atlaridir. Mehnat unumdorligi ko‘p sabablarga ishlab chiqarishning texnika bilan jihozlanganligi va mehnatga to‘g‘ri tashkil qilishiga, ishchilarning malakasiga ham bog‘liq. Ishlab chiqarishning joylashish xususiyatlari va uning kombinatlanishi darajasi hamda ishlab chiqarish jarayoni amalga oshirilayotgan tabiiy sharoitlar ham juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu omillar ijtimoiy ishlab chiqarish geografiyasi bilan bog‘liqdir. U bilan mehnat unumdorligi darajasi o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash iqtisodiy geografik tadqiqotlarning muhim masalasidir.

Mehnat resurslaridan foydalanishning muhim mezonlaridan biri bu aholining mehnatga faolligi, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan mehnatga layoqatli aholining salmog‘idir. Mehnat resurslarini rag‘batlantirish, kadrlar masalasiga jiddiy e’tibor qaratish barcha sohalarning rivojlanishida birlamchi ahamiyat kasb etadi hamda doimo mazkur kategoriyani tadqiq etib borishni taqazo etadi.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Aholi ko‘plab fanlarning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Aynan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada uning qaysi jihatlariga e’tibor qaratiladi?*
- 2. Aholi tarkibi nima?*
- 3. Demografik ko‘rsatkichlar va kategoriyalar jadvalini shakllantiring.*
- 4. Demografik siyosatning qanday mintaqaviy ko‘rinishlari mavjud?*
- 5. Ishlab chiqarish kuchlarini tashkil etishda mehnat resurslarining o‘rni va ahamiyati qanday?*

11-BOB. GLOBAL MIGRATSION JARAYONLAR

Mavzu annotatsiyasi. *Mazkur mavzu aholi migratsiyasi va uning sabab-oqibatlarining geografik o'rganilishiga bag'ishlangan. Jumladan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda migrantlarni jalb qiluvchi omillar va oqimlar asosida hozirgi zamon global migratsion jarayonlarining geografik manzarasi yoritib berilgan. Qolaversa, migratsiyaning salbiy va ijobiy oqibatlari tahlil etilgan.*

Tayanch so'z va iboralar: *migratsiya va uning turlari, migratsion oqim, mexanik ko'payish, migratsiyaning asosiy tamoyillari, migratsion siyosat.*

Reja:

- 11.1. Aholi migratsiyasining shakllanish sabablari va asosiy turlari.
- 11.2. Migratsiyaning demografik vaziyatga ta'siri.
- 11.3. Zamonaviy migratsiya siyosati va muammolari.




11.1-§. Aholi migratsiyasining shakllanish sabablari va asosiy turlari

Jahon mamlakatlarida aholi tarkibi va joylashuviga migratsiyalar katta ta'sir ko'rsatadi. Migratsiya (lotincha migratio – «ko'chish») – aholining bir hududdan boshqa hududga doimiy yoki vaqtincha muddatga ko'chishi. Bitta manzilgoh ichidagi ko'chish migratsiya hisoblanmaydi. Migratsiyalar bir necha mezonlarga ko'ra tasniflanishi mumkin. Hududiy miqyosi jihatidan tashqi va ichki migratsiyalar ajratiladi. Tashqi migratsiya deganda, boshqa davlatga ko'chish tushuniladi. Ba'zida tashqi migratsiyalar materik ichidagi va materiklararo migratsiyalarga bo'linadi. Ichki migratsiya bir davlat ichidagi boshqa hududga ko'chish hisoblanadi. U, o'z navbatida, rayon ichidagi va rayonlararo migratsiyalarga bo'linadi.

Muddatiga ko'ra migratsiyalar doimiy va vaqtincha turlarga bo'linadi. Vaqtincha migratsiyalar *mavsumiy, vaxtali* hamda *mayatniksimon* (tebranma) bo'ladi. Mavsumiy migratsiyalar ko'proq qishloq xo'jalik ishlari bilan bog'liq bo'lsa, vaxtali migratsiyalar, asosan, tabiiy sharoiti noqulay hududlardagi foydali qazilma konlarida yoki qurilish obyektlarida mehnat qilish bilan bog'liq. Mayatniksimon

migratsiyalar esa shahar va uning atrofi o'rtasida kunlik va haftalik tartibda kechadi: shaharga uning atrofidagi qishloq va kichikroq shaharlardan aholi ishlashga, o'qishga va boshqa maqsadlarda, shaharliklar esa chetga, asosan, dam olish, ziyorat qilish yoki dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun tez-tez qatnab turishadi.

Aholi migratsiyasiga *iqtisodiy, oilaviy, etnik, diniy, siyosiy, ekologik (tabiiy)* kabi omillar sabab bo'ladi. Migratsiyalar, asosan, iqtisodiy sabablar, ya'ni muayyan yashash sharoiti va ish o'rinlarini qidirish bilan bog'liq (11.1-rasm).



11.1-rasm. Aholi migratsiyasining tarkibiy tuzilishi

Oilaviy migratsiyalar turli joylarda yashayotgan oila a'zolarining o'zaro birlashuvi borasida amalga oshadi. Etnik va diniy migratsiyalar deganda, ma'lum millat yoki din vakillarining boshqa davlat yoki hududga ko'chishi tushuniladi. Siyosiy migratsiyalar urush yoki siyosiy inqiloblar natijasida ro'y beradi. Ekologik migrantlar tabiiy muhitning buzilishi tufayli yashash hududini tark etadilar. Bundan tashqari, aholi migratsiyalari ixtiyoriy va majburiy, tashkillashtirilgan va tashkillashtirilmagan kabi turlarga ham bo'linadi. «Aholi migratsiyasi» aholining turar joyini o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, bir joydan ikkinchi joyga ko'chishning xilma xil shakllarini o'z ichiga oladi.

Aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi natijasida uning soni, zichligi, uning ko'payish ko'rsatkichlari va yosh tarkibi, ya'ni aholi ko'chib ketadigan va keladigan rayonlardagi demografik vaziyat o'zgaradi.

Migrantlar oqimi yo'nalgan rayonlarda (*bu rayonlarda ko'chib kelganlar soni, ko'chib ketganlar sonidan ortiq bo'ladi*), aholi soni o'sib boradi va uning yosh tarkibi, ko'chish jarayonlaridan aktiv ishtirok etuvchi yoshlar salmog'ining yuqoriligi bilan farq qiladi. Bu hol kelajakda aholi ko'chib kelayotgan rayonlardagi demografik vaziyatni yaxshilashga va aholi tabiiy harakati sur'atlarining oshishiga imkon beradi. Aholi ko'chib ketayotgan rayonlardan katta yoshdagi kishilar salmog'ining o'sishi, yoshlar soni va salmog'ining kamayishi ro'y beradi. Natijada tug'ilish nisbatan kamayadi, o'limning o'rtacha miqdori yuqori bo'ladi, aholining o'sish sur'atlari pasayadi yoki uni soni kamayib boradi.

Aholining jinsiy va yosh tarkibidagi, uning o'sish sur'atlaridagi o'zgarishlar, mehnat resurslarining soni, dinamikasi va tarkibida o'z aksini topadi: mehnat resurslarining keragidan ortib ketishiga yoki ularni yetishmasligiga olib keladi. Umuman olganda, aholi migratsiyalari – bu mamlakatning turli rayonlari va milliy iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida mehnat resurslarini qayta taqsimlashning vositasidir. Chunki, asosan ma'lum kasb malakaga ega bo'lgan kishilar ko'chib yuradilar. Yangi qurilish va qishloq xo'jalik yerlari o'zlashtirilayotgan rayonlarga malakali ishchi kuchi kelishi ularning iqtisodiy rivojlanishini tezlashtiradi, ishlab chiqarishning nisbatan mukammal texnika turlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Migrantlar tarkibi ayrim rayonlar aholisining sosial tarkibiga, aholining madaniy darajasiga, bilimi va etnik tarkibiga ta'sir ko'rsatadi, etnik assimilyasiya jarayonlarini va ko'p tillikning tarqalishini belgilab beradi.

Aholi migratsiyasi ilgari odamlar yashamagan hududlarni aholi bilan ta'minlashga va o'zlashtirishga, aholi tarqalgan yirik yangi areallarni barpo etishga, mamlakat ayrim qismlari orasidagi iqtisodiy va sotsial rivojlanish darajalarini tenglashtirishga imkon beradi. Bunda migratsiyalarning yo'nalishlari hududiy bo'lgan iqtisodiy va sosial vazifalarning hal etishiga yordam berishi zarurdir. Migratsiya jarayonlarini boshqarishda davlat migratsiyalar va ularning geografiyasi to'g'risidagi miqdoriy ko'rsatkichlardan kishilarning ko'chib yurish sabablari haqidagi xilma-xil ma'lumotlardan foydalaniladi. Ana shu

asosda aholining u yoki bu rayonga migratsiyasini rag'batlantiruvchi tadbirlar ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Bu tadbirlar ko'pincha katta xarajat talab qiladi.

Ma'lum hududda yashovchi aholining har 100 kishisiga to'g'ri keluvchi migrantlar soni migrasion harakatning intensivligini yoki koeffitsiyentini ko'rsatadi. U yiliga o'rtacha taxminan 5-6 foizga teng, lekin bu raqam turli joylarda katta farq qiladi. Ma'lum rayon yoki shahardagi migratsiyalarning samaradorligi-migratsiya saldosi deyiladi, u bir yil davomida ko'chib kelgan aholi bilan ko'chib ketgan aholining ayirmasiga teng bo'ladi. Migratsiya saldosi ijobiy yoki salbiy bo'ladi va u absolyut (masalan, yiliga 5000 kishi) hamda nisbiy ko'rsatkichlarda (100 yoki 1000 kishi hisobiga) ifodalanadi.

11.2-§. Migratsiyaning demografik vaziyatga ta'siri

Aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurish, ijtimoiy ishlab chiqarishning tarmoqlar bo'yicha va hududiy tarkibining o'zgarishiga muvofiq amalga oshadi. Bu o'zgarishlar esa, o'z navbatida yangi rayonlar sanoati va qishloq xo'jaligi milliy respublikalarni rivojlantirishga qaratilgandir. Qishloqdan shaharga ko'chishlar ayniqsa doimiy, ommaviy va keng tus oladi. Shaharlar o'rtasidagi aholi almashinishi ham kichik shaharlarda yashovchilarning yirik shaharlarga ko'chish hisobiga ancha kattadir.

Migratsiya oqimlarining yo'nalishiga qarab migratsiya tashqi va ichkiga bo'linadi. Aholining mamlakatlar o'rtasida va mintaqalar bo'ylab tarqalishi tashqi migratsiya deyiladi. O'z mamlakatidagi boshqa mamlakatga yo'nalgan migratsiya oqimi «emigratsiya», boshqa mamlakatdan, o'z mamlakatiga kelishi «immigratsiya» deb ataladi. Mamlakat ichkarisida aholining almashinishi ichki migratsiyaga to'g'ri keladi. Migratsiya jarayonlari miqdoriy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda tavsiflanadi. Bularga quyidagilar kiradi. Migratsiya masshtabi – ma'lum vaqtning aniqlangan paytida mamlakat yoki rayonga kelgan (oy, yil) migratsiyalarning absolyut miqdori migratsiya samaradorligi – vaqtning aniqlangan paytida mamlakat yoki rayondagi har 1000 yoki 10000 aholiga to'g'ri keladigan migrantlar soni qoldig'i migratsiya-aniqlangan davrning vaqtlarida kelganlar va ketganlar miqdori o'rtasidagi farq hisoblanadi.

Migratsiya saldosi musbat va manfiy bo'ladi. U har ming aholiga absolyut miqdorlarda va nisbiy miqdorlarda ifodalanadi. So'nggi

ko'rsatkich migratsiya saldosi koeffitsiyenti deb atalishi mumkin. Aholi taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillardan biri aholi migratsiyasi hisoblanadi. Migratsiya jarayoni tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish kabi demografik jarayonlar safiga kiradi. Aholining shakllanish jarayoni, aholining takror barpo bo'lishi va aholi migratsiyasi o'rtasidagi aloqalar bilan bog'liq. Aholining yashash joyini o'zgartirish maqsadida bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi (harakati) aholi migratsiyasidir. Ba'zan adabiyotlarda aholining qishloqdan shaharga yoki aksincha, shahardan qishloqqa borib ishlab qaytishini *mayatniksimon migratsiya* deb atashadi. Bu to'g'ri emas, albatta. Chunki, qishloqdan shaharga yoki shahardan qishloqqa ishga kelib, kechqurun uyga qaytishda, migratsiyaning eng muhim sharti bajarilmaydi, ya'ni aholi yashash joyini o'zgartirmaydi. Shuning uchun bu jarayonni *aholining mayatniksimon (mokusimon) harakati* deb atash maqsadga muvofiqdir.

Ichki migratsiya – emigratsiya (ya'ni bir mamlakatning ichida, ayrim mintaqalar o'rtasida, qishloqdan shaharga) yoki tashqi – immigratsiya (bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga, bir qit'adan ikkinchi qit'aga) bo'lishi mumkin. Migratsiya, shuningdek, doimiy hamda vaqtincha (shu jumladan mavsumiy) bo'ladi.

Aholi migratsion harakatining sabablari xilma xil bo'lishi mumkin. Aholi bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishga majbur qiluvchi sabablardan eng muhimlari ikkita: iqtisodiy sabablar (masalan, ish qidirib yoki moddiy ahvolini yaxshilash maqsadida bir mintaqadan ikkinchi mintaqaga yoki boshqa mamlakatga ko'chish) hamda siyosiy sabablar (siyosiy, milliy yoki diniy e'tiqodiga ko'ra quvg'in ostiga olinishi, davlatlar o'rtasidagi chegaralarning o'zgarishi yoki harbiy harakatlar davom etayotgan mintaqalardan boshqa joylarga ko'chib o'tish, davlatlar o'rtasida millat vakillarini ayirbosh qilish kabilar).

Ichki migratsiyalar mamlakatlar aholisining ko'payishi yoki kamayishiga ta'sir ko'rsatmaydi, balki aholining mamlakat hududi bo'ylab, shahar bilan qishloq o'rtasida qayta taqsimlanishiga olib keladi, xolos. Tashqi migratsiyalar esa, aksincha, bir mamlakat, hatto materik aholisining kamayishiga, ikkinchi mamlakat yoki materik aholisi ko'payishiga sababchi bo'ladigan muhim omil hisoblanadi.

Aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chib joylashishi juda qadim zamonlardayoq mavjud bo'lgan. Biroq har bir davrning migratsiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega va turli xil oqibatlarga olib keladi. Antik davrning oxiri va o'rta asrlarning boshlarida ro'y bergan hamda adabiyotlarda «*xalqlarning buyuk ko'chish davri*» deb nomlangan

migratsion harakatlar Yevropa va Osiyodagi ko'p xalqlarning etnik tarkibiga katta ta'sir ko'rsatdi. Markaziy va Shimoliy Yevropaga turli xalqlarning joylashuvi, ularning Britaniya orollariga kirib borishi huddi ana shu davrga to'g'ri keladi. Shu davrda slavyan xalqlari Sharqiy Yevropa hamda Bolqon yarim orolini egalladi hamda O'rta Osiyoda turkiy xalqlar paydo bo'ldi.

Arablarning istilolari (ayniqsa, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika hududlarida), mo'g'ullarning yurishlari va boshqalar ham uzoq o'tmishda xalqlarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chib ketishiga hamda ularning etnik tarkibiga ta'sir qilgan muhim voqealardandir. XV-XVI asrlardagi buyuk geografik kashfiyotlar aholi migratsiyasining avj olishiga sababchi bo'ldi. Bu davrda «yangi dunyo» (Amerika)niig kashf qilinishi natijasida Yevropadan juda ko'plab odamlar bu yerga ko'chib kela boshladilar. Eng avval Ispaniya va Portugaliyadan Markaziy va Janubiy Amerikaga ko'chmanchilar ko'chib kela boshladilar, keyinchalik esa, asosan, Shimoliy Amerikaga inglizlar, gollandlar, fransuzlar va boshqa Yevropaliklar ko'chib borib, u yerlarni egalladilar.

Shimoliy Amerikaning janubiy qismlari hamda Markaziy Amerikaning o'zlashtirilishida Afrikadan qul qilib olib kelingan negrlar katta rol o'ynadi. Yevropada sanoatning zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlanishi natijasida bu yerda nisbiy ortiqcha aholiniig, ishsizlik va yersiz dehqonlar soninint ko'payishiga sababchi bo'ldi. Yangi dunyoning o'zlashtirish davrlarida Yevropadan Amerikaga, Avstraliyaga va boshqa qit'alarga ko'chib boruvchilar uchun ma'lum imtiyozlar va yetarli miqdorda srlar bo'lib berilar edi. Bu hol Yevropadan boshqa qit'alarga, ayniqsa, Amerika, Avstraliya, Yangi Zelandiyaga ko'chib ketishni kuchaytirdi. XVIII asr o'rtalaridan to ikkinchi jahon urushi boshlangunga qadar Yevropadan boshqa qit'alarga 70 milliondan ortiqroq aholi ko'chib ketgan. Boshqa mintaqalarga ham Yevropadan ko'p aholi ko'chib ketgan. Agar 1870-yillargacha emigrantlar ko'proq G'arbiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlari (*Buyuk Britaniya, Irlandiya, Germaniya, Skandinaviya* mamlakatlari va boshqalar)dan ketgan bo'lsa, XIX asrning oxirlaridan boshlab, emigrantlarning soni bo'yicha Janubiy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari (*Italiya, Avstriya-Vengriya, Rossiya*) birinchi o'ringa chiqib oldi. Buning asosiy sababi ana shu mamlakatlar qishloq xo'jalngnda kapitalizmning rivojlanishi va dehqonlarning qashshoqlashuvida edi.

Bu davrga kelganda transport aloqalarining rivojlanishi ham aholi ko'chib ketishini ancha osonlashtirdi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida AQShda arzon ishchi kuchiga talab oshib bordi. Janubiy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari esa, ana shunday arzon ishchi kuchi yetkazib beruvchi mintaqaga aylanib qoldi. XVIII va XIX asrlardagi emigrantlar ko'proq Shimoliy Amerika (AQSh, Kanada)ga ko'chib borgan bo'lsalar, XIX asrdan boshlab yana Janubiy Amerika mamlakatlari (ayniqsa, Argentina, Braziliya)ga ko'plab ko'chib bordilar, chunki, Shimoliy Amerika mamlakatlarida kapitalizm umumiy krizisining kuchayishi natijasida ishsizlar ko'paya boshladi, yerlarning narxi qimmatlashib ketdi. Keyinchalik AQSh, Kanada kabi mamlakatlarga ko'chib kelish to'xtatildi.

Bu davrlarda, asosan, ipglizlar va Britaniya orollarida yashovchi boshqa millat vakillari Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrikaga ko'plab ko'chib bordilar. Shimoliy Afrika mamlakatlariga (*Jazoirga — fransuzlar, Tunisga — italyanlar, Marokashga — fransuz va ispanlar*) ham ko'plab Yevropaliklar ko'chib bordilar.

Shunday qilib, XVIII va XIX asrlardagi eng yirik migratsiya Yevropadan boshqa joylarga ko'chib ketish bilan bog'liq bo'lgan. Qit'aning o'z ichida yoki ayrim mamlakatlarning ichidagi migratsion harakatlar uncha katta emas edi. Masalan, XIX asrning ikkinchi yarmidan, ya'ni Rossiyada kapitalistik ishlab chiqarishning rivojlanib borishi va krepostnoylik huquqining bekor qilinishi munosabati bilan mamlakatning Yevropa qismidan Osiyo qismi (*Sibir, Qozog'iston, O'rta Osiyo*)ga ko'chib o'tish ancha kuchaydi. 1861–1914-yillar davomida Rossiyaning g'arbidan sharqiga 5 million kishiga yaqin aholi (asosan, ruslar, ukrainlar, beloruslar, tatarlar, mordvalar) ko'chib o'tdi.

XIX-XX asrning boshlarida Xitoydan Janunubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari (Malaziya, Tayland, Indoneziya va boshqalar)ga, Yaponiyadan Gavayi orollariga, AQShga va ayniqsa, Shimoli-sharqiy Xitoy (Manchjuriya) hamda Koreyaga, Hindistondan Shri-Lankaga, Janubiy va Sharqiy Afrika mamlakatlariga, Janubi-sharqiy Osiyo (Birma, Malayziya)ga va boshqa joylarga aholi ko'chib o'tdi.

Aholining mamlakatlararo va qit'alararo migratsion harakatlari natijasida juda ko'p davlatlarda (ayniqsa, Amerika qit'asida) aholinint etnik tarkibi xilma-xillashib ketdi. Hozir AQSh, Kanada, Braziliya, Argentina, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi mamlakatlarda yashayotgan 600 milliondan ortiq aholining 5/6 qismi yevropaliklarning

avlodlaridir. Faqat AQShning o'zidagina barcha aholining 90 foizi Yevropadan kelganlar yoki ularning avlodlari hisoblanadi.

Yevropaning ayrim davlatlaridan ko'chib borgan xalqlar hozir ham alohidayashashga harakat qiladilar. Masalan, AQShning shimoli-sharqida asosan Buyuk Britaniya va Irlandiyadan ko'chib kelganlar yashaydi. Nyu-Yorkda ko'pchilikni italyanlar va yahudiylar tashkil etadi. Braziliyaning sharqiy mintaqalarida, asosan, Portugaliyadan ko'chib kelganlar, Argentinaning sharqida esa Ispaniyadan kelganlar yashaydi va h.k. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari juda katta migratsion harakatlarga sabab bo'ldi. Urush davom etib turgan paytdagi migratsion harakatlar vaqtincha migratsiondir. Chunki, aholining harbiy harakatlar zonasidan qochib xavfsizroq mintaqalarga ko'chishi urush paytidagi qonuniy bir holdir.

Urush tugagandan keyin chegaralarning o'zgarishi, davlatlarning tuzilishi va boshqalar doimiy migratsion harakatlarga sabab bo'ladi. Ikkinchi jahon urushi boshlanmasdan avval Sharqiy va Janubi-Sharqiy Yevropa mamlakatlari hududida (*asosan Polsha, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Ruminiya, sobiq Yugoslaviyada*) 12 millionga yaqin nemislar yashar edi. Urushda Germaniyaning mag'lubiyati bilan tugashi va Yevropada yangi chegaralarning o'rnatilishi hamda 1945-yilgi Potsdam konferensiyasining qaroriga muvofiq nemislarning deyarli hammasi Germaniya va qisman Avstriya hududiga ko'chib o'tdi. Hozirgi paytda Sharqiy Yevropa mamlakatlarida (*asosan Ruminiya va Vengriyada*) 2000 mingga yaqin nemislar yashaydi.

Urush davrida va undan so'ng Sharqiy Yevropa mamlakatlari o'rtasida qaysi millatga mansubligiga qarab aholi ayirboshlashlar ham bo'ldi. Bu chegaralarni aiiqlash va o'zgartirish yoki o'z aholisi milliy tarkibining mumkin qadar bir xil bo'lishini ta'minlash maqsadida ko'rilgan chora edi. Ana shunday aholi ayirboshlashlar Bolgariya bilan Ruminiya, Polsha bilan sobiq SSSR, Chexiya va Slovakiya bilan sobiq SSSR, Yugoslaviya bilan Italiya, Vengriya bilan Chexiya va Slovakiya va boshqalar o'rtasida bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushining siyosiy va harbiy okupatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan migratsion harakatlar Osiyoda ham kuzatildi. Bu esa Yaponiyaning urushda taslim bo'lishi va u ilgari bosib olgan mintaqalardan yaponlarning o'z yurtiga qaytiish bilan bog'liq edi. 1956-yilgacha Yaponiyaga 6 milliondan ortiqroq yaponlar ko'chib keladi (*asosan, Xitoy va Koreya hududidan*). Ammo ikkinchi jahon urushidan

keynngi Osiyoda eng katta migratsion harakatlar Hindiston va Pokiston davlatlarining tashkil topishi bilan bog'liqdir. Ma'lumki, bu ikkita davlatga ajralish u yerda yashovchi aholining diniy e'tiqodiga qarab amalga oshirildi. Natijada, Hindiston hududida qolishni istamagan 8,8 million musulmonlar Pokistonga va, taxminan, shuncha hindular Pokistondan Hindistonga ko'chib o'tdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin qit'alararo migratsiya yanada kuchaydi. 1946–1961-yillarda Yevropadan 6,9 millionga yaqin aholi boshqa qit'alarga ko'chib ketdi. Italiyadan (*1,1 million kishi – asosan Argentina, AQSh va Venesuelaga*), Buyuk Britaniyadan (*950 ming kishi – ko'proq Kanada, Avstraliya va AQShga*), Ispaniyadan (*500 mingdan ortiqroq kishi Argentina va Venesuelaga*) ko'plab kishilar ko'chib ketdi. Shunday qilib, ikkinchi jahon urushidan keyin, XX asrning 60-yillarining boshlarigacha Yevropa boshqa mamlakatlarga muhojirlar beruvchi qit'a bo'lib keldi. Faqat keyingi yillardagina Yevropada emigratsiya birmuncha susaydi. Ayrim hollarda esa Yevropa boshqa qit'alar bilan migratsion aloqalarda hatto ijobiy migratsion balansga ega bo'la boshladi.

Chet davlatlardagi aholining migratsion harakati haqidagi qisqacha obzorni tugatar ekanmiz, migratsiya oqibatlariga qisqacha to'xtalib o'tish zarur. Migratsiya oqibatida biron davlat aholisi ko'payadi yoki kamayadi, bundan tashqari, aholining yosh, jinsiy tarkibi o'zgaradi, bu esa bir qancha oqibatlarga olib keladi. Ma'lumki, migratsion harakatlarda ko'pincha yosh va o'rta yashar aholi (eng sifatli mehnat resurslari) ishtirok etadi. Bu esa emigrantlar ketgan mamlakat mehnat resurslari sonining kamayishi, tarkibining yomonlashuviga sabab bo'lsa, emigrantlar qabul qilgan davlat mehnat resurslari tarkibini har tomonlama yaxshilaydi.

Migratsion harakatlarda mehnatga yaroqli yosh va o'rta yashar kishilar orasida ko'proq erkaklar ishtirok etadi. Shuning uchun ham olimlar emigratsiyaning oqibatini urushlar oqibati bilan tenglashtiradilar. Chunki, ko'plab emigrantlar yo'qotgan mamlakat urushlardagi singari o'zining yosh va o'rta yoshdagi, asosan erkak mehnat resurslaridan judo bo'ladi. Bu esa, shu mamlakatda aholining bundan keyingi takror barpo qilinishi hamda iqtisodiyotiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Eng so'nggi paytlarda kontinentlararo va mamlakatlararo migratsiyada bahzi tendensiyalarni kuzatish mumkin. Hozirda Shimoliy Amerika mamlakatlariga (AQSh va Kanada) Yevropadan

ko'chib borish sezilarli kamaydi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlaridan ko'chib ketish kuchaymoqda, uzoq yillar (hatto asrlar) davomida boshqa qit'alarga o'z aholisini yuborib turgan Yevropa keyingi 10-yillikda o'zi boshqa mamlakatlardan ko'plab aholi qabul qila boshladi. Ayniqsa, sobiq Ittifoq hududida XX asrning 90-yillardan keyin qator mustaqil davlatlarni tashkil topishi sobiq ittifoq hududi va Yevropa mamlakatlari o'rtasida aholi migratsiyasini kuchayishiga olib keldi. Sobiq ittifoq hududidan Yevropaga, so'ngra okean ortiga ko'chib ketuvchilar ko'paydi.

Sobiq ittifoq tarkibidagi respublikalarni mustaqillikka erishishi bilan aholining respublikaaro migratsiya tezlashdi. Shu jumladan O'zbekiston aholisida migratsiyaning kuchayishi bilan uning umumiy o'sishi kamaydi. Chunki, respublika hududidan ko'plab rusiy zabon millat vakillari va boshqa millatlarni o'z yurtlariga ko'chishi migratsiya saldosi salbiy bo'lishiga olib kelmoqda. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

Aholi migratsiyasi tufayli Yevropaning ayrim mamlakatlarida, shu jumladan Rossiyada ham malakasi past, kam haq to'lanadigan juda ko'plab, muhojirlar mehnatidan foydalanilmoqda. Shuningdek, aholining deyarli barcha davlatlariga xos bo'lgan – qishloqdan shaharlarga ko'chib kelishining ko'payotganligi ham hozirgi zamon aholi migratsiyasining xususiyatlaridan biridir.

Migratsiya jarayonini o'rganishda uning ko'rsatkichlarini tahlil qilish muhim rol o'ynaydi. Migratsiyaning tahlili orasida uning (migratsiyaning) saldosi, hajmi, intensivligi (jadalligi), saldo koeffitsiyenti, yashashlik koeffitsiyenti, migratsiyaning demografik koeffitsiyenti, o'troqlik koeffitsiyenti va boshqa ko'rsatkichlari muhim amaliy ahamiyatga ega (11.1-jadval).

Avvalo, migratsiyaga oid hisob-kitoblarni amalga oshirishda ko'chib kelganlar va ketganlar ko'rsatkichlarini aniqlash lozim bo'ladi. Shu jihatdan, har 1000 ta aholiga nisbatan ko'chib kelganlar ko'rsatkichi immigratsiya koeffitsiyenti orqali hisoblanadi. Aksincha, har 1000 kishiga nisbatan ko'chib ketganlar ko'rsatkichi emigratsiya koeffitsiyenti orqali aniqlanadi.

Migratsiya aholi soniga ta'sir etadi. Ma'lum hududdagi aholi soniga ta'sir etish nuqtai nazaridan migratsiya hajmini bilish ahamiyatli hisoblanadi. Migratsiya hajmi deb, ko'chib ketgan aholi (emigrant) va ko'chib kelgan aholi (immigrant)ning qo'shilmasiga aytiladi.

Asosiy migratsion ko'rsatkichlar

| | | |
|-------------------------------------|--|---|
| Immigratsiya koeffitsiyenti | $K_{im} \frac{M_i}{S} \cdot 1000$ | K_{im} = ko'chib kelganlar koeffitsiyenti; M_i = ko'chib kelganlar soni; S = o'rtacha aholi soni; 1000 = promille hisobida koeffitsiyent |
| Emigratsiya koeffitsiyenti | $K_{im} \frac{M_e}{S} \cdot 1000$ | K_e = ko'chib ketganlar koeffitsiyenti; M_i = ko'chib ketganlar soni; S = o'rtacha aholi soni; 1000 = promille hisobida koeffitsiyent. |
| Migratsiya hajmi | $\sum M = M_i + M_e$ | $\sum M$ = migratsiya umumiy ko'rsatkichi – hajmi; M_i = ko'chib kelganlar soni; M_e = ko'chib ketganlar soni. |
| Mexanik ko'payish soni (saldosi) | $M_{\uparrow} = M_i - M_e$ | M_{\uparrow} = aholining mexanik ko'payish ko'rsatkichi; M_i = ko'chib kelganlar soni; M_e = ko'chib ketganlar soni. |
| Mexanik ko'payish koeffitsiyenti | $M_k = \frac{M_i - M_e}{S} \cdot 1000$ | M_k = migratsiya koeffitsiyenti; M_i = ko'chib kelganlar soni; M_e = ko'chib ketganlar soni; S = o'rtacha aholi soni; 1000 = promille hisobida koeffitsiyent. |

| | | |
|---|--|---|
| Migratsiya intensivligi (faolligi) koeffitsiyenti | $K_i = \frac{M_i + M_e}{S} \cdot 1000$ | K_i – jadallik koeffitsiyenti; M_i = ko‘chib kelganlar soni; M_e = ko‘chib ketganlar soni. S = o‘rtacha aholi soni; 1000 = promille hisobida koeffitsiyent. |
| Migratsiya o‘troqlik koeffitsiyenti | $K_{\delta} = \frac{M_i - M_e}{M_i} \cdot 100$ | K_{δ} – o‘troqlik koeffitsiyenti; M_i = ko‘chib kelganlar soni; M_e = ko‘chib ketganlar soni; 100 = foiz hisobida ko‘rsatkich. |
| Migratsiya samaradorlik ko‘rsatkichi | $M_{sk} = \frac{M_{\uparrow}}{\sum M} \cdot 100$ | M_{sk} = samaradorlik ko‘rsatkichi; M_{\uparrow} = aholining mexanik ko‘payish ko‘rsatkichi; $\sum M$ = migratsiya hajmi; 100 = foiz hisobida ko‘rsatkich. |

Aholi soni tabiiy ko‘payishdan tashqari migratsiyaga ham bog‘liq holda o‘zgaradi. Xususan, aholining migratsiya hisobiga ko‘payishi – *mexanik ko‘payish* deyiladi. U kelganlardan ketganlarning ustunligi yoki ozligiga bog‘liq bo‘ladi. Migratsiya saldosini (qoldig‘i) – bu kelganlardan ketganlarning ayirmasini ifodalaydi, ya‘ni immigratsiyadan emigratsiyani ayiriladi. Ko‘p hollarda, xususan, mamlakatimizda migratsiya saldosini manfiy (-) chiqadi. Rivojlangan mamlakatlarda esa bu ko‘rsatkich musbat (+) qiymatni namoyon qiladi. *Mexanik ko‘payish koeffitsiyenti* har 1000 kishiga nisbatan mexanik ko‘payish ko‘rsatkichini ifodalaydi.

Migratsiya intensivligi (jadalligi) hudud aholisining qancha qismi migratsiya jarayonida ishtirok etayotganini ifodalaydi. *Migratsiya intensivligi koeffitsiyenti* esa har 1000 kishiga nisbatan migratsiya jadalligini bildiradi.

Migratsiyada ishtirok etgan aholi tarkibida ko‘chib kelganlarning necha foizi kelib o‘rnashgan hududida yashab qolganligi *migratsiya o‘troqlik koeffitsiyenti* orqali aniqlanadi.

Aholi migratsiyasiga oid asosiy ko‘rsatkichlarining pirovard natijasini *migratsiya samaradorlik koeffitsiyenti* orqali ifodalanadi. Bunda mexanik ko‘payishning migratsiya hajmiga nisbati nazarda tutiladi.

Umumiy qilib aytganda, aholi migratsiyasiga oid yuqoridagi kabi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish mamlakatning iqtisodiy, demografik, ijtimoiy-madaniy va siyosiy boshqaruvini to‘g‘ri tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, hozirgi globallashuv davrida migratsion jarayonlarni inobatga olmaslik iqtisodiy-ijtimoiy vaziyatni izdan chiqarib yuborishi mutloq haqiqatdir.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi. Aholining ommaviy migratsiyasi jahon hamjamiyatining XX asr ikkinchi yarmidagi hayotining eng xarakterli holatiga aylantirdi. Aholi migratsiyasi deganda ma’lum hududlarda insonlarning doimiy yashash joyini almashtirishi yoki unga qaytish bilan ko‘chib o‘tishi tushiniladi.

Jahon iqtisodiyoti va XIMda xalqaro (tashqi) migratsiyaning turli shakllar – *mehnat, oilaviy, rekreatsion, turistik* va boshqa turdagi shakllari mavjud. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasida biz asosan xalqaro mehnat migratsiyasi, xalqaro ishchi kuchi bozori muammolariga e’tiborni qaratamiz.

Xalqaro ishchi kuchi bozori milliy chegaralarni kesib o‘tuvchi turli-tuman mehnat resurslari oqimini qamrab oladi. Xalqaro mehnat bozori ishchi kuchining milliy va mintaqaviy bozorlarini birlashtiradi. Xalqaro mehnat bozori esa mehnat migratsiyasi shaklida mavjud bo‘ladi. Jahon bo‘yicha 1960-yilda 3,2 mln, 2024-yilda esa 100 mln dan ortiqroq gastarbayerlar (mehnat migrantlari) mavjud bo‘lgan.

Jahon iqtisodiyoti va XIMda ishchi kuchi xalqaro bozori boshqa jahon bozorlari bilan masalan, tovar va xizmatlar, kapital bozorlari bilan birgalikda mavjud bo‘ladi. Ishchi kuchi migratsiyasiga ham iqtisodiy, ham noiqtisodiy xarakterdagi omillar sabab bo‘ladi. Noiqtisodiy xarakterdagi sabablarga – siyosiy, milliy, diniy, irqiy, oilaviy va boshqalarni aytish mumkin. Iqtisodiy xarakterdagi sabablar alohida davlatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini turlichaligiga borib taqaladi. Ishchi kuchi asosan turmush darajasi past bo‘lgan davlatlardan turmush darajasi baland bo‘lgan davlatlarga ko‘chadi.

Ishchi kuchi migratsiyasini belgilovchi muhim iqtisodiy omil ayrim davlatlarda, avvalambor kam rivojlangan davlatlarda organik ishsizlikning mavjudligidir. Xalqaro mehnat migratsiyasining muhim omilini biz kapital olib chiqish va xalqaro korporatsiyalarning faoliyatida ko'rishimiz mumkin. Transmilliy korporatsiyalar ishchi kuchi bilan kapital harakatini amalga oshirishlari orqali yoki uz kapitallarini ishchi kuchi ortiqcha bo'lgan mintaqalarga ko'chirish orqali ishchi kuchining kapital bilan ko'shilishiga imkon yaratadilar.

Transport aloqa vositalarining rivojlanishi ham o'z navbatida xalqaro mehnat migratsiyasining sezilarli rivojlanishiga imkon yaratadi. Migratsion oqimlarni asosan ishchilar, qisman xizmatchilar tashkil etadi. Jahon iqtisodiyotida xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining 5 ta yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Rivojlanayotgan davlatlardan sanoati rivojlangan davlatlarga migratsiya.
2. Sanoati rivojlangan davlatlar doirasidagi migratsiya.
3. Rivojlanayotgan davlatlar orasidagi migratsiya.
4. Sobiq sotsialistik davlatlardan sanoati rivojlangan mamlakatlarga migratsiya.
5. Ilmiy xodimlar, malakali mutaxassislarning sanoati rivojlangan davlatlardan rivojlanayotgan davlatlarga migratsiyasi.

Sanoati rivojlangan davlatlar uchun xorijiy ishchi kuchi normal ishlab chiqarish jarayoni uchun, ba'zida esa normal kundalik hayot uchun zarur bo'lgan sohalarni va infrastrukturaviy xizmatlarni ishchilar bilan ta'minlashni anglatadi. Sanoati rivojlangan davlatlar doirasida mavjud bo'lgan xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi iqtisodiy omillarga nisbatan ko'proq noiqtisodiy omillarga bog'liqdir. Ammo sanoati rivojlangan davlatlar uchun ham «aqlilarni ketishi» xarakterlidir, masalan, Yevropadan AQShga ketishi.

Yevropa Itifoqi (YI) doirasidagi xalqaro ishchi kuchi migratsiyasini alohida ta'kidlab o'tish lozim. YI da «YIH ishchilarining ijtimoiy huquqlari Xartiyasi» qabul qilingan (1989-yil 9-dekabrda imzolangan) bo'lib, «Xartiyaning» birinchi bo'limida shunday deb yozib qo'yilgan: 1) «YIHning har bir ishchisi jamiyat tartibi, xavfsizligi va sog'ligi bilan bog'liq bo'lgan barcha qoida va cheklashlarga bo'ysungan holda hamjamiyat hududi ichida erkin ko'chib yurish huquqiga egadirlar». 2) «Ko'chish erkinligi har bir ishchiga YIHda qabul qiluvchi davlatdagi ishga joylashish, shuningdek mehnat sharoitlari va ijtimoiy himoyaga taaluqli tenglik tamoyillari asosida ish yoki kasb tanlash

huquqini bermog'i lozim». Bundan tashqari «Xartiyada» yagona iqtisodiy hududning qurilishi ijtimoiy ta'minot bilan ham mustahkamlanishi ko'rib o'tilgan.

XX–XXI asrlar bo'sag'asida rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida ham ishchi kuchi migratsiyasi kuchayib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday holni asosan bir tomondan «Yangi industrial davlatlar» va arab amirliklari, OPEK tashkilotika a'zo davlatlar o'rtasida, shuningdek, ikkinchi tomondan boshqa rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi migratsiyadir. Masalan, urushdan keyingi yillarda (60–80-yillarda) Xitoy, Vyetnam va Janubiy-sharqiy Osiyoning boshqa davlatlaridan Gonkongga migratsiya oqimi, ayniqsa, sezilarli bo'lgan edi. Singapur ham ishchi kuchini faol import qilgan. Masalan, Quvayt va Saudiya Arabistonida yamanlik 1 millionga yaqin ishchi ishlagan. Bu migratsiyaning asosiy iqtisodiy sabablari – ishchi kuchini import qiluvchi davlatlarda iqtisodiy hayotning, ish haqining yuqori darajadali bilan bog'liqdir. Bundan tashqari Osiyoning «Yangi industrial davlatlarida», va shuningdek Fors ko'rfazining boy davlatlarida doimiy ravishda past malakali ishchi kuchi yetishmasligidir.

Sanoati rivojlangan davlatlardan rivojlanayotgan davlatlarga ishchi kuchi migratsiyasi ham mavjud. Bunday holni biz asosan Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlaridan rivojlanayotgan davlatlarga kelayotgan malakali kadrlar oqimida ko'rishimiz mumkin, bu migratsiyaning sabablarini biz iqtisodiy (o'quv yurtlarida o'qituvchilik qilish, injenerlik, instruktorlar va boshqalarning yuqori maoshlari, masalan, OPEK davlatlarida) va shuningdek kundalik sabablarda (dunyoni ko'rish va o'zini sinab ko'rish va boshqalarda) ko'rishimiz mumkin.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishchi kuchini olayotgan davlatlar quyidagi afzalliklarga ega bo'ladilar:

- ❖ xorijiy ishchi kuchining arzonligi tufayli ishlab chiqarish harajatlarining kamayishi orqali mamlakatlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarlarning raqobatbardoshligi oshadi;
- ❖ xorijiy ishchilar borgan davlatlarda tovar va xizmatlarga qo'shimcha talab tug'ilib, ishlab chiqarishning o'sishiga va qo'shimcha bandlikni vujudga keltiradi;
- ❖ qabul qiluvchi davlat malakali kadrlarni import qilib ta'lim va professional tayyorgarlik sohalarida mablag'ini tejaydi;
- ❖ xorijiy ishchilar mamlakatda inqiroz va ishsizlik ro'y berganda ma'lum amortizator rolini o'ynaydi, ular birinchi navbatda ishdan bo'shatilishi mumkin;

- ❖ xorijiy ishchilar nafaqa bilan ta'minlanmaydi va turli ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda e'tiborga olinmaydi.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti immigrantlar qarilikdan qiynalayotgan rivojlangan davlatlarda demografik ahvolni yaxshilaydi, deb hisoblaydi. Ishchi kuchi importi bilan bog'liq bo'lgan salbiy holatlarni ham biz aytib o'tishimiz zarur. Ularga jamiyatda ijtimoiy keskinlik elementlari, millatlararo kelishmovchiliklar va boshqalarning paydo bo'lishini kiritish mumkin (mahalliy ishchilar ishlaydigan ish joylari band bo'lganda).

Ishchi kuchini eksport qiluvchi davlatlar ham o'z navbatida bir qator afzalliklarga ega bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iboratdir. Ishchi kuchi eksporti davlatga konvertirlangan valyuta olib keluvchi muhim manba hisoblanadi. XVFnning ma'lumotlariga qaraganda foydaning o'rtacha miqdori tovar eksportida 20 foizni, xizmatlar sohasida esa 50 foizni tashkil etadi.

Ishchi kuchi migratsiyasi davlatda ortiqcha ish kuchining bosimini kamaytiradi va natijada davlatdagi ijtimoiy keskinlikni kamaytiradi. Eksportyor davlat uchun ishchilarni bepul yangi professional tajribalarga o'rgatish, mehnatni tashkil qilishning ilg'or usullari bilan tanishtirish.

Ayni bir paytda ishchi kuchi eksportyorlari ba'zan salbiy holatlarga ham duch keladilar. Eng asosiysi «aqlilarning ketishi», milliy iqtisodiyotga juda kerak bo'lgan malakali, tashabbuskor kadrlarning ketib qolishidir.

Jahon iqtisodiyotida hozirgi kunda ikkita ishchi kuchlarini o'ziga tortuvchi markazlar bo'lib, ular an'anaviy ravishda AQSh va G'arbiy Yevropadir. AQShning mehnat resurslari doimo immigranlar hisobidan to'ldirilgan. 50-yillardan beri AQSh o'ziga yuqori malakali kadrlarni jalb qilish siyosatini yurgizib kelmoqda. Hozirgi kunda ham AQSh yuqori professional ishchi kuchini o'ziga tortuvchi markaz bo'lib qolmoqda. Kam va o'rtacha malakali ishchilar ham ko'p jalb qilib (ayniqsa, Meksikadan) hozirgi kunda AQShdagi immigrantlarning asosiy qismini tashkil etmoqda hamda 2024-yil hisobiga ko'ra, jahon migrantlarining 1/5 qismi yoki 53 mln kishi AQShga to'g'ri keladi.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda 60–90-yillarda rivojlangan kapitalizmning yangi markazlari vujudga kelishi bilan bog'liq holda yangi ishchi kuchlarini o'ziga tortuvchi markazlar ham shakllandi. Bunday markazlar qatoriga Yaqin va O'rta Sharqdagi neft qazib oluvchi davlatlarni - Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni, Qatar, Kuvayt, va boshqalarni kiritish mumkin. Masalan, 90-

yillarning o'rtalarida faqat Saudiya Arabistonining o'zida butun dunyodan kelgan 4 mln nafarga yaqin mehnat migrantlari faoliyat ko'rsatgan edi. Ular neft qazib oluvchi ushbu boy davlatda ishlab chiqarish, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning turli sohalarida band bo'lgan edilar. Osiyoning Yaqin va O'rta Sharq mintaqasiga Janubiy va Janubi-Sharkiy Osiyo, shuningdek ba'zi bir arab davlatlaridan ko'plab migrantlar kelmoqdalar. Ushbu mintaqada Misr asosiy ishchi kuchi eksportyori bo'lib hisoblanadi. Arab davlatlarining boshqalari esa bir vaqtning o'zida ham ishchi kuchi importeri ham eksportyori hisoblanadi. Bunday davlatlar qatoriga Yaman, Iroq, Liviyani kiritish mumkin. Avstraliya ham muhim ishchi kuchini o'ziga tortuvchi markaz bo'lib hisoblanadi. Mamlakat 200 mingga yaqin xorijiy ishchi kuchidan foydalanadi.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda Janubiy Afrika ishchi kuchini o'ziga tortuvchi asosiy markazlardan biriga aylanib bormoqda. Jahon iqtisodiyotida Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari, ayniqsa, «Yangi industrial davlatlar» yangi ishchi kuchini o'ziga tortish markazlari sifatida kuchga kirmoqdalar. Tayvan matbuotining bergan ma'lumotiga qaraganda 90-yillarning ohirlarida bu mamlakatga 100 mingga yaqin ishchi va 20 mingga yaqin injener va texnik xizmatchilar kerak bo'lgan. 60-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlarida ham ishchi kuchini o'ziga tortuvchi markazlar shakllana boshlandi (asosan Argentina va Venesuelada).

Demak, migratsiya ko'pincha global tengsizlik va notekis rivojlanish natijasidir. Odamlar turmush darajasi past va imkoniyatlari cheklangan mamlakatlardan yaxshiroq hayot va iqtisodiy imkoniyatlar izlab ko'chib ketishadi. Zamonaviy migratsiya siyosati ushbu global tengsizliklarni hisobga olishi va resurslarni adolatli taqsimlash va rivojlanish orqali ularni bartaraf etishga intilishi kerak. Bular zamonaviy migratsiya siyosati oldida turgan muammo va muammolarning bir qismi. Ushbu muammolarni hal qilish kompleks yondashuvni, mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni va iqtisodiyot, ijtimoiy sharoit va inson huquqlari kabi turli omillarni hisobga olishni talab qiladi.

11.3-§. Zamonaviy migratsiya siyosatining asosiy muammolari

Migratsiya aholining ehtiyojlari natijasida sodir bo'ladigan jarauon bo'lib, migrant uchun ijobiy yoki salbiy bo'lganidek, emigratsiya/immigratsiya o'choqlari uchun ham shunday holat xarakterli

bo'ladi. Jumladan, migratsiya (ayniqsa, gastarbayerlar) natijasida *iqtisodiy* (mehnat bozoridagi tengsizlik, ijtimoiy xizmatlarga bosim, mehnat resurslari muvozanatining buzilishi), *ijtimoiy-madaniy* (mahalliy aholi bilan nizolar, ksenofobiya, sivilizatsion integratsiyadagi farq natijasida shakllanadigan kelishmovchiliklar, migrantlar huquqlarining buzilishi), *siyosiy* (emigratsiya/immigratsiya markazi hukumatlararo siyosiy mojarolar), *ekologik* (tabiiy resurslarga bosim, atrof-muhit ifloslanishining jadallashishi, ekologik tanglik) muammolar kelib chiqishi mumkin.

Migratsiyaning salbiy oqibatlari tahdidining oldini olish va mavjud voqelikdan eng katta foyda olish imkoniyatini oshirish maqsadida *migratsiya oqimi* kuchayib borayotgan davlatlar migratsiya siyosatini olib bormoqda. Migratsiya siyosati deganda, aholining migratsiya oqimini qonunchilik asosida davlat va davlatlararo tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui tushuniladi. Xalqaro migratsiya siyosatining maqsadlari migratsiya ko'lamini, uni tartibga solish mexanizmini aniqlash, salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni zaiflashtirish va migratsiya jarayonida ishtirok etuvchi mamlakatlar uchun migratsiyaning ijobiy ta'sirini kuchaytirishdan iborat. Migratsiya siyosatini amalga oshirishda cheklovchi choralar qo'llaniladi: kasbiy, yosh, ijtimoiy-iqtisodiy va hokazo. Migratsiya oqimlarining o'z-o'zidan harakatlanishini bartaraf etish uchun turli toifadagi ishchilarga tabaqalashtirilgan yondashuv qo'llaniladi. Har bir mamlakat o'zi qabul qilishdan manfaatdor bo'lgan ma'lum faoliyatlar bo'yicha immigrantlar ro'yxatini tuzadi.

Migratsiya siyosati keng ta'rifga ega jarayon bo'lib, *migratsiya jarayonlarini tartibga solish va migratsiya oqimini boshqarish bo'yicha davlat tomonidan ko'riladigan chora-tadbirlar va harakatlar majmuidir*. U migratsiyani nazorat qilish va boshqarishga qaratilgan qonunchilik, me'yoriy hujjatlar va tartiblarni ishlab chiqish, shuningdek, tegishli qarorlar va dasturlarni qabul qilishni o'z ichiga oladi.

Migratsiya siyosatining asosiy maqsadi davlat ehtiyojlari va migrantlar manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdan iborat. Davlat migrantlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash, shuningdek, noqonuniy migratsiya va milliy xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish bilan birga, mamlakat iqtisodiyoti va taraqqiyotiga hissa qo'sha oladigan yuqori malakali va iqtidorli migrantlarni jalb etishga intiladi. Migratsiya siyosati vizalar berish, migratsiya kvotalarini belgilash, migrantlarni jalb qilish va

integratsiyalash dasturlarini amalga oshirish, chegaralarni nazorat qilish va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish, shuningdek, migrantlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va huquqlarini himoya qilish kabi turli tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, migratsiya siyosati iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kontekstga qarab har bir mamlakatga farq qilishi mumkin. Har bir davlat o'ziga xos xususiyatlar va ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'zining migratsiya siyosatini ishlab chiqadi.

Immigratsiya o'choqlarida ma'lum yoshdagi, salomatlik darajasi standartlarga javob beradigan va jinoiy javobgarlikka tortilmagan migrantlarga imkoniyatlar buning aks toifasiga kiruvchi aholiga nisbatan, tabiiyki, yuqori bo'ladi. Avvalo, yuqori malakali ishchilar va yoshlarning immigratsiyasi rag'batlantiriladi. Inson qanchalik yosh, ta'lim darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, inson kapitaliga har qanday sarmoyaning potensial daromadi shunchalik yuqori bo'ladi. Amaliy qiziqish esa mahalliy aholini qiziqitirmaydigan og'ir, monoton ishlarni bajaradigan shartnoma (vaqtinchalik) ishchilarni jalb qilish ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Boshqa joyda yashaydigan aholining ikkinchi joyga ko'chib borishi, migratsiyani iqtisodiy tartibga solishni taqazo etadi. Avvalo, mezbon mamlakat iqtisodiyotiga sarmoya kiritgan muhojirlar qabul qilinadi. Immigratsiya oqimini cheklash vositasi sifatida xalqaro savdoni rivojlantirish va tegishli mamlakatlar iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kiritiladi. Immigratsiya ko'lamiga ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy chora-tadbirlar immigrantlardan ish haqini yig'ish va immigratsion mehnatdan foydalanadigan tadbirkorlar tomonidan soliq to'lashni o'z ichiga oladi. Immigratsiya uchun afzal qilingan hududlarga tabaqalashtirilgan yordam ko'rsatiladi va rivojlanayotgan mintaqalarga immigrantlarning oqimi rag'batlantiriladi. Yirik shaharlarga immigratsiya cheklanmoqda.

Migratsiya siyosatining o'zaro bog'liqligi ularning xalqaro tartibga solinishiga sabab bo'ladi. Davlatlar xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilish orqali xalqaro huquqning milliy qonunchilikdan ustunligini tan oladilar.

Xalqaro huquq migratsiya oqimini nazorat qilishda qabul qiluvchi va donor-davlatlar o'rtasida mas'uliyat taqsimotini nazarda tutgan. Qabul qiluvchi davlat migrantlarning kelishi va ulardan foydalanishi uchun, donor-mamlakat esa chet eldagi ishchi kuchi oqimini tartibga solish va fuqarolarining manfaatlarini himoya qilish uchun javobgardir. Aholi

migratsiyasi muammolari turli xalqaro tashkilotlarning diqqat markazida. BMTning Aholishunoslik komissiyasi mavjud fondan aholi migratsiyasi sohasidagi milliy dasturlarni subsidiyalaydi. Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT) asosiy e'tiborni davlatlararo migratsiyani tashkil etishga qaratadi va turli mamlakatlarning migratsiya jarayonidagi tajribasini o'rganadi. Migratsiya masalalari bo'yicha hukumatlararo qo'mita Yevropa Ittifoqi qoshida uning hududida yashovchi uchinchi davlat immigrantlari ishlari bo'yicha komissiyasi qoshida tashkil etilgan. Uning asosiy vazifasi muhojirlarning yashash mamlakatlaridagi turmush tarzini nazorat qilishdan iborat.

Umuman olganda, *migratsiya siyosati* – *migratsiya jarayonlarini boshqarish uchun davlatlar tomonidan ishlab chiqilgan va qo'llaniladigan chora-tadbirlar va strategiyalar majmui* bo'lib, ushbu siyosat odamlarning chegaradan o'tishi bilan bog'liq turli jihatlarni qamrab oladi hamda viza masalasi, bandlik shartnomalari, yashash joyini ro'yxatga qo'ydirish, qochqin maqomidagi migrantlarni joylashtirish kabi bir necha jarayonlarni o'zida namoyon qiladi. Migratsiya siyosatini amalga oshirish aholi harakatini tartibga soladi, jarayonni nazorat qiladi va ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ekologik vaziyatlar barqarorligini ta'minlaydi.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Aholi migratsiyasi nima va u qanday omillar asosida amalga oshadi?*
- 2. Migratsiyaning qanday turlari bor?*
- 3. Qit'alar bo'yicha immigratsiya va emigratsiya yadrolari xaritasini ishleng.*

12-BOB. GEOURBANISTIKA

Mavzu annotatsiyasi. *Mazkur mavzuda shaharlar aholi punktlari va urbanizatsiya jarayoni iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning eng faol va yetakchi tarmog'i sifatida tahlil etilgan. Shaharlarning funktsiya va tasniflari asosida ularning iqtisodiy geografik ahamiyatiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, urbanizatsiya jarayoni va uning ko'rinishlari yoritib berilgan.*

Tayanch so'z va iboralar: *shaharcha, shahar, resurs shahar, megapolis, aglomeratsiya, megalopolis, urbanizatsiya.*

Reja:

- 12.1. Shaharlarni iqtisodiy geografik o'rganish masalalari.
- 12.2. Shaharlarning genetik va funksional tiplari.
- 12.3. Urbanizatsiya jarayoni va uning ko'rinishlari.



12.1-§. Shaharlarni iqtisodiy geografik o'rganish masalalari

Shaharlarni iqtisodiy geografik o'rganish, aholi geografiyasining rivojlangan yo'nalishidir. Shaharlarni iqtisodiy geografik o'rganishning nazariy masalalarini birinchi bo'lib, mashhur rus olimi N.N.Baranskiy asoslab berdi, u o'zining 1960-yilda chop etilgan «Экономическая география. Экономическая картография» (Iqtisodiy geografiya. Iqtisodiy kartografiya) kitobidagi «Об экономико-географическом изучении городов» (Shaharlarni iqtisodiy geografik tadqiq etilishi haqida) risolasi bilan shaharlarni iqtisodiy geografik jihatidan o'rganishning ilmiy-uslubiy masalalarini yoritib berdi. Keyingi davrlarda boshqa rus olimlari tomonidan iqtisodiy geografik o'rganishga bir qancha yangiliklar kiritganliklariga qaramay, N.N.Baranskiyning ishi hali ham o'z ilmiy ahamiyatini yo'qotgan emas.

N.N.Baranskiy o'zining boshqa bir asarida shaharlarni geografik o'rganishning ko'p yo'nalishlari orasida quyidagi uchta yo'nalishni muhim deb ko'rsatgan edi:

- 1) shaharlarning iqtisodiy geografik o'rni munosabati bilan ularning butun mamlakat va ayrim iqtisodiy mintaqalar bo'yicha joylashuvi;

2) shaharlarning bajaradigan funksiyasi, bu funksiyaning shaharlar geografiyasidagi ahamiyatini tahlil qilish;

3) shaharlarning mikrogeografiyasini o'rganish (ularning ichki planirovkasi, yaqin atrofi, mahalliy transport).

Shaharlarni iqtisodiy geografik o'rganishning asosiy vazifasi va xususiyati shundan kelib chiqadiki, shahar bir vaqtning o'zida ijtimoiy ishlab chiqarishning va aholining to'planadigan joyi. Shuning uchun shaharlar iqtisodiy-geografiya fanini o'ziga xos tarkibga ega bo'lgan va demografik jarayonlar davom etadigan aholi manzilgohlari sifatida, butun ijtimoiy takror ishlab chiqarishda va ijtimoiy mehnat taqsimotida o'z o'rniga ega bo'lgan ishlab chiqarish markazlari sifatida qiziqtiradi. Binobarin, shaharlarni iqtisodiy geografik o'rganishning muhim vazifalaridan biri – uning hududiy mehnat taqsimotida tutgan o'rnini aniqlashdir.

Iqtisodiy geografiya fanida shaharlarni, ularning hududiy mehnat taqsimotida tutgan o'rniga qarab:

a) faqat mahalliy aloqalarda ishtirok etuvchi shaharlar – quyi ma'muriy mintaqalarning iqtisodiy, madaniy markazlari;

b) mintaqalarning (iqtisodiy rayonlar) o'z ichidagi mehnat taqsimotida ishtirok etuvchi shaharlar;

c) mintaqalararo mehnat taqsimotida ishtirok etuvchi shaharlar;

d) xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etuvchi shaharlar kabi guruhlariga bo'linadi.

Shaharlarni ularning hududiy mehnat taqsimotida ishtirokiga qarab tasnif qilish yo'li bilan har bir shaharning mehnat taqsimotida tutgan o'rnini, shahar sanoatining qanday xomashyoga asoslanishi yoki tayyor mahsulotni qaysi tomonlarga realizatsiya qilishi aniqlanadi. Bu esa ana shu mavjud aloqalarning qanchalik iqtisodiy jihatdan to'g'riligiga va samaradorligiga baho berish imkoniyatini beradi. Hududiy mehnat taqsimotida har bir shaharning tutgan o'rnini aniqlashda uning iqtisodiy geografik o'rnini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, iqtisodiy geografiyada iqtisodiy geografik o'rin tushunchasining muhimligini, uniig mamlakatlar, mintaqalar va shaharlarning rivojlanishidagi rolini N.N.Baranskiy asoslab bergan. N.N.Baranskiy ta'rifi bo'yicha, iqtisodiy geografik o'rin – muayyan joy, mintaqa yoki shaharning o'zidan tashqarida yotgan va uning rivojlanishi uchun ma'lum iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarga nisbatan hududiy munosabatidir.

Iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Chunki, shaharlar o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Balki, o'z atrofidagi xo'jalik hayoti bazasida, iqtisodiy aloqalar negizida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Chunki, shaharlarda rivojlangan ishlab chiqarish, asosan, shaharning o'zidagi emas, balki undan tashqaridagi yoqilg'i, xomashyo resurslariga asoslanadi. Shaharning iqtisodiy geografik o'rni qancha qulay bo'lsa, uning o'sha resurslarni tashib keltirishi, tayyor mahsulotlarni realizatsiya qilishi, iqtisodiy aloqalari shuncha oson va qulay bo'ladi, shuningdek uning rivojlanishi, yiriklashuvi uchun imkoniyatlar ham ko'p bo'ladi. Masalan, chet mamlakatlardagi London, Nyu-York, Rio-de-Janeyro, Shanxay, Tokio va boshqa shaharlar, MDH mamlakatlarida Sankt-Peterburg, Moskva, Kiyev, Volgograd, O'zbekistonda Toshkent, Samarqand va boshqa shaharlarning tez rivojlanishi ularning iqtisodiy geografik o'rnining nihoyatda qulayligidandir.

Shaharlar ham o'z geografik o'rnining o'zgarishiga ma'lum ta'sir ko'rsatadi. Shahar o'z atrofidagi hududlarda o'zi uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish tarmoqlarini vujudga keltirish yo'li bilan (sanoat, qishloq xo'jalik tarmoqlarini) ularga iqtisodiy ta'sir qo'rsatadi. Shaharlar, shuningdek, ma'lum mavqeyini egallaganidan (masalan, poytaxt bo'lgandan) keyin o'z iqtisodiy geografik o'rnini har tomonlama yaxshilaydi.

Shaharlarning iqtisodiy geografik o'rni ularning hududiy mehnat taqsimotidagi o'rniga, ixtisosiga ta'sir ko'rsatadi. N.N.Baranskiy har bir shahar o'zi joylashgan iqtisodiy mintaqaning xarakterli belgilarini ko'zgudagidek ko'rsatib turadi degan edi. Haqiqatan ham har bir iqtisodiy mintaqada o'sha mintaqaning ixtisosi bilan bog'liq bo'lgan shaharlarning ma'lum ishlab chiqarish tiplari rivojlangan. N.N.Baranskiy shaharlarning iqtisodiy geografik o'rnini o'rganishda **mikro** (shaharning yaqin atrofiga nisbatan tutgan o'rni), **mezo** (qo'shni iqtisodiy mintaqalarga nisbatan o'rni) va **makro** (butun mamlakatda va uning yirik bo'laklariga nisbatan o'rni) geografik o'rinlarni ajratishni tavsiya etgan.

Shaharlarni iqtisodiy geografik tadqiq qilishning eng asosiy yo'nalishi, ularning xalq xo'jaligi tizimida bajaradigan *funksiyasini* o'rganishdir. Shaharlar funksiyasini o'rganishda, birinchi navbatda, *shaharlarni vujudga keltiruvchi* va *shaharga xizmat ko'rsatuvchi* funksiyalarni ajratish zarur. Har bir shaharning o'zidan tashqariga

xizmat ko'rsatishga qaratilgan faoliyati shaharni vujudga keltiruvchi funksiyasiga, aksincha, faqat shahar aholisining o'ziga xizmat ko'rsatishga qaratilgan faoliyati esa, shaharga xizmat ko'rsatuvchi funksiyaga kiradi.

Har bir shahar bajaradigan funksiyani iqtisodiy va iqtisodiy bo'lmagan funksiyalarga ajratish mumkin. Iqtisodiy funksiyalarga shaharlar aholisining industrial tarmoqlar va muomala sohalaridagi mehnati kiradi (sanoat, transport, savdo-taqsimot, tayyorlov-ta'minot va boshqalar).

Shaharlarning iqtisodiy funksiyalari orasida sanoat ishlab chiqarishi asosiy funksiya hisoblanadi. Sanoat mutloq ko'pchilik shaharlarning shaharni vujudga keltiruvchi eng muhim funksiyasi hamdir. Transport, savdo-taqsimot, tayyorlov-ta'minot funksiyalari ko'pchilik hollarda sanoat negizida vujudga kelib rivojlanadi. Ayrim hollarda ular ham, ayniqsa transport shaharni vujudga keltiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shaharning iqtisodiy bo'lmagan funksiyalariga ma'muriy-siyosiy, madaniy, ilmiy va tashkiliy faoliyati kiradi. Shaharning iqtisodiy funksiyalari ham, iqtisodiy bo'lmagan funksiyalari ham shaharning vujudga kelishida muhim rol o'ynashi mumkin. Umuman, biron bir funksiyani faqat shaharni vujudga keltiruvchi yoki aksincha faqat shaharga xizmat qiluvchi funksiya deb aytish qiyin. Ko'pincha shaharning asosiy funksiyalari har ikkala rolni ham bajaradi.

Barcha shaharlarni ularning xalq xo'jaligida bajaradigan funksiyalarining turi va xilma-xilligiga qarab, *ko'p funksiyali* va *bir funksiyali* shaharlarga bo'lish mumkin. Ko'p funksiyali shaharlarga bir necha funksiyani bajaruvchi shaharlar (odatda poytaxt shaharlar, viloyat markazlari, yirik sanoat markazlari, transport tugunlari) kiradi. Deyarli barcha qulay iqtisodiy geografik o'ringa ega bo'lgan shaharlar xilma-xil funksiyani bajarib, tez rivojlanadi. Bu shaharlarning iqtisodiy geografik o'rni, bajaradigan funksiyasi, uning kattaligi (aholisining soni) bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Bir funksiyali shaharlarga, asosan, bitta funksiyani bajaruvchi ma'muriy markazlar, kurort shaharlari, ilmiy markazlari, shaxta, ruda elektr stansiyalar yonida barpo etilgan shaharchalar kiradi.

Shaharlar bajaradigan funksiyasining xarakteriga qarab quyidagi funksional tiplarga bo'linadi:

Ko'p funksiyali shaharlar (shaharlarni vujudga keltiruvchi iqtisodiy, ma'muriy-siyosiy va madaniy funksiyalar). Iqtisodiy

funksiyalar (sanoat, transport) asosiy bo‘lgan va aniq ajralib turgan shaharlar. Bu tipga kiruvchi shaharlarni, o‘z navbatida 3 guruhga bo‘lsa bo‘ladi:

1) ko‘p tarmoqli sanoat tarkibiga ega bo‘lgan sanoat shaharlari va ixtisoslashtirilgan industrial markazlar – metallurgiya, mashinasozlik, to‘qimachilik, kimyo, yog‘ochsozlik markazlari;

2) transport shaharlari – yirik daryo, dengiz portlari, temiryo‘l tugunlari, turli transport tugunlari;

3) sanoat shaharlari.

Shu bilan birgalikda, shaharlarni asosan madaniy va ma‘muriy markaz funksiyasini bajaruvchi shaharlar; fan shaharlari; kurort shaharlarga ham ajratish mumkin.

Shaharlarning *planirovkasi va mikrogeografiyasini* o‘rganish ham shaharlar geografiyaoining muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Shaharlar planirovkasi ikki xil mazmunda tushuniladi. Birinchidan, bu termin shaharlarni iqtisodiy va muxandislik-loyihalash ishlarini bildiradi. Bunday loyihalash shaharni vujudga keltiruvchi asosiy xalq xo‘jalik obyektlarini (sanoat, transport, ilmiy muassasalar va o‘quv yurtlari, kurort tashkilotlari va h.k.), shuningdek shahar hududida uning moddiy elementlarini (ishlab chiqarish binolari, uy-joy qurilishi, shahar transporti va obodonlashtirish kabilarni) joylashtirishni o‘z ichiga oladi.

Shaharlar planirovkasi tushunchasining ikkinchi mazmuni shahar hududida uning ma‘lum rivojlanish bosqichida barcha moddiy elementlarni bir-biri bilan bog‘liq holda amaliy joylashtirishni bildiradi. Iqtisodiy geografiyada shaharlar planirovkasining ana shu ikkinchi mazmunini bildiruvchi termin sifatida «shaharlarni hududiy tashkil qilish» terminidan foydalaniladi.

Shaharlar planirovkasi yuzasidan geograflar bevosita ishtirok etadigan ilmiy tadqiqot ishlariga quyidagi uchta yo‘nalishni kiritish mumkin:

1) shaharlarning va atroflaridagi mintaqalarning tabiiy geografik sharoitini o‘rganish;

2) shaharlarning funksional tarkibi va shahar planirovkasiga ta‘siri;

3) tarixiy omillarning shahar planirovkasiga ta‘siri.

Tabiiy-geografik sharoit shahar planirovkasida juda muhim rol o‘ynaydi. Shaharda turli sanoat korxonalarini, transport yo‘llarini, aholi yashaydigan joylarni qurishda shahar hududi va atrof rayonlarning relyefi, geologik tuzilishi (ayniqsa, yer-osti suvlarining joylashuvi),

mikroiqlimi (ayniqsa, shamollar yoʻnalishi), shahar turli qismlarini toza suv bilan taʼminlash imkoniyatlari va boshqa holatlar muhim ahamiyatga ega.

Shaharlarni rejalashtirish (loyhalash) va qurish ishlarini olib borishda ayrim tabiiy-geografik komponentlargina emas, balki butun tabiiy landshaftni eʼtiborga olish, tabiatning mavjud goʻzalliklaridan shahar qurilishida oqilona foydalanish ham katta ahamiyatga ega.

Shaharlarning funksional tarkibi ham ularning planirovkasiga taʼsir koʻrsatadi. Jumladan, yirik sanoat korxonalari, aholi yashaydigan maydonlar, maʼmuriy, madaniy muassasalar shaharda tartibsiz holda emas, balki ishlab chiqarishning ham, aholining ham qulayliklarini eʼtiborga olgan holda joylashtirilishi, bir-biri bilan qulay transport vositalari orqali bogʻlangan boʻlishi kerak.

Shaharlar planirovkasi va qurilishiga tarixiy omillarlar ham taʼsir koʻrsatadi. Chunki, har bir mamlakat hududida eng yangi shaharlar bilan birgalikda, juda qadimiy, oʻtgan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar davrida vujudga kelgan shaharlar ham uchraydi. Qadimiy shaharlar yangi davr talabi, shaharning yangi funksiyasi nuqtai nazaridan rekonstruktsiya qilib boroladi. Masalan, feodalizm davrida vujudga kelgan shaharlarning planirovkasida oʻsha davrga xos xususiyatlar hozirgacha saqlanib keladi. Shuning uchun ham Oʻzbekistonda shahar planirovkasida eski, qadimiy shaharlarni rekonstruktsiya qilishda ularni sekin-asta oʻzgartirib borish, muhim tarixiy yodgorliklarni saqlab qolish va tiklash ishlari olib borilmoqda. Iqtisodiy geografiyada shaharlarni (paydo boʻlish va rivojlanish xususiyatlariga qarab) genetik tiplarga boʻlish ham keng tarqalgan.

Shaharlar mikrogeografiyasini oʻrganish – har bir shaharning ichki hududiy farqlarini aniqlashdan iboratdir. Shaharlarning ichki, bir-biridan farq qiladigan qismlarini aniqlashda: geografik oʻrni, vujudga kelgan vaqti, funksiyasi, tabiiy sharoiti, qurilish planirovkasi, aholi zichligi va aholining joylashish shakllari kabi koʻrsatkichlarga asosiy ahamiyat beriladi.

Shaharlarni mikrogeografik oʻrganishdan asosiy maqsad, uning turli qismlarining (funksional mintaqalarining) qanchalik maqsadga muvofiq tashkil etilganligini aniqlash, aholining ishlash joyiga nisbatan qulay yoki noqulay joylashganligini, tabiiy sharoitdan toʻgʻri foydalanilgan, foydalanilmaganligini bilish va zarur boʻlganda, tegishli takliflar kiritishdan iborat.

12.2-§. Shaharlarning genetik va funksional tiplari

Geourbanistika yoxud shaharlar geografiyasi aholi va aholi manzilgohlari, umuman, iqtisodiy va sotsial geografiyaning eng rivojlangan yo‘nalishidir. Shaharlar boshqa iqtisodiy geografik obyektlarga qaraganda o‘zining yaxlit, darhol ko‘zga tashlanib turishi bilan farqlanadi. Buning sababi – ularning ishlab chiqarishni, ijtimoiy-iqtisodiy voqelikni hududda, geografik kartada o‘ziga xos tasvirlashidir.

Ma’lumki, iqtisodiy kartalarda, asosan, uch hududiy shakl ko‘rsatiladi: chiziqlar yo‘llarga mos kelsa, areal yoki maydonlar qishloq xo‘jalik sohasiga, nuqta va tugunlar (tugunchalar) esa sanoat markazlari, shaharlarni aks ettiradi. Binobarin, aytish mumkinki, iqtisodiy va sotsial geografiyaning asosiy tadqiqot obyekti ana shu uchlik, hududiy yoki geografik geometriya hisoblanadi va ularni tahlil etish bu fanning tub masalasidir.

Shaharlar geografiyasining iqtisodiy va sotsial geografiya fani doirasidagi bunday yutug‘ining boisi nima? Avvalambor, ta’kidlash lozimki, shaharlar hududiy birlikdir, ikkinchidan, ular murakkab sotsial-iqtisodiy kategoriya; uchinchidan, shaharlarda atrof-muhit, mazkur hududning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati misli oynada aksni topganidek, yaxlit mujassamlashadi; to‘rtinchidan, shaharlar har bir davlat, hudud, iqtisodiy va sotsial geografik tizimning tayanch nuqtalari, «ustunlari» bo‘lib xizmat qiladi. Shaharlar – bizning o‘tmishimiz, hozirgi kundagi qudratimiz va istiqbolda rivojlanish quvvati va imkoniyatimizdir. Ular yerdagi chinakam porloq yulduzlardir.

Shaharlar juda murakkab mavjudot bo‘lib, serqirra vazifalarni bajaradi. Siyosiy jihatdan olsak, har bir davlat o‘zining shaharlar to‘ri va, ayniqsa, poytaxti (dorulsaltanati) bilan kuchlidir. Bejiz emaski, har qanday urush-yurishlar muvaffaqiyati va zafari dushmanning shahar va qal’alarini zabt etishda, bo‘ysundirishda o‘z isbotini topgan. Demak, qadimda shaharlar butun yurtga, mamlakatga, boylikka nisbat berilgan. Ularni turli mamlakat yoki «iqlimlarda» turlicha atashgan: qubba, madinat, polis, bolig‘, bozor, taun, grad, pur, burg, vill va hokazolar. Bundan ko‘rinib turibdiki, shaharlar davlatlarning siyosiy hayotida, ularning jahon hamjamiyatida, geosiyosiy tuzilmasida muhim rol o‘ynaydi.

Shaharlarning qudrati ularda mujassamlangan iqtisodiy salohiyat bilan belgilanadi. Shaharlar, eng avvalo, qishloq xo‘jaligi bo‘lmagan tarmoqlarning hududiy tashkil etish shakli sifatida iqtisodiy jihatdan

samarali, serdaromad, harakatchan (dinamik) yoʻnalishlarni oʻzida mujassamlashtirgan. Shu bois, har qanday mamlakat milliy iqtisodiyotining tarkibi, rivojlanganlik darajasi va xalqaro mehnat taqsimotidagi oʻrni, undagi mavjud shaharlar tizimi, urbanizatsiya jarayoni bilan tavsiflanadi. Ayni vaqtda, shaharlarning ilmiy-texnikaviy, madaniy salohiyati ham salmoqlidir.

Shaharlar bozor iqtisodiyotiga oʻtishda asosiy omil boʻlib xizmat qiladi. Ularda mavjud boʻlgan bank-moliya tizimlarini bozor infrastrukturasida maʼnosida taʼriflash mumkin. Binobarin, mustaqil mamlakatimizning siyosiy hayoti va uning bozor munosabatlariga oʻtish davrida shaharlarning ahamiyati beqiyosdir. Shaharlarda zamonaviy tarmoqlar, ilgʻor texnologiya joriy etish imkoniyati katta; xorijiy sarmoyadorlar ham, asosan, shaharlar va, ayniqsa, infrastruktura tizimi mukammal shakllangan mar-kazlarni tanlashadi. Shaharlarda tovar ayriboshlash, pul oboroti (aynalishi) faol boʻladi. Bularning barchasi shaharlarga yangicha qarashni taqozo etadi.

Davlatlar va iqtisodiy rayonlarni oʻrganishda, oʻlkashunoslikda bu hududlarning umumiy taʼrifidan shaharlarga oʻtiladi, yaʼni shaharlar mamlakatlar ichki tuzilishi, xoʻjalik tarkibi va hududiy tafovutlarni bilib olishda tahlil qilinadi. Demak, bunday anʼanaviy yoʻnalishda shaharlar oʻlka, hudud iqtisodiy taʼrifining poyonida, yakuniy boʻgʻinidan oʻrin olgan. Biroq, bu masalani, aksincha, muqobil ravishda ham hal etish imkoniyati bor: shaharlarning jamiyat hayoti va uning sotsial-iqtisodiy tuzilmasini aniq va asosiy hududiy shakli ekanligidan kelib chiqqan holda mamlakat tavsifini uning shaharlaridan boshlash mumkin.

Shaharlar mamlakat va iqtisodiy rayonlar geografiyasida oʻrganilishi bilan bir qatorda, ular alohida tadqiqot obyekti boʻlib ham xizmat qiladi. Bu borada, yaʼni shaharlarni iqtisodiy geografik oʻrganish tartibi haqida ilmiy-uslubiy adabiyotlarda koʻpgina taniqli olimlarning koʻrsatmalari mavjud. Albatta, shaharlarni oʻrganish, avvalambor, ularning tarixi, kelib chiqishi, genetik xususiyatlarini tahlil qilishdan boshlanadi. Natijada, asosan, tarixiy manbalarga tayangan holda, oʻrganilayotgan shahar yoki shaharlarning nima uchun aynan shu joyda va oʻtmishning aynan shu bosqichida vujudga kelganligi yoritilib beriladi.

Shaharlarni retrospektiv oʻrganish tarixiy tamoyilga binoan bajariladi: qoʻyilgan maqsad nuqtai nazaridan oʻtmish maʼlum tarixiy davrlarga boʻlinadi va har bir davrning shahar (shaharlar) shakllanishi va rivojlanishiga boʻlgan taʼsiri tadqiq etiladi. Ammo, bu yerda tarixning

«ikir-chikiriga» o‘tib ketilmaydi, geografiya tarix uchun emas, aksincha, tarix geografiyaga xizmat qilishi kerak.

Mamlakatimiz shaharlarini o‘rganishda ularni bunyod etilganligidan boshlab, hozirgi kungacha bosib o‘tgan yo‘lidagi asosiy tarixiy, davriy voqealar qisqacha ko‘rib chiqiladi va ular mavjud borliqdan kelib chiqqan holda baholanadi. Boshqacha qilib aytganda, shaharlarning tarixi vujudga kelgan va rivojlanib ketgan davr nuqtai nazaridagina emas (bu, asosan, tarixning vazifasi), balki ularning hozirgi vaqtdagi holatidan kelib chiqib ham tahlil qilinadi. Tarixiy geografiya uchun esa har bir hodisa o‘sha davrdan kelib chiqib tahlil etilishi va baholanishi lozim. Zero, Geraklit aytganidek, «Ayni bir oqimga bir vaqtning o‘zida ikki marta tushib bo‘lmaydi». Chunki, ikkinchi marta kirganda oqim (suv) ham, unga tushuvchi ham ilgarisidek emas, o‘zgargan bo‘ladi.

O‘rganilayotgan shahar yoki shaharlar tarixiga ko‘ra, ularning genetik turlari ajratiladi, «yangi» va «eski» shaharlar guruhi aniqlanadi. Endigi sharoitda «yangi shaharlar»ni sobiq sovetlar davrida vujudga kelganligi bilan asoslash noto‘g‘ri. Qolaversa, «yangi shahar» tushunchasining o‘zi ham nisbiydir. Keng ma‘noda, yurtimizning yangi tarixiga muvofiq «yangi shaharlar» deb ularni Turkiston Rossiya tomonidan zabt etib olingan davr (XIX asrning ikkinchi yarmi)dan so‘ng paydo bo‘lganlarini aytish mumkin. Bunday shaharlar turkumiga Farg‘ona (Yangi Marg‘ilon, Skobelov), Kogon (Yangi Buxoro), To‘rtko‘l (Petroaleksandrovsk) shaharlaridan boshlab, keyingi yillarda vujudga kelgan barcha shaharlar kiritiladi. Shu ma‘noda sobiq SSSR davrida barpo bo‘lgan shaharlar (Navoiy, Zarafshon, Shirin, Drujba, Marjonbuloq, Tolimarjon, Yangiyer va boshqalar) ham yangilar qatoriga kiradi. Ammo iqtisodiy va sotsial geografiya nuqtai nazaridan qaraganda butunlay «bo‘sh» yoki o‘zlashtirilmagan joylarda hamda keyingi qisqa davrda aholisi va xo‘jaligi keskin rivojlangan va tashqi qiyofasi tubdan o‘zgargan manzilgohlarni tom ma‘nodagi yangi shaharlar deb atash to‘g‘ridir.

Shaharlar geografiyasini o‘rganishdagi navbatdagi bosqich ularni katta-kichikligi bo‘yicha tabaqalashtirish (klassifikatsiyalashtirish)dan iboratdir. Bu yerda qo‘yilgan maqsad va tadqiq qilinayotgan obyekt xususiyatidan kelib chiqib, shaharlar to‘ri aholi soni bo‘yicha turli daraja yoki klasslarga ajratiladi. Eng avvalo, ular 3 guruhga: katta, o‘rta va kichik shaharlarga bo‘linadi, maxsus tadqiqotlarda esa yanada kengroq klassifikatsiya qo‘llaniladi. Tabiiyki, «katta» yoki «kichik» shahar tushun-chasi ham nisbiydir. Masalan, Toshkent darajasida, hatto, azim

Samarqand yoki Namangan ham kichik shahardir²³. Ayni paytda, mamlakatimiz qishloq joylari, ichkarisidan qaraganda tuman markazi – kichik shahar ham ular uchun katta, ulkan ko‘rinadi. Misol uchun Qashqadaryoning Qamashi yoki Chiroqchi aholisining nigohida shahar bu, eng avvalo, Qamashi va Chiroqchidir; Qarshi, Samarqand, Toshkent esa ular uchun nihoyatda ulkan, azim shahar hisoblandi.

Demak, shaharlarni miqdoriy jihatdan turlicha baholash sun‘iylikka ega ekan. Biroq, bunday qarash, odatda, oddiy xalq, hayotiy va an‘anaviy, kundalik andozalarga mos keladi, xolos. Ilmiy izlanishlarda esa har bir tadqiqot obyekti uchungina emas, balki mamlakat miqyosida rasmiy ravishda qabul qilingan ma‘lum andozalarga amal qilish kerak. Bu, ayni paytda, turli viloyat va mamlakatlar shaharlarini qiyosiy geografik o‘rganishda ham qo‘l keladi.

Shaharlar kelib chiqishi va ularni klassifikatsiyalash natijalari maxsus statistik jadval, diagramma, grafik va kartalar yordamida tasvirlanishi shart. Jumladan, shaharlar tabaqalanishini piramida shaklida ko‘rsatish ham nihoyatda maqbul usul hisoblanadi. Chunki, bunday tasvirda mamlakat yoki viloyatning qaysi bo‘g‘inidagi shaharlari ko‘p yoki kam, kuchli yoki zaifligi va ushbu muammoni hal etish yo‘llari, manbalari yaqqol ko‘rinadi. Ayni chog‘da, bu holat mamlakat yoki rayon xo‘jaligining hududiy mujassamlashuv xususiyatini aks ettiradi.

Shaharlar miqdoriy darajalari bilan birga, ular sifat ko‘rsatkichlari, bajaradigan vazifalari (funksiyalari) bo‘yicha ham bir-biriga o‘xshash emas. Ma‘lumki, juda ko‘p shaharlar turli maqomdagi ma‘muriy markaz vazifasini o‘taydilar. Ular orasida ko‘pchilikni tuman markazlari, undan kamrog‘ini viloyat markazlari va faqat bittasi esa mamlakat ma‘muriy-siyosiy markazi, ya‘ni poytaxt funksiyasini bajaradi.

Xo‘jalik jihatidan yondashganda, juda ko‘p shaharlar sanoat va transport markazi, ayrimlari dam olish (rekreatsiya), fan markazlari hisoblanadi. Shaharlarning bajaradigan vazifasini, ixtisoslashuvini aniqlashda, asosan, band bo‘lgan aholi tarkibi tahlil etiladi. Shunga ko‘ra, sanoat, transport yoki fan-texnika markazlari ajratiladi. Sanoat shaharlari ichida ko‘p tarmoqli sanoat markazi, og‘ir va yengil sanoat, resurs shaharlar kabi funksional tiplar belgilanadi. Agarda ana shunday shaharlar toifalari ularning katta-kichikligi, bosqichlari bilan birgalikda ko‘rilsa, tadqiqot yanada chuqur va samarali bo‘ladi.

²³ yaponlar «shahar nima?» savoliga «bu Tokiodir» deb javob berishgan ekan

O'rganishlar natijasida, shaharlar iqtisodiy geografiasining eng muhim qonuniyati o'z isbotini topadi. Bu ham bo'lsa, shaharlarning bajaradigan vazifasi ixtisoslashuvi, funksiyasi ularning katta yoki kichikligini belgilashidir.

Shaharlarni o'rganishda, ularning iqtisodiy geografik o'rni, ishlab chiqarishning ijtimoiy va hududiy tashkil etish shakllariga alohida e'tibor berish kerak. Bu borada, ayniqsa, ishlab chiqarishning mujassamlashuvi, ixtisoslashuvi, kooperatsiya va kombinatlashuvini, sanoat tuguni va majmualarini tadqiq qilish muhimdir. Bunday iqtisodiy ko'rsatkichlar statistik usullar, hisob-kitoblar yordamida aniqlanadi, shaharlar ko'rsatkichlari boshqa shaharlar va mamlakatlar o'rtacha holati bilan taqqoslanadi. Jumladan, mujassamlashuv va ixtisoslashuv koeffitsiyenti va indeksleri, tarmoqlarning turlanishi (diversifikatsiyasi), aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsuloti, rivojlanganlik darajasi va boshqalar hisoblab chiqiladi.

Ma'lumki, hozirgi bozor munosabatlariga o'tish davrida, ishlab chiqarishning yuqori darajada mujassamlashuvi, yirik korxonalarni qurish ko'p jihatdan maqbul emas. Shu sababdan, bugungi sharoitda sanoatni joylashtirish asosida shaharlarning vujudga kelishi va ularning keskin rivojlanishi nisbatan kam uchraydigan holatdir. Bundan ulkan qo'shma korxonalar qurilayotgan Asaka, Qorovulbozor shaharlari mustasnodir.

Shu bilan birga, azaldan mavjud bo'lgan kichik shaharlar muammosi hozirgi kunda o'zgacha ma'no kasb etadi. Bunday shaharlarning birdan-bir ijobiy imkoniyati, ularda mehnat resurslarining ko'pligi, qishloq rayonlariga yaqinligidir. Biroq kichik shaharlar moliyaviy jihatdan zaif, o'z-o'zlarini boshqarishlari qiyin va davlat yordamiga muhtoj. Uning ustiga, mazkur shaharlarda malakali ishchi xodimlar oz, zamonaviy infrastruktura tizimi to'la shakllanmagan. Binobarin, kichik shaharlarimizga katta muammolar xos, deb aytishimiz mumkin.

Ana shunday sharoitda, xorijiy sarmoyadorlar ko'proq katta shahar muhitini istaydilar, qo'shma va kichik korxonalar qurish imkoniyatlari ham bunday shaharlarda kengroq. Demak, endigi sharoitda, katta shaharlarda kichik korxonalar ko'proq yaratilmoqda, kichik shaharlarda esa, agar ular moddiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlansa, yirik sanoat korxonalari ham quriladi. Ammo barcha kichik shaharlarni bunday rivojlantirish mumkin emas: vaqt ham, kapital mablag', sarmoya ham yetishmaydi. Binobarin, kichik shaharlarning ayrimlarigina tanlab

olinadi va ular o'sish qutbi hamda markazi sifatida rivojlantiriladi. Bunday shaharlarni ajratib olish esa, ularning ko'p omilli tahlil etilishi va baholanishi (iqtisodiy geografik o'rni, mehnat va xomashyo resurslari, ekologik holati, transport va boshqa infrastrukturasi, funksiyasi, katta-kichikligi va h.k.) asosida amalga oshiriladi.

Shaharlarni iqtisodiy geografik o'rganishda, ularning transport funksiyasiga ham alohida e'tibor beriladi. Shahar va transport yo'llari o'zaro chambarchas bog'liq: biri ikkinchisiz bo'lmaydi, yo'llar shaharlarga keladi, shaharlardan yo'llar ketadi. Xullas, shaharlar va yo'llar bu mamlakatning iqtisodiy asosi, «qovurg'asi» hisoblanadi. Shuningdek, shaharlarning sotsial funksiyalari, fan va ta'lim tizimi, madaniyati, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari, ekologik vaziyati, aholisining o'sishi kabi masalalar ham o'rganiladi. Shu o'rinda poytaxt shaharlarni alohida ta'kidlash joiz. Chunki har qanday mamlakatning jahon hamjamiyatidagi mavqei, xalqaro va diplomatik aloqalar, siyosiy hayoti, eng avvalo, uning poytaxti bilan bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, olamshumul va umumbashariy muammolar xususida rasmiy so'z yuritilganda, odatda, davlatlarning poytaxti nomidan gapiriladi. Shu bois, poytaxt shaharlarning «yuki», mas'uliyati nihoyatda vazmin: ular, bir tomondan, mamlakatni hududiy-siyosiy jihatdan tashkil qilish, boshqarish vazifasini ado etsa, ikkinchi tomondan, bunday markazlar davlatni jahon miqyosiga munosib ravishda olib chiqishlari kerak. Aynan ana shu ma'noda har qanday davlat o'z taqdirini poytaxtiga topshiradi.

Ko'pchilik hollarda shaharlarning genetik tiplari ularning nima bilan shug'ullanishini ham belgilab beradi. Bu esa ularning hududiy mehnat taqsimotida tutgan o'rni, qiyofasini ko'rsatib turadi. Shaharlar ham turli sohalarga ixtisoslashadi, ya'ni ularning o'ziga xos va mos «kasbi», vazifasi va yo'nalishi mavjud. Bu jihatdan shaharlar sanoat, transport, ilm-u fan, dam olish markazlari bo'lishi mumkin.

Shaharlarning qaysi sohaga ixtisoslashuvi, ularning bajaradigan vazifasini aniqlash funksional tipologiya doirasida amalga oshiriladi. Bunda bosh mezon qilib shahar aholisining bandlik tarkibi olinadi, ya'ni qaysi sohada mehnat resurslari ko'proq (mamlakat shahar joylari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori) bo'lsa, o'sha yo'nalish mazkur shaharning funksional tipini ifodalab beradi. Odatda, shaharlar quyidagi funksional tiplarga bo'linadi:

- ko'p funksiyali siyosiy-ma'muriy markazlar, poytaxt shaharlar;

- ko‘p funksiyali shaharlar – viloyat markazlari;
- ko‘p tarmoqli yirik sanoat markazlari;
- asosan, bir yoki ikki sanoat tarmog‘iga ixtisoslashgan shaharlar;
- transport markazlari;
- agroindustrial shaharlar;
- tuman markazlari;
- rekreatsiya shaharlari;
- ilm-u fan markazlari, universitet shaharlari va h.k.

Yuqoridagi funksional tiplar shaharlarning katta-kichikligiga qarab ham turlanadi. Bu holda shaharlarning funksional klassifikatsiyasi vujudga keladi.

O‘zbekistonda birinchi va ikkinchi guruh shaharlarga Toshkent hamda barcha viloyat markazlari kiradi. Ular, ayni paytda, ko‘p tarmoqli sanoat markazlari ham hisoblanadi. Uchinchi tipga, asosan, Chirchiq, Olmaliq, Qo‘qon kabi shaharlar mansub, to‘rtinchi guruhga Marg‘ilon, Angren, Ohangaron, Muborak, Gazli, Zarafshon, Taxiatosh, Asaka, Uchqo‘rg‘on, Quvasoy kabi shaharlarni kiritish mumkin. Kogon, Xovos, Qo‘ng‘irot – transport shaharlari, Chortoq – rekreatsiya, Ulug‘bek – fan markazlaridir.

Respublikamizda juda ko‘p shaharlar agroindustrial yo‘nalishga ega, ya‘ni ularda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalari mavjud. Ulardan ham ko‘proq shaharlar qishloq tumanlar markazi vazifasini bajaradi. Biroq, bunday shaharlar – «kichik poytaxtlar», ayni paytda, agroindustrial xarakterga ham ega bo‘lishlari mumkin. Poytaxt shaharlar mamlakat shaharlar turi va tizimida karvonbosh-chilik qilishadi. Ammo, ular aholisi bo‘yicha eng katta, sanoat o‘ta rivojlangan bo‘lishi aslo shart emas. Chunki bunday shaharlarning asosiy vazifasi – siyosiy markaz, dorulsaltanat, ya‘ni poytaxt funksiyasini bajarishdan, binobarin, mamlakatni boshqarish, uni siyosiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tashkil qilishdan iborat bo‘lishi lozim.

Juda ko‘p mamlakatlarda poytaxt shaharlar muammosi keskin turadi. Bunday shaharlar mumkin qadar mamlakat hududining o‘rtasida (markazida), tarixan asosiy tub millat tarqalgan hududda joylashgan bo‘lmog‘i lozim. Bunga sabab, ular, eng avvalo, milliy poytaxtlardir. Shu bilan birga, bu shaharlarda boshqaruv funksiyasi keng rivojlangan bo‘lishi shart.

Dunyo mamlakatlarining ayrimlarida poytaxt shaharlari o'zgarib turgan. Masalan, Braziliyada poytaxt Rio-de-Janeyrodan Braziliaga, Pokistonda Karachidan Islomobodga, Qozog'istonda Olma-Otadan Ostonaga ko'chirilgan va h.k. Bir vaqtlar Ukrainaning poytaxti Xarkov, Rossiyaniki Peterburg, Turkiyaniki Stambul, Qoraqalpog'istonni To'rtko'l bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining dastlabki poytaxti Samarqand bo'lib, 1930-yilda Toshkentga ko'chirilgan.

Poytaxt shaharlarning nufuzi ham, mas'uliyati ham yuqori. Binobarin, har qanday mamlakat o'zining bosh shahri, «yo'l boshchisi»ga katta e'tibor bermog'i tabiiydir, chunki ular o'sha joyda yashovchilarning milliy iftixori hisoblanadi.

Shaharlar – mamlakatlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy, ilmiy faoliyat markazlaridir. Shahar – aholisi, asosan, sanoatda, savdoda, maishiy xizmat ko'rsatish sohasida, boshqaruv, fan, madaniyat shoxobchalarida band bo'lgan yirik aholi punktlari. Shaharlar aholi soniga qarab katta shaharlar (aholisi 100 mingdan ortiq), yirik shaharlar (aholisi 250 mingdan ortiq), juda yirik shaharlar (aholisi 500 mingdan ortiq) va «millioner shaharlar»ga ajratiladi. Ular bir qancha vazifani bajaradi. Bunday shaharlar ko'p funksiyali shaharlar deyiladi. Ko'p funksiyali shaharlar juda tez rivojlanadi, ular yonida yo'ldosh shaharlar vujudga kelib, aglomeratsiyalarni hosil qiladi. Aholi punktining shahar maqomini olish sharti turli mamlakatlarda turlichadir. Aholi punktiga shahar maqomini berishda shahardagi turmush tarzi (urbanizatsiya)ning holati ham hisobga olinadi.

12.3-§. Urbanizatsiya jarayoni va uning ko'rinishlari

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylanishi, xususan, mujassamlashuvi natijasida turli funksional tip va yiriklikdagi shaharlarning bir joyda g'uj holda o'rnashgan shakli vujudga keladiki, ularni ilmiy adabiyotlarda shahar aglomeratsiyasi deb ta'riflashadi. «**Aglomeratsiya**» so'zi geologiyadagi «aglomerat»ni eslatadi, ya'ni bir hududda to'p bo'lib joylashganlikni anglatadi, iqtisodiyot va, ayniqsa, g'arbda shakllangan mintaqaviy iqtisodda esa sanoat aglomeratsiyasi – sanoat korxonalarini bir nuqtada to'planganligini bildiruvchi tushuncha mavjud. Shunga mos ravishda aglomeratsion omil va aglomeratsion effekt (samaradorlik) iborasi ham bor.

Aglomeratsiyaning vujudga kelishi taxminan quyidagi sxemada (tartibda) amalga oshadi. Qulay iqtisodiy geografik o'ringa ega bo'lgan

shahar asta-sekin yiriklashib boraveradi. Sababi – u o‘ziga barcha yangi-yangi sanoat korxonalari, xizmat ko‘rsatish muassasalari, oliy o‘quv yurtlari, moliya-bank tashkilotlari va boshqalarni tortaveradi. Bu paytda shaharning tortish kuchi, markazga intiluvchi harakat avjida bo‘ladi.

Shaharlarning yoyilib ketishi, qimmatli qishloq xo‘jalik yerlari hisobidan kengayishi ma‘lum darajagacha davom etib boraveradi. Keyinchalik shahar hududining cheksiz kengayishi to‘xtab «qoladi», u tog‘ yoki daryo, davlat chegarasi yoki dengiz kabi to‘siqlarga duch keladi, shahar ichida esa uy-joy, transport, ekologiya muammolari keskinlashadi.

Natijada, o‘ziga xos «revolutsion vaziyat» vujudga keladi: yirik shahar muhiti, uning fan-texnika, infrastruktura salohiyati o‘ziga yangi-yangi korxonalarni jalb qiladi, biroq yuqoridagi qiyinchiliklar buni cheklab qo‘yadi. Ana shunday tartibda yirik shaharga yaqin joyda uni to‘ldiruvchi, ixtisoslashgan shahar va shaharchalar vujudga keladi. Bunday «yo‘ldosh» shaharlarda markaziy shahar ehtiyojini qondiruvchi yoki unga xizmat qiluvchi obyektlar o‘rnashadi. Shunday qilib, yirik shahar o‘z rasmiy chegarasidan chiqadi, miqdor o‘zgarishi sifat o‘zgarishiga o‘tadi, hududiy mujassamlashuv o‘z shaklini o‘zgartiradi va shaharlarning hududiy to‘plami paydo bo‘ladi.

Shahar aglomeratsiyasining shakllanishi uchun quyidagi shart-sharoitlar zarur:

- albatta bir yoki ikki yirik shahar bo‘lishi kerak;
- uning atrofida kamida ikkita shahar va shaharchalar bo‘lishi shart;
- markaziy shahar (aglomeratsiya yadrosi) va yo‘ldosh manzilgohlar orasidagi masofa eng ko‘pi ikki soatlik vaqt doirasida bo‘lishi kerak;

- aglomeratsiya shahar va shaharchalari o‘rtasida «aholi» aloqasi bo‘ladi, mayatniksimon (tebranma) migratsiya rivojlangan bo‘lishi shart;

- yo‘ldosh shaharlarda eng kam aglomeratsiya aholisining 10 foizi joylashgan bo‘lishi zarur va h.k.

Ko‘rinib turibdiki, aglomeratsiyalar har qanday sharoitda ham vujudga kelavermaydi; juda ko‘p shaharlar bo‘lsa-yu, ular orasida aglomeratsiya tashkil qiluvchi markaz bo‘lmasa, yoki aksincha, yirik shahar bir o‘zi bo‘lsa, bunday holda aglomeratsiya shakllanmaydi. Masalan, Jizzax katta shahar, lekin uning atrofida shaharlar kam; Navoiy ham deyarli shunday vaziyatda, yoki Shahrisabz – bu yerda Kitob, Yakkabog‘ va boshqa shaharlar ham mavjud, ammo Shaxrisabzning o‘zini aglomeratsiya hosil qilish qudrati past.

Aglomeratsiyalar bir markazli (monotsentrik) va ko‘p markazli (polisentrik) bo‘ladi. Farg‘ona–Marg‘ilon, Angren–Olmaliq aglomeratsiyalar ikki markazli hisoblanadi, Toshkent, Samarqand, Andijon, Namangan, Qarshi, Nukus, Urganch va boshqa aglomeratsiyalar bitta yirik shahar atrofida vujudga kelgan.

Aglomeratsiyalarning konfiguratsiyasi ham turlicha:

- doirasimon.
- lentasimon.
- ovalsimon.
- amyobasimon bo‘ladi.

Bu o‘sha joyning yer usti tuzilishi, transport tizimi, gidrografiyasiga bog‘liq. Odatda, yirik daryolar bo‘yida shakllangan aglomeratsiyalar 50-70 va, hatto, 100 kmga cho‘zilib ketadi. Bunga misol tariqasida Reyn daryo havzasidagi aglomeratsiyalarni keltirish mumkin.

Har qaysi aglomeratsiyaning tarixiy geografik o‘rni, asosi bo‘ladi. Masalan, respublikamizda eng yirik Toshkent aglomeratsiyasi Chirchiq daryosi asosida vujudga kelgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, u biroz shimoli-sharqdan janubi-g‘arbga cho‘zilgan.

O‘zbekiston (O‘rta Osiyo) aglomeratsiyalari o‘ziga xos mintaqaviy xususiyatlarga ega. Ular, asosan, tog‘oldi hududlarda, sug‘orma dehqonchilik joylarida, elektr transporti sust rivojlangan, atrofi qishloq xo‘jalik ekinlari bilan o‘ralgan sharoitda vujudga kelgan. Mohiyatan, bizning aglomeratsiyalar shahar emas, balki shahar-qishloq aglomeratsiyalaridir.

Agar shahar va shaharchalar, o‘zaro hududiy tutashib, qo‘shilib ketsa, u holda yaxlit – ulkan shahar vujudga keladiki, ular **konurbatsiya** deyiladi (London, Rur havzasi konurbatsiyasi va h.k.). Biroq, konurbatsiya ham aglomeratsiyalarning bir shakli, ko‘rinishi bo‘lsa-da, har qanday aglomeratsiya ham konurbatsiya emas.

Shaharlar hududiy birlashmasining yana bir murakkab shakli **megalopolislar**dir (ushbu tushunchani fanga amerikalik olim Jan Gottman 50-yillarda kiritgan). Megalopolislar aglomeratsiyalarning o‘zaro qo‘shilib ketishi natijasida vujudga keladi. Masalan, BosVash (Boston-Vashington), ChiPits (Chikago-Pitsburg), Tokaydo (Tokio-Iokogama) va boshqa megalopolislar mavjud.

O‘zimizning Farg‘ona vodiysida ham aholi joylashuvining o‘ziga xos shakli vujudga kelgan, uni yirik shaharlarning bosh harfi bilan FANO‘X (Farg‘ona–Andijon–Namangan–O‘sh–Xo‘jand) megalopolisi

deb atash mumkin. Umuman esa, megalopolis yoki megapolis ulkan shahar (megakatta, yirik) ma'nosini bildiradi. Grek arxitektori Doksiadis hatto oykumenapolis²⁴ haqida ham fikr bildirgan. Daryolarning quyi qismida joylashgan shaharlar birikmasini biz deltapolis deyishimiz mumkin.

Urbanizatsiyaga AQShlik olim Kristian Savuer quyidagicha ta'rif bergan:

1. Urbanizatsiya – shahar landshaftlari va shahar turmush tarzining o'sishi va yoyilishidir.

2. Hamma shahar ham klassifikatsiya qilishga kerakli odamlarning soniga mos kelavermasligi sababli shaharni aniqlash va tasniflash qiyin bo'ladi (shaharshunos olimlar shaharlarga beradigan ta'rifga yondashuv turlicha).

3. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar yuqori urbanizatsiyalashgan holda, rivojlanayotgan mamlakatlarda shaharda yashovchilarning soni va ulushi yaqin yillarda ancha o'sgan.

4. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi ko'plab shaharsozlik idoralari bunday «portlovchi» urbanizatsiya jarayonini nazorat qilishga harakat qilishmoqda. Haqiqatda, har yili taxminan 10 mln kishi «portlovchi» urbanizatsiyani kechirayotgan hududlardagi yuqori demografik sig'im va yetarli darajada infrastruktura ta'minotiga ega bo'lmaganligi sabab yuz beradigan xatarli sharoitlar tufayli nobud bo'lmoqda*.

Urbanizatsiya (lotincha, urb – “shahar”, sation – “jarayon”) – jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishi; ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi, aholining ijtimoiy, demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. U tarixiy rivojlanish asosida shakllangan jamiyat bosqichlari va hududiy mehnat taqsimoti natijasida sodir bo'lgan ko'p qirrali geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayondir. Uning torroq doiradagi demografik-statistik tushunchasi dunyoda, alohida hududlarda, mamlakatlarda shaharlarning (ayniqsa, katta shaharlarning) va shahar aholisi salmog'ining ko'payib borishini anglatadi.

Dastlabki shaharlar mil.avv. III-I ming yilliklarda Nil deltasi, Mesopotamiya, Suriya, Hindiston, Kichik Osiyo, Xitoy, Hindixitoy, shuningdek, Yevropa va Afrikaning O'rta dengiz sohillarida vujudga

²⁴ butun dunyo shaharlarining yagona tizimi

* Christian Sawyer. Human geography crash course. Printed in the United States of America: “Green Edition”, 2012. P. 185.

kelgan. Yunon-Rim dunyosida esa Rim va Karfagen shaharlarining mavqei yuqori bo'lgan. O'rta asrlar va uyg'onish davrida kapitalistik ishlab chiqarish unsurlari shakllana boshladi. Bu jarayon shaharlarda aholi sonining o'sib borishiga, konsentratsiyalashuviga olib keldi.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda yirik shaharlar paydo bo'la boshladi. Biroq uning geografik jihatlari ham kam emas, chunki urbanizatsiya turli mamlakat va rayonlarda o'zgacha sodir bo'lmoqda. Urbanizatsiya murakkab hodisa ekanligi tufayli uni faqat bitta mezon, ko'rsatkich bilan ifodalash, o'lchash mumkin emas. Ammo, shunday bo'lsa-da, barcha uchun qulay bir o'lchov kerak. U ham bo'lsa mamlakat va boshqa hududlar aholisining qancha qismi shahar joylarda yashashi, ulushi, nisbiy hissasidir. Masalan, Afg'onistonda aholining 1/4 qismi, Turkmanistonda – 1/2 qismi shaharliklardan iborat. Rivojlangan mamlakatlarda urbanizatsiya koeffitsiyenti 90 va undan ortiq foizni tashkil etadi.

Urbanizatsiyaning umumiy ko'rsatkichi bilan mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi va uning tarkibiy tuzilishi orasida ma'lum aloqadorlik bor. Chunonchi, iqtisodiyotiga ko'ra:

- agrar: urbanizatsiya darajasi 30 % dan past;
- agrar-industrial: urbanizatsiya darajasi 31-50 %;
- industrial-agrar: urbanizatsiya darajasi 51-70 %;
- industrial: urbanizatsiya darajasi 71-90 %;
- postindustrial: urbanizatsiya darajasi 91 foizdan ko'p.

Ammo, shuni alohida ta'kidlash joizki, urbanizatsiyaning yuqoridagi ko'rsatkichi hamma vaqt va hamma joylarda ham real hududiy-iqtisodiy vaziyatni aks ettirmaydi. Masalan, Rossiya Federatsiyasining Chukotka o'lkasida yoki Kamchatka, Magadan viloyatlarida, o'zimizning Qoraqalpog'istonda urbanizatsiya ko'rsatkichi nisbatan yuqori. Biroq bu hududlar iqtisodiy jihatidan uncha rivojlanmagan. Ulardagi shahar aholisi salmog'ining yuqoriligini esa, katta qismida tabiiy sharoit noqulayligi uchun shaharlarda aholining to'planib qolgani bilan izohlash mumkin, xolos.

Demak, u yoki bu mamlakat urbanizatsiya darajasini boshqa mamlakat bilan qiyoslaganda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- shahar tashkil qilish mezonlari²⁵;
- shaharlarning umumiy soni va zichligi;

²⁵ masalan, Turkmanistonda buning uchun 5 ming aholi istiqomat qilishi kerak; O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 7 ming kishini tashkil etadi

- yirik shaharlarning mavjudligi;
- shahar aglomeratsiyalarining rivojlanganligi;
- qishloq-shahar va mayatniksimon migratsiyasining jadalligi;
- aholining bandlik darajasi va tarkibi;
- qishloq joylar urbanizatsiyasi, qishloqliklarda «shaharchasiga» yashash tarzining mavjudligi va h.k.

Yuqoridagilar urbanizatsiyaning naqadar murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa ekanligidan yana bir bor dalolat beradi. Albatta, urbanizatsiya – bu obyektiv va, umuman olganda, ijobiy jarayon. Ammo, uning salbiy tomonlari ham yo‘q emas. Chunonchi, ekologik va sotsial muammolarning keskinlashuvi hozirgi zamon urbanizatsiyasining eng ko‘zga ko‘rinarli salbiy «yo‘ldoshlari»dir.

O‘rta Osiyo va O‘zbekistondagi urbanizatsiya sharqona xususiyatga ega. Binobarin, bu yerda urbanizatsiya ko‘rsatkichini yaqin kelajakda 70-80 foiz bo‘lishini tasavvur qilish qiyin va aslo bunday bo‘lmaydi ham. Bunga sabab, bizda shaharlar rivojlanishi qishloq xo‘jaligi bilan qadimdan an’anaviy holda bog‘liq. Qolaversa, bunday mamlakatlarda qishloq urbanizatsiyasi ham katta ahamiyatga ega. Boz ustiga, respublikamiz rahbariyati qishloq joylarda ijtimoiy-iqtisodiy tub o‘zgarishlarni amalga oshirish, qishloq industriyasi va infrastrukturasiga jiddiy e’tibor qaratmoqdaki, bu ham urbanizatsiyani ichkaridan, «yashirincha» rivojlanishidan darak beradi.

Demak, urbanizatsiyaning umumiy demografik ko‘rsatkichi garchi ma’lum qulayliklarga ega bo‘lsa-da, uning ayrim nozik jihatlari ham mavjud. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi shaharlarning o‘shishi va shahar aholisining shakllanishi, shahar aholisining tabiiy o‘shishi, shahar atrofi hududlarining ma’muriy jihatdan shaharga qo‘shilib borishi, qishloq aholi manzilgohlarining shahar maqomini olishi bilan bog‘liqdir. Shaharlarning o‘shishida shahar atrofi zonalarida shahar turmush tarzining shakllanib borishi, ya’ni urbanizatsiya jarayonining kuchayishi ham ahamiyatlidir. Katta shahar atrofida kichik shaharlar paydo bo‘lib, katta shaharlarga qo‘shilib boradi va shaharlar aglomeratsiyasi hosil bo‘ladi.

Avvalo, urbanizatsiya jarayoni va uning hududlar bo‘yicha rivojlanish mezonlari haqida umumiy tushuncha hosil qilish maqsadga muvofiqdir. Shu asnoda tabiiy sharoit omillarining yirik shaharlarga ta’sirini urbanizatsiya jarayonida sezilarli kechishini ko‘rish mumkin.

Shaharlar barcha zamonlarda rivojlanish uchun turtki bo‘luvchi asosiy nuqtalar sifatida xizmat qilib kelgan. Ularning bu xususiyati fan-

texnika taraqqiyotidan keyin, ayniqsa, umumjahon mezoniga aylandi. Bugungi kunda mamlakatlarning industrial va texnologik va boshqa mezonlar bilan belgilanuvchi rivojlanish darajasi urbanizatsiya darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bir so‘z bilan aytganda, urbanizatsiya mamlakat taraqqiyotini belgilovchi asosiy mezondir.

Eng birinchi yirik shaharlar 4-5 ming yillar avval Mesopotamiya; Nil, Hind, Xuanxe daryolari vodiylarida vujudga kelgan. Shaharlarning vujudga kelishi iqtisodiy taraqqiyot bilan bog‘lanadi. Shaharlar hukmdorlar yashovchi hududlar, bosh vazifasi mudofaa bo‘lgan qal’alar sifatida shakllangan. Bunday holatda ular strategik jihatdan eng qulay joyda bunyod qilingan. Meksika va Peru hududlarida Kolumbga qadar davrlarda ulkan shaharlar sivilizatsiyalari rivojlangan. Qadimiy Amerika va Yevrosiyo hududlari bir-biridan butunlay xabarsiz bo‘lsa-da ulardagi shaharlar sivilizatsiyasi o‘z xususiyatlariga ko‘ra juda o‘xshash bo‘lgan. O‘rta asrlarda dunyodagi eng yirik shaharlar – Nankin (470 ming kishi), Qohira (450 ming kishi), Pekin (320 ming kishi) bo‘lgan. Yevropa mintaqasining eng yirik shahri Parij bo‘lib, uning aholisi 275 ming kishi bo‘lgan. Milan va Venetsiya shaharlari undan ikki barobar kichik bo‘lib, XIX asrda 870 ming aholisi bilan dunyoning eng yirik shahri bo‘lgan London aholisi o‘sha vaqtda 50 ming kishidan oshmagan. XVIII asr boshida dunyo aholisining 10 foizidan kamrog‘i shaharlarda yashagan.

O‘rta asrlarda eng katta bo‘lgan shaharlar hozirgacha mavjud, ba’zilari rivojlanishdan to‘xtab qolgan va provinsiyalar markaziga aylangan yoki butunlay yo‘q bo‘lib ketgan. Shaharlashish jarayonini quyidagi xususiyatlarda ko‘rishimiz mumkin:

- 1) shahar aholisi sonining o‘sib borishida;
- 2) ishlab chiqarishning shaharlarda to‘planishida.

Shaharlar maydonining kengayib borishida jamiyat rivojlanishi tarixda shaharlarning ma’muriy markaz, madaniy markaz hamda iqtisodiy aloqalar qilinadigan markazlar sifatidagi roli ortib bordi. Agar 1800-yili dunyo aholisining 3% i shaharlarda istiqomat qilgan bo‘lsa, oradan 100 yil o‘tib, mazkur ko‘rsatkich 14% ga yetdi. 2000-yilga kelib jahon urbanizatsiya darajasi (shahar aholisining salmog‘i) 47% ni tashkil qildi. 2023-yil holatiga ko‘ra, jahon aholisining 57 foizi shaharlarda istiqomat qilgan. Eng yuqori ko‘rsatkich (100%) Vatikan, Qatar, Monako, Singapur, Nauru kabi “mitti” davlatlarda kuzatiladi. Eng past ko‘rsatkichlar esa Burundi (13%), Niger (16%) Malavi (17%) kabi eng sust rivojlangan davlatlarga xos.

Urbanizatsiya darajasi ko‘rsatkichi bo‘yicha jahon mamlakatlari 3 ta guruhga ajratiladi:

1. Yuqori darajada urbanizatsiyalashgan – shahar aholisining ulushi 76 foiz va undan baland mamlakatlar. Jumladan, AQSh, Yaponiya, Belgiya va h.k.

2. O‘rtacha darajada urbanizatsiyalashgan – shahar aholisining ulushi 51-75 % bo‘lgan mamlakatlar. Jumladan, JAR, Xitoy, O‘zbekiston va h.k.

3. Past darajada urbanizatsiyalashgan – shahar aholisining ulushi 50 foizdan kam bo‘lgan mamlakatlar. Jumladan, Afg‘oniston, Tojikiston, Mozambik va h.k.

Umuman olganda, urbanizatsiyani geografik jihatdan o‘rganish quyidagi xulosalarni keltirib chiqaradi:

Shaharlarning rivojlanishi va urbanizatsiya jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Ushbu jarayonning rivojlanishi hududda sanoat korxonalarining, transport yo‘llarining barpo etilishi bilan bog‘liq.

Urbanizatsiya jarayoni shakllanishi hududiy farqlarga ega. Rivojlangan davlatlarda shahar hududlarining kengayishi, suburbanizatsiya, rurbanizatsiya kabi zamonaviy urbanizatsiya ko‘rinishlari rivojlanayotgan bo‘lsa, rivojlanayotgan davlatlarda esa aglomeratsiya, megalopolislar paydo bo‘lishi bilan bir qatorda “soxta urbanizatsiya” holati ham yuzaga kelmoqda.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida shaharlarning rivojlanishi va urbanizatsiya jarayoni bilan bog‘liq bir qator ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Yangi shahar aholi manzilgohlarining shakllanishi, shaharsozlikda zamonaviy loyihalar asosida shaharlar qiyofasining o‘zgarishi shular jumlasidan.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Geourbanistika qanday yo‘nalish? U aholi punktlari geografiasidan qaysi jihatlariga ko‘ra farq qiladi?*
- 2. Shahar aholi punktlari qaysi mezonlar asosida tashkil etiladi?*
- 3. Shaharlarning funksional tiplari qanday aniqlanadi?*
- 4. Aglomeratsiyalarning qanday ko‘rinishlari mavjud?*
- 5. Jahonda megalopolislarning hududiy tarkibiga oid xarita ishlang.*

13-BOB. QURILISH INDUSTRIYASI VA LANDSHAFT ARXITEKTURASI

Mavzu annotatsiyasi. *Ushbu mavzuda hududlarning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga bog‘liq holda, qurilish loyihalarining amalga oshirilishi, zamonaviy shaharsozlikning texnologik jihatlari va arxitektura dizayniga qo‘yiladigan talablar yoritib berilgan. Shuningdek, binokorlik industriyasi va landshaft arxitekturasini hudud geografik sharoitiga mos holda tashkil etishning nazariy asoslari tahlil etilgan.*

Tayanch so‘z va iboralar: *qurilish industriyasi, landshaft arxitekturasini, turarjoy binolari, inshoot, infratuzilma elementlari, minora, osmono‘par bino.*

Reja:

- 13.1. Qurilish industriyasi va uning tashkiliy shakllari.
- 13.2. Binokorlik elementlarini joylashtirishga ta‘sir etuvchi omillar.
- 13.3. Qurilishning tarkibiy tuzilishi.



13.1-§. Qurilish industriyasi va uning tashkiliy shakllari

Qadimgi odamlar geografik o‘rni va manbasining xususiyatiga bog‘liq holda turli xil boshpanalardan foydalanishgan. Jumladan, bularga g‘orlar; hayvonlar terisidan yoki o‘simlik materiallaridan yasalgan chodirlar; shoxlar va loydan yasalgan kulbalar; yerga yoki tepaliklarga qurilgan inshootlar kiradi.

Sivilizatsiyalar rivojlanib, aholi soni ortib borishi bilan doimiy va murakkab tuzilmalarga ehtiyoj paydo bo‘la boshlaydi. Bu qurilish sanoatining paydo bo‘lishiga olib keladi, bu yerda malakali ishchilar va hunarmandlar tosh, g‘isht, yog‘och, keyinchalik beton va po‘lat kabi materiallardan foydalangan holda uylar, ibodatxonalar, istehkomlar va boshqa inshootlar qurishga ixtisoslashgan.

Vaqt o‘tishi bilan qurilish sanoati texnologiya, muhandislik va arxitektura sohasidagi yutuqlar bilan rivojlandi. Bu me'morlar, muhandislar, pudratchilar va savdogarlarni o‘z ichiga olgan turli kasblarni o‘z ichiga olgan yuqori darajada tashkil etilgan sektorga aylandi. Bugungi kunda qurilish sanoati yashash muhitini shakllantirish

va butun dunyo bo'ylab jamiyatlar uchun muhim infratuzilmani ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Qurilish – kishilik jamiyatiga xos texnologik va umummadaniy merosning cheksiz va bexad keng sohasidir. Qurilish industriyasi moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan biri bo'lib, u ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va milliy iqtisodiyotni kompleks rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, barcha iqtisodiyot jabhalarining poydevorini tashkil qiladi. Chunonchi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun infratuzilma elementlarini barpo qilish; sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun avvalo korxonani qurib, foydalanishga topshirish; transport xizmatini tashkil etish uchun transport yo'llarini o'tkazish; xizmat ko'rsatishni amalga oshirish uchun ham, albatta, dastlab muassasani qurish lozim bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, mazkur soha mamlakat milliy iqtisodiyotining asosi hisoblanadi.

Shuningdek, qurilishning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati va yetakchi rol o'ynashiga yana bir sabab shuki, u aholining katta qismini ish bilan ta'minlaydi, fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyotning jadallashishiga, ijtimoiy mehnat unumdorligining o'sishiga imkon yaratadi.

Qurilish, moddiy ishlab chiqarish tarmog'i sifatida, avvalo, ishlab chiqariladigan mahsulotning ko'chmasligi, o'lchamlarining kattaligi, serqirra va murakkabligi bilan bog'liq o'ziga xos bir necha xususiyatlarga ega. Qurilish mahsuloti ko'p mehnat va kapital sarf-harajatlarni talab qiladi, uni ishlab chiqarish sikli uzoq muddatli bo'lib, uni ishlab chiqarishga soat yoki daqiqa emas, balki oylab, hatto yillab vaqt talab qilinadi. Qolaversa, qurilishda qo'llaniladigan asbob-uskunalar va mehnat predmetlari o'ziga xos turda va tarkibda bo'lishidan tashqari, ular harakatlanuvchi ham bo'ladi.

So'nggi yillarda fan-texnika taraqqiyoti ta'siri ostida qurilish ishlab chiqarishida tubdan sifat o'zgarishlari yuz bermoqda. Qurilish ishlab chiqarishining xarakteri ham tubdan o'zgarib bormoqda. Og'ir qo'l mehnati yirik va mayda mexanizatsiya vositalari tomonidan tobora siqib chiqarilmoqda. Quruvchi-montajchilarning qurilish maydonlaridagi mehnati industrial mehnatning bir turiga aylanib bormoqda. Qurilish ishlab chiqarishining texnik jihozlanganlik darajasi ortgani sayin, jonli mehnat sarflari kamayib, yengillashib boradi. Bundan tashqari, uning unumdorligi ortadi, qurilishning muddatlari qisqarib, sifat jihatdan takomillashadi.

Qurilish industriyasi deyilganda, faqatgina ma'lum inshootni qurishgina emas, balki qurilish tashkilotlari, buyurtmachilar, loyihalash muassasalari, materiallar, konstruksiyalar va asbob-uskunalarni yetkazib beruvchi korxonalarining faoliyati ham tushuniladi. Bundan ko'rinadiki, mazkur soha ham bir butunlik qonuniyatiga o'xshash zanjir tuzilmasiga ega, ya'ni tarkibdagi biror halqa faoliyatining bajarilmasligi, ishning yakuniy bosqichida jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Qo'shimcha tarzda, qurilishning mukammal tashkil etilishi va sifatli yakunlanishida moliya-kapitalning o'rni g'oyat ahamiyatlidir. Shuning uchun hozirgi kunda kapital qurilish sohasida uchraydigan ba'zi muammolar, kamchilik va nuqsonlar faqat qurilish tashkilotlari samaradorligining yetarli darajada emasligi oqibati emas, balki investitsiya jarayonini tashkil qilish va boshqarishning turli bosqich va pog'onalarida vujudga kelayotgan salbiy holatlarning ta'siridir. Yuqorida keltirib o'tilganidek, qurilish industriyasi kichik birliklardan tashkil topgan yaxlit tuzilma bo'lib, uning tashkiliy shakllarini teran anglash muhim hisoblanadi.

Qurilishning tashkiliy shakllari – kapital qurilishda investitsiya jarayonining asosiy ishtirokchilari sifatida odatda bajaradigan vazifalariga ko'ra investor, buyurtmachi, quruvchi, pudratchi va loyihalovchilardan tarkib topgan tuzilmadir.

Ma'lumki, har qanday inshootni barpo qilish uchun uni qurilishiga sarmoya kiritish lozim. Ushbu sarmoyador obyekt qurilishini moliyalashtirishni xususiy yoki qarz mablag'lar hisobiga amalga oshiruvchi *investor* deyiladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, sarmoyador investitsiya natijalarini tasarruf qilish uchun to'liq yuridik huquqlarga ega bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, u kapital qo'yilmalarni jalb qilish shaklini belgilaydi, qurilish shartnomalarining talablarini ishlab chiqadi, investitsiya jarayoni ishtirokchilari bilan bo'ladigan moliya-kredit munosabatlarini amalga oshiradi. Investor qurilish mahsulotining buyurtmachisi, kreditori, haridori bo'lishi, shuningdek, bevosita quruvchi funksiyasini bajarishi ham mumkin.

Qurilish jarayonida investor pul kiritishi uchun, avvalo, unga talab bo'lishi lozim. Shu jihatdan, texnik-iqtisodiy asoslarni ishlab chiqishdan boshlab obyektни foydalanishga topshirish yoki obyektning ishlab chiqarish quvvatiga chiqishigacha bo'lgan muddatda obyekt qurilishining tashkilotchisi va boshqaruvchisi funksiyalarini qabul qilgan huquqiy yoki jismoniy shaxs – *buyurtmachi* jarayondagi asosiy subyektlardan biri hisoblanadi. Buyurtmachi inshootdan faqat ijara

shartlari asosida foydalanish huquqiga ega bo'lsa, qurilish bo'layotgan yer maydoniga egalik qilish huquqiga ega bo'lgan huquqiy yoki jismoniy shaxs *qurilish egasi* hisoblanadi.

Inshootni bunyod etishda qurilish egasi va buyurtmachining investor bilan shartnomasi tuzilgach, *pudratchi* inshoot qurilishini amalga oshiradigan qurilish firmasi, quruvchilar jamoasi sifatida ishni davom ettirishga kirishadi. Bosh pudratchi qurilish natijalari uchun shartnoma shartlariga muvofiq ravishda buyurtmachi oldida to'liq javobgar bo'ladi. Demak, pudratchi inshoot modelini yaratish bilan emas, uni qurish bilan shug'ullanadi. Buyurtmachi bilan tuzilgan shartnoma asosida u yoki bu obyektning kelgusidagi qurilishini modellashtiruvchi subyekt *loyihalovchi* hisoblanadi. O'z navbatida, u loyiha va uning asosidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarning sifati uchun to'liq javobgar bo'ladi. Buyurtmachi loyihada ko'zda tutilgan yechimlarga rioya qilinishini nazorat qilish huquqiga ega bo'ladi.

Qurilish ishlab chiqarishi jarayoni turli shakl va usullarda tashkil qilinishi mumkin bo'lib, pudrat usuli, xo'jalik usuli, obyektlarni «qulf – kalit» qilib topshirish va sotish shular jumlasidandir. Jumladan, *pudrat usuli* orqali qurilish muntazam ishlab turuvchi qurilish tashkilotlari (firmalari) tomonidan buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalar assida amalga oshiriladi. Bu qurilishning asosiy va eng keng tarqalgan usulidir. Bugungi kunda kapital qurilish sohasidagi barcha pudrat ishlarining taxminan 4/5 qismi mazkur usulda amalga oshiriladi. Jahondagi yirik transmilliy korporatsiyalar, sanoat korxonalar, elektr stansiyalari kabilar to'la ravishda pudrat usulida bunyod etiladi. *Xo'jalik usulida* esa obyektlar qurilishi yoki qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish ishlari xo'jalik subyektlarining – korxonalar, tashkilotlar, institutlar va shu kabilarning kuch va mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Korxonalarni qayta ta'mirlash va kengaytirish, kichikroq qurilish obyektlari, hududlar va xonalarni obodonlashtirish, ta'mirlash ishlari ko'pincha shu usulda olib boriladi.

Iqtisodiyotda nisbatan yangi jarayon *tender* (tanlov) bo'lib, bunda buyurtmachi biror obyektни qurish yoki loyihalash, asbob-uskunalar yetkazib berish bo'yicha tanlov e'lon qilayotganligini ochiq yoki yopiq shaklda xabardor qiladi va xohlovchilarni shu tanlovda ishtiroq etishga taklif qiladi. Bunda maxsus hujjat tayyorlanadi va unda tanlovning asosiy g'oyasi va shartlari ko'rsatiladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan shakllardan tashqari, qurilishning ijtimoiy mehnat taqsimoti nuqtai nazaridan ixtisoslashuv, konsentratsiya,

kooperatsiya kabi tashkiliy shakllari mavjud. Amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, bu shakllarni mohirlik bilan qo'llash orqali ishlab chiqarish va kapital qo'yilmalardan yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Masalan, agar ixtisoslashuv va kooperatsiya harajatlarning kamayishiga, mahsulot sifatining yaxshilanishiga imkon bersa, kontsentratsiya va kombinatsiya – xomashyo va materiallardan kompleks foydalanishga hamda qurilish sohasida fan-texnika taraqqiyoti ko'lamining yanada kengayishiga olib keladi.

13.2-§. Binokorlik elementlarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar

Jahon bo'yicha geografik o'rniga bog'liq holda hududlar tabiiy sharoitining xilma-xilligi, geologik va geomorfologik tuzilishining o'ziga xosligi, seysmik jihatdan turlicha xususiyatlarga ega ekanligi sababli qurilish va binokorlik majmualari bir-biridan farq qiladi. Chunonchi, qurilish industriyasining tashkil etilishida quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

– **geografik o'rin omili** qurilish rejalashtirilayotgan hududning suv havzalariga yaqin yoki uzoqligi, geosinklinal yoki platformali mintaqalarda joylashishi, yer usti tuzilishi, ob-havo elementlarining taqsimlanishini belgilab beradi. Mazkur jihatlarga monand ravishda qurilish ishlari amalga oshiriladi;

– **geologik omil** tog' jinslarining mexanik tarkibi, suv o'tkazuvchanlik xususiyati, tuproq turlarining o'ziga xosligi orqali namoyon bo'ladi. Inshootlarni loyihalash va qurilish ishlarini tashkil etishda mazkur omilni inobatga olmaslik natijasida obyekt qurib bitkazilganidan so'ng salbiy oqibatlar yuzaga kela boshlaydi. Xususan, shaharning asosi mustahkam bo'lishi zarur. Agar inshootlar asosi g'ovak, yumshoq va suvda erib ketadigan tog' jinslaridan iborat bo'lsa, bino qurilganidan so'ng ular o'pirilishlar, cho'kishlar natijasida ishdan chiqishi mumkin. Mabodo, shahar asosi suv tekkanda shishib ketadigan gillardan iborat bo'lsa, binolarda yoriqlar paydo bo'lib, yaroqsiz holga kelib qolishi mumkin. Masalan, o'tgan asrning 70-yillarida Zarafshon shahri qurilganda 5–10 m chuqurlikda suv tekkanda tezda shishib ketadigan gillar borligi hisobga olinmagan. Oqibatda shahar qurilib, suv olib kelinganidan so'ng, gillar shishib, 5–9 qavatli binolarning devorlarida yoriqlar paydo bo'lib, ularning ba'zilar yaroqsiz holga kelib qolgan;

– *seysmik faollik omili* yer po‘stining barqarorligi (platformalar) yoki geosinklinalligi orqali namoyon bo‘ladi. Chunonchi, seysmik faollikka moyil bo‘lgan hududlarda tuproq turi, qurilish materiallari, konstruktiv dizayn va seysmik qurilish qoidalariga rioya qilish hisobga olinadi hamda binolarning xavfsizligi va chidamliligini ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlar qo‘llaniladi. Avvalo, yer silkinishini va binolar duch kelishi mumkin bo‘lgan boshqa seysmik xavflarni baholash uchun tarixiy zilzila ma'lumotlari, tektonik yoriqlar o‘tgan zonalar va geologik sharoitlarni tahlil qilish orqali seysmik xavfni baholash amalga oshiriladi; strukturaviy yaxlitlik, poydevor dizayni va mavjud binolarni qayta jihozlash qoidalarini o‘z ichiga olgan qurilish normalari ishlab chiqiladi; binoning konstruktiv yaxlitligini oshirish uchun temir-beton, po‘lat karkaslar va boshqa seysmik chidamli materiallar va usullardan foydalanib strukturaviy dizayn ishlab chiqiladi; tebranish paytida egilishning oldini olish uchun mustahkam poydevor tizimi ishlab chiqiladi; seysmik kuchlarni yumshatish uchun strukturaviy elementlarni mustahkamlash, kesish devorlarini qo‘shish yoki taglik izolyatorlarini o‘rnatish orqali eski binolar zilzilaga chidamliligini oshirish uchun qayta jihozlanadi va hokazo. Bularning barchasi hududning o‘ziga xos qurilish usullarini aniqlab beradi.

Jumladan, Yaponiya, Filippin, Indoneziya kabi davlatlar hamda Shimoliy va Janubiy Amerikaning g‘arbiy qirg‘oqbo‘yi hududlari kabi Tinch okean «olovli halqa»sida qurilish loyihalarida seysmik faollik omili to‘liq inobatga olinadi va binolar qurilishida elastik materiallardan foydalaniladi. Islandiya va Sitsiliyada vulqon harakatlari inobatga olinsa, boshqa faol hududlarda imkon qadar qurilish ishlari kattaroq fundamentga ega binolar ko‘rinishida bunyod etiladi;

– *relyef omili* hududning qurilish strukturasi belgilab beradi. Chunonchi, tog‘li hududlarda nishab barqarorligi, tuproq eroziyasi, materiallar va transport vositalaridan foydalanish imkoniyati, kuchli qor yog‘ishi yoki qor ko‘chkisi kabi ekstremal ob-havo sharoiti hamda o‘zgaruvchan geomorfologik tuzilma va iqlimga bardosh bera oladigan me'moriy dizaynlarni hisobga olishni talab qiladi. Aytish joizki, tipik tog‘li mamlakatlarda (Nepal, Butan, Qirg‘iziston, Tojikiston) temiryo‘l va havo transport infratuzilmalarini qurish imkoniyatlari cheklangan bo‘ladi. Qolaversa, tog‘li hududlardagi aholi uylarini ko‘pincha tosh, yog‘och va loy kabi mahalliy materiallardan foydalanadi. Chunki bunday xomashyolar tog‘li hududlarda osongina topiladi va iqlimdagi noqulayliklarda izolyatsiya vazifasini bajaradi. Masalan, Nepal, Butan,

Shimoliy Hindiston va Kavkaz hududlarida tosh va yog'och asosiy qurilish xomashyolari hisoblanadi. Peru, Boliviya va Ekvador kabi And mamlakatlarida esa tosh bilan birgalikda loydan yasalgan paxsa g'isht katta ahamiyatga ega.

Tekislik mintaqalarida qurilishni amalga oshirish tuproqning barqarorligi, drenaj, suv toshqini xavfini baholash, shamolning kuchi va mahalliy qurilish qoidalarini o'z ichiga oladi. Hududlarning tabiiy sharoitiga bog'liq holda, tekislik mintaqalarida har xil materiallardan foydalaniladi. Jumladan, Janubi-sharqiy Osiyo kabi tropik mintaqalarda bambuk o'zining mustahkamligi, moslashuvchanligi va barqarorligi tufayli mashhur qurilish materialidir. Bambukdan yasalgan uylar yengil va yuqori namlik darajasiga bardosh beradi.

Indoneziya, Keniya va Janubiy Amerikaning ba'zi mamlakatlari tabiiy izolyatsiya xususiyatlari tufayli tom yopish uchun quritilgan palma barglari, somondan foydalanadi. Afrika (Mali, Niger, Chad) va Osiyoning tekislik zonalaridagi (Kampodja, Bangladesh) sust rivojlangan mamlakatlarda loy, qum, somon va suv aralashmasidan tayyorlangan materiallar energiya tejamkor va yaxshi issiqlik izolyatsiyasi vazifasini bajargani bois, mahalliy qurilishda an'anaviy tarzda foydalaniladi. Demak, hududning relyefi va u bilan bog'liq tarzda tarkib topgan xomashyolar asosida qurilish ishlari ko'proq tashkil etiladi. Zamonaviy inshootlarni loyihalashda ham mazkur omil katta rol o'ynaydi;

– *iqlim omili* yer sharidagi ma'lum hududning harorat, namlik, yog'ingarchilik, shamol harakati va boshqalar kabi ob-havo elementlari materiallarni tanlash, izolyatsiyalash, isitish chora-tadbirlarini ko'rish, havoni tozalash va binolarni loyihalashga ta'sir qiladi. Binobarin, qutbiy mintaqalarga yaqinlashgan sayin bino va inshootlarning sovuqqa chidamligiga ko'proq e'tibor qaratilsa, kontinental tropik zonalarda yuqori darajadagi harorat va namlik koeffitsiyentining pastligiga moslab qurilish ishlari amalga oshiriladi. Masalan, muzlash harorati betonning yorilishiga olib kelishi mumkin, yuqori harorat esa asfalt qoplamalarining ishlashiga ta'sir qilishi mumkin. Haroratning o'zgarishiga bardosh beradigan tuzilmalarni loyihalash ekstremal iqlim sharoitlari bo'lgan hududlarda juda muhimdir.

Yog'in kam yog'adigan o'lkalardagi binolarning tom qismi yassi ko'rinishda qurilib, ayrim hollarda suvni to'playdigan moslamalar o'rnatilgan bo'ladi. Hududdagi yog'ingarchilik miqdori va chastotasi qiyaliklarning barqarorligiga, yo'llarning drenajlanishiga va

inshootlarning eroziyasiga ta'sir qilishi mumkin. To'g'ri drenaj tizimlari, gidroizolyatsiya choralari va eroziyaga qarshi kurash usullari yog'ingarchilik yoki qor yog'ishi yuqori bo'lgan hududlarda muhim ahamiyatga ega. Yuqori namlik darajasi mog'or paydo bo'lishi, metall komponentlarning korroziyasi va qurilish materiallarining yomonlashishi kabi namlik bilan bog'liq muammolarga olib kelishi mumkin. To'g'ri shamollatish, namlik to'siqlari va gidroizolyatsiya choralari nam iqlim sharoitida tuzilmalarning shikastlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun muhimdir. Shu jihatdan, qurilish ishlari va infratuzilma loyihalarida iqlim omilini hisobga olgan holda, muhandislar va arxitektorlar turli iqlim sharoitlari keltirib chiqaradigan qiyinchiliklarga bardosh bera oladigan va uzoq muddatli chidamlilik va barqarorlikni ta'minlaydigan bardoshli tuzilmalarni loyihalashlari mumkin;

– *ekologik omil* so'nggi yillarda zamonaviy bino va inshootlarni loyihalashda tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Mazkur omil tabiiy resurslar, ekotizimlar, biologik xilma-xillik, havo va suv sifati, energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish va barqarorlik kabi ko'plab jihatlarni o'z ichiga oladi. Qurilish faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini boshqarish va oqibatlarini yumshatish orqali barqaror rivojlanishni rag'batlantirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni minimallashtirish dolzarb hisoblanadi.

Qurilish faoliyati chang emissiyasi, shovqinlilik darajasi va kimyoviy moddalarining tarqalishi orqali havo va suv ifloslanishini keltirib chiqarishi mumkin. Tabiatga salbiy ta'sirni kamaytirish uchun qayta tiklanuvchi ekologik «toza» quvvat manbalariga o'tish va ulardan foydalanish yuqori samara beradi. Shuningdek, shahar hududlari havoning ifloslanishi, suv tanqisligi, chiqindilarni boshqarish va yashil maydonlarni yo'qotish bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqda. Yashil infratuzilma, jamoat transporti, energiya tejoychi binolar va chiqindilarni qayta ishlashga ustuvor ahamiyat beradigan barqaror shaharsozlik amaliyoti ekologik toza shaharlarni yaratishga yordam beradi. Keyingi yillarda ushbu omilni inobatga olgan holda quyosh (AQSh, Fransiya), shamol (Daniya, Niderlandiya, Germaniya), qalqish (Fransiya, Kanada, Xitoy) va geotermal (Islandiya, AQSh, Rossiya) resurslaridan unumli foydalanish uchun elektr stansiyalari barpo etilib, iste'molga tobora ko'proq yo'naltirilmoqda. Bunday inshootlar barpo etilishi natijasida qurilish asrida tub burilishlar amalga oshirilmoqda;

– **xomashyo omili** hududda tarqalgan qurilish materiallari bilan bog‘liq. Marmar, granit, sement, flyuorit, ohaktosh, qum, shag‘al va qurilishbop boshqa toshlarning mavjudligi qurilishning tashkil etilishi va ularning xossalriga bog‘liq tarzda obyektning tannarxiga ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, Rossiya o‘rmonlar, mineral rudalar, tosh, qum va loy kabi ulkan tabiiy resurslarga ega. Bu resurslar yog‘ochdan tortib to sementgacha bo‘lgan keng turdagi qurilish materiallarini ishlab chiqarish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Kanadada esa turli qurilish toshlari va metallardan keng foydalaniladi, arxitektura dizayniga katta urg‘u beriladi. Turkmaniston kabi ayrim cho‘l iqlimli mintaqalarda shaharlar oq marmardan bunyod etilsa, shisha ishlab chiqarish yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda oynadan go‘zal me‘morchilik obidalari barpo qilinadi;

– **transport omili** transport vositalari va infratuzilmaning mavjudligi materiallar va jihozlarni yetkazib berish logistikasiga ta‘sir qiladi, bu esa o‘z navbatida qurilish muddati va narxiga ta‘sir qiladi. Transport geografik o‘rni qulay hududda qurilishi rejalashtirilgan turarjoy binolarining narxi iqtisodiy geografik o‘rni noqulay mintaqalardagi narxdan keskin farq qiladi, sanoat korxonalarini transport yo‘llari yaqiniga joylashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va hokazo.

Demak, qurilish sohasida transport infratuzilmasining o‘rni katta ahamiyat kasb etadi. Shanxay, Tokio, Seul, Nyu-York kabi aholisi yuqori darajada konsentratsiyalashgan megapolislarda millionlab aholiga ommaviy transportdan foydalanish imkoniyatini ta‘minlash zarurati tufayli jadal qurilish va muhandislik yechimlarini talab qiluvchi ulkan metro tizimlari, tezyurar temir yo‘llar va ustma-ust avtomobil yo‘llari zich quriladi.

Katta qismi dengiz sathidan pastda joylashgan o‘ziga xos geografiyasi tufayli Niderlandiyada dengiz transporti va qirg‘oq dambalari tizimini mukammallashtirish ishlari olib boriladi. AQSh, Rossiya, Braziliya, Avstraliya kabi yirik mamlakatlarda uzoq masofalar va turli iqlim sharoitlari tufayli transport qurilish sanoatida asosiy rol o‘ynaydi. Bu esa avtomobil yo‘llari, ko‘priklar, temir yo‘llar, aeroportlar va jamoat transporti tizimlari tarmoqlarini qurish va ta‘mirlashda yaqqol namoyon bo‘ladi, yo‘l yoqalarida motel, hostel, kemping kabi inshootlarning qurilishiga ham zamin yaratadi;

– **demografik omil** qurilishni loyihalash va barpo etishda eng katta ahamiyat kasb etadi. Chunki aholining soni, tarkibi va hududiy tarqalishi

qurilish ishlarini tizimli amalga oshirishni taqazo etadi, aholi sonining prognozi orqali istiqboldagi muassasalarni barpo etish bo'yicha rejalar ishlab chiqiladi. Aholi soni ko'p bo'lgan mamlakatlarda turarjoy binolari, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari, ishlab chiqarish korxaonalari, infrastruktura elementlarini joylashtirish juda murakkab bo'lsa, aholi soni oz, ammo maydoni katta (Mongoliya, Namibiya) davlatlarda qurilish ishlari ko'proq gorizantal tarzda amalga oshiriladi. Aholining diniy va milliy-etnik xususiyatlari alohida obyektlar – masjid, ibodatxona, sinagoga, qariyalar va bolalar mehribonlik uylari kabilarni joylashtirishda ham muhim rol o'ynaydi;

– *iqtisodiy va siyosiy barqarorlik omili* mamlakatning rivojlanish holati, geosiyosiy vaziyati orqali namoyon bo'ladi. Strategik ahamiyatga ega hududlarda shunga mos inshootlar (harbiy bazalar, neytral transport koridorlari) joylashtiriladi. Ayniqsa, harbiy jihatdan qudratli mamlakatlarda (AQSh, Rossiya, Xitoy) harbiy sanoat markazlari, maxsus poligonlar tashkil etilgan bo'lib, ularning arxitekturasi va loyihalaniishi boshqalardan keskin farq qiladi.

Umuman olganda, qurilish ishlarini amalga oshirishda yuqoridagi kabi ko'plab omillar inobatga olinadi. Shu bilan birgalikda, malakali ishchi kuchi va texnologiyalarning o'rni va ahamiyati ushbu tarmoqda beqiyos bo'lib, barcha mamlakatlarda asosiy o'rinda turganligi bois alohida tahlil qilinmadi. Qurilish industriyasida belgilab qo'yilgan normalarga to'la rioya etish, hududning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarini chetda qoldirmaslik muhandislik inshootlarining uzoq vaqt, sifatli xizmat qilishiga asos vazifasini bajaradi.

13.3-§. Qurilishning tarkibiy tuzilishi

Qurilish turli mezonlarga ko'ra bir-biridan farq qiladigan guruhlariga bo'linadi. Jumladan, qurilish maqsadi, loyiha turi, loyiha xususiyatlari, qurilish usullari, materiallar va foydalanish texnologiyalari asosida qurilishning bir necha xil turlari ajratiladi (13.1-jadval). Belgilangan mezonlarga ko'ra qurilish turlarini tasniflash obyekt har bir turining xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga va turli tuzilmalarni loyihalash, qurish va ulardan foydalanishga zaruriy yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi. Qurilish tarmoqlari klassifikatsiyasin juda murakkab bo'lib, tahliliy ma'lumotlar asosida qurilish industriyasi tarkibini, shartli ravishda, sakkizta tarmoqqa ajratish mumkin.

Qurilish tarmoqlari klassifikatsiyasi


| Mezonlar | Tasnifi | Turlari |
|---|--|---|
| Maqsadi bo'yicha | uy-joy | <i>turar-joylar, kvartiralar, dala hovlilar</i> |
| | sanoat obyektlari | <i>korxonalar, zavodlar, omborlar, ishlab chiqarish sexlari</i> |
| | infratuzilma obyektlari | <i>yo'llar, ko'priklar, tunnellar, dengiz porti va aeroportlar</i> |
| | biznes strukturalari | <i>savdo markazlari, ofis binolari, restoranlar, mehmonxonalar, kazinolar</i> |
| | ijtimoiy obyektlar | <i>maktablar, kasalxonalar, madaniyat markazlari, muzey va teatrlar</i> |
| | turistik va rekreatsion obyektlar | <i>sport inshootlari, sihatgohlar, kurortlar</i> |
| | yashil majmualar | <i>istirohat bog'lari, landshaft arxitekturasi obyektlari</i> |
| Obyekt bo'yicha | yangi qurilish | <i>noldan binolarni qurish</i> |
| | rekonstruksiya | <i>mavjud binolarni modernizatsiya va restavratsiya qilish</i> |
| | ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish | <i>obyektlarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash</i> |
| Qurilish usullari bo'yicha | an'anaviy | <i>mahalliy xomashyo va qurilish an'analaridan foydalanish</i> |
| | industrial | <i>qurilish materiallari sanoati mahsulotlaridan foydalanish</i> |
| | yashil | <i>ekologik toza materiallar va texnologiyalardan foydalanish</i> |
| Materiallar va texnologiyalar bo'yicha | g'ishtli tuzilma | <i>pishiq va xom g'ishtdan foydalanish</i> |
| | monolit tuzilma | <i>temir-beton va fibrobeton mahsulotlaridan karkas asosida qurish</i> |
| | yog'och konstruksiyalar | <i>to'sinlar, taxta va fanerlardan foydalanish</i> |

| | | |
|---|----------------------------------|--|
| | kompozit materialli | <i>shisha tolali kompozitlardan foydalanish, panellar, ugleplastiklar, nanokompozitlar</i> |
| Qurish jarayonini tashkil etish bo'yicha | qo'l kuchi bilan | <i>qo'l mehnati, oddiy asboblardan bilan</i> |
| | mexanizatsiyalashgan | <i>kranlar, ekskavatorlar, buldozerlar, beton nasoslar yordamida</i> |
| | robotik | <i>robotlar va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida</i> |
| Murakkablik darajasi va texnik tavsiflari bo'yicha | ko'p qavatli qurilish | <i>osmono'par va ko'p qavatli binolar</i> |
| | yer osti qurilishi | <i>tunnellar, metrolar, omborxonalar</i> |
| | murakkab muhandislik inshootlari | <i>ko'priklar, to'g'onlar, gidrotexnik inshootlar</i> |

Jahon iqtisodiyotining ikkilamchi sektori sifatida vujudga kelgan qurilish sohasining eng qadimiy va eng talabgir tarmog'i *uy-joy qurilishi* hisoblanadi (13.1-rasm). Bunda aholi uchun shahar va qishloq aholi punktlarida turarjoy binolari barpo etiladi. Bunday majmualar qishloq joylarida, asosan, yashash uchun mo'njallangan obyektlardan tashkil topsa, shahar hududlarida ma'muriyat zonasi, tranzit harakat, rekreatsiya va bo'sh vaqtni o'tkazish, ovqatlanish, ommaviy tadbirlar (bayramlar, shou-konsertlar) zonasi kabilar loyiha asosida tashkil etiladi. Qolaversa, uy-joy qurilishida madaniy-maishiy va savdo muassasalari, maktab va bog'chalar hamda bekatlarga eng qisqa, qulay borish yo'li – transport tarmog'i o'rin egallashi lozim.

Aholining moddiy ehtiyojlarini qondirishdagi eng asosiy tarmoq sanoat bo'lib, *sanoat obyektlari qurilishi* o'ziga xos malaka va texnologiyani talab qiladi. Boisi, noto'g'ri loyihalangan inshoot sanoat korxonasi ishga tushganidan so'ng jiddiy xavflarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu jihatdan, bunday obyektlar ekspertizadan o'tkazilgandan so'ng bunyod etiladi, qurilganidan keyin esa muttasil ekologik monitoring qilib turiladi.

Infratuzilma obyektlari qurilishi boshqa barcha sohalar uchun xizmat ko'rsatuvchi tuzilma bo'lib, ayniqsa, aholi zich joylashgan shaharlarda bunday obyektlarni ekstrapolyatsiya usulidan foydalanib tashkil etish muhim hisoblanadi. *Biznes strukturalari qurilishi* boshqa majmualarga qaraganda zamonaviy dizaynlar asosida barpo etiladi. Boisi, nomidan ko'rinib turganidek bunday inshootlar iqtisodiy kapital aylanmasi uchun mo'njallangan bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan ma'naviy jihatdan tez eskirmasligi uchun landshaft arxitekturasiga ham ko'proq urg'u qaratiladi.



13.1-rasm. Qurilish industriyasi tarmoqlari

Aholining keng qatlami uchun barpo etiladigan *ijtimoiy obyektlar qurilishida* inshootning funksiyasiga bog'liq holatda qurilish ishlari olib boriladi. Xususan, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab va shifoxonalar bir-biridan tubdan farq qiladi. Aholining ma'naviy va estetik ehtiyojlarini qondirish uchun *rekreatsiya va turizm obyektlari* hamda *yashil majmualar* bunyod etiladi. Ularning aholi soniga mos ravishda tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Ularni hududiy tashkil etishda tabiiy sharoit, geografik o'rin imkoniyatlari va aholining madaniy xususiyatlari inobatga olinadi.

Qurilishning mahsuloti ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy fondlari bo'lib, ular mamlakatning milliy boyligini hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlashning asosini tashkil

qiladi. Qurilishning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishda qurilish ishlab chiqarishining joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini hisobga olish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga tayanish lozim. Miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, zaxiralarni topish va ularni safarbar etish, qurilishning kapital sarflarini va qurilish muddatlarini kamaytirish investitsion qurilish jarayonidagi barcha ishtirokchilarning muhim vazifasidir.

Savol va topshiriqlar:

1. *Qurilish industriyasi nima sababdan iqtisodiy geografik jihatdan alohida yo'nalish sifatida tadqiq etiladi?*
2. *Binokorlik elementlarini joylashtirishda qaysi jihatlar ko'proq inobatga olinadi?*
3. *Qurilish inshootlarining tashqi qiyofasi o'sha hududning madaniy hayotini ham o'zida aks ettiradi. Quyidagi rasmda tasvirlangan uch xil ko'rinishdagi inshootlar qaysi omilga bog'liq tarzda bunyod etilgan?*



4. *Nima sababdan qit'alar bo'yicha qurilish sohasi bir-biridan farq qiladi?*
6. *Quyidagi turar joy binolaridan qaysi biri yashash uchun qulayroq? Ularning yutuq va kamchiliklarini izohlang.*



A



B

14-BOB. SANOAT GEOGRAFIYASI

Mavzu annotatsiyasi. *Ushbu mavzuda moddiy ne'mat ishlab chiqarishning tayanch tarmog'i – sanoatning sanoat geografiyasining mohiyati, asosiy jarayonlari, rivojlanish qonuniyatlari ko'rib chiqilgan, hududiy va tarmoq tarkibi tahlil etilgan. Shuningdek, sanoatni joylashtirish va rivojlantirishga ta'sir etadigan asosiy omillar orqali uning o'ziga xos jihatlari keltirib o'tilgan.*

Tayanch so'z va iboralar: *sanoat, sanoatning tarmoq tarkibi, yoqilg'i-energetika, yoqilg'i-energetika balansi, shartli yoqilg'i, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo va neft-kimyo, qurilish sanoati, o'rmon va selluloza-qog'oz, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati.*

Reja:

- 14.1. Sanoat – milliy iqtisodiyotning lokomotiv tarmog'i sifatida.
- 14.2. Sanoatni joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar.
- 14.3. Sanoatning hududiy va tarmoq tarkibi.
- 14.4. Sanoat va atrof-muhit muammosi.



14.1-§. Sanoat – milliy iqtisodiyotning lokomotiv tarmog'i sifatida

Sanoat – moddiy ishlab chiqarishning eng yirik yetakchi tarmog'i bo'lib, unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste'mol tovarlarining ko'pchilik qismi yaratiladi. Unda mashina va mexanizmlarning barcha turlari, bino va inshootlarning konstruktiv elementlari ishlab chiqariladi, yer osti boyliklarini qazib olish amalga oshiriladi, mineral, biologik resurs va xomashyolarga ishlov beriladi hamda keng iste'mol mollari tayyorlanadi.

Sanoat xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari bilan ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalar rivojlanishi sanoatning taraqqiyot darajasiga bog'liq. Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari taraqqiyotida sanoatning tarixiy roli beqiyosdir. Shu sababli, uning rivoji va samaradorligi qanchalik yuqori bo'lsa, davlatning mavqeyi shunchalik kuchli bo'ladi va aholi turmush darajasi yanada yaxshilanib boradi.

Sanoat jamiyatning yetakchi kuchi bo'lgan ishchilar sinfini o'zida birlashtiradi. Sanoat rivoji tufayli unda band bo'lgan xodimlarning soni ko'payadi, ularning bilim va ilmi, mahorati ortadi, kadrlar salohiyati yuqori darajaga ko'tariladi. Mehnatni ijtimoiy tashkil qilishning eng oliy turi, konsentratsiyaning yuqori darajasi sifatida ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy va hududiy shakllarini vujudga keltiradi. Sanoat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini qayta qurishning negizi hisoblanadi. Uni yangi texnika bilan ta'minlash orqali sanoat dehqon xo'jaligini iqtisodiy va madaniy jihatdan yuqori darajaga ko'tarishga, shahar bilan qishloq o'rtasidagi muhim tafovutni yo'qotishga, ekstensiv xo'jalikni intensiv tarmoqqa aylantirishga yordam beradi.

Sanoat mamlakat mudofaa qobiliyatining moddiy manbai, dunyoda tinchlikni saqlashning muhim omili, mamlakatlar mustaqilligini va birdamligini ta'minlovchi bosh sohadir. Qisqacha qilib aytganda, sanoat – asosan tabiatdan olingan xomashyoga qayta ishlov berish natijasida o'zining dastlabki holatini o'zgartirgan mahsulot turlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Dastlabki sanoat tarmoqlari bevosita tabiat va uning resurslari bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, tog'-kon sanoati, baliqchilik, qurilish materiallari sanoati shular jumlasidandir.

Umuman tarmoq deganda, korxonalarining ma'lum o'xshash xususiyatlariga ko'ra guruhlanishi tushuniladi. Sanoat tarmoqlari odatda uch asosiy mezon asosida ajratiladi:

- *xomashyo birligi* bo'yicha ajratilgan sanoat tarmoqlari (mashinasozlik va metallni qayta ishlash, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza–qog'oz sanoati va h.k.);
- *iste'mol birligi*, ya'ni muayyan maqsadda mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlar (yengil, oziq–ovqat, qurilish, elektr energetika);
- *texnologik jarayon* asosida tashkil etilgan sanoat tarmoqlari (kimyo va neftni qayta ishlash).

Sanoatning tarmoqlar tizimi nihoyatda murakkab va u borgan sari o'zgarib bormoqda. Eng yirik tarmoqlar sifatida yoqilg'i, elektr energetika, metallurgiya, kimyo va neftni qayta ishlash, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, qurilish, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash, sellyuloza–qog'oz, yengil, oziq–ovqat, poligrafiya va boshqalar ajratiladi. Ular ham, o'z navbatida, tarmoq va tarmoqchalardan iborat. Bu jihatdan mashinasozlik sanoatining turlanishi ayniqsa boy; faqat transport mashinasozligining o'zi bir nechta qismlarni o'z ichiga oladi.

14.2-§. Sanoatni joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada sanoatni o'rganish ikki, birini to'ldiruvchi yo'nalishlarda olib boriladi. *Birinchi*, bu tarmoqlar yo'nalishi bo'lib, unda ko'proq sof iqtisodiy masalalarga e'tibor qaratiladi hamda tarmoqlarning tahlili ularning hududiy tashkil etishini yoritilishi bilan uyg'unlashtiriladi. Demak, bu yerda tadqiqot «tarmoq – hududiy» tarkibda amalga oshiriladi.

Ikkinchi yo'nalish iqtisodiy geografiya va, ayniqsa, uning rayon yo'nalishiga mos tushadigan hududlar doirasida amalga oshirilishdir. Bu yerda geotizm oldingi o'rinda turadi va tadqiqot «hudud – tarmoq» yo'nalishda olib boriladi.

Sanoat ishlab chiqarish geografiyasi tom ma'noda uning hududiy tarkibi va tuzilmasidir. Shuning uchun sanoat ishlab chiqarishning hududiy tashkil etishini, rayon va shaharlar bo'yicha taqsimlanishini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Agar obyekt mamlakat bo'lsa, sanoatning hududiy tarkibi viloyatlar kesimida, agar u viloyat bo'lsa – tuman va shaharlar doirasida tadqiqot olib boriladi.

Sanoatning hududiy tizimi uning joylashtirilishini natijasidir. U tarmoqlar tarkibiga nisbatan biroz inert, barqaror va kam o'zgaruvchan, ammo tarmoqlar tizimidagi yangiliklar ertami-kech hududiy geografik siljishlariga olib keladi.

Hududiy tahlilda sanoatning urbanistik tarkibiga alohida e'tibor beriladi. Sababi sanoatning hududiy tarkibi bu, eng avvalo, uning turli yiriklikdagi shaharlarda mujassamlashuvidir. Shuning uchun shaharlarning sanoati ulardagi sanoat tarmoqlarining turlanishi (diversifikatsiyasi), ixtisoslashuvi, iqtisodiy samaradorligi va boshqa masalalari o'rganiladi.

Har qanday tadqiqotda bo'lganidek, sanoat geografiyasini o'rganish ham uni rayonlashtirish, sanoatda shakllangan ishlab chiqarish majmualari – sanoat tugunlari va sanoat aglomeritsiyalarining tahlili bilan yakunlanadi.

Sanoatni rivojlantirish va uni hududiy tashkil qilishda xilma-xil sharoit va omillar qatnashadi. Ularni uchta katta guruhga ajratish mumkin: tabiiy geografik, iqtisodiy geografik va geosiyosiy omillarga ajratiladi.

Tabiiy-geografik omillarga geografik o'rin, tabiiy sharoit (relyef, iqlim xususiyatlari, tuproq omillari) va tabiiy resurslar (birinchi navbatda, meniral xomashyo va suv resurslari) bilan ta'minlanganlik

darajasi kiradi. Bu orqali, hududning tabiiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, sanoatni hududiy tashkil etish va rivojlantirish xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Jumladan, Kanada va Finlyandiyaning tabiiy geografik sharoiti sanoatning poligrafiya va selluloza-qog‘oz tarmoqlarining rivojlanishi uchun asos vazifasini bajargan va h.k.

Iqtisodiy geografik omillarga xomashyo, energetika, transport, mehnat resurslari bilan ta‘minlanganlik holati va ularning xususiyatlari, infratuzilma va ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasi, ishlab chiqarish ijtimoiy tashkil qilish shakllari, fan-texnika taraqqiyoti darajasi kabi omillarini ko‘rsatish mumkin.

Xomashyo, energetika va transport omillari sanoatni hududiy tashkil etishda birlamchi ahamiyatga ega bo‘lsa, mehnat resurslari va boshqa omillar sanoatni rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Chunonchi, mehnat resurslarining hududiy joylashuvi, aholi va uning takror barpo bo‘lishi, migratsiya jarayonlari va urbanizatsiya sanoatni hududiy tashkil etishga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, sanoatni hududiy tashkil etish va joylashtirishda transport ham muhim ahamiyatga ega. Chunki sanoatni xomashyo va boshqa vositalar bilan ta‘minlash, korxonalar o‘rtasida ishlab chiqarish aloqalarini yo‘lga qo‘yish, mehnat resurslarining erkin harakati, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste‘molchilarga yetkazishda transport tizimi sezilarli tasir ko‘rsatadi.

Geosiyosiy omillar bevosita strategik ahamiyatga ega bo‘lgan sanoat tarmoqlari, ayniqsa, harbiy sanoat majmuasining tashkil etilishida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Investitsion muhit, tashqi iqtisodiy aloqalar va xavfsizlik masalalari mamlakat geosiyosiy mavqeyini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Sanoat tarmoqlarining rivojlanish va joylanish xususiyatlari, sanoatning ijtimoiy tashkil etish shakllari: mujassamlashuv, ixtisoslashuv, kooperatsiya va kombinatsiya hamda turli sanoat tarmoqlaridagi o‘ziga xos jihatlarni chuqur anglab olmoq zarur. Shu maqsadda mujassamlashuvning *karxona, shahar va hududiy darajasidagi* ko‘rinishlari, uning bir shaklini qolganlari bilan munosabati va muvofiqlashuvi, ushbu obyektiv jarayonning ijobiy va salbiy tomonlarini bilishni talab etadi. Ixtisoslashuvining uch ko‘rinishi, uning kooperatsiya va kombinatsiya bilan aloqadorligi hamda sanoat ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy asoslarini ham o‘rganish lozim.

Hozirgi paytda sanoat ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishdagi an‘anaviy omillarning ta‘siri sezilarli tarzda susayib bormoqda va buning evaziga «Uchta I omili», ekologiya, iste‘mol va bozor

iqtisodiyoti omillarining roli yanada oshib bormoqda. Binobarin, ayni paytda, u yoki bu joyda ma'lum sanoat korxonasini joylantirish uchun faqatgina mavjud sharoitlarigina emas, balki ularning mahsulotiga, erkin bozordagi talabi bilan belgilanmoqda.

14.3-§. Sanoatning hududiy va tarmoq tarkibi

Biron-bir tarmoqning texnologik jarayon bosqichlariga ko'ra hududiy bo'linishi turli tarmoqlardagi korxonalarining muayyan hududiy majmualarga ajralishi bilan birgalikda ro'y beradi. Binobarin, sanoat ham tarkibi jihatidan, ham hududiy jihatdan differentsiatsiyalanadi (tabaqalanadi), ya'ni katta-kichik qismlarga bo'linadi. Shu bilan birga, qarama-qarshi hodisa – sanoat integratsiyalashuvini, ya'ni sanoat tarkibiy qismlari o'zaro aloqadorligining kuchayishini ham kuzatish mumkin. Zero, sanoat majmuasi – muayyan hududdagi bir-biri bilan chambarchas bog'langan korxonalarining uyg'unlashuvidan iborat o'ziga xos tuzilmadir. Sanoat majmualariga kiruvchi korxonalarining hududiy joylashuvi ko'p jihatdan ishlab chiqarishning tarkibiy xususiyatlariga bog'liq.

Turli majmualarda ko'pincha u yoki bu ishlab chiqarish jarayonlarining bir-biriga o'xshash kombinatsiyalari vujudga keladi. Hududiy ishlab chiqarish majmuasi bilan iqtisodiy rayon tushunchalari o'rtasida farq bo'lganidek, sanoatga xos bo'lgan hududiy ishlab chiqarish majmualarining shakllari ham sanoatni rayonlashtirishning taksonomik birliklari bilan aynan bir xil emas.

Iqtisodiy rayonlashtirish nazariyasida ta'kidlanganidek, sanoat rayonlashtirilganda sanoat korxonasi, punkti, markazi, tuguni va rayoni kabi taksonomik birliklar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Har bir taksonomik birlikka hududiy ishlab chiqarish majmuasining muayyan shakli mos keladi.

Sanotni rayonlashtirishning mohiyati turli katta-kichikligidagi hududiy ishlab chiqarish kombinatsiyalarini ajratish va asoslab berishdan iborat. Sanoat xususiyatlariga ko'ra texnika va tabiatning bir-biriga mantiqiy tasiri natijasidir. Bu hududiy kombinatsiyalarining o'zi esa, birinchidan, sanoatdagi rayon hosil qiluvchi jarayonlarning asosi bo'lsa ikkinchidan, bir vaqtda sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va qurilish korxonalarini, hamda boshqa xil ishlab chiqarish korxonalaridan tashkil topgan hududiy tizimlardan iborat.

Binobarin, sanoatni rayonlashtirish – iqtisodiy rayonlashtirishning tarkibiy qismidir.

Sanoat ishlab chiqarishini ilmiy tahlil qilish, samaradorligini, o‘shir sur‘atlarini aniqlash uchun uning tarmoqlarini guruhlariga ajratish lozim. Kengaytirilgan ishlab chiqarish jarayonidagi mahsulotlarning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra sanoat 2 guruhga ajratiladi:

1. «A» guruh – ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi.
2. «B» guruh – iste‘mol buyumlari ishlab chiqaruvchi.

Tabiiy sharoit va resurslarga bog‘liqligiga ko‘ra, sanoat *qazib oluvchi* va *qayta ishlovchi* sanoat tarmoqlariga bo‘linadi. Qazib oluvchi sanoatda inson bevosita tabiiy muhitga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu sanoat tarmoqlari tarkibiga yog‘ochsozlik, tog‘-kon, gidroelektroenergetika kabi tarmoqlar kiradi.

Qayta ishlovchi sanoatga esa xomashyo qayta ishlash asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish tarmoqlari kiradi.

Sanoat tarmoqlari tarkibini umumlashgan holda tassavur qilish mumkin. Bundan quyidagi sanoat komplekslari ajratiladi:

I. Yoqilg‘i – energetika majmuasi:

I.1. *Yoqilg‘i* = neft, tabiiy gaz, ko‘mir, torf, yonuvchi slanets, uran.

I.2. *Elektr energetika* = ana‘naviy: gidroenergetika, issiqlik energetikasi, atom energetikasi va muqobil energetika: quyosh energetikasi, shamol energetikasi, qalqish energetikasi, geotermal energiya, bioenergiya va h.k.

II. Mashinasozlik majmuasi:

II.1. *Umumiy mashinasozlik* = transport mashinasozligi: samolyotsozlik, avtomobilsozlik, temiryo‘l mashinasozligi, kemasozlik, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, mudofaa mashinasozligi.

II.2. *Og‘ir mashinasozlik* = metallurgiya asbobsozligi, tog‘-kon mashinasozligi, yuk ko‘tarish va tashish uskunalari, muhandislik mashinasozligi.

II.3. *O‘rta mashinasozlik* = divigatel va stanoksozlik, robototexnika.

II.4. *Yengil mashinasozlik* = yengil sanoat uchun texnologik asbob-uskuna va ehtiyot qismlari ishlab chiqarish.

II.5. *Aniq mashinasozlik* = elektronika, elektrotexnika, radiotexnika, robototexnika.

II.6. *Metall buyumlar mashinasozligi* = simsozlik, metall jihozlar ishlab chiqarish va h.k.

III. Xomashyo va materiallar ishlab chiqaruvchi komplekslar:

III.1. *Kimyo sanoati* = tog'-kon kimyosi (kimyoviy mineral xomashyolar qazib olish boyitish: fosforit, apatit, kaliy va osh tuzlari, oltingurgurt va h.k.); asosiy anorganik kimyo (anorganik kislotalar, mineral tuz va ishqorlar, o'g'itlar, kimyoviy ozuqa mahsulotlari, oziq-ovqat sodasi, ammiak, xlor, kaustik va kalsiyli soda); organik kimyo (sintetik bo'yoqlar, sintetik kauchuk, sintetik smola va plasmassa, sun'iy va sintetik tola-ipaklar); neft va gaz-kimyo (neft va tabiiy gazni qayta ishlash asosida mahsulotlar ajratib olish); kimyoviy reagentlar (fotoplyonka va magnit lentalar); lak-bo'yoq ishlab chiqarish (laklar, bo'yoqlar, nitro emal); farmasevtika (dori-darmon, o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari); maishiy kimyo (plastmassa, shisha tola materiallar); mikrobiologiya kimyosi.

III.2. *Metallurgiya sanoati* = qora metallurgiya (qora metall rudalarini qazib olish va boyitish: temir, xrom, marganes; qora metall mahsulotlarini ishlab chiqarish: cho'yan, po'lat, prokat, ferroqotishma); rangli metallurgiya (og'ir metallar: mis, qalay, qo'rg'oshin, nikel, rux; yengil metallar: alyuminiy, magniy titan; qimmatbaho metallar: oltin, kuush, platina; qiyin eruvchi metallar: volfram, molibden; nodir metallar: uran, germaniy).

III.3. *Qurilish materiallari sanoati* = tabiiy materiallar (yog'och, tosh, marmar, loy va keramika); sun'iy materiallar (shifer, sement, beton va temir-beton, silikat bloklari, g'isht, shisha, metall, plastmassa va kompozitlar); izolyatsiya materiallari (issiqlik izolyatsiya materiallari, ovoz o'tkazmaydigan materiallar); tashqi fasat materiallari (bo'yoq va laklar, plitka va bezakbop toshlar, qoplama materiallar).

III.4. *O'rmon, yog'ochsozlik va selluloza-qog'oz sanoati* = o'rmon va yog'ochsozlik (yog'och tayyorlash, duradgorlik buyumlari, gugurt), selluloza-qog'oz (gidroliz, qog'oz ishlab chiqarish)

IV. Iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar kompleksi:

IV.1. *Yengil sanoat* = paxtani qayta ishlash, to'qimachilik (ip va gazlamalar to'qish: ipak gazlama, zig'ir gazlama, kanop-jut gazlama, jun gazlama, trikotaj, gilamchilik), tikuvchilik, ko'n-poyabzal, attorlik va h.k.

IV.2. *Oziq-ovqat* = go'sht ishlab chiqarish, baliqchilik, meva va sabzavotlarni qayta ishlash, yog'-moy sanoati, sut mahsulotlari ishlab chiqarish, un-yorma, kraxmal, non mahsulotlari, shakar ishlab chiqarish, qandolatchilik, makaron ishlab chiqarish, yarimtayyor oziq-ovqat

mahsulotlari, chorva uchun ozuqa mahsulotlari, alkogol va algolsiz ichimliklar tayyorlash, choy yetishtirish va qadoqlash.

Yetakchi tarmoqlar hisoblangan yoqilg'i-energetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoati tarmoqlari tarkibi hozirgi kunda yanada takomillashib bormoqda.

So'nggi yillarda sanoat tarmoqlari tarkibida quyidagi o'zgarishlar sodir bo'lmoqda:

- + sanoat tarmoqlarining yanada parchalanib borishi, yangi-yangi tarmoqlarning vujudga kelishi;

- + tarmoqlar orasida integratsiya jarayonlarining rivojlanishi, tarmoqlararo majmualarning shakllanishi;

- + fan-texnika yutuqlari bilan bevosita tarmoqlarning tezkor rivojlanishi va h.k.

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyoti tarmoq o'zgarishlarining umumiy qonuniyati xomashyo va qishloq xo'jaligi hissasining qisqarishi, sanoatni tubdan modernizatsiyalash va xizmat ko'rsatish sohalarining tez o'zgarishlari bo'lib, bu jarayon kichik tarmoqlar va fantalab ishlab chiqarish tizimida g'oyat tez sur'atlar bilan bormoqda. Sanoatning tarmoq tarkibi murakkablashmoqda. Shunday bo'lsa-da, uning fundamental tarmoqlarini yaxshi bilish ishlab chiqarish tizimlarini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoqilg'i sanoati tog'-kon yoki qazib oluvchi sanoati toifasiga kiradi va yoqilg'i turlari, qazilma boyliklarning joylanishi tabiiy, geologik qonuniyalarga asoslanadi. Sababi ko'mir, neft, gaz, yonuvchi slanes, torf kabi tabiiy boyliklarning paydo bo'lishi va yer yuzida (ostki) tarqalashi o'ziga xos xususiyatga ega.

Elektr energetika sanoati uzoq davr mobaynida an'anaviy (suv, issiqlik va atom) elektr stansiyalarida hosil qilingan. Hidroelektr stansiyalarini tekislikdan ko'ra tog' va tog' oldi rayonlarida qurish maqsadga muvofiq. Chunki bunday sharoitda relyef shakli, yer tuzilishining qiyaligi, tabiiy holda sharshara va tog'lar orasidagi tektonik botiqlarning mavjudligi qulay imkoniyatlar tug'diradi. Bundan tashqari, suv ombori va uning atrofida sport, dam olish zonalarini tashkil qilish, bog'dorchilik va baliqchilikni rivojlantirish, quyi hududlarda yerlarni sug'orish, kanallar qurish mumkin. Ba'zan Rossiyaning Sibir iqtisodiy rayonida kuzatilganidek, GES lar bilan birgalikda o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va selluloza-qog'oz sanoati ham rivajlanib boradi. Ko'rinib turibdiki, tog'li rayonlarda qurilgan GESlar har tomonlama qulay, elektr

energiyasi arzon. Agar shu stansiyalar tekislikda joylashtirilsa, katta maydon suv ostida qolib ketadi va to'g'on qurish katta mablag' talab etiladi.

Issiklik elektr stansiyalari (IES) ikki turda bo'ladi: IES va GRES. Ularning bir-biridan farqi qaysi maqsadda qurilganligidir; foydalanayotgan yoqilg'isi esa bir xil bo'lishi mumkin. Masalan, IEM, ya'ni issiqlik elektr markazi odatda ham elektr quvvati, ham bug'talab qiluvchi sanoat korxonalarini – to'qimachilik, neftni qayta ishlash yonida yoki yaqinida quriladi. Demak, bu stansiyaning joylashtirishida ishlab chiqarish iste'moli asosiy ahamiyatga ega. Ammo IES larning bevosita shahar ichida qurilishi tufayli ular atrof-muhitni ifloslantiradi. Shu sababdan, ekologik jihatdan bunday stansiyalarning aholi zich joylarda qurilishi uncha ma'qul emas. GRES («Государственная районная электростанция») esa asosan elektr energiyasi ishlab chiqaradi, shu bois, ularni yirikroq qilib qurish mumkin, shu jihatdan shahardan biroz uzoqroq masofada joylashtiriladi.

Atom elektr stansiyalari, ko'pincha, boshqa turdagi stansiyalarni qurish imkoniyati yo'q hududlarda joylashtiriladi. Buning uchun, albatta, ekologik xavsizlik ta'minlanishi kerak. Shuningdek, AESlarning barpo etilishida fan-texnika omili ham hisobga olinadi.

Qora metallurgiya sanoati industrial qudratning asoslaridan biri, mashinasozlikning paydevoridir. Og'ir sanoatning bu tarmog'i xomashyo, yoqilg'i, yordamchi materiallarni qazib olish va tayyorlash, prokat ishlab chiqarish, undan buyumlar tayyorlashni o'z ichiga oladi. Uning tarkibiga temir, marganets va xrom rudalari qazib olish, boyitish hamda aglomeratsiyalash; cho'yan, donna temir qotishmalari, po'lat va prokat ishlab chiqarish, qora metallarni ikkilamchi qayta ishlash, ko'mirni kokslash, unga chidamli materiallar ishlab chiqarish yordamchi materiallar (flyusli ohaktoshlar, magnezit va boshqalar) qazib olish, eksportga molik metall buyumlar tayyorlash kiradi. Bu tarmoq ishlab chiqarish kattaligi va yuqori konsenratsiyasi, xomashyo, yoqilg'i hamda yordamchi materiallardan foydalanish ko'lamining juda kattaligi, metallga qayta ishlov berish va unga yondosh sohalar barcha bo'g'inlari o'zaro ta'sirining mustahkamligi, sanoat chiqindilaridan keng foydalanishi bilan ajralib turadi.

Rangli metallurgiya sanoati og'ir sanoatning konstruksiya materiallari ishlab chiqaruvchi eng muhim tarmoqlaridan tashkil topadi. Ular chiqaradigan mahsuloti turiga ko'ra bir-biridan ajralib turadi. Texnologik jarayon bosqichlariga ko'ra daslabki xomashyoni qazib olish

va boyitish, metallurgik qayta ishlash hamda rangli metallarga ishlov berish kabilar ajratiladi. Shuning uchun rangdor metallarni qazib olishda kompleks kombinat usuli qo'llaniladi. Tog' metallurgiya kombinatlari xomashyo rayonlarida quriladi, bevosita tozalangan metall esa iste'mol rayonlarida va, xususan, arzon elektr energiyasiga yaqin joyda joylashtiriladi: tozalangan misning 1 tonnasiga 9-10 kW•h gacha, alyuminiyga 18-19 kW•h, titan va nikel uchun 50 ming kW•h gacha elektr energiyasi ishlatiladi. Shu bilan birga, rangli metallurgiya korxonalarini joylashtirishda ekologik omilning ahaiyati katta bo'ladi.

Mashinasozlik sanoati tarkibi boyligi sababli, unga ta'sir qiluvchi omillar turi ham har xil bo'ladi. Mashinasozlik xalq xo'jaligining turli tarmoqlari uchun mehnat qurollari ishlab chiqaradi. Mashinasozlik korxonalarining joylashuvi ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy xususiyatiga, avvalo, ishlab chiqarilayotgan buyumlarning konstruktion murakkabligiga, shuningdek, ixtisoslashuvi va kooperativlashuviga bog'liqdir. Mashinasozlikning murakkab texnologiyali ko'pgina tarmoqlari yuqori malakali kadrlarga ega bo'lgan va, odatda, tayyor mahsulotni ko'p iste'mol qiluvchilar mavjud bo'lgan rayonlarda joylashtiriladi. Metalni ko'p talab qiluvchi og'ir mashinasozlik (vagonsozlik, tog'-kon va shaxtalar uchun asbob-uskunalar va h.k) qora metallurgiya rayonlarida; malakali ishchi kuchi kerak bo'lgan priborsozlik, elektrotexnika, hisoblash texnikalari kabi noziq va aniq mashinasozlik fan-texnika taraqqiy qilgan markazlarda joylashtiriladi.

Qishloq xo'jaligi mashinasozligi ko'p hollarda iste'mol rayonlarida rivojlanadi. Masalan, O'zbekistonda paxta; Ukrainada g'alla va qand lavlagi; Belarusda kartoshka va zig'ir; Moldovada uzumchilik; Qirg'izistonda pichan o'ruvchi va preslovchi mashinalar ishlab chiqariladi. Demak, mamlakat nimaga ixtisoslashsa, o'sha sohaga xizmat qiluvchi mashinasozlik tarmog'i tashkil etiladi. Bu qonuniyat boshqa tarmoqlarga ham tegishli. Chunonchi, Kareliyada o'rmon, Uralda qora metallurgiya, Donbossda shaxta, O'zbekistonda to'qimachilik, Irkutskda oltin saralash mashinasozligi rivojlangan va h.k. Shunday qilib, mashinasozlik mahsulotiga qarab uni rivojlantirishga xomashyo (metall), ishchi kuchi, iste'mol, fan-texnika, geografik o'rin omillari kuchli ta'sir ko'rsatadi. Tabiiyki, dengiz kemasozligi quruqlik ichkarisida emas, port shaharlarda joylashtiriladi. Xuddi shunga o'xshash stanoksozlik, elektrotexnika, traktorsozlik kabi juda ko'p mashinasozlik tarmoqlari o'ziga xos hududiy tashkil qilish

xususiyatlariga ega. Albatta, bu sanoat tarmog‘i uning kooperatsiya shakli muhurligi tufayli uning markazlari qulay transport geografik o‘rniga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Kimyo va neftni qayta ishlash sanoati. Asosiy kimyo uchun xomashyo omili uncha muhim emas. Chunki bu sanoat turli xil xomashyo, o‘simlik, meniral, ishlab chiqarish chiqindilari, xatto, suv va havo asosida ham tashkil etilaveradi. Binobarin, kimyo sanoati katta erkinlikka ega. Ammo unga ta’sir etuvchi boshqa kuchli omillar mavjud, bu ham bo‘lsa – ekalogiyadir. Neftni qayta ishlash zavodlari xomashyo rayonlariga ko‘ra iste’mol rayonlarida ko‘proq uchraydi. Qazib olingan neftni keltirib turli xil mahsulot olish, ularning barchasini alohida-alohida keltirishdan ko‘ra arzonroq, qulay va xavfsizroq. Ba’zan bunday zavodlar magistral neft quvurlari o‘tgan joylarda ham tashkil etiladi. Kimyo sanoati uchun suv va elektr energiyasi omili ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan bo‘lsa kerak, Chirchiq yirik kimyo sanoati markaziga aylangan.

O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va selluloza-qog‘oz sanoatini joylashtirish o‘ziga xos. Jumladan, yog‘ochni qayta ishlash aksariyat hollarda o‘rmonlarga yaqin joyda amalga oshiriladi, chunki 40% gacha yog‘och (*novda va shox-shabbalar*) chiqindiga ketadi. Selluloza-qog‘oz ishlab chiqarish esa asosan uch variantda joylashtiriladi: xomashyo rayonlarida, yog‘och oqizuvchi daryolarning temiryo‘llar bilan kesishgan nuqtasi va daryolarning quyilish qismida. Ko‘rinib turibdiki, bu yerda transport, geografik o‘rin omillari katta ahamiyatga ega.

Yuqoridagi yo‘nalishlar bo‘yicha selluloza-qog‘oz sanoatining joylashuvi Rossiya Federatsiyasi misolida yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, Krasnayarsk, Volgograd, Krasnokamsk, Perm, Katlos Boloxna, Arxangelsk va boshqalar turli variantlarda vujudga kelgan ushbu sanoat markazlaridir. Shuningdek, yog‘ochni qayta ishlash sanoatiga mebelsozlik, qalam, sport buyumlari va musiqa asboblari, temiryo‘l shpallari, uysozlik, gidroliz spirti olish kabi juda ko‘p tarmoqlar ham kiradi. Ularning joylashtirishi esa mahsulotning xomashyo talabligi hamda transport jihatidan qulayligiga qarab tashkil qilinadi. Ayni vaqtda, bu yerda xomashyo, transport, iste’mol omillari bilan birga suv sharoitlari ham e’tiborga olinadi.

Qurilish materiallari sanoati boshqa tarmoqlarga nisbatan «oldinda» borish kerak, zero usiz yangi yerlar o‘zlashtirilmaydi, korxonalar va tashkilotlar bunyod etilmaydi. G‘isht, sement, cherepitsa, shifrni

ishlab chiqarish ko'p jihatdan xomashyo bilan bog'liq. Shu sababdan bo'lsa kerak, O'zbekistonda sement ishlab chiqarish xomashyo omilini e'tiborga olgan tarzda amalga oshirilgan (Bekobod, Angren, Quvasoy, Ohangaron, Navoiy, Sherobod). Bundan tashqari, sement ishlab chiqarish qora va rangli metallurgiya markazlarida ham tashkil qilinadi. Buning uchun domna pechlarining chiqindisi shlak, alyuminiy sanoatiga tegishli glinozyom zavodlari chiqindilari ishlatiladi. Temir-beton mahsulotlari va qurilmalarini joylashtirish iste'mol omili orqali tashkil qilinadi. Shu bois, ularning geografiyasi keng bo'lib, bunday korxonalar barcha yirik shaharda mavjud.

Yengil sanoatni hududiy tashkil qilishda xomashyo, ishchi kuchi va iste'mol omillari yetakchi rol o'ynaydi. Masalan, paxta tozalash va pillachilik zavodlari jun yoki terini yuvish kabilar bevosita xomashyo rayonlarida joylashtiriladi. Sababi, ulardan olinadigan mahsulot birligiga juda ko'p xomashyo sarflanadi. To'qimachilik, poyabzal, tikuvchilik, trikataj fabrikalari, gilam ishlab chiqarish mehnat talab bo'lgani uchun ular katta-kichik shaharlar, rayon markazlarida quriladi. Shu bilan birga, to'qimachilik korxonalari og'ir sanoat markazlarida joylashtiriladi, bunda ishchi kuchi sifatida ayollar mehnatidan ko'proq foydalaniladi. Mazkur sanoatning ko'p resurs talab qilishi, ayni paytda, uning iste'mol rayonlarida joylashtirishi bilan uyg'unlashib ketadi.

Oziq-ovqat sanoatini joylashtirish ko'proq iste'mol omiliga qarab amalga oshiriladi. Shuningdek, ularni transportda tashish imkoniyatlari, sifatining buzilmasligi ham inobatga olinadi. Jumladan, yog'-moy ishlab chiqarish konserva, vino sanoati, qand-lavlagi va tamakini qayta ishlash ko'proq xomashyo rayonlarida; go'sht, sut mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati esa shahar joylariga yaqin quriladi.

Konditer fabrikalari bevosita shaharlardan joy oladi. Un-yorma sanoati, don mahsulotlari kombinatlari ham aksariyat hollarda kichik shaharlarda, g'allakor rayonlarda yoki ularga yaqin bo'lgan shaharlarda rivojlanadi. Keltirilgan undan turli xil mahsulotlar ishlab chiqarish iste'mol rayonlaridagi shaharlarda tashkil qilinadi. Bunday markazlarda ba'zan yirik yog'-ekstraksiya, konserva va vino sanoati, tamaki fermentatsiya korxonalari qurilishi mumkin. Shunday qilib, oziq-ovqat sanoatining hududiy tarkibi, asosan, iste'mol va xomashyo omillari ta'sirida shakllanadi. Ayni vaqtda, bu tarmoq qishloq xo'jaligi bilan bevosita bog'liqligi tufayli agrosanoat majmualari ko'rinishida hududiy tashkil etiladi.

Poligrafiya sanoati ko‘proq shaharlarda tashkil etiladi. Sababi matbuot, kitob, gazeta va jurnallarning shaharlarda bozori chaqqon bo‘ladi.

Yuqoridagi tahlillar sanoat ishlab chiqarishning joylashtirish masalasida omillardan emas, sanoat tarmoqlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda keltirilgan. Bu yerda faqat shuni eslatish lozimki, hozirgi sharoitda sanoat tarmoqlari va korxonalarni aynan qayerda joylashtirish, ularning texnik-iqtisodiy xususiyatlardan tashqari, bozor munosabatlari – talab va taklif, soliq va kredit, narx-navo va mintaqaviy siyosat kabilar natijasida amalga oshiriladi. Eng muhimi, joylashtirilgan korxonalar tadbirkor uchun ham, iste‘molchi uchun ham, davlat uchun ham qulay va arzon bo‘lishi kerak. Qulaylik transport xarajatlari kam, ekologik jihatdan maqbul, arzon deganidir. Shu jihatdan, mahsulot qiymati va tannarxiga unga ishlatiladigan xomashyo sarf-xarajatlari, yani «resurs uchun to‘lov» kiritiladi.

14.4-§. Sanoat va atrof-muhit muammosi

Sanoatning rivojlanishi atrof-muhitga kuchli ta‘sir qiladi. Chunki sanoat tarmoqlari yer osti va yer usti resurslarining asosiy «iste‘molchi»sidir. Tog‘-kon sanoatining rivojlanishi oqibatida tabiiy landshaftning buzilishi, tog‘ jinslarining ochiq muhitga chiqarib tashlanishi atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazadi. Uning oqibatlari insoniyat uchun nihoyatda xavfli bo‘lib, tuproq qoplaminin buzilishi, yer osti suv manbalarining ifloslanishi hamda rekultivatsiya jarayonlarida katta xarajatlarga olib kelishi mumkin. Dengizda mineral resurslari qazib olish ishlarining kengayishi Dunyo okeani suvlarining ifloslanishiga, uning bioresurslariga salbiy ta‘sir qilib, jiddiy ekologik xavfni yuzaga keltirmoqda.

Yoqilg‘i-energetika majmuasida IESlar atrof-muhitga zararli moddalar chiqaradi, atmosferaning gaz tarkibini buzadi, suv temperaturasini ko‘taradi; AES esa atrof-muhitga g‘oyat zararli radioaktiv elementlarni chiqaradi yoki AES lardagi falokat oqibatlari (Ukrainada – Chernobil, Yaponiyada – Fukusima AESlaridagi halokat) tuzatib bo‘lmas holatlarni yuzaga keltiradi hamda juda ehtiyotkorona yondoshishni taqozo qiladi. GESlar nisbatan «ekologik toza» tarmoq bo‘lsa-da, to‘g‘on plotinalar, suv omborlari atrof-muhit relyefiga, o‘simlik va hayvonot dunyosiga, yer osti suvlariga ta‘sir etib, ekologik muvozanatning buzilishiga olib keladi.

Metallurgiya sanoatining rivojlanishi tufayli resursli hududlar qiyofasi jiddiy buzilishidan tashqari atrof-muhitga temir, qo‘rg‘oshin, qalayi, mis, simob, surma va boshqa zararli metall chiqindilari, zarralari va changlarni chiqarib, inson salomatligiga jiddiy xavf tug‘diradi.

Kimyo va neft-kimyo sanoati, o‘rmon-selluloza va boshqa sanoat tarmoqlari havo, suv, tuproq qoplamini turli zararli chiqindi va tashlamalar bilan ifloslaydi. Ayniqsa, kimyo sanoati korxonalaridagi halokatlar g‘oyat xavfli oqibatlarni yuzaga keltiradi.

Shuning uchun ham sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va joylashtirishda ekologik omilni hisobga olish, tabiiy-muhitni muhofaza qilish tamoyillariga amal qilish, «chiqindisiz texnologiya»larni va berk ishlab chiqarish tizimlarini joriy qilish g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

Savol va topshiriqlar:

1. Nima sababdan sanoat milliy iqtisodiyot lokomotiv tarmog‘i deyiladi?
2. Sanoatni tarmoqlarini hududiy joylashtirish qaysi omillar inobatga olinadi?
3. Sanoatning tarmoq tarkibi qanday tuzilishga ega?
4. Kelajakda qaysi sanoat tarmoqlarining yo‘qolib ketish ehtimoli mavjud? Istiqbolda yana qanday tarmoqlar vujudga kelishi mumkin?
5. Sanoat ishlab chiqarishni jadallashtirish orqali ekologiyaga ko‘rsatiladigan salbiy ta‘sirni kamaytirishning qayday mexanizmlari mavjud?
6. Quyidagi rasmdagi qaysi holat rivojlangan davlatlar uchun xos? Rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar uchun-chi?



A



B

15-BOB. QISHLOQ XO‘JALIGI GEOGRAFIYASI

Mavzu annotatsiyasi. *Mazkur mavzu qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘ziga xos xususiyatlarini hududiy va tarmoq nuqtai nazaridan tahlil qilishga bag‘ishlangan. Agrosanoat majmuasi, agrosanoat integratsiyasi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni rivojlantirish shakllari hamda qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini joylashtirishga ta’sir etuvchi omillar yoritib berilgan.*

Tayanch so‘z va iboralar: *ekstensiv va intensiv qishloq xo‘jaligi, yashil inqilib, agrosanoat majmuasi, agrosanoat integratsiyasi, dehqonchilik, foydali yer koeffitsiyenti, chorvachilik, chorva sig‘imi.*

Reja:

- 15.1. Qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlari.
- 15.2. Tarmoq tarkibidagi inqilobiy o‘zgarishlar.
- 15.3. Qishloq xo‘jaligining tarmoq va hududiy tarkibi.
- 15.4. Qishloq xo‘jaligi va ekologik muammolar.



15.1-§. Qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlari

Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning qadimiy sohasidir. Dastlabki ijtimoiy mehnat taqsimoti ham avval chorvachilik, so‘ngra dehqonchilikning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Dehqonchilik va, xususan, sug‘orma dehqonchilik jamiyat taraqqiyotida alohida, inqilobiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Sababi, aynan, sug‘orma dehqonchilik jamoa, uning asosida doimiy aholi manzilgohlarining vujudga kelishida muhim rol o‘ynagan. Keyinchalik, dehqonchilik hunarmandchilik va savdo-sotiqni, ular esa o‘z navbatida manufaktura va yirik mashina industriyasini rivojlantirishga olib kelgan. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun quyidagilar xos:

❖ agrar soha bevosita tabiiy sharoit bilan bog‘liqligi tufayli u mavsumiy xarakterga ega;

❖ mavsumiyliги uchun mehnat resurslari ham yil davomida band emas;

❖ qishloq xo‘jaligi rivojlanishi sanoatga nisbatan o‘zgaruvchan ko‘rinishda boradi;

❖ bu tarmoqda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil qilish shakllari

o‘ziga xos mujassamlashuv va ixtisoslashuv torroq, kooperasiya va kombinatlashuv esa juda kam hollarda uchraydi;

❖ qishloq xo‘jaligi tarmoqlari areal yoki maydon shaklida hududiy tashkil qiladi;

❖ mazkur tarmoqda ekstensiv va intensiv rivojlanish yaqqol ko‘rinadi;

❖ qishloq xo‘jaligining tarmoqlar tarkibi sanoatga o‘xshash uncha boy emas;

❖ qishloq, xo‘jaligida mulkchilikni xususiylashtirish osonroq;

❖ xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik qilish, chet el investorlarini qishloq xo‘jaligiga jalb qilish kamroq va h.k.

Yuqoridagi xususiyatlar ushbu tarmoqning iqtisodiyoti va ijtimoiy geografiyasiga jiddiy tasir ko‘rsatadi. Chunonchi, tabiiy sharoitning iqlim va ob-havoning noqulayligi qishloq xo‘jaligi unumdorligi, u esa qayta ishlovchi (oziq-ovqat) sanoatiga va pirovard natijada xalqning turmush darajasini pasayishiga olib keladi. Qolaversa, qishloq xo‘jaligi bilan sanoatning boshqa tarmoqlari: mashinasozlik, kimyo, qurilish materiallari sanoati va elektr-energetika ham aloqador.

Mehnat resurslaridan foydalaiishning mavsumiyliigi, ishlab chiqarishning mujassamlashuv darajasini yuqori emasligi mazkur tarmoqning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini pasaytiradi. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligida yer ishlab chiqarish vositasi bo‘lib, uning tabiiy xosildorligi hamma joyda ham bir xil emas. XX asrning 60–70-yillarida dunyo xo‘jaligi ishlab chiqarishda dastlab iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, avvalo, AQShda yangi texnologik siljish «agrosanoat integratsiya»si jarayoni boshlandi.

15.2-§. Tarmoq tarkibidagi inqilobiy o‘zgarishlar


Uchinchi ming yillikda barcha sohalarda bo‘lgani kabi fan-texnikaning ta’siri natijasida qishloq xo‘jaligida ham sezilarli o‘zgarishlar amalga oshirilib, samaradorlik, mahsuldorlik, barqarorlik va chidamlilikning ortish jarayoni kuzatilmoqda. Natijada, sohada quyidagi kabi ayrim muhim o‘zgarishlar vujudga keldi:

1. Raqamlashgan qishloq xo‘jaligi: GPS, dronlar va sensorlar kabi texnologiyalar agrar soha vakillariga jarayonni kuzatish va boshqarish, suv, o‘g‘it va pestitsidlar kabilardan foydalanishni optimallashtirish imkonini beradi. Ushbu maqsadli yondashuv hosilni maksimal darajada oshirish bilan birga, qishloq xo‘jaligini aniq monitoring qilib turish

imkoniyatini oshiradi. Qolaversa, IT texnologiyalari qishloq xo‘jaligi sohasida sun‘iy yo‘ldosh ma‘lumotlaridan foydalanib, prognozlashtirish ishlarini takomillashtirish asosida avvaldan iqlim elementlarini baholash imkoniyatini oshirib bormoqda.

2. *Gen injeneriyasi va biotexnologiya:* gen injeneriyasidagi yutuqlar kasalliklar va noqulay ob-havo sharoitiga chidamlilik, yuqori hosil beradigan nav va zotdor turlarni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Biotexnologiya, shuningdek, qishloq xo‘jaligining muayyan muammolarini hal qila oladigan genetik jihatdan o‘zgartirilgan organizmlarni yaratish imkonini beradi. Qolaversa, zararkunandalarga qarshi kurashish vositalarining takomillashuvi samaradorlikni bir necha barobar oshiradi.

3. *Vertikal dehqonchilik:* urbanizatsiyaning rivojlanishi natijasida vujudga keladigan yer tanqisligi vertikal dehqonchilikning o‘shiga olib keldi. Chunonchi, yiri shaharlarda baland binolarning yuqori qismlarida agroareallar tashkil etish, yashillashtirish mazkur jarayonning asosini tashil etadi. Ushbu texnologiyalar o‘simliklarning o‘shisi uchun moslashtirilgan sharoitlarga ega inshootlardan foydalanadi, bu esa yil davomida shahar markazlariga yaqin joyda ishlab chiqarish imkonini beradi. Vertikal dehqonchilikni tashkil etish orqali yerdan intensiv tarzda foydalaniladi, minimal transport harajatlari orqali mahsulot yaratish imkoniyati vujudga keladi, «yashil shahar»ni barpo etish mikroekologiyaning barqarorligiga hissa qo‘shiladi (15.1-rasm).



15.1-rasm. Singapur shahridagi vertikal dehqonchilik yo‘lga qo‘yilgan ekomavze

4. *Robotexnika va avtomatlashtirish:* robotlar va avtomatlashtirilgan texnologiyalar qishloq xo‘jaligida ekin ekish va hosilni yig‘ib olishdan tortib saralash va qadoqlashgacha bo‘lgan

jarayonlarga tobora jadal kirib bormoqda. Ushbu texnologiyalar qo‘l mehnatiga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi, samaradorlikni oshiradi va kecha-yu kunduz ishlash imkonini beradi. Shunday bo‘lsa-da, ishsizlik muammosini keltirib chiqarish ehtimoli ham yuqori bo‘lib, aholi soni va mehnat resurslarini to‘g‘ri baholamaslik jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

5. *Blokcheyn va raqamlashgan ta‘minot zanjiri*: hozirgi paytda fan-texnika yutuqlari nafaqat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash, bali yetkazib berish zanjirida ham ulkan imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Xususan, bu jarayon mahsulotga buyurtma berish, yetkazilish jarayonini nazorat qilish; oziq-ovqat xavfsizligi, sifat nazorati va ta‘minot zanjiri boshqaruvini mukammallashtiradi.

Umuman olganda, ilm-fan va texnologiyaning qishloq xo‘jaligiga integratsiyalashuvi uni iqlim o‘zgarishi, resurslar tanqisligi va aholi sonining o‘sishi kabi o‘zgaruvchan muammolarga nisbatan barqaror, samarali va bardoshli qiladi. Bu orqali «Yashil inqilob», agrobiznes va agrosanoat majmuasi shakllanadi.

«**Yashil inqilob**» tushunchasi 60-yillarning o‘rtalaridan boshlab Lotin Amerikasi, Osiyo va Afrika mamlakatlarida amalga oshirilgan agrar islohotlar bilan chambarchas bog‘liqdir. «Yashil inqilob» qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini zamonaviy agrotexnika va boshqarish asosida tashkil qilish negizida, FTI yutuqlarini qo‘llash orqali qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirishdan iborat chora-tadbirlar majmuasi bo‘lib, uni amalga oshirishda quyidagi holatlar asosiy o‘rin tutadi:

❖ tez pishar, yuqori unumdorlikka ega donli ekinlarning gibridd navlarini ekish, hosildorlikning 2-3 barobar yuqori bo‘lishidan tashqari, qulay agroiklimiy xususiyatlarga ega hududlarda ikki, uch va hatto to‘rt marta hosil olish orqali oziq-ovqat muammosi yechimlarini hal qilish;

❖ irrigatsiya va melioratsiyani kengaytirish va takomillashtirish, ayniqsa, sug‘orma dehqonchilik madaniyatini rivojlantirish, agrotexnik tadbirlar majmuasini amalga oshirish;

❖ zamonaviy texnika, mineral o‘g‘itlar, qishloq xo‘jaligi zararkundalarga qarshi gerbisidlar, biometodlarni qo‘llash orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun asos yaratish.

«Yashil inqilob» xalqaro hamkorlikning natijasi bo‘lib, donli ekinlarning yuqori mahsuldor navlari yaratildi. Eng katta yutuq Rokfeller fondi va Meksika qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan Mexiko yaqinida tashkillangan Norman Borlou genetika–seleksiya

stansiyasida ko‘lga kiritildi. Amerikalik seleksionerlar tomonidan yuqori navli bug‘doy Yaponiyaning past bo‘yli navlari bilan chatishtiriladi va yuqori hosildor, kasalliklarga chidamli yangi nav yaratiladi. Natijada, mazkur xizmati uchun N.Borlou Nobel mukofotiga sazovor bo‘ladi.

Ushbu navning keng ko‘llanishi, sug‘oriladigan maydonlar va mexanizasiya Meksikada keyingi 20 yilda bug‘doy hosildorligini 3 marta oshirish imkonini beradi. Natijada, XX asr 70-yillarining oxirida Meksika bug‘doy import qilishidan uni eksport qilishga o‘tadi. So‘ngra, sholining «Filippin» navi, Hindistonda «Orissa-1» navlari gektaridan 80 sentner sholi, Yugoslaviya seleksionerlari yaratgan bug‘doy navidan esa gektaridan 150 sentner hosil olish imkonini beradi. Argentina, Keniya va Zambiyada makkajo‘xorining yangi navlari; Markaziy Amerika va And mamlakatlarida tariq va qo‘noqning serhosil yangi navlari yaratiladi.

Ammo «Yashil inqilob» rivojlanayotgan mamlakatlarning hammasida ham ko‘tilgan natijalarni bermaydi. Chunki bu rejani amalga oshirishga ma‘lum ma‘noda dehqonchilikning intensivlashtirish va moliyaviy to‘siqlardan tashqari keng dehqonlar ommasining foydalanish imkoniyatlari chegaralanganligi ham ta‘sir ko‘rsatadi.

«Yashil inqilob» ni amalga oshirish ma‘lum shart-sharoitlar, ya‘ni yirik yer egaligi mavjud bo‘lgan, sug‘orma dehqonchilik rivojlangan qishloq xo‘jaligi rayonlarida, ayniqsa Meksika, Hindiston, Pokiston, Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarida keng yoyiladi. «Yashil inqilob» ayrim donli ekinlarga, jumladan, bug‘doy va makkajo‘xori yetishtirish, uning hosildorligini oshirishga ta‘sir qilsa-da, sholi va boshhoqli hamda texnika ekinlarga ta‘siri juda bo‘sh edi.

Shunday qilib, dehqonchilikning tarmoq tarkibidagi rayonlararo farqlar «Yashil inqilob» ning geografik tarkalish qonuniyatlarga ham ta‘sir qiladi hamda qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish qulay bo‘lgan hududlarda, ekinlar birinchi navbatda bug‘doy hosildorligi sur‘atlari yuqori bo‘ladi.

Bunday taraqqiyotga Hindistondagi Panjob shtati va Pokistondagi Panjob provinsiyalaridagi ma‘lum shart-sharoitlar:

- ❖ qishloqlardagi yirik va baquvvat xo‘jaliklarning mavjudligi, irrigasiya kanallari va qo‘shimcha yer osti suvlaridan foydalaniladigan quduqlar;

- ❖ bug‘doy yetishtirish imkoniyatlarining kattaligi va shu yo‘nalishining shakllanganligi;

- ❖ xilma-xil qishloq xo‘jalik jihozlari ishlab chiqaruvchi mavjud va yangi mayda sanoat korxonalarini asosida erishiladi.

Shuningdek, «Yashil inqilob» xorijiy kompaniyalarga karashli yuqori tovar xo‘jaliklarda katta muvaffaqiyatga erishgan bo‘lsa-da, ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda (ayniqsa, Afrika qit‘asida) tabiiy shart-sharoitlardan tashqari, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sabablar ta’sirida «oziq-ovqat» muammosi keskinlashib bormoqda. Shu jihatdan, agrobiznes asosida agrosanoat integratsiyasi va agrosanoat majmuasiga bo‘lgan ehtiyoj doimo yuqori bo‘ladi.

Agrobiznes – yuqori foyda olish maqsadida qishloq xo‘jaligi va u bilan bog‘liq tarmoqlarni (marketing tizimi ham kiradi) hozirgi zamon boshqaruv usullari va yo‘llari bilan tashkil qilishdir. Agrobiznesning yuzaga kelishi XX asrning 70-yillarning o‘rtalaridan boshlab dastlab iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, so‘ngra bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat sanoati kompaniyalarining fermer xo‘jaliklaridan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotib olishi va qayta ishlashi, bozorga olib chiqish tufayli yagona agroishlab chiqarish tizimiga birikish jarayoni bilan bog‘liq. Agrobiznesda yirik qishloq xo‘jalik korporatsiyalari, sanoat kapitali, bank va sug‘urta tashkilotlari ham ishtirok etmoqda.

Agrobiznes bozor munosabatlari hosilasi bo‘lib o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

- 1) ishlab chiqarilayotgan tovarlarning deyarli bir xilligi;
- 2) tovarlarning yuqori raqobatbardoshligi;
- 3) ishlab chiqarishning mavsumiyligi va uning mahsulotlariga bo‘lgan bozor konyukturasining o‘zgaruvchanligi;
- 4) agrar sohadagi tadbirkorlik tavakkalchiligining g‘oyat yuqoriligi ya’ni ob-havo va boshqa omillarga bog‘liqligi;
- 5) agrar sohaga davlatning aralashuvi va yordamining zaruriyligi;
- 6) mahsulotlarni o‘zaro ayirboshlashda narx-navoning mukammal emasligidir.

Agrobiznesning asosiy maqsadi bozorlarni qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan to‘ldirish orqali foyda ko‘rishdir. Agrobiznes tizimida bu maqsadni amalga oshirishda sof qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkor – fermer, dehqon, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat tadbirkorlari, «servis» xizmati tadbirkorlari, tijoratchi–tadbirkorlar hamda manfaatdor bank, sug‘urta va moliya kompaniyalari ishtirok etadi.

Agrobiznes shakllari juda xilma-xildir. Uning keng tarqalgan turlari shaxsiy individual ferma, agrofirma, agrosanoat birlashmalari va boshqalardir. Agrobiznesning eng ommaviylashgan turlaridan biri

shaxsiy individual fermalar bo'lib, AQShda keng tarqalgan va fermer xo'jaliklarining 90 % to'g'ri keladi. Bu xo'jaliklar ixtisoslashuv darajasining yuqoriligi, fan-texnika yutuqlarini, ilg'or texnologiyalarni qo'llashi, mehnat unumdorligi va iqtisodiy samaradorlikning yuqoriligi, bozorga keng sur'atda tortilganligi bilan ajralib turadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yetishtirish va qayta ishlash tizimini yaxlit xo'jalik organizmi sifatida birlashtirgan agrofimlar ham agrobiznes tizimida muhim o'rin tutadi. Agrofimlar don xo'jaligi, paxta yetishtirish, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavot-poliz mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash, chorvachilikda sut va go'sht yetishtirish va tayyor mahsulotlar tayyorlash hamda realizatsiya qilishning yagona zanjirini yuzaga keltiradi.

Agrosanoat birlashmalari esa yirik qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish va uni qayta ishlash, iste'molchiga yetkazish bilan mashg'ul bo'lib, nafaqat qishloq xo'jaligi korxonalari va sanoat, balki bank kapitali, moliya tizimlari bilan ham integratsiyalashadi.

Agrosanoat birlashmalarida yirik fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining boshqa tashkiliy tuzilmalari (kombinat va boshq.) sanoatning qishloq xo'jaligi texnikasi va jihozlari ishlab chiqaruvchi sohalari va «servis» bulinmalari (ta'minot va xizmatlar bilan shug'ullanuvchi), qayta ishlash korxonalari va tayyor mahsulotni reklama qilish (marketing) va realizatsiya qiluvchi turli savdo tashkilotlari yagona texnologiya zanjiriga birlashadilar.

Agrosanoat integratsiyasi tushunchasining asosiy xususiyati tarmoqlararo xarakterga ega bo'lib, bir-biridan jiddiy farq qiluvchi sanoat va qishloq xo'jaligining tashkiliy va tijorat jihatidan birlashuvini ifodalaydi. Agrosanoat integratsiyasi ma'lum ma'noda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining:

- 1) tabiiy-ijtimoiy omillarga bog'liqligini yumshatish;
- 2) oldindan rejalashtirishning sifatini oshirish;

3) meva-uzum, sabzavot-poliz va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan olinadigan hosil va uning hajmini bashoratlash imkonini beradi hamda qishloq xo'jaligini sanoat ishlab chiqarishning umumiy jarayonlari bilan qo'shadi. Integratsiya, jamiyatdagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va sanoat ishlab chiqarishning o'zaro bog'liqligini yanada kuchaytirish orqali sanoatni qishloq xo'jalik xomashyosi bilan ta'minlashning barqaror iqtisodiy va tijorat mexanizmini vujudga keltiradi. Agrosanoat integratsiyasi tarixiy va mantiqiy sur'atda agrosanoat majmuasini (ASM) tuzilishiga olib keladi.

Agrosanoat majmuasi murakkab tushuncha bo‘lib, ijtimoiy ishlab chiqarishda qishloq xo‘jaligi va sanoat korxonalari, tarmoqlarining integratsion asoslardagi barqaror, uzoq muddatli ishlab chiqarish va tijorat aloqalarini bildiradi; xususiy va shartnomaviy munosabatlar negizida butun agrosanoat zanjirida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlash, tayyor mahsulotlarni iste‘molchiga yetkazib berish va qishloq xo‘jaligi uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarishni ifodalaydi. ASM tarkibiga uch soha: 1) qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga ishlab chiqarish texnika xizmati ko‘rsatadigan sanoat tarmoqlari – mashinasozlik: qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati: zararkunandalarga qarshi kimyoviy vositalar, mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish; 2) qishloq xo‘jaligi – dehqonchilik, chorvachilik; 3) qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, iste‘molchiga yetkazib berish (tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, tashish, realizatsiya qilish) bilan band bo‘lgan tarmoqlar – yengil sanoat, oziq-ovqat, transport xizmati kiradi.

Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda ASM tarkibida to‘rtinchi soha infratuzilmalar ham maxsus tarkib sifatida ajratiladi. Infratuzilmalar tarkibiga ASM va unda bandlar faoliyati uchun shart-sharoitlarni ta‘minlab beradigan xo‘jalik tarmoqlari – aloqa, moddiy-texnika ta‘minoti, ombor xo‘jaligi, moddiy bo‘lmagan ishlab chiqarish tizimlari kiradi (15.2-rasm).



15.2-rasm. Agrosanoat majmuasining jarayon sikli

Ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar agrosanoat ishlab chiqarishida TMK integrator vazifasini bajarmoqda va muhim rol o‘ynamoqda. TMK o‘zlarining qayta ishlash korxonalarini rivojlanayotgan mamlakatlarda qurish orqali o‘z davlatlaridagi shakllangan ishlab chiqarish jarayonlarni ham ko‘chirmoqda. Xalqaro agrosanoat integratsiyasining bosh yo‘nalishi – umumbashariy

muammolardan biri o‘tib borayotgan yer shari aholisining oziq-ovqat mahsulotlari va sanoatni xomashyo bilan ta‘minlashdir.

15.3-§. Qishloq xo‘jaligining tarmoq va hududiy tarkibi

Qishloq xo‘jaligi ikki katta tarmoq – dehqonchilik (ziroatchilik) va chorvachilikdan tashkil topgan. Yer yuzi bo‘yicha qishloq xo‘jaligida dehqonchilik oldinda turadi. Biroq shunday bo‘lsa-da, dehqonchilik va umuman qishloq xo‘jaligida tarmoqlarning turlanishi sanoatga nisbatan sustroq bormoqda.

15.1-jadval

Dehqonchilikning tarmoq tarkibi

| <i>Tarmoq va kichik tarmoqlar</i> | | <i>Ekin turlari</i> |
|-----------------------------------|------------------|--|
| Donli ekinlar | | bug‘doy, arpa, tariq, javdar, sulii, guruch, makkajo‘xori, grechka, oq jo‘xori, sorgo |
| Dukkakli ekinlar | | no‘xat, loviya, yasmiq, soya |
| Texnik ekinlar | ozuqabop | shakarqamish, qand-lavlagi, xmel, kraxmalli ekinlar, dorivor o‘simliklar |
| | tolali | paxta, zig‘ir, jut, kanop |
| | kauchukli | geveya |
| | moyli | paxta, kungaboqar, yeryong‘oq, yong‘oq, zaytun, zig‘ir, soya, raps, xantal, kokos palmasi, moyli palma, kanakunjut |
| | quvvat beruvchi | kakao, kofe, choy, tamaki |
| Sabzavot va poliz ekinlari | kraxmalli | kartoshka |
| | poliz ekinlari | qovun, tarvuz, qovoq |
| | rezavor | pomidor, bodring, baqlajon, qalampir |
| | ildizmevalar | sabzi, rediska, lavlagi, sholg‘om, selderey, turp |
| | piyozli ekinlar | piyoz, sarimsoqpiyoz |
| | yaproqli ekinlar | karam, salat barg, ismaloq, oshko‘k, ukrop, jambil, rayhon, arpabodiyon |
| Sitrus mevalar | | apelsin, mandarin, limon, banan, mango |
| Yem-xashak ekinlari | | yem-xashak, beda, silos, senaj |
| Boshqa tarmoqlar | | bog‘dorchilik |
| | | uzumchilik |
| | | manzarali bog‘dorchilik |
| | | qo‘ziqorin yetishtirish |

Hozirda qishloq xo'jaligidagi ayrim yangi yo'nalishlar – broyler parrandachiligi, issiqxona xo'jaligi, sut va go'sht fabrikalari o'zlarining tashkil qilinishiga qarab ko'proq industrial sohaga yaqin turadi.

Dehqonchilik – yerga ekin ekib, hosil olish bilan shug'ullanadigan qishloq xo'jaligi tarmog'i hisoblanadi. Ekin yetishtirish doirasida hosildorlikni ko'paytirish, kasallik va zararkunandalarga chidamliligini oshirish, turli iqlim sharoitlariga moslashish va mahsulot sifatini yaxshilash maqsadida o'simlik navlarini seleksiya va genetik jihatdan yaxshilash ishlari dehqonchilikning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Olinadigan mahsulotlar turi va xususiyatlariga bog'liq holda, dehqonchilik ko'plab kichik guruhlarga bo'linadi (15.1-jadval).

Dehqonchilik ekinlari iqlim sharoiti bilan bevosita bog'liq. Biroq, so'nggi yillarda ba'zi bir mahsulotlarning yetishtirilishi (pomidor, bodring, ziravorlar va boshq.) mavsumiy xususiyatini yo'qotib bormoqda. Albatta, bu o'rinda «geografik konveyr»ning roli ham katta. Chunki yuqoridagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib turish turli hududlarda, ularning agroiklimiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda navbatma-navbat amalga oshiriladi.

Yana shuni qayd etish joizki, ayrim qishloq xo'jaligi mevalarining geografiyasi tobora kengayib bormoqda. Chunonchi, anjir, anor va ayniqsa xurmo faqat subtropik rayonlarning mevasi bo'libgina qolmay, ular endigi sharoitda ko'pgina hududlarda yetishtirilmoqda.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirishga tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy komponentlar ichida eng avvalo iqlim, suv va tuproqning ahamiyati katta. Iqlim sharoitlari, harorat, yer osti va yer usti suvlari tuproq xususiyatlari qishloq xo'jaligining tarmoqlar va hududiy tarkibini ko'p jihatdan belgilab beradi.

Foydali harorat, ya'ni yig'indisi yil davomidagi sutka haroratining $+10^{\circ}\text{C}$ dan yuqorisi va ijobiy harorat yig'indisi (erta bahordan to kech kuzgacha ijobiy haroratning yig'indisi) o'simliklarning pishib yetishi uchun talab qilinadigan vegetatsiya davrini shakllantiradi. Jumladan, paxta yetishtirish uchun $+2000^{\circ}\text{C}$, $+4000^{\circ}\text{C}$ bo'lishi kerak

Qishloq xo'jaligi uchun yerning ahamiyati alohida o'ringa ega. Ammo har qanday yer maydoni ham bu sohada intensiv foydalanish imkoniyatiga ega emas. Binobarin, hududlarning qishloq xo'jalik salohiyati yoki ekiladigan yoki haydaladigan yer va umumiy yer maydonining nisbati, yer fondining hajmi va tarkibi orqali belgilanadi. Ayniqsa, sug'oriladigan yer maydoni bilan qishloq aholisining

ta'minlanganlik darajasi katta mazmunga ega. Foydalanish mumkin bo'lgan yer maydonining hajmi shu joyning geomorfologik holatiga ham bog'liq. Chunonchi, tekis bo'lmagan hududlarda foydali yer koeffitsiyenti nisbatan past bo'lishi aniq.

Ayni chog'da, bizning sharoitimizda faqat yer maydonining bo'lishi yetarli emas. Buning uchun albatta yana issiq harorat va suv, namgarchilik talab qilinadi. Chunki O'zbekistonda yetishtiriladigan qishloq xo'jalik mahsulotlarining ko'pchiligi issiq talab va suv talabdir. Ayniqsa, bodring, pomidor, baqlajon, sholi kabilarda suv sarfi ancha yuqori.

Qizigi shundaki, tabiatda bir joyning o'zida issiq harorat, dehqonchilikka yaroqli yer maydoni va suv kamdan-kam hollarda uchraydi. Suv bor joyda qulay yer maydoni yo'q (tog'liklar), yer maydoni bor joyda esa suv yo'q (cho'llar). Birinchisida dehqonchilik uchun terrasa usuli, ikkinchisida sun'iy sug'orish qo'llaniladi.

Qadimda sug'orma dehqonchilik daryolarning quyilish qismida, deltasida rivojlangan va buning uchun tabiiy hosildor allyuvial yotqiziqlardan foydalanilgan. Bizning o'lkamizda dastlabki vohalar, aynan, mana shunday hududlarda vujudga kelgan. Keyinchalik, sug'orma dehqonchilik geografiyasi daryolarning quyilishidan ularning yuqori qismlariga ko'tarilib borgan, suv omborlari va kanallar qurilishi munosabati bilan tog' yonbag'ri, adirlar ham ishlab chiqarish oborotiga kiritilgan (Farg'ona vodiysi), vohalar bir-biriga tutashib ketgan (Zarafshon vohasi).

Sun'iy sug'oriladigan dehqonchilikdan tashqari bizda bahorikor yerlar ham ko'p (Samarqand, Jizzax, Surxondaryo viloyatlari va boshq.). Bunday tabiiy namgarchilikdan foydalanib dehqonchilikni yuritish, yerning gidrotermik rejimini hisobga olgan holda joylashtiriladi. Maxsus adabiyotlarda buning uchun *Lange omili* tushunchasi mavjud bo'lib, u issiqlik bilan yog'in-sochin nisbatini bildiradi. Jumladan, bahorikor dehqonchilikda yillik yog'in-sochin miqdori o'rtacha yillik haroratdan kamida 15 marta ko'p bo'lishi talab etiladi. Agar bu koeffitsiyent 15 dan kam bo'lsa, u holda faqat cho'l yaylovchiligi rivojlantirish mumkin, xolos. Havo (harorat), suv, tuproq – qishloq xo'jaligi rivojlanishi va foydalanishining asosiy uch shartidir, shu bilan birga melioratsiya va irrigatsiya, mehnat resurslari, fan-texnika taraqqiyoti, transport va boshqalarning ahamiyati ham muhim.

Dunyo bo'yicha qishloq xo'jaligida mehnatga layoqatli aholining yarmidan ko'prog'i ishlaydi. Afrika va Osiyo davlatlarining ba'zilarida

bu ko'rsatkich yanada yuqori (masalan, Nepalda 90%). Ayni vaqtda, rivojlangan mamlakatlarda sanoatning «pastki» qatlamlarini rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chishiga o'xshab, ularda qishloq xo'jaligining intensiv shakli saqlanib qolmoqda, xolos.

Qishloq xo'jaligida aholi bandligining qisqarib borishi dastlab Buyuk Britaniyada, so'ngra Belgiya, Niderlandiya, Daniya, AQSh va boshqalarda kuzatilgan. Natijada, hozirgi kunda bu mamlakatlarda bir fermer taxminan 80 va undan ortiq kishini oziq-ovqat bilan ta'minlashga qodir. Vaholanki, rivojlanayotgan mamlakatlarda mehnat sarfi haddan tashqari ziyod, qishloq joylarda «yashirin» ishsizlar ko'p aholinning nisbiy va, hatto, mutloq ortiqchaligi sezilib turibdi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishga va shu asosda ijtimoiy masalalarni hal etishga katta ahamiyat borilmoqda. Biroq, hozircha bu yerda muammolar ko'p: qishloqlarda ish o'rinlari kam, shaharlar esa ortiqcha ish kuchini ta'minlay olmayapti. Bu ham bo'lsa, o'tish davrining qiyinchiliklaridan biridir.

Qishloq xo'jalik tarmoqlarini joylashtirishda mexanizatsiyalash, agrotexnika, agrokimyoy, seleksiya kabi fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq yo'nalishlarni rivojlantirish ahamiyatlidir. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi infrastrukturasi, sug'orish inshootlari suv omborlari va kanallar, yerlarning meliorativ holatini yaxshilovchi chora-tadbirlar ham agrobiznesga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ko'pgina mamlakatlar qatorida O'zbekistonda ham shahar atrofi qishloq xo'jaligi rivojlanib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, paxta maydonlarining shahardan uzoqlashishga olib keladi. Shu bilan birga, paxtachilik tog' oldi hududlari, Quyi Amudaryo, Mirzacho'l va Qarshi cho'lining sho'rlangan yerlarida qisqarib bormoqda. Qisman, bu jarayon g'alla-bug'doy maydonlarini kengaytirish asosida ham qo'llanilmoqda. Demak, kelajakda paxtachilikning yanada jiddiy o'zgarishlarni kutish mumkin. Ayni vaqtda, bog'dorchilik va uzumchilik, ayniqsa, g'alla yetishtirish maydonlari kengaymoqda. Bunday o'zgarishlar jahon miqyosida ham sodir bo'lmoqda. Xususan, 60-yillarda rivojlanayotgan mamlakatlardagi «yashil inqilob» g'allachilik joylashishini sezilarli darajada o'zgartirdi.

Chorvachilik – aholini go'sht, sut, tuxum, jun, teri va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlash uchun har xil turdagi hayvonlarni ko'paytirish va boqish bilan shug'ullanadigan qishloq xo'jaligi tarmog'i. Mazkur tarmoq o'ziga xos xususiyatlari asosida, o'z navbatida, bir necha kichik guruhlarga bo'linadi (15.2-jadval). Ulardan ayrim chorva

turlari bir necha guruhlarga kirishi mumkin. Masalan, parrandachilik parhez go'shti olish nuqtai nazaridan go'sht chorvachiligi tarkibiga kirsa; tuxum va pat yetkazib berish jihatidan o'zining tarkibida bir necha tarmoqchalarga ajraladigan alohida parrandachilik tarmog'ini tashkil qiladi va h.k.

15.2-jadval

Chorvachilikning tarmoq tarkibi

| <i>Tarmoqlar</i> | <i>Chorvalar</i> |
|----------------------|--|
| Go'sht chorvachiligi | qoramolchilik, qo'ychilik, cho'chqachilik, echichilik, yilqichilik, tuyachilik, bug'uchilik, parranchilik, quyonchilik |
| Sut chorvachiligi | qoramolchilik, echichilik, qo'ychilik, tuyachilik, yilqichilik, bug'uchilik |
| Akvakultura | baliqchilik, qisqichbaqachilik, molyuskachilik |
| Darrandachilik | ondatrachilik, nutriyachilik, norkachilik, suvsarchilik, qunduzchilik |
| Parrandachilik | tovuqchilik, o'rdakchilik, g'ozchilik, kurkachilik, tuyaqushchilik, bedanachilik |
| Jun yetishtirish | qo'ychilik, echkichilik |
| Boshqa tarmoqlar | Pillachilik |
| | Asalarichilik |

Chorvachilik ham tabiiy sharoit bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, dehqonchilikdan ko'ra hududiy joylashtirish imkoniyati birmuncha yuqori. Xususan, yashash muhitini tashkil qilish va yetarli ozuqa bilan ta'minlash orqali chorva hayvonlari tobora mahalliy lashib boradi.

Dunyo bo'yicha chorvachilikning yem-xashak maydoni umumiy yer maydonining taxminan 1/4 qismini tashkil qiladi. Buning ustiga mazkur mamlakatlarda yaylovlarning hosildorligi past. Binobarin, ularning «chorva sig'imi» ham yuqori emas. Demak, bu va shunga o'xshash hududlarda ekstensiv chorvachilik rivojlanib boradi. Chorvachilikning sut va sut-go'sht yo'nalishi uning ancha intensiv va mahsuldor sohalaridir. Sutchilik esa, odatda, iqlimi yumshoq, uncha issiq, bo'lmagan va yog'in-sochin yetarli rayonlarda, daryo qayirlari va dalalar yam-yashil o'tloqzorlar bilan qoplangan joylarda juda yaxshi

rivojlanadi (Belorussiya, Boltiq bo‘yi davlatlari; Gollandiya; Qirg‘izistonning Chuy vodiysi va boshq.). Jun chorvachiligi esa issiq cho‘l tabiatida qulay imkoniyatga ega (Avstraliya, Mongoliya, Qozog‘iston va boshq.).

Sut chorvachiligining joylanishi shahar aholisi ehtiyoji asosida shakllanishi ma‘qul. Shu bilan birga, keyingi yillarda transport, xususan, avtorefrigerator(katta hajmdagi yuklarni tashuvchi mashina)larning ta‘siri ostida bu tarmoq uzoqroq masofada ham joylashtirilmoqda. Keltirilgan sut asosida u bilan bog‘liq boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish shahar joylarda tashkil qilinadi.

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari – dehqonchilik va chorvachilikning hududiy birikmalari ham mavjud. Chunonchi, g‘allachilik rayonlarda parrandachilik; kartoshka yetishtiriladigan yerlarda sut-go‘sht chorvachiligi; qand lavlagi ekiladigan hududlarda cho‘chqachilik rivojlanib boradi. Bu esa qishloq xo‘jaligida o‘ziga xos hududiy ishlab chiqarish majmuasini shakllantiradi. Bunday majmualarning eng murakkab va rivojlangan shakli esa qishloq xo‘jaligi va qayta ishlovchi sanoat (aynan, oziq-ovqat sanoati) asosida vujudga keladi.

Agrosanoat majmuani bundan ham keng ma‘noda talqin qilish mumkin. U holda bu majmua sanoatning qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq barcha tarmoqlarini, transport va omborxonalarini ham o‘z qamroviga oladi. Aynan, shu mazmunda agrosanoat majmualari milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning o‘zagini hosil qiladi.

Sanoatda bo‘lganidek, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini joylashtirishda ham eng asosiy omil bozor munosabatlari bo‘lib qolmoqda. Nimani yetishtirishni hozirgi kunda talab, narx-navo belgilaydi. Ammo bu ta‘sir qishloq xo‘jaligida ma‘lum vaqt o‘tgandan so‘ng o‘z kuchini ko‘rsatadi (chunki, mahsulot yetishtirish uchun ancha vaqt talab etiladi, sanoatda esa bu jarayon nisbatan tez kechadi).

15.4-§. Qishloq xo‘jaligi va ekologik muammolar

Dehqonchilik va chorvachilikning ming yillar davomida rivojlanishi atrof-muhitga sezilarli ta‘sirini o‘tkazgan va madaniy landshaftlarni yuzaga keltirgan. Ayniqsa, dehqonchilik maydonlarini kengaytirish ehtiyoji Yevropada ko‘plab o‘rmonlar hududining qisqarishiga olib kelgan bo‘lsa, bugungi kunda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida ushbu jarayonning takrorlanishi tropik yog‘inlar natijasida tuproq ustki unumdor qatlamining yuvilib ketishi, shamol eroziyasiga

uchrashi va, bu orqali, lokal ekologik muammolarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmidan FTIning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga ta'siri natijasida intensiv rivojlanish jarayoni boshlandi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida kimyolashtirish jarayoni oqibatida (o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari – pestitsidlar, mineral o'g'itlar, veterinariya pestitsidlari va boshq.) tuproq, havo va suv resurslari jiddiy zaharlanmoqda hamda tuzatib bo'lmas oqibatlarini yuzaga keltirmoqda.

Bugungi kunda Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, yiliga o'rtacha 200 mln tonnadan ortiq mineral o'g'itlar (fosforli, kaliyli, azotli) va 3-4 mln tonnadan ortiq zaharli kimyoviy mahsulotlar ishlatilmoqda.

Keyingi yillarda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jaligida zaharli kimyoviy vositalardan foydalanishni taqiqlanishi oqibatida ko'proq biologik usullar keng yoyilmoqda. Biologik usul atrof-muhit uchun xavfsiz bo'lib, zarar keltirmaydi. Ayniqsa, biologik usullar – bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavot va poliz mahsulotlarini yetishtirishda qo'llanilmoqda. Shunday bo'lsa-da, bu ekologik «toza» mahsulotlar narxi yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligida zararli kimyoviy moddalardan foydalanish inson salomatligi uchun, ayniqsa qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bevosita shug'ullanadiganlar uchun jiddiy xavf tug'diradi. Xavfsizroq va barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini targ'ib qilish bo'yicha sa'y-harakatlar fermer jamoalarida kimyoviy ta'sir qilish bilan bog'liq sog'liq uchun xavflarni kamaytirish uchun juda muhimdir. Yaqin istiqbolda, qishloq xo'jaligida ilg'or biotexnologiya, gen injineriyasi yutuqlarini qo'llash yuzaga kelgan ekologik muammolarning yumshatish imkonini berishi mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Qishloq xo'jaligi o'zining qaysi xususiyatlari bilan boshqa moddiy tarmoqlardan ajralib turadi?

2. Qishloq xo'jaligi sohasi eng qadimiy, shu bilan birgalikda, kundalik ehtiyojlarni qondiruvchi asosiy soha bo'lishiga qaramay, nima sababdan investorlar tomonidan kam qiziqish bildiriladi?

3. Dehqonchilik va chorvachilik qanday ichki tarmoq tarkibiga ega?

16-BOB. TRANSPORT GEOGRAFIYASI

Mavzu annotatsiyasi. Ushbu mavzuda transport tarmoqlari, industriyasi va ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida tahlili keltirilgan. Chunonchi, ishlab chiqarishni tashkil etish va aholi punktlarini joylashtirishda transportning roliga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, transportning har biri turining o'ziga xos xususiyatlari, kamchilik va afzalliklari yoritib berilgan.

Tayanch so'z va iboralar: transport, iqtisodiyotning qon tomiri, quruqlik transporti, quvur transporti, suv transporti, havo transporti, kosmik transport, elektron transport, yo'lovchi aylanmasi, yuk aylanmasi, dengiz portlari, fraxt, transport zichligi, yo'llarning o'tkazish imkoniyati.

Reja:

- 16.1. Transport – milliy iqtisodiyotning mustaqil tarmog'i sifatida.
- 16.2. Transport turlarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar.
- 16.3. Transportning asosiy ko'rsatkichlarini baholash.
- 16.4. Transport va atrof-muhit muammosi.



16.1-§. Transport – milliy iqtisodiyotning mustaqil tarmog'i sifatida

Transport – makroiqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri, iqtisodiyotning qon tomiri, harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. U ishlab chiqarish bilan iste'molni bog'lab, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi.

Sanoat, qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda transport moddiy ishlab chiqarish jarayonida markaziy o'rinni egallaydi. Transport iqtisodiy tizimda yuklarni va yo'lovchilarni tashish orqali ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatadi hamda aholining harakatchanligini ta'minlaydi. Transport yangi mahsulotlar yaratmaydi, balki moddiy ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlari tomonidan yaratilgan mahsulotlarni bir joydan-ikkinchi joyga olib boradi va ishlab chiqarish aloqalarini rivojlantirish hamda qo'shish orqali yangi ishlab chiqarish tizimini davom etishi uchun shart-sharoit hozirlaydi. Xuddi shu xususiyat mahsulotlar qiymatida transport xarajatlari miqdorining ortishiga olib keladi.

Yalpi transport xarajatlarining iste'molchiga kelib tushgan mahsulotning to'la qiymatiga bo'lgan nisbati mahsulot qiymatining transport tarkibiy qismi koeffitsienti deb ataladi. Transport tarkibiy qismi xomashyo, yoqilg'ini mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf bo'lgan yordamchi materiallarni keltirish uchun ketgan xarajatlardan tarkib topadi hamda uni iste'mol rayonlariga yetkazib berish uchun sarf bo'lgan xarajatlarni ham o'z ichiga oladi.

Transportga ketgan xarajatlar miqdori qancha kam bo'lsa, iste'molchiga yetib borgan muayyan mahsulotning narxi shuncha past bo'ladi. Shuning uchun hududiy faktor, ya'ni ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil qilinishi va transport-iqtisodiy aloqalarning oqilona bo'lishi yuk tashish uchun ketgan xarajatlarning kamayishiga olib keladi.

Yuk tashishning hajmi, tarkibi va yo'nalishlari, mamlakat va mintaqalarning iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini ko'rsatsa, transport turi aholi va ishlab chiqarishning joylashishini ifodalaydi. Transport tarmoqlarining rivojlanganlik holati rayonlarning ixtisoslashuviga, xo'jalikni majumali taraqqiy etishiga muayyan sharoit hozirlaydi. Transport hududiy (geografik) mehnat taqsimotini yuzaga kelishining moddiy-texnik asosidir.

Ilmiy-texnika inqilobi ta'sirida transport tizimining rivojlanishi ishlab chiqarish quvvatlari tarkibidagi jiddiy o'zgarishlar, xalqaro tovarlar bozoriga tashiladigan yuklarga ehtiyojning o'sishi va transport xizmati sifatiga yangi talablarning yuzaga kelishi bilan bog'liqdir. Bu yerda keskin raqobat natijasida asosiy kapitalning yangilanish zaruriyati tobora yaqqolroq namoyon bo'lmoqda. FTIning xalqaro transport bozorida xarakterli natijasi-doimiy turli transport turlari raqobatbardoshligining o'sishi, ularning o'zaro aloqadorligi, salohiyatining kuchayishi va integratsion aloqalarning rivojlanishidir.

Transport so'zi aslida lotinchadan olingan bo'lib, transporto (*trans* – orqali, *porto* – eltib qo'yish) «tashiyman», «tashimoq» degan ma'noni anglatadi. U aholi va xalq xo'jaligiga o'zaro bog'lab, yuklarga bo'lgan ehtiyojlarini o'z vaqtida muttasil ta'minlab turadi. Dehqonchilikdan hunarmandchilik va savdoning ajralib chiqishi natijasida inson ehtiyojlarining o'sishi transport rivojlanishini zaruriy shart qilib qo'ydi, jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida transport vositalari juda tezlik bilan takomillashdi. Shu o'rinda aytish joizki, jahon sivilizatsiyasi, urbanizatsiya, madaniy va iqtisodiy taraqqiyot turli darajada hududiy mehnat taqsimoti ayni vaqtda transport vositalarining rivojlanib va

takomillashib borishi bilan birga sodir bo'lgan. Bu jarayon hozirgi kunda ham davom etmoqda.

Odatda, transport deganda uning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratiladi:

- *transport* – bu vosita, harakatlantiruvchi kuch;
- *transport* – xalq xo'jaligi tarmog'i;
- *transport, aniqrog'i transport yo'llari* – bu ishlab chiqarish infratuzilmasining yetakchi tarmog'i, xo'jalik tarmoqlari va aholining joylashuvida muhim omil (yo'li yaxshi mamlakat boy bo'ladi, boy mamlakatlarning yo'llari esa hammavaqt ham yaxshi bo'lavermaydi);
- *transportning uzatuvchanlik, bog'lovchilik funksiyasi* borligi sababli u aloqa tizimi bilan juda yaqindan aloqador, binobarin, aloqa tizimidagi yangi o'zgarishlar (teleradio aloqalari, internet va boshq.) an'naviy transport tarmoqlarining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Odatda, transport geografik mavqeyi qulay bo'lgan hududlarda sivilizatsiya juda kuchaygan. Quruqlik transporti asosiy transport shakli bo'lib qolganda, ya'ni Buyuk ipak yo'li taraqqiy etgan davrlarda jahon sivilizatsiyasi materik ichkarisidagi davlatlarda bo'lgan, keyinchalik suv transportining rivojlanishi dengiz yo'llarining ochilishidan so'ng jahon sivilizatsiyasi dengiz va okean bo'ylariga ko'chdi.

Transport tarmoqlarining rivojlanib borishi turli mintaqalardagi xalqlarni bir biriga bog'lagan. Shuningdek, u qadimgi ko'chmanchi xalqlarning o'troqlashuviga zamin tayyorlagan; eng muhimi qishloq xo'jaligi, hunarmandchilikning rivojlanishiga hamkorlik qilgan. Fan-texnika inqilobi tufayli transportning yangi turlarini vujudga kelishi jamiyat taraqqiyotini yanada tezlashtirdi va bu uning ayrim turlari o'rtasidagi «mehnat taqsimoti» natijasi edi.

Transport geografiyasi – transport tizimlarining joylashuvi va hududiy tarkibini tadqiq etadi deb ta'rif beradi. Yuqoridagi tariflarni umumlashtirgan va to'ldirgan holda transport geografiyasiga quyidagicha tarif berish mumkin: *Transport geografiyasi fani turli mamlakat yoki rayonlarda transport tarmoqlari rivojlanishining asosiy omillari va xususiyatlari, shuningdek, hududiy transport tizimlari yoki markazlarining shakllanish qonuniyatlarini o'rganadi.* Unda rayonlar transportining o'ziga xos xususiyatlari, ma'lum qonuniyat va, eng avvalo, hududiy tafovutlari aniqlanadi, transport turlarini maqsadga muvofiq joylashtirish va rivojlantirish, ular o'rtasidagi aloqadorlikni hisobga olish talab etiladi. Shu bilan birga, o'rganilayotgan mintaqaning

ishlab chiqarish kuchlarini joylanishi va rivojlanishiga transportning ta'sirini o'rganish iqtisodiy geografiya fani tarmoqlari o'rtasidagi yangi qonuniyatlarni ochish imkonini beradi.

Transport geografiyasi fani iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning eng yirik tarmoqlaridan biridir. Shunday ekan, u iqtisodiy geografiyaning boshqa tarmoqlari bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanib boradi. 1990-yillargacha qilingan ilmiy ishlarda asosan aholi geografiyasi, sanoat va qishloq xo'jalik geografiyasi, shaharlar geografiyasi fanlari bilan birgalikda olib borilgan. Bozor munosabatlari sharoitida transport geografiyasi fanining qamrovini turizm, investitsiya va tashqi iqtisodiy aloqalar, qo'shma korxonalar geografiyasi, harbiy geografiya va geosiyosat fanlari yanada kengaytiradi.

Transport geografiyasi iqtisodiy makonda (xaritada) chiziqsimon yoki tasmasimon shaklga ega bo'lib, mamlakat va mintaqalar «qovurg'asi», asosiy o'sish yo'nalishlarini ifodalaydi. Chunonchi, bu haqda geograf olim N.N.Baranskiy «Shaharlar va transport yo'llari o'zaro bog'liq va biri ikkinchisiz bo'lishi mumkin emas, shaharlar va transport yo'llari har qanday hududning asosiy qovurg'asi qolgan barcha narsalar esa shular tufayli vujudga keladi, ularga suyanadi» deb ta'kidlagan edi.

Transport bozoridagi keskin raqobat kurashida, ayniqsa, quruqlik transport turlari – temiryo'l, avtomobil, quvur transporti va daryo (yuklarni dengiz portiga olib beradigan) yo'nalishlarda kuchlidir. Shuningdek, FTI bilan paralel ravishda transport vositalarining monopollashuvi raqobatni yanada kuchaytirmoqda. Transport tizimi o'zining texnik darajasi, ko'lami, tashkiliy shakli, xalqaro yuk va yo'lovchi tashish sifati bo'yicha mijozlarning yangi talablariga moslashmoqda. Bunda hatto xarajatlarga nisbatan transport xizmati sifati bosh omil rolini o'ynamoqda. Bu yangi talablar quyidagilar bilan bog'liqdir:

- yuk jo'natish ko'laminin ortib borishi, ishlab chiqarish texnologik jarayonlaridagi hududiy farqlar va yuk tashishdagi mayda partiyalar, yuk tashishning tabaqalanishini kuchayishiga;
- transport xarajatlari o'sishi tufayli yuk tashish samaradoriligini ko'tarishga intilish;
- iqtisodiy aloqalar tarkibining o'zgarishiga moslashuv zaruriyati;
- yo'lovchi va yuk tashishni doimiy va bir maromda ta'minlash;
- yuklarni tashishdagi tezkorlik va saqlash darajasining ortishi;

- asosiy transport magistrallari (yo‘lak) va transport tugunlarida ishlab chiqarish va aholining hududiy to‘planishi sharoitida intensiv harakatning o‘tib borishida harakat xavfsizligini ta‘minlash zaruriyati;
- xalqaro yo‘lovchi tashish aloqalarida qulayliklariga bo‘lgan talabning keskin ortishi;
- transport turlari rivojlanishiga bo‘lgan ekologik talabni hisobga olish zaruriyati;
- transportni energiya talabligini ozaytirish zaruriyati.

Shunday qilib, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi shakllarining rivojlanishi bilan transport xizmat ko‘rsatish sifati alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqoridagi omillar o‘z navbatida yuk tashishda avtomobil va havo transportining ustun darajada rivojlanishiga, xalqaro transport kommunikatsiyalarining takomillashuviga, infratuzilmalar tizimining modernizatsiyalashuviga, transport vositalari aylanmasining tezlashuvi, aloqalarda qayta yuklamay aralash yuk tashish intensivligi ortishiga, transport vositalari va xizmatlarning mos ixtisoslashuviga, xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan yirik ixtisoslashgan transport-taqsimlash markazlarini tashkillanishiga olib kelmoqda.

Transport tizimida yuqoridagi o‘zgarishlar asosida yuk tashish tarkibida jiddiy siljishlar iste‘molchi tovarlari qiymati tarkibiga o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda. Transport tizimi rivojlanish jarayonida 2 bosqich mavjud:

a) kapitalning dastlabki jamg‘arilish davri va *industrial rivojlanish bosqichida* yuk tashish hajmida nisbatan arzon yuklar 30-40% va undan ko‘proq bo‘lib, transport tarmoqlarining asosiy vazifasi transportda yuk tashish xarajatlari hissasini pasaytirishdan iborat edi. Bunga transport vositalari yuk ko‘tarish quvvatlarini oshirish va yuk hajmlarini iqtisod qilish orqali erishildi;

b) *postindustrial bosqichga* o‘tish transport tarmoqlari oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo‘ydi. Bundan tashqari, transport tizimini tubdan o‘zgartirmay uni taqsimlash – logistika tizimiga aylantirmay dunyo xo‘jaligining postindustrial bosqichga o‘tishi mumkin emas.

Bu jarayon ishlab chiqishni takomillashtirilishi va tabaqalanishi, xalqaro savdoda tovarlar tarkibi modernizatsiyasi bilan, ya‘ni qazib beruvchi tarmoqlar va ishlov beruvchi sanoatning birinchi tarmoqlari hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hissasining qisqarishi bilan bog‘liq. Ayni vaqtda yuksak texnologiyaga asoslangan ishlov beruvchi sanoat

mahsulotlari qiymati keskin ortib bormoqda, tobora ko‘proq-aniqlik, ishonchlilik, kompaktilik, xavfsizlik, transport to‘rining istagan joyida ma’lumotlar olish, transport xizmatining javobgarligi va moslanuvchanligi, yuklarni yetkazib borish vaqtini optimallashtirish, jo‘natish oraliqlari kabi omillar hatto ishlab chiqarish xarajatlarini ham ikkinchi o‘ringa surib qo‘ymoqda. Yuk tashishning aniq o‘z vaqtida amalga oshirish tamoyili tufayli mijoz talabining ustuvorligi ta’minlanmoqda.

Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilmasidagi tashkiliy o‘zgarishlarda doimiy rivojlanib va murakkablashib borayotgan bozor ehtiyojlariga moslanuvchan kichik va o‘rta biznesning (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish) roli katta bo‘lmoqda. Ana shu o‘zgarishlar ta’sirida shakllangan transport-logistika tizimi o‘zida intermodel (tarmoqlararo) tizimni ifoda etadi, ya’ni aniq yukni bir yoki bir nechta transport turida eltib beradi. Shuning uchun unchalik katta bo‘lmagan partiyada qimmatbaho yukni oldingi ommaviy yuk tashishda bo‘lgani kabi arzon tashib bergan holda yukning but saqlanishini ta’minlash masalasi ham yuzaga keladi. Xilma-xil yuklarni standartizatsiyalash orqali transport yuklarning yangi tarkibiga moslashdi.

XX asrning 50-60 yillardagi ommaviy yuklarni tashishda yuqori samara bergan «ko‘lamdagi iqtisod» tamoyilini bosh yuklarni tashish standartizatsiyasiga tadbiq qilish yuk jo‘natishlarni yiriklashuvi va oqimlarining barqarorlashuviga olib keldi. Konteynerlardan foydalanish standart transport vositalariga amalda transport jarayonlari uchun yangi talablarni qo‘ydi. Shunday qilib, konteynerlar asosida transport vositalari va jihozlari standartizatsiyalash butun transport tizimini, qolaversa, dunyo xo‘jaligini qayta qurishga olib keldi. Shuningdek, konteynerlashtirishga – yirik transport tugunlari, ayniqsa dengiz portlari katta ta’sir ko‘rsatdi. Transport tizimi ishlab chiqarish va taqsimlash tizimining integratsiyasini va intermodel transport xizmatiga bo‘lgan ehtiyojning qondirilishi va samaradorligini ta’minlamoqda. Shunday qilib, intermodelizm bugungi kunda xalqaro bozor tizimining markaziy bo‘g‘ini bo‘lib qolmoqda.

Yirik olim N.N.Baranskiy fikriga ko‘ra, *transport to‘ri – iqtisodiy geografik jihatdan muayyan hududning transport tugunlari, markazlari va yo‘l tarmog‘i, barcha narsaning asosi bo‘lib, u hududning shaklga ega bo‘lishini ta’minlaydi, muayyan hududni birlashtiradi.* Transport sanoat va qishloq xo‘jaligi bilan birga ishlab chiqarish va uni hududiy tashkil qilishning asosi hisoblanadi. U xo‘jalik tizimining «qon tomiri»,

harakatlantiruvchi kuchi sifatida mamlakat va rayonlar iqtisodiy aloqalarini amalga oshiradi, ularning geoiqtisodiy yaxlitligini taʼminlaydi. Transportsiz iqtisodiy geografiyaning negizi boʻlgan hududiy mehnat taqsimoti, mahsulotni ishlab chiqargan rayon bilan uni isteʼmol qiladigan joy orasida aloqa boʻlmaydi, hududiy ishlab chiqarish majmualari ham shakllanmaydi. Umuman olganda, uslubiy tizim va majmuani transport aloqalarisiz tasavvur qilish qiyin.

Yuqoridagi makroiqtisodiyotning uch asosiy tarmogʻini hududiy tashkil qilish shakli oʻziga xos «geografik geometriya»ga ega, iqtisodiy makonda sanoat alohida nuqtasimon, qishloq xoʻjaligi maydon (areal) koʻrinishiga ega boʻlsa, transport hududni kesib oʻtuvchi va nuqtalarni birlashtiruvchi kesim, chiziq, «oʻq» vazifasini oʻtaydi. Ana shu uch xil shakllarning birligi geoiqtisodiy makon, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning tashqi koʻrinishi, mintaqaviy iqtisodiyot tasvirini aks ettiradi.

Transportga turli maʼnoda qarash mumkin. Masalan, u xoʻjalikning alohida tarmogʻi, ishlab chiqarishning hududiy tarkibiga kiruvchi toʻrt elementlardan biri. Shu manoda transport nafaqat vosita, balki muhim makroiqtisodiyot tarmogʻi hisoblanadi. Ayni vaqtda, transport ishlab chiqarish infrastrukturasi asosi hamdir. Bu manoda transport ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va hududiy tashkil qilishning omili ekanligi koʻrinib turibdi. Demak, transportni tarmoq hamda vosita – omil koʻrinishida oʻrganish mumkin.

Takidlash lozimki, ayrim hollarda transportning ana shu ikki funktsiyasi chalkashtirilib yuboriladi, uning makroiqtisodiyot tarmogʻi va infrastruktura vazifasini bajarishi orasidagi farq sezilmay qoladi. Vaholanki, ikkinchisi birinchisi uchun xizmat qiladi, sharoit yaratadi.

Transportning ishlab chiqarishni joylashtirishdagi ahamiyati gʻoyat katta. Bu omilga birinchi boʻlib nemis olimi A.Veber oʻzining «sanoat shtandorti» nazariyasida katta oʻrin bergan. Darhaqiqat, ishlab chiqarishni joylashtirishda «qulay» yoki «noqulay» degan tushunchalarning oʻzi aksariyat hollarda transport omili orqali ifodalanadi; qulaylik – arzon demakdir, arzon esa transport jihatidan qulaylikni, yoʻl sarfi – chiqimining kamligini anglatadi.

Toʻgʻri, fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishda xomashyo va yoqilgʻi sarfining kamayishi, temiryoʻllarning elektrlashuvi, turli xil quvvur transporti, yuqori quvvatli elektr uzatash tarmoqlari, dengiz transportini konteynerlashtirish va hokozalar transportning ishlab chiqarishni joylashtirishdagi rolini biroz boʻlsada susaytiradi.

Ammo, shunga qaramasdan, transportning mahsulot qiymati shakllanishida, tannarxida hissasi katta. Xususan, bozor iqtisodiyoti sharoitida, talabning individuallasuvi, mahsulot turlarining ko‘payishi va ularni o‘z vaqtida yetkazib berish transport ahamiyatini yanada oshiradi.

Transport bilan aholi joylashuvi, shaharlar rivojlanishi o‘rtasida katta aloqadorlik mavjud; biri ikkinchisini taqozo qiladi, biri ikkinchisiz bo‘lmaydi. Odatda, yo‘llar shaharlarga olib boradi, shaharlardan tashqariga yo‘llar panjasimon taraladi, tarqaladi; shaharlar transport tugunlariga aylanadi.

N.N.Baranskiy yo‘llar va shaharlar ishlab chiqarishning hududiy tarkibi va tizimi, rayon va mamlakatlar xo‘jaligining «qovurg‘asi», o‘zagi sifatida ta‘riflaganda hech qanday mubolag‘a yo‘q. Chindan ham hududning ichki tuzilishi «rentgen nuri» asosida kuzatilganda bizning ko‘z o‘ngimizda aynan ana shu yo‘llar va shaharlar orqali gavdalanadi.

Transportning shaharlar aglomeratsiyasi, shahar atrofi xo‘jaligida ham ahamiyati beqiyos. Amerikaliklarni hozirgi kunda shahar atrofi, shahar yaqinida yashovchi xalq, deb ta‘riflashadi. Sababi, bu yerda urbanizatsiyaning yuqori bosqichi – suburbanizatsiya tez rivojlanmoqda.

Yo‘llar yangi o‘zlashtiriladigan hududlarga birinchi bo‘lib kirib keladigan infratstruktura elementidir. Yo‘llar qazilma boylik konlariga boradi, ularni ishlab chiqarish markazlari bilan ulaydi, bog‘laydi; sanoat parklarini shakllantiradi. Xullas, transportsiz hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim yoki majmua vujudga kelmaydi.

Transport turining joylanishi, zichligi va shakli hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasining muhim ko‘rsatkichidir. Masalan, radial-aylana, to‘rsimon shakl, odatda, rivojlangan rayonlarda kuzatiladi. Agar hududning faqat chekka qismlari transport bilan ta‘minlangan bo‘lsa, demak, hududning ichki qismi tabiiy sharoiti o‘zlashtirish uchun noqulay (Sibir, Uzoq Sharq, Qozog‘iston, Turkmaniston va h.k.). Ko‘pincha yo‘lning, transportning turlarini, joylanishiga qarab hududning xo‘jalik tarkibi, mujassamlashuvi va ixtisoslashuvini aniqlash mumkin.

Bazan temiryo‘l va avtomobil yo‘llari, quvur transporti, elektr uzatuvchi tarmoq va kanallar bir-biriga paralell holda joylashadi, ikki yirik markaz orasida serqatnov «koridor» vujudga keladi. Yo‘l bo‘yidagi aholi manzilgohlarining kichrayib borishi markazdan uzoqlashishni, yiriklashuvi – boshqa markazga yaqinlashuvdan darak beradi.

16.2-§. Transport turlari joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar

Dastlabki davrlarda aholi transportning juda oddiy usullaridan foydalangan, yuklarni yog'ochlarda, zanbillarda, g'ildiraksiz aravalarda tashigan bo'lsa, keyinchalik, transport vositasi sifatida hayvonlardan foydalanganlar, daraxt po'stloqlarida suzganlar. G'orlardan topilgan qadimgi lotin bitiklarida «Viaest vita», ya'ni yo'l-demak, hayot kabi so'zlarni uchratish mumkin. Shuningdek, ilk sivilizatsiyalarda Qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston va Mesopotamiyada ilk qattiq qoplamali tosh yo'llar vujudga kelgan. Dengiz yo'llari esa miloddan avvalgi IV-II ming yilliklarda Qadimgi Misr, Finikiya, Yunoniston, Xitoy va Hindistonda shakllanib, rivojlana boshlagan. Transport turlarining vujudga kelish holatini davrlashtirish nisbiy ko'rsatich bo'lsa-da, ko'plab jumboqli masalalarga barham berishda ahamiyatli hisoblanadi.

Mamlakat va rayonlar, shaharlarning iqtisodiy geografik o'rni, salohiyat va imkoniyatlarini amalga oshiruvchi ham transportdir (16.1-jadval). U hududlarni bir-biri bilan bog'laydi, mintaqa, milliy va jahon xo'jaligini mukammal sistema tarzida shakllantiradi. Bir vaqtlar N.N.Baranskiy: «Volga Rossiyani Osiyo mamlakatiga, Dnepr O'rta dengiz mamlakatiga aylantiradi», deb aytgan edi. Agar bizning Amudaryo va Sirdaryo ham Dunyo okeaniga bevosita chiqqanda edi, ehtimol o'lkamizning geosiyosiy mavqeyi, xo'jaligi va madaniyati yanada boshqacha bo'lar edi.

16.1-jadval

Transport tizimlarining tasnifi

| | | |
|--------------------------------------|--|-----------|
| I. Turlariga ko'ra | quruqlik | temiryol |
| | | avtomobil |
| | | quvur |
| | suv | dengiz |
| | | ichki suv |
| | havo | xalqaro |
| mahalliy | | |
| II. Vazifasiga ko'ra | umumiy foydalanishdagi (jamoat transporti) | |
| | umumiy bo'lmagan foydalanishdagi (taksi xizmati) | |
| | shaxsiy foydalanishdagi | |
| III. Ish bajarish xususiyatiga ko'ra | yo'lovchi tashuvchi | |
| | yuk tashuvchi | |

Transport, ayniqsa, tashqi savdo bilan aloqador. Binobarin, mamlakatning savdo aloqalari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar negizida transport tizimi yotadi. Xuddi shu o'rinda, milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan erkin iqtisodiy mintaqalar, texnopolislarni vujudga keltirishda transport rolini ta'kidlash joiz.

Shunday qilib, ijtimoiy va iqtisodiy hayotning biror qismi yo'qki, u transport bilan bog'liq bo'lmasa, sanoat, qishloq xo'jaligi, aholi joylashuvi, aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarining hududiy tashkil etilishi transport omiliga asoslanadi. Qadimda transport, xususan, dengiz va daryo transporti ko'p jihatdan *tabiiy sharoit* omiliga bog'liq bo'lgan. Hozir ham qit'a va mamlakatlarning qirg'oq chizig'i, shakli tabiiy holda portlarni (bandargohlarni) qurish nuqtai nazaridan qulay va noqulay bo'lishi mumkin.

Temiryo'l transportining tabiiy omillarga bog'liqligi boshqalarga qaraganda ancha kam. Dunyoning ayrim mamlakatlarida (Boliviya, Peru) temiryo'llar dengiz sathidan 4700–4800 metr balandlikda joylashgan. Odatda, tog' mintaqalarida temiryo'llar daryo bo'ylab, ba'zi joylarda tunellar orqali o'tadi, murakkab sharoitda tor izli yo'llar quriladi.

Temiryo'l va avtomobil yo'llar qurilishida ko'priklar ham katta ahamiyatga ega. Ko'priklarni qurish esa tog' yoki tekislik daryolarda o'ziga xos xususiyatga ega. Tog' daryolarida ko'priklar uncha uzun emas, tekislikda esa ular uzun bo'lib, buning uchun uning tayanchi qirg'oqning qattiq jinslaridan iborat qismiga qo'yiladi. Umuman, temiryo'llarni qurish katta vaqt va mablag'ni talab qiladi, ammo ular shunga muvofiq uzoq muddat xizmat qiladi.

Tabiiy sharoit komponentlari (shamol, yog'in-sochin, bulut, tuman) avtomobil, havo va dengiz transportiga ancha ta'sir ko'rsatadi. Tuproq va uning fizik xususiyatlari, gidrogeologik sharoit, ayniqsa, qattiq qatlamli avtomobil yo'llarini qurishda e'tiborga olinadi.

Xo'jalik va aholi joylashuvi ham transport turi va tarkibiga ta'sir etadi. Jumladan, tog'-kon, og'ir sanoat rayonlarida temiryo'l, qishloq xo'jaligi rayonlarida avtomobil transporti, o'rmon xo'jaligida daryo transporti katta ahamiyatga ega bo'ladi. Sanoat va qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlangan, aholi, zich joylashgan voha va vodiylarda, shahar atrofida, rekreatsiya rayonlarida transport tizimi shunga mos ravishda mukammal holda shakllanadi.

Transportning joylashuviga *siyosiy geografik omil* ham ta'sir qiladi. Masalan, sobiq Ittifoqning tarqalishi va yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi natijasida ichki chegaralar tashqi davlat chegarasiga aylandi, mamlakat ichki qismlarini bog'lovchi transport tizimini shakllantirish zaruriyati tug'ildi. Chunonchi, O'zbekistonda yo'l mustaqilligiga erishish maqsadida G'uzor–Boysun–Qumqo'rg'on, Navoiy–Uchquduq–Nukus temiryo'llari qurildi, «Bir makon – bir yo'l» doirasida yo'llar to'ri hosil qilinib, magistrallashtirilmoqda.

Transport to'rining joylashishida mamlakat *hududining kattakichikligi*, tashqi qiyofasi (konfiguratsiyasi) katta mazmunga ega. Agar mamlakat yoki rayon o'zidan kattaroq hududning markazida joylashgan bo'lsa, u holda uning markaziyligi transport aloqalarda o'z ifodasini topadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasini olaylik: u shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa uzoq masofada cho'zilgan, Markaziy Osiyoning qoq o'rtasida joylashgan. Demak, O'zbekiston qo'shni davlatlar bilan aloqa qilishda qulay imkoniyatlarga ega. Ayni vaqtda, hududning kesuvchanligi, tranzitligi ham geografik o'ringa bog'liq

Agar mamlakat dengiz yoki okean bo'yida joylashgan bo'lsa, unda suv va quruqlik transportining uyg'unlashuvi talab qilinadi; dengiz transporti tashqi aloqalarni, daryo yoki quruqlik transporta tashqi aloqalarni ichki transport tizimi bilan tutashtiradi.

O'z navbatida, quruqlik transporti ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishda turli xil geometrik shakllarni vujudga keltiradi. Masalan, O'zbekiston xaritasida Guliston–Xovos–Jizzax, Samarqand–Buxoro–Qarshi uchburchagi, Farg'ona halqasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Aynan, ana shu shakllar mamlakat milliy va mintaqaviy iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Transport turlari, xususan avtomobil transportini joylashtirishga ekologik omil ham katta ta'sir qiladi. Malumki, hozirgi kunda, ayniqsa shahar ekologik muhitining ifloslanishida avtomobillar qatnovining o'rnini yuqori. Avtomobil va samolyot qatnovlari muhitni shovqin jihatidan ham «ifloslantiradi». Bu holat ayniksa yirik aeroport o'rnashgan joylarda juda sezilarli.

16.3-§. Transportning asosiy ko'rsatkichlarini baholash

So'nggi yillarda transport turlari ko'payib va rivojlanib bormoqda, ularning joylanishi ham o'zgarmocda, An'anaviy temiryo'l va avtomobil transporti, suv (daryo, dengiz va okean), havo transporti

bilan bir qatorda quvur transporti ham rivojlanib bormoqda. U ko‘pincha neft-gaz sanoati mavjud bo‘lgan hududlardan turli iste‘mol rayonlariga tarqalgan. Taraqqiy etgan mamlakatlarda esa quvurlarda hatto qattiq jinslar – temir rudasi, ko‘mir kabilar ham yuboriladi («pulpoprovod»).

Barcha transport turlarining ikki asosiy vazifasi bor: yo‘lovchi va yuk tashish. Yuk tashishda transport tizimida tashiladigan mahsulot yoki xomashyoning transportabelligi, masofasi va tarkibi, qiymati hisobga olinadi. Dengiz (okean) transporti eng arzon tarmoq hisoblanadi. Undan keyingi o‘rinda yirik daryolardagi transport turadi. Temiryo‘l transporti ham bu borada ancha arzon hisoblanadi.

Yo‘lovchi tashish aylanmasini hisoblash

Yo‘lovchi tashish aylanmasi – yo‘lovchi tashishga mo‘ljallangan har qanday transport tarmog‘ida tashilgan yo‘lovchi (P) soni va yo‘lovchi tashish masofasi (D) umumiy qiymati bilan ifodalanuvchi birlik hisoblanadi hamda quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$P_{\uparrow\downarrow} = P \cdot D$$

Bu yerda, $P_{\uparrow\downarrow}$ = yo‘lovchi tashish aylanmasi (kishi/km);

P = transport tarmoqlarida tashilgan yo‘lovchilar soni;

D = yo‘lovchi tashish masofasi.

Yo‘lovchi aylanmasining qiymati, ko‘p hollarda, nisbiy ko‘rsatkichga ega. Chunki yo‘lovchilar sonini bilish uchun chiptalar soni yoki boshqalardan foydalaniladi. Lekin bu hamma hududda 100% aniq birlikni ko‘rsatmaydi, ayniqsa, oldingi yillarda. Shunday bo‘lsa-da, o‘rtacha yo‘lovchi sonidan kelib chiqqan holda statistik ma‘lumotlar shakllantiriladi.

Yuk tashish aylanmasini hisoblash

Yuk aylanmasi – har qanday transport turida yuk tashish masofasiga (D) umumiy tashilgan mahsulot (L) bilan ifodalanuvchi birlik hisoblanadi va quyidagi formula bilan ifodalanadi:


$$L_{\uparrow\downarrow} = D \cdot L$$

Bu yerda, $L_{\uparrow\downarrow}$ = yuk aylanmasi (tonna/km);

D = yuk tashish masofasi;

L = umumiy tashilgan yuk miqdori.

Yuk aylanmasi, ayniqsa, yuk tashish hajmi katta bo'lgan transport tarmoqlarida katta bo'ladi. Quruqlikda yuk tashish hajmi bo'yicha temiryo'l transporti eng katta ulushga ega bo'lsa-da, jahonda yuk tashish aylanmasida dengiz transportining o'zni va ahamiyati yuqoridir.



16.1-rasm. Jahon bo'yicha yuk tashishda ayrim transport turlarining ulushi

Yuk tashishdagi transport turlari nisbati xo'jalik tarmoqlaridagi yuklar tarkibi va ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiyasini ifodalaydi (16.1-rasm). Hozirgi vaqtda jahonda yangicha holat, keskin rivojlanishlar kuzatilayotgani bois jahon yuk aylanmasi ham ayrim turlar bo'yicha biroz o'zgargan. Yuk tashish aylanmasidan kelib chiqqan holda, transportning bajargan ishini ham baholash mumkin, ya'ni transportning ishi – bu qancha yukni necha kilometr masofaga tashilgani bilan ifodalanadigan miqdordir.

Temiryo'llar zichligini aniqlash

Temiryo'l transporti – quruqlikdagi yuk tashish hajmiga ko'ra eng yirik transport tarmog'idir, ya'ni u transportning yuk va yo'lovchilarni parovoz, teplovoz va elektrovozlar bilan temiro'lda tashuvchi turidir.

Hozirgi paytda jahonda magnitli poyezdlar ham ishlab chiqarilmoqdaki, ular temiryo'l relslariga tegmay, havoda «uchadi». Lekin shunday bo'lsada, ko'pchilik mintaqalarda esa oddiy poyezdlardan foydalaniladi. Jahonda temiryo'llarning umumiy uzunligi 1,5 mln kilometrni tashkil qiladi. Avtomobil yo'llari mamlakatning «qon tomiri» hisoblansa, temiryo'llar uning «qovurg'asi»dir. U yoki bu hududda temiryo'llarning holadi, zichligi va zamonaviylashtirilganidan ushbu hududning rivojlanish «nafasi» sezilib turadi.

Demak, temiryo‘llar zich va holati yaxshi joy tezroq rivojlanadi. Chunki uning tezligi katta, ob-havo holatiga kam bog‘liq va, eng asosiysi, yuk tashish tannarxi past.

Umuman olganda, temiryo‘llar zichligi deb, 100 km kv maydonga to‘g‘ri keluvchi temiryo‘l uzunligiga aytiladi va bu temiryo‘llar uzunligining hudud maydoniga nisbati hisoblanadi. Temiryo‘llar zichligini topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$T_z = \frac{100 \cdot \Sigma T_{uz}}{\Sigma G}$$

Bu yerda, T_z = transport tarmog‘i – temiryo‘llar zichligi;

100 = zichlik aniqlash uchun olingan birlik maydoni (km²);

ΣT_{uz} = aniqlanayotgan hududdagi transport yo‘lining (temiryo‘l) umumiy uzunligi;

ΣG = aniqlanayotgan hududning umumiy maydoni (ground).

Hisoblashlarda ba‘zan 100 km kv emas, ba‘zi hollarda 1 km kv, 10 ming km kv bo‘yicha ham hisoblashlarni amalga oshirish mumkin.

*Transport yo‘lining uzunligi (avtomobil yo‘li) misolida
«hududiylik koeffitsiyenti»ni aniqlash*

Geografiylik yoki hududiylik koeffitsiyenti – joyning (mamlakat, mintaq va h.z.) ichki tafovutlari, uning rang-barangligini ko‘rsatadi. Odatda, u eng yuqori va eng past ko‘rsatkichlar nisbati orqali belgilanadi va «karra» yoki «marta» so‘zlari bilan baholanadi va hududning tabiiy va iqtisodiy geografik jihatdan ichki hududiy tafovutlarga ega ekanligini ifodalaydi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘yicha qattiq qoplamali avtomobil yo‘llarining uzunligi bo‘yicha eng katta ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasiga (4187 km) to‘g‘ri kelsa, eng kichik qiymat Sirdaryo viloyatiga (1447 km) xos. Bunda hududiylik koeffitsiyentini topish uchun quyidagi tartibda hisoblash amalga oshiriladi:

$$\text{Hududiylik koeffitsiyenti} = \frac{\text{Eng katta ko'rsatkich}}{\text{Eng kichik ko'rsatkich}}$$

Bu esa mamlakat tabiiy va iqtisodiy geografik jihatdan juda katta ichki hududiy tafovutlarga ega ekanligidan dalolat beradi. Ushbu mezondan foydalanib, O‘zbekistonda qattiq qoplamali avtomobil

yo'llarining uzunligi misolda hududiylik koeffitsiyenti quyidagicha hisoblanadi:

$$K = \frac{4187 \text{ km}}{1447 \text{ km}} \approx 3$$

Keltirilgan misolda, Qoraqalpog'iston Respublikasida qattiq qoplamali avtomobil yo'llarining uzunligi Sirdaryo viloyatiga nisbatan qariyb 3 barobar ko'p bo'ladi. Aytish joizki, «hududiylik koeffitsiyenti» qancha kichik bo'lsa, ichki hududiy tafovutlar oz bo'ladi va, aksincha.

Transportning o'zining ham hududiy majmualari mavjud. Bunga transport tugunlari misol bo'la oladi. Yirik transport markazi va tugunlarida o'ziga xos obyektlar (tamirlash zavodlari, omborxonalar, bevosita transport bilan bog'liq qurilish materiallari va boshqa sanoat korxonalari) joylashadi.

16.4-§. Transport va atrof-muhit muammosi

Transport tizimining rivojlanib borishi atmosferaga, o'simlik va tuproq qoplamiga, okean, dengiz, daryo va yer osti suvlariga ta'sir etmoqda, inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazmoqda. Ayniqsa, quruqlik transporti tizimida avtomobil, temiryo'l va quvur transporti o'ziga xos ravishda atrof-muhitni ifloslantirishga sabab bo'lishi bilan ajaralib turadi. Avtomobil transporti is gazi (CO), azot ikki oksidi (NO₂) va uglevodorod (CH₄) bilan birgalikda g'oyat zaharli bo'lgan qo'rg'oshin (Pb) chiqaradi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda atmosfera havosini ifloslanishining 40-50%, shaharlar va shahar aglomeratsiyalarida, urbanizatsiyalashgan mintaqalarda esa 80% avtomobil transportiga to'g'ri keladi. Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, 1 ta avtomobil o'rtacha yiliga 4 tonna oksigenni havodan olib, tashqi muhitga 800 kg is gazi, 400 kg azot oksidi va 200 kg zaharli moddalar, shu jumladan, uglevodorodlar chiqarib tashlaydi.

Agar XXI asrda ham avtomobillashuv jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlanishini e'tiborga olsak, bu g'oyat keskin muammolardan biri ekanligi ayon bo'ladi. Shuning uchun ham yaqin kelajakda atrof-muhitni eng oz ifloslantiradigan alternativ yoqilg'i manbalaridan foydalanish xalqaro avtomobillashuv jarayonining bosh yo'nalishlaridan biridir. Temiryo'l transporti ham atrof-muhitga qattiq zarrachalar chiqarsa, quvur transportida vaqti-vaqti bilan bo'lib turadigan halokatlari oqibatida minglab tonna neft va neft mahsulotlari oqib chiqishi tuproq, o'simlik va

hayvonot dunyosi, yer osti suvlariga, ayniqsa oqar suvlarga zarar yetkazib murakkab ekologik holatlarni yuzaga keltirmoqda.

Bundan tashqari avtomobil, temiryo‘l va havo transporti shovqini ham aholi eshitish kobiliyatiga ta’sir qilib, turli kasallik va «stress» holatlarni yuzaga keltirmoqda. Yirik shahar va shahar aglomeratsiyalarida «shovqin ifloslanishi» tobora keskin muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Suv transporti gidrosferani (okean, dengiz, daryo va ko‘llar) ifloslantiruvchi bosh manbalardan biridir. Ayniqsa, xalqaro ibtiodiy aloqalarda neft va neft mahsulotlari tashuvchi tanker va super tankerlar halokati oqibatida minglab tonna neft okean va dengiz suvlarini katta hududlarda yupka plyonka hosil qilib ko‘plab olishi bu hududlar biofondiga tuzatib bo‘lmas zarar yetkazmoqda. Atmosfera ifloslanishiga tobora havo transporti ham «hissa» kushmoqda.

Transport tizimi, ayniqsa, qazib olinadigan yoqilg‘iga bog‘liq bo‘lib, atrof-muhitga bir qator zararli ta’sir ko‘rsatadi:

– *issiqxona gazlarining chiqarilishi* benzin va dizel kabi transport vositalarida ishlatiladigan yoqilg‘ilarning sarflanishini natijasida atmosferaga karbonat anhidrid, metan va azot oksidi kabi gazlar chiqariladi. Bu gazlar miqdorining ortib borishi global iqlim ilishi va «issiqxona samara»sining tezlashishiga o‘z «hissa»sini qo‘shadi.

– *havoning ifloslanishi* avtotransport vositalaridan chiqadigan turli xil ifloslantiruvchi moddalar, jumladan, oltingugurt oksidi (SO_x), zarrachalar (PM), uchuvchi organik birikmalar (VOC_s) va uglerod oksidining (CO) chiqarilishi bilan vujudga sodir bo‘ladi. Ushbu ifloslantiruvchi moddalar smog (tutun) hosil bo‘lishiga, natijada, nafas olish kasalliklari va boshqa sog‘liqqa salbiy ta’sir etuvchi muammolarga olib keladi.

– *sun’iy shovqinning kuchayishi*, ayniqsa, seliteb (shahar, qishloq) landshaftlarda transport tarmoqlaridan chiqadigan tovushlar orqali kelib chiqadi. Bu nafaqat insonlarning asab tizimiga, balki ekotizimdagi boshqa barcha organizmlarning tinch yashash muhitiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Natijada, bu jarayon orqali kishilarda asab kasalliklari va uyquning buzilishi, eshitish qobiliyatining pasayishi, yurak-qon tomir kasalliklari, xotirani jamlay olmaslik (kognitiv buzilish) kabi holatlar kelib chiqadi.

– *transport halokatlari* ko‘plab ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, bu holat Dunyo okeanining neft mahsulotlari bilan ifloslanishiga olib keladi hamda suv yuzasi neft pardasi bilan qoplanib,

bug‘lanish darajasi, dengiz organizmlarining yashash muhiti va quyosh nurining yutilishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

– *resurslarning kamayishi* yoqilg‘i va rudalarning transport tizimlarini barpo etishga sarflanishi orqali namoyon bo‘ladi. Bu orqali, tabiiy boyliklarning zaxirasi tobora qisqarib boraveradi. Shu jihatdan, metall mahsulotlarini qayta ishlash hamda ekologik «toza» yoqilg‘i turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

– *ekotizimning o‘zgarishi* transport tizimlarini barpo etish natijasida yovvoyi organizmlar yashash muhitining qisqarishi bilan ko‘zga tashlanadi. Transport yo‘llari va unga xizmat qiluvchi infratuzilmaning barpo etilishi flora va fauna arealining qisqarishi (ayrimlarining yo‘q qilinishi), parchalanishi va biologik xilma-xillikning yo‘qolishiga olib keladi.

Umuman olganda, transport jamiyat uchun eng muhim harakatlanish vositasi, iqtisodiyot «qon tomiri» bo‘lsa-da, uni to‘g‘ri tashil etish, atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Transport turlari natijasida kelib chiqadigan zararli ta'sirlarni yumshatishga qaratilgan sa'y-harakatlar muqobil yoqilg‘i (masalan, elektroquvvat, vodorod yoki bioyoqilg‘i)ga o‘tish, yoqilg‘i samaradorligini oshirish, jamoat transportini rag‘batlantirish, qat‘iy emissiya standartlarini joriy etish va barqaror transport infratuzilmasiga sarmoya kiritishni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun ham bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan va bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda «transport va atrof-muhit» muammosi bilan bog‘liq jiddiy ilmiy-tadqiqot ishlari va chora-tadbirlar majmuasi amalga oshirilmoqda.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Transport geografiyasida uning qaysi jihatlariga e‘tibor qaratiladi?*
- 2. Transport turlarini hududiy joylashtirishda qaysi omillar muhim rol o‘ynaydi?*
- 3. Yuk va yo‘lovchi aylanmasini aniqlashning iqtisodiy ahamiyatini izohlang.*
- 4. Kelajakda transport tarmoqlarining tarkibida qanday o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin?*
- 5. Transport tarmoqlari va ularning faoliyati natijasida atrof-muhitga qanday salbiy ta‘sir o‘tkaziladi?*

17-BOB. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

Mavzu annotatsiyasi. *Ushbu mavzu tashqi iqtisodiy aloqalarni tashkil etishning geografik jihatlari, tashqi savdo aylanmasi (eksport, import), xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro iqtisodiy integratsiya masalalarini yoritishga bag'ishlangan. Shuningdek, tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shakllari va ko'rinishlari savdo, turizm, ilmiy-texnikaviy hamkorlik, moliya-kredit, transmilliy korporatsiyalar misolida tahlil etilgan.*

Tayanch so'z va iboralar: *tashqi iqtisodiy aloqalar, eksport, import, tashqi savdo aylanmasi, savdo kvotasi, savdo balansi, bojxona tizimi, chegara oldi savdosi.*

Reja:

17.1. Tashqi iqtisodiy aloqalarning nazariy asoslari va geografik jihatlari.

17.2. Tashqi iqtisodiy aloqalarning turlari.

17.3. Xalqaro iqtisodiy integratsiya.



17.1-§. Tashqi iqtisodiy aloqalarning nazariy asoslari va geografik jihatlari

Jahon xo'jaligi g'oyat murakkab va barqaror rivojlanib borayotgan o'ziga xos qarama-qarshiliklarga ega tizimdan iborat. Bugungi kunda xalqaro iqtisodiy munosabatlar jahon mamlakatlari taraqqiyotida juda katta rol o'ynamoqda. Bu munosabatlarning mutlaqo yangi sifat bosqichi, tovar va xizmatlarning xalqaro savdosi, kapitallar va ishchi kuchi harakati, mamlakatlararo ishlab chiqarish kooperatsiyasi, fan-texnika tizimidagi ayirboshlashlar, xalqaro valyuta munosabatlari, turizm tobora rivojlanishi bilan birgalikda, chuqurlashib bormoqda.

Postindustrial jamiyat sharoitida ishlab chiqarish ixtisoslashuvi yanada takomillashib, xalqaro mehnat taqsimoti tabaqalashmoqdaki, ishlab chiqarilgan mahsulotlar tobora detallashib va «manzilli» bo'lib bormoqda. Ishlab chiqarishning nafaqat tayyor mahsulotlarga, balki detallarga, yarim fabrikatlarga, ishlab chiqarishning ayrim bosqichlari, elementlariga ixtisoslashuvi kuchaymoqda. Ixtisoslashuv asosida nafaqat miqdoriy ko'rsatkichlar (ko'proq va nisbatan arzon narxlarda), balki

sifat ko'rsatkichlari (ilm talabliligi, ishonchli va mustahkamligi, «toza»ligi va boshqalar) inobatga olinmoqda. Hozirgi zamon xalqaro iqtisodiy aloqalari g'oyat xilma-xil ekanligi va bu jarayon kengayib, chuqurlashib borayotganligi bilan ajralib turadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar – bu turli mamlakatlarning iqtisodiy sohadagi o'zaro aloqasi va munosabatlaridir. Iqtisodiy aloqalar, asosan, tovarlar va xizmatlar savdosi, investitsiyalar, moliyaviy operatsiyalar, texnologiya, ilm-fan sohasidagi hamkorlik va madaniy almashinuv orqali amalga oshadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar o'z maqsad, vazifa va tamoyillariga ega bo'lib, ularni amalga oshirish uchun turli vositalardan foydalanadi. Davlat tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatlar amalga oshiradigan tashqi iqtisodiy aloqalar ijobiy yoki salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu jihatdan, tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy jihatlari, ularning afzallik va xavflari hamda zamonaviy dunyoda rivojlanish tendensiyalarini chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy **maqsadi** mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush-tarzining farovonligini oshirishga yo'naltirilgan. Bunga tovar va xizmatlar bozorlarini kengaytirish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, yangi texnologiya va bilimlardan foydalanish, xalqaro nufuz va ta'sirni kuchaytirish orqali erishish mumkin. Jumladan:

– *iqtisodiy rivojlanish*: mamlakatning iqtisodiy o'sishi va rivojlanishini rag'batlantirishga yo'naltirilgan maqsad. Bunga xalqaro savdo hajmini oshirish, xorijiy sarmoya, texnologiya va tajribani jalb etish hisobiga erishiladi;

– *iste'mol bozorini kengaytirish*: bozorlarni kengaytirish va yaratilgan mahsulotga yangi iste'molchilarni topish imkonini berishga yo'naltirilgan maqsad. Bu esa eksport hajmini oshirish, tovar va xizmatlar eksportidan tushadigan daromadni oshirishga xizmat qiladi.

– *iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish*: mamlakat iqtisodiyotini xilma-xillashtirish, alohida tarmoqlar yoki bozorlarga qaramlikni kamaytirishga, yangi tarmoq va tarmoqlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratishga yordam beradi;

– *raqobatbardoshlikni rivojlantirish*: mamlakatning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Ular eng yaxshi texnologiya, sifatli mahsulot ishlab chiqarish usullari va biznesni tashkil

etishdan foydalanish, shuningdek, boshqa davlatlar tajribasini o'rganish imkonini beradi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar vazifalarining mohiyati esa iqtisodiyotni rivojlantirish, xalqaro munosabatlarni mustahkamlash va globallashtirish va xalqaro iqtisodiy integratsiya sharoitida mamlakatning barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. Chunonchi, xorijga yo'naltirilgan vektorli munosabatlar bir qator asosiy **vazifalari** quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan:

1) xorijiy sarmoyalarni jalb qilish – marketing va reklama tadbirlarini o'tkazish natijasida «donor» (investor, kapital kirituvchi) jalb etish, investitsiya muhitini yaratish, investorlar uchun imtiyoz va kafolatlar berish orqali amalga oshiriladi;

2) xalqaro savdoni rivojlantirish – jahon miqyosida munosabatlar zanjirini tashkil etishni nazarda tutgan bo'lib, uni amalga oshirish uchun o'zaro shartnomalar imzolash orqali savdo kelishuvlarini amalga oshirish, bojxona tartib-qoidalarini soddalashtirish kabi chora-tadbirlar talab etiladi;

3) milliy manfaatlarni himoya qilish – ichki bozorga sifatsiz mahsulotlar kirib kelishining oldini olish, diskriminatsiya (kamsitish)ni keltirib chiqarmaslik va unga tushib qolmaslik, adolatsiz raqobat va intellektual mulk huquqlarining buzilishi hamda boshqa salbiy oqibatlardan himoyalaniшни o'z ichiga oladi;

4) xalqaro iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash – iqtisodiy, siyosiy, harbiy-texnik va madaniy sohalarda birgalikda rivojlanishga qaratilgan. Jumladan, jahon bo'yicha ushbu maqsad doirasida tajriba, ilm-fan va texnologiyalar almashinuvi, shuningdek, ekologik muammolar, qashshoqlikka qarshi kurashish kabi umumiy muammolarni hal qilish uchun sharoit yaratiladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar o'zaro samarali hamkorlik va manfaatlarni hurmat qilish tamoyillariga asoslangan bo'lib, munosabatlarda ishtirok etuvchilarning soniga qarab ikki yoki ko'p tomonlama vektorli bo'ladi. Buning natijasida, ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish, qashshoqlikni kamaytirish imkoniyati yaratiladi.

Har bir jarayonning ijobiy tomoni bilan birgalikda salbiy jihati bo'lganidek, tashqi iqtisodiy aloqalarning o'ziga xos bir necha nozik tomonlari bor. Jumladan, bunda ichki raqobat va mahalliy ish o'rinlarini yo'qotish, tashqi bozorlar va investitsiyalarga qaramlik kabi xavflarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Zamonaviy dunyoda tashqi iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish va kengaytirish jarayonlari jadal amalga oshirilmoqda. Bu texnologik taraqqiyot, xalqaro savdo va investitsiyalar hajmining ortishi, shuningdek, mamlakatlarning hamkorlik qilish va xalqaro tashkilotlarga integratsiyalashish istagi bilan bevosita bog‘liq.

Bu borada, davlat tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarish va tashqi savdo siyosatini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Uning vazifasi milliy manfaatlarni himoya qilish, iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir.

Tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy **tamoyillari**, ya‘ni amaliy faoliyatning asosiy yo‘nalishlari xalqaro savdo, iqtisodiy hamkorlik sohasidagi davlat va xususiy tashkilotlarning faoliyatini boshqarishni o‘zida aks ettiradi. Jumladan, o‘zaro manfaat, erkin savdo, diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik, halol raqobat amalga oshirish, o‘zaro hamkorlikda rivojlanish tamoyillari tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida strategiya va siyosatni shakllantirish uchun asos bo‘lib, xalqaro savdo va iqtisodiy hamkorlikning samarali ishlashini ta‘minlashga yordam beradi.

Umuman olganda, iqtisodiy taraqqiyotni rag‘batlantirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va global farovonlikni oshirishda tashqi iqtisodiy aloqalarning ahamiyati yuqori bo‘lib, mamlakatlarning bu boradagi o‘rnini yaqqol namoyon etadigan ko‘rsatkich tashqi savdo aylanmasi bo‘lib, u eksport va importning umumiy yig‘indisini o‘zida ifoda etadi.

Chunonchi, eksport – bu tovarlar va xizmatlarni tashqi bozor, xorijga chiqarish va sotishni bildiradi. Bunda eksport ko‘plab mamlakatlar uchun muhim daromad manbai bo‘lib, ularning iqtisodiyotini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Import esa boshqa mamlakatlardan tovar va xizmatlarni sotib olish bo‘lib, importiyor o‘z mamlakatida ishlab chiqarish qimmatga tushadigan yoki imkoniyati mavjud bo‘lmagan mahsulotlarni sotib oladi.

Import aholining turli xil tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi, ular mahalliy analoglardan ko‘ra foydaliroq yoki sifatliroq bo‘lishi mumkin.

Biroq shuni unutmaslik kerakki, mamlakat iqtisodiyotini import hisobiga rivojlantirishga tayanish davlat xavfsizligiga jiddiy riskni ko‘ndalang qo‘yadi. Shu jihatdan, mazkur jarayonga oid nazariyalarni teran anglash mavjud vaziyatni to‘g‘ri baholashga imkoniyat yaratadi.

17.2-§. Tashqi iqtisodiy aloqalarning turlari

Xalqaro iqtisodiy aloqalar davlatlar o'rtasidagi, xalqaro tashkilotlar va kompaniyalar ishtirokidagi xo'jalik aloqalari bo'lib, uning bir nechta asosiy yo'nalishlari mavjud. Ularning rivojlanishiga ilmiy-texnik taraqqiyot, davlatlar orasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar, jahon mintaqalaridagi siyosiy vaziyat, xalqaro iqtisodiy integratsiya kabi omillar ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan, tashqi iqtisodiy aloqalarning beshta– xalqaro savdo, moliya-kredit munosabatlari, ilmiy-texnik hamkorlik, ishlab chiqarishdagi xalqaro hamkorlik va xalqaro turizm kabi katta turi ajratiladi:

Xalqaro savdo – bu turli mamlakatlar o'rtasida tovar va xizmatlar almashinuvi jarayonidir. U import va eksportni o'z ichiga oladi.

Tashqi savdo mamlakatga o'zida ishlab chiqarilmaydigan yoki samarali bo'lmagan turli xil tovarlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Bu iste'molchilarning tovar va xizmatlar tanlash imkoniyatini oshirish, sifatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Qolaversa, xalqaro savdo mamlakatning iqtisodiy o'sishi va rivojlanishiga hissa qo'shadi. Tovarlarni va xizmatlarni eksport qilish xorijiy valyuta va sarmoyalarni jalb qilish imkonini beradi. Bu esa ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro savdoning barqaror o'sishiga xalqaro mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish baynalmilallashuvining rivojlanishi, jahon bozorida transmilliy korporatsiyalarning faoliyati, erkin savdo hududlari va savdo-iqtisodiy integratsion uyushmalarning tashkil etilishi kabi qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro savdo jarayonlari Butunjahon savdo tashkiloti tomonidan tartibga solib turiladi.

Savdo juda uzoq tarixga ega bo'lganligiga qaramay, uning xalqaro miqyosga chiqishi jahon xo'jaligi shakllanishi bilan uzviy bog'liq. Hozirgi globallashuv jarayonida hali hamon tashqi savdoda davlatlar va mintaqalar orasida katta tafovutlar saqlanib turibdi. Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, xalqaro savdoning deyarli 9/10 qismi G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo–Tinch okean mintaqalari hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu mintaqalar asosan tayyor mahsulotlar va yuqori sifatli xizmatlarni eksport qilsa; Afrika, Osiyo, Okeaniya va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan davlatlar jahon bozoriga asosan mineral resurslar, o'rmon va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib beradi. Chunonchi, xalqaro savdoning 3/4 qismini mahsulotlar savdosi tashkil

qiladi. Mashina va asbob-uskunalar, transport vositalari, elektronika, kimyoviy mahsulotlar, oziq-ovqat va kiyim-kechak mahsulotlari xalqaro savdoda katta talab mavjud bo'lgan tayyor tovarlar hisoblanadi.

Xalqaro kredit-moliya munosabatlari – chegaralar orqali amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiya va xizmatlar bo'lib, bunga kreditlar berish, xorijiy aktivlarga investitsiya kiritish, xalqaro banklar faoliyati, valyuta munosabatlari va boshqalar kiradi.

Xalqaro moliya bozorlarida qatnashish orqali mamlakatga kreditlar olish, jamg'armalarini investitsiyalash, valyuta zaxiralarini boshqarish va valyuta kursining o'zgarishidan himoya qilish imkonini beradi. Biroq, xalqaro moliya bozorlarida ishtirok etish moliyaviy inqirozlar, valyuta o'zgarishi va xalqaro moliyaviy vaziyatning tebranishi kabi xavflarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Shuning uchun moliyaviy risklarni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va mamlakatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Xorijiy sarmoya iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu orqali yangi ish o'rinlarini hosil qilish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish imkoniyati ortadi. Biroq, tashqi investitsiyalar salbiy oqibatlariga ham olib kelishini unutmazlik lozim. Jumladan, chet el investitsiyalarining nazoratsiz kirib kelishi xorijiy kompaniyalarning bozorda hukmronlik qilishiga, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni siqib chiqarishiga va ish o'rinlarini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, xorijiy investitsiyalar oqimini milliy iqtisodiyot manfaatlarini himoya qilish bilan muvozanatlash muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy-texnik hamkorlik – bu fan va texnologiya sohasidagi turli mamlakatlar olimlari, tadqiqot muassasalari va kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikdir. Ilmiy-texnikaviy muammolarni birgalikda hal qilish, shuningdek, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni yaratish uchun bilim, tajriba va resurslarni almashishga qaratilgan.

Tashqi iqtisodiy aloqalar mamlakatlar o'rtasida texnologiya va bilimlarni uzatishni osonlashtiradi. Rivojlangan markazlardan import qilingan texnologiyalar mamlakatga ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi. Bu esa innovatsiya va texnologik taraqqiyotning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Biroq, chetdan keltirilgan texnologiyalar xorijiy kompaniyalarga qaramlik va xususiy texnologiyalar ustidan nazoratni yo'qotishga ham olib kelishi mumkin. Shu bois, mahalliy ilmiy va texnologik imkoniyatlarni rivojlantirish, xalqaro tadqiqot va ishlanmalarda faol ishtirok etish muhim ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarishdagi xalqaro hamkorlik – bu turli mamlakatlar kompaniyalari o'rtasida mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida hamkorligidir. Bu mahsulotlarni birgalikda ishlab chiqish, ishlab chiqarish va tarqatish uchun qo'shma korxonalar hamda hamkorlikning boshqa shakllarini o'z ichiga olishi mumkin.

Xalqaro aloqalarning yana bir ko'rinishi bo'lgan ishlab chiqarishdagi hamkorlik qo'shma korxonalar qurish yoki qurilishida ishtirok etish, mehnat resurslarini ayirboshlash, davlatlarning turli megaloyihalar (korxonalar va inshootlarni qurilishi)da birgalikda qatnashishi orqali mahsulot yaratishga yo'naltirilgan integratsiyasini o'z ichiga oladi. Xususan, qo'shma korxonalar qurish xorijiy investorlar va mahalliy kompaniyalar o'rtasida birgalikda biznes yuritish uchun tuzilgan jarayon sifatida yangi bozor va resurslarga ega bo'lgan xorijiy investorlar uchun ham, texnologiya, kapital va xalqaro tajribaga ega bo'lgan mahalliy kompaniyalar uchun ham foydali bo'ladi. Shu bilan birgalikda, chet el sarmoyasi ishtirokida qo'shma korxonalar tashkil etish mamlakatlar o'rtasidagi madaniy, huquqiy va iqtisodiy tafovutlar tufayli murakkablik kasb etishi mumkin. Shu bois, tomonlarning manfaatlarini to'g'ri baholash va muvofiqlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

Xalqaro turizm – milliy chegaralarni kesib o'tuvchi turizm bo'lib, u dam olish sayohatlari, biznes safarlari, madaniy almashinuvlar va turli mamlakatlar o'rtasidagi turizmning boshqa shakllarini o'z ichiga oladi.

Xalqaro turizm xalqaro iqtisodiy aloqalarning asosiy ko'rinishlaridan biri bo'lib, jahon YMMning deyarli 10 foizini, xizmatlar eksportining esa 1/3 qismini beradi. Ayrim turistik salohiyati yuqori bo'lgan Ispaniya, Gretsiya, Italiya, Misr kabi mamlakatlar mazkur sohani o'z milliy iqtisodiyotlarining ixtisoslashgan tarmog'iga aylantirgan. Mazkur qit'a o'zining betakror tog' landshaftlari (Alp va Skandinaviya tog'larida chang'i uchish, Karpat tog'larida sayr qilish), plyajli sohillar (O'rta dengizbo'yi), agroklastarli fermalar (Daniya, Niderlandiya), arxitektura va madaniy obyektlarga boy shaharlar (Parij Eyfel minorasi, Afina Parfenon xarobalari, Rim Kolizey majmuasi, Sankt-Peretburg Ermitaj muzeyi, London Qirollik saroylari, suv ustidagi

Venetsiya), gastronomik turizm brendlari (italyan spagettilari, fransuz shampanlari, ispan mol panjara go'shti, portugal pivolari, nemis vinosi, daniya pishloqlari) bilan sayyohlar oqimining eng kattasiga egalik qiladi. Shu jihatdan, ushbu qit'a davlatlari orasida Fransiya, Ispaniya, Italiya, Germaniya, Buyuk Britaniya yillik tashrif buyuruvchi sayyohlar soniga ko'ra jahonning birinchi o'ntalik davlatlari orasidan o'rin egallagan.

Shuningdek, so'nggi yillarda Osiyo qit'asining ham xalqaro turizmdagi ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, Sharqiy, Janubi-sharqiy va Janubi-g'arbiy Osiyo mamlakatlari katta miqdordagi sayyohlarni o'ziga jalb qilmoqda. Unga mazkur hududlarga xos bo'lgan go'zal tabiiy sharoit, jahonga mashhur tarixiy yodgorliklar ko'pligi, diniy ziyoratgohlarning mavjudligi katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bu borada, Yaponiya, Xitoy, Koreya Respublikasi, Saudiya Arabistoni, BAA, Turkiya, Hindiston, Malayziya va Tailand kabi mamlakatlarning o'rni juda katta.

Afrika qit'asi davlatlari orasida Shimoliy Afrika davlatlari alohida ajralib turadi. Qirg'oq bo'yida dam olishni xohlovchilar asosan O'rta dengizbo'yidagi Marokash, Tunis, Misrga tashrif buyursa; tarixiy turizm ixlosmandlarini Misr ehromlari, Tunisdagi qadimiy Karfagen qoldiqlari, Marokashning noyob obidalari o'ziga jalb etadi. Qolaversa, Afrikada yuzlab qo'riqxonalar va milliy bog'lar mavjud bo'lib, ular ham muhim turistik obyektlar hisoblanadi. Tabiatsevarlarning katta qismi Keniya, Tanzaniya, Ruanda, Botsvana hududidagi milliy bog'larga tashrif buyuradi. JAR, Tunis, Misr va Marokash davlatlari sayyohlarning umumiy soniga ko'ra qit'ada yetakchilik qiladi.

Amerika qit'asi turizmida AQSh, Kanada, Meksika, Karib havzasi davlatlari katta salmoqqa ega. Amerika Qo'shma Shtatlariga turistik oqimning ko'pligi go'zal tabiat go'shalariga boyligi, iqtisodiy rivojlanganligi sababli zamonaviy turistik obyektlarning tashkil etilganligi va xizmat ko'rsatish sifatining yuqoriligi bilan bog'liq. Kanadaga sayyohlar uning tabiiy landshaftlaridan bahramand bo'lish uchun tashrif buyursa, Karib havzasi mamlakatlari sohilbo'yida dam olishni yoqtiruvchilarni o'ziga ohanrabodek tortadi. Ayniqsa, shimoliy yarimsharning rivojlangan mamlakatlariga qish kirib kelganda, Karib havzasi «qaynoq» turistik yadroga aylanadi. Shuningdek, Lotin Amerikasidagi Meksika, Braziliya, Peru, Argentina kabi mamlakatlar turli xil diqqatga sazovor joylari (quyuq ekvatorial o'rmonlar, uzun cho'zilgan plyajli sohillar, go'zal sharshara va sirli vodiylar), tarixiy

o‘ziga xosligi (inklar, mayyalar, indeyslar bunyod etgan manzilgohlar) va madaniy boyligi (turli festeval va bayramlar) bilan ajralib turadi.

Avstraliya va Okeaniya mintaqasi turizmida qirg‘oqbo‘yi hududlarda tashkil qilingan dam olish maskanlarining o‘rni katta. Avstraliya, Yangi Zelandiya va Fiji bu borada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, hududining kichikligi bois sanoat va qishloq xo‘jalik imkoniyatlarini rivojlantirish deyarli cheklangan Okeaniya mamlakatlarida iqtisodiyotning lokomotiv sohasi – turizm hisoblanadi.

Hozirgi kunda an’anaviy turistik turlari (dengizbo‘yi, diniy, tarixiy) bilan bir qatorda tabiiy landshaftlardan bahramand bo‘lish uchun – ekoturizm; qadimiy qazishma jarayonlari va manzilgohlarini ko‘rish uchun – arxeologik turizm; qishloq xo‘jalik mahsulotlarini o‘z joyida va tabiat qo‘ynida iste’mol qilish, bahra olish uchun – agroturizm; daryolarda kanoelarda suzish, glyatsial zonalarda chang‘i uchish, keng maydonli hududlarda golf o‘ynash, boshqa madaniyatga mansub etnoslarning milliy o‘yinlarida qatnashish uchun – sport turizmi; turli kasbiy va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun – biznes turizmi; yangi chiqqan mahsulot va tovarlarni hali «issiqligida» ishlab chiqarilgan hududning o‘zidan sotib olish uchun tashrif buyurish uchun – shopping (savdo) turizmi; inson hayoti uchun xavfli, biroq inson ruhiyatini qayta tiklab adrenalini beruvchi qoyadan sakrash, alpinizm, vulqon krateriga ko‘tarilish, geomorfologik jihatdan murakkab joylardagi shaffof osma ko‘prikdan o‘tish uchun – ekstremal turizm kabi noan’anaviy ko‘rinishlari ham rivojlanib bormoqda.

17.3-§. Xalqaro iqtisodiy integratsiya

Jahon miqyosida mamlakatlarning o‘zaro hamkorlik aloqalarini olib borishi juda muhim hisoblanadi. Chunonchi, global farovonlikni oshirish, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, hamkorlik va o‘zaro bog‘liqlik orqali umumiy muammolarni hal qilish hozirgi globallashuv asrida dolzarb ahamiyatga ega. Shu bilan birga, u tegishli siyosat va chora-tadbirlar orqali hal qilinishi kerak bo‘lgan daromadlar tengsizligi, ishchilarning ko‘chishi va global iqtisodiy zarbalarga zaiflik kabi muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu jihatdan, xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining nazariy asoslarini puxta bilish lozim.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya – bu milliy iqtisodiyotlarning aniq shart-sharoitlar asosida ixtiyoriy ravishda maqsadli va manfaatli

integratsiyalashuvi bo‘lib, u turli bosqich va yo‘nalishlarni o‘z tarkibida jamlovchi jarayondir.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya turli mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashish natijasida faoliyatning barcha soha va shakllari asosida xo‘jalik va siyosiy jihatdan birlashishi jarayoni bo‘lib, bunda iqtisodiy hamkorlik barqaror munosabatlarga asoslanadi.

Integratsiya aloqalarini harakatga keltiruvchi asosiy kuch tovar va xizmatlar savdosi hisoblanadi. Savdo qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish bilan birgalikda, iste‘mol bozorlarining kengayishiga sabab bo‘ladi. Shunga muvofiq, integratsiyaning birinchi bosqichida turli mamlakatlar o‘rtasidagi savdo to‘siqlari bekor qilinib, *erkin savdo zonalarining tashkil qilinishi* ro‘y beradi. Keyingi bosqich *bojxona ittifoqini shakllantirish* hisoblanib, bunda erkin savdo zonolari amal qilishi bilan birga unga a‘zo davlatlar uchinchi mamlakatga nisbatan umumiy tashqi savdo siyosatini qo‘llaydi va yagona tashqi savdo tarifini o‘rnatadi. Bu bilan a‘zo davlatlar uchun moliyaviy hisoblar va o‘zaro savdoni rivojlantirishda bir xil imkoniyat yaratiladi.

Integratsiyaning *umumiy bozor* bosqichida milliy bozorlar o‘zaro qo‘shilib, yuqoridagilar bilan birga, kapital va mehnat resurslarining erkin harakati ta‘minlanadi va ular orasidagi iqtisodiy to‘siqlarga barham beriladi. *Iqtisodiy ittifoq* bosqichida esa a‘zo mamlakatlar doirasida moliya, pul muomalasi va bank xizmati sohasida o‘zaro uyg‘unlik sodir bo‘ladi. Xalqaro integratsiyaning yuqori bosqichi *siyosiy ittifoqdir*. Bunda integratsiya jarayonlariga tortilgan davlatlar bir butun siyosiy tizimni shakllantiradilar va xalqaro maydonda umumiy siyosiy yondashuvga ega bo‘ladi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya ayrim mamlakatlar guruhlarining ular tomonidan kelishilgan davlatlararo siyosatni o‘tkazishga asoslangan juda chuqur va barqaror o‘zaro aloqalarining yaxlit birlashmasidir. Bunda o‘zaro ishonch va manfaatga asoslangan ikki va undan ortiq davlatlarning xalqaro hamkorligi integratsion uyushmalarni shakllantirish orqali yaxlit harakat qilishning yuqori bosqichi yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunonchi, xalqaro hamda regional tashkilotlar, ittifoq va assotsiatsiyalarning o‘rni beqiyosdir (17.1-jadval).

Integratsion tuzilmalar davlatlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarning mustahkamlanishi hamda sherikchilik munosabatlarini kuchaytiradi. Qolaversa, ko‘p davlatlar o‘rtasida ko‘plab muammolarga javob chiqishi osonroq bo‘ladi.

Ayrim xalqaro integratsion tashkilotlar

| Tuzilma nomlari | Xalqaro nomlanishi | Tashkil topgan yili | Shtab kvartirasi |
|---|---|---------------------|------------------|
| Universal xalqaro tashkilotlar | | | |
| Birlashgan Millatlar Tashkilot BMT | United Nations UN | 1945 | Nyu-York |
| Xalqaro mehnat tashkiloti | International Labour Organization ILO | 1919 | Jeneva |
| Xalqaro ixtisoslashgan tashkilotlar | | | |
| Atom energetikasi bo'yicha Xalqaro agentlik | <u>International Atomic Energy Agency</u> IAEA | 1957 | Vena |
| BMTning bolalarga yordam ko'rsatish Jamg'armasi | United Nations International Children's Emergency Fund UNICEF | 1946 | Nyu- York |
| BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti | United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization UNESCO | 1946 | Vena |
| BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti | <i>The Food and Agriculture Organization</i> FAO | 1945 | Rim |
| BMTning sanoatni rivojlantirish tashkiloti | United Nations Industrial Development Organization UNIDO | 1966 | Vena |
| Jahon sayyohlik tashkiloti | United Nations World Tourism Organization UNWTO | 1934 | Madrid |
| Jahon sog'likni saqlash tashkiloti | World Health Organization WHO | 1946 | Jeneva |

| | | | |
|---|---|------|-------------|
| Jinoyat politsiyasining xalqaro tashkiloti | The International Criminal Police Organization INTERPOL | 1923 | Lion |
| Neftni eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti | Organization of the Petroleum Exporting Countries OPEC | 1960 | Vena |
| Qo‘shilmaslik harakati | Non-Aligned Movement NAM | 1961 | Jakarta |
| Xalqaro valyuta fondi | International Monetary Fund IMF | 1944 | Vashington |
| Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti | North Atlantic Treaty Organization NATO | 1949 | Bryussel |
| Xalqaro mintaqaviy uyushmalar | | | |
| Afrika birligi tashkiloti | African Union AU | 1963 | Addis-Abeba |
| Amerika davlatlari tashkiloti | Organization of American States OAS | 1948 | Vashington |
| Arab davlatlari ligasi | جامعة الدول العربية <u>League of Arab States</u> LAS | 1945 | Tunis |
| Islom Konferensiyasi tashkiloti | <u>Organisation of Islamic Cooperation</u> OIC | 1969 | Jidda |
| Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi | The Association of Southeast Asian Nations ASEAN | 1967 | Bankok |
| Lotin Amerikasi integratsion assotsiatsiyasi | The Latin American Integration Association LAIA | 1980 | Montevideo |
| Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi MDH | Содружество Независимых Государств СНГ | 1991 | Minsk |

| | | | |
|---|---|--------------------|-----------|
| Osiyo-Tinch okean iqtisodiy hamkorligi | Asia-Pacific Economic Cooperation APEC | 1989 | Singapur |
| Yevropa Ittifoqi YI | European Union EU | 1957 | Maastrixt |
| Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti YXHT | Organization for Security and Co-operation in Europe OSCE | 1975 | Vena |
| Shanxay hamkorlik tashkiloti ShHT | Shanghai Cooperation Organisation SCO | 1996 | Pekin |
| Shimoliy Amerika erkin savdo assotsiatsiyasi | North American Free Trade Agreement NAFTA | 1994 ²⁶ | Mexiko |

Umuman olganda, zamonaviy dunyoda tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi iqtisodiyotning globallashuvi, xalqaro investitsiyalar va savdo hajmining o'sishi, xalqaro tashkilotlar va kelishuvlarning kengayishi, shuningdek, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq. Ushbu tendensiyalar mamlakatlarning iqtisodiy o'sishi va rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, shu bilan birgalikda, turli tomonlarning manfaatlarini to'g'ri boshqarish va muvozanatlashni talab qiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Tashqi iqtisodiy aloqalarning mazmun-mohiyati, nazariy asoslari va geografik jihatlari nimalardan iborat?
2. Tashqi iqtisodiy aloqalarning qanday turlari mavjud?
3. Tashqi savdo aylanmasi va uning tarkibiy qismlarini izohlang.
4. Siyosiy barqarorlik va tashqi iqtisodiy aloqalarning qanday bog'liqligi bor?
5. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning ijobiy va salbiy jihatlari nima?

²⁶ AQSh va Kanada o'rtasida «Erkin savdo to'g'risida»gi kelishuv 1989-yili imzolangan, lekin Meksika, AQSh va Kanada o'rtasidagi Shimoliy Amerika integratsiyasi tashkil etilgan yil sifatida 1994-yilda qaytadan tashkil etilgan. 2020-yilda uyushma nomi «Amerika Qo'shma Shtatlari, Meksika va Kanada o'rtasidagi kelishuv» (United States – Mexico – Canada Agreement = UCMCA) ga almashtiriladi.

18-BOB. SERVIS GEOGRAFIYASI

Mavzu annotatsiyasi. *Mazkur mavzu servis geografiyasi va aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarining shakllanish omillari, rivojlanish xususiyatlari va hududiy jihatlarini yoritib berishga bag'ishlangan. Chunonchi, xizmatlarning davriy tendensiyasi: yo'qolib ketgan, amaldagi, yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan, yangi shakllanayotgan xizmatlarga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohalarini raqamlashtirish masalalariga alohida urg'u qaratilgan.*

Tayanch so'z va iboralar: *nomoddiy soha, servis, xizmat ko'rsatish radiusi, epizodek xizmat, davriy xizmat, maishiy xizmat, raqamlashtirish.*

Reja:


- 18.1. Servis sohalarini hududiy tashkil etish xususiyatlari.
- 18.2. Tarmoq tarkibi va tipologiyasi.
- 18.3. Servis sohalarining makon va zamondagi o'ziga xos ko'rinishlari.



18.1-§. Servis sohalarini hududiy tashkil etish xususiyatlari

Aholining turmush sharoitlarini yaxshilashda xizmat ko'rsatish sohaları yoki boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy infrastrukturaning ahamiyati katta. Xizmat ko'rsatish sohaları aholining turli-tuman moddiy, ma'naviy ko'rinishidagi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi sohalar va ularning muassasalarini qamrab oladi. Har bir xizmat ko'rsatish sohasi o'z navbatida ko'plab turlicha xususiyat va ko'rinishga ega bo'lgan xizmatlar turlaridan tashkil topgan. Binobarin, ularni guruhlash, tasniflash, shakllanishi, hududiy tashkil etilishi, zamonaviy holati hamda kelajak rivojlanishi masalalarini tadqiq etish katga ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini o'rganishda har bir sohaga xos tarmoq fanlari, iqtisodiyot, sotsiologiya va boshqa fanlar bilan bir qatorda geografiya ham alohida o'rinni egallaydi. Chunki, xizmat ko'rsatish sohaları muassasalarining joylashuvi va xizmat ko'rsatish darajasini aholining joylashuvi va ehtiyojlari darajasiga mosligi orasidagi tafovutlarni aniqlashda aholiga xizmat ko'rsatish sohaları geografiyasining roli katta. Shu jihatdan,

fanning tarkibiy tuzilmasi (18.1-rasm) va o'rganilish darajasini tadqiq etish ahamiyatli hisoblanadi.



18.1-rasm. Xizmat ko'rsatish geografiasining tuzilmasi

Ijtimoiy sohalar va xususan xizmat ko'rsatish sohalarini ilmiy tadqiq etish ishlari M.A.Abramov, A.I.Alekseyev, S.A.Kovalev, A.A.Tkachenko, V.V.Pokshishevskiy, L.A.Merkusheva, V.R.Belenkiy, S.A.Vaytekunas, B.A.Manak, V.M.Rutgayzer, I.V.Nikolskiy, E.I.Kalmutskaya, B.B.Rodoman, D.N.Luxmanov, S.I.Florya va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan. O'zbekistonda esa xizmat ko'rsatish sohalari geografik jihatdan sust o'rganilgan. Umuman olganda esa, bu borada O.Ergashev, B.A.Abdurashidov, M.I.Nazarov, N.Q.Ollorov kabi olimlarning ishlari mavjud. Mamlakatimizda aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini tibbiy xizmat ko'rsatish misolida geografik jihatdan ilk bor dissertatsiya darajasidagi tadqiqot ishi 1996-yili M.I.Nazarov tomonidan amalga oshirilgan. Ammo, mamlakatimizda hozirgi davrdagi aholiga xizmat ko'rsatish sohalari (ijtimoiy infrastruktura) borasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ko'lamini yetarli deb bo'lmaydi. Shu bilan birga, aholiga transport, aloqa, elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv ta'minoti bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish infrastrukturasini geografik jihatdan tadqiq etilgan salmoqli manbalar kam.

Olimlar tomonidan xizmat ko'rsatish sohalari ilmiy tadqiq etishda «iqtisodiy» va «ijtimoiy» yondoshuvlar mavjud (A.I.Alekseyev). Chunonchi, birinchisida xizmat ko'rsatish sohalari xo'jalik tarmoqlari sifatida iqtisodiy nuqtai nazardan o'rganiladi, ya'ni bu yerda kam xarajat sarflangan holda, ko'proq foyda olishga asosiy e'tibor qaratilsa, ijtimoiy yondoshuvga ko'ra xizmat ko'rsatish sohalari – bu eng avvalo aholining turmush sharoitlari, turmush darajasining muhim sharti sifatida tushuniladi.

Agarda, xizmat ko'rsatish muassasalarini muayyan bir hududda vujudga kelishi, shakllanishi va kelajakda rivojlanish qonuniyatlarini e'tiborga olinsa, u holda bizningcha uchinchi, ya'ni hududiy yondoshuvni ham aniqlash mumkin. Xizmat ko'rsatish sohalari geografik jihatdan o'rganishning zarurligi o'tgan asrning 60-yillarida V.V.Pokshishevskiy, S.A.Kovalevlar tomonidan ta'kidlangan. Huddi shu davrdan boshlab, sobiq Ittifoqning bir qator markaziy universitetlarida «Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi» kursi o'qitila boshlandi. 70-yillardan boshlab xizmat ko'rsatish sohalari va umuman ijtimoiy sohalarni geografik jihatdan ilmiy tadqiq etish yo'nalishi rivojlana boshladi. Mamlakatimizda esa bu boradagi ishlarning jonlanishini o'tgan asrning 90-yillardan boshlab kuzatish mumkin.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasini rivojlanishida sobiq Ittifoq geografiya jamiyati tomonidan 1974-yili Moskvada aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi bo'yicha o'tkazilgan birinchi yig'ilishning ahamiyati katta. Mazkur yig'ilishda turli soha vakillari bilan xizmat ko'rsatish sohalari rivojlantirish borasida olib borilgan muhokamalarning natajalari shuni ko'rsatadiki, fanlar mantiqiga ko'ra xizmat sohalari mintaqaviy xususiyatlari va hududiy tashkil etilishi masalalarini ilmiy tadqiq etish aynan geografiya fani zimmasidadir.

Shunday qilib, o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanlari tizimida aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi vujudga keldi. Uning geografiya fanlari tizimida tutgan o'zni va predmeti xususida A.I.Alekseyev va boshqalar quyidagicha ta'rif berishgan: Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning o'ziga xos tarmog'i bo'lib, xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlar va ularning qondirilishi darajasidagi hududiy tafovutlar va Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohalari tabiiy ijtimoiy, iqtisodiy, demografik hamda turlicha aholi joylashuvi shakllarida hududiy tashkil etilishi masalalarini o'rganadi.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi bo'yicha bajariladigan tadqiqotlarni ikki yo'nalishga ajratish mumkin: *birinchi yo'nalish* tarmoq, ya'ni xizmat ko'rsatish sohalari alohida olingan holda o'rganilsa, masalan, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish geografiyasi, *ikkinchi yo'nalish* – mintaqaviy majmualari, ya'ni bunda xizmat ko'rsatish (sohalari bir butun holda va ma'lum bir hududda o'rganiladi).

Muayyan bir hududning tabiiy, iqtisodiy, demografik va aholi joylashuvi shart-sharoitlarini hisobga olgan holda, xizmat ko'rsatish sohasining joylashuvi va zamonaviy holatini tavsiflash va baholash, Shuningdek, xizmatlar majmuasi va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish eng avvalo geograflarning vazifasidir.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi ta'rifidan ma'lum bo'ladiki, bu sohada bajariladigan tadqiqotlarda aholining xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlariga; xizmat ko'rsatishning darajasiga; xizmat ko'rsatishni hududiy tashkil etilishi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi fanning aholi va aholi manzilgohlari geografiyasi bilan chambarchas borliq. Jumladan, aholining xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlari va ularning qondirilish darajasi (ya'ni, xizmat ko'rsatishning faktik darajasi) bevosita aholi geografiyasi, aniqrog'i aholining turmush tarzi geografiyasi bilan bog'liq bo'lsa, xizmat ko'rsatish sohasining hududiy tashkil etilishi esa aholi geografiyasining aholi joylashuvi yoki aholi manzilgoxlari geografiyasi bilan uzviy aloqadorlikka ega.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida aholiga bir qator xizmat turlarini qamrab olgan xizmatlar majmui zarur bo'dadi. Xizmatlar turli-tuman va turlicha shakl-shamoyilga ega. Bu esa ularni turlarga ajratish, guruhlash va tarkibiy tuzilishini aniqlashni talab qiladi. Ammo, sobiq Ittifoq davridan to hozirga qadar aholiga xizmat ko'rsatishning tarkibi xususida olimlar o'rtasida yagona to'xtamga kelinmagan. Maxsus adabiyotlarda xizmat ko'rsatish sohalari va turlari xususidagi o'zaro farqlanuvchi ayrim tarkiblar berilgan xolos. Shu sababdan bo'lsa kerak, davlat statistika tashkilotlari tomonidan aholiga xizmat ko'rsatish sohalari bo'yicha e'lon qilinadigan ma'lumotlarni xo'jalikning boshqa ishlab chiqarish (masalan, sanoat, qishloq xo'jaligi) tarmoqlaridagi singari to'la-to'kis deb bo'lmaydi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishida aholining xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlari muhim ahamiyatga ega. Ularning shakllanishiga esa tabiiy-geografik, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sir ko'rsatadi.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini geografik o'rganishda ularning hududiy tashkil etilishi masalalariga asosiy e'tiborni qaratish lozim.

Xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil etish bu, eng avvalo, xizmat ko'rsatish muassasalari, markazlari va majmualarini muayyan shart-sharoitlarga bog'liq holda joylashuvi va hududiy pog'onalashuvidan iborat.

Xizmat ko'rsatish muassasalarining ma'lum bir vaqt va hududdagi holati, yig'indisi muassasalar to'rini hosil qiladi. Muassasalar to'rini o'z navbatida tarmoqlar to'ri va majmuali (integral) qismlarga ajratish mumkin. Tarmoqlar to'ri, bu masalan, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish muassasalaridan iborat bo'lsa, xizmat ko'rsatish majmuasi esa eng avvalo xizmat ko'rsatish markazlarini o'z ichiga oladi. Bunday markazlar tarkibida turg'un (statsionar) tipda xizmat ko'rsatuvchi muassasa yoki ularni yig'indisi mavjud. Muassasalar esa o'zlarining xizmat ko'rsatish zonalariga (arealiga) ega.

Xizmat ko'rsatish muassasalari o'zining ta'sir zonasi bilan birgalikda-xizmat ko'rsatishning hududiy tizimlarini tashkil etadi. Ular esa muayyan xizmat turini doimiy iste'mol qiluvchi barcha aholi manzilgohlari va shu xizmat turining uncha katta bo'lmagan muassasalarini o'z ichiga oladi.


Aholiga xizmat ko'rsatish muassasalarini joylashtirishda quyidagi tamoyillar muhim rol o'ynaydi:

- aholi uchun qulayligi (xizmatni olishda kam vaqt sarflash va uning sifati);
- iste'molchi va xizmat ko'rsatuvchining mavjudligi;
- aholi manzilgohlari va ularning katta-kichikligi;
- xizmatlarga bo'lgan aholining ehtiyojlari;
- xizmat ko'rsatish obyektlarining majmualiligi va ixtisoslashuvi;
- xizmat ko'rsatishning davriyligi;
- mintaqa aholi punktlarining rivojlanish istiqbollari.

Zamonaviy xizmat ko'rsatish tizimining muassasalari xizmat ko'rsatishning tashkiliy shakllariga ko'ra masofa va vaqtni hisobga olgan holda guruhlashtiriladi (18.2-rasm). Bu esa xizmat ko'rsatish tizimini ma'lum bir hududda pog'onali qurilishini belgilab beradi.

Xizmat ko'rsatishning pog'onalashuvi, avvalo, aholi manzilgohlarining katta-kichikligi, funksiyalari bilan chambarchas bog'liq. Aholi manzilgohlarining kattalashib borishi bilan ulardagi

xizmatlar turi va muassasalari ham ko‘payib boradi va shunday qilib, ushbu aholi manzilgohlarining region xizmat ko‘rsatish tizimida tutgan mavqeyi oshib boradi.



18.2-rasm. Aholiga xizmat ko‘rsatuvchi muassasalarning masofa va vaqt sarfiga ko‘ra tasnifi

Aholiga xizmat ko‘rsatish muassasalari joylanishi belgilariga ko‘ra:

- *lokal tipi* (bunday muassasalar aholining xizmatlarga bo‘lgan extiyojlarini bevosita ishlab chiqarishda yoki o‘qish, dam olish davrida qondirishga xizmat qiladi – oshxona, tibbiy manzilgox, profilaktoriya va boshq.);

- *umumiy* (ushbu guruhga mansub xizmat ko‘rsatish muassasalari tarkibida aholining kundalik extiyojlariga xizmat ko‘rsatuvchi muassasalar ko‘pchilikni tashkil qiladi hamda ular aholi manzilgohlarining infrastruktura tizimiga kiradi);

- *rayon* (bunday muassasalar rayon ahamiyatiga molik vazifalarni bajaradi o‘quv yurtlari, madaniyat muassasalari) ;

- *rayonlararo* tipiga mansub muassasalar yanada kengroq vazifalarni bajaradi (avtoservis maxsus xizmatlari, maishiy texnika remonti markazlari va b.);

- *respublika* (bunday xizmat turlari respublika ahamiyatiga ega va mamlakat mehnat taqsimotida ishtirok etadi: kurortlar, turistik markazlar, tor profilli klinikalar va h.k.) tiplarga bo‘linadi.

Xizmat ko'rsatish tizimlarini hududiy tashkil etish bu, avvalo, ularning markazlarini xizmat ko'rsatish darajalari va toifasiga, aholi manzilgoxlarining katta-kichikligi va zichligiga, xizmat ko'rsatish zonasining demografik salohiyatiga, aholi joylashuvi tizimining rivojlanganlik darajasiga bog'liq.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil etish masalalari ularni geografik jihatdan tadqiq etishning negizini tashkil qiladi. Muayyan bir vaqt va hududda xizmatlarning tuzilishi va hududiy tizimlarini uyrunligini xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil etilishi sifatida tushunish mumkin.

Xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil etish jarayonlari bir vaqtning o'zida ham ularning joylashuvi (zamonaviy holati)ni hamda rivojlanishi, o'zgarishi jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlanishida eng avvalo aholining xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlari va ularni qondirishda muayyan bir hudud yoki mamlakatning imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega.

Aholiga xizmat ko'rsatish geografiyasining asosiy vazifasi-xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil qilishning mohiyatini ochib berish va qonuniyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil etish tushunchasining mohiyati ilk bor V.V.Pokshishevskiy, S.A.Kovalev, Y.G.Saushkinlar tomonidan ochib berilgan. Jumladan, Y.G.Saushkin (1973) xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy tashkil etilishi, avvalo ularning «nuqtalari»ni o'zaro va aholi manzilgohlariga nisbatan, kishilarning kundalik muntazam harakat yo'nalishiga mos ravishda joylashuvi va boshqalarda namoyon bo'lishi, bu «nuqta»larning yig'indisi aholining ehtiyojlarini to'la qondirishi ma'nosida tushunadi.

Aholiga xizmat ko'rsatish muassasalari to'ri va tizimlarini hududiy tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga quyidagilar kiradi:

– *iqtisodiy omillar*: hududning iqtisodiy geografik o'rni, xo'jalik ixtisoslashuvi, regionning iqtisodiy taraqqiyot darajasi, yirik sanoat korxonalarining mavjudligi, aholining bandlik tarkibi, daromadlari, xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlanganlik darajasi va moddiy-texnik asosi;

– *ijtimoiy omillar*: aholining sotsial va kasbiy tarkibi, ma'lumot ko'rsatkichi, urbanizatsiya darajasi, shahar va qishloq turmush tarzi, aholining mehnat sharoitlari va tavsifi, salomatlik holati, sanitariya madaniyati darajasi;

– *demografik yoki «iste'molchi» omili*: aholi soni va uning tadrijiy o'zgarishlari, aholining takror barpo bo'lishi darajasi, aholining jins-yosh tarkibi, oilalar soni, tarkibi, katta-kichikligi va ulardagi bolalar soni, aholi migratsiyasi;

– *mehnat resurslari omili*: xizmat ko'rsatish sohalari bandlar soni, ularning yosh-jins tarkibi, ma'lumot darajasi, alohida xizmat ko'rsatish turlariga kadrlar tayyorlash imkoniyatlari;

– *aholi joylashuvi*: aholi zichligi, shahar va qishloq aholisi, aholi manzilgohlari, ularning turlari va katta-kichikligi, aholi manzilgoxlarining zichligi, ular orasidagi o'zaro masofa, xizmat ko'rsatish markazlari sifatidagi shaharlarning uzoq-yaqinligi;

– *transport omili*: hududning transport aloqalari bilan ta'minlanganlik darajasi, xizmat ko'rsatish markazlari va shaharlarning transport qulayligi, qishloqlarning transport bilan ta'minlanganlik holati;

– *tabiiy-geografik omillar* xizmat ko'rsatishni rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, muayyan bir joyning rekreatsiya resurslari shujoyda sanatoriya-kurort xizmatini tashkil bo'lishiga va turizm markazlarini vujudga kelishiga bevosita ta'sir ko'rsatsa, iqlim omili esa kasallanish-tibbiy xizmat ko'rsatish yoki iqlim uy-joy kiyimbosh xizmat ko'rsatish ko'rinishida bilvosita ham ta'sir ko'rsatadi.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari va ularning muassasalarini hududiy tashkil etishning omillari orasida, ayniqsa aholi va uning joylashuvi xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Chunki, bir tomondan aholi ham xizmat ko'rsatuvchi ham iste'molchi bo'lsa, ikkinchi tomondan xizmat ko'rsatish muassasalari bevosita aholi manzilgohlarida joylashtiriladi.

Muayyan turdagi xizmat ko'rsatish muassasalarini joylashuvini baholagdda, ularning xizmat ko'rsatish radiuslarini aniqlash lozim:

$$R_i = \frac{\sqrt{S_i}}{n}$$

R_i – xizmat ko'rsatish radiusi;

S_i – i turdagi muassasalarning xizmat ko'rsatish areali;

n – i turdagi xizmat ko'rsatish muassasalari soni.

Xizmat ko'rsatish radiusi ko'rsatkichi xizmat ko'rsatish sohalarini aholining mujassamlashuvi bilan qanchalik bog'liqligini ifodalaydi.

Shuningdek, aholiga xizmat ko'rsatish muassasalari tizimini qanchalik maqsadga muvofiq hududiy tashkil etilganligini muassasaga ega bo'lgan qishloqlarning o'rtacha xizmat ko'rsatish radiusi (Ch):

$$Ch = 0,56 \sqrt{\frac{S}{n}}$$

Ch – o‘rtacha xizmat ko‘rsatish radiusi;

S – xizmat ko‘rsatish hududining maydoni;

n – xizmat ko‘rsatish muassasalariga ega aholi punktlari hamda xizmat ko‘rsatish muassasalariga ega bo‘lmagan qishloqdan xizmat ko‘rsatish markazigacha bo‘lgan o‘rtacha masofa (*e*):

$$e = 0,28 \sqrt{\frac{S}{n}} \text{ (km)}$$

e – xizmat ko‘rsatish markazigacha o‘rtacha masofa;

S – xizmat ko‘rsatish hududining maydoni;

n – xizmat ko‘rsatish muassasalariga ega bo‘lmagan aholi punktlari bilan va shuningdek, har 10 kv km hududga to‘g‘ri keluvchi muassasalar soni, ular o‘rtasidagi o‘rtacha masofaning katta-kichikligikabilar ham aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarini hududiy tashkil etish masalasida o‘tgan asrning 30–40-yillarida nemis olimlari V.Kristaller (1893-1969) va A.Lyoshlar (1906-1945) tomonidan mashhur «Markaziy joylar» nazariyasi yaratildi. Unga ko‘ra xizmat ko‘rsatishning hududiy tashkil etilishi talab va taklif asosida aniqlanadi hamda xizmat ko‘rsatish pog‘onali (iyerarxik) tarzda tashkil etiladi. Bunda, xizmat ko‘rsatish markazlarining roli juda katta. Ular tarmoq (tibbiy, savdo va h.k) hamda kompleks xizmat ko‘rsatishga bo‘linadi.

Aholiga xizmat ko‘rsatishni hududiy tashkil etilishi shahar va qishloq joylarda turlichadir. Shaharlarda xizmat ko‘rsatish muassasasi va korxonalarini joylashuvi, avvalo, shaharning katta-kichikligiga, shakliga, binolarning zichligi, shuningdek, yirik korxonalarining joylashuviga bog‘liq. Qishloq joylarida esa xizmat ko‘rsatishni hududiy tashkil etilishi avvalo, aholi joylashuviga, transport tizimlarini rivojlanganlik darajasiga hamda yirik xizmat ko‘rsatish markazlari sifatida shaharlarning yaqin joylashuvi va boshqalarga bog‘liqdir.

18.2-§. Tarmoq tarkibi va tipologiyasi

Shunday qilib, xizmat ko‘rsatish sohalari geografiyasi, ijtimoiy geografiyaning aholi geografiyasi bilan yonma-yon rivojlangan muhim tarmoqlaridan biridir. Uning ijtimoiy natijasi jamiyat rivojlanishiniig

muhim jabhasi bo'lgan xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlanishining hududiy qonuniyatlarini o'rganishi bilan belgilanadi.

Avvalambor, servis – bu muayyan bir xizmat oluvchining (aholi, shaxs) xizmatga bo'lgan ehtiyojlarini bevosita qondirishga qaratilgan faoliyat natijasidir. Ular o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda «ishlab chiqarmaydigan» ya'ni «sof servis sohalarini»dagi (masalan, huquqshunos, shifokor, kutubxonachi, sotuvchi, ofitsiant xizmati) va «ishlab chiqarish shaklidagi xizmat» ko'rinishidagi xizmatlar (masalan, shaxsiy buyurtma asosida kiyim, poyabzal tikish, mebel tayyorlash va hokazolar)ga ajratiladi. Bir qator mualliflar va, xususan, B.A.Manak aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ikki yirik guruhga ajratadi (18.1-jadval).

18.1-jadval

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining tasnifi (B.A.Manak bo'yicha)

| № | <i>Aholining moddiy talab-ehtiyojlariga xizmat qiluvchi sohalar</i> | № | <i>Shaxsning ma'naviy ehtiyojlari va rivojlanishiga xizmat ko'rsatuvchi sohalar</i> |
|---|---|---|---|
| 1 | Savdo va umumiy ovqatlanish | 1 | Ta'lim |
| 2 | Maishiy xizmat | 2 | Sog'liqni saqlash |
| 3 | Uy-joy kommunal xo'jalik | 3 | Madaniyat va san'at |
| 4 | Yo'lovchi transporti va aloqa | 4 | Jismoniy tarbiya va sport |
| 5 | Ijtimoiy ta'minot, kredit va sug'urta | 5 | Kurort – rekreatsiya xizmati |

Ilmiy adabiyotlarda xizmat ko'rsatish sohalarining muassasalari va korxonalarining yig'indisi *ijtimoiy infrastruktura* deb ham yuritiladiki, ularni ma'nodosh sifatida tushunish katta xato bo'lmaydi.

Moddiy ishlab chiqarishga bevosita bog'liq bo'lmagan, ammo, ishlab chiqarish jarayonining normal kechishini ta'minlovchi shart-sharoitlar yig'indisiga ishlab chiqarish infrastrukturasi (transport, aloqa, energiya va suv ta'minoti va boshqalar) deyilsa, aholining kundalik turmush sharoitlarini ta'minlab turuvchi shart-sharoitlar yig'indisi esa ijtimoiy infrastruktura (sog'liqni saqlash, maorif, madaniy, maishiy xizmatlar va boshqalar) deb yuritiladi.

Xizmat ko'rsatish sohalarining tarkibi xizmatlar o'z mohiyatiga ko'ra bir qancha turlarga ajratiladi. Bu o'z navbatida, ularni o'rganish, rivojlantirish va shuningdek, boshqarishda katta ahamiyatga ega.

Sobiq Ittifoq hamda O‘zbekiston davlat reja komiteti iqtisodiyot instituti mutaxassislari tomonidan yaratilgan ishlanmalarga ko‘ra, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari bir necha tarkib va xizmat turlariga ajratilgan (18.2-jadval).

18.2-jadval

Xizmat ko‘rsatish sohalari klassifikatsiyasi

| <i>№</i> | <i>Tarmoqlar</i> | <i>Xizmat turlari</i> |
|----------|---|--|
| 1 | <i>Uy-joy va kommunal xizmat ko‘rsatish</i> | doimiy yashash uchun joy berish; yotoqxonalar xizmati; sanitariya-gigiyena holatini saqlash xizmati; aholini ichimlik suvi bilan ta‘minlash uylarni isitish tizimi, issiq suv, elektr energiya bilan ta‘minlash |
| 2 | <i>Chakana savdo xizmati</i> | ozuq-ovqat do‘konlari, sanoat va qurilish mollari sotish xizmati, supermarket va turli bozorlar |
| 3 | <i>Umumiy oqatlanish xizmati</i> | oshxonalar, kafe-bar, restoranlar |
| 4 | <i>Maishiy xizmat ko‘rsatish</i> | shaxsiy buyurtma bo‘yicha poyabzal tikish, poyabzal ta‘mirlash; charmli, mo‘ynali, tikuvchilik buyumlari va bosh kiyimlarni buyurtma bo‘yicha tikish hamda ta‘mirlash; trikotaj buyumlarini shaxsiy buyurtma bo‘yicha tikish va ta‘mirlash; televizorlar, radioappaturalar, magnitofon va radiolalarni tuzatish va texnik xizmat ko‘rsatish; muzlatgichlar, chang yutgichlar, kir yuvish va tikuv mashinalarini tuzatish; soat tuzatish; metall buyumlari yasash va ta‘mirlash; fuqarolarga tegishli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish; yengil avtomobillarni ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish; mebel yasash va ta‘mirlash; kimyoviy tozalash va bo‘yash; kir yuvish xizmati; aholi buyurtmasi bo‘yicha uy-joy va boshqa qurilish ishlarini bajarish va ta‘mirlash; uy-joylarni qurish va uy-joylarni ta‘mirlash; umumiy va yakka tartibdagi garajlar qurish; fuqarolar mablag‘lari hisobidan pudrat asosida qurilish ishlarini bajarish; hammomlar xizmati; sartaroshxonalar; suratga olish va kinosuratlar laboratoriyalari xizmati; ijara manzilgohlari |

| | | |
|----|---|--|
| | | xizmati; gazlashtirish, gaz ballonlari to'ldirish, keltirish va ta'mirlash; aholi yuklarini tashish; chiptalarni uyga keltirib berish; yuk saqlash bo'linmalari xizmati; to'ylar bilan bog'liq marosimlarni o'tkazish; qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlash bo'yicha xizmat ko'rsatish; ritual xizmatlar va boshq. |
| 5 | <i>Umumiy ta'lim</i> | maktabgacha tarbiya muassasalari; o'rta maktablar; maktab-internatlar; litseylar va kasb-hunar texnikumlari; oliy o'quv yurtlari va boshq. |
| 6 | <i>Tibbiy xizmat ko'rsatish</i> | davolash-profilaktika muassasalari; markaziy rayon kasalxonalari; qishloq uchastka kasalxonalari; yuqumli xastaliklar kasalxonalari; dispanserlar; ambulatoriya-poliklinika muassasalari; kattalar va bolalar poliklinikalari; qishloq shifokorlik manzilgohlari; qishloq vrachlik ambulatoriyalari; feldsherlik-akusherlik manzilgohlari; tibbiy manzilgohlar; tibbiy haydovchilik komissiyalari; dezinfeksiya stansiyalari; sanitariya-epedemiologiya; xizmati va boshq. |
| 7 | <i>Ijtimoiy ta'minot</i> | pensionerlar va kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish; nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish |
| 8 | <i>Rekreatsiya va sayyohlar xizmati</i> | turistlar uchun mo'ljallangan mexmonxona majmualarida, bazalarida, kempinglarda yashash; turistik paxodlarni amalga oshirish; ekskursiyalar uyushtirish; sanatoriyalar profilaktoriyalar, pansionatlar va dam olish uylarida yashash, davolanish va boshq. |
| 9 | <i>Tomosha ko'rsatuvchi muassasalar xizmati</i> | kinofilmlar ko'rsatish spektakllar qo'yish; konsertlar o'tkazish; sirk tomoshalari |
| 10 | <i>Aholining madaniy ehtiyojlariga xizmat ko'rsatish</i> | kutubxonalar xizmati; muzey va ko'rgazmalar; musiqiy, badiiy va xoreografiya maktablari xizmati; madaniyat va istirohat bog'lari xizmati; raqs kechalari o'tkazish |
| 11 | <i>Bank xizmati</i> | kredit-sug'urta xizmati; jamg'arma-kassalari xizmati; sug'urta xizmati; qimmatbaho qog'ozlar va buyumlar saqlash; omonatlar qo'yish |

| | | |
|----|-------------------------------------|--|
| 12 | <i>Huquqiy tavsifdagi xizmatlar</i> | notarial idoralar xizmati; huquqiy maslahatxonalar; jamoat tartibini saqlash |
| 13 | <i>Jismoniy tarbiya va sport</i> | jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish; salomatlik pullik guruhleri, suzish, yakka trening; sport-tomosha tadbirlari; jismoniy tarbiya va sport inshootlarini foydalanishga berish |
| 14 | <i>Aloqa xizmati</i> | pochta, telegraf (xat, banderol, jo'natmalar, pul o'tkazish, telegramma); telefon xizmati (xalqaro va shaharlararo so'zlashuvlar, mehmonxona va kvartiralarda telefon xizmati, telefon avtomatlar) |
| 15 | <i>Transport xizmati</i> | shahar elektr transportida yo'lovchi tashish; avtomobil transportida yo'lovchi tashish; aholiga pullik transport xizmati ko'rsatish |

Yuqorida sanab o'tilgan aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining turli-tumanligi, xizmatlarning rang-barangligi hamda xizmat ko'rsatuvchi muassasalarni turli vazirlik va tashkilotlarga bo'ysunishi, boshqarilishi o'z navbatida ularni ilmiy tadqiq etish va mutanosib holda rivojlantirishni birmuncha qiyinlashtiriladi.

18.3-§. Servis sohalarining makon va zamondagi o'ziga xos ko'rinishlari

Keyingi paytlarda aholiga xizmat ko'rsatish sohalari sifat jihatidan o'zining yuqori pog'onalariga ko'tarilib bormoqda. Xizmat ko'rsatish sohasining hozirgi holati ko'p jihatdan raqamlashtirish, iste'molchilar xatti-harakatlaridagi o'zgarishlar ta'siri kabi global tendensiyalar bilan belgilanadi. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasi holatining bir qancha asosiy jihatlari ko'zga yaqqol tashlanadi:

I. Raqamli transformatsiya – ko'pgina xizmat ko'rsatish sohalari mijozlarga imkoniyatlarni yanada oshirish, biznes jarayonlarini optimallashtirish va bozorlarni kengaytirish uchun raqamli texnologiyalarni faol o'zlashtirmoqda. Onlayn platformalar, mobil ilovalar va bulutli xizmatlar xizmatlarni yetkazib berish uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

II. Onlayn biznesning o'sishi – virtual savdo, masofaviy buyurtma asosida oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish, ta'lim xizmatlari va boshqa ko'plab faoliyatlar bilan bog'liq.

III. Xavfsizlik va gigiyenaga e'tiborning kuchayishi – zamonaviy dunyoda turli «biologik urush»lar natijasida yangi-yangi kelib chiqayotgan epidemiya va kasalliklardan so'ng aholi o'rtasida o'ziga bo'lgan ehtiyotkorlikning ortishi bilan baholanadi. Bu turizm, restoran biznesi, sog'liqni saqlash va boshqalar kabi ko'plab xizmat ko'rsatish sohalarida o'z aksini topmoqda.

Yuqoridagi turli jarayonlar natijasida servis sohalarida sifat va miqdor o'zgarishlari sodir bo'lmoqda. XXI asrga kelib ko'plab xizmat turlariga talab keskin pasayib ketdi. Jumladan, bosma gazeta va jurnallar, fotokamera xizmati, simli telefon xizmati, kinoteatr, video va DVD ijara xizmati, pochta xizmatidan foydalanish ko'rsatkichlari yildan yilga pasayib bormoqda. Shu bilan birgalikda, IT texnologiyalari asosida ilova va veb-xizmatlar, xosting xizmatlari, kiberxavfsizlikni ta'minlash, robototexnika va raqamlashtirish, masofaviy ta'lim, ijtimoiy media kontenti servis faoliyatlari jadal o'sib bormoqda.

Vaqt o'tishi bilan ayrim eski tarmoqlar o'rnini uning zamonaviy ekvivalenti egallab bormoqda. Avvallari bir xizmatni ma'lum tarmoq bajargan bo'lsa, endilikda boshqasi ushbu funksiyani amalga oshirmoqda. Chunonchi, an'anaviy do'konlar & online marketlar; an'anaviy ovqatlanish muassasalari & oziq-ovqatni manzilgacha yetkazib berish; mashrutli buyurtma agentliklari & online buyurtmalar; an'anaviy bank xizmati & online ilovalardan foydalanish va hokazo.

Demak, bunday o'zgarishlar kelajakda tadrijiy o'sib boradi hamda yangi tarmoqlarning shakllanishi, ba'zi sohalarning yo'qolib ketishi kuzatiladi. Shunday bo'lsa-da, servis sohalaridagi o'zgarishlar aholiga xizmat ko'rsatishni tobora optimallashtirib, makon va zamonga moslashtirib boradi. Bu esa aholining ehtiyojlarini qondirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini joylashtirishga oid qanday klassik ta'limotlar mavjud?

2. Servis sohalarini joylashtirishga qaysi omillar asosiy ta'sir ko'rsatadi?

3. Vaqt o'tishi bilan xizmat ko'rsatish sohalarining makon va zamondagi o'zgarishlariga misollar keltiring: yaqin o'tmishda yo'qolib ketgan, kamayib borayotgan va yangi shakllanayotgan servis sohalari.

19-BOB. IQTISODIY GEOGRAFIYA VA MINTAQAVIY IQTISODIYOT

Mavzu annotatsiyasi. *Ushbu mavzu Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyotning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari hamda ularning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilishga bag‘ishlangan. Chunonchi, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda hudud omilining roli, makroiqtisodiyot tarmoqlarini mintaqaviy tashkil etish masalalari bayon etilgan. Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyotning zamonaviy muammolari va istiqbolli rivojlanish tendensiyalariga alohida e’tibor qaratilgan.*

Tayanch so‘z va iboralar: *iqtisodiy geografiya, mintaqaviy iqtisodiyot, makroiqtisodiyot tarmoqlari, o‘shish qutblari, kichik hududlarni rivojlantirish dasturi.*

Reja:

- 19.1. Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyotning o‘xshash va farqli jihatlari.
- 19.2. Mintaqaviy iqtisodiyot va uning amaliy ahamiyati.
- 19.3. Tog‘li hududlar – mintaqaviy iqtisodiyotning o‘ziga sifatida.



19.1-§. Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyotning o‘xshash va farqli jihatlari

Jamiyat taraqqiyoti va shunga mos ravishda fanlarning rivojlanishi, ularning ichki turlanishi va, ayni paytda, yangilarining vujudga kelishi bilan sodir bo‘lmoqda. Bu xususda turli fanlar qirrasida shakllanayotgan yo‘nalishlar katta va integratsion salohiyatga ega. Jumladan, iqtisodiy geografiya yoki iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ham tabiiy va ijtimoiy (gumanitar) fanlar oralig‘idan o‘rin olgan. Binobarin, u ham tabiiy, ham ijtimoiy fanlar tizimiga kiradi.

Dastlab, iqtisodiy geografiya (IG) iqtisodiyot fanlar turkumiga mansub bo‘lgan, chunki u vaqtda asosiy e’tibor tarmoqlarga, ularning iqtisodiy ta’riflariga qaratilgan edi. Keyinchalik, N.N.Baranskiy tomonidan rayonlar yo‘nalishini kuchaytirish, shubhasiz, iqtisodiy geografiyani yana geografiylashtirdi. Bunga dastavval Germaniyada,

soʻngra Rossiyada rivojlangan statistikaning mamlakat va rayonlarni tasvirlovchi va tavsiflovchi yoʻnalishi ham sabab boʻldi.

Iqtisodiy geografiya oʻzining evolyutsion taraqqiyotida bir necha bosqichlarni bosib oʻtdi. U, dastlab, tasvirlovchi funksiyani bajargan boʻlsa, keyinchalik iqtisodiy geografiyaning analitik xususiyati kuchaydi, hodisa va voqealar faqat tasvirlanmasdan, ular ilmiy tahlil asosida taʼriflandi va tavsiflandi. Mazkur fan rivojlanishining uchinchi bosqichi sintez, yaʼni tahlil natijalarini umumlashtirish va baholash (diagnostika) bilan bogʻliq boʻldi. Hozirgi kunda esa iqtisodiy geografiyada prognoz va boshqaruv (hududiy menejment), jamiyat va ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etish funksiyalari ham rivojlanmoqda.

Koʻrinib turibdiki, iqtisodiy geografiya ancha boy va anʼanaviy tarixga ega. Unga koʻra mintaqaviy iqtisodiyot (MI) fan sifatida ancha keyinroq shakllandi. Mazkur yoʻnalishning yoki rayonlar (regionlar) haqidagi fanning asoschisi amerikalik olim, Pensilʼvaniya universiteti geografiya fakulʼtetining dekani, professor Uolter Ayzard hisoblanadi. U Nyu-Yorkda nashrdan chiqqan «Joylashtirish va mintaqaviy iqtisodiyot» (1956) hamda «Regional tahlil metodi: regionlar toʻgʻrisidagi fanga kirish»²⁷ (1960) nomli asarlarida regionlar toʻgʻrisidagi fan yoki regionika va uning alohida qismi boʻlgan mintaqaviy (regional) iqtisodiyot masalalarini keng va atroflicha yoritdi. Izard regionlar toʻgʻrisidagi fanlarning Xalqaro assotsiatsiyasini ham tashkil qildi va boshqardi.

Izardning mintaqaviy iqtisodiyoti, albatta, qisman boʻlsada undan oldin yaratilgan nazariy gʻoyalar, chunonchi I.Tyunen, A.Veber, A.Lyosh, V.Kristaller singari nemis iqtisodchilarini asarlarini hisobga olgan holda vujudga kelgan. Shuningdek, bu yerda Perru, Budvil, Launxardt, Predyol, Palander, Guver kabi Gʻarbiy Yevropa olimlarining ilmiy asarlari ham ahamiyatlidir. Ayni paytda, muallif rayonlarning ichki va rayonlararo iqtisodiy aloqalarini tahlil qilishda oʻzining safdoshi V.Leontevning harajat – ishlab chiqarish («затрат – выпуск») metodidan keng foydalangan.

Mintaqaviy iqtisodiyot uchun eng muhim ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish masalasi fanda, dastavval, nemis olimlari tomonidan oʻrganilgan. Bunday tadqiqotlar natijasida hududiy iqtisodiyot, hududiy omillar, aglomeratsiya, mujassamlashuv, iyerarxiya,

²⁷ olimning ushbu asarlari ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilingan

iqtisodiy landshaft, markaziy joylar kabi tushunchalar paydo bo'ldi va ular hozirgi ilmiy adabiyotlarda keng qo'llanilmoqda.

Sobiq Ittifoq davrida Davlat Bosh planining raisi akademik N.N.Nekrasov XX asr 70-yillarida o'zining «Mintaqaviy iqtisodiyot» (Региональная экономика) kitobini nashr ettirdi²⁸. U bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish kuchlarini o'rganuvchi kengash (СОПС)ning ham raisi bo'lgan. Shunga o'xshash ilmiy tadqiqot muassasalari Ukraina, Tojikiston va O'zbekiston respublikalarida ham tashkil qilingan bo'lib, u ko'proq ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, hududlarni iqtisodiy rayonlashtirish muammolari bilan mashg'ul edi. Bu tadqiqotda iqtisodchilar bilan birgalikda iqtisodiy geograflar yoki asosiy ma'lumoti iqtisodiy geografiya bo'lganlar ham faol qatnashardi²⁹. O'rni kelganda aytish kerakki, Sobiq SSSR da aynan mazkur kengash ishlarida hozirgi «Mintaqaviy iqtisodiyot» shakllandi va rivojlanib bordi. Chunonchi, O'zbekiston FA qoshidagi СОПС olimlarining faoliyati tufayli Ittifoqda ilk bor *hududlar iqtisodiy rivojlanish muammolarini kompleks o'rganish* ilmiy yo'nalishi vujudga kelgan edi.

Shunday qilib, avvallari MI va IG orasida deyarli farq yo'q edi, olimlar ham bunga e'tibor berishmasdi. Sohasi iqtisodiy geograf bo'lgan N.N.Kolosovskiy, N.N.Baranskiy, I.M.Mayergoyz, T.M.Kalashnikova va boshqalar tomonidan yaratilgan yoki rivojlantirilgan hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy ishlab chiqarish majmualari, xalq xo'jaligining hududiy tarkibi yoki tizimi, energiya ishlab chiqarish tsikllari kabi fundamental g'oyalar keyinchalik faqat geograflarnigina emas, balki ayni chog'da iqtisodchilarniki ham bo'lib qoldi va bunga hech kim e'tiroz bildirmasdi³⁰.

N.N.Nekrasov o'zining asarida mintaqaviy iqtisodiyotni ta'riflab, an'anaviy iqtisodiy geografiyani asosan tabiiy resurslar va ularni xo'jalik jihatdan baholovchi fan sifatida qaradi va uni nohaq kamsitdi, tadqiqot doirasini cheklab qo'ydi. Balkim shuning uchun bo'lsa kerak, Y.G.Saushkin so'nggi asarida «iqtisodiy geograflar o'zlarining erishgan muhim yutuqlarini yo'qotib qo'ymoqdalar va bu haqda men kimga arzimni aytishimni bilmayman», deb noiloj achinib yozgan edi.

²⁸ N.N.Nekrasovning ilmiy rahbari geograf olim N.N.Kolosovskiy bo'lgan

²⁹ jumladan, professor Z.M.Akramov hamda ushbu kitobning muallifi turli yillarda mazkur kengashda ishlagan

³⁰ Markaziy Osiyoda «Mintaqaviy iqtisodiyot» bakalavr yo'nalishi ilk bor bevosita ushbu kitob muallifi tashabbusi bilan ToshDU (hozirgi O'zMU)ning geografiya fakulteti iqtisodiy geografiya kafedrasi negizida 1998/1999-o'quv yilida ochilgan va 2003/2004-o'quv yiliga qadar yuzdan ortiq talabalar uni bitirishgan

N.N.Nekrasovning bunday fikri ko‘pgina iqtisodchi va geograflar orasida anchagina shov-shuv va qizg‘in bahs-mulohazalarga sababchi bo‘ldi. Pirovard natijada, «yarashilgan» (kompromiss) xulosa chiqarildi: *mintaqaviy iqtisodiyot – bu geografiylashtirilgan iqtisodiyot, iqtisodiy geografiya esa iqtisodiylashtirilgan geografiya*, deb murosaga kelishildi va bu haqda o‘sha davrning nufuzli jurnalida axborot berildi. Boshqacha qilib aytganda, MI aniq iqtisodiyot va iqtisodiy geografiya qirrasidagi fan sifatida tan olindi.

Ammo shunga qaramasdan, yuqoridagi bahs-munozaralar ayrim salbiy oqibatlariga olib keldi. Ehtimol, bunga N.N.Nekrasovning obro‘ va amali ham ta’sir qilgan bo‘lsa kerak. Chunonchi, o‘sha davrdagi xalq xo‘jaligi turkumidagi oliygohlarda, jumladan, Toshkent xalq xo‘jaligi institutida (hozirgi Iqtisodiyot universiteti) mavjud bo‘lgan iqtisodiy geografiya kafedralarining nomlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri «Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish» – deb o‘zgartirildi, ularni ayrimlari hozirgi kunda «Mintaqaviy iqtisodiyot» nomini olishdi. Qizig‘i shundaki, kafedralar nomi o‘zgarsada, ularda ishlovchi mutaxassislar va o‘qiladigan fanlar mazmuni deyarli o‘zgarmay, ilgariligicha qoldi, kadrlar tarkibi esa ko‘proq tayanch ma’lumoti iqtisodiy geografiya bo‘lgan mutaxassislardan shakllangan (bundan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Moliya instituti ham istisno emas)³¹.

Biz yuqorida IG va MI ning «egizak» fanlar ekanligi, ularning birbiriga qondosh va qarindoshligini, ular o‘rtasida «Xitoy devori» yo‘qligini asoslashga urinib ko‘rdik. Biroq, o‘xshashlik mutloq bir xillik, yagonalik emas. Mazkur fanlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar va tafovutlar quyidagicha tavsiflanishi mumkin:

1. MI va IG ning tadqiqot obyektlari bir – ishlab chiqarishni ma’lum hududda joylanishi. Lekin, birinchisi uchun eng muhimi ishlab chiqarishning, aniqrog‘i ishlab chiqarish tarmoqlarining iqtisodiy jihatdan hududiy joylanishi bo‘lsa, ikkinchisi uchun esa ishlab chiqarish kuchlarining hududiy tarkibi va tuzilmasi, hududiy tashkil etilishi ustuvorroq ahamiyatga ega.

2. MI muayyan, alohida rayon yoki hududlarda ishlab chiqarish kuchlarining joylashtirishni iqtisodiyot nuqtai nazaridan tahlil etadi va baholaydi. IG esa turli mamlakat yoki rayonlarda ishlab chiqarish kuchlarining joylashuv xususiyatlari va hududiy tafovutlarini, ularga

³¹ Moskva shahridagi Moliya instituti Mintaqaviy iqtisodiyot kafedrasini mudiri T.G.Morozova o‘zi ham, deyarli qolgan barcha kafedra a‘zolari ham ma’lumoti bo‘yicha iqtisodiy geograf

ta'sir etuvchi omil hamda sharoitlarni hisobga olgan holda qiyosiy o'rganadi.

3. MI – da tahlil hududdan tarmoqqa, IG – da tadqiqot tarmoqdan hududga tomon olib boriladi; birinchisida hududiy tizimda tarmoq tarkibiga, ikkinchisida tarmoq tizimidan hududiy tarkib yo'nalishiga urg'u beriladi. SHu bilan birga, iqtisodiy geografiyada bu zanjir an'anaviy tarzda uzunroq: tarmoq → hudud (rayon) → tarmoq; vaholanki, mintaqaviy iqtisodiyotda u asosan hudud (rayon) → tarmoq shakliga ega.

4. Tan olish kerak: MI – torroq bo'lsada, u chuqurroq va, binobarin, amaliyotga yaqinroq, aniqroq fandir. Iqtisodiy geografiya tadqiqot predmeti, qamrovining kengligi sababli u ko'proq tasvirlovchi va tavsiflovchi fan, ayrimlar nazarida hatto nohaq ravishda u faqat o'quv predmeti sifatida e'tirof etiladi. Demak, iqtisodiy geograflar uchun iqtisodiy bilimlar va hisob-kitoblarni kuchaytirish, chuqurlashtirish, konstruktiv, ya'ni amaliy yo'nalishlarni rivojlantirish muammolari dolzarbdir. Mintaqaviy iqtisodiyot uchun esa hududiy omillarni, ishlab chiqarish bilan hudud o'rtasidagi munosabatlarni, jumladan, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti, geokologik va iqtisodiy rayonlashtirish, HICHM muammolarini ham o'rganish talab qilinadi.

5. MI – asosan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish haqidagi fan, hozirgi zamon iqtisodiy geografiyasi esa bir vaqtning o'zida u ham sotsial geografiyadir yoki rasmiy ravishda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyadir. Binobarin, bu fan iqtisodiy masalalar bilan birga ijtimoiy jabhalarni ham o'rganadi, vaholanki MI asosan iqtisodiyot bilan shug'ullanadi. Ammo bu fan ham ichki jihatdan murakkab bo'lib, u mintaqaviy moliya, infratuzilma, mintaqaviy siyosat masalalarini o'z qamroviga oladi.

6. Iqtisodiy geografiyada rayonlashtirish g'oyasi muhimdir; mintaqaviy iqtisodiyot ana shu rayonlashtirish jarayonining natijasi – alohida rayon iqtisodiyoti bilan qiziqadi. IG – da ko'p bosqichli hududiy mehnat taqsimoti va shunga mos ravishda turli darajadagi hududiy bozorlar o'rganiladi, MI – da asosan rayon ichidagi hududiy mehnat taqsimoti va rayon (mintaqa) bozori tahlil etiladi; iqtisodiy geografiya ham ichki, ham rayonlararo iqtisodiy munosabatlar va integratsion jarayonlar bilan ko'proq shug'ullanadi. Yuqoridagilar ko'rsatadiki, IG MI-ning nazariymetodologik asosi hisoblanadi.

7. Har ikkala fan uchun ham ishlab chiqarish kuchlarini oddiy joylashtirishdan ko'ra ularni ma'lum maqsadga qaratilgan *hududiy*

tashkil qilish muhimroq. Hududiy tashkil qilish esa tartib va tarkib, uyushganlik va boshqaruv demakdir. Ana shu ma'noda turli darajadagi hududiy ishlab chiqarish majmualarini shakllantirish asosida iqtisodiy (va iqtisodiy geografik) samaradorlikni amalga oshirish mumkin. Bu samaradorlikka (uni aglomeratsion samaradorlik ham deb ataydilar) o'zaro hududiy uyg'unlashuv, qo'shnichilik va masofani - transport harajatini qisqartirish, tejamkorlik asosida erishiladi. SHu sababdan har qanday mintaqa xo'jaligi mintaqaviy iqtisodiyot bo'lavermaydi, u mintaqa iqtisodiyotidir; mintaqa iqtisodiyoti oddiy tizim, ishlab chiqarish yig'indisi, mintaqaviy iqtisodiyot esa ishlab chiqarishning hududiy majmua, klaster, murakkab va mukammal tizim sifatida shakllanganligini anglatadi.

8. Mazkur fanlar uchun tabiiy sharoit va qazilma boyliklarning oddiy joylanishi emas, balki ularning turlanishi va, ayniqsa, hududiy birliklari, birlashmalari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. A.A.Mins ta'kidlaganidek, tabiiy resurslarning hududiy birligi («Территориальное сочетание природных ресурсов») qo'shimcha samaradorlikka yoki bizning iboramizda «ikki karra ikki to'rt emas, balki besh» bo'lishiga olib keladi. Iqtisodiy geografik samaradorlikka asosan hududiy majmualar, masofa harajatlarini kamaytirish orqali erishiladi.

9. Mintaqaviy iqtisodiyot va Iqtisodiy geografiyaning rayon va mamlakatlar tahlilida shaharlar va yo'llar o'sha joy xo'jaligining «qovurg'asi» hisoblanadi. Ammo IG – da hudud ta'rifidan shaharlarga o'tilsa, mintaqaviy iqtisodiyot va mintaqaviy siyosat shaharlar, urbanizatsiya siyosati bilan chambarchas bog'liq, zero o'sish qutb va markazlari, «rivojlanish o'qlari» va yo'laklari hudud iqtisodiyotini shakllantiradi va jonlantiradi.

10. Mintaqaviy iqtisodiyot iqtisodiy geografiyaga ko'ra amaliyroq, chunki u mintaqaviy siyosat (hududiy siyosat emas!) bilan uzviy aloqador. Har qanday mamlakatning demografik, fan-texnika, ijtimoiy-iqtisodiy, tashqi siyosati bo'lganidek uning mintaqaviy siyosati ham mavjud. Bu siyosatning ahamiyati ayniqsa bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni davlat tomonidan tartibga solish, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini (tafovutini) mumkin qadar kamaytirish va qisqartirish, ishsizlikning ko'payishini oldini olish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash kabi muammolarni hal etishda kattadir.

O'z mohiyatiga ko'ra mintaqaviy iqtisodiyot, umumiy iqtisodiyot va iqtisodiy geografiya fanlari qirrasida yoki ularning oralig'idan joy

oladi. U iqtisodiy geografiya bilan birgalikda hudud xo‘jaligini o‘rganuvchi fanlar turkumini tashkil etadi hamda jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega.

19.2-§. Mintaqaviy iqtisodiyot va uning amaliy ahamiyati

Mintaqaviy iqtisodiyot va iqtisodiy geografiya birbiriga o‘xshash va yaqin; ikkisi uchun ham ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish umumiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ammo, iqtisodiy geografiya kengroq va umumiyroq, fundamental fan; mintaqaviy iqtisodiyot esa torroq va shuning uchun aniqroq, amaliy fandır. Iqtisodiy geografiya nafaqat rayonlar (regionlar), balki mamlakatlar, jahon xo‘jaligining tizimi va tarkibi bilan ham shug‘ullanadi, ularning o‘zaro farqlari va xususiyatlarini o‘rganadi.

Ko‘pchilikning fikricha, iqtisodiy geografiya mintaqaviy iqtisodiyotning nazariy, metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Chunki, bu fanning fundamental tushunchalari: hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy ishlab chiqarish majmualari dastavval nazariy jihatdan iqtisodiy geografiya fani doirasida yaratilgan. Hozirgi kunda bu kategoriyalar mintaqaviy iqtisodiyot uchun ham o‘zak tushunchalar vazifasini bajarmoqda.

Ta’kidlash joizki, ushbu fanlarning o‘zaro munosabati va predmeti juda munozarali va bahslidir. Har holda, ularning orasidagi farqdan ko‘ra o‘xshashliklar ko‘proq; mintaqaviy iqtisodiyot geografiylashtirilgan iqtisodiyot bo‘lsa, iqtisodiy geografiya iqtisodiy lashtirilgan geografiya sifatida e’tirof etiladi.

Mintaqaviy iqtisodiyot fani doirasida quyidagilar tadqiq qilinadi:

✓ hududlar tabiiy sharoiti va boyliklarini tahlil qilish, ularga iqtisodiy baho berish, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti masalalarini o‘rganish;

✓ mintaqaviy infratuzilma va ijtimoiy–iqtisodiy omillarni tahlil etish;

✓ ishlab chiqarish kuchlarini to‘g‘ri hududiy tashkil qilish, ularni davlat tomonidan tartibga solib borish;

✓ mintaqaviy siyosatning ilmiy asoslarini yaratish, iqtisodiy rayonlashtirish;

✓ mintaqalar rivojlanish strategiyasi va konsepsiyasi, mintaqaviy dasturlash va prognozlar ishlab chiqish;

- ✓ erkin iqtisodiy zonalar, mintaqalar investitsion jozibadorligini aniqlashning ilmiy-amaliy, uslubiy asoslarini yaratish;
- ✓ shaharlar va shahar aglomeratsiyalari rivojlanishi, urbanizatsiya jarayoni, geoekologik muammolarni o‘rganish va h.k.

Mintaqaviy iqtisodiyotning amaliy ahamiyati mintaqaviy siyosat, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini ilmiy asosda ishlab chiqish va uni mahalliy hokimiyat bilan kelishilgan holda hayotga tadbiiq etishdan iborat. Har qanday davlatning mintaqaviy siyosati mavjud bo‘lib, uning tamoyil va yo‘nalishlari, maqsad va vazifalari rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘zaro farq qiladi. Rivojlangan mamlakatlar mintaqaviy siyosati ko‘proq depressiv va muammoli hududlar, poytaxt shaharlar rivojlanishi va urbanizatsiya jarayonini boshqarish va tartibga solish, sotsial va ekologik kabi masalalarni hal qilishga qaratiladi. Rivojlanayotgan davlatlarda esa, ularning milliy iqtisodiyotini shakllantirish va yuksaltirish maqsadida, mintaqalar tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish, o‘shish qutb va markazlarini, erkin iqtisodiy zonalar, hududiy majmualar va klasterlarni tashkil etish, zamonaviy infratuzilma tizimini yaratish, xorijiy investisiyalarni jalb qilgan holda qo‘shma korxonalarini qurish va shu asosda mamlakat eksport salohiyatini oshirishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Yuqoridagi MI va IGning ilg‘ab bo‘lmas darajadagi farqlari ularning birgalikda rivojlanishiga to‘sqinlik qilmasligi kerak. Aksincha, bu fanlarning o‘zaro hamkorligi mamlakat va mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi va konsepsiyasi, dasturlash va prognozlashtirishda, xususan, ilmiy asoslangan mintaqaviy siyosatni ishlab chiqish va uni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

19.3-§. Tog‘li hududlar – mintaqaviy iqtisodiyotning obyektii sifatida

Hududlar iqtisodiyoti gorizantal tafovutlarlardan tashqari, vertikal xilma-xillikka ham ega. Relyef balandlashgani sayin tabiiy sharoit va resurslardagi o‘zgarishlar xo‘jalik tarmoqlari ixtisoslashuvining almashinishiga, aholi turmush-tarzining, mos ravishda, tashkil etilishiga ta’sir o‘tkazadi.

Shu jihatdan, hududining 90 foizidan ortig‘i tog‘li relyefdan iborat bo‘lgan Qirg‘iziston Respublikasi hukumati tashabbusi bilan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining tegishli qarori asosida 2002-yil – «Tog‘ yili» deb qabul qilingan. Bunga, eng avvalo, tog‘ mintaqalarida vujudga

kelgan ekologik vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy va boshqa omillar sabab bo'ldi. Bunga qadar ham tog' muammolari 1992-yilda Rio-de-Janeyro (Braziliya) BMT Umumjahon sammitida alohida ko'rib chiqilgandi. 2002-yilgi tashabbusdan so'ng Yoxannesburg (Janubiy Afrika Respublikasi) shahrida ham tog' mintaqalarining barqaror rivojlanishi g'oyasi qabul qilinadi.

Tog'lar Yer yuzining 40 foizini egallagan bo'lib, dengiz sathidan 500 metrdan baland bunday hududlarda jahon aholisining 1/4 qismi istiqomat qiladi. Yer sharida asosan tog'li, aralash relyef shakliga ega hamda tekislikdan iborat mamlakatlar bor. Tipik tog'li davlatlarga Peru, Chili, Boliviya, Tojikiston, Qirg'iziston, Armaniston, Butan, Nepal, Norvegiya, Shveytsariya, Efiopiya, Keniya va boshqalarni kiritish mumkin.

Xartlarning o'rtasida joylashgan Markaziy Osiyo mintaqasi ham o'zining yer usti tuzilishi, unga bog'liq holda iqtisodiyotining tashkil etilishi bilan ajralib turadi. Shu jumladan, mintaqa markazidagi O'zbekistonda tog'lar mamlakat hududining taxminan 1/5 qismini egallaydi. Respublikaning o'ttizga yaqin «tog'li» qishloq tumanlari uchun 2002–2005-yillarga mo'ljallangan maxsus davlat dasturi ishlab chiqilgan. Bu tumanlar ko'proq *Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent, Jizzax, Samarqand* va *Namangan* viloyatlariga tegishli bo'lib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida periferik iqtisodiyot ko'zga yaqqol tashlanadi. Masalan, Farg'ona viloyatiga qarashli So'x tumani va O'zbekiston tumaniga qarashli Shohimardon qishlog'i ham tog'li hudud bo'lishi bilan birgalikda, anklav joylashuvga ega ekanligi bois, dasturli mintaqaviy iqtisodiyot olib boriladi.

Ma'lumki, «tog'» tushunchasi, odatda, relyef shakli, orografik element ma'nosini bildiradi. Binobarin, u asosan tabiiy geografiyaning obyekti sifatida ko'riladi. Vaholanki, tog'lar katta ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega. Shuning uchun ular iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy geografiyaning ham muhim tadqiqot obyekti bo'lmog'i lozim.

Tabiiy geografiyada tog'larning iqlim hosil qiluvchi va boshqa xususiyatlari yaxshi o'rganilgan. Ayni vaqtda ular yirik mineral boyliklarga, rekreatsiya va turistik imkoniyatlarga ega (19.1-rasm). Biroq, bu salohiyatdan



19.1-rasm. Tog'lar ekoturizmi

foydalanish ko‘proq tog‘liklar manfaati uchun emas, balki tekislikda yashovchilarga xizmat qiladi. Umuman olganda esa, tog‘ va tekislik o‘rtasida o‘ziga xos aloqadorlik, «geografik konveyer» mavjud. Aytish mumkinki, tog‘ borki, tekislik bor va, aksincha, tekislik borki tog‘ bor. Ushbu «geojuftliklar» (L.A.Alibekov) nisbiy tushunchalarning mavjudligi dunyoning, insoniyat hayotining butligi, qolaversa, geografiya fanining mavjudligini ta’minlaydi. Chunki, agar yer yuzi faqat bir relyef shaklidan iborat bo‘lganda edi, tabiiy geografik va iqtisodiy geografik (hududiy mehnat taqsimoti) jarayonlar ham bo‘lmasdi, tabiiy va iqtisodiy rayonlar shakllanmasdi, ularsiz esa geografiyaga ham o‘rin yo‘q bo‘lar edi.

O‘tgan asrning 20–30-yillarida rus geosiyosatchilari «boquvchi landshaft» g‘oyasini oldinga surgan edilar. Darhaqiqat, hozirgi ochiq, erkin iqtisodiyotda biror-bir landshaft turi yoki ma’muriy–hududiy tizim boshqalardan ajralgan, natural xo‘jalik ko‘rinishida rivojlana olmaydi. Shu bois ham tog‘ resurslari tekislikda qayta ishlanadi va bu mahsulotlardan tog‘liklar ham foydalanadi. Ammo, bunday aylanma harakat, hamkorlik adolatli va ekologik jihatdan o‘zaro manfaatli bo‘lmog‘i lozim.

Geografik jihatdan qaraganda tog‘lar nafaqat maydonining nisbatan kichikligi bilan, balki landshaft va xo‘jalik tarmoqlarining bir tomonlamaligi yoki cheklanganligi bo‘yicha ham farq qiladi. Tog‘larda asosan tog‘-kon sanoati, rekreatsiya va turizm, yaylov chorvachiligi, terrasa shaklida qisman lalmikor dehqonchilik, bog‘dorchilik rivojlanadi. Tekisliklar esa cho‘l, o‘zlashtirilgan vohalar, o‘rmonzorlar va botqoqliklardan iborat. Tekislikda transport tizimi, ko‘p tarmoqli qayta ishlash sanoati va dehqonchilik yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

Tog‘ mintaqalarining ijtimoiy (sotsial) geografiyasi yanada o‘zgacha. Tog‘liklarga xos tanglik, harakatchanlik, mo‘ljalli va tejamkor bo‘lish, xushyorlik va tadbirkorlik mazkur hududda yashovchilarning hayot tarzi, turmush sharoiti, urf-odati, xulq-atvorini belgilab beradi. Shunga o‘xshash mintaqaviy xususiyatlar, bu joylarnish betakror sotsial makonini (muhitini) yuzaga keltiradi. Tog‘liklar, odatda, jismonan sog‘lom, ixcham, chidamli, chaqqon, tirishqoq, har kanday vaziyatdan ham chiqa oladigan bo‘ladi. Ayni vaqtda, tog‘lar bu yerda yashovchilarni «yashiradi», yaxshi-yomondan saqlaydi, qo‘riqlaydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, olis tog‘ qishloqlarida ilgarigi tillar, shevalar, azaliy udumlar saqlanib qolgan. Masalan, Zarafshon daryosining yuqori qismida, hozirgi zamon sivilizatsiyasi madaniyatidan

uzoqroq joylashgan qishloqda qadimgi sug‘d tili saqlanib qolgan ekan, Surxondaryoning Boysuni, Qurama tog‘larida yashovchilar esa o‘zlarining qadimgi qo‘shiq va raqslari, folklor ansamblari bilan mashhur.

Tog‘ mintaqalarida arzon ishchi kuchi ko‘p, ammo dehqonchilik uchun yaroqli yer oz; infrastruktura tizimining yaxshi rivojlanmaganligi, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish imkoniyatlarining cheklanganligi (bu yerlarda qishloq va kichik shaharlar tor daryo vodiylari bo‘ylab tasmaimon cho‘zilib yotadi, yoki tog‘ yonbag‘irlariga «yopishib» turadi, iqtisodiyot tarmoqlari ham yoppasiga emas, orolsimon joylashgan), o‘ziga xos ijtimoiy va iqtisodiy geografik vaziyatni vujudga keltiradi. Tog‘ mintaqalari etnik jihatdan ham farq qiladi. Shu bois, Dog‘iston ser millat, Tog‘li Badaxshon (Pomir) ser elatdir. Ayni vaqtda, tog‘liklarning jangovorlik xususiyatlarini ham inkor etmaslik kerak. «O‘zbek Magellani» nomini olgan professor Hamidulla Hasanov pushtunlarni jahonda tengi yo‘q merganlar, deb ko‘p ta’kidlashini ilm ahli yaxshi biladi. Chindan ham, tog‘ xalqi yoshligidanoq didli, tik tog‘ qoyalari, tor yo‘llarida yurishga odatlanishadi. Tog‘liklar hamma vaqt shoshilib, tez yurishga o‘rganishgan.

O‘zimizning sharq urf-odati bo‘yicha tog‘lar muqaddas, ularga diniy mazmun ham beriladi. *Qirg‘izistondagi Sulaymon tog‘i, Arslonbob, Tojikistondagi Qizilmozor-bobo, o‘zimizdagi Oqsoqota, Sulton Uvays kabilar qadamjoy*, mahalliy xalqlarning ziyoratgohlari, sajdagohlari hisoblanadi. Tog‘ suvi zilol, havosi toza, osmoni musaffo, shundoqqina teppangizdagi yorqin yulduzlari charaqlab turadi.

Ammo, ko‘pgina jahon mamlakatlarida aynan tog‘liklarning yashash darajasi past; bu yerda yuzaga kelgan ijtimoiy tanglik, nochorlik kishilarni nihoyatda tejamkor bo‘lishga undaydi, ularni hatto ba‘zan jamiyat uchun xavfli yo‘llarga chorlaydi (*giyohvandlik ham asosan tog‘ mintaqalaridan kelib chiqqan*); oila a‘zolarining ko‘payishi bilan ularni boqish orasidagi muttanosiblik buziladi, dehqonchilik uchun yaroqli yerlarning tanqisligi aholining mutloq ko‘pligini yuzaga keltiradi. Natijada ishsizlik, geokriminogen vaziyatning buzilishi kelib chiqadi, yoshlarning ish qidirib «pastga», tekislikka tushishi esa tog‘ mintaqalarinig demografik vaziyatini ham o‘zgartiradi.

Ayrim davlatlarning chegaralari tog‘ tizmalari orqali o‘tgan. Turli xil siyosiy vaziyatlarda ular mamlakatning «suyangan tog‘i», umurtqa pog‘onasi, mustahkam qalqoni, himoyachisi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, hozirgi davrdagi aksariyat mojarolar, millatlararo

kelishmovchiliklar aynan tog‘li hududlarda kuzatilmoqda (*Bolqon yarim oroli, Afg‘oniston, Tog‘li Qorabog‘, Checheniston, Dog‘iston, Janubiy Amerikaning ayrim mamlakatlari va h.k.*). Bunday joylar xalqaro terrorizmning ham o‘chog‘iga aylangan va bu o‘choqlar olovi so‘ndirilsa ham yana ancha vaqt «tutab» turadi. Yaxshi geosiyosiy vaziyatda esa avvallari mamlakat va mintaqalarni ajratib, to‘siq bo‘lib turgan tog‘lar endigi sharoitda ularni bog‘lovchi vazifasini bajarmoqda. Bu borada, ayniqsa «xalqaro» yoki mamlakatlararo tog‘ tizmalari muhim ahamiyatga ega. Zero, bu joylarda yirik, sho‘x va sersuv daryolar shakllanadi, ulardan birgalikda foydalanish esa davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonini rivojlantirishga imkon beradi.

Yaqin o‘tmishda bir necha tog‘li hududlar – Toshkent viloyati va Janubiy mintaqalarda noxush voqealarning kuzatilganligi tog‘larni harbiy geografik jihatdan o‘rganishning zarurligini ko‘rsatib berdi. Chindan ham harbiylarimizning tog‘ sharoitida o‘z vazifalarni ado etishlarida bunday bilimlar juda asqotadi.

Demak, tog‘lar ularning mamlakat hududida qanday joylashuvi (*o‘rtada, chetda, kenglik yoki meredian shaklda*), baland-pastligi, keksa yoki yoshligi katta iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va geografik mazmun kasb etadi. Tog‘larning harbiy-strategik ahamiyati ham sir emas, ular o‘zlarining geologik xususiyatlariga ko‘ra turli xil ma‘dan va mineral suvlarga boy. Shuningdek, mamlakatning orografik holati uning yagona geosiyosiy tizim shaklida rivojlanishiga ta‘sir qiladi. Jumladan, Tojikiston va Qirg‘iziston respublikalari hududiy-siyosiy tuzilishining o‘ziga xosligi ularning janubiy va shimoliy qismlarini baland tog‘ tizmalari orqali ajralib turishi, bu mintaqalarning iqtisodiy va transport geografik o‘rni, tarixiy va ijtimoiy rivojlanishi jihatdan ma‘lum darajada farq qilishi bilan tavsiflanadi. Samarqandni Amir Temur davlatining poytaxti qilib olinishida ham qisman uning tog‘ etagida joylashganligi, harbiy va geostrategik mavqei sabab bo‘lgan.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, tog‘ va tekislik bir juft, o‘zaro aloqada; ularning har ikkisini ham ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Ammo, yer yuzida yomon joy yo‘q, nodon geograf bor. Binobarin, tog‘ ham yaxshi, tekislik ham, ularning har ikkisi o‘zgacha yaxshi. Geograflar bu relyef shakllariga bir xil, ya‘ni teng, ularni kamsitmasdan qarashadi, ayni vaqtda ularning har xilligi, turli-tumanligi bu fanning mohiyat, mazmun va maqsadini aks ettiradi.

Ammo negadir tog‘larga alohida urg‘u beriladi. Masalan, tog‘ asali, tog‘ sporti, tog‘ turizmi, tog‘ qimizi, tog‘ kasalligi, tog‘ shamoli,

tog' sanoati, tog' yili, tog' echkisi, tog' yalpizi, tog' dasturi va hokazolar bor-u, biroq ularning tekislikka oid aytilishi yo'q. Aslida olganda, tog' tushunchasi nisbiy; ehtimol nepalliklar uchun tog' bu Everest (Jomolungma) cho'qqisidir, shimoliy Yevropa, Belarus xalqi uchun esa oddiy tepalik ham tog'dir.

Tog' va tekislik doimo hamkorlikda, tog' oralari soylaridan tekislik foydalanadi, soylarning quyi qismida voha va vohachaaar, ularning sig'imiga mos shahar va xo'jalik tiplari vujudga keladi. Bunga Farg'ona vodiysi yaqqol misol bo'la oladi.

Tog'lar yirik gidroenergetika manbaiga ega, ularda qator suv elektr stantsiyalari qurilgan. Jumladan, 6000 metr balandlikka ega And tog'laridan boshlanuvchi Parana daryosida dunyoning eng yirik GESlaridan biri Itaypu (95 mlrd kW•h) Braziliya va Paragvay chegarasida barpo etilgan. Venesuellaning Gviana tog'laridan oqib tushuvchi Karuna daryosiga Guri (47 mlrd kW•h), AQSh shimoli-g'arbidagi Kordilyera tog'laridan suv oladigan Kolumbiya daryosiga Gran-Kuli (47 mlrd kW•h), Rossiyadagi manbasi Sayan tog'lari bo'lgan Yenisey daryosidagi Sayan-Shushen (23 mlrd kW•h) kabi gidroelektr stantsiyalari bunyod etilgan. Bundan tashqari, tog'larning ajoyib manzarasi, tog' ko'llari, qor va muzliklari, sharsharalari, g'orlari, cho'qqilari, dorivor o'simliklari va boshqalar kishi e'tiborini o'ziga jalb qiladi.

Tog' landshafti yilning 4 faslida o'zgacha go'zal. Uning jozibali va dilkash ko'rinishi ayniqsa bahor va yoz oylarida kishiga orom, yaxshi kayfiyat, ko'tarinki ruh bag'ishlaydi; ilmiy ijod sohiblari uchun esa yangicha zavq-u shavq, ilhom beradi; fikrni uyg'otadi va charxlaydi. Dog'iston tog'lari Rasul Hamzatovni, Qirg'izistonning tog'li hududi Chingiz Aytmatovni dunyoga mashhur etgan edi.

Tog', tog' landshafti, uning tik (vertikal) zonalarini qiyosiy geografik o'rganish buyuk nemis olimi A.Gumboldtning tabiiy geografiyaning bilimdoni, Tangritog' esa P.P.Semyonovni «Tyanshanskiy»ga aylantirdi. Qizig'i shundaki, dunyo avval eniga, so'ngra bo'yiga – balandlik va chuqurlik tomon o'rganila boshlandi. Balandlik, ya'ni tog'lardan keyin kishilar koinot sirlari bilan qiziqqa boshladi. Xususan, bunday tadqiqotlar Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin, dunyoning barcha qismlari ochilgandan so'ng avj oldi.

Tog'liklar tekisliklarni o'zlashtirishda faol qatnashishdi, ammo bu yerda vujudga kelgan ekologik muammolarga ham «sherik» bo'lishdi. Hozirgi kunda endi ular cho'llarning «sho'rini quritishmoqda». Sobiq

sho'rolar davrida tog'larda kichik qishloqlar «istiqbolsiz» hisoblanib, ularning aholisi majburan tekisliklarga, urbanizatsiyalashgan hududlarga ko'chirilgan. Ammo ko'p o'tmasdan, ular yana tog' hayotini qo'msab, kindik qonlari to'kilgan joylariga qaytishdi.

Bir vaqtlar tog'lar sivilizatsiya markazi bo'lgan, bunga Markaziy va Janubiy Amerikadagi qadimgi mayya, ink, asteklar madaniyati, Tibet tibbiyoti va boshqalar dalil bo'lishi mumkin. Qishloq xo'jalik ekinlarining dastlabki o'choqlari ham aynan tropik va subtropik o'lkalaridagi tog' hududlari bo'lgan (*Peru, Meksika, Efiopiya va boshq.*). Shunday qilib, olamshumul (global) miqyosda taraqqiyot, sivilizatsiya deb atalmish madaniyat yana g'arbdan sharqqa, shahardan qishloqqa, tekislikdan toqqa ko'chishi ehtimoldan holi emas. Ta'kidlash joizki, tog'larning vertikal (tik) mintaqalari faqat tabiiy geografik mazmunga ega emas; turli xil balandliklarda xo'jalik turlari va ixtisoslashuvi, kishilarning hayot sharoiti va yashash tarzi ham har xil.

Keyingi yillarda sodir bo'layotgan Yer yuzi iqlimidagi o'zgarishlar, suv toshqinlari kabi tabiiy ofatlar tog'lar nufuzini yanada oshiradi. Biroq, tog'lar, tog'liklar o'zlarining muammolarini o'zlari hal etishga qodir emas, ular bu borada yordamga muhtoj va «muammoli hudud» hisoblanadi. Binobarin, tog'larning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ekologik holatining yaxshilanishi davlatlarning alohida, maxsus mintaqaviy siyosatida ko'rilishi maqsadga muvofiqdir. Bu xususda marhum professor A.Ro'ziyevning tog' taqdiri, dasturi haqida qayg'urishi, afsuski, uning so'nggi nidosi bo'lganini keltirish o'rinli bo'ladi.

Hozirgi kunda tog' mintaqalarini barqaror rivojlantirish, ularni asrab-avaylash, nozik tabiati va xalqiga to'g'ri munosabatda bo'lish nihoyatda zarurdir. Aynan ana shunday olamshumul muammolar bizning yurtimiz – O'zbekiston uchun ham dolzarbdir va ularni ilmiy asosda yechishda geograflarning o'rni yuqori bo'lmog'i lozim.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot fanlarining qanday o'xshash va farqli jihatlari mavjud?*
- 2. Mintaqaviy iqtisodiyotning qanday amaliy ahamiyati mavjud?*
- 3. Iqtisodiyotning hududiy farqlari nima sababdan relyef bo'yicha katta farq qiladi?*

20-BOB. SIYOSIY GEOGRAFIYA VA MINTAQAVIY SIYOSAT

Mavzu annotatsiyasi. *Ushbu mavzuda mintaqaviy siyosat va geosiyosatning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari, mintaqaviy siyosatning maqsad va vazifalari, geosiyosatning obyekti va predmeti haqida tahlillar keltirilgan. Klassik geosiyosiy nazariyalar va reaksiyon geosiyosiy qarashlar, zamonaviy geosiyosat asoslari yoritib berilgan. Shuningdek, mintaqaviy siyosat «o‘shish qutblari»ni shakllantiruvchi bosh omil sifatida baholangan, mintaqaviy siyosatning tarmoqlar va integral aspektlari bayon etilgan.*

Tayanch so‘z va iboralar: *ma‘muriy-hududiy tuzilish, geosiyosat, klassik geosiyosiy ta‘limotlar, siyosiy geografiya, mintaqaviy siyosat, integral aspekt.*

Reja:

20.1. Mintaqaviy siyosat va siyosiy geografiyaning o‘xshash va farqli jihatlari.

20.2. Mintaqaviy siyosatning asosiy maqsad va vazifalari.

20.3. Anklav hududlar – mintaqaviy siyosat nigohida.



20.1-§. Mintaqaviy siyosat va siyosiy geografiyaning o‘xshash va farqli jihatlari

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya rivojlanib borgani sayin, uning tarkibidan siyosiy qarashlar va ma‘muriy boshqaruv tizimlarini tartibga soluvchi konsepsiyalar ma‘lum fan, tarmoq sifatida ajrab chiqa boshladi. Jumladan, geosiyosat, siyosiy geografiya va mintaqaviy siyosat shular jumlasidandir.

Tashqi siyosatning bir ko‘rinishi – geografik siyosat, ya‘ni *geosiyosatdir*. Bu siyosatning mazmunini ham ikki xil talqin qilish mumkin: avvalgi reaksiyon ma‘noda va hozirgi to‘g‘ri mazmunda. Birinchisi, ko‘proq G‘arb mamlakatlarida alohida oqim sifatida, asosan nemis, ingliz va shved olimlari (Fridrix Rattsel, Rudolf Chellen, Karl Xausxafer, Alfred Mexen, Xelford Makkinder va h.k.) tomonidan yaratilgan bo‘lib, u o‘ta reaksiyon, o‘zga davlatlar va millatlarni kamsitish, ularning hududlariga tahdid-tajovuz qilish, bosib olishni

anglatadi. Aytish joizki, aynan ana shunday geosiyosat mamlakatlar o'rtasidagi nizolar, jangu-jadallarga sababchi bo'lgan: nemis fashizmining Ikkinchi jahon urushini boshlashi ham g'oyaviy jihatdan reaksion geosiyosatga asoslangan edi.

Yer yuzining turli qismlarida mavjud bo'lgan hududiy kelishmovchiliklar asosida turli davlatlarning birinchi yo'nalishdagi geosiyosati yotadi. Masalan, sobiq Yugoslaviya hududidagi janjallar, Isroil-Falastin munosabati, Panjob va Kashmir, Tog'li Qorabog', Shimoliy Kavkaz, Kuril orollari, Tayvan kabi juda ko'p muammoli hududlar shular jumlasidandir.

Geosiyosatning hozirgi zamon, to'g'ri ma'nosi u yoki bu davlatning jahonning boshqa mamlakatlari, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan tinch-totuv yashash, ular bilan turli sohalarda hamkorlik qilishni bildiradi. SHuningdek, bu yerda mamlakatning Dunyo okeaniga va bozoriga arzon, qulay, beg'araz va bexatar yo'llar orqali chiqishi ham nazarda tutiladi.

Mamlakatning geografik mazmundagi ichki siyosatini mintaqaviy siyosat shaklida qabul qilgan ma'qulroq. Garchi «geo» – yer, hudud, mintaqa atamasiga to'g'ri kelsa-da, uning aynan shu ko'rinishi to'g'riroqdir. Sababi, davlatning bunday siyosatini hududiy siyosat darajasida talqin qilish ba'zan kishilar ongiga singib qolgan tushunmovchiliklarga, noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatining alohida, mustaqil mamlakati maqomida, boshqa davlatlarning ham suverenligini e'tirof etadi, ularning hudud va chegaralari dahlsizligini hurmat qiladi. Ayni vaqtda u o'zining yagona geosiyosiy tizim, makon sifatida yaxlitligini har qanday yovuzlardan himoya etadi va o'zgalar tomonidan hurmat qilinishini talab qiladi.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, mamlakat geotizimining mustahkamligi, faolligi, eng avvalo, uning ichki qismlarining o'zaro aloqalari, yagona milliy transport tizimi, ma'muriy-hududiy tuzilmasining to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liq. Ichki barqarorlik har qanday tizim-sistemaning mustaqil faoliyat ko'rsatishi, boshqalardan o'zini saqlash qobiliyatining garovidir. Shu nuqtai nazardan, mamlakat ichida hududiy mehnat taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yish, rayon va viloyatlar orasida sog'lom raqobat muhiti, iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rivojlantirish, yagona geoiqtisodiy makonni vujudga keltirish va uni mustahkamlash, turli hududiy bosqichdagi bozorlarni (mahalliy, mintaqaviy, mintaqalararo, milliy bozor) shakllantirish

O‘zbekiston Respublikasining hozirgi o‘tish davridagi nihoyatda dolzarb vazifalaridir. Chunki, tizim-tarkib qoidasiga muvofiq, butunlik alohida qismlardan tashkil topadi, qismlar, ya’ni mintaqalar esa mamlakat geosiyosiy va geoiqtisodiy yaxlitligini ta’minlaydi.

Mamlakatning ichki siyosati ham ikki xilda bo‘ladi: sohaviy, ya’ni tarmoqlar va hududiy yoki integral. Birinchisiga ijtimoiy, iqtisodiy, fan-texnika, demografik kabi siyosatlar kiradi va ular ham o‘z navbatida alohida qismlardan, «siyosatlardan» tashkil topadi. Masalan, iqtisodiy siyosatda mamlakatimizning yoqilg‘i-energetika, oziq-ovqat va yo‘l (transport) mustaqilligini ta’minlash, ijtimoiy siyosatda – aholini ijtimoiy muhofaza qilish, bandlik siyosati, yoshlar va qariyalarga davlatning munosabati, demografik siyosatda oila, aholining tabiiy va migratsiya harakati bilan bog‘liq masalalarni ajratish mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, tizim yoki sistemaning ichki jihati, ya’ni uning tarmoq yoki komponent hamda hududiy tomonlari borligidek, biz ko‘rayotgan siyosatlar ham xuddi shunday xususiyatga ega. Zero, har qanday hodisa yoki voqelik, albatta qaerdadir mavjuddir; rivojlanish, taraqqiyot faqat ma’lum davrdagina emas, balki muayyan hududda sodir bo‘ladi. Shu jihatdan yondoshganda, yuqorida keltirilgan sohaviy siyosatlar o‘z navbatida hududiy taalluqlikka ega, ya’ni ular ham turli mintaqalarda turlicha amalga oshiriladi. Demak, biz bu yerda tarmoq va hududiy tizimlarning (siyosatlarning) o‘zaro aloqadorligi va bir-birlariga o‘tib turishini guvohi bo‘lamiz.

Mintaqaviy siyosatning eng asosiy maqsadi mamlakat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hududlararo darajasini mumkin qadar yaqinlashtirib berishdir. Ammo ko‘zda tutilgan maqsadlarga iqtisodiyotni rivojlantirish, ishlab chiqarish kuchlarini to‘g‘ri joylashtirish asosida erishiladi. Binobarin, har qanday mintaqaviy siyosat bu hududiy iqtisodiy siyosatdir, iqtisodiy siyosat esa keng ma’nodagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatdir.

Ma’lumki, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish mamlakat milliy iqtisodiyotining umumiy holati, strategik vazifalari bilan belgilanadi. Jumladan, o‘tish davrining iqtisodiyoti bu davrni mumkin qadar tezroq va beshikast bosib o‘tish, bozor iqtisodiyotining mustahkam ishlab chiqarish, huquqiy va ma’naviy asoslarini yaratishni talab qiladi. O‘tish davrida har qanday mamlakat eng avvalo iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlariga ustuvor ahamiyat qaratadi. Bu davrda ayniqsa energetika, don (g‘alla) va yo‘l mustaqilligini ta’minlash

zarur. Aynan ana shu makroiqtisodiy muammolar O‘zbekistonda hozirgi kunda o‘z yechimini topib bomoqda.

Keyingi yillarda ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘muriy va huquqiy tadbirlar majmuasi mintaqaviy rejalashtirish va mintaqaviy bashoratlash shaklida bo‘lmoqda. Bunday mintaqaviy siyosat iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda quyidagilarda ifodalanmoqda:

1) aholi va ishlab chiqarishning haddan tashqari to‘planishini, oldini olish ya’ni «shaharlarni yengillashtirish»;

2) eski sanoat rayonlarini (AQShda – Appalachi; Buyuk Britaniyada – Janubiy Uels, Lankashir; Fransiyada – Lotaringiya, Shimoliy rayon; Germaniyada – Rur va Saar havzalaridan tashqari) rivojlantirish;

3) bo‘sh rivojlangan qoloq agrar rayonlar (Italiyada – Janub; Fransiyada – Shimoli-g‘arb va Janubiy-g‘arb rayonlari; Yaponiyada – Xokkaydo) iqtisodiyotini rivojlantirish;

4) yangi rayonlarni o‘zlashtirish (Kanadada – Shimol, AQShda – Alyaska, Avstraliyada – Markaziy rayon, G‘arbiy rayon; Buyuk Britaniyada – Shimoliy mintaq va boshqa hududlar).

Rivojlanayotgan mamlakatlar guruhida mintaqaviy rejalashtirish va mintaqaviy bashoratlash resursli rayonlarni o‘zlashtirish, iqtisodiyotni tarmoq va hududiy tarkibini takomillashtirish, xalqaro mehnat taqsimotida xomashyo va plantatsiya ekinlari yetkazib berishga ixtisoslashuvdan tayyor mahsulotlar yetkazib berishga o‘tishdan iborat siyosatni o‘z ichiga oladi.

Bozor munosabatlariga o‘tish turli mamlakatlarda o‘ziga xos bo‘lib, barcha davlatlarga mos yagona andoza yo‘q. Bu o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, u nafaqat bevosita iqtisodiyot tizimining o‘zi, balki ichki va tashqi vaziyat, ijtimoiy va ekologik holatning qulayligi, aholining yangi munosabatlarga tayyorligi, ma‘naviyati va moslashuvi kabi omillarga ham bog‘liq. O‘tish davri chindan ham oraliq davrdir; dialektik nuqtai nazardan bunday sharoitda yangilikning qiyinchilik bilan kirib kelishi, eskilikning ma‘lum darajada saqlanib turishi, ular o‘rtasidagi «kurash» bilan bir vaqtda sodir bo‘ladi. Bu davrning yana boshqa murakkab jihati shundan iboratki, davlat ilgorigidek qat‘iy va adresli rejalashtirishni tashkil etmaydi, chunki endi mulk faqat uning tasarrufida emas. Bu davrda davlatning ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga bo‘lgan munosabati keskin o‘zgaradi, u bu jarayonga bevosita emas, ko‘proq bilvosita ta‘sir ko‘rsatadi. Biroq davlat o‘z

funksiyasining shakli va mexanizmini o'zgartirgan holda har qanday sharoitda ham asosiy islohatchi, tashkilotchi bo'lib qolaveradi.

Ta'kidlash lozimki, hududlar rivojlanishi to'g'ri tartibga solinmasa, boshqarilmasa mintaqalarda erkin raqobat muhiti, ochiq iqtisodiy munosabatlar to'laqonli vujudga kelmaydi. Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va hududiy tashkil qilishining davlat tomonidan tartibga solib borilishi obyektiv qonuniyatdir. Ushbu vazifa asosan davlatning mintaqaviy siyosati orqali amalga oshiriladi.

20.2-§. Mintaqaviy siyosatning asosiy maqsad va vazifalari

Mintaqaviy siyosatning zaruriyati bir vaqtning o'zida barcha hududlar iqtisodiyotini bir darajada rivojlantirib bo'lmastligidan kelib chiqadi. Binobarin, mintaqaviy siyosat, eng avvalo, rivojlanishi mumkin va mamlakat uchun muhim bo'lgan ustuvor yo'nalish va tarmoqlarga qaratiladi. Shu mazmunda u mintaqaviy iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi, amaliy yo'nalishi hisoblanadi; mintaqaviy siyosat hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi vaziyatni dinamik holda muvofiqlashtirish va barqarorlashtirishga harakat qiladi.

Mintaqaviy siyosatning asosiy maqsadi quyidagilar:

- hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni yumshatish va qisqartirish;
- mahalliy tabiiy resurslardan foydalanish asosida mintaqaviy va milliy iqtisodiyotni rivojlantirish;
- mintaqalar yordamida mamlakatning eksport salohiyatini ko'tarish, iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash;
- joylardagi ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish;
- shahar va qishloq aholi manzilgohlarini rivojlantirish, urbanizatsiya hamda migratsiya jarayonlarini tartibga solish;
- ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri hududiy tashkil etish;
- hududlarning investitsiya jozibadorligini oshirish;
- aholi bandligini yaxshilash va h.k.

Yuqoridagi strategik maqsadlarga turli yo'llar yordamida erishiladi. Buning uchun avvalambor hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini mutloq ko'rinishida tenglashtirish g'oyasidan voz kechish talab qilinadi. Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini erkinlashtirish, ochiq iqtisodiyot yuritish, qulay investitsiya muhitini shakllantirish, mintaqalar investitsion jozibadorligini oshirish asosida xorijiy

sarmoyadorlarni jalb qilib, o‘zaro manfaatli qo‘shma korxonalar qurish, turli yo‘nalishdagi erkin iqtisodiy mintaqalarni tashkillashtirish hududlar rivojlanishiga katta turtki beradi.

Mintaqaviy siyosat alohida hududlarni tanlab olish asosida amalga oshiriladi, natijada iqtisodiy landshaft qutbiylashadi, o‘shish qutb va markazlari vujudga keladi. Har xil omil va sharoitlarni atroflicha tahlil qilish va rivojlanish imkoniyatlarini baholash orqali saralab olingan u yoki bu hudud iqtisodiyoti yuksalgandan so‘ng navbat mamlakatning boshqa hududiga o‘tadi. Natijada, iqtisodiy rivojlanish ham hududiy tsikllik yoki davriylik, «*geografik uzun to‘lqinlar*» xususiyatiga ega bo‘ladi. Shu sababdan, ma‘lum muddatda tanlangan hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga urg‘u berilishi boshqa hududni kamsitish, imtiyozlarini cheklashni anglatmaydi, chunki, keyinchalik bu hududga ham xuddi shunday e‘tibor beriladi va ularga ham navbat keladi. Ammo mintaqaviy siyosat hududlarning o‘zlarini ham faolligini nazarda tutadi. Shuning uchun mahalliy hokimiyatning bu borada izlanuvchan, tadbirkor bo‘lishi talab etiladi.

Mintaqaviy siyosat o‘z mohiyatiga ko‘ra tashqi siyosatdan (geosiyosatdan) farq qilib, u mamlakatning ichki ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Uning darajalari ham har xil. Masalan, mamlakat ichkarisiga nisbatan ikki darajadagi siyosat ajratiladi: davlatning mintaqaviy siyosati, ya‘ni mamlakat hokimiyatining turli hududlarga (jumladan, viloyatlarga) nisbatan tutgan siyosati hamda mintaqalarning o‘zini siyosati – viloyat hokimiyatining qishloq, tuman va shaharlar rivojlanishiga munosabati. Har qanday sharoitda ham ushbu siyosatni yurgazuvchi yuridik tashkilot respublika va viloyatlar hokimiyati hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni hududiy jihatdan yanada yuqoriroq yoki quyiyoq bosqichda ko‘rish mumkin. Chunonchi, qishloq tumani hokimligining ham o‘zining ichki siyosati bo‘ladi. Ayni vaqtda, davlat darajasidan yuqorida turgan davlatlararo mintaqaviy siyosat ham mavjud. Bunda mintaq sifati alohida davlatlar yoki qo‘shni mamlakatlarning tutash hududlari nazarda tutiladi. Jumladan, Yevropa Ittifoqi miqyosida ana shunday mintaqaviy siyosat olib boriladi. Kelajakda xuddi shunday darajadagi mintaqaviy siyosat boshqa hududiy iqtisodiy ittifoqlar darajasida ham qo‘llanilishi mumkin.

Sobiq Ittifoq davrida O‘zbekistonda mintaqaviy siyosat amalda yo‘q edi. Ba‘zi hududlarning jadalroq rivojlanishi ko‘proq «Butunittifoq» manfaatlarini ko‘zlab olib borilardi. Mirzacho‘l yoki

Qarshi dashtlarini o'zlashtirib, paxtachilikni yanada rivojlantirish, Buxoro, Qashqadaryo tabiiy gaz, Navoiy viloyati oltin konlarini qazib olish aynan shu maqsadda bajarilgan. Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, mintaqaviy siyosatga tegishli ilmiy tadqiqotlar ilgari ham olib borilgan. sobiq Ishlab chiqarish kuchlarini o'rganish bo'yicha Kengash (COIC) respublika hududlar imkoniyatlarini atroflicha tadqiq qilish, hududiy ishlab chiqarish majmualarini shakllantirish kontseptsiyalarini yaratgan. Dastavval Farg'ona vodiysi, so'ngra Buxoro–Navoiy, Angren–Olmaliq, Qashqadaryo, Surxon–Sherobod va Quyi Amudaryo mintaqalari maxsus o'rganilib, bu hududlarda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning Bosh sxemalari tuzilgan.

Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash davrida mintaqaviy siyosatning amaliy ahamiyati yanada kuchaymoqda. Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda Asaka va Samarqand avtomobilsozlik, Qorovulbozor neftni qayta ishlash korxonasi, Qo'ng'iro't soda va Dehqonobod kaliy zavodlari, ko'pgina viloyatlarda qurilgan to'qimachilik korxonalari va boshqalarning o'rni katta. Uchquduq–Miskin–Nukus, Toshguzar–Boysun–Qumqo'rg'on temir yo'llari, Navoiy industrial iqtisodiy va Angren maxsus sanoat zonalari kabilar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan mintaqaviy siyosatning natijasidir.

Respublika rahbariyati ayniqsa qishloq joylarga katta e'tibor qaratmoqdaki, bu ham bo'lsa mintaqaviy siyosatning o'ziga xos bir ko'rinishidir. Darhaqiqat, modomiki mamlakat iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi, aholisining yarmiga yaqini qishloqlarda yashar ekan, bu joylarda jiddiy o'zgarishlarga erishmay turib strategik vazifalarni hal etib bo'lmaydi. Shuning uchun qishloq joylarga sanoatni olib kirish, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish, mehnat resurslari bandligini va aholi turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish eng muhim muammolardan sanaladi. Shu qatorda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni maxalliyashtirish kabi Davlat dasturlarining ham mintaqaviy jihatlari mavjud.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mintaqaviy siyosat turli hududlarda turlicha olib boriladi: ba'zi iqtisodiy rivojlanishi to'xtab qolgan yoki sekinlashgan shaharlar (masalan, Angren, Chirchiq, Marg'ilon va boshq.), depressiv rayonlar xo'jaligini harakatga

keltirilishi, aholisi zich agrosanoat rayonlarda (Farg‘ona vodiysi) ish o‘rinlarini ko‘paytirish, ekologik tanglik vujudga kelgan Orol bo‘yi kabi rayonlarda esa ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilish talab qilinadi. Shunday qilib, mintaqaviy siyosatni amalga oshirish ishlab chiqarish kuchlarini u yoki bu hududda ustuvorroq rivojlantirish demakdir. Binobarin, mazkur siyosatning zaminida sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, aholiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini joylashtirish yotadi, chunki *joylashtirish rivojlantirishning hududiy tomoni, in’ikosidir*.

Respublika milliy iqtisodiyoti to‘la va mustahkam shakllanib borgan sari uning mintaqaviy siyosati nafaqat viloyatlarga, balki boshqa «muammoli» rayonlarga ham qaratiladi. Jumladan, hozirgi kunda Orolbo‘yi mintaqasining ekologik holatini yaxshilash, bu katta hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga jiddiy ahamiyat berilmoqda.

Kelajakda alohida daryo havzalari, voha va vodiylar, tog‘ yoki cho‘l hududlari ham davlatning mintaqaviy siyosatini obyekt sifatida ko‘rilishi mumkin. Sobiq Ittifoq parchalanib, yangi mustaqil mamlakatlar paydo bo‘lishi bilan ilgarigi chegaralar davlat chegarasiga aylanib qoldi. Shu munosabat bilan, chegaraga yaqin yoki o‘ziga xos geografik o‘ringa ega bo‘lgan qishloq tumanlari (masalan, So‘x, Farg‘ona, Bo‘stonliq, Olot, Urgut, Qo‘rg‘ontepa, Shovot, Sariosiyo va h.k.) ham viloyat va davlatning mintaqaviy siyosatida alohida e‘tiborga ega bo‘ladi. Chegarabo‘yi iqtisodiyotining rivojlanishi integratsion jarayonlarni yanada kuchaytiradi va ushbu mintaqalarda yangi iqtisodiy geografiyaning shakllanishiga zamin hozirlaydi.


20.3-§. Anklav hududlar – mintaqaviy siyosat nigohida

Jahonda aholi sonining tez sur‘atlarda o‘sishi, xalqaro aloqalarning rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning tezlashuviga, maxsus hududlarning shakllanishi va transchegaraviy resurslardan birgalikda foydalanishning murakkablashuviga olib kelmoqda. Mazkur muammolarning ijobiy yechimi sifatida bir qator xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish masalalari departamentining 2030-yilgacha barqaror rivojlanish dasturida «Barqaror rivojlanish manfaatlari yo‘lida global hamkorlikni faollashtirish va xalqaro aloqalarni mustahkamlash» vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarning yechimida, ayniqsa, mamlakatlar

o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, transchegaraviy xususiyatga ega bo‘lgan anklav/eksklav hududlardagi vaziyatni barqarorlashtirish alohida dolzarblik kasb etadi.

Anklav hududlar geografiyasi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu o‘ziga xoslikni turli ijtimoiy-iqtisodiy geografik tamoyillar orqali yoritib berish natijasida mazmunan yaxlitlik asosida kompleks tahlil amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi. Anklav hududlarni geografik va geosiyosiy yondashish tamoyiliga ko‘ra – *anklav, eksklav, asosiy davlat, o‘rab turuvchi davlat* kabi kategoriyalarga ajratish mumkin (20.1-rasm).

Anklav (fransuzcha, *enclave* – «qulflab olish», «o‘rab olish») – bu bir davlatning hamma tomondan boshqa davlat hududi bilan o‘rab olingan hududi yoki hududining bir qismi hisoblanadi, ya’ni anklav – bir mamlakatga tegishli, ammo boshqa davlat chegaralari ichida joylashgan hudud hisoblanadi. Chunonchi, San-Marino Italiya Respublikasining ichida, ya’ni hamma tomondan uning hududi bilan o‘ralgan davlat.



20.1-rasm. Anklav hududlarning namoyon bo‘lish shakllari

Keng ma’noda, anklav – ma’lum bir hudud, predmet, guruh yoki qandaydir hodisaning atrof-muhitdan ajratilganlik holatini ifodalaydi. Jumladan, bu atama siyosat va geografik fanlardan tashqari ko‘p sohada o‘ziga xos ma’nolarda qo‘llaniladi hamda, odatda, bu atama o‘rganilayotgan sohadan alohida qism (begona fragment)ning ma’lum bir muhit ichida mavjudligini ifodalashga ishlatiladi. Geologiya sohasida

«anklav» atamasi alohida jins fragmenini aniqlashda qoʻllaniladi.

Cherkov huquqida «anklav» atamasi anʼanaviy ravishda uchrab turadigan boshqa yeparxiya bilan oʻralgan yeparxiya hududini boshqa hududdan ajratishda qoʻllanadi. Iqtisodiyotda ushbu atama xorij kapitali ustun boʻlgan milliy iqtisodiyot doirasidagi (masalan, Afrika va Janubiy Amerika davlatlarida shakar ishlab chiqarish sohasi) sanoat sohalariga nisbatan qoʻllanadi. Ushbu atama sotsiologiya hamda boshqa ijtimoiy fanlar doirasida oʻrab turgan hududdan milliy, siyosiy, sotsiomadaniy yoki boshqa xususiyatlar boʻyicha ancha farqlanadigan zich aholi punkti maʼnosida keng ishlatiladi. Ilmiy adabiyotlarda zich aholi punktlardagi alohida etnik va diniy guruhlarini taʼriflash maqsadida ishlatilgan «etnik» yoki «diniy» anklavlar terminlarini koʻp uchratish mumkin. Mazkur atama boshqa davlatlardagi xitoyliklar alohida yashaydigan kvartallardan to gettolargacha boʻlgan manzilgohlar, shaharchalar tuzilishini oʻrganishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari xorijda ushbu atama harbiy sohada, qishloq xoʻjaligi ishlarida hamda yerlar chegaralarini belgilash borasida va sanoatda keng qoʻllaniladi.

Anklav geografik kategoriya sifatida boshqa davlat hududi bilan oʻralgan asosiy davlat hududining bir qismi hisoblanadi. Hudud tushunchasi oʻz tarkibiga faqat quruqlik hududini emas, balki hududiy suvlarni ham oladi. Anklav muayyan bir davlat hududining boshqa bir yoki bir necha davlatning quruqlik hududi bilan butunlay qurshab olingan qismi boʻlib, u oʻzi tegishli davlat hududining ajralmas qismi hisoblanadi.


Anklavlar hududiy boʻshliqda emas, ular manfatlari turlicha mamlakatlar bilan oʻrab olingan boʻlib, koʻpincha ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Anklavlikni asosiy davlat va oʻrab turuvchi davlat munosabatlari kesishgan hudud shakllantiradi. Bu ikki tomon MES anklavlar uchburchagi³² sifatida taqdim etiladigan konseptual uchburchakning tarkibiy qismidir (20.2-rasm).

Bu nazariya anklavlarni oʻrganish uchun konseptual asos boʻlib xizmat qiladi. Jumladan, «MES uchburchagi» toʻrt vektordan iborat:

- birinchisi – asosiy davlat va anklav oʻrtasidagi munosabatlar;
- ikkinchisi – anklav va oʻrab turuvchi davlat oʻrtasidagi munosabatlar;

³² MES = *Mainland state* (asosiy davlat) + *Enclave* (anklav) + *Surrounding state* (oʻrab turuvchi davlat) jumllalarining qisqartmasi, xalqaro miqyosda foydalanish uchun qulay abbreviatura

- uchinchisi – asosiy va o‘rab turuvchi davlat o‘rtasidagi munosabatlari;
- to‘rtinchisi – asosiy va o‘rab turuvchi davlat o‘rtasidagi bevosita anklavga tegishli masalalar bo‘yicha munosabatlari.



20.2-rasm. Anklav hududlardagi to‘rt tomonlama aloqalar

Uchburchakni tashkil etuvchi vektorlar ikki tomonga (asosiy davlat + o‘rab turuvchi davlat) qaratilgan bo‘lib, bu tomonlarning o‘zaro ta‘sirini aks ettiradi. Biroq, bu ta‘sir ularning kuchlari bilan to‘g‘ri proporsional emas. Odatda, asosiy davlat anklav ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Asosiy davlat va anklavning siyosati anklav moslashishi kerak bo‘lgan vaziyatni belgilaydi. Bundan tashqari, o‘rab turuvchi davlatning iqtisodiy va siyosiy ta‘siri ham anklav hayotida muhim ahamiyatga ega. Shunga qaramay, anklav qanchalik kichik va ahamiyatsiz bo‘lishidan qat‘i nazar, u asosiy va o‘rab turuvchi davlat hamda ularning ikki tomonlama munosabatlariga ta‘sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi nazariya asosida ularning o‘zaro munosabatlari (MES)ni quyidagi to‘rt vektor asosida tavsiflash mumkin:

1. *Asosiy davlat va anklav (M + E) o‘rtasidagi munosabatlari.* Anklav nuqtayi nazaridan, bu vektor eng muhim hisoblanadi. Odatda, bu munosabatlari zanjiri anklavning iqtisodiyoti va siyosatini belgilab beradi. Shu bilan birgalikda, asosiy davlatning ajralmas qismi bo‘lgan anklav uning siyosiy va huquqiy tizimiga bo‘ysunadi. Asosiy davlat anklav hududga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan, asosiy davlat anklavni maxsus vakolat bilan ta‘minlashi mumkin. Siyosiy nuqtayi nazardan, anklavning siyosiy vaziyati ona davlatni havotirga

soladi. Bu, ko'pincha, mamlakatda chiqarilgan siyosiy qarorlar va rivojlanish konsepsiyasiga ta'sir qiladi. Misol uchun, anklavni to'g'ridan-to'g'ri boshqarish yoki mahalliy hokimiyatning ayrim cheklovlari ona davlatning anklav ustidan to'liq nazoratini ta'minlash uchun qo'llaniladi:

Birinchidan, markaziy hukumat anklavni boy berishdan xavotirda bo'lib, bu asosiy davlat uchun salbiy «rag'bat» bo'lib xizmat qiladi. *Ikkinchidan*, anklavlarni markaziy hukumat oldida sezilarli darajada muhim ahamiyatga ega bo'lgan muayyan strategik, harbiy-strategik va geosiyosiy sabablar mavjud bo'lib, bu ijobiy «rag'bat»ni shakllantiradi. Ushbu yuqoridagi ikki omil, odatda, markaziy hukumatning har qanday holatda ham anklavni saqlab qolish istagi borasida «vazn»ga ega.

2. *Anklav va o'rab turuvchi davlat (E + S) o'rtasidagi munosabatlar*. Asosiy davlat anklavga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishiga qaramasdan, o'rab turuvchi davlatning ta'sir doirasi ham o'ziga xos kuchga ega bo'ladi. Binobarin, o'rab turuvchi davlatning ta'siri sust yoki faol bo'ladi. Xususan, o'rab turuvchi davlatning anklavga nisbatan hattiharakatlari asosiy davlat tomonidan anklavni suverenitet jihatdan qo'llab-quvvatlanishi natijasida ma'lum cheklanishga uchraydi. Shved olimi Rudolf Chellen davlatni bir butun organizmga qiyoslaydi. Shu xususida, asosiy davlat yaxlit vujud bo'lsa, «mitti»gina hududiy birlik – anklav u uchun «tirnoqqa kirgan zirapcha» tusiga kiradi.

Asosiy va o'rab turuvchi davlat munosabatlari qaltis geosiyosiy vaziyat bo'lib, anklavlar muammosi ba'zan «yara ustiga chipqon» bo'lishi mumkin. Bu geografik joylashuv tufayli harbiy-strategik rejada tashvishlanish uchun sabab bo'ladi. Bundan tashqari, huquqiy rejimlarning farqlari, kontrabanda qilish imkoniyatlari, chegaralarni saqlash xarajatlari va boshqalar asosida ba'zi iqtisodiy muammolar shakllanadi.

3. *Asosiy va o'rab turuvchi davlat o'rtasidagi (M + S) munosabatlar* anklavga oid masalalar bo'yicha umumiy aloqalarni aks ettiradi. Anklavdagi farovonlik va tartib-qoidalar, asosan, asosiy va o'rab turuvchi davlatlar munosabatlariga bog'liq. Agar bu munosabatlar anklavga bevosita aloqador bo'lmagan masalalar bo'yicha yomonlashsa ham, anklavga salbiy bosim kuchayadi. Ya'ni asosiy va o'rab turuvchi davlatlarning anklavga aloqasi yo'q jarayonlarda ham o'zaro munosabatlarining salbiylasha borishi anklavga kirib-chiqish va undagi vaziyatlarni keskinlashuviga olib keladi. Aksincha, davlatlar o'rtasidagi tinch va do'stona munosabatlar anklav uchun qulay muhit yaratadi.

4. *Asosiy va o'rab turuvchi davlat* o'rtasidagi bevosita anklavga tegishli masalalar bo'yicha munosabatlar (M + E + S). To'rtinchi vektor o'zidan avvalgi munosabatlarga nisbatan yaqqol namoyon bo'lmasa-da, alohida ahamiyatga ega. Asosiy davlat tomonidan milliy siyosatdagi anklavlarga berilgan e'tibor ularning hududiy xususiyatlariga qaratilgan bo'lib, anklavdagi aholi soniga teskari proporsional bo'lishi mumkin. Xususan, ayrim anklav hududlar «demografik yuk»ga ega bo'lmasa-da, hududiy birlik sifatida geostraterik ahamiyatga ega bo'ladi.

Xalqaro geosiyosiy munosabatlar jarayonida o'rab turuvchi davlat tomonidan anklav hududdan foydalanib, u tegishli bo'lgan mamlakatga bosim o'tkazish holatlari ham kuzatilib turadi. Biroq shunday anklav hududlar ham borki, ularning hududiy joylashuvidan o'rab turuvchi davlat emas, aksincha, ona davlat o'z maqsadlarida foydalanadi. Bunda asosiy va o'rab turuvchi davlatlar anklav hududdan geosiyosiy jarayonlardagi «katta o'yin»da qurol sifatida foydalanadi.

Eksklav. Ushbu atama anklavlarga nisbatan ishlatilsa-da, mazkur tushunchalar aynan bir ma'noga ega emas. Binobarin, anklav ham, eksklav ham ayni bir geografik borliq, hudud hisoblanadi. Biroq, anklav boshqa bir geografik borliq bilan o'rab olingan kenglikni anglatasa, eksklav hudud o'zi tegishli bo'lgan davlat tomonidan qo'llaniladi. Eksklav so'zining ma'nosi anklavning mantiqan kengaytirilgani bo'lib, lotincha «exo» – tashqi, «claves» – o'rab olingan, ya'ni «hududdan tashqaridagi va boshqa davlat o'rab olgan yer» ma'nosini bildiradi.

Demak, ajralib qolgan hudud joylashuviga ko'ra anklav bo'lsa, tegishliligiga ko'ra eksklav hisoblanadi. Masalan, Vorux – Tojikiston Respublikasiga tegishli bo'lsa-da, Qirg'iziston Respublikasining ichida joylashgan. Bunda u Tojikiston uchun eksklav, Qirg'iziston uchun anklav bo'ladi.

Asosiy davlat ham, eksklav hudud ham bir mamlakatning hududiy qismlari hisoblanadi. Ularning qaysi biri asosiy davlat, qaysi biri esa eksklav ekanlini nazariy jihatdan isbotlash lozim bo'lsa, bunday holatda asosiy davlat va eksklav hududni belgilashdagi hal qiluvchi mezon nima bo'lishi mumkin? Jumladan, Y.Y.Vinokurov uchta nazariy mezonga ajratib tadqiq etishni taklif qilgan: birinchidan, *poytaxtning joylashuvi*, ikkinchidan, *hududning nisbiy o'lchami* va, uchinchidan, *aholining nisbiy soni*. Amaliyotda xalqaro huquq konvensiyasiga rioya qilgan holda, poytaxt joylashgan hududni aholi soni va hududiy o'lchamidan qat'i nazar, asosiy davlat sifatida belgilash afzal ko'riladi. Bunga asosiy

sabab davlat hokimiyatining markazda to‘planishidir.

Yuqorida qayd etilganidek, hududlar maqomini belgilashda bunday chigal holatlar kamdan-kam bo‘lsada uchrashi mumkin. Masalan, 1947-yilda vujudga kelgan Pokiston davlati aholisining yarmidan ortiq qismi istiqomat qilgan Sharqiy Bengaliya hududi Bangladesh davlati mustaqilligi e‘lon qilingan 1971-yilgacha Pokiston eksklavi hisoblangan. Mamlakatning g‘arbiy qismida davlat poytaxti va ma‘muriy boshqaruv vakolati to‘planganligi sababli Pokistonning g‘arbiy qismi Sharqiy Bengaliyaga nisbatan asosiy davlat sifatida qaralgan.

Asosiy davlat. Anklav hududlar ma‘muriy jihatdan o‘zi tegishli bo‘lgan hududdan ajralib qolib, bunda uni o‘zining tarkibiy qismi deb bilgan davlat – asosiy davlat hisoblanadi. Ko‘plab olimlar, xususan, G.Robinson, M.Katudal, B.Uayt kabilar asosiy davlatni «oilaviy davlat» deb nomlasa, P.Raton «markaziy davlat» deb ifodalashni afzal ko‘radi. Masalan, Liviya Fransiya uchun anklav bo‘lib, Ispaniyaning eksklavidir. Demak, mazkur eksklav uchun asosiy (oilaviy yoki markaziy) davlat Ispaniya hisoblanadi.

O‘rab turuvchi davlat. Anklavlar hududiy jihatdan asosiy davlat bilan tutashmagan bo‘lsa, tabiiyki, boshqa davlat hududining ichida joylashgan bo‘ladi. Bunda o‘rab turuvchi davlat – anklavni har tomondan o‘ragan, lekin ushbu hudud unga tegishli bo‘lmagan mamlakatdir. Shuningdek, o‘rab turuvchi davlatni ifodalash uchun M.Katudal 1979-yil «The Exclave problem of Western Europa» kitobida hamda B.Uayt 2002-yil «Boordering on the Ridiculous? A Comparasion of the Baarle and Cooch Behar Enclaves» maqolasida «xo‘jayin davlat» atamalarini qo‘llagan bo‘lsa, G.Robinson 1959-yil «Exclaves» maqolasida «qo‘shni davlat» deb atashni tavsiya qilgan.

Anklav hududlarning rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ko‘pincha, o‘rab turuvchi davlatga bog‘liq bo‘ladi. Agar xo‘jayin davlat o‘z hududidan kapital aylanishiga to‘sqinlik qilsa, anklav izolyatsiyalangan hududga o‘xshab qoladi. Masalan, Shohimardon O‘zbekiston hududi, lekin Qirg‘iziston ichida joylashgan anklav bo‘lib, ikki mamlakat o‘rtasidagi chegaraviy muammolar tufayli unga kirib-chiqish juda murakkablashib, chegaralar bir vaqtlar minalashtirilgan edi.

Asosiy davlatdagi qarindosh-urug‘ yoxud tuman markaziga borib-kelishdagi qiyinchiliklarni kuzatgan holda, eksport-import aloqalarining naqadar qiyinchilik bilan amalga oshganini sezish qiyin emas. Oqibatda, anklav tashqi dunyodan uzilib qolgan, usti yopiq qozon ichidagi

hududga o'xshab qolgan edi. Endilikda davlatlararo munosabatlarning iliqlashuvi natijasida chegaralar ajratish emas, bog'lash vazifasini o'tab, ko'plab bojxona o'tkazish postlari o'z faoliyatini tikladi.

Demak, anklav hududlarning mavjudlik muammosi jahon bo'yicha mintaqaviy xususiyatga ega. Anklavlardagi mavjud hududiy muammolar bu «mitti» hududlarni «ulkan strategik tugun»larga aylantiradi. Bu «tugun»larni shakllantirgan jihatlarni o'rganish anklavlar geografiyasining fundamental asosi hisoblanadi. Bu borada xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlanmalarini o'rganib borish «kalavaning uchi»ni topishda o'ziga xos qo'llanma bo'ladi.

Anklav hududlar biror bir siyosiy borliq – davlatga tegishli bo'ladi. Qolaversa, amaliyotda shunday anklavlar ham mavjudki, ularning o'zi to'laligicha alohida ma'muriy boshqaruvga ega. Bunday anklavlarni – submilliy anklav hududlar deb ataladi hamda ularning o'zi mustaqil tuzilma bo'lgani uchun tashqi siyosati, iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlarini keng yo'lga qo'yishda integratsion qo'shnichilik aloqalarini amalga oshirilishi eng maqbul jarayondir. Shu jihatdan, anklav hududlarga zamonaviy siyosiy geografiya fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qarash mumkin. Umuman olganda, anklav hududlarga oid muammolar yechimining ideal modeli ichki nizolar va qarama-qarshiliklardan holi, o'zaro manfaatlar va ustuvorliklar bilan birlashtirilgan, asosiy va o'rab turuvchi mamlakatlar uchun umumiy qadriyatlar va an'analarga asoslangan mustahkam va yaxlitlikni yaratish hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Siyosiy geografiya qanday vujudga kelgan?*
- 2. Mintaqaviy siyosat qanday amalga oshiriladi?*
- 3. Mintaqaviy siyosatning tarmoq va integral aspektlari deganda nimani tushunasiz?*
- 4. Anklav hududlarga nima sababdan ham mintaqaviy siyosat, ham siyosiy geografik tadqiqot obyekti sifatida qaraladi?*
- 5. Markaziy Osiyo mintaqasidagi anklav hududlar bilan bog'liq vaziyat qanday?*
- 6. O'zbekistonga tegishli eksklav hududlar qaysi mamlakat ichida joylashgan?*

21-BOB. IQTISODIY GEOGRAFIYA VA EKOLOGIYA

Mavzu annotatsiyasi. *Ekologiya, uning iqtisodiy va ijtimoiy geografiya bilan aloqasi, asosiy vazifalariga bag'ishlangan ushbu mavzuda ijtimoiy ekologiyaning mintaqaviy muammolari; sanoat, transport, qishloq xo'jaligining geoekologik vaziyatga ta'siri tahlil etilgan. Ishlab chiqarish jarayoni natijasida vujudga kelgan ekologik muammolar va ularning oqibatlari hududlar miqyosida yoritib berilgan.*

Tayanch so'z va iboralar: *ekologiya, ekologik o'lchamlashtirish, pestitsit, geoekologik muammolar, barqaror rivojlanish, buzilgan landshaftlar.*

Reja:

- 21.1. Iqtisodiy geografiyaning ekologiyalashuvi.
- 21.2. Sanoat majmualarining ekologik tavsifi.
- 21.3. Qishloq xo'jaligi va transportning ekologik jihatlari.
- 21.4. Ekologik o'lchamlashtirish va ruxsat etilgan me'yorlar.



21.1-§. Iqtisodiy geografiyaning ekologiyalashuvi

Hozirgi globallashtirish davrida iqtisodiy taraqqiyot va geotizimlar o'rtasidagi barqarorligini ta'minlash, chiqindisiz texnologiyalarni kengroq joriy qilish orqali atrof-muhit ifloslanishiga barham berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Sanoat va fan-texnika inqilobi davrlarida tabiiy resurslarning tabiatdan «yulib olinishi» natijasida tabiiy muvozanatni buzilishi sodir bo'la boshlaydi. Qolaversa, tog'-kon, metallurgiya, kimyo va neft-kimyo, elektr energetika sanoatlarining rivojlanishi; qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlardan foydalanishning ortishi barobarida biosfera, umuman, geografik qobiq bir butunligiga salbiy ta'sir etildi. Aholi soni va ehtiyojlarining ortishi esa yuqoridagi jarayonlarni tezlashtiruvchi omil bo'lmoqda. Natijada, atrof-muhit ifloslanishi sodir bo'ldi, minerallar kamayib, atmosfera zararli kimyoviy gazlar bilan «bo'g'ila boshladi».

Insonning bevosita ishtiroki natijasida misli ko'rilmagan ekologik muammolar vujudga keldi. Endilikda, ushbu muammolarga tezroq yechim topish va cheklangan resurslardan iqtisodiyotda oqilona

foydalanish uchun iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj har qachongidan ham yuqori bo'lishi, tabiiy. Bu borada, yashil iqtisodiyotga o'tish; sanoat chiqindilaridan ikkilamchi ishlab chiqarish resursi sifatida qayta foydalanish; ishlab chiqarish jarayoniga chiqindisiz texnologiyalar, samarali tizimlar va tozalash texnikasini joriy etish; tabiiy muvozanatning buzilib ketishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Shu jihatdan, BMT ning 2030-yilgacha mo'njallangan 17 ta maqsadni o'z ichiga oluvchi Barqaroro rivojlanish konsepsiyasida ham chuchuk suv masalalari, qayta tiklanuvchi energiyaga o'tish, iqlim o'zgarishi sharoitida xo'jalikni tashkil etish, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan alohida bandlar ishlab chiqilgan. Bu borada, ekologik vaziyat va ekologiyalashtirishga alohida e'tibor qaratish darkor.

Dastavval «ekologiya» tushunchasi nemis olimi Ernest Gekkel tomonidan 1868-yilda ishlatilgan. U ekologiyani zoologiya fanining bir yo'nalishi sifatida ta'riflab, organizmlarning o'zaro va tashqi muhit bilan munosabati mazmunida talqin qilgan. Keyinchalik, ekologiyaning ilmiy asoslari Ch.Darvin tomonidan yanada rivojlantirilgan.

Zoologik ekologiya asta-sekin o'simlik ekologiyasiga o'tgan va u to'la ma'nodagi biologik ekologiya yoki bioekologiyaga aylantirilgan. So'ngra amerikalik (chikagolik) tibbiyot olimlari «Inson ekologiyasi», «Ekosistema» tushunchalarini kiritib, ularni inson organizmi va salomatligi nuqtai nazaridan talqin eta boshlashgan. Ayni vaqtda, shaharlar rivojlanishi natijasida «urboekologiya» tushunchasi ham vujudga keldi hamda aholi zich to'plangan shaharlardagi ekologik vaziyat bilan shug'ullanila boshlandi.

Demak, ekologiyaning evolyutsion o'zgarishi *zooekologiya + fitoekologiya = bioekologiya* → *inson ekologiyasi + urboekologiya* → *ijtimoiy ekologiya* shaklida sodir bo'lgan. Hozirda ekologiyaning yo'nalish va turlari juda ko'payib ketgan (geoekologiya, bioekologiya, geologik ekologiya, iqtisodiy ekologiya, hatto kimyo va matematik ekologiya, huquq ekologiyasi va h.k.). Natijada, aytish mumkinki, bugungi kunda hamma ekolog, lekin ayni vaqtda aniq, umumiy ekologiyaning o'zi yo'qdek. Chunki biror-bir kishini ekologiya bo'yicha har tomonlama mutaxassis darajasida e'tirof etish qiyin.

Keng ma'noda esa «ekologiya» tushunchasi ko'proq atrof-muhitning ifloslanishi, zarar va zaharlanishi bilan uyg'unlashib ketadi. Vaholanki, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ushbu atamaning ma'nosini

faqat bir tomonlama, salbiy ruhda talqin qilish noto‘g‘ridir. Biroq, shu bilan birga tan olish lozimki, chindan ham ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va mujassamlashuvi, shaharlar va urbanizatsiya taraqqiyoti tabiat va inson (jamiyat) orasidagi muvozanatni buzdi, ekologik muammolar global, olamshumul ahamiyat kasb eta boshladi. Shuning uchun hozirgi sharoitda ijtimoiy hayotning biror bir sohasi yo‘qki, u ekologiya bilan bog‘liq bo‘lmasa.

Hududiy mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish tarmoq tarkibining tamokillashuvi, yangi yerlarning o‘zlashtirilishi va boshqalar tabiatga texnogen va antropogen ta’sirni kuchaytirdi. Oqibatda, Yer yuzida tabiiy sharoiti o‘zgarmagan joyning o‘zi deyarli qolmadi. Modomiki, barcha hududlar ekologik vaziyati buzilgan ekan, u holda bu vaziyatning turli joylardagi darajasi, holati to‘g‘risida gap yuritish talab etiladi. Ekologik holatining turli rayon va mamlakatlardagi xususiyati, uning keltirib chiqaruvchi sabablarini esa umumiy geografiyaning bir tarmog‘i – geoeкологиya o‘rganadi. Aynan, shu ma’noda geoeкологиya tabiiy geografiya bilan iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani bog‘lab turadi.

Shuningdek, turli hududiy majmualarda vujudga kelgan holatni tahlil va tadqiq qilish talab etiladi. Bunday holatning o‘ziga xosligi esa uning negizida yotgan ishlab chiqarish tarmoqlarining texnologik xususiyatlaridan kelib chiqadi.

21.2-§. Sanoat majmualarining ekologik tavsifi

Eng qadimgi shaharlar Mesopotamiya (Ur, Bobil), Nil vohasi (Fiva, Memfis), Sharqiy Xitoy (Pekin, Sian, Luoyang, Nankin), Hind-Gang (Moxenjo-Daro) va Zarafshon (Maroqand) vodiylari hamda O‘rta dengiz bo‘yida (Tir, Sidon, Rim, Afina, Karfagen) vujudga kelgan. Dastlabki shaharlarning paydo bo‘lish zamini dushmandan himoyalash, savdo va madaniyatning rivojlanishi, boshqaruvning markazlashuvi bilan chambarchas bog‘liqdir. Qadimgi shaharlar manzarasi atrofdagi hududlarning tabiiy holatiga yaqin bo‘lgan: relyef, gidrografik tarmoqlar unchalik o‘zgartirilmagan, shahar hududi bevosita o‘zgartirilmagan tabiiy landshaftlar bilan qurshab olingani bois, havoning musoffoligi ham ta’minlangan.

Shaharlarning yuqori sur’atlarda rivojlanishi, asosan, sanoat inqilobi bilan bog‘liqdir. Ko‘plab zavod va fabrikalarning barpo etilishi, shaharlar funksiyasining takomillashuvi, demografik yukning ortishi shaharlarning kattalashishiga, ular qiyofasining o‘zgarishiga olib kelgan.

Bu orqali, sanoatning rivojlanishi nafaqat shahar hududi, balki uning atrofidagi tabiiy landshaftlarda ham kuchli o'zgarishlar sodir eta boshlaydi. Shaharlar sanoat, boshqaruv, madaniy, transport va boshqa qator vazifalarni o'zida mujassamlashtirgan aholi punktlari bo'lishi bilan birga, azaldan kishilar uchun o'ta qulay mehnat va dam olish sharoitlariga ega bo'lgan, maishiy ehtiyojlari qondiriladigan bir butun tarixiy-me'moriy, ijtimoiy-iqtisodiy majmua vazifasini bajargan. Biroq, hozirgi sanoatlashgan yirik shaharlarda atrof-muhitning ifloslanganligi, transport harakatlarining jadalligi, kuchli shovqin-suron va inson salomatligiga ta'sir etuvchi boshqa qator omillar kishilarning ruhiy zo'riqishiga, turli kasalliklarning avj olishiga sabab bo'lmoqda. Shu boisdan, sanoat shaharlarida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish ular joylashuvining tabiiy-geografik xususiyatlari va iqtisodiyot yo'nalishlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Endilikda, atrof-muhitning ifloslanishiga, eng avvalo, ishlab chiqarish tarmoqlarining joylanishi katta ta'sir etmoqda. Bu borada, sanoatning «hissasi» yuqoriligini alohida keltirib o'tish lozim. Chunonchi, barcha sanoat tarmoqlarining ekologik jihatdan «xavfsizligi» bir xil emas. Ekologiyaga ta'siri nuqtai nazaridan sanoat tarmoqlarini tahlil qilish jarayonni tizimli tahlil qilishga imkon beradi.

Kishilarning tabiatni o'zlashtira borishi va unga ta'sir ko'rsatishi bir necha ming yillar avval ancha sust bo'lgan. Biroq ishlab chiqarish tarmoqlari ichida minerallarni qazib olish va ulardan foydalanish jarayoni insonning dastlabki tabiat komponentlarini o'zgartirishga qadam qo'yishi edi. Yillar o'tishi natijasida, tog'-kon sanoatining rivojlanishi natijasida texnogen landshaftlar vujudga keldi, «bedlendlar» (buzilgan landshaftlar) paydo bo'ldi, joy relyefi, geomorfologiyasi o'zgarishga uchradi. Bunday sanoat rayonlarida shakllangan hududiy majmualar yaxlitlikka ega bo'lmay, transport va boshqa aholiga xizmat ko'rsatish sohasini tashkil qilish murakkablasha boshladi. Chunonchi, tog'-kon sanoati rayonlarida yer osti bo'shliqlari vujudga keladi. Ayniqsa temir rudasi, ko'mir, turli tuz konlari va boshqalarni ochiq usulda (karyerlarda) qazib olishda landshaftning tabiiy «qiyofasi» buziladi, qimmatbaho va serhosil tuproq, unumdor ekin maydonlari qishloq xo'jaligi foydali yer fondidan chiqib ketadi.

Elektr-energetikaning ekologik xususiyatlari ham o'ziga xos. Masalan, gidroelektr stansiyalari, umuman olganda, ekologik jihatdan toza, bezarar hisoblanadi. Ular faqat katta yer maydonlarini suv omborlari uchun talab qiladi, xolos. Qolgan masalalarda esa bunday

elektr stansiyalar atrof ekologiyasini yaxshilaydi. Ayni vaqtda, issiqlik elektr stansiyalarining ekologik oqibatlari ancha salbiy. Xususan, shahar ichkarisidagi IEMlar, yirik shaharlar yaqinida joylashgan IESlar atrofga salbiy ta'sir qiladi – zaharli gazsimon tutunlar atmosfera havosini ifloslantiradi, yoqilg'i yondirilgandan qolgan chiqindi kullar esa sun'iy tepaliklarni hosil qiladi. Shuning uchun katta quvvatga ega bo'lgan issiqlik elektr stansiyalari joyning relyefi, shamol yo'nalishi va boshqa meteorologik omillarni hisobga olgan holda qurilishi kerak. Tadqiqotlarga ko'ra, respublikamizdagi yirik Sirdaryo, Yangi Angren kabi IES asosida vujudga kelgan sanoat majmualarining havosi va suv tarkibi o'zgargan, tuproq qatlami, ekin maydonlar va hayvonot dunyosi ancha zarar ko'rgan.

Qora va rangli metallurgiya ham ekologik nuqtai nazardan «toza» emas. Yirik qora metallurgiya korxonalari atrofida katta miqdorda shlaklar (domna pechining chiqindisi) hosil bo'ladi, shahar havosi va suvi ifloslanadi. Ayniqsa, rangli metallurgiyaning tabiatga salbiy ta'siri kuchli. Jumladan, yirik tog'-metallurgiya kombinatlari yaqinida radioaktiv ifloslanish xavfi vujudga kelishi ham mumkin. Ma'lumki, rangli metallar odatda kompleks holda uchraydi. Ularni qazib olish va qayta ishlashda gazsimon chiqindilar ko'p ajraladi. Masalan, mis yoki qo'rg'oshin eritish zavodlaridan katta hajmda oltingugurt gazi chiqadi, uni qayta ishlash asosida oltingugurt kislotasini olish mumkin. Umuman, qora va rangli metallurgiyada ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash, ulardan foydalanish (utilizatsiya qilish) iqtisodiy va ekologik jihatdan o'ta muhimdir.

Sanoat tarmoqlari ichida kimyo sanoatining suv, havo va tuproqqa, inson salomatligiga ta'siri eng kuchli. Xususan sintetik tola, kauchuk, ammiak, qishloq xo'jaligi zararkunandalari uchun turli gerbitsid va zaharli moddalar, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish ekologik tomondan xavflidir. Shuning uchun bo'lsa kerak, O'zbekistondagi yirik kimyo sanoati markazlarida – Chirchiq, Olmaliq, Navoiy, Farg'onada ekologik vaziyat uncha sog'lom emas. Bundan tashqari, Qashqadaryo viloyatidagi Sho'rtan, Muborak gaz-kimyo sanoat markazlarida ham bu vaziyatning yaxshilanishi talab etiladi. Albatta, har qanday iqtisodiy jihatdan mustaqil davlat o'zining qudratli industriyasi, shu jumladan, kimyo sanoati korxonalariga ega bo'lishi kerak. Qolaversa, respublikamiz iqtisodiyotining agrar sohasi uchun ham u zarur. Binobarin, bunday korxonalar mumkin qadar zamonaviy, chiqindisiz, ekologik sof

texnologiya bilan ta'minlanishi va ular barcha sharoitlarni atroflicha o'rgangan va baholangan holda to'g'ri joylashtirilishi lozim.

Mashinasozlik zavodlarining ekologik xavfi uncha yuqori emas. Ammo ular yirik gidroelektr stansiyalari kabi katta yer maydonini talab qiladi. Shu bois, bunday korxonalarining ayniqsa sug'orma dehqonchilik rayonlarida joylashtirilishi puxta asoslashni talab qiladi.

Sellyuloza-qog'oz sanoati – suv; sement sanoati esa shahar havosini chang va chiqindilari bilan ifloslantiradi. Bularga nisbatan yengil hamda oziq-ovqat sanoati korxonalarining ekologik ta'siri kamroq. Biroq, paxta tozalash, konserva, vino zavodlarining yaqin atroflarida ekologik muhit o'zgarishini ham inkor etish noto'g'ri bo'ladi.

Hozirgi kunda ham respublikamiz va alohida viloyatlar xo'jaligini sanoatlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki, aynan sanoat makroiqtisodiy yoki real iqtisodiy sohalar ichida eng muhimi hisoblanadi. Biroq, sanoat korxonlarini joylashtirishda ularni tashkil etish shakllari, ya'ni ixtisoslashuv, mujassamlashuv, kooperatsiya va kombinatlashuvga jiddiy ahamiyat bermoq zarur. Hozirda ekologik jihatdan toza, kichik va o'rta sanoat korxonlarini barpo etish, ularni zamonaviy (chiqindisiz) texnologiyalar bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, sanoat tarmoqlarining ekologik xavfini 10 balli shkalada taxminan quyidagicha baholash mumkin: kimyo sanoati – 10 ball, rangli metallurgiya – 9 ball, issiqlik elektr stansiyalari – 8 ball, qora metallurgiya – 7 ball, sement sanoati – 6 ball, sellyuloza-qog'oz sanoati – 5 ball, charm sanoati va jun yuvish – 4 ball, oziq-ovqat sanoati – 3 ball, paxta tozalash – 2 ball, mashinasozlik va metallni qayta ishlash – 1 ball. Bu baholar, albatta, juda qat'iy emas. Ular tegishli mutaxassis – ekspertlar tomonidan yanada aniqlashtirilishi mumkin. Biroq yuqorida taklif etilgan shkalalarni inobatga olib, sanoat korxonalarini mos ravishda joylashtirilsa, har tomonlama foydali bo'ladi.

Yuqorida tahlil etilganidek, atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy manba sanoat hisoblanadi. Sanoat korxonalarining joylashuviga e'tibor qaratsak, ular yirik iste'molchi hudud – shaharlarga yaqin joyda qurilgani yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu jihatdan, shaharlarning ekologik vaziyatiga industriyaning ta'sirini lokal darajada tadqiq qilish, baholash va bashorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sanoatlashgan shaharlarda ekologik vaziyatning yomonlashuvi asosan industriya, maishiy korxonalar va transport hissasiga to'g'ri keladi. Shaharlarning konfiguratsiyasi murakkab va ko'p omillidir.

Ularni loyihalashda tabiiy geografik shart-sharoit hamda iqtisodiy imkoniyatlarni inobatga olish shaharlarning tez taraqqiy etishida muhim rol o'ynaydi. Jumladan, turarjoy, ishlab chiqarish korxonalari, transport, omborxonalar, rekreatsion tizimlarni to'g'ri joylashtirishda geografik omillarni (shamol va oqim (daryo) yo'nalishi va boshq.) e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bunday ekologik yondashuv tabiiy komponentlarning antropogen ta'sirlarga bardoshlilikini oshiradi, tabiatni o'z-o'zini tozalash va tiklash qobiliyatiga yordam beradi. Qolaversa, yashil zonalarini tashkil etish katta ahamiyatga ega.

Yirik shaharlarda ko'kalamzor hududlar aholi jon boshiga kamida 30-50 m² bo'lgani ma'qul. Bir kishiga sutka davomida yetarli kislorod ishlab chiqarish uchun to'rt tup daraxt talab etiladi. Jumladan, 1 ga daraxtzor yiliga o'rtacha 18 mln m³ havoni tozalaydi. Ushbu yer maydonidagi daraxtlar issiq davrda havo tarkibidagi 220–280 kg karbonat angidridni o'zlashtiradi, yiliga 70 t changni tutadi, atmosferaga 180-220 kg kislorod ishlab chiqaradi. Daraxtzor va ko'kalamzor xiyobonlar jazirama kunlarda soya-salqin beradi, tuproqda namni saqlaydi. Shu tufayli, shahar bog'larida yo'l va xiyobonlarga qaraganda harorat biroz salqin (2-4⁰ C), havo namligi esa yuqori (13-14%) bo'ladi. Xiyobonlardagi yashil o'tloqlarning har bir kvadrat metri soatiga 200 g suvni bug'latib, havoning salqin bo'lishiga hissa qo'shadi.

Bundan tashqari daraxtzor va ko'kalamzordagi yashillik kishi ruhiyatini tinchlantiradi, mehnat faoliyatini tiklashga ketadigan vaqtni 60% gacha kamaytiradi, kishilardagi chidam-toqatni 15% ga ko'paytiradi, fikrni bir joyga jamlashni orttiradi. Shunga ko'ra, turarjoydan oromgoh bog'lari 2-3 km, tuman bog'lari 1,5 km, bolalar oromgohlari – 1 km, gulzor va yashil xiyobonlar 400-500 m dan uzoq bo'lgani ma'qul. Shuningdek, shaharlar atrofida yashil zonalarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu mintaqalar shahar aholisining dam olishini tashkil etish, shahar mikroiklimini yumshatish, havo tozaligini ta'minlashga yordam beradi. Bu mintaqalar ko'lami shaharlarning katta-kichikligi, xalq xo'jaligidagi mavqeyi kabi omillarga mos tarzda barpo etilmog'i darkor. Ushbu mintaqalarda mavjud turarjoylarni kengaytirish, yangilarini qurish, sanoat korxonalarini joylashtirish maqsadga muvofiq emas. Ularda faqat dam olish va sog'lomlashtirish maskanlari, sayyohlik, hayvonot va botanika bog'lari tashkil etish mumkin, xolos.

Ko'pgina shaharlarda ko'kalamzorlashtirishga e'tiborning orta borishidan Tokio, Nyu-York, London, Vankuver, Moskva kabi global

shaharlar yashil-bog'larga aylantirilgan. Bu esa shahar ekomuhitiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Shaharlardagi shovqin kuchini kamaytirishda ham daraxtzorlarning ahamiyati katta. Sanoatlashgan hududlar va turarjoylar oralig'ida, turarjoy binolari bilan serqatnov yo'llar o'rtasidagi barpo etilgan daraxtzorlar shovqinni 20 foizga, kengligi 25 m bo'lgan buta va daraxtzor-xiyobonlar ovoz kuchini 10-12 db ga kamaytiradi. Turarjoylarning yo'llardan 200 m uzoqroqda qurilishi shovqin kuchini 20 db ga kamaytirishi aniq. Shaharlarda shovqin kuchini kamaytirish bir-biri bilan uzviy bog'langan quyidagi majmuali tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi:

- yirik shaharlarda tranzit avtomashinalar qatnoviga barham berish, shahar markazida yuk mashinalari harakatini, transportlar signalini ta'qiqlash;

- shahar qurilishi va me'morchiligida tovush yutuvchi moslama va materiallardan keng foydalanish;

- turarjoylar yaqinida aeroport qurmaslik, ularni shaharlardan uzoqroqqa ko'chirish, uchish yo'llarini shaharlar ustidan o'tkazmaslik, aeroportlarni qayta ta'mirlash;

- shovqinsiz transportlar yaratish (elektromobil, velosiped, smart samokatlardan foydalanishni takomillashtirish).

Yirik shaharlarda metro hamda elektrotransportdan keng foydalanish, yer osti qurilmalarni kengaytirish (Angliya, Fransiya, Yaponiya va AQShda shahar infratuzilmasining ancha qismi yer ostida faoliyat ko'rsatadi) lozim.

Bulardan tashqari, sershovqin shaharlarning shovqindorlik xaritalarini yaratish muhim masaladir, chunki unda shovqin manbalari, tarqalish chegaralari, kuchi aniq ko'rsatiladi. Yangi turarjoylar, bolalar muassasalari, davolash va dam olish maskanlari uchun joy tanlashda ushbu xarita asos qilib olinishi maqsadga muvofiqdir.

Hozirga davrda yirik shaharlarda to'planib qolayotgan turli sanoat, maishiy-xo'jalik chiqindilari shaharlardagi ekologik vaziyatga sezilarni ta'sir ko'rsatmoqda. O'rtacha har bir shahar aholisi jon boshiga sutka mobaynida 1 kg chiqindi to'plansa, dunyo bo'yicha bu miqdorning qanchaga yetishini tasavvur etish qiyin. Shaharlardagi to'planadigan chiqindilardan ikkilamchi resurs sifatida foydalanish, ulardan turli zarur mahsulotlar olish shu kunning dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda. Hozir dunyodagi ayrim shaharlarda ham chiqindini qayta ishlovchi korxonalar barpo etilgan, biroq ularning ish quvvatlari bugungi kun

talabini qondira olmayapti. Ikkilamchi resurslardan keng foydalanishga o'tilishi, chiqindisiz texnologiyaning joriy etilishi bilan bu muammoni ijobiy hal etish mumkin.

Demak, sanoat shaharlaridagi ekologik vaziyatni yaxshilash majmualiy tarzda: tashkiliy-xo'jalik, shaharsozlik, me'moriy-landshaftshunoslik va boshqa tadbirlar bilan amalga oshirilishi, yangi sanoat korxonalarini qurilishi va aholi sonining o'sishini muntazam me'yorga solib turish bilan hal qilinishi mumkin.

XX asring o'rtalariga kelib dunyo aholisi sonining tez sur'atlar bilan o'sishi oziq-ovqat mahsulotlari muammosining kelib chiqishi va atrof-muhit holatini buzilishiga sabab bo'ldi. Shaharlashish natijasi hisoblanmish urbanizatsiya oqibatida aholi o'rtasida turli kasalliklar turi ko'paydi. Urbanizatsiyalashgan mintaqalarda o'sish ko'rsatkichlari ham ortib bormoqda. Sanoatlashgan shaharlarda ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish uchun qator majmualiy tadbirlarni ishlab chiqish va uni amaliyotga qo'llash zarur. Shaharlardagi ekologik vaziyatni barqarorlashtirish bilan birgalikda, qishloq joylardagi muvozanatning ham buzilib ketishiga yo'l qo'ymaslik, shahar va qishloq joylarni bog'lovchi iqtisodiyotning qon tomiri – transportning tabiatga ta'sirini atroflicha o'rganish lozim.

Ishlab chiqarish tarmoqlaridan tashqari atrof-muhit tozaligini buzishda antropogen omilning ta'siri ham sezilarli. Gap bu yerda aholining ekologik fikrlashi va ekologik madaniyati to'g'risida bormoqda. Ma'lumki, chiqindixonalarning to'planib qolishi natijasida, ayniqsa, yozning issiq kunlarida shahar mavze va mahallalarida qo'lansa hidlar ko'payadi. Shuningdek, turli dam olish maskanlari, bozorlarning ekologik holati ham yaxshilanishi kerak.

Umuman olganda, barcha ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda ekologik bilim talab qilinadi. Ekologik fikrlash hamma vaqt uzoqni o'ylashni, «yetti o'lchab bir kesish»ni nazarda tutadi. Barchaga ma'lum bo'lgan va «ekologiya» tushunchasi bilan uyg'unlashib ketgan Orol muammosidan tashqari, respublikamizning o'zida ishlab chiqarishni ekologik jihatdan noto'g'ri joylashtirilganligi xususida juda ko'p misollar keltirsa bo'ladi. Masalan, qariyb 3 mln aholiga ega bo'lgan azim Toshkentning yonginasida joylashgan Chirchiq shahrida kimyo sanoati korxonalarini, o'tga chidamli va qiyin eruvchi metallar kombinati va boshqalar bor. Natijada, bu sanoat rayoni va uning atrofini ekologik holati uncha sog'lom emas. Deyarli shunga o'xshagan vaziyat Navoiy, Farg'ona, Olmaliq, Andijon, Ohangaron kabi

shaharlarda ham kuzatiladi. Ayniqsa, bunday holat Angren-Olmaliq tog‘-kon sanoati majmuasida keskinroqdir.

Chiqindisiz texnologiyani joriy qilish, energiya ishlab chiqarish sikllari bo‘yicha sanoat va qishloq xo‘jalik tarmoqlarini tashkil etish katta ahamiyatga ega. Odatda, xomashyo va suvni ko‘p talab qiluvchi sanoat korxonalarida chiqindi ko‘p hosil bo‘ladi. Binobarin, birinchi navbatda, ana shunday korxonalarni kombinat shaklida uyushtirish, xomashyodan atroflicha foydalanish, ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash zarur.

21.3-§. Qishloq xo‘jaligi va transportning ekologik jihatlari

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini joylashtirishning ekologik oqibatlarini ularning hududiy tashkil qilinishi va mujassamlashuvi bilan bog‘liq. Dehqonchilik, xususan paxtachilikda ishlatiladigan mineral o‘g‘itlar, defoliant, qishloq xo‘jalik zararkunandalarga qarshi ishlatiladigan kimyoviy moddalar suv va havoni ifloslantiradi. Bulardan tashqari, yana boshqa noxush ekologik holatlar ham mavjud. Bu o‘rinda, paxta yakkahokimligi asoratida Orol va Orolbo‘yi mintaqasining muammosi, Mirzacho‘l, Qarshi dashtlari kabi o‘zlashtirilgan sug‘orma dehqonchilik rayonlarida vujudga kelgan tuproqning ikkilamchi sho‘rlanishini unutmaslik lozim. Mazkur muammolarning keskinligi, hududiy qamrovi sanoat joylashuvining ekologik oqibatlaridan aslo qolishmaydi. Demak, sug‘orma dehqonchilikni rivojlantirishda gidromelioratsiya, agrotexnika va agrokimyolar masalalarini ham hisobga olish kerak.

Chorvachilikning tabiiy muhitga ta‘siri chorva mollarning turiga bog‘liq. Ayniqsa, cho‘chqachilikning ta‘siri kuchli. Masalan, 100 ming boshli cho‘chqachilik fermasi 1 mln aholiga ega bo‘lgan shahar ekologiyasini buzishga qodir. Boshqa chorvachilik fermalari ham atrof-muhit tabiatini buzadi.

Transport, xususan, shahar transportining atmosfera havosini buzilishida roli katta. Avtomobillar sonining ko‘payishi, ularga mos holda yo‘llarning o‘z vaqtida kengaytirilmasligi va magistrallashmasligi, tirbandliklarning vujudga kelishi shahar havosini ifloslantirishga sabab bo‘ladi. Transport shovqini, ayni chog‘da, aholi oromini buzadi. Avvalo, bunday holat guzar va chorrahalarda, vokzal va aerodrom, aeroport atroflarida juda keskin. Yuzaga kelgan noxush ekologik vaziyat shahar aglomeratsiyalarida o‘ziga xos kasalliklarning ko‘payishiga olib keladi.

Demak, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti ekologik mezonlar bilan muvofiqlashtirilishi kerak. Shu maqsadda, geoekologik ekspertiza va monitoringni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, nafaqat joylashtiriladigan korxonaning ekologik xususiyati, balki shu joyni o'zining imkoniyati, ekologik sig'imi hisobga olinishi lozim. Zero, hudud o'ziga to'g'ri kelmagan sohani qabul qilavermaydi, zo'rlab joylashtirilgan korxonalar yoki tarmoq uchun u, albatta, o'z o'chini oladi. Shuning uchun ham tabiat o'ziga nihoyatda nozik va to'g'ri munosabatni talab qiladi.

21.4-§. Ekologik o'lchamlashtirish va ruxsat etilgan me'yorlar

Ishlab chiqarish korxonalarining atrof-muhitga ta'sirini baholashda cheklangan chiqindi konsentratsiyasi yoki ruxsat etilgan konsentratsiya (REK) ko'rsatkichni aniqlash zarur bo'ladi. Shu jihatdan, zararli moddaning cheklangan chiqindi konsentratsiyasi – uzoq muddatli ta'sir natijasida inson organizmida patologik o'zgarish yoki kasalliklar kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatadigan havoning miqdoriy ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Havodagi cheklangan chiqindi konsentratsiyasi maksimal bir metr kub hajm bo'yicha sutkalik o'rtacha qiymatlari asosida aniqlanadi. Ishlab chiqarish binolaridagi havo uchun REK ishlatiladi. Ammo, kimyo sanoatining tez rivojlanishi natijasida barcha moddalar uchun cheklangan chiqindi konsentratsiyasi aniqlanishga ulgurilmaydi.

1977-yildan boshlab, yangi qo'llaniladigan moddalar uchun taxminiy xavfsiz ta'sir darajasi (ОБУВ – Ориентир безопасности уровня воздействия) aniqlanadi. Ya'ni bu ko'rsatkich ko'pincha salomatlik, atrof-muhit uchun xavflarni baholash va boshqarish uchun qo'llaniladi. Ushbu yo'riqnoma inson salomatligi yoki ekotizimlarga salbiy oqibatlarisiz har qanday omil (masalan, havo, suv yoki tuproq ifloslanishi) ta'sir qilishning maksimal maqbul darajasini belgilaydi. Sanoat, qurilish, sog'liqni saqlash va boshqa sohalar jamiyat va atrof-muhit uchun xavflarni minimallashtirish uchun turli parametrlar bo'yicha ta'sir qilish darajasini belgilaydi. Masalan, havoning ifloslanishi holatida xavfsizlik mezonlari inson salomatligiga xavf tug'dirmasdan havoda ma'lum bir moddaning qancha zarralari mavjudligini ko'rsatishi mumkin. Ushbu xavfsizlik mezoni ilmiy tadqiqot natijalari, epidemiologik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar asosida belgilanadi. U qonunchilik, normativ hujjatlarni ishlab chiqish,

atrof-muhit monitoringi va nazorati uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Me'yoriy ko'rsatkichlarni Sog'liqni saqlash vazirligi davriy ravishda nazorat qiladi va ikki yil muddat uchun REK miqdorini e'lon qiladi. Hozirgi kunda mingdan ziyod moddalar uchun cheklangan chiqindilar konsentratsiyasi (REM) aniqlangan. Ularga ko'ra, inson organizmiga ta'sir darajasi jihatidan zararli moddalar 4 ta (xavflilik darajasi – kritik, yuqori, o'rtacha, kam) darajaga bo'linadi:

Odatda, kimyoviy ishlab chiqarishning zonasidagi havo tarkibida turli tuman zararli ingrediylar bo'ladi. Agar ular organizmning biror organlari sistemasiga ta'sir qilsa, jiddiy xavf keltirib chiqarishi mumkin. Agar havodagi ingrediylar bir-biri bilan qo'shib, ta'sir darajasini oshirib yuborsa – sinergizm, agar kamaytirib yuborsa antogonizm (antisinergizm) ta'sir deyiladi.

Shu bilan birgalikda, atrof-muhitga zararli chiqindilar bilan ifloslanish konsentratsiyasini baholashda ruxsat etilgan me'yor (REM) aniqlash ham muhimdir. Yangi loyihalashtirilayotgan yoki ishlayotgan korxonalarni rekonstruksiya qilishda yer usti atmosfera havosi qatlamining tozaligini ta'minlash uchun cheklangan chiqindilar me'yorini aniqlash katta ahamiyatga ega.

Cheklangan chiqindilar me'yori – bu chiqindining ilmiy-texnikaviy me'yori (normativi) bo'lib, ko'rilayotgan chiqindi tashlash manbai yoki shahardagi barcha manbalardan tashlangan yer usti qatlamidagi havo tarkibidagi zararli moddalar konsentratsiyasi aholi, o'simlik va hayvonot dunyosi uchun hisoblangan havo sifat me'yoridan (REM) oshib ketmaslik shartiga asosan aniqlanadi. Cheklangan chiqindilar me'yoridan foydalanilsa, mavjud ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirish metodlariga asosan butunlay atmosferaga chiqindi tashlashni to'xtatishga erishib bo'lmasa-da, tashlanayotgan chiqindilarni me'yorlash imkoni vujudga kelib, chiqindilar miqdorini (aniqlangan) ma'lum cheklangan chegaragacha kamaytirish imkoniyati tug'iladi. Fazoda turli nuqtalarga tegishli bo'lgan cheklangan chiqindilar me'yori va cheklangan chiqindilar konsentratsiyasi o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash maqsadida chiqindi tashlash manbalaridan chiqayotgan va havoda turbulent diffuziya natijasida ta'sir doirasigacha tarqalishi yoyilishi qonunlari o'rgatiladi. Barcha korxonalar uchun REM aniqlash mavjud davlat standartlari asosida olib boriladi. Agar korxonalar joylashgan shahar yoki aholi punktlarida havo tarkibidagi zararli moddalar konsentratsiyasi > 1 bo'lsa va cheklangan chiqindilar me'yori

obyektiv sabablarga ko'ra erishib bo'lmasa, chiqindilarni bosqichma-bosqich (cheklangan chiqindilar konsentratsiyasiga yetgunga qadar) kamaytirib boriladi. REMga erishgunga qadar har bosqichda vaqtinchalik kelishilgan chiqindilar miqdori aniqlanadi. REM tarkibida shahar va sanoat tugunlari atmosfera havosini sog'lomlashtirish uchun chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rsatiladi. Korxonalarda chiqindi manbalari va cheklangan chiqindilar me'yoriga rioya qilinishi nazorat qilib turiladi.

Kimyoviy ishlab chiqarish va atrof-muhit muammoasi. Kimyoviy ishlab chiqarish korxonalari atrof-muhitni turli xil kimyoviy moddalar bilan ifloslanishida katta rol o'ynab kelmoqda.

Kimyoviy korxonalarining atrof-muhitga ta'sirini 3 toifaga ajratish mumkin:

1) korxonada doimiy ravishda ishlaganda tabiatga ko'rsatiladigan ta'sir – yoqilg'i yonishi ta'sirida zararli gazlarning ajralib chiqishi, suvning ifloslanishi, korxonada qo'llanadigan mahsulotlar bilan atrof-muhitni ifloslantirish;

2) korxonada biror sababga ko'ra katta miqdordagi halokatli chiqindilarni atrof-muhitga tashlanishi – texnogen avariya natijasida sodir bo'ladigan ifloslantirish;

3) kimyoviy korxonada mahsulotlarini qo'llash natijasida atrof-muhitga zarar keltirish.

Agar kimyoviy sanoat korxonalarida biror avariya sababiga ko'ra halokatli chiqindilarni tabiatga keltirgan zarariga misol keltirsak, 1986-yilda Olmaliq tog'-kon kombinati to'satdan Na_2SO_4 tashlashi natijasida Piskent rayonida 140 gektar paxta maydoni, Yangi Qo'qon kimyo zavodining halokatli chiqindi tashlashi natijasida 20 km radiusdagi paxtazor, 1987-yil Samarqand kimyo zavodi halokatli chiqindilari natijasida ko'plab mevali bog'lar zararlangan. Xo'sh, bunday falokatlarni bo'lmasligi uchun nima qilish kerak? Albatta, ishlab chiqarish jarayoni talablariga qat'iy rioya qilish, foydali ish koeffitsiyenti pasaya boshlagan jihoz va mashinalardan voz kechish lozim. Hozirda, ayniqsa, IT va zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni «smart-product» (aqlli ishlab chiqarish) darajada amalga oshirish lozim.

Kimyoviy mineral o'g'itlar va atrof-muhit muammosi. Kimyoviy mineral o'g'itlar XX asrdan faol foydalana boshlangan. Lotin Amerikasida ishlatiladigan selitranning Yevropa va, u orqali, boshqa hududlarga ham tarqalishi dastavval yerlar meliorativ holatining

yaxshilanishiga olib kelgan bo'lsa, muddatil foydalanish tuproq bonitirovgasiga salbiy ta'sir eta boshlaydi.

Chunonchi, XX asrning o'rtalarida NaNO_3 selitrasining birinchi partiyasi Yevropaga olib kelinadi. Biroq, uni transportdan tushirishda muammoli vaziyat ko'zga tashlangan: uning foydalalilik darajasi va xavfsizlik masalalari tufayli selitra iste'molida bir muddat «depressiya» kuzatiladi. Uning ta'siri amalda sinalgandan keyingina, selitra uchun kurash boshlanadi. 1900-yilga kelib, Chili selitrasiga talab azotga nisbatan 300 000 tonna ko'p bo'ladi. Selitra olishning arzon yo'llari qidira boshlanadi. Chunki jahon tajribasida mineral o'g'itlarni qo'llash – yerga ishlov berish yaxshilanishining asosiy omili, qishloq xo'jaligi yeridan samarali foydalanishning sharti, hosildorlikni ko'paytirish va sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'tarishga kafolat beruvchi asosiy omil ekanligi aniqlanadi. Jumladan, amerika tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, kimyoviy vositalarni ishlatish hisobiga Yevropada o'simliklardan olinadigan hosil deyarli 50 foizga ko'payadi. Biroq ularni tashish jarayonida xavfsizlik masalalariga amal qilish, isrof bo'lishi – tabiatga salbiy etishiga yo'l qo'ymaslik lozim bo'lardi. Tez orada, unga bo'lgan talab keskin oshib ketadi.

O'g'itlarni ishlatishning kengayishi qo'shimcha yangi ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, eng xavflisi azotli o'g'itlar bo'lib, NO_3 azotning harakatchanligi tufayli suv havzalari va yer osti suvlari ifloslanmoqda. Ya'ni suv havzasiga tushayotgan azotning yarmi qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Suvda azot singari oziq moddalarning ko'payib ketishi, suv o'tlarini haddan tashqari o'sib ketishiga va uning umri tugagandan so'ng esa anaerob bakterial parchalanishga uchrashi sababli baliq va suvdagi jonzotlarni kislorod defitsiti tufayli qirilishiga olib keladi.

Nitritlar me'yordan ko'p miqdorda faqat suv emas, o'simliklarda ham ko'p yig'ilmoqda. Nitritlarning inson va hayvonotga ta'siri unchalik bo'lmasada, ammo ulardan hosil bo'lgan mahsulot kuchli zaharli modda hisoblanadi. Bunday mahsulotni inson tomonidan iste'mol qilinishi orqali bolalar o'rtasida kasalliklar kelib chiqmoqda.

Endi fosforli o'g'itlar haqida to'xtalsak. Ular ancha xavfsiz. Kam harakatchan, tuproqqa qattiq o'rnashadi. Ammo shunga qaramay suv havzalari tuproq eroziyasi hisobiga fosfatlar bilan ifloslanadi. Ammo suv havzalarini ifloslovchi eng asosiy manbalar bu sanoat va maishiy chiqindi suvlaridir (ayniqsa, fosfatni yuvuvchi vosita). Fosforli o'g'itlarni ishlatishni o'ziga xos xususiyati shundaki, ularni ko'p

ishlatish natijasida tuproqda stronsiy, fluor, tabiiy radioaktiv uran, radiy va toriy kabi elementlar yig'ishi mumkin.

Uchinchi ko'p ishlatiladigani *kaliy* bo'lib, u atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi, ammo u bilan doim birga bo'ladigan xlor yer osti suvlarini ifloslashi mumkin. Hozirgi kunda atrof-muhitni mineral o'g'itlar bilan ifloslanishi ustidan doimiy nazorat olib boriladi. Bunday nazoratni agrokimlaboratoriyalar amalga oshiradi.

Pestitsidlar va atrof-muhit muammosi. Eng buyuk yutuqlardan biri o'simliklarni kimyoviy himoya qilish (xilma-xil zararkunanda, kasalliklarga qarshi) vositalarni kashf etilishi bo'ldi. Pestitsidlar ishlatilishiga ko'ra turli sinflarga bo'linadi:

- 1) insektitsid – zararli hashorotlarga qarshi kimyoviy vosita;
- 2) gerbitsid – yovvoyi o'tlarga qarshi kimyoviy vosita;
- 3) fungitsid – zamburug'larga qarshi kimyoviy vosita;
- 4) zootsid – kemiruvchilarga qarshi kimyoviy vosita;
- 5) bakteritsid –zararli bakteriyalarga qarshi kimyoviy vosita;
- 6) nemototsid – zararli mollyuskalar qarshi kimyoviy vosita;
- 7) akoratsidlar – zararli kana, bitlarga qarshi ishlatiladigan vositalar.

Ma'lum bo'lishicha, pestitsidlar odam va hayvon to'qimasida yig'ilish xususiyatiga. Surunkali organizmga kirib turishi natijasida asab va yurak qon-tomir sistemasiga ta'sir ko'rsatadi. DDT (dixlor difenil trixloretran) va shu tipdagi moddalar ona suti orqali bolaga ham o'tadi. Bu xilma-xil tug'ma patologiya va embrionning o'lishiga sabab bo'ladi. Hatto, DDT Antarktidadagi pingvinning ham jigaridan topilgan. Bu esa moddalarning tabiatda aylanib yurishiga yana bir dalildir.

Tirik organizmlar organlarida, to'qimalarida, hujayralarida pestitsidlar miqdori atrof-muhitdagiga qaraganda ancha ko'p bo'ladi. Bu hodisa yig'ilish koeffitsiyenti bilan hisoblanadi. Suvda yashaydigan hayvonlar uchun bu koeffitsiyent juda yuqori. Masalan, 10-15, molyuska uchun 25-50.

Pestitsidlarning salbiy ta'sir mexanizmi quyidagi zanjir mexanizmi orqali amalga oshadi:

dengiz suvi → plankton → baliq → qush → odam.

Hozirgi kunda o'simlik kasalliklari va zararkunandalaridan qutulishning eng samarali yo'li almashib ekishdir. Chunki maydondagi ekin turi almashganda unda zararkunandalarning yig'ilishiga barham beriladi. Ammo ekin maydonlarida monokultura hukmron bo'lsa, pestitsidlar ishlatish agrotexnikasining ajralmas qismi bo'lib qoladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ko'p zarakunandalar antropogen mikroblar qo'llanilayotgan pestitsidlarga o'rganish xususiyatiga ega. Bu fan-texnika oldiga katta muammoni qo'yadi, ya'ni pestitsidlarni ham almashtirib turish kerak.

Hozirgi kunda hasharotlarning juda ko'p turlari qishloq xo'jaligi o'simliklarining zararkunandalari va hayvon kasalliklarini tashuvchilar turi bo'lib, ularning ba'zilar xlor-organik va fosfororganik birikmalarga chidamli hisoblanadi. Bu yerda ikki muammo kelib chiqadi, ya'ni uzoq muddat biror pestitsidni ishlatib kelinsa, o'sha tuproqda ayni preparatni parchalaydigan mikflora yig'iladi. Zararkunandalarni yo'qotish maqsadida preparat almashtirilganda bu kimyoviy birikmalarga o'rganmagan mikflora ularni parchalashga qiynaladi.

Pestitsidlarning ishlatilishi natijasida bo'ladigan salbiy ta'sirlarni kamaytirishning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

- chegaralangan miqdorda qo'llash;
- barqaror, tez parchalanadigan biotsidlarni sintez qilish hamda tor spektrda ta'sir etuvchi moddalarni qo'llash.

Bulardan tashqari, o'simliklarni himoya qilishda kimyoviy usullarning agrotexnik, seleksion, tashkiliy–xo'jalik, biologik va boshqa usullar bilan uyg'unlashtirib olib borilishi kerak.

Umumiy qilib aytganda, tabiat va jamiyat munosabatlarini uyg'unlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish barobarida atrof-muhitning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik uchun ilmiy asoslangan dasturli faoliyatlarni amalga oshirish lozim. Agarda tabiatdagi tabiiy muvozanat buzilsa, biologik xilma-xillik va landshaft barqarorligi buziladi, geotizimdagi bir butunlik qonuniyati izdan chiqadi. Shularni inobatga olgan holda, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning ilmiy asoslarini yaratish, ekologik madaniyat darajasida tabiat resurslaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Iqtisodiy geografik tadqiqotlarda nimaga ekologiyaga urg'u qaratiladi?*
- 2. Fanning ekologiyalashuvi nima?*
- 3. Sanoat majmualari ekologiyaga qanday ta'sir ko'rsatadi?*
- 4. Qishloq xo'jaligi va transportning ekologiyaga ta'siri va oqibatlari nimalarda namoyon bo'ladi?*

22-BOB. O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYA FANINING RIVOJLANISHI

Mavzu annotatsiyasi. *Ushbu mavzuda O‘zbekistonda iqtisodiy–ijtimoiy geografiyaning shakllanish va rivojlanish tarixi, sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Shuningdek, iqtisodiy geografik tadqiqotlarning hududiy tarkibi, ustivor yo‘nalishlari va asosiy muammolariga e‘tibor qaratilgan.*

Tayanch so‘z va iboralar: *fan geografiyasi; mintaqaviy ilmiy maktablar: Toshkent, Farg‘ona, Mirzacho‘l, Zarafshon, Janubiy O‘zbekiston va Quyi Amudaryo; ixtisoslashgan tadqiqotlar va ustivor yo‘nalishlar.*

Reja:

- 22.1. O‘zbekistonda fanning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.
- 22.2. Mamlakatda iqtisodiy-ijtimoiy geografik tadqiqotlarning hududiy tarkibi va asosiy yo‘nalishlari.
- 22.3. O‘zbekistonda shakllangan iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ilmiy maktablari.



22.1-§. O‘zbekistonda fanning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

Yer yuzidagi har bir hudud o‘z taraqqiyot tarixiga ega. Ushbu hududlarda ilm-fan sohalarining qay darajada rivojlanganligi ular taraqqiyotini belgilovchi omillardan biridir. Fan tarixini o‘rganish, uning bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lini tahlil qilish katta ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Ma’lumki, u yoki bu fanning vujudga kelishi uchun ijtimoiy talab yoki ehtiyoj bo‘lishi kerak. Bundan oldin esa shu fanga tegishli turli axboriy ma’lumotlar, obyektiv borliqdan olingan, to‘plangan dastlabki bilimlar va taxminlar shakllanadi, so‘ngra turli voqeliklar orasidagi sabab-oqibat munosabatlari hamda ma’lum sharoitda takrorlanib turadigan qonuniyat aloqadorliklarni asoslash imkoniyati tug‘iladi. Demak, obyektiv borliqni kuzatish, mushohada qilish tez-tez uchraydigan voqealarni tahlil qilish negizida muayyan fanga doir

bilimlar majmuasi vujudga keladi, ular asta-sekin ilmga va fanga aylanadi.

Har qanday bilimlar majmui haqiqiy fan maqomiga ega bo'lishi, shakllanishi uchun o'zining obyekti, predmeti, metodi va metodologiyasi (usuli va uslubiyoti), asosiy tushuncha, kategoriya va qonuniyatlari, ilmiy maktab, markaz va yo'nalishlari, salmoqli ilmiy asarlar, tadqiqotlariga ega bo'lishi va uning boshqa fan vakillari tomonidan e'tirof etilishi talab etiladi. Shuningdek, mazkur fanning o'quv predmeti sifatida o'qitilishi, maxsus fakultet, kafedra yoki laboratoriyalarning tashkil etilishi ham katta ahamiyatga ega. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani ham yuqoridagi shart-sharoitlar, obyektiv zaruriyatlar asosida vujudga kelgan va rivojlanib borgan.

Ma'lumki geografiya fanining rivojlanishi ham boshqa fanlar singari jamiyat rivojlanishi bilan hamohang tarzda kechgan. Shuning uchun ushbu fanga oid bilimlarning rivojlanish tarixini o'rganishda davrlashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Geografik voqealik makon va zamon bo'yicha doimo tadrijiy o'zgarishlarda bo'ladi. Qotib qolgan yoki rivojlanmaydigan geografik voqelik tabiatda mavjud emas. Fan tarixini qiyosiy-tarixiy usulda tahlil qilish uning taraqqiyotiga to'g'ri baho berish va kelajakka nazar tashlash, ya'ni oldindan aytish (prognoz qilish) imkonini beradi.

Mashxur rus olimi B.B.Polinov ilm-fan tarixini o'rganishning mutlaq zarurligi haqida yozib, bunday tadqiqotlar nafaqat fanning bosib o'tgan yo'lni yoritadi, balki keyingi tadqiqotlar yo'nalishini ham aniqlashni osonlashtiradi, deb aytgan edi. Fan sohalarining shakllanish va rivojlanish tarixini davrlashtirishda uning qamrov miqyosi ham inobatga olinmog'i lozim. Bu jihatdan, *lokal* (ma'lum bir mamlakat doirasida), *regional* (mintaqa) va *global* (dunyo) miqyosdagi davrlashtirish amalga oshirilishi mumkin. Chunonchi, davrlashtirish uchun maxsus mezon va tamoyillari ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Turli davrlarda fanlar rivojlanishida shiddat bilan oldinga siljishlar va shu bilan birga taraqqiyotdan orqaga qolish holatlari ham kuzatilgan. Ushbu holatlar bevosita O'zbekiston geografiyasi tarixiga ham daxldordir. Masalan, Yevropadagi Buyuk geografik kashfiyotlar ushbu hududda fan va madaniyat rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatgani holda, bizning mamlakatimiz hududi orqali o'tgan Buyuk Ipak yo'lining ahamiyatini keskin tushib ketishiga sabab bo'lgan. Bu, o'z navbatida, jamiyat va ilm-fan taraqqiyotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada,

mintaqamiz turli sohalarda ortda qola boshlaydi, xalqaro aloqalarda uzilishlar ro‘y bera boshlaydi.

Ilm-fan tarixi masalalari o‘rganilayotganda, yuqoridagi kabi holatlar sinchiklab tahlil etiladi, ma’lum bir fan sohasining shakllanish va rivojlanish tarixini davrlashtirishda hisobga olinadi.

Geografiya fani tarixini davrlashtirishda bu borada mavjud tajribalarga tayanib, quyidagi masalalarga alohida ahamiyat qaratish lozim:

– o‘rganilayotgan davrning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari hamda hududdagi siyosiy vaziyatga baho berish;

– fan sohasi bo‘yicha aniq ma’lumotlarning to‘planish xususiyatlari va ularning ushbu fan shakllanishi va rivojlanishidagi ahamiyatini ochib berish;

– o‘rganilayotgan fan sohasi bo‘yicha ushbu hududdan tashqarida shakllangan g‘oyalar, fikrlar va tushunchalarning kirib kelishi hamda ularga munosabat masalalarini tahlil etish;

– o‘rganilayotgan hududda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar hamda ularning natijasi, shuningdek, islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha fan oldiga qo‘yilgan vazifalarni yoritib berish;

– o‘rganilayotgan hududda fan sohasida erishilgan yutuqlarni nazariy, ilmiy va uslubiy jihatdan tahlil qilish va hokazo.

Hozirgi kunda geografiya fanining taraqqiyot tarixini davrlashtirish bo‘yicha bir necha variantdagi yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular asosan geografiyaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish tarixini umumiy holda aks ettiradi. Bunday yondashuvlarni xorijiy olimlar – *A.Gumboldt*, *K.Ritter*, *V.Blash*, *R.Xartshorn*; yaqin o‘tmishning mashhur geograf olimlari – *I.P.Gerasimov*, *L.P.Shubayev*, *Y.G.Saushkin*, *A.A.Grigoryev*, *N.A.Gvozdetskiy*, *A.G.Isachenko*, *V.P.Maksakovskiy*, *M.M.Golubchik* kabilarning ishlarida ko‘rish mumkin.

Markaziy Osiyo va O‘zbekistonda esa *H.Hasanov*, *A.Azatyanyan*, *R.Yugay*, *R.Rahimbekov*, *Z.Donsova*, *A.Ochilov*, *U.Obidov*, *A.Nigmatov* kabi olimlar geografiya fanini o‘z prinsiplari asosida davrlashtirishgan.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani shakllanishi, rivojlanish tarixi hamda uning ayrim davrlari bo‘yicha ma’lumotlarni *Z.M.Akramov*, *O.B.Ata–Mirzayev*, *A.S.Soliyev*, *Sh.A.Azimov*, *M.I.Nazarov*, *Z.N.Tojiyeva*, *N.Q.Komilova*, *I.R.Turdimanbetov*, *V.N.Fedorko*, *Sh.B.Qurbonov*, *F.T.Rajabov* kabi olimlarning ayrim ishlarida ko‘rish mumkin.

Jumladan, geografiya fanlari doktori, professor A.S.Soliyev Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining shakllanish va rivojlanish tarixini O‘zbekiston nuqtai nazardan kelib chiqib, 3 ta asosiy – *oktabr inqilobigacha bo‘lgan davr, sho‘rolar davri va mustaqillik yillari* davrlariga ajratgan.

Qo‘shimcha ravishda, fundamental iqtisodiy-ijtimoiy geografik ahamiyatga ega tahlillar amalga oshirilgan manbalarni ham inobatga olgan holda, mamlakatimiz hududida iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani rivojlanishini beshta – «Mahalliy fundamental ijtimoiy-iqtisodiy bilimlar davri», «Harbiy geografik ekspeditsiyalar davri», «Inqilobiy jarayonlar davri», «Iqtisodiy geografiyaning ijtimoiylashuv davri», «Tarmoqlar geografiyasining takomillashuv davri» kabi bosqichlarga ajratish mumkin. Jumladan:

1. Mahalliy fundamental ijtimoiy-iqtisodiy bilimlar davri – bu qadimiy ijtimoiy qarashlar va o‘lka qomusiy olimlarining faoliyati bilan bog‘liq davr bo‘lib, Rossiya Imperiyasi mintaqani istilo qilgunga qadar davom etgan.

Aslida, respublikamiz hududida ijtimoiy-iqtisodiy geografik qarashlarning shakllanishi uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Ammo buni iqtisodiy geografiyaning fan sifatida shakllanishidan farqlash lozim. Chunki har qanday fan shu sohadagi eng mukammal qarashlarning yig‘indisidan, majmuidan iborat bo‘ladi. Buyuk vatandoshlarimiz – *Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Muhammad Haydar* kabi qomusiy olimlarning asarlarida yurtimiz va dunyoning bir qancha mamlakatlarning *tabiati, aholisi va xo‘jaligi* to‘g‘risidagi *iqtisodiy geografik ahamiyat kasb etuvchi* ma‘lumotlarni uchratish mumkin. Ammo bu va boshqa olimlar geografik me‘roslarining iqtisodiy geografik jihatlari yaxshi o‘rganilmagan. Shu bilan birga, ko‘pgina iqtisodiy geografik ma‘lumotlar xitoy va arab sayyohlarining kitoblarida ham mavjud. Ularda, asosan, mintaqamiz bozor va shaharlaridagi savdo, hunarmandchilik sohalariga katta e‘tibor berilgan. Aytish lozimki, aynan ana shu shahar va bozorlar tafsiloti orqali o‘lkamizning o‘sha davrdagi iqtisodiy hayotini aks ettiruvchi tarixiy geografiyasini bilib olishimiz mumkin.

2. Harbiy geografik ekspeditsiyalar davri – Markaziy Osiyo hududini XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya

Imperiyasining manfaatlari nuqtai nazardan hududiy jihatdan keng qamrovli tadqiq etilgan bosqich bo‘lib, 1917-yilgacha davom etgan.

Bu davr tadqiqotlari umumgeografik xususiyatlari bilan ajralib turgan. Ayniqsa geologik, geomorfologik, meteorologik, glyatsiologik, geobotanik va zoogeografik jihatdan olib borilgan tadqiqotlar natijasida ulkan ilmiy hamda amaliy ahamiyatga molik ma’lumotlar to‘plangan. Ushbu tadqiqotlardan ko‘zlangan maqsad o‘lka hududining tabiiy geografik sharoiti hamda resurslaridan *xo‘jalikni hududiy tashkil etishda foydalanish* ekanligini nazarda tutadigan bo‘lsak, iqtisodiy geografik tadqiqotlarning jonlanishi, aynan, shu davrga borib taqaladi hamda bir qancha harbiy-ekspeditsiyachilar – *P.P.Semyonov-Tyanshanskiy, N.M.Prjevalskiy, N.A.Seversov, A.P.Fedchenko, I.V.Mushketov, V.A.Obruchev* va boshqalar tomonidan mukammal o‘rganiladi, mintaqaning tabiiy xususiyatlari qatorida siyosiy geografik jihatlari tahlil etiladi.

1906–1918-yillarda nashr qilingan «Сельское хозяйство Туркестана» (Turkiston qishloq xo‘jaligi) jurnalida qishloq xo‘jaligi sohasida olib borilgan tadqiqot natijalari yoritib borilgan. Bunday ma’lumotlar, o‘z navbatida, respublikamiz hududida XX asrning 20-yillaridan boshlab olib borilgan ilk iqtisodiy geografik tadqiqotlar uchun manba vazifasini o‘tagan.

3. Inqilobiy jarayonlar davri – Chor Rossiyasining 1917-yilda tugatilishidan to 1924-yilgi Markaziy Osiyoda amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilgunga qadar davom etgan qisqa muddatli bosqich bo‘lib, mintaqada ko‘plab o‘zgarishlarning sodir bo‘lganligi bilan xarakterlanadi.

Ushbu davrning boshlanishi oktabr to‘ntarilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘plab keyingi o‘zgarishlar uchun zamin yaratgan. Jumladan, mazkur bosqichda Markaziy Osiyodagi xonlik va amirlik davlatlari qulatilib, xalq sovet respublikalari tuziladi; transport-kommunikatsiya infratuzilma elementlarini joylashtirish kengaytiriladi; elektrlashtirish jarayoni kirib keladi; qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish boshlanadi; kolxoz va sovxozlarning tashkil etiladi; tabiiy boyliklarni qazib olish jadallashadi; resurslarni qayta ishlovchi sanoat korxonalarini quriladi va boshqa iqtisodiy ahamiyat kasb etuvchi jarayonlar amalga oshiriladi.

Chunonchi, mintaqa hududining yer-suv, mineral, iqlimiy va biologik resurslarini o‘rganishga e’tibor yanada ortadi. Bundan ko‘zlangan maqsad Markaziy Osiyoning asosiy xo‘jalik tarmog‘i bo‘lmish – paxtachilikni rivojlantirish hamda qishloq xo‘jaligining

xomashyo yetkazib baruvchi boshqa tarmoqlarini shakllantirishdan iborat edi. Ana shu ehtiyoj tufayli geografik tadqiqotlarning mazmun–mohiyati va undan ko‘zlangan maqsad ham o‘zgarib borgan. Natijada, maxsus ixtisoslashgan ilmiy dastur asosida ancha mukammal va tizimli tadqiqotlar olib borila boshlangan. Ayrim geografik rayonlarni chuqur miqdoriy tahlil qilish, ularni kartalashtirish hamda iqtisodiy salohiyatini aniqlash bosh masalaga aylangan. Hududlarning qishloq xo‘jaligi nuqtai–nazardan imkoniyatlarini aniqlash va baholashga katta e‘tibor qaratilgan. Bu borada, Rossiya yer tuzish va dehqonchilik Boshqarmasi qoshidagi «Yerlar holatini yaxshilash bo‘limi», «Gidrometrik bo‘linma», «Turkiston Harbiy topografiya bo‘limi», «Rossiya Geografiya jamiyatining Turkiston bo‘limi» olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Ushbu muassasalarda faoliyat olib borgan olimlarning ilmiy faoliyati xalq xo‘jaligining dolzarb vazifalari – *yer tuzish, obikor dehqonchilik va yaylov xo‘jaligini rivojlantirish, yer osti boyliklarini izlab topish, yer-suv resurslarini baholash* hamda *kartalashtirish* kabi masalalar bilan bog‘liq bo‘lgan.

Bundan tashqari Markaziy Osiyoda vujudga kelgan jadidlik harakati namoyandalari o‘zlarining «Yangi usul» maktablari uchun nashr ettirgan geografik adabiyotlarida iqtisodiy geografiya va uning ayrim tarmoqlari to‘g‘risida fikr yuritgan bo‘lsalar-da, bu ma‘lumotlar umumiyliги hamda o‘sha davr Markaziy Osiyo aholisining bilim saviyasi nuqtai-nazaridan yozilganligi bilan farqlanadi. Bu borada *Is‘hoqxon To‘ra Ibrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Turor Risqulov, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov* kabilarning faoliyati alohida diqqatga sazovordir. Xususan, jadidlarning «Yangi usul» maktablari uchun nashr ettirgan «Turkiston xaritasi», «Muntaxabi jug‘rofiyai imroniy» (Aholi geografiyasiga kirish), «Muxtasari geografiyai Rusiy» (Rossiyaning qisqacha geografiyasi), «Jug‘rofiyai riyoziy» (Matematik geografiya), «Jug‘rofiyai tarixiy» (Tarixiy geografiya) «Jug‘rofiyai siyosiy» (Siyosiy geografiya) kabi asarlari o‘sha davrdagi geografik qarashlarni o‘zida aks ettirganligi hamda iqtisodiy geografiyaga oid bilim kurtaklarini shakllantirgani bilan ajralib turadi.

Bu davrning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, 1918-yilda nafaqat O‘zbekiston, balki butun O‘rta Osiyo ilm-fani taraqqiyotida poydevor vazifasini o‘tagan O‘rta Osiyo davlat universiteti (CAFY) ga asos solinadi.

Shuningdek, Turkistondagi mahalliy aholining milliy-ozodlik harakatlari kuchaygan ushbu davrda o‘lka «Qizil armiya» tomonidan

nazoratga olinadi va Sharqdagi Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi (RSFSR) boshchiligidagi sovet mintaqasi sifatida shakllantirila boshlanadi. Buning uchun yuqorida keltirib o'tilganidek, qadimiy xon va amirliklar tugatiladi. Markaziy Osiyo masalalari bilan shug'ullanuvchi Turkkomissiya tashkiloti tuzilib, 1920-yil ushbu komissiya raisi Yan Ernestovich Rudzutak o'z tezislarida Turkiston ASSRni milliy belgilariga qarab avtonom respublikalarga bo'lish taklifini olg'a suradi. Milliy-hududiy chegaralanishga oid tezislar shu yilning iyun oyida Rossiya Kommunistik Partiyasi Markaziy Qo'mitasining «Partiyaning Turkistondagi vazifalari haqida» deb nomlangan qarori loyihasiga kiritiladi. V.I.Lenin 1920-yilning 13-iyunida Turkkomissiya qarorining loyihasini shaxsan ko'rib chiqadi va, o'sha paytdayoq, Turkistonni millat-davlatlarga ajratish, ularning xaritasini tuzish zarurligini ko'rsatadi. Natijada, keyingi yillarda Markaziy Osiyoda milliy-etnik va xo'jalik ixtisoslashuvi tamoyillaridan kelib chiqqan holda, delimitatsiya-demarkatsiya ishlari olib boriladi.

Bunda amalda RSFSRning tellurokratik (quruqlik siyosatiga oid) hokimiyatini mustahkamlash nazarda tutilgan edi. Ikkinchi tomondan olib qaraganda, Markaziy Osiyo hududida yangi avtonom sovet respublikalarini shakllantirib olib, sotsialistik ittifoq hududini tashkil etishning tag zamirida janubdan kirib kelishi mumkin bo'lgan geosiyosiy tahdidlarga qarshi o'ziga xos to'siq barpo etish ko'zda tutilgan edi. Ya'ni Angliyaning «Hindiston–Afg'oniston–Turkiston» yo'nalishidagi mustamlakachilik modeli geosiyosiy jihatdan RSFSR uchun nihoyatda katta tahdid edi. Zero, janubdan Hindiston subkontinentida o'zining ustuvorligini o'rnatgan va tizimli ravishda shimolga qarab siljib borayotgan Angliya ham XIX asrning 70-yillarida Markaziy Osiyoni o'ziga qo'shib olish, yangi bozorlarga, xomashyo manbalariga, qolaversa, strategik jihatdan qulayroq hududlarga ega bo'lish uchun mintaqani o'z ta'siriga olish va hukmronligini o'rnatishga betinim harakat qilgan. Biroq, Markaziy Osiyoda ikki davlat ta'sir doiralarini aniqlashtirishga qaratilgan 1873-yilda imzolangan Rossiya–Angliya bitimi orqaligina mintaqani Rossiya imperiyasi tomonidan boshqarilishi belgilab olingan edi. Aynan mana shu jihatdan, sotsialistik blokni shakllantirish bu singari geosiyosiy vaziyatni nazorat qilishda ustuvor ahamiyat kasb etishi XX asrning 20–30-yillaridagi milliy–hududiy chegaralanish jarayonida inobatga olingan edi. Natijada, mintaqa siyosiy xaritasi tubdan yangilanadi hamda bu jarayon ishlab

chiqarishni hududiy va ijtimoiy tashkil etish shakllariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

4. Iqtisodiy geografiyaning ijtimoiylashuv davri – bu O'zbekistonning ittifoqdosh respublika sifatida vujudga kelishi va uning 1991-yilda mustaqillikka erishishi oralig'idagi yillarni o'z ichiga olgan bo'lib, sobiq Ittifoq davridagi tadqiqotlar natijalarini qamrab oladi.

Ushbu bosqichda aholi va aholi punktlari tizimini kompleks tahlil qilish, geourbanistik tadqiqotlarni kengaytirish, ishlab chiqarish kuchlarini hududiy joylashtirish, iqtisodiy rayonlashtirish masalalari majmualar tarzda amalga oshirilgan.

Mazkur bosqich alohida ajratilishiga sabab, asosan, ungacha sof iqtisodiy ko'rsatkichlar – statistik raqamlarga ko'p ahamiyat berilgan. Shu sababli, iqtisodiy geografiyada «tarmoq-statistika» yo'nalishi ustuvor bo'lgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, XX asrning 20-yillarigacha iqtisodiy geografiya iqtisodiyot fanlari tarkibiga kiritilgandi. Albatta, fanni faqat raqamlar bilan to'ldirish va geografiyani tarmoqlar tahlili bilangina tushuntirish maqsadga muvofiq emas. Binobarin, asosiy ixtisosligi iqtisodchi bo'lgan olimlar S.V.Bernshteyn-Kogan va N.N.Baranskiylar iqtisodiy geografiyada hududiy jihatlariga ko'proq ahamiyat berishning tarafdorlari bo'lib chiqishgan. Natijada, iqtisodiy geografiya tarkibida rayonlar yo'nalishiga alohida urg'u qaratila boshlangan. Ehtimol, bu holat keyinchalik iqtisodiy geografiyani iqtisodiyot fanlari tizimidan geografiya fanlari guruhiga kiritilishiga sabab bo'lgandir.

Ma'lumki, O'rta Osiyo sobiq Ittifoqning yirik qishloq xo'jalik rayoni edi. Shuning uchun ham iqtisodiy geografik tadqiqotlarning diqqat markazida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini oqilona joylashtirish yoki hududiy tashkil etish, iqtisodiy geografik rayonlashtirish masalalari yotardi. Qishloq xo'jaligini iqtisodiy geografik rayonlashtirishda majmualilik hamda tabiiy sharoit nuqtai nazaridan ta'riflash muhim o'rin tutar edi. Shuningdek, bu tadqiqotlar aniq amaliy maqsadlariga qaratilganligi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini joylashtirishning ilmiy asosi sifatida yaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etardi.

O'zbekiston va butun O'rta Osiyoning iqtisodiyotiga oid tadqiqot natijalari, asosan, Ittifoqning boshqa respublikalaridan kelgan olimlar faoliyati bilan bog'liq bo'lib, iqtisodiy geografik tadqiqotlar ko'proq hududning umumiy ta'rifiga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarda, eng avvalo, G.N.Cherdansevning

xizmatlari katta bo'lganini e'tirof etish lozim. Chunonchi, G.N.Cherdansevning 1922-yilda yozgan O'rta Osiyo haqidagi monografiyasi, 1928-yilda nashr etgan O'rta Osiyo respublikalariga bag'ishlangan kitobidan muhim iqtisodiy geografik tahlillar o'rin olgan. U 1936-yilda O'zbekiston ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlari asosida dissertatsiya himoya qilmasdan turib, iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasiga sazovor bo'ldi. Shuningdek, respublikada iqtisodiy geografik tadqiqotlarning rivojlanishiga professorlar *V.M.Chetirkin*, *N.N.Kojanov*, *N.K.Yaroshevich*, *Y.I.Poslavskiylar* ham o'zlarining katta hissalarini qo'shdilar.

Qolaversa, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning rivojlanishida geografiya fanlari doktori, professor *V.M.Chetirkin* alohida o'rin tutadi. U 1926-yilda «O'zbekiston: Xalq xo'jaligi holati va uning rivojlanishi» nomli yirik monografik asar chop ettiradi. Mazkur asar o'sha davr respublika iqtisodiy geografiyasiga doir qimmatli va dolzarb ma'lumotlarni o'zida mujassam qilgandi. 1940-yili *V.M.Chetirkin*ning tashabbusi bilan CAFYning geografiya kafedrasida Tabiiy geografiya, Iqtisodiy geografiya kafedralari tashkil qilinadi. Iqtisodiy geografiya kafedrasining birinchi mudiri etib dotsent *V.G.Kuznetsov* tayinlanadi. Mazkur kafedrada mashxur olimlar – *R.S.Lobach* va *A.B.Itkinlar* faoliyat ko'rsatadilar.

Bir yildan so'ng, urush tufayli Toshkentga sobiq Ittifoqning Yevropa qismidagi hududlaridan evakuatsiya qilingan o'qituvchi va ilmiy xodimlarning katta guruhi yetib keladi. Iqtisodiy geografiya kafedrasining tarkibiga professorlar – *M.G.Kadek*, *S.D.Muraveyskiy*; dotsentlar – *A.N.Rakitnikov*, *M.G.Reyser*, *A.A.Konovalovlar* kelib qo'shiladi. Natijada, 1943-yilda iqtisodiy geografiya yo'nalishi bo'yicha ilk bor aspirantura ochiladi, aspirantlar uchun muntazam ilmiy-metodik seminarlar olib boriladi, bunda *V.M.Chetirkin* murabbiylik qiladi. Aynan, mana davrda iqtisodiy geografiyaning rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratiladi. Shu tariqa, respublikamizning «otaxon» oliy ta'lim dargohida dastlabki iqtisodiy geografiya ilmiy maktabi shakllana boshlaydi.

Iqtisodiy geografiya ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda mamlakat xo'jaligini qayta tiklash ishlarida katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan. Bu borada sobiq Ittifoqda tashkil etilgan KEPS: «Комитет по использованию природных ресурсов» (Tabiiy resurslardan foydalanish Qo'mitasi) va uning asosida tashkil etilgan

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi СОПС: «Совет по изучению производительных сил» (Ishlab chiqarish kuchlarini o‘rganish bo‘yicha Kengash)ning faoliyati O‘zbekiston ilm-fanida nihoyatda muhim bo‘lgan. Ushbu ilmiy-tadqiqot tashkilotlari mamlakatning turli hududlarida tabiiy resurslardan foydalanish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo‘yicha konsepsiya va sxemalarni yaratganki, mohiyatan bu ishlar iqtisodiy geografiya fani doirasida olib borilgan.

XX asrning 50–60-yillarida olib borilgan tadqiqotlar sirasiga Farg‘ona, Qashqadaryo, Surxon-Sherobod va Zarafshon vodiysi hududlariga uyushtirilgan ekspeditsiyalarni kiritish mumkin. Bu davrda O‘zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan – *R.S.Lobach, Z.M.Akramov, S.Saidkarimov, T.M.Mirzaliyev, R.A.Xodiyev, T.T.Tadjimov, T.I.Raimov, Y.Q.Umarov, Z.I.Tog‘ayev, Q.Abirqulov, A.N.Ro‘ziyev, O.B.Ata-Mirzayev* kabi olimlar yetishib chiqdilar. Ular ichida Z.M.Akramovning cho‘l, tog‘ va tog‘oldi rayonlarni o‘zlashtirish, iqtisodiy rayonlashtirish, agrogeografiyaga oid muammolar ustida olib borgan izlanishlari alohida diqqatga sazovordir. Qolaversa, yirik hududiy-iqtisodiy tadqiqotlarni bajarilgan. Masalan, Farg‘ona vodiysining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, Angren–Olmaliq, Buxoro–Navoiy, Qashqadaryo, Mirzacho‘l, Quyi Amudaryo hududiy ishlab chiqarish majmualari to‘g‘risidagi ishlar shular jumlasidandir.

XX asrning 70-yillarida iqtisodiy geografiya sobiq Ittifoqda rasman «Iqtisodiy va sotsial geografiya» nomini oladi. Tabiiyki, uning ilgari ta‘rifi, ishlab chiqarish geografiyasi ekanligi sharoitiga to‘g‘ri kelmay qolgandi. Shuning uchun an‘anaviy iqtisodiy geografiyaning ta‘rifi ijtimoiy, noishlab chiqarish sohalari, aholining turmush sharoiti va tarzining hududiy jihatlari bilan boyitiladi. Ana shu davrda, keyinchalik, respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning rivojlanishiga katta va samarali hissa qo‘shgan – *G.R.Asanov, G‘.A.Ashurov, T.E.Egamberdiyev, A.S.Soliyev, X.S.Salimov, A.A.Qayumov, M.Yangiboyev, T.Jdanov, I.Safarov* kabi olimlar yetishib chiqdilar.

Ushbu bosqichning 80–90-yillarida aholi va aholi punktlari geografiyasi, sanoat tarmoqlari geografiyasi, qishloq xo‘jaligi geografiyasi va agrosanoat majmuasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga oid tadqiqotlar *K.Qurbonov, M.Ishchanov, O.Abdullayev, T.N.Mallaboyev, M.R.Bo‘riyeva, Sh.B.Imomov, A.M.Sodiqov, N.X.Mamatqulov, M.Yusupov, O.R.Tillayev* va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida batafsil yoritib berilgan.

Demak, O‘zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning rivojlanish tarixining ushbu bosqichi yaqin o‘tmishdagi katta davrni o‘z ichiga olgan. Ilm-fanning nazariy masalalaridan ishlab chiqarishni hududiy joylashtirish va mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda bevosita foydalanilgan.

5. Tarmoqlar geografiyasining takomillashuv davri – 1991-yili sentabrda O‘zbekistonning mustaqil respublika sifatida vujudga kelishidan hozirgi davrgacha bo‘lgan muddatni o‘z ichiga oladi.

Bu davrda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya yangi siyosiy va iqtisodiy sharoitda rivojlana boshladi; fanning asosiy g‘oya va tushunchalari – *hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy ishlab chiqarish majmualari*; fundamental nazariyalari bozor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan kelib chiqib yoritila boshlandi. Chunonchi, XX asrning 90-yillaridan e‘tiboran, yangi tarmoqlarning alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida ajralib chiqishi jadallasha bordi hamda fanni raqamlashtirish amalga oshirila boshlandi.

Shuningdek, fanning yangi vazifalari ham vujudga kela boshladi. Ular jumlasiga O‘zbekistonning yoqilg‘i-energetika, don, yo‘l (transport) mustaqilligiga erishish; oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash; qishloq joylarni ijtimoiy–iqtisodiy jihatdan rivojlantirish; ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni davlat tomonidan tartibga solish; mintaqaviy iqtisodiyot va mintaqaviy siyosat yuritishni optimallashtirish; tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish; iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamlashtirish; ekologik muammolarning iqtisodiy geografik jihatlarini baholash va boshqa dolzarb masalalarni o‘rganish kiradi.

Endilikda, respublika olimlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiya tarkibida biroz oqsayotgan – *siyosiy* (anklav hududlar geografiyasi, elektoral geografiya, limologiya), *tarixiy* (iqtisodiy geografik ta‘limotlar tarixi), *ekologik* (shaharlar ekologiyasi, ekologik optimallashtirish) yo‘nalishlarni yanada rivojlantirishga jiddiy ahamiyat bermoqdalar. Qolaversa, noan‘anaviy mavzular – tibbiyot geografiyasi, fan va ilmiy tadqiqotlar geografiyasi, jinoyatchilik geografiyasi, rekreatsiya va turizm geografiyasi, etnomadaniyat bo‘yicha ham ilmiy tadqiqotlar ko‘lami kengayib bormoqda.

Ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda iqtisodiy geografiya frontal rivojlanib, boshqa, jahonning ilg‘or mamlakatlarida bo‘lganidek, asta-sekin keng ma‘nodagi ijtimoiy geografiyaga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, uning tarkibiy qismi hisoblangan iqtisodiy geografiya

mustaqil mamlakatimizning bozor munosabatlariga o'tishi bilan bog'liq hududiy muammolarni tadqiq qilishda o'zining munosib hissasini qo'shib bormoqda. Jumladan, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng avvalgi bosqichlarda nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilgan ko'plab olimlar fan doktori ilmiy darajasiga ega bo'lishdi (O.Abdullayev, O.B.Ata-Mirzayev, A.A.Qayumov, T.M.Mirzaliyev, S.Qorayev, T.T.Jumayev, Y.Q.Umarov, A.M.Sodiqov), mustaqillikdan keyin ko'plab yosh olimlar yetishib chiqdi.

Xususan, barcha ilmiy darajalarini aynan mustaqillikdan keyin qo'lga kiritgan olimlarni, shartli ravishda uchta katta guruhga ajratish mumkin:

I. Fan doktorlari:

I.1. *Toshkent mintaqasi:* N.Q.Komilova, Z.N.Tojiyeva.

I.2. *Farg'ona mintaqasi:* Y.I.Ahmadaliyev, R.B.Qodirov, Sh.Z.Jumaxanov, A.A.Isayev.

I.3. *Zarafshon mintaqasi:* L.Z.Ibragimov, M.R.Usmanov.

I.4. *Janubiy O'zbekiston mintaqasi:* M.A.Fayzullayev.

I.5. *Quyi Amudaryo mintaqasi:* I.R.Turdimambetov.

II. Fan nomzodlari:

II.1. *Toshkent mintaqasi:* Z.X.Rayimjonov, Sh.A.Azimov, K.I.Gadoyev, A.A.Xolmirzayev, U.S.Sultanov, R.M.Maxamadaliyev, X.T.Tursunov, S.L.Yanchuk, Z.T.Abdalova, M.I.Nazarov, X.M.Nazarova, J.P.Musayev, M.M.Egamberdiyeva, S.Q.Tashtayeva, N.I.Safarova.

II.2. *Farg'ona mintaqasi:* A.Q.Haydarov, M.J.Maxmudova, M.Mamajonov, X.S.Mirzaaxmedov, A.S.Baratov, D.G'.Mo'minov.

II.3. *Zarafshon mintaqasi:* M.A.Qodirov, M.R.Usmanov, A.M.Mavlonov, O.L.Muhamedov.

II.4. *Mirzacho'l mintaqasi:* L.Q.Qarshiboyeva, K.E.Xidiraliyev, Q.M.Hakimov.

II.5. *Janubiy O'zbekiston mintaqasi:* L.N.Erdonov, M.N.Erdonov, H.Shosaidov, B.H.Kalonov, Q.A.Allanov, X.M.Abdunazarov, A.U.Sattorov, P.R.Qurbonov.

II.6. *Quyi Amudaryo mintaqasi:* G.A.Xodjayeva, G.B.Utepova, G.A.Bekbulatova, I.Sh.Atadjanov, D.R.Ro'zmetov, M.O.Hamroyev, N.J.Yemberganov, S.A.Avezov.

III. Falsafa doktorlari:

III.1. *Toshkent mintaqasi (12)*: Sh.B.Qurbonov, V.N.Fedorko, F.T.Rajabov, N.N.Yuldashev, M.M.Mahmudov, Sh.S.Jo‘rayev, Z.K.Usmanov, E.O.Uralov, J.A.Namozov, M.Sh.Sabirova, M.Sh.Xidirov, J.A.Ismatov.

III.2. *Farg‘ona mintaqasi (10)*: N.O‘.Komilova, X.A.Abduvaliyev, M.M.Atajanov, Z.A.Temirov, X.O.Abdinazarova, E.G‘.Mahkamov, Z.X.Madaminov, M.O.Gapirov, Z.L.Abduvaliyeva, S.A.Ergashev.

III.3. *Zarafshon mintaqasi (7)*: A.X.Ravshanov, N.J.Muxammedova, H.A.Oblaqulov, B.M.Musayev, O.I.Sherxolov, D.K.Zaynutdinova, I.A.Xudoyberdiyeva.

III.4. *Mirzacho‘l mintaqasi (2)*: M.R.Usmanov, H.E.Egamqulov.

III.5. *Janubiy O‘zbekiston mintaqasi (3)*: Q.T.To‘rayev, X.X.Jumayev, D.I.Navotova.

III.6. *Quyil Amudaryo mintaqasi (8)*: A.G.Abdullayev, O.O.Boltaboyev, M.O.Oteuliyev, A.K.Raximov, A.E.Matchanova, I.B.Gulimmatov, R.T.Xudayberganova, A.S.Joldasov va boshqalar samarali mehnat qilishmoqda.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan fan tarixidan ma‘lum bo‘lishicha, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani respublikamizda katta yo‘lni bosib o‘tgan, biroq uning nazariy va amaliy salohiyati keng qamrovda rivojlanishi, aynan, mustaqillik davriga to‘g‘ri kelganligini alohida e‘tirof etish zarur. Chunonchi, professor A.S.Soliyev ushbu davr uchun xos bo‘lgan quyidagi jihatlarni ajratib ko‘rsatadi: Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining amaliy (konstruktiv) ahamiyati kuchaydi. Garchi akademik I.Gerasimov geografiyaning konstruktiv bosqichga o‘tganligini XX asrning 70-yillarida e‘tirof etgan bo‘lsa-da, bu jarayon haligacha davom etayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, bu fan vakillari mustaqil mamlakatimizning mintaqaviy siyosatini amalga oshirishda, demografik jarayonlarni baholash, boshqarish va bashorat qilishda, milliy iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarni hududiy tashkil qilish masalalarida salmoqli ishlarni bajarishmoqda.

Iqtisodiy geografiyaning frontal rivojlanishi uning integratsion salohiyatidan to‘laroq foydalanishga keng imkoniyatlar yaratdi, fanning yanada sotsiallasuvi, siyosiy, ekologik, tarixiy yo‘nalishlariga katta ahamiyat berildi. Shu bilan birga, mustaqillik va bozor munosabatlariga o‘tish fanning nazariy (fundamental) muammolarini yanada chuqurroq va aniqroq o‘rganishni taqozo etmoqda. Xususan, bu davrda ishlab

chiqarishni joylashtirishni tartibga solish va boshqarish, ijtimoiy va demografik jarayonlar, turli mintaqalarda mehnat bozorini shakllantirish va faollashtirish, mehnat bozorini hududiy jihatdan raqamli tahlil asosida baholash, geoekologik muammolar yechimining innovatsion iqtisodiy geografik jihatlarini ilmiy asoslab berish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Tabiiy sharoit va resurslardan mamlakat milliy iqtisodiyotini mustahkamlash maqsadida oqilona foydalanish, ekologik muammolar va ularning yechimiga bag'ishlab respublikamizda qator ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazilmoqda, turli masalalarga doir monografiya, o'quv qo'llanma va darsliklar, atlas va xaritalar nashr ettirish davom etmoqda.

O'zbekiston olimlari va ilmiy maktablarining Markaziy Osiyo respublikalari hamda MDH davlatlari doirasidagi mavqe-obro'yi, ular bilan amaliy aloqalar kuchaymoqda. Ushbu yo'nalishda yetishib chiqqan milliy kadrlar respublikamizning turli nufuzli tashkilotlarida faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar. Bu esa iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning yuksak salohiyati, integratsion imkoniyatlaridan darak beradi.

Shu bilan birga, fanning oldida turgan vazifalar ham ko'p. Ular, eng avvalo, mazkur fanning yangi sharoitdagi nazariy masalalarini o'rganish, uning ijtimoiy nufuzini ko'tarish, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hududiy tomonlarini chuqur tadqiq qilish va bu boradi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish, umumta'lim va oliy o'quv yurtlari uchun zamonaviy o'quv qo'llanma, darslik va atlaslarni tayyorlashdan iborat.

Hozirgi o'zgaruvchan hayotda iqtisodiy geografiyaning ahamiyati yanada oshib bormoqda. U harakatdagi dunyoni, xalqaro, milliy va mintaqaviy iqtisodiyotni turli miqyosda o'rganadi, yuksak geografik madaniyat va geografik fikrlashni shakllanishiga ulkan xizmat qiladi.

22.2-§. Mamlakatda iqtisodiy-ijtimoiy geografik tadqiqotlarning hududiy tarkibi va asosiy yo'nalishlari

Mamlakatimiz hududlarining tabiiy, iqtisodiy imkoniyatlari uning xalq xo'jaligining tarkib topishida o'ziga xos ahamiyat kasb etib kelgan. Shuning uchun ham bu hududlarni xalq xo'jaligining turli sohalarini rivojlantirish maqsadlarida keng qamrovli tadqiq etishga katta e'tibor qaratilgan. Ana shunday tadqiqotlar sirasiga geografik xususan, iqtisodiy geografik tadqiqotlarni ham kiritish mumkin.

Respublikamizda iqtisodiy–ijtimoiy geografik tadqiqotlarning hududiy tarkibini tahlil qilish natijasida bunday tadqiqotlarning quyidagi to‘rtta hududiy qamrovini ajratib ko‘rsatish mumkin:

➤ ma‘muriy–hududiy birliklar (viloyat, tuman, shahar) darajasidagi iqtisodiy–ijtimoiy geografik tadqiqotlar;

➤ mintaqaviy yoxud turli darajadagi iqtisodiy rayonlar doirasidagi (olimlar tomonidan tavsiya etilgan rayonlashtirish sxemalari bo‘yicha) iqtisodiy–ijtimoiy geografik tadqiqotlar;

➤ turli tabiiy–iqtisodiy zonal birliklar (tog‘, tog‘ oldi, cho‘l, voha yoki vodiy va hokazo) doirasidagi iqtisodiy–ijtimoiy geografik tadqiqotlar;

➤ mamlakat darajasidagi va mamlakat qo‘shni mamlakatlar yoki darajasi o‘xshash mamlakatlar fonida bajariladigan iqtisodiy–ijtimoiy geografik tadqiqotlar;

Iqtisodiy–ijtimoiy geografik tadqiqotlarning hududiy qamrovini belgilashda tabiiyki chegara omili ya‘ni sun‘iy (ma‘muriy) va tabiiy chegara yetakchi ahamiyat kasb etadi. Bu, albatta, bajarilishi kerak bulgan tadqiqot yo‘nalishining qamrab olishi lozim bo‘lgan geografik voqelikka bog‘liq.

Iqtisodiy–ijtimoiy geografik tadqiqotlarning hududiy tarkibi tahlilida esa asosiy e‘tibor ushbu hududlar uchun xos bo‘lgan dolzarb masalalarga qaratiladi. Bunda tadqiq etilgan muammolar va ularning natijadorligi hamda tadqiq etilishi lozim bulgan muammo va masalalar ajratib ko‘rsatiladi. Bunda hududiy va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Mamlakatimiz hududlarini iqtisodiy–ijtimoiy geografik tadqiq etilganlik darajasini tahlili shuni ko‘rsatadiki bizda shakllangan iqtisodiy–ijtimoiy geografik tadqiqot yo‘nalishlari bo‘yicha har bir hudud qaysidir darajada qandaydir yo‘nalish doirasida o‘rganilgan. Ammo bu hozirgi davr talabi nuqtai nazaridan olib qaralganda yetarli degani emas.

Respublikamizda amalga oshirilgan iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarning ko‘lamiga ko‘ra eng yirik hududiy doirada bajarilgan tadqiqotlar bu sobiq Ittifoqning o‘sha davrdagi to‘rtta respublikasini o‘zida mujassamlashtirgan O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni darajasidagi tadqiqotlardir. Bunday masshtabdagi tadqiqotlarga V.M.Chetirkinning 1944-yilda himoya qilingan «Туранская фация» (Turon fatsiyasi) nomli doktorlik dissertatsiyasini, A.S.Solievning 1986-yilda himoya

qilingan doktorlik dissertatsiyasi va olimning xitoylik shogirdi 1991-yilda V.Sinning «Формирование и развитие городов Средней Азии» («Markaziy Osiyoda shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi») nomli hamda Z.X.Rayimjonovning 1992-yilda Oʻrta Osiyoning resurs shaharlariga bagʻishlangan nomzodlik dissertatsiyalarini kiritish mumkin. Shuningdek, A.S.Soliyev va A.A.Qayumovning nomzodlik dissertatsiyalari qoʻshni respublikalarni oʻrganishga bagʻishlanganligi bilan ajralib turadi.

Hududiy koʻlamiga koʻra, keyingi daraja bu butun mamlakatimiz hududini tadqiqot obyektida qamrab olgan iqtisodiy geografik tadqiqotlardir. Bu masshtabdagi ishlarga G.N.Cherdansevning fan doktori ilmiy darajasini olish uchun 1936-yilda taqdim etgan Oʻzbekistonda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlarini; O.B.Ata-Mirzayev va A.A.Qayumovning doktorlik dissertatsiyasini, M.Boʻriyeva tomonidan 1983-yilda bajarilgan «Рождаемость в Узбекистане» (Oʻzbekistonda tugʻilish) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini, professorlar N.Q.Komilova va Z.N.Tojiyevalarning doktorlik dissertatsiyasini kiritish mumkin.

TOSHKENT MINTAQASI

Iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarning hududiy tarkibi tahlili shuni koʻrsatadiki, bunday tadqiqotlarning har bir hudud uchun oʻziga xos xususiyatlari mavjud. Shu jihatdan, Toshkent mintaqasi geografiya (xususan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya) fanining eng yirik markazi hisoblanadi. Albatta, alohida hududlar mintaqalar miqyosida respublikamiz ilm-fan, madaniyat markazi boʻlgan poytaxt Toshkent mintaqasi yetakchi mavqega ega. Poytaxt mintaqasida iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining turlanishi (differentsiatsiyasi), har xil yoʻnalishlarga ixtisoslashuvi, boshqacha qilib aytganda, koʻp funksiyali ekanligi koʻzga tashlanadi. Xususan, iqtisodiy (tabiiy resurslar, sanoat, qishloq xoʻjaligi, transport) geografiyaning umumiy masalalari, aholi va aholi punktlari geografiyasi, geourbanistika, aholiga xizmat koʻrsatish (servis) geografiyasi, sof sotsial geografik tadqiqotlar – nozogeografiya, ilm-fan geografiyasi, jinoyatchilikning hududiy jihatlarini oʻrganish keng yoʻlga qoʻyilgan. Bundan tashqari, sotsial-iqtisodiy kartografiya muammolari ham tahlil va tadqiq qilinmoqda. Oʻzbekiston Geografiya jamiyati Prezidiumi Toshkent mintaqasi, aniqrogʻi, Mirzo Ulugʻbek

nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida o‘z faoliyatini olib bormoqda.

Mintaqada faoliyat olib borgan marhum olimlar – Z.M.Akramov, R.A.Xodiyev, S.Qorayev, Q.Abirqulov, S.Saidkarimov, T.E.Egamberdiyev, X.Salimov, T.I.Raimov, O.B.Ata-Mirzayev, A.S.Soliyev, A.A.Qayumov, T.M.Mirzaliyev, I.Safarov, Z.X.Rayimjonov, Sh.A.Azimov hamda hozirgi kunda faol tadqiqotlar olib borayotgan – T.J.Jumayev, A.M.Sodiqov, A.A.Xolmirzayev, U.S.Sultanov, K.I.Gadoyev, X.T.Tursunov, R.M.Maxamadaliyev, Z.T.Abdalova, M.I.Nazarov, X.M.Nazarova, Z.N.Tojiyeva, J.P.Musayev, N.Q.Komilova, N.I.Safarova, S.L.Yanchuk, M.M.Egamberdiyeva, S.Q.Tashtayeva, V.N.Fedorko, Sh.B.Qurbonov, F.T.Rajabov, N.N.Yuldashev, M.M.Mahmudov, Sh.S.Jo‘rayev, Z.K.Usmanov, J.A.Namozov, E.O.Uralov, M.Sh.Sabirova, M.Sh.Xidirov, J.A.Ismatov va boshqalar tomonidan turli mavzu va yo‘nalishlardagi dolzarb tadqiqotlar amalga oshirilgani respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘zbekistonda mahalliy olimlardan geografiya fanlari bo‘yicha eng birinchi bo‘lib fan doktori dissertatsiyasini 1961-yilda Z.M.Akramov «География сельского хозяйства Самаркандской и Бухарской областей» (Samarqand va Buxoro viloyatlari qishloq xo‘jaligi) mavzusida Moskvada muvaffaqiyatli himoya qiladi. Keyinroq, 1964-yilda S.Saidkarimov «Проблемы хозяйственного развития богарных земель правобережья реки Зарафшан» (Zarafshon daryosi o‘ng qirg‘oq lalmi yerlarini xo‘jalik jihatdan rivojlantirish muammolari) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydi.

Mahalliy olimlardan iqtisodiy geografik kartografiya sohasida yetishib chiqqan eng zabardast olim T.M.Mirzaliyev bo‘lib, u Moskva Geodeziya, aerofotosyomka va kartografiya Markaziy ilmiy-tadqiqot instituti aspiranturasini tamomlab, 1965-yilda «Некоторые вопросы картографирования сельского хозяйства Средней Азии» (O‘rta Osiyo qishloq xo‘jaligini kartalashtirishning ba‘zi masalalari) mavzusida nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qiladi. O‘z davrida, O‘zbekistondagi deyarli barcha atlas va xaritalar T.M.Mirzaliyev tashabbusi va tahriri ostida nashr ettirilgan. Ko‘p yillik izlanishlarning natijasi o‘laroq, 1996-yilda «Развитие социально-экономической картографии в Узбекистане» (O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy kartografiyaning rivojlanishi) mavzuida yozilgan dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qilib, fan doktori ilmiy darajasiga ega bo‘ladi.

E'tiborli tomoni, olimning bir qator asarlari AQSh Qishloq xo'jaligi Vazirligi kutubxonasi, Kaliforniya shtati kutubxonasi va Xalqaro kartografiya assotsiatsiyasi kutubxonasi kabi xalqaro xorijiy fondlarda saqlanadi.

1967-yilda O.B.Ata-Mirzayev Leningrad moliya–iqtisod institutida «Размещение городских поселений Ферганской долины» (Farg'ona vodiysi shahar aholi punktlarining joylashuvi) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qilganidan so'ng, ToshDUning Iqtisodiy geografiya kafedrasiga ishga keladi. 1992-yilda O.B.Ata-Mirzayev Sankt-Peterburg davlat universitetida O'zbekiston Respublikasi misolida «Геодемографическое исследование городского расселения и управление урбанизацией на национально-территориальном уровне» (Shahar aholisi joylashuvini geodemografik tadqiq etish va urbanizatsiyani milliy-hududiy darajada boshqarish) mavzusidagi doktorlik dissertatsiya ishini himoya qiladi. O.B.Ata-Mirzayev respublikamizda geodemografiya, shaharlar geografiyasi, demografik siyosat, sosiologiya bo'yicha yirik mutaxassislardan biri sifatida ilm-fan olamida mashhur.

O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning rivojlanishi, barcha mintaqalarda geograf–mutaxassislarning tayyorlanishi bevosita A.S.Soliyev faoliyati bilan bog'liq. 1973-yilda A.S.Soliyev dotsent T.I.Raimovning ilmiy rahbarligida «Формирование и развитие городов Таджикской ССР» (Tojikiston SSR shaharlarining shakllanishi va rivojlanishi) mavzusida nomzodlik; 1986-yilda esa g.f.d., prof. G.M.Lappo ilmiy maslahatchiligida «Факторы и тенденции развития расселения в республиках Средней Азии» (O'rta Osiyo respublikalarida aholi joylashuvining omillari va tendensiyalari) mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Professor A.S.Soliyev yaratgan ilmiy maktab vakillari hozirda butun mamlakat bo'ylab malakali kadrlar tayyorlashda jonbozlik ko'rsatib kelmoqdalar.

Mazkur yillarda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga oid ishlar yanada kengayadi. Jumladan, I.Safarov aholini demografik va geografik tahlil nuqtai nazaridan atroflicha o'rganib, 1974-yilda «Народонаселение Сурхандарьинской области» (Surxondaryo viloyati aholishunosligi) mavzusida nomzodlik ishini yoqlaydi.

1979-yilda A.A.Qayumov i.f.d., prof. M.Q.Qoraxonovning ilmiy rahbarligida Irkutsk shahrida Sibir va Uzoq Sharq geografiya institutida «Демографические проблемы развития городских поселений Киргизии» (Qirg'iziston shahar aholi punktlarining geodemografik

rivojlanishi muammolari) mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Uzoq yillar mobaynida mehnat resurslaridan oqilona foydalanish muammolarining ijtimoiy-iqtisodiy geografik jihatlari ustida ish olib borgan A.A.Qayumov 1994-yilda «O‘zbekistonda mehnat resurslarining shakllanishi va rivojlanishining sotsial-geografik asoslari» mavzusida doktorlik dissertatsiya ishini himoya qiladi.

Qolaversa, mintaqada geografiyaning boshqa tarmoqlari bilan uyg‘unlikda ilmiy tadqiqotlar ko‘lami kengayadi. Chunonchi, taniqli toponimist S.Qorayev (1998) O‘zbekiston aholi punktlari nomlarining shakllanishini tarixiy-geografik o‘rganish yuzasidan «Ойконимия Узбекистана» mavzusida doktorlik ishini yoqlab, fan doktori ilmiy darajasiga ega bo‘ladi. Shuningdek, 2004-yilda O‘zbekiston Milliy universiteti ixtisoslashgan Ilmiy kengashida T.J.Jumayev iqtisodiy va ijtimoiy geografiya bo‘yicha «O‘zbekiston tog‘ zonasining barqaror rivojlanishi» mavzusida doktorlik ishini yoqlaydi.

Mazkur mintaqaning iqtisodiy–ijtimoiy geografik o‘rganilishiga bag‘ishlangan ishlar sirasiga T.I.Raimovning (1964) Toshkent shahri misolida «Комплексное экономико-географическое исследование столицы союзной республики» (Ittifoqdosh respublika poytaxtini kompleks iqtisodiy geografik tadqiq qilish) va T.E.Egamberdiyevning (1972) «География сельского хозяйства Келесской долины и проблемы его развития» (Keles vodiysi qishloq xo‘jaligi va uni rivojlantirish muammolari) nomzodlik dissertatsiyalari alohida ahamiyatga ega.

Mustaqillikdan so‘ng iqtisodiy va ijtimoiy geografiyadan bajarilgan dissertatsiyalar ichida X.T.Tursunovning (1994) «Toshkent shahrining ekologik vaziyati» (nomzodlik diss.), M.I.Nazarovning (1996) Namangan viloyati misolida «Qishloq joylarda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishning hududiy tashkil etilishi» (nomzodlik diss.), X.M.Nazarovanning (1997) «Ilmiy tadqiqotlarning geografik muammolari» (nomzodlik diss.), S.L.Yanchukning (2002) «Факторы формирования полюсов и линий роста в экономике Узбекистана» (O‘zbekiston iqtisodiyotida o‘shish qutblari va liniyalarining shakllanish omillari; nomzodlik diss.), A.M.Sodiqovning (2006) «O‘zbekiston mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ularni tartibga solish mexanizmlari» (doktorlik diss.), M.M.Egamberdiyevaning (2008) Toshkent viloyati misolida «Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaharlar rivojlanishining mintaqaviy muammolari» (nomzodlik diss.), N.I.Safarovanning (2010) Surxondaryo viloyati misolida bajarilgan

«Iqtisodiy geografik o‘rinning mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri» (nomzodlik diss.), S.K.Tashtayevaning (2018) Toshkent aglomeratsiyasi misolida «O‘zbekistonda shahar aglomeratsiyalarining shakllanish va rivojlanish xususiyatlari» (nomzodlik diss.), N.Q.Komilovning (2012) «O‘zbekiston tibbiy geografik sharoitining hududiy tahlili va aholi salomatligining muammolari» (doktorlik diss.), Z.N.Tojiyevaning (2017) «O‘zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari» (DSc), Sh.B.Qurbonovning (2017) «O‘zbekiston qishloq tumanlari rivojlanishining iqtisodiy geografik xususiyatlari», V.N.Fedorkoning (2018) «Экономико-географические основы совершенствования территориальной структуры природопользования в Узбекистане» (O‘zbekistonda tabiatdan foydalanishning hududiy tarkibini takomillashtirishning iqtisodiy geografik asoslari; PhD), F.T.Rajabovning (2018) Qashqadaryo viloyati misolida «Fermer xo‘jaliklarining ixtisoslashuvi va hududiy tarkibini takomillashtirish» (PhD) mavzularida bajarilgan dissertatsiyalarini keltirish mumkin. Qolaversa, yana o‘nlab tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borishmoqda.

Mintaqada Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) ro‘yxatidagi «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ma’ruzalari», «O‘zbekiston Geografiya jamiyati axboroti», «O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari», «O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi», «Toshkent davlat texnika universiteti xabarlari», «Центральноазиатский журнал географических исследований» kabi ilmiy jurnallar muntazam nashr etiladi.

Hozirda O‘zbekiston Milliy universiteti huzurida DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 raqamli ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash faoliyat olib bormoqda.

FARG‘ONA MINTAQASI

Farg‘ona mintaqasi O‘zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani rivojlanishida o‘ziga xos o‘rin egallaydigan hudud hisoblanadi. Bu mintaqada an’anaviy holda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning aholi va shaharlar geografiyasi, yer-suv resurslaridan foydalanish, sanoat geografiyasi (qo‘shma korxonalar geografiyasi), qishloq xo‘jaligi geografiyasi, transport geografiyasi, siyosiy geografiya (anklav hududlar

geosiyosiy vaziyati), sotsial geografik tadqiqotlar kabi yo‘nalishlar shakllangan.

Bu boradagi tadqiqotlarni *O.Abdullayev, Y.I.Ahmadaliyev, U.Obidov, T.N.Mallaboyev, A.Q.Haydarov, M.J.Maxmudova, A.Hatamov, M.Mamajonov, R.B.Qodirov, Sh.Z.Jumaxanov, A.A.Isayev, A.S.Baratov, X.S.Mirzaaxmedov, X.A.Abduvaliyev, N.O‘.Komilova, Z.A.Temirov, M.M.Atajanov, E.G‘.Mahkamov, Z.X.Madaminov, X.O.Abdinazarova, D.G‘.Mo‘minov, M.O.Gapirov, S.A.Ergashev* kabi olimlarning ishlarida ko‘rish mumkin.

1953-yilda Moskva davlat universitetida professor Y.G.Saushkin ilmiy rahbarligida Z.M.Akramov tomonidan umumiy iqtisodiy xarakterga ega bo‘lgan «Наманганская область (экономико-географическая характеристика)» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilinadi.

Mazkur mintaqani iqtisodiy geografik o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar sirasiga T.Mallaboyevning «Большие города в система расселения в Ферганской долине» (Farg‘ona vodiysi aholisi joylashuvida katta shaharlarning o‘rni, 1982) nomli nomzodlik dissertatsiyalari alohida ahamiyatga ega.

Mustaqillik yillarida, xususan, 1991-yilda O.Abdullayev «Агросаноат ishlab chiqarishining respublikalararo (davlatlararo) shakllanishi va rivojlanishining yo‘nalishlari» (doktorlik diss.), 1992-yilda A.Q.Haydarov «Формирование и развитие промышленных узлов Ферганского экономического района Узбекистана» (O‘zbekistonning Farg‘ona iqtisodiy rayoni: sanoat tugunlarining shakllanishi va rivojlanishi, nomzodlik diss.), 1993-yilda M.J.Maxmudova «Farg‘ona vodiysida bog‘dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish va hududiy tashkil qilishni takomillashtirish» (nomzodlik diss.) mavzularidagi nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar.

X.S.Mirzaaxmedov (2003) yozgan dissertatsiyada esa mamlakatimizda ilk bor bu sanoat tarmog‘ida tashkil etilgan qo‘shma korxonalar faoliyati, infratuzilma va investsiya masalalari o‘rganilgan. A.S.Baratovning nomzodlik ilmiy tadqiqot ishi «Namangan viloyatida suv xo‘jaligini tashkil etish va uning samaradorligini oshirish masalalari» mavzusidan iborat bo‘lib, u 2007-yili muvafaqqiyatli himoya qilgan.

Shuningdek, mintaqa olimlaridan Y.I.Ahmadaliyev 1993-yili Sankt-Peterburg universitetida «Предгорно-равнинные земли Андижанской области: проблемы и пути рационального использования» (Andijon viloyatining tog‘ oldi tekisliklari: muammolar va oqilona foydalanish

usullari) mavzusida nomzodlik, 2007-yilda Y.I.Ahmadaliyevning Farg‘ona vodiysi misolida bajarilgan «Yer resurslaridan qishloq xo‘jaligida foydalanishning hududiy tashkil etilishini takomillashtirish» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi muvafaqqiyatli himoya qiladi.

Vodiy aholisi va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasi 2021-yilda R.B.Qodirov tomonidan «O‘zbekiston Respublikasining Farg‘ona vodiysi viloyatlari mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo‘llari» mavzusida himoya qilingan.

O‘zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning siyosiy geografiya va geosiyosat tarmog‘iga oid ilk doktorlik dissertatsiyasi esa 2023-yilda Sh.Z.Jumaxanov tomonidan «Markaziy Osiyo anklav/eksklav hududlarini iqtisodiy geografik va siyosiy geografik tadqiq etishning metodologik asoslari» mavzusida bajarilgan bo‘lib, unda Markaziy Osiyo anklav/eksklav hududlarini iqtisodiy geografik va siyosiy geografik rivojlanishiga xos hududiy xususiyatlarini aniqlangan, o‘zaro hududiy munosabatlar tizimini o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tarmoqlar geografiyasida oid yana bir tadqiqot ishi 2024-yilda A.A.Isayev tomonidan «O‘zbekistonda transportdan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish» mavzusida bajarilgan doktorlik dissertatsiyasi bo‘lib, O‘zbekiston transport tizimini tahlil qilish asosida uning transportdan foydalanish imkoniyatlarini baholash va hududiy tashkil etishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqilgan.

Ayni paytda, aholi joylashuvining landshaft-ekologik xususiyati, xorijiy investitsiyalar asosida tashkil etilgan qo‘shma korxonalar va ularning iqtisodiy salohiyati, mashinasozlik sanoatining tarmoq-hududiy xususiyatlari, farmasevtika sanoati va yashil iqtisodiyotning geografik asoslari, qishloq xo‘jaligi klasterlari, turizm, zamonaviy aholiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iyerarxiyasi, anklav hududlardagi vektorli munosabatlar, etnomadaniyat va etnolingvistika kabi yo‘nalishlarda ko‘plab tadqiqotchilar DSc va PhD dissertatsiyalarini himoya qilish arafasida turibdi.

Mintaqada Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) ro‘yxatidagi «FarDU ilmiy xabarlari» ilmiy jurnali muntazam nashr etiladi.

ZARAFSHON MINTAQASI

Zarafshon mintaqasi geografik jihatdan ancha mukammal o'rganilgan hududlardan biri. Bu hududda o'tgan asrning ikkinchi yarmida aholi va aholi punktlari qishloq xo'jaligi nuqtai nazaridan Moskva davlat universiteti olimlari bilan hamkorlikda majmuali tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek, Zarafshon vodiysi tabiati va tabiiy resurslari o'zaron uyg'un o'rganilgan. Mintaqaning (Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari) iqtisodiy–ijtimoiy geografik o'rganilishi *Z.I.Tog'ayev, G'.A.Ashurov, N.X.Mamatqulov, K.I.Gadoyev, M.A.Qodirov, M.R.Usmanov, A.M.Mavlonov, O.L.Muhamedov, A.X.Ravshanov, L.Z.Ibragimov, N.J.Muxammedova, H.A.Oblaqulov, B.M.Musayev, O.I.Sherxolov, D.K.Zaynutdinova, I.A.Xudoyberdiyeva* kabi olimlarning ishlarida ko'rib chiqilgan.

Professor Z.M.Akramovning ikki shogirdi – *Z.I.Tog'ayev* (1965) «Современное состояние и проблемы развития хозяйства Зарафшанской долины Таджикской ССР» (Tojik SSRning Zarafshon vodiysi iqtisodiyotining hozirgi holati va rivojlanish muammolari) va *G'.A.Ashurov* (1970) «Экономико географическая особенности табакасеющих хозяйства Чакликалянский гор» (Chaqilkaalon tog'lari tamakichilik xo'jaliklarining iqtisodiy geografik xususiyatlari) mavzusida, professor *Y.N.Persik* ilmiy rahbarligida *N.X.Mamatqulov* 1985-yili Boku shahrida «Экономико географическая особенности формирования и развития Самаркандская агломерация» (Samarqand aglomeratsiyasining shakllanishi va rivojlanishining iqtisodiy geografik xususiyatlari) mavzusida nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilishgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, *K.I.Gadoyev* 1993-yilda Buxoro viloyati Vobkent tumani misolida «Qishloq xo'jalik majmuasining hududiy tashkil etilishi va uni xaritaga olish», *M.A.Qodirov* 1994-yilda «Совершенствование региональной системы расселения Самаркандской области» (Samarqand viloyati aholi punktlari hududiy tizimlarini takomillashtirish), *M.R.Usmanov* 2003-yilda Samarqand viloyati misolida «O'zbekistonda turizm rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari», *O.L.Muhamedovning* 2007-yilda Samarqand viloyati misolida bajarilgan «Aholi tabiiy harakatining hududiy tafovutlari», 2010-yilda *A.M.Mavlonov* «Cho'l sharoitida shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi muammolari», 2019-yilda *N.J.Muxammedova* «O'zbekistonda aholi o'limining geografik tafovutlari», 2020-yilda *A.X.Ravshanov* Samarqand va

Navoiy viloyatlari misolida «Nozogeografik vaziyatning hududiy xususiyatlari», 2022-yilda H.A.Oblaqulov «Navoiy viloyati aholi turmush tarzi va uning ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari», 2023-yilda B.M.Musayev «Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shaharlari rivojlanishi va joylanishining iqtisodiy geografik xususiyatlari» va O.I.Sherxolov «Navoiy viloyati aholisi o‘sishi va joylashishining geografik muammolari» mavzularidagi geografiya fanlari nomzodi dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilganlar.

Zarafshon mintaqasida hozircha bitta fan doktori bo‘lib, «Janubi-g‘arbiy O‘zbekistonda aholi bandligining iqtisodiy geografik xususiyatlari» mazusidagi doktorlik dissertatsiyasi 2022-yili L.Z.Ibragimov tomonidan himoya qilingan.

Mintaqada olib borilayotgan ilmiy ishlar ko‘lami va darajasini kuchaytirilish uchun salohiyat va «resurs» yetarlicha bo‘lib, «cho‘l iqtisodiyoti» va tabiati, transport va shaharlar geografiyasi, urboekologiya, shuningdek, mavjud – Navoiy, Buxoro, G‘ijduvon va Urgut erkin iqtisodiy zonalari bilan bog‘liq tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Mintaqada Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) ro‘yxatidagi «Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi» ilmiy jurnali muntazam nashr etiladi.

Hozirda Samarqand davlat universiteti huzurida DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash faoliyat olib bormoqda.

MIRZACHO‘L MINTAQASI

Mirzacho‘l mintaqasida geografiya ilmi uning umumgeografik, iqtisodiy va demografik salohiyatiga mos holda rivojlanib bormoqda. Umuman olganda, ushbu mintaqa Zarafshon hamda Poytaxt mintaqalari o‘rtasida bo‘shroq geomakanni tashkil qiladi (iqtisodiyotda, geografiyada ham xuddi shunday vaziyat ko‘zga tashlanadi). Bu yerda, ya‘ni Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida landshaftshunoslik, qishloq xo‘jaligi va sanoat geografiyasi, agrosanoat majmuasi va meliorativ geografiya, toponimika yo‘nalishlarida tadqiqot olib boriladi. Asosiy markazlari – Guliston davlat universiteti, Jizzax davlat pedagogika instituti, Guliston davlat pedagogika instituti hisoblanadi.

Ilmiy-pedagogik salohiyatni oshirish yo'lida *M.N.Nurnazarov, N.Ismatov, A.Yuldoshev, K.Qurbonov, Q.M.Hakimov, L.Q.Qarshiboyeva, K.E.Xidiraliyev, M.R.Usmanov, H.E.Egamqulovlar* turli yo'nalishlarda baholi qudrat izlanishlar olib borishmoqda.

Mirzacho'l mintaqasida geografiya ilmi uning umumgeografik, iqtisodiy vademografik salohiyatiga mos holda rivojlanib bormoqda. Bu yerda, ya'ni Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida qishloq xo'jaligi va sanoat geografiyasi, agrosanoat majmuasi va toponimika yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, K.Qurbonovning ishlarida qishloq xo'jaligiga oid tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, 1980-yilda «Qishloq xo'jaligini hududiy joylashtirish muammolari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini professor O.K.Zamkov ilmiy rahbarligida Bokuda Ozarboyjon Fanlar Akademiyasi huzuridagi geografiya instituti Ixtisoslashgan Kengashida himoya qilib, geografiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini oladi. 1985-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Ishlab chiqarish kuchlarini o'rganish kengashida geografiya fanlari doktori, professor Z.M.Akramov hamda ilmiy maslahatchi iqtisodiyot fanlari doktori, professor R.Y.Dosumov rahbarligida Mirzacho'l misolida «Yangi o'zlashtirilgan hududlarda mintaqaviy agrosanoat komplekslarini shakllantirish va rivojlantirish» mavzusida fan nomzodi darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi. 1990-yilda M.N.Nurnazarov «Агропромышленные комплексы Таджикской ССР: Особенности формирования и территориальной организации» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan hamda Guliston davlat universitetida faoliyat olib borgan.

2000-yili L.Q.Qarshiboyeva professor A.S.Soliyev ilmiy rahbarligida «Sirdaryo viloyati sanoatini rivojlantirish va hududiy tashkil etishning geografik jihatlari» va oradan ikki yil o'tib, K.E.Xidiraliyev professor A.M.Sodiqov ilmiy rahbarligida «Sirdaryo viloyati qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi va hududiy tashkil etishni takomillashtirish» mavzusida larinomzodlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilishgan. Shuningdek, Q.M.Hakimov 2010-yilda professor S.Q.Qorayev ilmiy rahbarligida Jizzax viloyati misolida «Joy nomlarining shakllanishida mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari» nomzodlik, M.R.Usmanov 2022-yilda «Jizzax viloyatida turistik destinatsiyalarni tashkil etishning hududiy jihatlari», 2024-yilda H.E.Egamqulov Boyovut tumani misolida «Sirdaryo viloyatining nozoekologik vaziyati va aholi salomatligini hududiy

xususiyatlari» mavzusidagi PhD dissertatsiyalarini yoqlab, mintaqaning ilmiy salohiyatini rivojlanishiga hissa qo‘shib kelishmoqda.

Biroq, Mirzacho‘l ilmiy makonining yanada yuksakroq darajada rivojlanishi talab etiladi. Bu borada mavjud yo‘nalishlar qatorida meliorativ geografiya, agroekologiya, qishloq xo‘jaligi geografiyasiga oid tadqiqotlarni olib borish yaxshi ilmiy va amaliy natijalar beradi. Xususan, «Jizzax maxsus industrial zonasi»ning faoliyati bilan bog‘liq geografik muammolarni o‘rganish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mintaqada geograf olimlar – fan doktorlari saflarini ham yaratish nihoyatda zarurdir.

JANUBIY O‘ZBEKISTON MINTAQASI

Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari tabiati, aholisi, xo‘jaligi va ularning ichki tafovutlari ham geografik jihatdan o‘rganish qiziqarli tadqiqot obyekti hisoblanadi. Bu daryolar nomi bilan tashkil topgan hududda ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari sobiq ToshDU (hozirgi O‘zMU) geograflari tomonidan yaxshi o‘rganilgan, Surxon-Sherobod hamda Qarshi cho‘llarida kompleks tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada *A.Ro‘ziyev, M.Yangiboyev, L.N.Erdonov, M.N.Erdonov, H.Shosaidov, B.H.Kalonov, Q.A.Allanov, X.M.Abdunazarov, A.U.Sattorov, P.R.Qurbonov, M.A.Fayzullayev, Q.T.To‘rayev, X.X.Jumayev* kabi olimlarning tadqiqotlari amalga oshirilgan.

Ta’kidlash joizki, o‘tgan asrning 50–60-yillarida mintaqada tabiiy geografik tadqiqotlar bilan birgalikda, iqtisodiy geografik tadqiqotlarni olib borish ancha jadallashdi. Ushbu davrda Surxon–Sherobod dashtlarining o‘zlashtirilishi, yangi gidrotexnik inshootlarning barpo etilishi, yangi konlarni aniqlash va ularni ishga tushirish, yangi aholi manzilgohlarining vujudga keltirilishi pirovardida ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish va rivojlantirish muammolarini hal etishda iqtisodiy geografik tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Janubiy O‘zbekistonda iqtisodiy-ijtimoiy geografik tadqiqotlarni olib borish hamda Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining rivojlanishida professor A.Ro‘ziyevning samarali ilmiy ijodini alohida qayd etishimiz kerak. Professor A.Ro‘ziyev XX asrning 80-yillaridan boshlab rivojlangan nisbatan yangi yo‘nalish – agrasanoat majmualarini hududiy tizim tarzida chuqur o‘rganish bo‘yicha keng miqiyosdagi ilmiy tadqiqotlar olib borgan taniqli olim

edi. Olimning dastlabki ilmiy tadqiqot ishlari Surxondaryo viloyati qishloq xo‘jaligini geografik jihatdan kompleks tadqiq qilish masalalariga bag‘ishlangan. A.Ro‘ziyev O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Geografiya bo‘limi tomonidan 1961–1962-yillarda Samarqand, 1963-yilda Farg‘ona, 1958–1965-yillarda Surxondaryo viloyatlariga uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalarida faol ishtirok etib, o‘zining keyingi tadqiqot ishlari uchun boy ilmiy manba to‘playdi. Olingan tajribalar asosida olim 1967-yilda «Вопросы развития и размещения сельского хозяйства Сурхан–Шерабадской долины» (Surxon–Sherobod vodiysida qishloq xo‘jaligining joylashish va rivojlanish muammolari) mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Olim 1987-yilda Leningrad davlat universitetining Ilmiy kengashida «Территориальные системы агропромышленного комплекса Узбекской ССР и пути их совершенствования» (O‘zbekiston agrosanoat kompleksining hududiy tizimlari va uni takomillashtirish yo‘llari) mavzuida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

Shuningdek, Qashqadaryoda mintaqaviy geografiyani rivojlantirishga asos solgan olimlardan biri M.Yangiboyev bo‘lib, 1973-yilda T.I.Raimov rahbarligida Toshkent davlat universitetining geografiya fanlari bo‘yicha ilmiy daraja beruvchi ixtisoslashgan Ilmiy kengashida «Qashqadaryo viloyatining aholisi va mehnat resurslari» mavzusidagi nomzodlik ishini muvaffaqiyatli himoya qiladi. Ushbu viloyat katta neft va tabiiy gaz zaxiralariga ega bo‘lib, hudud gaz sanoatining geografik jihatdan o‘rganilishida L.N.Erdonovning xizmatlari beqiyos. Olim professor A.T.Xrushchev rahbarligida 1993-yilda «Географические аспекты развития газовой промышленности Каршинского ТПК» (Qarshi NChM gaz sanoati rivojlanishining geografik jihatlari) mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqlaydi. Ilmiy pedagogik faoliyatida iqtisodiy geografiya va gaz sanoatiga oid yuzdan ortiq ilmiy ishlar nashr ettirgan. Huddi shu yili Sankt-Peterburg universitetida yana ikki nafar olim – B.N.Kalonov «Совершенствование территориальной организации хлопкопроизводственного комплекса Узбекистана» (O‘zbekiston paxta ishlab chiqarish majmuasini hududiy tashkil etish va uni takomillashtirish masalalari) va M.N.Erdonov «Пространственная организация системы расселения Сурхандарьинской области» (Surxondaryo viloyati aholi punktlari tizimining hududiy tashkil etilishi)

mavzusida geografiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishini himoya qiladi.

Ushbu yillari A.Ro‘ziyev ilmiy rahbarligida mintaqa iqtisodiyotining turli tarmoqlarini rivojlantirishga oid mavzularda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish jadallashadi. Natijada, H.Shosaidov (1995) Surxondaryo viloyati misolida «Территориальные системы производства и переработки винограда в Узбекистане» (O‘zbekistonda uzum yetishtirish va qayta ishlashning hududiy tizimlari), Q.A.Allanov (1996) «Территориальные системы производства и переработки хлопка Сурхандарьинской области» (Surxondaryo viloyatida paxta yetishtirish va uni qayta ishlashning hududiy tizimlari) mavzusida nomzodlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilishadi.

Keyingi yillarda ko‘pchilik ishlar profesor A.S.Soliyev ilmiy rahbarligida amalga oshiriladi. Jumladan, X.M.Abdunazarov (2005) «Surxondaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoatni hududiy tashkil etilishi», A.U.Sattorov (2009) «Surxondaryo viloyati qishloq aholi manzilgohlarining rivojlanish va joylashish xususiyatlari», P.R.Qurbonov (2012) «Janubiy O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayoni rivojlanishining omillari va iqtisodiy geografik asoslari» mavzusida nomzodlik hamda M.A.Fayzullayev (2017) «Janubiy O‘zbekistonning yangi o‘zlashtirilgan hududlarida qishloq xo‘jaligi rivojlanishining iqtisodiy geografik omillari» mavzusida PhD dissertatsiyasini himoya qilishadi.

Janubiy mintaqada 2022-yili ikki nafar olim – Sh.B.Qurbonov ilmiy rahbarligida Q.T.To‘rayev «O‘zbekistonda diniy turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-geografik asoslari» va M.I.Nazarov ilmiy rahbarligida X.X.Jumayev «Qashqadaryo viloyati turizm-rekreatsiya salohiyatini baholash va turizm infratuzilmasining hududiy tizimlarini takomillashtirish» mavzusida PhD dissertatsiya ishlarini yoqlaydi. 2024-yilda M.A.Fayzullayev tomonidan «O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi rivojlanishining iqtisodiy geografik xususiyatlari» mavzusida yozilgan dissertatsiya ishi fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga loyiq ko‘rildi.

Kelajakda mazkur mintaqada sanoat va qishloq xo‘jaligi geografiyasi, rekreatsiya va turizm, servis geografiyasi bilan bog‘liq ilmiy ishlarni kengaytirish imkoniyati mavjud. Qolaversa, mintaqaning uchta qo‘shni davlat bilan chegaradoshligini inobatga olgan holda, tashqi iqtisodiy aloqalar va chegara oldi savdosi bo‘yicha tadqiqotlarni amalga oshirish ahamiyatli hisoblanadi.

QUYI AMUDARYO MINTAQASI

Mazkur mintaqa mamlakatimizda hududi bo'yicha eng katta sanalgan Qoraqalpog'iston Respublikasi va undan deyarli 25 marta kichik bo'lgan Xorazm viloyatini o'z tarkibiga oladi. Shu bilan birga, bu hudud ekologik nuqtai nazardan olamshumul mazmun kasb etgan Orol dengiziga tutash hisoblanadi. Mintaqani iqtisodiy va ijtimoiy geografik o'rganishga *T.T.Tadjimov, Y.Q.Umarov, A.Ishchonov, I.R.Turdimambetov, G.A.Xodjayeva, G.A.Bekbulatova, G.B.Utepova, M.O.Hamroyev, D.R.Ro'zmetov, N.J.Yemberganov, M.O.Oteuliyev, O.O.Baltabayev, I.Sh.Atadjanov, S.A.Avezov, A.G.Abdullayev, A.K.Raximov, A.E.Matchanova, I.B.Gulimmatov, R.T.Xudayberganova, A.S.Joldasov* kabi olimlarning tadqiqotlari bag'ishlangan.

Mintaqani Toshkentda faoliyat olib borgan olim – R.S.Lobach 1949-yili «Факторы и перспективы хозяйственного освоения Устюртского плато» (Ustyurt platosini xo'jalik jihatdan o'zlashtirishning omillari va istiqbollari), 1963-yilda T.T.Tadjimov «Каракалпакская АССР (экономико-географическое описание)» (Qoraqalpog'iston ASSR (iqtisodiy geografik tavsif)), 1981-yilda M.Ishchanov «Экономико-географические проблемы развития орошаемого земледелия в низовьях Амударьи» (Amudaryoning quyi oqimida sug'orma dehqonchilikni rivojlantirishning iqtisodiy geografik muammolari) mavzusida nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilib, atroflicha o'rganishgan.

QuyI Amudaryo mintaqasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ilmi-fani haqida gap ketganda, Y.Q.Umarov haqida alohida to'xtalib o'tish lozim. Olimning aksariyat faoliyati mazkur mintaqa xo'jaligiga bag'ishlangan. Olim 1964-yilda «Современное состояние хозяйства Хорезмского оазиса и перспективы его развития» (Xorazm vohasi iqtisodiyotining hozirgi holati va uning rivojlanish istiqbollari) mavzusida nomzodlik va 2003-yilda «Проблемы совершенствования территориальной структуры производительных сил Республики Каракалпакстан» (Qoraqalpog'iston Respublikasi ishlab chiqarish kuchlarining hududiy tarkibini takomillashtirish muammolari) mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Professor A.S.Soliyev ilmiy rahbarligida I.R.Turdimambetov (2016) «Социально-экономические особенности улучшения нозогеографической ситуации Республики Каракалпакстан» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvafaqqiyatli yoqlaydi.

Shuningdek, professor A.S.Soliyev ilmiy rahbarligida Z.T.Abdalova (1995) «Социально-экономические условия развития городских поселений Нижнеамударьинского района» (Quyí Amudaryo rayoni shahar va shaharchalar rivojlanishining sotsial-iqtisodiy sharoitlari), professor O.B.Ata-Mirzayev ilmiy rahbarligida G.A.Xodjayeva (1998) «Геодемографическая ситуация и регулирование развития населения Каракалпакстана», Sh.A.Azimov ilmiy rahbarligida G.A.Bekbulatova (1998) Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida «Географические аспекты развития торгового обслуживания населения (Aholiga savdo xizmatlarini ko‘rsatishni rivojlantirishning geografik jihatlari) mavzusida yozgan nomzodlik dissertatsiyalarida bevosita Quyí Amudaryo mintaqasining ijtimoiy-iqtisodiy geografik masalalari yoritib berilgan. Mintaqa olimlaridan I.Sh.Atadjanov (2002) «Xorazm viloyati mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish muammolari» va G.B.Utepova «Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq joylarining demografik rivojlanishi va mehnat resurslari muammolari», D.R.Ro‘zmetov (2006) «O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining rivojlanishi va hududiy tarkibini takomillashtirish muammolari», M.O.Hamroyev (2009) «Xorazm viloyati ijtimoiy ekologiyasi va aholi salomatligining geografik xususiyatlari», S.A.Avezov (2010) «Xorazm viloyati qishloq xo‘jaligini hududiy tashkil etishda kartografik metoddan foydalanish», N.J.Yembergenov (2011) «Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisining o‘sishi va joylanishidagi o‘zgarishlar» mavzusidagi nomzodlik hamda A.G.Abdullayev (2017) Xorazm viloyati misolida «Oziq-ovqat sanoati shakllanishi va rivojlanishining iqtisodiy geografik muammolari», M.O.Oteuliyev (2022) Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida «Aholi turmush sifatining hududiy tafovutlari», O.O.Baltabayev (2022) «Qoraqalpog‘iston Respublikasi oykonimlarining ijtimoiy-geografik tahlili», A.E.Matchanova (2023) «Quyí Amudaryo iqtisodiy rayonida gastronomik turizmni rivojlantirishning ijtimoiy geografik jihatlari» mavzusidagi PhD dissertatsiyalarini himoya qilishgan.

Quyí Amudaryo mamlakatimiz markaziy hududlaridan ancha uzoq, olisda joylashgan, tabiati, ekologik va nozogeografik, demografik vaziyati o‘ziga xos. Bunday geoxususiyatlar turli yo‘nalishlarda majmualí ilmiy tadqi-qotlarni olib borishni taqozo etadi. Xususan, «Orol muammosi» bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar, tabiiy va mehnat resurslaridan foydalanish, landshaftshunoslik, transport va ijtimoiy infratuzilma tizimini yaratish, nozoekologiya kabi mavzularda

ilmiy ishlar olib borish zarur. Shu bilan birga, bunday katta hududda mintaqaviy geograflar uyushmasini (Farg‘ona vodiysidagi uyushmasiga o‘xshash) tashkil etish, fan doktorlari saflarini kengaytirish ham ahamiyatdan holi emas.

Mintaqada Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) ro‘yxatidagi «Science and Education in Karakalpakstan», «Ilm ha’ m ja’ miyet», «Qoraqalpog‘iston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari olimlarining ilmiy to‘plami», «Zamonaviy fan, ta’lim va tarbiyaning dolzarb muammolari» kabi ilmiy jurnallar muntazam nashr etiladi.

Hozirda Qoraqalpoq davlat universiteti huzurida PhD.03/31.10.2022.Gr.20.08 raqamli ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash faoliyat olib bormoqda.

Ma’lumki, geografiya fani hududiy rang-barangliklar, tengsizlik, ichki tafovutlar bilan qiziqadi. Ilmiy tadqiqotlar maqsadi esa bu tengsizliklarni mumkin qadar tenglashtirish (mutlaq holda bu aslo mumkin emas!), muvofiqlashtirishga qaratilgan. Respublikamiz geografiya ilmining geografiyasi ham xuddi shunga o‘xshash maqsadlarni, yagona, umumiy geomakon shakllanishi, hududlar o‘rtasida innovatsion integratsiya, hamkorlikni rivojlantirishni ko‘zlaydi. Bu makon ham o‘zining o‘shish qutb va markazlariga ega bo‘lishi kerak. Binobarin, poytaxt mintaqasining yetakchiligini saqlagan holda, qolgan mintaqalar (Buxoro, Navoiy, Jizzax, Sirdaryo) ilmiy salohiyatini ham kuchaytirish milliy geografiya maktabini shakllantirish va uning xalqaro miqyosda nufuzini oshirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

22.3-§. O‘zbekistonda shakllangan iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ilmiy maktablari

Ilm–fan taraqqiyoti tarixidan ma’lumki, har qanday fanning nufuzi va taraqqiyot darajasi, eng avvalo, uning zamonaviy yo‘nalishlari, ilmiy maktab va markazlarida fundamental tadqiqotlar olib borilishi va ularning ilmiy jamoatchilik tomonidan e’tirof etilishi hamda shu sohadagi yetakchi olim va mutaxassislarning faoliyat yuritishida namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda, mazkur fan bo‘yicha maxsus kafedra, laboratoriya va ilmiy tadqiqot institutlarining tashkil etilganligi ham katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, har qanday fanning rivojlanish jarayonida turfa xil ilmiy yo'nalishlar shakllangan va ushbu yo'nalishlar negizida turli ilmiy maktablar vujudga kelgan. Ilmiy maktab tushunchasiga adabiyotlarda turlicha ta'riflar berilganligini ko'rish mumkin.

«Ilmiy maktab» tushunchasi juda keng mazmun va ma'noga ega bo'lib, *umumilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan, fanda biror yangi ilmiy nazariya, g'oya va farazlarga tayangan holda aniq ilmiy maqsadlar yo'lida izlanish hamda tadqiqotlar olib boruvchi olim hamda mutaxassislarning o'zaro rasmiy va norasmiy ravishda birlashtirib, ilmiy faoliyat yurituvchi ijtimoiy-ijodiy uyushmasi*, deyish mumkin. Bu uyushmaning faoliyati zamon va makon bilan cheklanmaydi. U o'z asoschisi (yetakchisi) olg'a surib, samarali natijalarga erishgan yangi ilmiy uslub va metodlarga asoslangan holda ustoz-shogird, shogirdlar shogirdi shajarasi (geneologiya) rivoji ko'rinishida faoliyat yuritadi. Boshqacha qilib aytganda, o'z ilmiy maktabiga asos solgan olimlarning o'zlari, shogirdlari, shogirdlarining shogirdlari ma'lum ilmiy yo'nalishlar asosida faoliyat ko'rsatib, mazkur ilmiy maktabni mamlakat va dunyo miqyosida keng rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shib boradilar. Xullas, ilmiy maktabning hududiy chegarasi uning o'zidan boshlanib, bir va bir necha mamlakatlar, hatto, dunyo bo'ylab yoyilishi tabiiy bir holdir.

Ilmiy maktablarning shakllanishi, xususiyati, mohiyati va mazmuni bilan bevosita shug'ullangan olim, professor R.U.Rahimbekov ham bu borada bildirilgan bir qancha fikrlarni umumlashtirib, *ilmiy maktab – bu umume'tirof etilgan, fanning biror yo'nalishiga asos solgan, uni rivojlantirgan, boy ilmiy g'oyalarga ega bo'lgan, iqtidorli, taniqli olim rahbarligida muayyan yo'nalish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan, turli davrlarda shu yo'nalish doirasida izlanishlar olib borgan va uni davom ettirayotgan g'oyaviy hamfikir avlodlarning ijodiy uyushmasidir*, deb ta'rif bergan. Ilmiy maktablar o'zlarining ma'naviy an'analari, muammolar majmui, asosiy konsepsiyalari, o'ziga xos tadqiqot metod va yondashuvlari, ko'lami (mahalliy, hududiy, xalqaro), yo'nalishlarining xususiyati (kompleks, fanlararo, sohaviy), hajmi (shogirdlari va izdoshlari soni hamda ularning ilmiy mahsuloti hajmi), sifati (maktab namoyondalarining muvaffaqiyatlari darajasi) va boshqalar bo'yicha ajralib turadi.

Taniqli olim, professor G'.I.Muhamedov ilmiy maktablarning salohiyatini ko'rsatuvchi omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi:

- ilmiy maktab o'zida yaratilgan yangiliklar, ularning ilm-fan

va texnika, jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rnini va ahamiyatiga ko'ra, ilmiy jamoatchilik orasida va, hatto, millat hamda xalqaro miqyosda tan olinib, e'tibor qozonishi;

➤ ilmiy maktab (aniqrog'i, uning asoschisi va faollari) fanda biror o'ta muhim yo'nalishga asos solib, uni rivojlantirishi;

➤ ilmiy maktab o'z sohasidagi fan-texnika taraqqiyoti rivojini tezlashtirishga qodir bo'lgan uslubiy (metodologik) ilmiy-nazariy asoslar, g'oya va nazariyalar hamda ilmiy tadqiqiy metodlarni ishlab chiqib, ularni ilmiy hayot va amaliyotga tatbiq etgan bo'lishi;

➤ ilmiy maktab fanda yaratgan yangilik va kashfiyotlari hamda tengsiz yutuqlarining mazmunini to'la anglatuvchi o'z nomiga ega bo'lishi va asoschisining nomi qo'shib aytiladigan, masalan, «N.N.Baranskiy iqtisodiy geografik rayonlashtirish ilmiy maktabi», «Devid Xarvi geourbanistika ilmiy maktabi», «Yi-Fu Tuan topofiliya ilmiy maktabi», «Pol Krugman yangi iqtisodiy geografiya ilmiy maktabi» kabi nomlar bilan atalib, jamoatchilikka keng tanilishi;

➤ ilmiy maktab jamoalarining ilmiy mahsuli ko'plab monografiya, darslik va qo'llanmalar, maqolalarning nufuzli jurnallarda nashr ettirilib, amaliyotga tatbiq etilishi. Xususan, hozirgi davrda Scopus, Web of Science, Elsevier kabi xalqaro tan olinadigan platformalarida indeksatsiyalangan xorijiy jurnallarda ilmiy ishlar chop ettirish;

➤ ilmiy maktab faollari respublika va dunyo miqyosida o'z yo'nalishlari bo'yicha dolzarb mavzularda ilmiy-nazariy va amaliy anjumanlarni tashkil etib turishi, boshqalar tashabbusi bilan bo'ladigan shunday anjumanlarda faol qatnashib, qo'lga kiritgan yutuqlaridan jamoatchilikni xabardor qilib turishi;

➤ ilmiy maktab ustoz-shogird, shogirdlar shogirdlari kabi bir va bir necha avlodlar shajarasidan iborat ma'lum bir davriylik yoki uzluksiz davomiylik an'anasiga ega bo'lishi va boshqa ayrim jihatlarga ega bo'lishi lozim.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib shuni keltirish mumkinki, O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi bevosita poytaxt va yirik shaharlardagi ilmiy markazlar, oliy ta'lim muassasalaridagi geografiya kafedralari faoliyati bilan bevosita bog'liq. Jumladan, hozirgi kunda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani bo'yicha mahalliy olimlar tomonidan asos solinib, respublikamizda shakllangan va Markaziy Osiyo davlatlari, MDH

davlatlari darajasida e'tirof etilgan quyidagi ilmiy maktablarni ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Agrotarmoqlar geografiyasi ilmiy maktabi – *Z.M.Akramov, A.N.Ro'ziyev, Q.Abirqulov, O.Abdullayev, A.M.Sodiqov, Sh.A.Azimov va ularning izdoshlari;*

2. Kompleks iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ilmiy maktabi – *A.S.Soliyev va uning izdoshlari (Sh.B.Imomov, Y.I.Ahmadaliyev, Z.N.Tojiyeva, N.Q.Komilova, I.R.Turdimambetov, M.Mamajonov, M.I.Nazarov, Z.T.Abdalova, N.I.Safarova, Sh.B.Qurbonov);*

3. Aholi geografiyasi va geodemografiya ilmiy maktabi – *M.Q.Qoraxonov, O.B.Ata-Mirzayev, A.A.Qayumov, X.Salimov, M.R.Bo'riyeva, Z.N.Tojiyeva, R.B.Qodirov va ularning izdoshlari;*

4. Geourbanistika ilmiy maktabi – *T.I.Raimov, O.B.Ata-Mirzayev va ularning izdoshlari;*

5. Iqtisodiy geografik kartografiya ilmiy maktabi – *T.M.Mirzaliyev, L.X.Gulyamova va ularning izdoshlari;*

6. Ijtimoiy geografiya ilmiy maktabi – *Y.I.Ahmadaliyev, M.I.Nazarov, Sh.B.Qurbonov va ularning izdoshlari;*

7. Tibbiyot geografiyasi va nozogeografiya ilmiy maktabi – *N.Q.Komilova, I.R.Turdimambetov va ularning izdoshlari.*

Mazkur ilmiy maktablardan yetishib chiqqan olimlar respublikamizning turli mintaqalarida iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining rivojiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Ushbu ilmiy maktablar negizida fanning turli yo'nalishlarida tadqiqot olib borayotgan olimlar jamoasini qamrab olgan ilmiy markazlar shakllanmoqda. Qolaversa, ilmiy darajalar beruvchi muassasalar soni ortib bormoqda. Chunonchi, O'zMU, SamDU va QDU kabi oliygohlar huzurida geografiyaning boshqa ixtisosliklari bilan bir qatorda, 11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi bo'yicha Ilmiy kengashlar faoliyat olib bormoqda.

Shunday qilib, respublikamizda geografiya ilmi o'zining uzoq tarixiga ega bo'lib, uning hozirgi hududiy tizimi, mamlakatimizning tabiiy va iqtisodiy jihatdan ichki tafovutlarga boyligiga muvofiq holda tashkil topgan. Boshqacha qilib aytganda, geografiya ilmining geografiyasi ham o'ziga xos; u qaysi bir joylarda yaxshi rivojlangan, yuqori mujassamlashuv va ixtisoslashuv darajasiga erishgan, qaysi bir hududlarda esa ancha zaif va tor yo'nalishlarga moslashgan. Ilmiy salohiyat turlicha, yoziladigan maqolalarning dolzarbligi, ilmiy-

tahliliy, nazariy jihatdan chuqurligi ham mintaqaviy xususiyatlarga ega.

Shu o'rinda qayd etish joizki, respublikamizda geografiya ilmining fundamental yo'nalishlari, jumladan, sanoatni hududiy tashkil etish, qurilish va binokorlik industriyasi, agrogeografik klasterlar, siyosiy geografiya va geosiyosat, iqtisodiy geografiyani raqamlashtirish bilan bog'liq tadqiqotlar orqada qolib ketmoqda. Ayni vaqtda, respublika geografiya ilmi ko'proq sotsiallasib, ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan tadqiqotlar keng quloqch yoyib bormoqda.

Savol va topshiriqlar:

- 1. O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning shakllanishi va rivojlanishini nechta bosqichga ajratish mumkin?*
- 2. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy geografik tadqiqotlar qanday hududiy va sohaviy tarkibga ega?*
- 3. Respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya bo'yicha qanday ilmiy maktablar shakllangan?*
- 4. Professor A.S.Soliev yaratgan ilmiy maktab qanday hududiy tarkibga ega?*
- 5. Zamonaviy sharoitda geografiyaning qaysi tarmoqlariga oid tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyatga ega?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев О. Иқтисодий география ва экология [Ўқув қўлланма]. – Наманган, 2006. – 520 б.
2. Агафошин М.М., Горохов С.А., Лобжанидзе А.А., Лопатников Д.Л., Толкунова С.Г. Общая экономическая и социальная география [Учебное пособие]. – М.: Юнити-Дана, 2020. – 127 с.
3. Ахмадалиев Ю.И. Ер ресурсларидан фойдаланиш геоэкологияси [Монография]. – Т: Fan va texnologiya, 2014. – 340 б.
4. Баранский Н.Н. Научные принципы географии: Избр. тр. – М.: Мысль, 1980. – 239 с.
5. Горохов С.А. Общая экономическая, социальная и политическая география [Учебное пособие]. – М.: Юнити, 2018. – 192 с.
6. Голубчик М.М., Макара С.В., Носонов А.М., Файбусович Э.Л. Социально-экономическая география [Учебник]. – М.: Юрайт, 2024. – 517 с.
7. Жумаев Т.Ж. Бизнинг улуғвор тоғларимиз. Янги Ўзбекистон тоғ зонасининг барқарор ривожланиши: Назария ва амалиёт [Монография]. – Т.: Innovatsion rivojlanish. – 2021, 700 б.
8. Жумаханов Ш.З., Тошпўлатов А.М. Анклавлар назарияси: географик ва геосиёсий таҳлил [Монография]. – Наманган: Усмон Носир, 2022. – 146 б.
9. Колосовский Н.Н. Избранные труды / Редкол-я: Н.Н.Казанский и др. – Смоленск, Ойкумена, 2006. – 336 с.
10. Назаров М.И., Тожиева З.Н. Ижтимоий география [Ўқув қўлланма]. – Т.: Университет, 2003. – 70 б.
11. Окунев И.Ю. Политическая география [Учебное пособие]. – М.: Аспект Пресс, 2019. – 512 с.
12. Равино А.В. Оценка природных ресурсов [Учебно-методическое пособие]. – Минск: БГТУ, 2015. – 135 с.
13. Раззоков А., Тошматов Ш., Ўрмонов Н. Иқтисодий таълимотлар тарихи [Дарслик]. – Т.: Молия, 2002. – 492 б.
14. Родионова И.А. Экономическая и социальная география мира. – М.: Юрайт, 2012. – 688 с.
15. Солиев А.С. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёти [Монография]. – Т.: Камалак, 2013. – 184 б.

16. Солиев А.С. Танланган асарлар. – Т.: Mumtoz so‘z, 2018. – 380 б.
17. Солиев А.С., Махамадалиев Р.Й. Иқтисодий география асослари [Ўқув қўлланма]. – Т.: Университет, 1996. – 70 б.
18. Солиев А.С., Махамадалиев Р.Й. Иқтисодий ва ижтимоий география асослари [Дарслик]. – Т.: Университет, 2005. – 124 б.
19. Тюнен И.Г. Изолированное государство. – М.: Экономическая жизнь, 1926. – 322 с.
20. Федорко В.Н. Территориальная структура природопользования в Узбекистане: теоретико-методологические и практические аспекты исследования [Монография]. – Т.: “Zebo Print”, 2022. – 288 с.
21. Федорко В.Н., Қурбонов Ш.Б., Назаров М.И. Ўзбекистон Миллий университетида иқтисодий ва ижтимоий география. – Т., 2019. – 32 б.
22. Федорко В.Н., Қурбонов Ш.Б. Ўзбекистон География жамияти ахбороти: Мақолаларнинг хронологик, системали ва алифбо кўрсаткичи (1–55-жилд, 1955-2019 йй.). – Т., 2019. – 248 б.
23. Янчук С.Л. Экономическая и социальная география [Учебное пособие]. – Т.: Ijod-Press, 2019.
24. Қодиров А. География тарихи [Ўқув қўлланма]. – Бухоро, 2021. – 112 б.
25. Egamberdiyeva U.T. Sanoat geografiyasi [Darslik]. – Т.: Fan va texnologiya, 2020. – 240 б.
26. Haggett P. Geographie: Eine Globale Synthese. – Stuttgart, 2004.
27. Hildebrant B., Max L., Keller K., Neumann R. Human geography, Hawtorne. – California, The USA, 2021. – P. 848.
28. Isayev A.A. O‘zbekiston transporti rivojlanishining iqtisodiy geografik jihatlari [Monografiya]. – Andijon: Re-Halth, 2023. – 106 б.
29. Jumaxanov Sh.Z., Toshpo‘latov A.M. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya: masalalar to‘plami [O‘quv qo‘llanma]. – Namangan: Usmon Nosir, 2022. – 161 б.
30. Komilova N.Q, Jumaxanov Sh.Z, Mirzaaxmedov X.S., Toshpo‘latov A.M. Sotsial va madaniy geografiya [Darslik]. – Т.: Noshir, 2019. – 260 б.
31. Matthew Z., Martin D., Yuko A., Anthony T. New Digital Geographies: Information, Communication and Place / Geography and Technology. – Kluwer, Netherlands, 2004. – P. 176.

32. Qurbonov Sh.B., Fedorko V.N. O‘zbekiston geografiyasi: O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi [Darslik]. – T.: Universitet, 2023. – 404 b.
33. Sawyer Ch. Human geography crash course. – Kentucky, The USA: Green Edition, 2012. – P. 240.
34. Soliyev A.S., Komilova N.K., Yanchuk S.L., Jumaxanov Sh.Z., Rajabov F.T. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya [Darslik]. – T.: Noshir, 2019. – 512 b.
35. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Shaharlar geografiyasi [O‘quv qo‘llanma]. – T.: Universitet. 2018. – 190 b.
36. Tojiyeva Z.N. Aholi geografiyasi [Darslik]. – T.: Noshir, 2019. – 184 b.
37. Uralov A.S., Adilova L.A. Landshaft arxitekturasi [Darslik]. – T.: Cho‘lpon, 2014. – 384 b.
38. O‘zbekiston milliy atlas. II jild / Mas’ul muharrir: A.Abduvaxitov. – T.: «Kartografiya» ilmiy-ishlab chiqarish davlat korxonasi, 2020. – 280 b.

MUNDARIJA

| | |
|---|------------|
| Kirish | 3 |
| 1-bob. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga kirish | 5 |
| 1.1-§. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining obykti va predmeti | 5 |
| 1.2-§. Fanning asosiy tamoyillari | 7 |
| 1.3-§. Raqamlashgan davrda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya | 16 |
| 2-bob. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni | 17 |
| 2.1-§. Fanning asosiy maqsadi va vazifalari | 17 |
| 2.2-§. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi | 18 |
| 2.3-§. Fanning zamonaviy muammolari..... | 20 |
| 3-bob. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining rivojlanish tarixi..... | 27 |
| 3.1-§. Iqtisodiy geografik bilimlarning fan sifatida shakllanishi | 27 |
| 3.2-§. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani shakllanishining uch asosiy manbai va predmetiga uch xil yondashuv | 32 |
| 3.3-§. Yangi iqtisodiy-ijtimoiy geografik fanlar va geografiya jamiyatlari ... | 37 |
| 4-bob. Fanning tadqiqot usullari | 45 |
| 4.1-§. Hudud – geografik tadqiqot obykti sifatida | 45 |
| 4.2-§. Umumgeografik metodlar | 47 |
| 4.3-§. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga xizmat qiluvchi metodlar | 55 |
| 4.4-§. Fanlararo integrativ metodlar..... | 61 |
| 5-bob. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning klassik nazariyalari .. | 69 |
| 5.1-§. Klassik nazariyalar vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari | 69 |
| 5.2-§. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning ilk ta’limotlari: merkantilizmdan fritredizmga | 71 |
| 5.3-§. Qishloq xo‘jaligini hududiy tashkil etishning klassik nazariyalari | 78 |
| 5.4-§. Sanoatni hududiy tashkil etishning klassik nazariyalari | 82 |
| 5.5-§. Servis sohalarini hududiy tashkil etishning klassik nazariyalari | 90 |
| 6-bob. Iqtisodiy geografiyaning asosiy ustun tushunchalari | 99 |
| 6.1-§. Iqtisodiy geografik o‘rin | 99 |
| 6.2-§. Hududiy mehnat taqsimoti | 107 |
| 6.3-§. Hududiy ishlab chiqarish majmualari | 112 |
| 6.4-§. Iqtisodiy rayonlashtirish | 121 |
| 7-bob. Ishlab chiqarishning ijtimoiy va hududiy tashkil etish shakllari..... | 127 |
| 7.1-§. Iqtisodiy tamoyillar: qonun va qonuniyatlar haqida tushuncha | 127 |
| 7.2-§. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari | 131 |
| 7.3-§. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish shakllari | 141 |
| 8-bob. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga ta’sir etuvchi omillar..... | 144 |
| 8.1-§. Tabiiy geografik omillar | 144 |
| 8.2-§. Iqtisodiy geografik omillar | 149 |
| 8.3-§. Ijtimoiy geografik omillar | 157 |
| 8.4-§. Ekologik omilning o‘rni va ahamiyati | 160 |

| | |
|--|------------|
| 9-bob. Tabiiy resurslar geografiyasi | 162 |
| 9.1-§. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning iqtisodiyotdagi ahamiyati | 162 |
| 9.2-§. Tabiiy resurslarning asosiy turlari va klassifikatsiyasi | 165 |
| 9.3-§. Tabiiy resurslarni iqtisodiy baholash | 169 |
| 10-bob. Aholi – iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning obykti sifatida | 174 |
| 10.1-§. Aholining iqtisodiy-ijtimoiy geografik fanlar tizimida o‘rganilishi | 174 |
| 10.2-§. Aholi tarkibi va demografik ko‘rsatkichlar | 176 |
| 10.3-§. Demografik siyosat va uning mintaqaviy ko‘rinishlari | 181 |
| 10.4-§. Mehnat resurslari – ishlab chiqarish kuchlarini tashkil etish asosi sifatida | 185 |
| 11-bob. Global migratsion jarayonlar | 188 |
| 11.1-§. Aholi migratsiyasining shakllanish sabablari va asosiy turlari | 188 |
| 11.2-§. Migratsiyaning demografik vaziyatga ta’siri..... | 191 |
| 11.3-§. Zamonaviy migratsiya siyosatining asosiy muammolari..... | 204 |
| 12-bob. Geourbanistika | 208 |
| 12.1-§. Shaharlarni iqtisodiy geografik o‘rganish masalalari | 208 |
| 12.2-§. Shaharlarning genetik va funksional tiplari | 214 |
| 12.3-§. Urbanizatsiya jarayoni va uning ko‘rinishlari | 221 |
| 13-bob. Qurilish industriyasi va landshaft arxitekturasi | 229 |
| 13.1-§. Qurilish industriyasi va uning tashkiliy shakllari | 229 |
| 13.2-§. Binokorlik elementlarini joylashtirishga ta’sir etuvchi omillar | 233 |
| 13.3-§. Qurilishning tarkibiy tuzilishi | 238 |
| 14-bob. Sanoat geografiyasi | 243 |
| 14.1-§. Sanoat – milliy iqtisodiyotning lokomotiv tarmog‘i sifatida | 243 |
| 14.2-§. Sanoatni joylashtirishga ta’sir etuvchi omillar | 245 |
| 14.3-§. Sanoatning hududiy va tarmoq tarkibi | 247 |
| 14.4-§. Sanoat va atrof-muhit muammosi | 255 |
| 15-bob. Qishloq xo‘jaligi geografiyasi | 257 |
| 15.1-§. Qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlari | 257 |
| 15.2-§. Tarmoq tarkibidagi inqilobiy o‘zgarishlar | 258 |
| 15.3-§. Qishloq xo‘jaligining tarmoq va hududiy tarkibi | 265 |
| 15.4-§. Qishloq xo‘jaligi va ekologik muammolar | 270 |
| 16-bob. Transport geografiyasi | 272 |
| 16.1-§. Transport – milliy iqtisodiyotning mustaqil tarmog‘i sifatida..... | 272 |
| 16.2-§. Transport turlarini joylashtirishga ta’sir etuvchi omillar | 280 |
| 16.3-§. Transportning asosiy ko‘rsatkichlarini baholash..... | 282 |
| 16.4-§. Transport va atrof-muhit muammosi | 286 |
| 17-bob. Tashqi iqtisodiy aloqalar | 289 |
| 17.1-§. Tashqi iqtisodiy aloqalarning nazariy asoslari va geografik jihatlarini | 289 |
| 17.2-§. Tashqi iqtisodiy aloqalarning turlari | 293 |
| 17.3-§. Xalqaro iqtisodiy integratsiya | 297 |

| | |
|---|------------|
| 18-bob. Servis geografiyasi | 302 |
| 18.1-§. Servis sohalarini hududiy tashkil etish xususiyatlari | 302 |
| 18.2-§. Tarmoq tarkibi va tipologiyasi | 310 |
| 18.3-§. Servis sohalarining makon va zamondagi o‘ziga xos ko‘rinishlari . | 314 |
| 19-bob. Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot | 316 |
| 19.1-§. Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyotning o‘xshash va farqli jihatlar..... | 316 |
| 19.2-§. Mintaqaviy iqtisodiyot va uning amaliy ahamiyati | 322 |
| 19.3-§. Tog‘li hududlar – mintaqaviy iqtisodiyotning obykti sifatida | 323 |
| 20-bob. Siyosiy geografiya va mintaqaviy siyosat..... | 330 |
| 20.1-§. Mintaqaviy siyosat va siyosiy geografiyaning o‘xshash va farqli jihatlar..... | 330 |
| 20.2-§. Mintaqaviy siyosatning asosiy maqsad va vazifalari..... | 334 |
| 20.3-§. Anklav hududlar – mintaqaviy siyosat nigohida | 337 |
| 21-bob. Iqtisodiy geografiya va ekologiya | 345 |
| 21.1-§. Iqtisodiy geografiyaning ekologiyalashuvi | 345 |
| 21.2-§. Sanoat majmualarining ekologik tavsifi | 347 |
| 21.3-§. Qishloq xo‘jaligi va transportning ekologik jihatlar | 354 |
| 21.4-§. Ekologik o‘lchamlashtirish va ruxsat etilgan me‘yorlar | 355 |
| 22-bob. O‘zbekistonda Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining rivojlanishi | 361 |
| 22.1-§. O‘zbekistonda fanning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari | 361 |
| 22.2-§. Mamlakatda iqtisodiy-ijtimoiy geografik tadqiqotlarning hududiy tarkibi va asosiy yo‘nalishlari | 374 |
| 22.3-§. O‘zbekistonda shakllangan iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ilmiy maktablari | 391 |
| Foydalanilgan adabiyotlar | 396 |

ОГЛАВЛЕНИЕ

| | |
|---|------------|
| Введение | 3 |
| Глава 1. Введение в экономическую и социальную географию | 5 |
| 1.1-§. Объект и предмет экономической и социальной географии | 5 |
| 1.2-§. Основные принципы науки..... | 7 |
| 1.3-§. Экономическая и социальная география в эпоху цифровых технологий..... | 16 |
| Глава 2. Роль экономической и социальной географии в системе наук . | 17 |
| 2.1-§. Основные цели и задачи науки..... | 17 |
| 2.2-§. Связь экономической и социальной географии с другими науками..... | 18 |
| 2.3-§. Современные проблемы науки | 20 |
| Глава 3. История развития экономической и социальной географии..... | 27 |
| 3.1-§. Формирование экономико-географических знаний как науки | 27 |
| 3.2-§. Три различных подхода к трем основным источникам и предметам формирования науки экономической и социальной географии | 32 |
| 3.3-§. Новые экономико-социально географические науки и географические общества..... | 37 |
| Глава 4. Методы исследования науки..... | 45 |
| 4.1-§. Территория – как объект географического исследования | 45 |
| 4.2-§. Общегеографические методы | 47 |
| 4.3-§. Методы, обслуживающие экономическую и социальную географию..... | 55 |
| 4.4-§. Междисциплинарные интегративные методы..... | 61 |
| Глава 5. Классические теории размещения производительных сил | 69 |
| 5.1-§. Исторические предпосылки возникновения классических теорий | 69 |
| 5.2-§. Ранние учения о размещении производительных сил: от меркантилизма к фритредизму | 71 |
| 5.3-§. Классические теории территориальной организации сельского хозяйства | 78 |
| 5.4-§. Классические теории территориальной организации промышленности | 82 |
| 5.5-§. Классические теории территориальной организации сферы обслуживания..... | 90 |
| Глава 6. Основные понятия экономической географии | 99 |
| 6.1-§. Экономико-географическое положение..... | 99 |
| 6.2-§. Территориальное разделение труда..... | 107 |
| 6.3-§. Территориальные производственные комплексы | 112 |
| 6.4-§. Экономическое районирование | 121 |
| Глава 7. Территориальная организация общественного производства | 127 |
| 7.1-§. Экономические принципы: понятие о законах и закономерностях | 127 |

| | |
|---|------------|
| 7.2-§. Формы общественной организации производства | 131 |
| 7.3-§. Формы территориальной организации производства | 141 |
| Глава 8. Факторы, влияющие на размещение производительных сил | 144 |
| 8.1-§. Природно-географические факторы | 144 |
| 8.2-§. Экономико-географические факторы..... | 149 |
| 8.3-§. Социально-географические факторы | 157 |
| 8.4-§. Роль и значение экологического фактора..... | 160 |
| Глава 9. География природных ресурсов | 162 |
| 9.1-§. Значение природных условий и природных ресурсов в экономике..... | 162 |
| 9.2-§. Основные виды и классификация природных ресурсов | 165 |
| 9.3-§. Экономическая оценка природных ресурсов | 169 |
| Глава 10. Население – как объект экономической и социальной географии..... | 174 |
| 10.1-§. Изучение населения в системе экономических и социальных географических наук | 174 |
| 10.2-§. Состав населения и демографические показатели | 176 |
| 10.3-§. Демографическая политика и ее региональные проявления | 181 |
| 10.4-§. Трудовые ресурсы – как основа организации производительных сил..... | 185 |
| Глава 11. Глобальные миграционные процессы..... | 188 |
| 11.1-§. Причины и основные виды формирования миграции населения..... | 188 |
| 11.2-§. Влияние миграции на демографическую ситуацию | 191 |
| 11.3-§. Основные проблемы современной миграционной политики ... | 204 |
| Глава 12. Геоурбанистика | 208 |
| 12.1-§. Вопросы экономико-географического изучения городов..... | 208 |
| 12.2-§. Генетические и функциональные типы городов. | 214 |
| 12.3-§. Процесс урбанизации и его проявления | 221 |
| Глава 13. География строительство и ландшафтная архитектура | 229 |
| 13.1-§. Строительная отрасль и ее организационные формы | 229 |
| 13.2-§. Факторы, влияющие на размещение элементов строительство | 233 |
| 13.3-§. Структура строительной индустрии..... | 238 |
| Глава 14. География промышленности | 243 |
| 14.1-§. Промышленность – как локомотивная отрасль национального экономики..... | 243 |
| 14.2-§. Факторы, влияющие на размещение промышленности..... | 245 |
| 14.3-§. Территориальная и отраслевая структура промышленности | 247 |
| 14.4-§. Промышленность и экологическая проблема..... | 255 |
| Глава 15. География сельского хозяйства..... | 257 |
| 15.1-§. Особенности сельского хозяйства | 257 |
| 15.2-§. Революционные изменения в структуре отрасли | 258 |

| | |
|---|------------|
| 15.3-§. Отраслевая и территориальная структура сельского хозяйства | 265 |
| 15.4-§. Сельское хозяйство и экологические проблемы | 270 |
| Глава 16. География транспорта..... | 272 |
| 16.1-§. Транспорт – как самостоятельная отрасль народного хозяйства | 272 |
| 16.2-§. Факторы, влияющие на размещение видов транспорта..... | 280 |
| 16.3-§. Оценка основных показателей транспорта | 282 |
| 16.4-§. Транспорт и экологические проблемы..... | 286 |
| Глава 17. Внешнеэкономические связи | 289 |
| 17.1-§. Теоретические основы и географические аспекты внешне-экономических связей | 289 |
| 17.2-§. Виды внешнеэкономических связей | 293 |
| 17.3-§. Международная экономическая интеграция | 297 |
| Глава 18. География сервиса | 302 |
| 18.1-§. Особенности территориальной организации сферы обслуживания | 302 |
| 18.2-§. Состав и типология отрасли сервиса..... | 310 |
| 18.3-§. Отличительные проявления сфер сервиса в пространстве и времени..... | 314 |
| Глава 19. Экономическая география и региональная экономика | 316 |
| 19.1-§. Сходства и различия экономической географии и региональной экономики..... | 316 |
| 19.2-§. Региональная экономика и ее практическое значение | 322 |
| 19.3-§. Горные территории как объект региональной экономики..... | 323 |
| Глава 20. Политическая география и региональная политика..... | 330 |
| 20.1-§. Сходства и различия региональной политики и политической географии | 330 |
| 20.2-§. Основные цели и задачи региональной политики..... | 334 |
| 20.3-§. Анклавные территории – с точки зрения региональной политики..... | 337 |
| Глава 21. Экономическая география и экология | 345 |
| 21.1-§. Экологизация экономической географии | 345 |
| 21.2-§. Экологическое описание промышленных комплексов..... | 347 |
| 21.3-§. Экологические аспекты сельского хозяйства и транспорта | 354 |
| 21.4-§. Экологические размеры и допустимые нормы..... | 355 |
| Глава 22. Развитие экономической и социальной географии в Узбекистане | 361 |
| 22.1-§. Этапы становления и развития науки в Узбекистане..... | 361 |
| 22.2-§. Территориальный состав и основные направления экономико и социально географических исследований в стране..... | 374 |
| 22.3-§. Научные школы экономической и социальной географии, сформировавшиеся в Узбекистане | 391 |
| Использованная литература | 396 |

CONTENTS

| | |
|--|------------|
| Foreword | 3 |
| Chapter 1. Introduction to Economic and social geography | 5 |
| 1.1-§. Object and subject of Economic and social geography | 5 |
| 1.2-§. Basic principles of science | 7 |
| 1.3-§. Economic and social geography in the digital age | 16 |
| Chapter 2. The role of Economic and social geography in the system of sciences | 17 |
| 2.1-§. Main goals and objectives of science | 17 |
| 2.2-§. The relationship of economic and social geography with other sciences | 18 |
| 2.3-§. Modern problems of science | 20 |
| Chapter 3. History of the development of Economic and social geography .. | 27 |
| 3.1-§. Formation of Economic and geographical knowledge as a science | 27 |
| 3.2-§. Three different approaches to the three main sources and subjects of the formation of Economic and social geography | 32 |
| 3.3-§. New economic – social – geographical sciences and Geographical societies | 37 |
| Chapter 4. Research methods of science | 45 |
| 4.1-§. Territory – as an object of geographical research | 45 |
| 4.2-§. General geographical methods | 47 |
| 4.3-§. Methods serving economic and social geography | 55 |
| 4.4-§. Interdisciplinary integrative methods | 61 |
| Chapter 5. Classical theories of the location of productive forces | 69 |
| 5.1-§. Historical background for the emergence of classical theories | 69 |
| 5.2-§. Early teachings on the distribution of productive forces: from mercantilism to free trade | 71 |
| 5.3-§. Classic theories of territorial organization of agriculture | 78 |
| 5.4-§. Classic theories of territorial organization of industry | 82 |
| 5.5-§. Classic theories of territorial organization of the service sector | 90 |
| Chapter 6. Basic concepts of Economic geography | 99 |
| 6.1-§. Economic-geographical location | 99 |
| 6.2-§. Territorial division of labour | 107 |
| 6.3-§. Territorial-production complexes | 112 |
| 6.4-§. Economic zoning | 121 |
| Chapter 7. Territorial organization of social production | 127 |
| 7.1-§. Economic principles: the concept of laws and patterns | 127 |
| 7.2-§. Forms of social organization of production | 131 |
| 7.3-§. Forms of territorial organization of production | 141 |
| Chapter 8. Factors influencing the location of productive forces | 144 |
| 8.1-§. Natural-geographical factors | 144 |
| 8.2-§. Economic-geographical factors | 149 |

| | |
|--|------------|
| 8.3-§. Socio-geographical factors | 157 |
| 8.4-§. The role and significance of the ecological factor..... | 160 |
| Chapter 9. Geography of natural resources..... | 162 |
| 9.1-§. The importance of natural conditions and natural resources in the economy..... | 162 |
| 9.2-§. Main types and classification of natural resources..... | 165 |
| 9.3-§. Economic valuation of natural resources | 169 |
| Chapter 10. Population – as an object of Economic and social geography... 174 | 174 |
| 10.1-§. Study of population in the system of economic and social geographical sciences | 174 |
| 10.2-§. Population composition and demographic indicators | 176 |
| 10.3-§. Demographic policy and its regional manifestations | 181 |
| 10.4-§. Labour resources – as the basis for organizing productive forces .. | 185 |
| Chapter 11. Global migration processes | 188 |
| 11.1-§. Causes and main types of formation of population migration | 188 |
| 11.2-§. The impact of migration on the demographic situation | 191 |
| 11.3-§. The main problems of modern migration policy | 204 |
| Chapter 12. Geourbanistics | 208 |
| 12.1-§. Issues of economic-geographical study of cities | 208 |
| 12.2-§. Genetic and functional types of cities | 214 |
| 12.3-§. The process of urbanization and its manifestations | 221 |
| Chapter 13. Geography construction and landscape architecture | 229 |
| 13.1-§. Construction industry and its organizational forms | 229 |
| 13.2-§. Factors influencing the placement of construction elements | 233 |
| 13.3-§. Structure of the construction industry | 238 |
| Chapter 14. Geography of industry | 243 |
| 14.1-§. Industry – as a locomotive sector of the national economy..... | 243 |
| 14.2-§. Factors influencing the location of industry..... | 245 |
| 14.3-§. Territorial and sectoral structure of industry..... | 247 |
| 14.4-§. Industry and environmental problem | 255 |
| Chapter 15. Geography of agriculture | 257 |
| 15.1-§. Features of agriculture | 257 |
| 15.2-§. Revolutionary changes in industry structure | 258 |
| 15.3-§. Sectoral and territorial structure of agriculture | 265 |
| 15.4-§. Agriculture and environmental issues | 270 |
| Chapter 16. Transport geography | 272 |
| 16.1-§. Transport – as an independent sector of the national economy | 272 |
| 16.2-§. Factors influencing the placement of modes of transport | 280 |
| 16.3-§. Evaluation of the main indicators of transport | 282 |
| 16.4-§. Transport and environmental issues | 286 |
| Chapter 17. International economic relations | 289 |
| 17.1-§. Theoretical foundations and geographical aspects of international economic relations | 289 |
| 17.2-§. Types of foreign economic relations | 293 |

| | |
|---|------------|
| 17.3-§. International economic integration | 297 |
| Chapter 18. Geography of service | 302 |
| 18.1-§. Features of the territorial organization of the service sector | 302 |
| 18.2-§. Composition and typology of the service industry | 310 |
| 18.3-§. Distinctive manifestations of service spheres in space and time | 314 |
| Chapter 19. Economic geography and regional economics | 316 |
| 19.1-§. Similarities and differences between Economic geography and Regional economics | 316 |
| 19.2-§. Regional economics and its practical significance | 322 |
| 19.3-§. Mountain territories – as an object of Regional economy | 323 |
| Chapter 20. Political geography and Regional politics | 330 |
| 20.1-§. Similarities and differences between Regional politics and Political geography | 330 |
| 20.2-§. Main goals and objectives of Regional policy | 334 |
| 20.3-§. Enclave areas – from the point of view of Regional policy..... | 337 |
| Chapter 21. Economic geography and Ecology | 345 |
| 21.1-§. Greening Economic geography | 345 |
| 21.2-§. Environmental description of industrial complexes | 347 |
| 21.3-§. Environmental aspects of agriculture and transport | 354 |
| 21.4-§. Environmental dimensions and permissible standards | 355 |
| Chapter 22. Development of Economic and social geography in Uzbekistan | 361 |
| 22.1-§. Stages of formation and development of science in Uzbekistan | 361 |
| 22.2-§. Territorial composition and main directions of economics and socio-geographical research in the country | 374 |
| 22.3-§. Scientific schools of Economic and social geography formed in Uzbekistan | 391 |
| References | 396 |

Soliyev Abdusami Soliyevich

Jumaxanov Shavkatjon Zairjanovich
Toshpo‘latov Abduqodir Maxammadjon o‘g‘li

IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYA

(darslik)

Mas‘ul muharrir:

Tojiyeva Z.N.

Texnik muharrir:

Turdaliyev I.E.

Dizayner:

Muhammad_Rizo

0019



«MASHRAB» nashriyoti,
160108 Namangan shahri, Navoiy ko‘chasi, 36-uy.

Bosishga 14.09.2024-yilda ruxsat etildi. Bichimi: 60x84 ¹/₁₆.
“Times New Roman” garniturasida glossy photo paper qog‘ozga bosildi.
Hajmi 25,5 bosma taboq. Adadi 500 nusxa.

Namangan shahar Hamroh ko‘chasi, 71^A-uy.
«Yashin sanoat» bosmaxonasida chop etildi.



ISBN: 978-9910-662-31-7



9 789910 662317

IQTISODIY VA IJTIMOYIY GEOGRAFIYA